

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

A.BURXANOV, K.RAXMATOV

**MINTAQAVIY
IQTISODIYOT
O`QUV QO`LLANMA**

5230100 - iqtisodiyot

GULISTON-2020

UDK:

KBK:

ISBN

Mintaqaviy iqtisodiyot: oliy o`quv yurtlari bakalavr 5230100 – iqtisodiyot yo`nalishi, magistratura 5A230100 iqtisodiyot yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma. /A. Burxanov, K. Raxmatov.

O`quv qo`llanmada zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish muammolari bo`lgan ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillari hududiy jihatdan tadqiq etiladi, mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda hududlar iqtisodiyoti va hududlararo iqtisodiy aloqalar, bundan tashqari hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish masalalari bayon etilgan.

Taqrizchilar:

Yakubov I.A.- iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Sattorqulov O.T.- iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

«...Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi - bizning bosh maqsadimizdir... Biz erkin bozor tamoyillarini o'rnatmoqchi ekanmiz, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog'lom raqobat muhitini yaratishimiz shart.

Hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish lozim. Ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash zarur. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirishimiz lozim.

(Sh. Mirziyoev)

Kirish

Ma'lumki, mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganilmoqda. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko'zga ko'ringan rahbarlar o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar.

Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo`nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbarining 2018 yilning yakunlari va 2019 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning ustivor masalalarini qamrab olgan Murojaatnomasida 2019 yilni mamlakatimizda «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»-deb nomlash taklif etildi va bu taklif bir ovozdan ma`qullandi¹. Mamlakatimiz rahbarining Murojaatnomasida ta`kidlab o`tilganidek: hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv va inqiroz sharoitida iqtisodiy tizimlar rivojlanishining hududiy jihatlarining roli makro va mega darajasida o`sib bormoqda, bu mamlakatning mintaqaviy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklardan kelib chiqadi. Bir tomondan, globalashuv - bu resurslardan samarali foydalanish va jamiyat ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun turli mamlakatlarning sa'y-harakatlarini (kapital, mehnat, tabiiy va boshqalar) birlashtirish jarayoni, ikkinchi tomondan, bu xalqaro ekspluatatsiyaga olib keladigan resurslarning beg`araz harakatini anglatadi.

Bundan tashqari, ushbu resurslardan samarali foydalangan mega-korporatsiyalar miqyosiga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Giper-urbanizatsiya, ko`plab mamlakatlar mintaqalarida markazdan qochish tendentsiyalari, ekologik muammolar, ishlab chiqarishning pasayishi va depressiya hududlarida ishsizlikning o`sishi mintaqaviy rivojlanishni boshqarish uchun ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot sanoat korxonalarining joylashuvini birinchi navbatda muayyan hududning barqaror afzalliklarini (hududiy xarajatlar, ish kuchi, aholi punktlarining to`planishi, infratuzilmaning mavjudligi, xizmat ko`rsatish va taqsimlash joylari va boshqalar) hisobga olishi kerak, ya`ni. foydani ko`paytirish uchun mikroiqtisodiy omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliyas-28-12-2018>

xarajatlarini minimallashtirishga erishish zarur. Shu bilan birga, barcha zarur resurslar bilan tarmoqlar va tashqi savdo o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni hisobga olishi zarur. Alohida ajratilgan sanoat korxonasini emas, balki o`zaro bog`liq bo`lgan korxonalar majmuasini ko`rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu nazariy yo`nalish xarajatlarni (nafaqat transport, balki ishlab chiqarish) minimallashtirishga o`tish bilan daromadlarni ko`paytirishga, o`zgaruvchan narxlar, ijara, talab va taklif funktsiyalari va dinamik elementlarini hisobga olishi bilan tavsiflanadi.

O`zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot siyosati birinchi navbatda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish, mintaqaviy tabaqalanishni kamaytirishga qaratilgan. Ushbu siyosatni amalga oshirishning vositalari quyidagilar hisoblanadi: mahalliy byudjetlarni moliyalashtirishning mavjud tizimi, davlatning maqsadli ijtimoiy dasturlari, kam rivojlangan, mehnatga boy hududlarga yo`naltirilgan davlatning investitsiya siyosati, shuningdek yangi transport kommunikatsiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy dasturlari. Mintaqaviy darajada mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish va uni boshqarish yo`llarini tahlil qilish o`quv qo`llanmaning maqsadi hisoblanadi.

O`quv qo`llanmaning vazifasi talabalarda bugungi globallashtirish sharoitida va jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir paytda iqtisodiy islohotlarning mintaqaviy muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish asosida zaruriy bilim va ko`nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. 2017-2021 yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish asnosida mamlakatimizni barqaror rivojlantirish borasida hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish jarayonlari o`quv qo`llanmaning obyekti hisoblanadi. Ayni bugungi kunda iqtisodchi kadrlar ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etish, mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini

hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo`nalishlarini belgilash, hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni mikro va makro darajada ta'minlashdagi muammolar yechimini izlab topish yo`l-yo`riqlarini o`rganishi lozim.

Shu bilan birga, mazkur o`quv qo`llanmada mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo`jaligi tizimidagi o`rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o`rganish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qilinadi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlashda ilmiy-nazariy jihatdan yondashib, uni hal etishda amaliy ko`nikmalar hosil etishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham, mazkur o`quv qo`llanmada milliy iqtisodiyotning hududiy muammolarini o`rganish va ushbu muammolarni hal qilish yo`llari va mexanizmlari, vosita va usullari bayon etilgan.

1-MAVZU. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI, PREDMETI, OBYEKTI VA METODLARI

Reja:

1.1. Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida shakllanishi, predmeti va obyekti

1.2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining vazifalari

1.3. Mintaqaviy iqtisodiyot metodlari

Tayanch tushuncha va iboralar: mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqa, mintaqaviy iqtisodiyotning vazifasi, tizimli tahlil, tizimlash uslubi, balans uslubi, normativ usul, iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi, iqtisodiy va matematik modellashtirish usuli, taksonomik uslub, ijtimoiy tadqiqot usullari.

1.1.Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida shakllanishi, predmeti va obyekti

Mintaqaviy iqtisodiyot fani - davlatlararo iqtisodiy zonalar, yirik iqtisodiy hududlar, alohida hududiy-sanoat komplekslari, shuningdek yirik sanoat va shahar aglomeratlari tizimi sifatida qaraladigan mamlakat iqtisodiyoti faoliyatining va rivojlanishining muammolari va shakllarini o`rganadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot - nisbatan yosh fan bo`lib iqtisodiy yo`nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashda deyarli barcha mamlakatlarning o`quv rejalarida o`rganish uchun fan sifatida kiritilgan.

G`arbning ilm-fan sohasida «mintaqaviy fan» deb nomlangan ushbu ilm-fan yigirmanchi asrning 50-yillari oxirida shakllana boshladi. Ushbu ilmiy yo`nalishning ideologi va tashkilotchisi U. Ayzard edi. Mustaqil fan sifatida 1970-80-yillarda mintaqaviy iqtisodiyot fani shakllandi va 1990-yillarda o`quv fani maqomiga ega bo`ldi.

Mamlakatimizda XX asrning 70-yillarida mintaqaviy iqtisodiyot mavzusidagi dastlabki tadqiqotlar paydo bo`ldi. Biroq uzoq vaqt mobaynida bu bilimlar «iqtisodiy geografiya» kursining bir qismi sifatida universitetlarda o`qitildi, bu iqtisodiy ta`limning dastlabki sikli edi.

Mintaqaviy iqtisodiyotning jarayoni boshqa iqtisodiy va ijtimoiy fanlar bilan chambarchas bogʻliq. Uning mavzusi iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, demografiya, siyosatshunoslik, menejment va boshqa fanlarning masalalarini oʻzida qamrab oladi.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» kontseptsiyasining taʼrifini hisobga olgan holda bir nechta yondashuvni qayd etish kerak.

Gramer nuqtai nazaridan «Mintaqaviy iqtisodiyot» iqtisodiyot fanlarida markaziy oʻrinlardan birini egallashi kerak. Ushbu olimning nuqtai nazariga koʻra iqtisodiyotning asosi uch qutbli tizim sifatida quriladi:

- 1 - makroiqtisodiyot;
- 2 - mikroiktisodiyot;
- 3 - mintaqaviy iqtisodiyot.

Rus olimi mintaqaviy iqtisodiyot faning asoschilari biri akademik Nekrasovning fikriga koʻra, mintaqaviy iqtisodiyot mamlakatning mintaqaviy tizimida va alohida mintaqada ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy jarayonlarni rejalashtirish va shakllantirishni belgilovchi iqtisodiy va ijtimoiy omillar va hodisalarning umumiylikini oʻrganadi.

Nekrasov mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi boʻlgan ishlab chiqarish kuchlarining joylashishini, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun mamlakatdagi ishlab chiqarishning asosiy omillarini, mintaqaviy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tadqiq etdi.

Granberg nuqtai nazaridan mintaqaviy iqtisodiyotning mavzusi keng maʼnoda murakkab va koʻp tomonlama. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- 1) alohida hududlar iqtisodiyoti;
- 2) hududlar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar;
- 3) mintaqaviy iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy hayotning turli jihatlarini balki davlat boshqaruvi va uni tartibga solish tizimini ham oʻz ichiga olgan mintaqaviy tizimlarni, mintaqaviy byudjetlar va byudjetlararo munosabatlar tizimini, mintaqaviy va viloyat va shaharlar darajasida hukumatlararo transfertlar tizimini,

shuningdek yuridik shaxslarga beriladigan byudjet mablag`larini, past darajadagi byudjetlarni subventsiyalari va subsidiyalari va mintaqadagi ijtimoiy munosabatlar tizimini, mintaqada aholi turmush darajasini ko`rsatkichlarini, mahalliy mintaqaviy bozorning salohiyatini, uning diversifikatsiyasi darajasini, mehnatga talabining darajasini, mintaqada demografik jarayonlar va ishchi kuchlari malakasini ifodalovchi ko`rsatkichlarni o`z ichiga oladi.

Zamonaviy iqtisodchilarning fikriga ko`ra, hozirgi bosqichda mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy vazifasi - iqtisodiy islohotlarning mintaqaviy muammolarini o`rganish va uni hal etishdir.

Ushbu pozitsiyaga ko`ra, mamlakatda mintaqaviy iqtisodiyot ijtimoiy-hududiy mehnat taqsimoti va mintaqalararo iqtisodiy integratsiyani namoyon etadi va uning tendentsiyalari bo`yicha zamonaviy ilmiy qarashlarni o`zida aks ettiradi.

Xulosa o`rnida Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida - ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo`nalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o`rganadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o`rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yagona xo`jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

Shu bilan birga, mazkur fan mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo`jaligi tizimidagi o`rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o`rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qiladi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlaydi.

Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo`jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o`zaro munosabati tufayli hosil bo`lgan yaxlit birlikdir.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan mintaqaviy iqtisodiyot fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o'rganishda hozirgi paytda ularda ro'y berayotgan holatni chuqur (qaysi jihatlari ortayotganini) tushunish lozim. Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistondagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga ko'ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi bu ko'rsatkichlar bo'yicha quyi o'rinlarni egallaydi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida hududlarni kompleks rivojlantirish tadbirlarini izchil davom ettirish lozimligi, xususan, iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda². Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o'ta muhim masalaga etarlicha e'tibor berilmayapti. Oqibatda, respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko'rsatkichining 1 foiziga ham etmaydi. Shu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerakligini ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchlari mavjudligi – Farg'ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo'jaligini xodimlar bilan ta'minlash jiddiy muammo bo'lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Hozirgi vaqtdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri – iqtisodiy kooperatsiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. gov.uz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 maydagi «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartlari ekanligini ta'kidlandi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida viloyat, shahar va tumanlarda mavjud bo'sh foydalanilmay turgan hududlarda texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, davlat xaridlari tizimi orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror talabni shakllantirishni nazarda tutadigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish vazifalari belgilab berildi³.

1.2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining vazifalari

Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 maydagi «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. ManbaaLex.uz.

Mintaqaviy iqtisodiyotning vazifasi – milliy iqtisodiyotning hududiy muammolarini o`rganish va ushbu muammolarni hal qilish yo`llari va mexanizmlarini aniqlashdir.

Shu o`rinda ta`kidlash joizki, mamlakatimizda hududiy muammolarni o`rganish va ularni hal etishda samarali yondoshuv tizimi yaratildi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi «Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ-4102-sonli Qarori muvofiq mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o`zgarishlarga erishish bo`yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadda hududlarni sektorlarga bo`lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan manzilli muloqotning yo`lga qo`yilishiga imkon yaratdi. Unga ko`ra⁴: sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini yanada oshirish maqsadida sektorlarning «tuman (shahar) — viloyat — respublika» tamoyili asosida ularga amaliy va uslubiy yordam ko`rsatish hamda faoliyatini nazorat qilish bo`yicha hokimliklar, prokuratura, ichki ishlar va soliq idoralarida vertikal boshqaruv tizimini joriy etildi;

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o`rganish natijalari bo`yicha respublika darajasida echiladigan muammolarni hal etishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etildi;

har bir hududda aniqlangan muammolarni hal etish bo`yicha hududiy va respublika «yo`l xaritalari» ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish, ularda nazarda tutilgan tadbirlar samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha choralar belgilab borilmoqda. Albatta ushbu tadbirlar joylarda hududiy muamolarini bartaraf etish, qulay investitsion muhit yaratilishida muhim vosita sifatida baholanmoqda.

⁴ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi «Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo`yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ-4102-sonli Qarori. Manbaa Lex.uz.

Bu holda, **mintaqaviy iqtisodiyotning obyekti** mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining hududiy jihatlari, mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy quyi tizimlarining faoliyati hisoblanadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot ijtimoiy fan hisoblanadi. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o`rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo`jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog`liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o`rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo`nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan Iqtisodiyotni erkinlashtirish va rivojlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bo`yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 2017 — 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha [Harakatlar strategiyasini](#) amalga oshirish natijasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror ijobiy o`lishini ta'minlanmoqda.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish, iqtisodiy salohiyatni kengaytirish bo`yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini kuchaytirish asosida aholi turmush darajasini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha [Harakatlar strategiyasiga](#) muvofiq O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va

iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5614-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra⁵:

makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish, samarali fiskal siyosatni yuritish, soliqqa tortish tizimi va soliq ma'muriyatchiligini tubdan isloh qilish;

asosiy resurslarni taqsimlashda bozor tamoyillarini keng joriy

qilish asosida respublikaning raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonlarini tezlashtirish;

fuqarolarning ijtimoiy himoyasi va ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini mustahkamlash, aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini himoya qilish hajmlari va turlarini ko'paytirish;

davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini yanada oshirish, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash;

tabiiy boyliklardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilishkabi aniq vazifalar belgilab olingan.

1.3. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining asosiy tamoyillari

va usullari.

Shuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko'pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligi o'sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

Tizimli tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 yanvardagi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5614-sonli Farmoni Manbaa Lex.uz.

xususiyatlarini har tomonlama o`rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o`zaro aloqadorligini o`rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tizimlash uslubi. U o`rganilayotgan hodisalarni alohida belgilariga ko`ra guruhlarga ajratish yo`li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, turlash, umumlashtirish va boshqa usullar qo`llaniladi.

Balans uslubi. Ushbu metod hududlarni manbalar, byudjetlar subventsiyalar, subsidiyalar, kreditlar orqali iqtisodiy rivojlanish ko`rsatkichlari bilan ta`minlash, hududning ijtimoiy-iqtisodiy prognozini, mintaqaviy byudjetni ishlab chiqishda mavjud resurslarni o`z ichiga olgan ehtiyojlarni, shuningdek, hududlarni byudjetdan tashqari resurslardan jalb qilishlari mumkin bo`lgan resurslar bilan bog`lash imkonini beradigan resurslar to`plamidir.. Ushbu usul bir tomondan, zarur ehtiyojlarni tasvirlab beradigan asosiy ko`rsatkichlar o`rtasidagi muvozanatga erishish uchun ishlatiladi, ikkinchidan, ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun jalb etilishi kerak bo`lgan resurslar tushuniladi.

Balansni usulini qo`llashni amalga oshirishning asosiy sharti - muayyan xo`jalik yurituvchi subyektlar, shahar, tuman va viloyat balanslari bilan o`zaro bog`liqlik zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotida uni muvofiqlashtirish, o`zaro bog`lash hududiy prognoz ko`rsatkichlari, viloyatlar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalari, maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Normativ usul. Normalar va standartlarning tarkibi juda xilma-xildir. Normlarning uchta kichik tizimi mavjud:

1) resurslar: xarajatlar me`yorlari va standartlari, xom-ashyo zaxiralari, materiallar, yoqilg`i, ishlab chiqarish birligiga energiya sarfi;

2) ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi quyi tizimi: mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish xarajatlari birligi;

3) ijtimoiy-iqtisodiy me`yorlar: viloyat aholisining pul daromadlari, o`rtacha ish haqi, mintaqadagi «iste`mol savatining» qiymati, muayyan muhitdagi zararli moddalarning maksimal ruxsat etilgan kontsentratsiyasi.

Zamonaviy sharoitda yagona ilmiy asoslangan me'yorlar va standartlar tizimini yaratish, ularni mintaqaviy darajada farqlash va uning xususiyatlarini inobatga olgan holda har bir hududga bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o'z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat:

- hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivolantirish yo'llarini mintaqaviy darajada o'rganish);
- tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini geografik jihatdan tadqiq etish);
- mahalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi bo'g'ini - alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o'rganish).

Kartografik uslub. Ushbu uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko'rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Iqtisodiy va matematik modellashtirish usuli (mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy nisbatlarini modellashtirish, mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha modellashtirish, mintaqaviy iqtisodiy komplekslarni shakllantirish modellari). Zamonaviy elektron vositalardan foydalangan holda, ushbu uslub mehnat va vaqtning kam miqdorini sarflab, katta va xilma-xil statistik materiallarni, hududning ijtimoiy-iqtisodiy kompleksi darajasini, tuzilishini, xususiyatlarini tavsiflovchi turli boshlang'ich ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi.

Bundan tashqari, mintaqaviy tadqiqotlar uchun belgilangan maqsadlarga muvofiq optimal yechimlarni, optimal variantlarni, modellarni tanlash imkonini beradi. Ushbu usul bilan (tizimlashtirish uslubi bilan bir qatorda) ko'p o'lchovli statistik tahlil usullari ham bevosita bog'liqdir. Ko'p o'lchovli ma'lumotlarni tahlil qilishning umumiy usullaridan biri klasterlarni tahlil qilishdir.

Bu maxfiy (maxfiy) o'zgaruvchan (faktorlar) kichik songa va obyektlar tasnifida ushbu omillar bo'yicha o'tishdan iborat.

Mintaqaviy tadqiqotlar uchun ishlatiladigan statistik modellarning birinchi turlaridan biri «iqtisodiy baza» deb nomlangan model edi.

U 30-yillarda olim G. Xoytom (AQSH) tomonidan tuzilgan va 40 yil davomida 100 dan ortiq AQSH mintaqaviy tadqiqotlari uchun ishlatilgan.

Iqtisodiy bazaning modellari nazariy asoslash va rivojlanish nuqtai nazaridan juda sodda. Ularni qurish uchun ikkita davr uchun faqat iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari (asosan bandlik ko'rsatkichlari) talab qilinadi. Iqtisodiy bazani tahlil qilish mintaqaviy iqtisodiy o'sishni prognoz qilishning tezlashtirilgan usuli, o'sishning soddalashtirilgan nazariyasini qo'llagan holda axborotga bo'lgan ehtiyoj minimallashtiradi.

Olingan natijalar faqat asosiy va xizmat ko'rsatish sektorlarining rivojlanishini prognoz qilish uchun qisqartirildi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda matematik usullarni qo'llash bilan bog'liq ilmiy yo'nalish, ya'ni. mintaqaviy modellash regionometrik deb nomlanadi. Matematik usullar orasida quyidagilar mavjud.

Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo'ysunuvchi iyerarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - iyerarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Mintaqaning ishlab chiqarish kuchlarini aniqlashning variant uslubi. Ushbu usul ko'pincha rejalashtirish va prognozlashning dastlabki bosqichlarida mintaq uchun ishlab chiqarishni joylashtirish sxemalarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. U ayrim hududlarning iqtisodiyotini rivojlantirishning turli darajalariga variantlarni ko'rib chiqish, mintaqalar bo'yicha hududiy iqtisodiy nisbatlarning variantlarini beradi.

Ijtimoiy tadqiqot usullari. Ushbu usullar guruhi, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishda ham muhim o'rin egallaydi. Amaliy sotsiologiyada ko'rib chiqilgan vazifalar hududiy iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida prognozashtirish, rejalashtirish, boshqarishning aniq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini boshqarishga bog'liq.

Mintaqa iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish sohasida ijtimoiy tadqiqot usullari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) mintaqaviy iqtisodiyotni o`rganish, tahlil qilish va baholash;
- 2) hal qilishni talab qiluvchi dolzarb muammolarni aniqlash, uni hal qilish uchun yechimlarni ishlab chiqish;
- 3) sektor yoki mintaqa iqtisodiyotini rejalashtirish va prognozlashtirish uchun ustuvor yo`nalishlar belgilanadigan mezon sifatida xizmat qilishi kerak bo`lgan aniq ko`rsatkichlar tizimini shakllantirish;
- 4) hududiy iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan tadbirlar va islohotlarning mumkin bo`lgan natijalarini baholash va tahlil qilish;
- 5) mintaqaning iqtisodiy muammolarini hal qilishda ilmiy qo`llab-quvvatlash va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Sotsiologik tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:

- hududiy ijtimoiy-iqtisodiy majmuaning turli tarmoqlari va sohalari vakillari bilan standartlashtirilgan intervyo`lar, individual intervyo`lar (ekspertizalar);
- mintaqalar boshqaruvi elitasi, olimlar va mutaxassislarning intervyo`larini mazmunan tahlil qilish va boshqalar.

Mintaqaviy tadqiqotlarda aholining mintaqaviy hayot standartlarini taqqoslash va mintaqaviy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni prognoz qilish usullari muhim o`rin tutadi. Hududlar aholisining turmush darajasini tahlil qilish uchun markaziy organlarni sintetik va maxsus ko`rsatkichlar tizimiga asoslangan taqqoslash metodologiyasini ishlab chiqdilar.

Natijada, aholi turmush darajasini hududiy tahlil qilishning asosiy maqsadi - turmush darajasining haqiqiy farqlarini va O`zbekistonning barcha hududlari aholisining ehtiyojlarini teng ravishda qondirish yutuqlarini aniqlab olish va aholi turmush darajasi hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bevosita bog`liqdir.

Shunday qilib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o`rganish iqtisodchi olimlarning faol foydalanadigan usullarining keng doirasiga asoslangan.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasidagi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o`ziga xos jihatlariga to`htalib o`tsak.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan Xarakatlar strategiyasiga muvofiq viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish yuzasidan quyidagi muhim vazifalar belilab olingan⁶:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo`jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta`minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko`lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo`lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo`li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo`jalik birlashmalarining mablag`larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko`rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subventsiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

⁶ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi. Manbaa Lex.uz.

Yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalardan ko`rinib turibdiki, bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti hududiy tashkil etilishi bilan chambarchas bog`liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o`rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisodiyotning nazariy asoslarini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo`jaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o`zaro munosabati tufayli hosil bo`lgan yaxlit birlikdir.

2. Mintaqaviy iqtisodiyotning vazifasi – milliy iqtisodiyotning hududiy muammolarini o`rganish va ushbu muammolarni hal qilish yo`llari va mexanizmlarini aniqlashdir.

3. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo`yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda rivojlanish darajasi past bo`lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

4. Mintaqaviy iqtisodiyot ijtimoiy fan hisoblanadi. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o`rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyotda ko`pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligi o`sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo`nalishlarini belgilaydi.

Nazorat savollari

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining shakllanish bosqichlarini bayon qiling?

3. Mintaqa tushunchasiga ta'rif bering?
4. Mintaqaviy iqtisodiyot qanday ilmiy uslublardan foydalanadi?
5. Ijtimoiy tadqiqot usullari qaysi vazifalarni bajaradi?
6. Sotsiologik tadqiqot usullari qanday amalga oshiriladi?
7. Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimiz mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan qanday muhim vazifalar belgilab olingan?

2-MAVZU. ISHLAB CHIQARUVCHI KUHLARNI JOYLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI

Reja:

2.1.Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish.

2.2. Ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etish shakllari

2.3.Hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlashtirish

2.4.Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

2.5.Ishlab chiqarishni kuchlarini joylashtirishning klassik g'oyalari

**2.6.O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning o'ziga
xos xususiyatlari**

Tayanch tushuncha va iboralar: Mintaqa, ishlab chiqarish tizimi, ishlab chiqarish kuchlari, xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayon, iqtisodiy landshaft, shtandort, monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat chegarasi, xalqaro savdo, texnika taraqqiyoti, rivojlanish qutbi, rivojlanish markazlari.

2.1.Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlaridan g'oyat unumli va samarali foydalanishni ta'minlash bilan shunga mos yuksak ishlab chiqarish munosabatlarini ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlikni rivojlantiradi. Har bir kishining milliy boylikni oshirish mas'uliyatini kuchaytiradi, har bir kishini boy qilish orqali jamiyatni ham boyitib boradi. Erkin bozor munosabatlarini takomillashtirish hamda iqtisodiyotni leberallashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri va oqilona tashkil etish davlatning ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosati asosini tashkil qiladi.

Muayyan makon va zamondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida uning obyektiv qonuniyatlarini o'rganish, aniq xulosalar chiqarish hamda amaliy tadbirlar belgilash mumkin. Binobarin, samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom ma'noda o'ziga xos tamoyillarga asoslangan ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish, tabiat bilan jamiyatning qonun va qonuniyatlarini anglash, ularni chuqur tahlil

qilish, ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni nazarda tutadi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonning maqsad-mohiyati ham mamlakat mintaqalarida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan to'g'ri va oqilona tashkil etish orqali milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashdan iborat⁷.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tomonidan keng muhokama qilingan mazkur Harakatlar strategiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini beshta ustuvor yo'nalish doirasida qamrab olganligi va «ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish, har bir hududning tabiiy, mineral xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash»ga qaratilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ilmiy manbalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning quyidagi asosiy tamoyillari ajratiladi:

- ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg'i va energiya resurslarini iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tizimini barpo qilish;
- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrofmuhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. //Xalq so'zi, 08.02.2017 y. №28

➤ xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;

➤ yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va o`rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom-ashyo va x.k.) sanoat va qishloq xo`jaligi hamda mehnat resurslarini o`z ichiga oladi.

Odatda, ishlab chiqarish asosan sanoat, qishloq xo`jaligi, transport kabi makroiqtisodiy sohalardan tashkil topadi. Ammo ularning barchasini harakatga keltiruvchi ishchi kuchi, ya`ni inson hisoblanadi. Binobarin, aholi ijtimoiy ishlab chiqarishdek murakkab jarayonning markazidan o`rin oladi. Buni biz demotsentrik printsip deb yuritishimiz mumkin.

Shu bilan birga ta`kidlash joizki, umuman aholi ishchi kuchi emas va u faqat iqtisodiy tushuncha sanalmaydi. Hozirgi demografik vaziyatda faqat mehnatga layoqatli aholi ishchi kuchi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi eng avvalo uch tarkibiy qismdan iborat. Bu ham bo`lsa, bevosita ishlab chiqarish, taqsimot va iste`moldir.

Bularning barchasi, albatta, ishchi kuchisiz bo`lmaydi.

Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan uni iste`mol qilish o`rtasidagi aloqadorlikni amalga oshirishda transportning ahamiyati katta. Shu sababli uni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining «qon tomiri» yoki harakatga keltiruvchi omili darajasida qarash to`g`riroq bo`ladi.

Demak, ishlab chiqarish kuchlari keng va murakkab iqtisodiy tushuncha, uning tarkibi ishlab chiqarishning obyekti bilan subyektti, ya`ni ishchi kuchidan tashkil topadi. Aholining ishtiroki qisman, mehnat resursi doirasida kuzatiladi.

Umuman aholi esa, u ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonining qoq o`rtasidan joy oladi. Sababi- aholi (mehnat resurslari) moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va ayni paytda ularning iste'molchisi hamdir. Biroq, ishlab chiqaruvchilar ozroq, iste'mol qiluvchilar esa barcha aholidan (uning yosh va jinsidan qat'iy nazar) iborat.

Mintaqaviy iqtisodiyotda «joylashtirish» tushunchasi juda ko`p ishlatiladi. Tarmoq yoki sohaviy iqtisodiyotida ko`proq «rivojlanish», taraqqiyot, o`zgarish kabilar tilga olinadi. Shu o`rinda qayd qilmoq lozimki, joylashtirish geografiyaning boshqa tarmoqlari, masalan, tabiiy geografiya uchun muhim emas, chunki iqlim, yer usti tuzilishi, tuproq, o`simlik yoki hayvonot dunyosi joylashtirilmagan, ularning hududiy xususiyatlari boshqa omil va qonuniyatlar bilan ifodalanadi.

Umuman rivojlanishning, har qanday hodisa yoki voqelikning ajralmas, bir paytning o`zida (permanent) sodir bo`ladigan xususiyati yoki jihati mavjud. U ham bo`lsa joylanishidir. Zero, u yoki bu voqelik ma'lum vaqtda va aniq joyda yuzaga keladi-ki, biz bu erda zamon va makon birligining guvohi bo`lamiz. Shundan kelib chiqqan holda e'tirof etish mumkinki, rivojlanish va joylanish bir bog`liqning, hodisaning ikki tomonidir yoki boshqacha qilib aytganda, joylanish rivojlanishning hududdagi, makondagi in'ikosidir. Binobarin, mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu tushunchalarning bir joyda, qo`shaloq ishlatilishi an'ana bo`lib qolgan (masalan: paxtachilikning rivojlanishi va joylanishi, qora metallurgiya sanoatining rivojlanishi va joylanishi, temir yo`l transportining rivojlanishi va joylanishi va h.k.).

Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, joylanish va ayniqsa joylashtirish barcha hodisa yoki voqeliklarga tegishli emas. Misol uchun, okeanda baliqni, yer ostida qazilma boyliklarni, atmosferada bulutlarni hech kim joylashtirmagan. Demak, joylashtirish deganda, uning kimdir (subyektt) tomonidan amalga oshirilganligi nazarda tutilganligi sababli baliq yoki ko`mirning geografiyasini boshqacha izohlash kerak. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyot faqat joylashuvigina emas, balki u hodisa va voqeliklarning hududiy tarkibi va tizimi, bir joyning ikkinchi joydan farqini o`rganadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tushuncha, obyekt hisoblanadi. Hatto mintaqaviy iqtisodiyotni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish haqidagi fan sifatida ta'riflaydilar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati. Unga muvofiq:

ishlab chiqarish korxonalarini ITTning yutuqlari asosida, iloji boricha manbalarga yaqin joylashtirish kerak. Masalan, suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni imkon qadar yirik va samarali suv manbalariga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq;

mehnatni ko'p talab qiluvchi (sermehnat) tarmoqlarni esa mehnat resurslari shakllangan markazlarga yaqinroq;

kundalik istemol qilinuvchi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini istemolchilarga yaqinroq joylashtirish kerak va h.k.lar.

2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi qonuniyati. Bunda biron bir hudud ichida ixtisoslashuv va korxonalar o'rtasida eng takomillashgan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish hamda ularni tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ishtiroki ko'zda tutilgan.

3. Hududlarning majmualiy rivojlanish qonuniyati. Hududning (respublika, viloyat, iqtisodiy tuman) kompleks rivojlanishi deganda, xo'jalikdagi mutanosiblik, ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitga mosligi, ixtisoslashgan tarmoqlar, infratuzilmasini, turli ko'lamdagi shaharlarning rivojlanishi, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va hokazolar nazarda tutiladi.

4. Ishlab chiqarishni hududlarda iloji boricha bir me'yorda joylashtirish yoki hududlarning ixtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati. Unga ko'ra respublikamiz hududlarining iqtisodiy rivojlanishini bir-biriga tenglashtirish, ya'ni mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini bir me'yorda joylashtirib, kelajakda aholi turmush darajasini oshirish asosiy maqsad qilib olinadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yuqoridagi qonuniyatlar asosida yondashilsa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshadi, iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Mamlakatimizda oxirgi uch yilda 2017-2019 yillarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 martdagi «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan hududlar salohiyatini hisobga olgan holda, ularni kompleks rivojlantirish, shu jumladan hududiy sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish kuchlari va investitsiyalarni oqilona taqsimlash, mavjud yer resurslaridan, sug'oriladigan, lalmi va yaylov yer maydonlaridan samarali foydalanish, zamonaviy infratuzilmani yaratish, mehnat resurslari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish va aholining turmush darajasini izchil oshirib borish borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi⁸:

hududlarda sanoatni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ushbu dasturlarni vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha belgilangan dasturlar asosida import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish va qishloq xo'jaligi ekinlarini maqbul joylashtirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan o'zgartirish, urug'chilik va selektsiya ishlarini rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni va suvdan tejankor foydalanish usullarini joriy etish,

⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Manbaa Lex.uz.

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yuzasidan mutasaddi vazirliklar, idoralar va hokimliklar tomonidan olib borilayotgan ishlarda bevosita ishtirok etish;

klaster asosida xom ashyoni, shu jumladan paxta, meva-sabzavot, parrandachilik, baliqchilik va go'sht-sut mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hududlarda muhandislik, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish, transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish darajasi va sifatini tubdan yangilash, sanitariya tizimlarini yaxshilash va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ortda qolayotgan tuman va shaharlarda sanoat va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, ularning tabiiy boyliklari, geografik joylashuvi, mehnat resurslari va boshqa salohiyatidan samarali foydalanilishini hamda bu borada kompleks dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlash;

aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shu jumladan hududlarda ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni doimiy mehnatga jalb etish, turmush darajasi va sifatini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, tibbiyot, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish.

Mazkur fanda «ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish» bilan bir qatorda «ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish» tushunchasi qo'llaniladi. Chindan ham bu ikki tushuncha bir-biriga juda o'xshash. Ayniqsa, «joylashtirish» hududiy tashkil qilishga yaqin, chunki bu ma'lum bir subyekt (shaxs, davlat) tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy tashkil qilish joylashtirish, joylanishning yuqori, mukammal shaklidir. Uning eng muhim xususiyati boshqaruv, nazorat (monitoring)-da o'z ifodasini topadi. Shu sababli hududiy tashkil qilish umumiy ahamiyatga ega bo'lgan tizim yoki tizim-tarkib g'oyasiga asoslanadi.

Ma'lumki, har qanday tizimga asosan murakkab tizimlarga quyidagilar xos:

Ikki va undan ortiq element va qismlardan iborat bo'lish;

Ichki va tashqi, tik va gorizontal aloqalar;

Ko`p bosqichlik, ierarxialik;

Mustaqil amal qilish, faoliyat ko`rsatish;

Tartib va tarkiblilik;

Boshqaruvchanlik va h. k.

Aynan ana shu jihatlarga ko`ra hududiy tashkil qilish joylashtirishga nisbatan ma'qulroq, afzalroq va amaliyroqdir.

Hududiy tashkil qilishda hudud o`zgarmas (constanta), bazis bo`lib xizmat qiladi; turli obyektlar –sanoat korxonalari, qishloq xo`jalik ekinlari, aholi va h.k. o`zlarining xususiyatlariga qarab ma'lum hududda joylashtiriladi. Bu erda, hududda joylashtiriladi deyish mumkin, ammo hududiy joylashtirish uncha to`g`ri emas, chunki har qanday joylashtirish o`z-o`zidan ma'lumki hududiydir (to`g`ri, kamdan-kam hollarda, masalan avtobuslar qatnovini yoki dars jadvalini muayyan vaqt va soatlarda joylashtirish, taqsimlash mumkin).

Ayni paytda «hududni tashkil qilish» tushunchasi ham mavjud. U ko`proq rayon planirovkasida, sotsiologiyada yirik va o`rta masshtabli tadqiqotlarda qo`llaniladi. Bu erda joylashtiriladigan obyektning emas, balki hududning xususiyati, imkoniyati («dini, tili, nafasi») hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, nimani qaerda joylashtirish emas, qaerda nimani joylashtirish nazarda tutiladi. Umuman olganda esa hududiy tashkil qilish bilan hududni tashkil qilishni o`zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirish qulay va yaxshi samara beradi.

Hududiy tashkil qilish hududiy tarkib (struktura), hududiy tizim (sistema), iqtisodiy rayon tushunchalari bilan chambarchas bog`liq va ular mintaqaviy iqtisodiyotning o`zak tushunchalarini tashkil qiladi.

Har qanday sistemaning ikki jihati, ya'ni uning xususiyligi va hududiyliigi borligidek, ishlab chiqarishni tashkil qilish ham ijtimoiy hamda hududiy shakllardan iborat. Ijtimoiy tashkil qilish ixtisoslashuv, mujassamlashuv, kooperatsiya va kombinatlashuvdan iborat bo`lsa, hududiy tashkil qilishda sanoat markazi va tugunlari, sanoat parklari, texnopolislar, hududiy ishlab chiqarish majmualari mavjud. Ijtimoiy va hududiy shakllar turli xo`jalik tarmoqlarida har xil. Shuning uchun ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

2.2. Ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etish shakllari

Iqtisodiyot rivojlanishi uning ijtimoiy va hududiy tashkil etilishi bilan bog`liq. Ishlab chiqarishning bunday shakllari esa muayyan bir jarayonning ikki tomoni bo`lib, u mohiyatan ijtimoiy va hududiy (geografik) mehnat taqsimoti xususiyatlaridan kelib chiqadi. Binobarin, ular ni bir-biriga mutlaqo teskari qo`yib bo`lmaydi, chunki katta yoki kichik u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish albatta ularni ma`lum hududda joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tashkil etish shakllari mujassamlashuv, ixtisoslashuv, hamkorlik va kombinatlashuvdan iborat. Bular ham o`zaro aloqadorlikda rivojlanib boradi va ko`pincha birgalikda sodir bo`ladi. Ularning asta-sekin takomillashib borishi, birlari bilan uygunlashuvi fan-texnika taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishi bilan hamkorlikda yuz beradi.

Mujassamlashuv va ixtisoslashuv ishlab chiqarishni ijtimoiy (hududiy) tashkil qilishning nisbatan oddiyroq shakllari hisoblanadi. Biroq, ayni ana shu shakllarning o`zgarib borishi qolgan shakllar, ishlab chiqarish rivojlanish xususiyatlarga katta ta`sir etadi.

Mujassamlashuv, eng avvalo, korxona yoki boshqa ishlab chiqarish obyektlarining katta-kichikligini anglatadi. Tabiiyki, jamiyat rivojlanishi bilan mujassamlashuv darajasi ham oshib boradi. Shu nuqtai nazardan o`ziga xos mujassamlashuv qonuniyati mavjud: bir vaqtlar mahsulotlar uncha katta bo`lmagan korxonalarda ishlab chiqilgan bo`lsa, keyinchalik ular asta-sekin yiriklashib borgan (sanoat korxonalarida 100 ming kishidan ziyod ishchi xizmat qiladi, juda katta ko`lamda mahsulot ishlab chiqariladi). Masalan, Olmaliq tog`-metallurgiya kombinati, Navoiy tog`-metallurgiya kombinati Toshkent, Buxoro to`qimachilik kombinatlari shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi katta iqtisodiy samaradorlikka (mujassamlashuv, aglomeratsiya samaradorligi) olib kelsa-da, bu jarayon cheksiz emas va uni xar qanday sharoitda ham ijobiy baholab bo`lmaydi.

Demak, mujassamlashuv qonuniyatining ham o'zining chegarasi, me'yori mavjud. Ammo, bu bilan mujassamlashuv o'z mohiyatini yuqotmaydi, balki u o'z shaklini o'zgartiradi, xolos.

Mujassamlashuv sanoat misolida juda aniq ko'rinadi. Bu borada ishlab chiqarish fondlari, yalpi mahsulot yoki ishchi va xizmatchilarning turli yiriklikdagi korxonalarda yig'ilishi, to'planishi sof holdagi ishlab chiqarish yoki korxona mujassamlashuvi, ularning shaharlar va rayonlar joylashuvini esa urbanistik va hududiy mujassamlashuv sifatida ko'rsatish o'rinli.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir-biriga o'tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo'ladi. Chunonchi, shaharning markazlashuv darajasi ma'lum bir bosqichga etgandan keyin o'ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya'ni endi mazkur shaharda qo'shimcha korxonalarni qurish imkoniyati qolmaydi. Ekologik, uy-joy, transport muammolari keskinlashadi, qurish uchun yer maydoni ham etishmaydi va ayni paytda yangi korxona bu markazdan olisda joylashuvni ham «istamaydi». Demak, yirik shaharda ham emas, undan uzoqda ham emas; shaharning ichki imkoniyati yuk, korxona esa undan yiroqlasha olmaydi. Natijada yangi korxona yoki ilmiy tekshirish muassasalari, oliy o'quv yurtlari yirik shaharning ta'sir doirasida o'rnashadi - shahar aglomeratsiyasi yoki sanoat tuguni vujudga keladi.

Endi turli shakldagi mujassamlashuvga misol keltiraylik Masalan, O'zbekiston sanoat mahsulotining yarmidan ko'pini har birida 2000 dan ortiq ishchi ishlaydigan korxonalar ishlab chiqaradi, deb faraz qilaylik Bu ishlab chiqarish yoki korxona darajasidagi mujassamlashuvdir. Toshkent shahrida mavjud korxonalar O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotining taxminan 17-20 foizini beradi-bu urbanistik mujassamlashuv bo'ladi. Agar Farg'ona vodiysini Respublikamizning asosiy pilla yoki meva maskani, neft mahsulotlari yoki o'simlik yog'i ishlab chiqaruvchi rayoni sifatida ko'rsak, u holda hududiy mujassamlashuvni nazarda tutgan bo'lamiz.

Mujassamlashuvning yuqori yoki pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu erda «umumiy maxraj» bo'lib shahar,

viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi. Aytaylik, Farg'ona vodiysida O'zbekiston Respublikasi aholisining 27 foizi joylashgan. Agar u yoki bu ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu raqamdan qancha yuqori bo'lsa, u holda mazkur ishlab chiqarish tarmog'i vodiya rivojlangan, iqtisodiy mujassamlashgan bo'ladi.

Korxona, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Nisbatan past darajadagi urbanistik mujassamlashuvda korxona yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga kichikroq shaharda masalan, Xivada katta gilam kombinatining joylashuvi misol bo'la oladi. Xuddi shunday, past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori ko'rsatkichdagi hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi.

Shu bilan birga past darajadagi hududiy mujassamlashuvi yuqori urbanistik ko'rsatkich bilan ham uyg'unlashgan holda keladi. Chunonchi, bir vaqtlar Frantsiya deganda, avvalo uning poytaxti Parij, Vengriya ramzida esa Budapesht tushunilar edi. Hozir ham qo'shni Qirg'iziston Respublikasida ishlab chiqariladigan yalpi mahsulotning talaygina qismini uning poytaxti Bishkek beradi, Turkiya iqtisodiyotida esa Istambulning o'rnini nihoyatda katta va h.k.

Yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqsa o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik jihatdan samarali emas. Bunday hollarda tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko'payadi, ishchi kuchi etishmaydi va eng muhimi ekologik muvozanat bo'ziladi. Ho'sh, qaysi darajadagi mujassamlashuv ma'qul, degan savol tug'iladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil birlikdagi korxona, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku! Bu erda ham bir tomonlamalik, qat'iylik noo'rindir. Binobarin, turli xil yiriklikdagi korxonalar, katta-kichik shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq. Demak, mujassamlashuv obyektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsada, uning ma'lum chegarasi, ko'lam, doirasi bo'lishi shart.

Mamlakatning birgina, aksariyat hollarda poytaxt asosida rivojlanishini Lotin Amerikasi davlatlarining yaqin o'tmishdagi taraqqiyoti yoki hozirgi Afrika mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy boyligini ularning eng yirik markazi bo'lgan poytaxt shahrida mujassamlashtiradi. Bunday hollarda ishlab chiqarishning bir tomonlama yoki nomutanosib hududiy tarkibi o'ta markazlashgan mujassamlashuvni bildiradi.

Respublikada ham faqat Toshkent yoki Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqalarni o'z holicha qoldiraverish yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish mustaqil davlatning ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatida o'z aksini topgan.

Xususan, mamlakatimizda mavjud tabiiy urbanistik mujassamlashuvni quyidagi izohlasak bo'ladi. Olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida yirik strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bir qatorda shaharlar aholisi farovonligining o'sishi va barqaror rivojlanishiga etaklovchi omil sifatida urbanizatsiya jarayoni tegishli darajada hisobga olinmagan. Natijada so'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda, shahar aholi punktlari soni esa atigi 1065 dan 1071 gacha ko'paygan xolos.

Bu boradagi ishlarni davlat siyosatida darajasida ko'rib chiqilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Bugungi kunda mamlakatimizning urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etadi va hozirdan boshlab zarur choralar ko'rilmasa, ushbu ko'rsatkich yaqin kelajakda pasayishi mumkin. Mamlakatimiz aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha Davlat dasturi ishlab chiqish» vazifasi belgilab berildi⁹. E'tiborlisi shundaki, bu borada faqat poytaxt va viloyat markazlari bo'lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirish e'tibor markazida turishi kerak.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018 yil 28 dekabr

Qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish dasturlaridan bosqichma-bosqich shahar va posyolkalarda ko'p qavatli uylar qurishga o'tishimiz lozim. Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi ham uy-joylarni qurish dasturlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishi darkor.

Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyolkalariga aylantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablariga javob bermaydi va jahon tendentsiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda. Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas.

Urbanizatsiya jarayonlarining davlat tomonidan samarali tartibga solinishini ta'minlash hamda yer uchastkalarining aylanmasi va ulardan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra quyidagilar mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi¹⁰:

mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, bunda muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlangan, ipotekani kreditlash va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish mexanizmlaridan foydalangan holda, shu jumladan kam va o'rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylarni qurishga yo'naltirilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlarni nazarda tutish;

jismoniy va yuridik shaxslar uchun turar joy va noturar joy bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga egalik qilish huquqini amalga oshirishni kafolatlash, yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Manbaa Lex.uz.

migratsiya jarayonlarini ma'muriy tartibga solish tizimini takomillashtirish yo'li bilan aholining qishloq joylaridan shaharlarga erkin harakatlanish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yirik shaharlar aholisining farovonligini ta'minlash, iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga ushbu shaharlar aholisini to'liq va samarali bandligini ta'minlashga ko'maklashish, shuningdek hududlardagi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari asosida texnoparklar tashkil qilish va ularning tizimini mustahkamlash;

avvalambor sanoat, xizmat va servis sohalarida aholining daromadlarini oshirish va barqaror ish joylarini yaratish omili sifatida aglomeratsiyalarning afzalliklaridan foydalanishni nazarda tutgan holda o'rta shaharlarni, shu jumladan tuman markazlarini boshqarishda ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish;

yirik shaharlarga tutash bo'lgan va qulay transport aloqasiga ega yo'ldosh-shaharlar tarmog'ini kengaytirish, yirik shaharlarning markaziy qismida sanoat va boshqa zonalar hududlarini qisqartirgan holda ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish.

Mujassamlashuv qishloq xo'jaligi va ayniqsa transportda uncha sezilarli emas, chunki ularning joylashuvi «nuqtasimon» bo'lmay, balki areal (maydon) va lentasimon shaklga ega. Albatta, bu erda sof holdagi ishlab chiqarish, ya'ni korxona darajasidagi mujassamlashuv nazarda tug'iladi. Bunday mujassamlashuv aholi joylashuvida, aholi manzilgohlarning katta-kichikligida, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimi, savdo, sport, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalar korxonalarini tashkil qilishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur tarmoqlarda ham o'tish davrida faqat yirik korxonalarni ko'rish ijobiy natijalar bermasligi mumkin.

Tarixan qaraganda, ixtisoslashuv mujassamlashuvdan oldin paydo bo'lgan. Zero, dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti oila a'zolarini — ayol va erkaklarni turmushning turli sohalariga ixtisoslashuvida o'z aksini topgandi (ayollar uy yumushlari bilan, erkaklar ovchilik bilan shug'ullanardilar). Ma'lumki, bu davrda kishilar tabiatda mavjud bo'lgan oziq-ovqat bilan kun kechirar edilar.

Ixtisoslashuv ham, ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u mehnat taqsimoti bilan chambarchas bog'liq. Uning uch bosqichi va uch turi mavjud. Ixtisoslashuvning uch bosqichi — korxona, shahar yoki rayon, miqyosidagi ixtisoslashuvdir. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir mahsulotning ishlab chiqarilishi birlashtiriladi. O'z navbatida, ixtisoslashuv shu korxona, shahar yoki rayonlarning «qiyofasini» ularning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning uch turi — bu qism (detal), texnologik yoki yarim mahsulot (polufabrikat) va predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidan iborat. Uning bunday ko'rinishlari bir-biri bilan o'zviy bog'liq va ular turli hududiy bosqichda u o'zgacha xususiyatga ega.

Ixtisoslashuv oqibatida xo'jalikning turli tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funktsional tiplari shakllanadi. Shu bilan birga u tashqi transport iqtisodiy aloqalarini taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste'moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi va mazkur rayonda etishmaydigan mahsulot esa boshqa joylardan keltiriladi.

Ixtisoslashuv, albatta faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir. Qolaversa, ayrim oliygohlar o'qituvchi, boshqalari - agronom, muhandis, tabobatchi kabi mutaxassislarni tayyorlaydi. Chunki bu oliygohlar aynan ana shunday xodimlarni tayyorlashga ixtisoslashgan. Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuv kabi o'zining chegarasi bo'lishi lozim, o'ta tor ixtisoslashuv bir tomonlamalikka (ijtimoiy hayotda tor fikrlashga), yo'l xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarni qurish qanday zararli bo'lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Iqtisodiyotda faqat yoki asosan bir sohaga ixtisoslashuv - bu hududning muvaqqat qudrati, baxti va ayni vaqtda uning badbaxtligi, fojiasi bo'lishi mumkin (ijtimoiy hayotda ham xuddi shunday).

Ixtisoslashgan tarmoqlar bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkilamchi sohalar ham hech bo'lmaganda mahalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo'lishi lozim. Bu erda ixtisoslashgan tarmoqni daraxtning tanasiga, daryoga, qo'shimcha

tarmoqlarni esa daraxtning shoh va shohchalariga, daryolarning irmoqlariga o`xshatish o`rinli. O`z-o`zidan ma`lumki, tanasiz shoh ham bo`lmaydi, shohsiz daraxt esa-bu oddiy bo`tadir, irmoqsiz daryo ham barkamol daryo tizimini shakllantirmaydi.

Demak, ixtisoslashuv majmuali, har tomonlama rivojlanish bilan uyg`unlashuvi kerak. Zero, ixtisoslashuvda yo`l quyilgan xatolar oqibatini hozirgi kunda sezib turibmiz. Bu kamchiliklar ayniqsa, Sobiq ittifoqdosh respublikalarning o`zaro iqtisodiy aloqalarini buzilishida o`z aksini topmoqda. Shu sababli e`tibor ko`proq har bir mamlakatning mumkin qadar atroflicha rivojlanishiga qaratilmoqda. Albatta, bunday taraqqiyot O`zbekistonni jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan farq qildiruvchi, uning o`rnini belgilab beruvchi ixtisoslashgan tarmoqlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Mintaqa va mamlakatlarning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, eng avvalo, ulardagi mutloq va nisbiy afzalliklarga bog`liq, bu erda yaratilgan mahsulot uni boshqa joyda etishtirishga ko`ra arzonroq, kam xarajatlirok bo`lishi kerak. Odatda, har bir mamlakat yoki uning alohida qismlari o`zidagi qulay va arzon omillardan foydalanib, qiyin va qimmat omil mahsulotlarini chetdan olib keladi.

Ixtisoslashuvning ham tub mohiyati, maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirishdir. Tabiiyki, bir kishining har xil mahsulot yaratish, yoki har xil kasb bilan shug`ullanishidan ko`ra muayyan ishni bajarishi foydali. Qolaversa, mehnatning bir to`rini uning ikkinchi turi bilan almashuvi davomida vaqt ham ketadi, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati yaxshi bo`lmaydi. Ammo, bu erda sof ijtimoiy ixtisoslashuv kishining fikr doirasini toraytiradi, uni oddiy robotga aylantirib qo`yadi. Ko`rinib turibdiki, ijtimoiy hayotda ham, ishlab chiqarishda ham tor ixtisoslashuv yaxshi natijalar bermaydi.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda va qisman o`zimizda ham bozor munosabatlariga mos ravishda iste`mol, talab individuallashtirib, xususiylashtirib bormoqda. Avvallari bir mamlakat yoki rayon mahsulotning bir turiga

ixtisoslashgan va u bilan mintaqaviy va jahon bozorida qatnashgan bo'lsa, endigi sharoitda o'sha mahsulotning o'zi turli shaklga, ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Masalan, hozirgi davrda engil mashinalar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar faqat bir turda bo'lishi ularning raqobatbardoshligi va xaridorligini ta'minlamaydi. Binobarin, endigi sharoitda konveyr usuli, miqdor ko'rsatkichlari muhim emas, aksincha «postfordizm», masshtab (miqdor) samaradorligining o'rniga turli xillik, sifat samaradorligi oldinga surilmoqda.

Shunday qilib, ixtisoslashuv ham mujassamlashuv kabi rivojlanganlikning muhim belgisidir. Ammo, har ikkisinin ham chegarasi bo'lishi kerak. Xuddi shu nuqtai nazardan kooperatsiya yoki hamkorlik yanada samaraliroq hisoblanadi. Bu o'rinda aytish mumkinki, kooperatsiya ixtisoslashuv bilan yaqindan bog'liq va usiz vujudga kelmaydi. Chunki, har qanday kooperatsiya turli kasb, hunar, mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashganlarning hamkorligidan boshqa narsa emas.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Shu bilan birga kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarning bir joyda o'rinishuvi uncha sezilmaydi va, aksincha, ularning tarqoq holda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiyada qatnashuvchi korxonalar soni ishlab chiqariladigan mahsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinasozlikda, aniqrog'i engil va yuk mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko'p ehtiyot qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarning ulushi bor. Masalan, Samarqandagi «SamAvto», Asakadagi «UzAvto Motors» avtomobil zavodlarining shunga o'xshash yuzlab korxonalar bilan hamkorlik qiladi. Modomiki asosiy, yakunlovchi yoki yig'uvchi bosh korxona ko'p joydan asbob-uskunalar, detall va jihozlar olar ekan, u (transport) geografik jihatdan qulay nuqtada qurilishi zarur.

Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Ichki bozordagi ehtiyojlar hajmlarining tahlili davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirish orqali sanoat kooperatsiyasini va talab yuqori bo'lgan tovarlarning alohida turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 maydagi «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Mazkur Qarorga ko'ra¹¹:

Respublika mintaqalarining tabiiy, mineral-xom ashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyati, tegishli infratuzilmasidan foydalangan holda sanoat sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish;

talab yuqori bo'lgan mahsulotlar, shu jumladan iste'mol tovarlarining ro'yxatini, mavjud ishlab chiqarishlarni kengaytirish va mahsulotlarning yangi turlari ishlab chiqarishni o'zlashtirish mexanizmlarini belgilash;

ular asosida ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarini har yili tasdiqlanadigan manzilli ro'yxatlarga kiritish;

foydalanilmayotgan bino va inshootlar negizida yangi loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, texnoparklarni qurish;

avvalo ro'yxat bo'yicha yangi mahsulot turlarini tayyorlovchi ishlab chiqarishlarni joylashtirish;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. ManbaaLex.uz.

talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishda davlat xaridlarini qo'llab-quvvatlash;

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan loyihani amalga oshirish uchun olingan kreditning 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdoriga kafillik berish;

ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini 5 foizgacha qoplash shaklida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish;

elektron kooperatsiya portalini yaratish va uning davlat xaridlari maxsus axborot portali bilan integratsiyalashuvini ta'minlash kabi bir qator imkoniyat va afzalliklar yaratilgan.

Kombinatsiya yoki kombinatlash kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu erda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyliigi, texnologik va tashkiliy birligi tushuniladi. Shu sababli kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o'laroq hududiylik xususiyati ko'proq, namoyon bo'ladi. Binobarin, unda mujassamlashuv yaqqol ko'zga tashlanadi, sababi-ko'p hollarda kombinatlashuv muayyan xom ashyoni birgalikda, atroflicha qayta ishlash bilan bog'liq. Bu ikki, yuzaki karaganda bir-biriga o'xshash tushuncha o'rtasida boshqa farqlar ham bor. Xullas, bu shaklni qaerda «kombinat» so'zini uchratsak, uni o'sha sohada ko'ramiz, hatto aholiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda ham (maishiy xizmat kombinatlari).

Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan zavod yoki tsexlardan tashkil topgan bo'ladi. Chunonchi, qopa metallurgiya kombinatlari, aniqrog'i to'liq siklli kombinatlar cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa, u holda kombinat to'liq siklga ega emas (Bekobodagi O'zbek metallurgiya kombinati xuddi shunday korxonalarandir). To'qimachilik kombinatlari yigiruv, buyoqlash, tayyorlash tsexlaridan iborat, hom ashyo bitta-paxta tolasi yoki pilla mahsuloti. Go'sht kombinatida ham yagona hom ashyo asosida bir necha mahsulot: go'sht, konserva, kolbasa kabi boshqa mahsulotlar olinadi.

Uning chiqindisidan, masalan, suyak va qondan qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohasida foydalanish mumkin, terisi esa oshlagandan so'ng charm-poyafzal sanoatida ishlatiladi. O'rmon, tsement-shifer, kimyo kombinatlarining tuzilishi ham xuddi shunday. Qolaversa, markazlashgan issiqlik elektr stantsiyalari ham kombinat xususiyatiga ega, chunki ular ayni paytda elektr energiyasi va par (bug') beradi.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozlikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu erda ham u mavjud, zotan metallardan asosiy mahsulot bilan bir qatorda xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyot qismlar, bolalar aravachasi (kolyaska) va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollarini ham ishlab chiqaradi.

Umuman olganda, ishlab chiqarishning barcha ijtimoiy shakllari o'zaro bog'liq. Jumladan, ixtisoslashgan korxonalar yoki kooperatsiya va kombinatsiya doirasidagi ishlab chiqarish bo'g'inlari ham u yoki bu ko'rinishda mujassamlashuvni anglatadi. Biroq, bu erda ularning bir joyda to'planganligi, yig'ilganlik darajasi boshqa joylarga nisbatan yuqori bo'lishi lozim, aks holda tom ma'nodagi mujassamlashuv bo'lmaydi.

So'nggi yillarda ixtisoslashuvda uning detal va texnologik ixtisoslashuv shakli qisqarib borish hollari kuzatilmoqda. Ayni vaqtda tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ya'ni predmet ixtisoslashuvi keng rivojlanadi, ayniqsa detal va texnologik ixtisoslashuv kooperatsiya va kombinatlashuvda ko'proq ishtirok etadi. Bunday vaziyat qisman o'tish davrining o'ziga xos qiyinchiliklaridan ham kelib chiqadi.

Ixtisoslashuv ishlab chiqarish jarayonini ajratadi, yakkaalaydi, kooperatsiya esa uni umumiyashtiradi, kombinatlashuv birlashtiradi. Ularning barchasi ayni vaqtda u yoki bu darajadagi korxonada tashkil etiladi, mujassamlanadi. Masalan, har qanday kombinat yuqori darajadagi mujassamlashuv, yirik korxona demakdir.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Eng muhimi shundaki, korxonalarning katta-kichikligi, ularning ixtisoslashuvi va o'zaro uyg'unlashuvi endi ko'p jihatdan davlatga, yagona markaz va rejalashtirishga bog'liq emas. Korxonalar, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar bir-birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa, sheriklik qiladilar. Davlatning vazifasi esa bu jarayonni turli mexanizmlar orqali tartibga solish va boshqarib borishdan iborat bo'ladi.

2.3. Hududiy mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlashtirish

Hududiy mehnat taqsimoti iqtisodiy taraqqiyotning muhim asosiy omilidir. U ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim bir qismi yoki tomoni sifatida jamiyat, ijtimoiy-siesiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maxsus ilmiy adabiyotlarda hududiy mehnat taqsimoti tushunchasiga o'xshash yana boshqa iboralar ham mavjud: geografik mehnat taqsimoti, regional mehnat taqsimoti, akvatorial mehnat taqsimoti va h.q.

Dastlab hududiy mehnat taqsimoti ta'limotini ingliz klassik iqtisodchilari A. Smit va D. Rikardolar yaratgan. Ular *merkantilizmga* karshi ochiq erkin savdo, ya'ni *fritredizm* g'oyasini oldinga surishgan. Bu g'oyaning asosiy mohiyati har bir mamlakat yoki mintaqa o'zida nisbatan qulay va arzon mahsulotlarni chetga chiqarib, bu erda ishlab chiqarish xarajatlari ko'p va qimmat mahsulotlarni sotib olishdan, import qilishdan iboratdir. Bunday fikrlash asosida mutlaq va nisbiy (kiyosiy) qulaylik yoki afzallik yotadi. Xuddi shunga o'xshash g'oya ishlab chiqarish omillari nuqtai nazaridan shved iqtisodchilari E.Xeksher va B.Olinlar tomonidan ham yaratilgan. Buning ma'nosi - har bir mamlakat o'zida arzon omil mahsulotini chiqarib, qimmat omil mahsulotini chetdan keltirish demakdir.

Ko'rinib turibdiki, mehnat taqsimoti har bir joyning o'zida qulay va arzon bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini anglatadi. Ixtisoslashuv esa yaratilgan mahsulotning mikdor va sifat jihatidan yaxshi, uni mahalliy bozorlarni kondirgan holda boshqa mintaqaviy, halkaro va jahon bozoriga chiqarish imkoniyatini nazarda tutadi. Aynan shu ma'noda hududiy mehnat taqsimoti tashqi savdo yuritishning asosi bo'lib xizmat qiladi, savdo esa, iqtisodchilar fikricha, har

qanday boylikning yaratuvchisidir. Yuqorida keltirilgan ilmiy g'oyalar buyicha bunday hududiy mehnat taqsimoti, mintaqalararo va halkaro savdoda har ikki tomon ham yutadi.

Hududiy mehnat taqsimoti mamlakat va rayonlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi, belgisi bo'lib hisoblanadi. U qay darajada keng tashkil qilingan, diversifikatsiyalashtirilgan (ya'ni turlangan) bo'lsa, mamlakat ham shuncha rivojlangan bo'ladi. Ayni vaqtda hududiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligi mamlakatda intensiv emas, ekstensiv iqtisodiyot yunalishi mavjudligi, uning ichki salohiyatidan tula foydalanmaslik va hudud iqtisodiy zichligining pastligini aks ettiradi. Hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmagan sharoitda mamlakatning iqtisodiy makoni to'laligicha shakllanmaydi, uning geosiyosiy va iqtisodiy xavfsizligi ta'minlanmaydi, iqtisodiy landshafti zaif va qutbiylashmagan bo'ladi.

Hududiy mehnat taqsimotining turli darajalari, bosqichlari mavjud. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: jahon miqyosidagi hamda davlatlarning ichki mehnat taqsimoti. O'z navbatida ular ham turli bosqichlarga bo'linadi. Masalan, birinchi guruhda jahon mamlakatlari va xalqaro, ya'ni alohida mamlakatlararo mehnat taqsimoti ajratiladi. Barcha mamlakatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlar jahon xo'jalik tizimi va bozorini vujudga keltiradi, alohida mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya jarayonlari esa yirik mintaqalar iqtisodiy hamkorligi va bozorlarni shakllantiradi.

Chunonchi, 1957 yilda tashkil qilingan umumiy bozor - hozirgi kunda o'zining tarkibini muntazam ko'paytirib borayotgan, 15 mamlakatni birlashtiruvchi Evropa Ittifoqi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, dastavval 1967 yilda asos solingan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining hududiy uyushmasi (ASEAN, hozir u 10 davlatni birlashtiradi) yoki 1989 yilda ta'sis etilgan Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligi, Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi ham shular jumlasidandir. Bu borada MDH hududida, jumladan, O'rta Osiyo va Qozog'iston mintaqasida ham shakllanib bormoqda. Xususan, 2001 yilda olti mamlakat rahbarlari Shanxay xamkorlik

tashkilotini tuzish haqida Deklaratsiya imzolashdi. Tashkilotning maqsadi - Markaziy Osiyodagi vaziyatni barqarorlashtirish, davlatlar o`rtasidagi do`stlik va qo`shnichilik aloqalarini mustahkamlash, shuningdek siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, deb belgilangan.

Buning oqibatida xalqaro mehnat taqsimotining asosiy subyekti sifatida alohida mamlakatlar emas, balki ko`proq mamlakatlararo iqtisodiy uyushmalar katta ahamiyatga ega bo`ladi.

Davlat ichidagi mehnat taqsimoti quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Yirik iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimoti;
2. Viloyat va boshqa turdagi ma'muriy-hududiy birliklar o`rtasidagi mehnat taqsimoti;
3. Viloyat ichidagi mehnat taqsimoti;
4. Mahalliy mehnat taqsimoti.

Bu darajadagi hududiy mehnat taqsimotining tarkibiy tuzilishi mamlakatlar maydonining katta-kichikligi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog`liq.

Iqtisodiy rayonlashtirish. Hududiy mehnat taqsimoti va uning doimiy «yo`ldoshi» bo`lgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Ular esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ammo hududiy tarkib faqat iqtisodiy rayonlar turidan iborat emas, u ma'muriy birliklar, tabiiy geografik va gidrografik omillar asosida ham belgilanishi mumkin.

Iqtisodiy rayonlar mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obyekti hisoblanadi. Agar ilgari iqtisodiy rayonlashtirish xalq xo`jaligini planlashtirish maqsadida ajratilgan bo`lsa, hozirgi sharoitda ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishning asosiy shakli, davlat mintaqaviy siyosatining obyekti, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni tartibga solib borish va boshqarish uchun zarur. Qolaversa, iqtisodiy rayonlarsiz mamlakat xo`jaligi ichki tuzilishi, hududiy tarkib va tizimini o`rganish ham qiyin. Aynan ana shu maqsadlarda iqtisodiy rayonlashtirishning amaliy ahamiyati yanada oshib bormoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 11 ta yirik iqtisodiy rayonlar negizida ettita federal okruglar

ajratilgan. O'zbekistonda ham iqtisodiy rayonlashtirish mamlakatni ijtimoiy-siyosiy tashkil etish va boshqarish uchun zarur.

Iqtisodiy rayonlashtirish mamlakat hududining katta-kichikligiga unchalik bog'liq emas, eng muhimi iqtisodiy makon ichki jihatdan turlangan bo'lishi kerak. Ichki tafovutlar qanchalik katta bo'lsa, iqtisodiy rayonlar turi va tizimi ham shuncha rivojlangan bo'ladi. Chunonchi, maydoni juda katta bo'lgan Avstraliya mamlakatida juda ko'p iqtisodiy rayonlarni ajratish qiyin, vaholanki unga qaraganda ancha kichik bo'lgan Evropa davlatlarida bir qator rayonlar shakllangan.

Iqtisodiy rayonlarning turlari va shakllari har xil; ular butun mamlakat hududini o'z ichiga olishi (unda maydon, iqtisodiy ahamiyatidan kat'iy nazar, turli qismlarga bo'linadi) yoki uning alohida joylarida, ya'ni diskret holda ajratiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonlar umumiy (integral) va tarmoq rayonlarga bo'linadi.

Iqtisodiy rayonlar turli omillarga qarab ajratiladi. Ular quyidagilar:

hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv;

bozorga muljallangan mahsulot ishlab chiqarish, bozor makonining shakllanganligi;

tabiiy sharoit va qazilma boyliklar, ularning hududiy birikmalari;

aholi va mehnat resurslari;

rayon hosil qiluvchi va uni tashkil etuvchi markazning yoki markazlarning mavjudligi;

iqtisodiy geografik o'rni;

transport turining rivojlanganligi;

mintaqaviy infrastruktura tizimining shakllanganligi va h.q.

Barcha rayon hosil qiluvchi omil va tamoyillar ikki katta guruhni tashkil qiladi: iqtisodiy (bozor iqtisodiyoti, mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kompleks rivojlanish, transport) va hududiy yoki geografik (tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar, infrastruktura va aholi joylashuv tizimi, geografik o'rni). Bu ikki asosiy qism birligi, ya'ni iqtisod hudud iqtisodiy rayon atamasini shakllantiradi. Bulardan

tashqari, fan-texnika taraqqiyoti, ekologiya kabilar ham rayon chegaralarini aniqlashda ma'lum ahamiyatga ega.

Yuqoridagi omil va shartlarga ko'ra mamlakatning iqtisodiy makoni bir necha rayonlarga bo'linadi. Hozirgi sharoitda ayniqsa bozor ta'sir doirasi katta ahamiyatga ega. Nemis olimi A.Lyosh ham iqtisodiy landshaftlarni (ya'ni rayonlarni) bozor makoniga qarab ajratgan edi.

Ba'zi olimlar iqtisodiy rayonlarning obyektiv borligiga shubha bildiradilar (masalan, amerikalik R.Xartshorn) va ular faqat rasmiy chegaralarni tan oladilar. Bu xususda aytish joizki, umuman yoki barcha sohalarni qamrab oladigan «hammabop» rayonlar yuq, balki aniq sohalarning real hududiy tarkib va tizimlari rayonlari mavjud (sanoat va qishloq xo'jaligi, sotsial rayonlar; sanoat tuguni shaharlar aglomeratsiyasi va hq).

Hududiy mehnat taqsimotiga o'xshash iqtisodiy rayonlar ham pog'onasimon bo'ladi. Chunonchi, mamlakat ichida bir necha iqtisodiy rayonlarni birlashtiruvchi yirik iqtisodiy mintaqa yoki okruglar, asosiy iqtisodiy rayonlar, ma'muriy-iqtisodiy rayonlar, viloyat ichidagi rayonlar va nihoyat, mahalliy iqtisodiy rayonlar (bizning Respubli-kamizda-qishloq tumanlari) bor. Ularning har biriga turli darajadagi bozorlar mos keladi.

Har bir iqtisodiy rayonning o'ziga xos rayon hosil qiluvchi omil va ishlab chiqarish tarmog'i mavjud. Ba'zi rayonlar shakllanishida qazilma boyliklar, boshqasida-transport geografik o'rin, uchinchisida - malakali ishchi kuchi, turtinchisida yirik shahar va ayniqsa poytaxt shahar omili muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xatto joyning geologik tuzilishi bilan iqtisodiy rayonlashtirish o'rtasida ham aloqadorlik mavjud. Bu haqda dastlab tanikli rus olimi Yu.G.Saushkin fikr bildirgan edi.

Odatda, kombinatlashuvga va hamkorlikka moyil tarmoklarning rayon hosil qilish salohiyati kuchli bo'ladi. Masalan, neft va neftni qayta ishlash sanoati, qora va rangli metallurgiya, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa tarmoqlarda bu holat kuzatiladi. Shuningdek, bunday rolni transport, rekreatsiya, xalqaro turizm ham bajarishi mumkin.

Iqtisodiy rayon o`ziga xos hududiy majmua va hududiy tizimni tashkil etadi. Albatta, bu erda rayon, kompleks va sistema tushunchalari aynan bir mazmunga ega emas, ammo ularning bir-birlariga yaqinligini ham inkor etish noo`rindir. Har qanday iqtisodiy rayon kompleks, hududiy majmua printsiptiga asoslanadi. U komplekslik, eng avvalo turli daraja va ahamiyatga ega bo`lgan tarmoqlarning mavjudligi, ularning o`zaro muvofiqlashgan holda (proportsional) rivojlanishida o`z ifodasi topadi.

Chunonchi, har bir rayonda ixtisoslashgan, ya'ni bozor ahamiyatiga ega bo`lgan tarmoq va tarmoqlar, ularni to`ldiruvchi yordamchi, ikkinchi darajali tarmoqlar va mahalliy ehtiyojlarga qaratilgan mahalliy bozorni tuyintiruvchi tarmoqlar mavjud bo`ladi. Shu 3 bug`inning qaysi biri shakllanmagan bo`lsa, u holda to`laqonli iqtisodiy rayon to`g`risida so`z yuritish qiyin.

Odatda, har bir yirik iqtisodiy rayon bazaviy tarmoqlapra ega bo`lishlari kerak. Ularga, masalan, elektro-energetika, qurilish sanoati kabilar kiradi. Ayni vaqtda bu tarmoqlar yuqoridagi 3 guruhdan iborat bug`inlarning biriga ham kirishi mumkin.

Demak, ana shu mazmunda iqtisodiy rayonni hududiy ishlab chiqarish majmuasi shaklida talqin qilsa bo`ladi. Ammo real hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan rayon ishlab chiqarish majmualari bir xil emas; birinchisi, xaqiqiy bog`liq bo`lsa, ikkinchisi ko`p jihatdan ma'muriy — boshqaruv ma'nosidagi majmuadir. Jumladan, Angren — Olmaliq yoki Qarshi hududiy ishlab chiqarish majmualari bilan Toshkent viloyati yoki Qashqadaryo hududiy majmualari bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiy rayonda bir emas, bir necha hududiy ishlab chiqarish majmualari bo`lishi va ayni vaqtda majmua hosil qiluvchi tarmoqlar ham mavjud bo`ladi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, har qanday rayon ilmiy o`rganishning yoki bilim egallashning o`ziga xos usulidir; u klassifikatsiya va tipologiya singari umumiy guruhlash turlariga kiradi. Binobarin, rayon hududiy guruhlash demakdir, biroq har qanday guruh kompleks yoki sistema bo`la olmaydi. Kompleks esa birlik, uyg`unlikni, texnologik aloqalarni anglatadi.

Agar aniqroq qaraladigan bo'lsa, tizim (sistema) tushunchasi yanada murakkabroq bo'lib, uning o'ziga xos talab va shartlari mavjud. Jumladan, tizim tarkibdan yoki «tizimcha»dan tashkil topishi, pog'onasimon (ierarxiyal) bo'lishi, mustaqil faoliyat ko'rsatish, boshqaruv kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Tabiiyki, bunday darajada yondoshilsa har qanday rayon va xatto majmua ham haqiqiy tizim bo'la olmaydi.

Biroq shunga qaramasdan, iqtisodiy rayon hududiy majmua va hududiy tizimlardan unchalik uzok emas. Chunki, iqtisodiy rayon mamlakat hududining ma'lum bir xo'jalik tarmog'iga (yoki tarmoqlariga) ixtisoslashgan va bu jihatdan qo'shni, tutash hududlardan farq qiluvchi, umumiy iqtisodiy landshaft shakliga ega bo'lgan qismidir. U yaxlit iqtisodiy makon sifatida hududiy tizim ma'nosini anglatadi.

Iqtisodiy rayon hududiy mujassamlashuv va hududiy ixtisoslashuvning o'zaro uyg'unlashgan, ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish, ushbu jarayon iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi muhim omil yoki shakldir. Zero, har qanday iqtisodiy rayon yoki mintaqalar biror bir xo'jalik tarmog'ini boshqa joylarga qaraganda bu erda ko'proq to'planganligi, rivojlanligi demakdir.

Iqtisodiy rayonlashtirishning eng qadimiy yunalishi qishloq xo'jaligini joylashtirish bilan bog'liq. Sababi qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etish xususiyatlari, ya'ni uning arealsimonligi makroiqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ko'ra yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya va iqtisodiyot tarixi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini rayonlashtirish va joylashtirish tarixi bilan belgilanadi. Bejiz emaski, O'zbekistonda ham bu boradagi ilmiy ishlar dastavval aynan ana shu tarmoqni joylashtirish va rayonlashtirish bilan boshlangan (V.N.Chetirkin, QN.Bedrintsev, Z.M.Akramov, Soliev A., I.Lapkin, Q.N.Abirkulov, R.A.Hodiev va boshqalar).

Iqtisodiy rayonning hududiy tizimga yaqinligining yana bir tomoni shundaki, u ayni vaqtning o'zida ham monogen, ham gomogen xususiyatga ega. Agar tizim-tarkib uslubi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy rayon tashqi jihatdan, ya'ni «yopiq» tizim shaklida asosan bir xillik landshaftdir va ichki

jihatdan yoki «ochiq» tizim shaklida u turli-tuman, ichki tafovutlarga boy hududiy birlikni anglatadi.

Mohiyatan, iqtisodiy rayon mamlakat ma'muriy-hududiy tarkibini tashkil etish va boshqarishda katta amaliy ahamiyatga ega. Ammo, bu erda ma'muriy-hududiy masalalarning ayrim hollarda subyektivligi, yuqoridan tashkil qilinishi va iqtisodiy rayonlashtirishning «ichkaridan», obyektiv holda shakllanishi o'rtasida nomuvofikliklar kelib chiqadi. Buning ustiga ma'muriy birliklar chegarasi va soni tez-tez o'zgarib turadi, iqtisodiy rayon esa ancha turg'unlikka ega. Binobarin, mamlakatni ma'muriy rayonlashtirish bilan uni iqtisodiy rayonlashtirishni tug'ri yo'lga quyish muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. Shu jihatdan ham qaraganda, iqtisodiy rayonlashtirish va iqtisodiy rayonlar o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolaveradi.

2.4. Ishlab chiqarishni kuchlarini joylashtirishning klassik g'oyalari

Jahon xo'jaligining yagona tizimi vujudga kelganga qadar xalqaro (geografik) mehnat taqsimoti uncha rivojlanmagan edi. Hatto XVII-XVIII asrlargacha ko'pgina mamlakatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o'zlarining ichki bozorlariga chet el mahsulotlarini kiritishga qarshi siyosat olib borar edilar. Bu siyosat, yoki importni cheklash iqtisodiyot tarixida merkantilizm nomi bilan o'rin olgan.

Albatta, bunday sharoitda jahon bozori xususida so'z yuritish mumkin emas. Jahon bozori erkin iqtisodiyot, ochiq savdo tizimini joriy qilishni taqozo etadi. Ana shunday yo'nalish fritredizm, ya'ni erkin savdo deb ataladi. Uning ilmiy asosini yaratishda A.Smit va, ayniqsa D.Rikardoning xizmati katta bo'lgan. Ularning g'oyalari xalqaro geografik mehnat taqsimotini keng ko'lamda rivojlantirish, mamlakatlararo savdo sotiqni faollashtirishga qaratilgan bo'lib, u qiyosiy imtiyoz yoki qulaylik qonuni («zakon sravnitel'nogo preimuhstva») nomini olgan. Bu qonunning asl mohiyati shundaki, har bir mamlakat o'zining ichki imkoniyat va sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma'lum mahsulotni boshqa davlatlarga qaraganda arzonroq, ya'ni kamroq xarajat bilan etishtiradi va uni bozorda oson

realizatsiya qiladi. Sotilgan mahsulotning puliga o`zida yo`q, yoki etishtirishi qimmatroq, xarajatliroq tushadigan tovarni xarid qilib oladi. Bunday tovar ayirboshlash naqd pulsiz, «ayr-bosh», ya`ni barter usulida ham olib borilishi mumkin.

Fritredizm g`oyalarini amalga tatbiq qilish jahon xo`jaligining shakllanishiga, mehnat taqsimotini rivojlantirishga katta ta`sir ko`rsatadi. Ayni paytda mamlakatlar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va hududiy tashkil qilishida ham o`zgarishlar yuz berdi.

I.Tyunenning «qishloq xo`jalik standarti» nazariyasi

Bevosita ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ilmiy g`oyalar dastavval Germaniyada yaratilgan. Masalan, nemis mulkdori Iogan Genrix Tyunen XIX asrning 20-30-nchi yillarida o`zining qishloq xo`jaligi tarmoqlarini joylashtirish bo`yicha ilmiy fikrlarini maxsus asarlarida bayon qildi (ruscha nomi «Izolirovannoe gosudarstvo»).

Tyunen g`oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya`ni iste`mol markazi atrofida qishloq xo`jalik mahsulotlarini etishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g`oyani amalga tatbiq qilish uchun xo`jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar –Meklenburgdagi Rostok) o`rtasidagi masofa, qishloq xo`jalik mahsulotining narxi, qiymati va yer rentasiga asoslanadi. Yer rentasi esa unga qo`yilgan mablag` bilan olingan daromad nisbati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi shartlar yordamida I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo`jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yaratadi. Bu tizim adabiyotda «Tyunen xalqalari» nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni etishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste`mol markazi atrofida xalqasimon joylashadi. Masalan, birinchi xalqa-bog`dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi; ikkinchisi – o`rmon xo`jaligi (o`sha davrda o`tin uchun), uchinchi xalqa-kartoshka, arpa etishtirish va urug`chilik, sut chorvachiligi, to`rtinchi-yuqori unumdor g`allachilik va sut-go`sht chorvachiligi, beshinchi- g`allachilik va nihoyat, oltinchi xalqa –yaylov chorvachiligi.



2.1-chizma. I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimi

I.Tyunenning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib yerdan foydalanish masalalarini ko'tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga «iqtisodiy makon» tushunchasini kiritdi. U o'zining abstrakt modelida mahsulotning bozorga-iste'molchiga arzon va sifati buzilmagan holda yetkazib berishiga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, I.Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy asosini yaratuvchisi bo'ldi.

A. Veberning shtandort nazariyasi

1909 yilda Tyunenning vatandoshi –Alfred Veber «Sanoat shtandorti to'g'risida» nomli asarini chop ettirdi. U o'zining diqqat-e'tiborini sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarga qaratdi. Shu maqsadda Veber omillarning ta'sir kuchiga qarab, tabaqalashtirdi, asosiy hal qiluvchi omilni aniqladi.

A.Veber sanoat shtandortining asoschisidir. Shtandort esa-korxonaning o'rnatilgan joyi yoki korxonaning optimal (standart) joylashgan nuqtasi ma'nosini anglatadi. Joylashtirish omili u yoki bu korxonani qurishda ko'zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik, foyda nuqtai nazaridan baholanadi.

Bu foyda, Veber fikricha asosan hom ashyomahsulotni realizatsiya qilish, transport va ishchi kuchiga ketgan xarajatlar nisbati hamda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan tashkil topadi. Keyinchalik u xom-ashyo va mahsulotni sotish bilan bog'liq omilni umumiy transport sarf-xarajatlarga kiritdi. Chunki,

mahsulotning tannarxiga xom-ashyoni keltirish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi.

Natijada, sanoat shtandortini belgilovchi ikkita omil –transport va ishchi kuchi (mehnat resursi) olindi. Veber keyinroq ularga yana bir muhim omilni qo'shdi – u ham bo'lsa aglomeratsiya omilidir.

Transport omiliga mahsulot yoki xom-ashyoning vazni, tashiladigan masofa, mehnat resursida ish xaqi, aglomeratsiya omilida esa korxonalarning bir joyda to'planishi hisobga olinadi.

A. Veber ilmiy adabiyotda o'zining shtandort nazariyasi, «joylashtirish omili» va «aglomeratsiya samaradorligi» tushunchalarini kiritganligi bilan mashhurdir. Aglomeratsiya samaradorligi - bu asl mohiyatiga ko'ra mujassamlashuv (kontsentratsiya) samaradorligi bo'lib, u hozirgi kunda korxonalarning yiriklashuvidan, ya'ni miqyos, masshtab iqtisodi asosida emas, balki korxonalarning kooperatsiya va ixtisoslashuv («xilma-xillik», yoki sifat iqtisodi) natijasida erishiladi.

Nemis iqtisodchisi A.Veber «Sanoat shtandorti nazariyasi» nomli asarida sanoatni joylashtirishning quyidagi uchta omil yoki yo'nalishi ajratib ko'rsatadi:

1. Transport yo'nalishi, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini transport xarajatlari eng kam bo'lgan aholi manzilgohlarida ko'rishga intiladilar.

2. Ishchi yo'nalishi, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini eng arzon ishchi kuchi mavjud aholi manzilgohlarida qurishga intiladilar.

3. Aglomeratsiya, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini boshqa sanoat korxonalari to'plangan hududlarda ko'rishga harakat qiladilar va bu bilan transport yo'llari, energetika xo'jaligi, kommunal xo'jaligi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimi) barpo qilishga bo'lgan xarajatlarini qisqartirishga harakat qiladilar.

A.Veber ta'limoti keyinchalik O.Englender, T.Palander, A.Lyosh, V.Kristallerlar tomonidan rivojlantiriladi. Xususan, V.Kristallarning «Markaziy joy» nazariyasi aholi manzilgohlarining joylashishini asoslasa, A.Lyosh shtandort nazariyasini takomillashtirish orqali monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat

chegarasi, xalqaro savdo, texnika taraqqiyoti va boshqa tushunchalar mohiyatini ochib beradi.

I.Tyunen (qishloq xo'jaligi) va A.Veberning (sanoat shtandorti) g'oyalari abstrakt sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan bo'lsada, ularning ilmiy ahamiyati hozirgacha yo'qolmagan. Bu oqimlarining g'oyalarini «omillar tahlili» shaklida umumlashtirish mumkin. Omillar esa hududda ayrim joylarni tanlab olish va pirovard natijada hududiy mujassamlashuv va hududiy notekisliklarni yoki geografik tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishning ikki asosiy tarmog'i, ya'ni qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalar yaratildi. Endi navbatida aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etish muammolariga keldi. Bu haqdagi ishlanmalar ham nemis olimi Valter Kristallerga tegishli. U 1930-yillarda aholining hududiy tarqalishi va joylanishi masalalarini o'rganib, o'zining «Janubiy Germaniya markaziy o'rinlari» nomli kitobini yozdi.

Markaziy o'rinlar turli yiriklikdagi shahar va boshqa aholi manzilgohlari bo'lib, ular o'ziga xos ta'sir doirasi, xizmat ko'rsatish radiusiga ega. Ideal holatda har xil miqyosdagi markaziy o'rinlar geografik muhitda oltiburchak shaklga ega va ular asalarining uyasini eslatadi.

V.Kristallarning «Markaziy joy» nazariyasi.

V. Kristallyer «Markaziy o'rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisob-kitoblar orqali hududiy iyerarxiya bir darajadan boshqa darajaga to'g'ri geometrik progressiya orqali o'tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o'z navbatida tumanlar ko'plab qishloq fuqarolari yig'inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o'ziga tegishli bo'lgan tovar va xizmatlar yo'naltirilgan. Shunday qilib, olim aholi punktlari guruhiiy tizimini tashkil etishning qulay variantini aniqlash orqali markaziy o'rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo'nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma'muriyatining qulay tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

Hududiy nazariyalarni (shu jumladan, hududiy siyosat nazariyalarini) o`rganishga oxirgi o`n yilliklarda nisbatan kamroq e`tibor berildi. To`g`ri, hududiy iqtisodiyot bo`yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, hududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko`rib chiqildi. Hududiy o`sinh nazariyalarini ko`rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – hududlarda iqtisodiy o`sinh modellarini qo`llash. Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o`sinhini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o`xshatish mumkin. Ikkinchisi esa, alohida korxona va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslangan. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina belgilab beradi. Kompaniyalar o`z faoliyatini u yoki bu hududda olib borishining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko`rib chiqiladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari: ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo`jaligining kompleks rivojlantirish, hududiy mehnat taqsimotidan iboratdir.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o`rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo`ladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e`tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;
- mintaqalar o`rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;
- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab

chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo'lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xomashyo, yoqilg'i, energiya va iste'mol manbalariga yaqinligini ta'minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Mintaqalar o'rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shuning uchun har bir mintaqa faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi

Boshqa, yosh va iste'dodli nemis olimi Avgust Lyosh o'zidan oldingi vatandoshlarining ilmiy ishlanmalarini umumlashtirib (u A.Veberning o'quvchisi edi), barcha xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish to'g'risida ish olib bordi. A.Lyosh g'oyalarining mohiyati uning maxsus kitobida (ruscha nomi «Geograficheskoe razmeshenie xozyaystva»-M. 1959) bayon etilgan. Kitobning asl nusxasi. qo'lyozmasi 1940 yilda nashr qilingan.

A.Lyosh qishloq xo'jaligining areal maydon sifatida, sanoatning esa nuqtasimon hududiy tashkil etish xususiyatlarini asoslab berdi. U birinchi bo'lib «bozor muhiti yoki makoni», «iqtisodiy landshaft» (hozirgi kunda –iqtisodiy rayon) tushunchalarini yaratdi va fanga kiritdi. Agar avvalgilar, xususan I.Tyunen va A.Veber alohida korxonani, tarmoqni o'rgangan bo'lishsa, A.Lyosh ishlari barcha xo'jalik sohalarini qamrab oldi va o'z mohiyatiga ko'ra mikroiqtisodiy bozor munosabatlari, uning ta'sir doirasi xaqiqiy rayon tashkil qiluvchi omil ekanligi ta'kidlandi, matematik usullarni keng qo'lladi. Aynan ana shu tamoyillarni hozirgi kunda O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga tatbiq qilish ahamiyatdan holi bo'lmasa kerak.

A.Lyoshning kontseptsiyasiga ko'ra yangi korxonalarni joylashtirishda yuqori foyda olishni ko'zlagan tadbirkorlar bilan butun iqtisodiyot manfaatlari o'rtasida kurash ketadi. Ushbu ta'limotlar bozor munosabatlari hukmron sharoitda yuqori foyda olishni ko'zlagan samarali ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning nazariy jihatdan asoslashga qaratilgani bois, uning bir qator yo'nalishlari - V.Bungening «markaziy joy» M.Skarletning «joylashishning uch tipi», F.Perruning «rivojlanish qutbi» va «rivojlanish markazlari», shuningdek, «yangi g'oyalar» (diffuzii novovvedeniye-yangilik kiritish) yuzaga keldi.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlangan fan-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, hududiy tashkil qilishni takomillashtirishning «klassik» nazariyalariga bir qator «tuzatishlar» kiritdi¹². Ular jumlasiga:

a) sanoatning o'ta yangi tarmoqlari, avvalo, ilmiy tadqiqot va loyihalash-tajriba ishlari bilan chambarchas bog'liq «ilmtalab» sohalarning gurkirab rivojlanishi;

b) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sanoat tarmoqlariga ko'chishi agrosanoat majmuasining (agrobiznes) shakllanishi;

v) infratuzilma sohalarning milliy daromaddagi hissasi barqaror ortib borishi;

g) ishlab chiqarish tizimini tobora transport-geografik o'ringa va xomashyoga bog'liqligining qisqarib borish jarayoni;

d) ilmiy tadqiqot ishlari va loyihalash-tajriba markazlari rolining ortib borishi;

j) yuqori malakali mehnat hissasining tobora keng rol o'ynashi;

z) ijtimoiy-ekologik omillar - ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida ro'y bergan sezilarli o'zgarishlarni keltirish mumkin.

Bu esa, o'z navbatida, «joylashtirish» nazariyasida D.J.Gelbreytning «industrial jamiyat», U.Izardning «joylashtirishning bozor nazariyasi» kabi yangi yo'nalishlar rivojlanishiga zamin hozirladi¹³.

Biroq, mavjud vaziyat «tabiat-jamiyat» tizimida aholi va u bilan bog'liq qonun va qonuniyatlar mohiyatini to'laqonli ochib berishga imkon bermagan.

¹² Regionalnaya ekonomika/ Pod red. G. Polyaka. – M.: Yuniti-Dana, 2013. – 464 s.

¹³ Fetisov G.G. Regionalnaya ekonomika i upravlenie: uchebnik. – M.: INFRA-M, 2012. — 416 s.

Ta'kidlash joizki, I.Tyunen va A.Veber g'oyalari o'z davri talabiga mos kelardi. Sababi – u davrda hududning iqtisodiy sig'imi, zichligi uncha yuqori emas, hududiy-iqtisodiy manzara qutbiylashmagan, ya'ni deyarli bir tekis edi. Ana shunday iqtisodiy geografik holat alohida korxona yoki tarmoqlarni ayrim joylarda o'rinlashtirish ta'sirida o'zgaradi, notekislik xususiyatini oladi. Boshqacha qilib aytganda, avvalgi tabiiy ko'rinishdagi iqtisodiy tekislik notekislikka, xududiy mujassamlashuvning ko'chayishiga o'zgaradi. Buning natijasida notekislikni tekislashga urinib ko'radigan ilmiy izlanishlar talab etildi. Xuddi shunday regulyar tizimga moslashgan ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil qilish g'oyalarini V.Kristaller va A.Lyosh yaratdi.

F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasi

Iqtisodiyot nuqtai nazaridan uncha o'zlashtirilmagan, xo'jalik sig'imi past va hududlarni rivojlantirish va jonlantirish borasida o'sish qutblari va rivojlanish markazlari to'g'risidagi nazariya ham katta ahamiyatga ega. Uning asoschisi frantsuz olimi Fransua Perrudir.

F.Perru «markaziy o'rinlar» g'oyasidan kelib chiqdi, omillarni emas, tarmoqlarni rivojlanish xususiyati, harakatchanligi, atrofga ta'siri bo'yicha tabaqalashtirdi va ularni uch guruhga ajratdi. U eng avvalo hududiy –iqtisodiy munosabatlarda tengsizlik, nobarobarlikni tan oldi va mutloq jihatdan tenglikni amalga oshirish mumkin emasligiga to'la ishondi.

Perru fikricha, uchinchi guruh tarmoqlari tez, jadal rivojlanish, rayon hosil qilish salohiyatiga, qobiliyatiga ega bo'lib, aynan ana shunday mintaqaviy iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi tarmoqlar rivojlanishi o'sish markazlarini tashkil qiladi. Markazlarning mustahkamlanishi, ularda turdosh korxonalarining ko'payishi, atrofga bo'lgan ta'sir doirasining kengayishi natijasida o'sish qutblari vujudga keladi.

O'sish qutblari g'oyasi shved olimi -Lund universiteti professori (Shvetsiya) T.Xagerstrandning *yangiliklar diffuziyasi* nazariyasiga o'xshab ketadi. Faqat muallif bu g'oyani ko'proq sotsial geografiya bo'yicha ishlab chiqqan.

Chindan ham, jahon taraqqiyoti, dunyo xo`jalik tizimining rivojlanish tarixi fan-texnika yutuqlari, ilmiy yangiliklar va kashfiyotlar, innovatsiyalar, texnologik determinizm bilan bog`liq. Tarix nuqtai-nazaridan yondoshganda, jahon xo`jaligi rivojlanishida ma`lum sikllarni ajratish mumkin. Bu davr yoki sikllar yangi kashfiyotlarning ixtiro etilishi, tatbiq etilishi, tarqalishi va ularning o`rniga boshqa innovatsiyalarning kelishi bilan belgilanadi.

Maxsus adabiyotlarda amerikalik U.Rostouning (XX asr, 58-60-yillar) iqtisodiy rivojlanishning bosqichlari, stadiyalari, rus iqtisodchisi N.D.Kondratevning 30-yillarda ilmiy-texnika o`zgarishlariga asoslangan «uzun to`lqinlar» nazariyasi mavjud. Shuningdek, amerikalik olim R.Vernonning (XX asr o`rtalari) eksport tovarining hayot sikli to`g`risidagi g`oyasi ham yangiliklarning diffuziyasi va texnologik determinizm bilan bog`liq.

Diffuziya (fizikadan olingan) kengayish va tarqalish xususiyatiga ega bo`lishi mumkin. Birinchisida yangilikning amaliy tatbiq doirasi asta-sekin kengayib boradi, ikkinchisida esa bu birin-ketin sodir bo`ladi, yangilik biridan ikkinchisiga ko`chadi. Xuddi shu xususda amerikalik iqtisodchi M.Porterning (1993) markazdan chetga kashfiyotlarning, yangi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarining ko`chishi, bir mamlakatdan ikkinchi, uchinchi va h.k. darajalarga kaskadsimon o`tishi, migratsiyasi xaqidagi ilmiy ishlanmalari ham bor.

Jahon xo`jaligi tizimi (bu tushuncha asoschisi amerikalik I.Vallerstayn), uning taraqqiyotidagi sikllar davriy, tarixiy xususitga ega. Bunday yondoshuvni tik emas, gorizontal, ya`ni geografik jihatdan ham qo`llash mumkin. Natijada, iqtisodiyot rivojlanishining hududdan-hududga o`tishi, bizning iboramizda «geografik konveyr» yoki estafeta ko`z oldimizga keladi.

N.D.Kondratev jahon xo`jaligi dinamikasida 5 ta siklni ajratadi, ulardan to`rttasi industriya davriga, oxirgi 5-undan keyingi, ya`ni postindustrial davrga to`g`ri keladi. Bu davrda elektronika, lazerlar texnologiyasi, biotexnologiyalar ustuvor ahamiyatga ega. Xuddi shunga o`xshash hududiy –iqtisodiy rivojlanishning ketma-ketligini kuzatish mumkin. Bu o`rinda I.Mechnikovning jahon sivilizatsiyasi bosqichlari va bunda buyuk tarixiy daryolarning roli haqidagi

asarini ham e'tibordan chetga qoldirmaslik kerak. Muallif jahon madaniyati va taraqqiyotida daryo, O'rta dengiz va okean sivilizatsiyalarini ajratadi. Ular bir vaqtning o'zida emas, balki turli davrlarda, birining o'rnini ikkinchisini olishi bilan yuzaga kelgan.

Darhaqiqat, jahon taraqqiyoti Uzoq Sharq, Yaponiya va Xitoydan boshlanib, O'rta va Yaqin Sharqqa, undan O'rta dengiz va Pireney yarim oroliga, ulardan Angliya va nihoyat Amerikaga (AQSH)ga ko'chdi. Hozirgi davrda tarixni, iqtisodiy-ijtimoiy hayotni rivojlantiruvchi mintaqalar «uchburchagi», ya'ni AQSH-G'arbiy Evropa-Yaponiya hisoblanadi. Ayni vaqtda, yetakchi kuchning asta-sekin yana sharqqa ko'chishi alomatlari sezilmoqda. Ayni vaqtda buni Yaponiya ta'siri va boshchiligida yangi industrial mamlakatlar –janubiy Koreya, Singapur, Tayland, Malayziya, Indoneziya jadal sur'atlar bilan rivojlanishida ko'ramiz. Demak, bizning nazarimizda, iqtisodiy taraqqiyotning sikl xususiyatiga ega ekanligi faqat davr, vaqt doirasidagina emas, balki Yer shari, global geografik makonda ham sodir bo'lmoqda. Bu esa albatta jahon xo'jaligining rivojlanish va uning hududiy tarkibiga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga mintaqqa iqtisodchilari, iqtisodiy geograflar V.Leontev va U.Izardlarning tarmoqlararo va hududlararo balansi hamda mintaqaviy iqtisodiyot fani to'g'risidagi ilmiy g'oyalarini, Zipfa va Styuart, Dj.Fridman kabilarning shaharlar rivojlanishi, boshqa olimlarning «dunyoviy shaharlar» haqidagi yangi ishlarini ham bilishlari lozim. Zero ularning barchasi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bevosita bog'liq.

Biz yuqorida ishlab chiqarishni joylashtirishning ilmiy g'oyalarini asosan g'arb olimlari asarlari bo'yicha talqin qildik. O'z-o'zidan savol tug'ilishi tabiiy: nahotki uzoq tarixga, madaniyatga ega bo'lgan o'zimizning yurtimizda bunday ishlar qilinmagan bo'lsa shubha yo'q, albatta bu borada ham o'lkamiz katta va boy merosga ega. Muammo faqat ularni tarixiy manbalardan qidirib topish, o'rganish, targ'ib va tashfiqot qilish, amalga tatbiq qilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Masalan, bu erda, xususan dehqonchilikni rivojlantirish va joylashtirish, sug'orish inshootlarni qurish va foydalanish, savdo va hunarmandchilik sohalari,

shaharsozlik to`g`risida dunyo ahamiyatiga molik ixtirolar yaratilgani sir emas. Matematika, tibbiyot va boshqa fanlar tug`ilgan bu Zamin ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalariga, jahon madaniyati va tarixiga ham o`zining munosib hissasini qo`shgan.

2.5. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy omillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish o`ziga xos xususiyatiga ega. Bu borada tadbirkor albatta foydali, qo`shimcha daromadni ko`zlaydi, davlat esa ish o`rinlarini ko`paytirish, mehnat resurslarini band qilish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, hududlar rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga intiladi. Demak, bunday vaziyatda har ikki yo`nalishni muvofiqlashtirgan holda masalani echish talab etiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlari o`z-o`zidan, tasodifan hududiy tarqalmaydi, balki ma`lum shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi yoki hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o`rganishga asos bo`ladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish ma`lum qonuniyat, printsip va omillar asosida amalga oshiriladi. Qonuniyatlar, eng avvalo, omillarning o`zaro aloqadorligi, ishlab chiqdrish korxona va tarmoqdarining ma`lum hududiy va texnologik majmua shaklida tashkil etilishi, bu tarmoqlar rivojlanishidagi mutanosibliklardan kelib chiqadi. Masalan, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o`tish davrini o`zining qonuniyatlari mavjud. Ishlab chiqarishga nisbatan iste`mol, taklifga ko`ra talabning ustunligi, erkin raqobat, ochiq iqtisodiyot yurgizish, uni liberallashtirish shular jumlasidandir. Bular, albatta, ishlab chiqarishni joylashtirishga, iqtisodiy makonning shakllanishiga katta ta`sir ko`rsatadi.

Shuningdek, bu davrda vaqt va mablag`dan unumli foydalanish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlovchi sohalarni jadalroq rivojlantirish, tabiiy va mehnat resurslarini ishga solish, mintaqalararo iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu borada ishlab chiqarishni hom ashyo bazasiga, elektr manbai va iste`mol rayonlariga yaqinlashtirish printsipi

o'z kuchini saqlab qoladi. Biroq unutmaslik lozimki, barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini bir vaqtning o'zida ham xom ashyo, ham ishchi kuchi, ham iste'mol rayoniga yaqinlashtirish qiyin (yo unisi, yoki bunisiga yaqinlashtirish mumkin, ammo hammasiga emas!). Binobarin, bu tamoyilni har xil tarmoqqa nisbatan aniq qo'llash talab qilinadi.

Tabiiyki, iqtisodiyot tarmoqlari hamda mintaqalarning rivojlanishi turli xil omil va sharoitlarga ham bog'lik bo'ladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, suv va iqlim sharoitlari, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy geografik o'rin kabi omillar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologiya, ilmiy-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi roli ham oshib bormoqda.

Ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p. Modomiki bu omillar ko'p ekan, demak:

- ularning ta'sir darajasi har xil bo'ladi;
- bu omillarni guruhlash talab etiladi;
- omillar va ishlab chiqarishni joylashtirishni o'rganishda kompleks (ya'ni har tomonlama) yondoshuv zarur.

U yoki bu omilning ta'sir darajasi uning mahsulot chiqarishdagi «solishtirma og'irligi» bilan o'lchanadi yoki uning mahsulot birligi bilan nisbati hisobga olinadi. Albatga, jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji va boshqa sabablar tufayli omillarni ta'sirchanligi O'zgarib boradi. Chunonchi, agar ilgari tabiiy sharoit, xom ashyo, ishchi kuchi kabilarning ahamiyati katta bo'lgan bo'lsa, hozir ilmiy-texnika taraqqiyoti, ekologiya, bozor, iste'molining kuchayishi va turlanishi muhimroq bo'lib qolmoqda, ishlab chiqarish ko'proq mablag' talab va ilmtalab bo'lib bormokda.

Shu bilan birga ma'lum omilning ta'sirchanligi, ya'ni uning ko'p sarflanishi asta-sekin kamaytirilib boriladi. Masalan, mahsulot birligiga nisbatan sarflanadigan xom ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati, ishchi kuchi va boshqalar

muntazam ravishda tejaladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligining oshib borishiga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, «ko'p sarflanadi» degan so'z o'z-o'zidan isrofgarchilikni va binobarin, atrof-muhit ekologiyasiga ham salbiy ta'sirni anglatadi. Jumladan, hom ashyo ko'p sarflanadigan yoki «suv talab» korxonalarda shunga mos ravishda xom ashyoni to'la ishlatilmasligi, uning chiqindiga ketishi, suvning ifloslanishi kabi holatlar yuz beradi. Demak, bu borada tejamkorlik ham iqtisodiy, ham ekologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar, omillardan kelib chiqiladi. Lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda hamma omil emas, ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal etuvchi rol o'ynaydi. Buning uchun yaratiladigan mahsulot birligiga, masalan, suv yoki elektr quvvati, ishchi kuchining qay darajada sarflanishini aniqlash talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, «kasr maxrajida» mahsulot birligi, uning suratida esa alohida-alohida omillar (masalan, 1 tonna shakar olish uchun xom ashyo, ya'ni qand lavlagi ishlatiladi, qancha elektr quvvati yoki mehnat sarflanadi va hq) turadi. Qaysi omil bo'yicha yirik son chiqsa, uning ahamiyati shuncha yuqori bo'ladi va u qo'rilayotgan ishlab chiqarish tarmog'ini joylashtirishda belgilovchi, aniqlovchi vazifani o'taydi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, yoqilg'i, elektr energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy-geografik o'rin kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ITT va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham oshib bormoqda.

Ushbu omillarni tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik guruhlariga birlashtirish mumkin. Ularning mohiyati va ta'sirchanligi jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib turadi. Ayni paytda ijtimoiy va ekologik omillar ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida tashkil etishda ustuvor o'ringa ega bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar hisobga olinishi zarur, lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan ayrimlarigina yetakchi rol o'ynaydi.

Xom ashyo omili. Ayrim mahsulotlarni olish uchun xomashyo ko`proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi. Xom ashyoga asoslangan sanoat tarmoqlarining geografiyasini o`rganish eng avvalo, mamlakat tabiiy sharoiti va boyliklarini bilishni talab etadi.

Yoqilg`i-omili. Issiqlik elektr stantsiyalari qora metallurgiya sanoatining dastlabki bosqichini joylashtirishda asosiy rol o`ynaydi. Ammo uning ta`siri har doim yetakchi kuchga ega emas. Bunday hol neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stantsiyalarini qurishga taalluqli bo`ladi.

Elektroenergiya omili. Bu sohaning o`ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulot - elektr quvvatini jamg`arib, omborxonalarda yig`ib bo`lmaydi, undan ayni paytning o`zida foydalanish kerak. Bundan tashqari elektr quvvati yuqori kuchlanishli bo`lib, tarmoqlar orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddu shu maqsadda yirik ko`mir havzalarida yirik yoqilg`i energetika majmualari barpo etilgan. Odatda, elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo, uning arzon turiga ustunlik beriladi. Arzon elektr quvvati gidroelektro-stantsiyalaridan olinadi, chunki bunda suv keyin ham suvligicha qolaveradi, yoqilg`i elektr stantsiyalarida esa ko`mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi. Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: 1 tonna titan ishlab chiqarish uchun 40-50 ming kv-t-s, shuncha alyuminiy ishlab chiqarish uchun 17-19 ming kv-t-s, misni tozalash, temir qotishmalarini ishlab chiqarish, elektr pechlarida po`lat eritish uchun ularning har bir tonnasiga 8-10 min kv-t-s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki, bunday korxonalarning arzon elektr quvvati manbalariga yaqin joyda qurilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo`ladi. Demak, elektr quvvati bir qator sanoat korxonalarini o`z atrofiga omil sifatida «yig`ar» ekan. Shu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish qudratiga ega.

Suv va iqlim sharoiti ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, yog`och-selyo`lyuza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta`sir qiladi.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati qishloq xo'jaligi uchun muhim hisoblanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasida an'anaviy dehqonchilik issiq va quruq iqlimiy sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar orasida eng **muhimi, aholi va mehnat resurslaridir**. Bu o'rinda ikki holni qayd qilish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatidan ko'p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva ishlab chiqarish, paxta etishtirish va uni qayta ishlash va h.k. Boshqa korxonalarga esa, mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, ularda «oz» va «soz» malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Masalan, radio va asbobsozlik, aniq mashinasozlik va h.k.lar. malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda, ilmiy texnik markazlarda joylashtiriladi.

O'zbekistonda mahalliy aholining tabiiy ko'payishi darajasi yuqoriligi, migratsion harakati faolsizligi mehnat zaxiralari ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli ularning miqdori ko'p bo'lgan qishloq joylarda, shaharlarda yangi sanoat korxona va boshqa korxonalarni, madaniy-maishiy muassasalarni tashkil etil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda bu borada maxsus maqsadli dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo, «iste'molchi» hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda keskin oshib bormoqda. Shu sababli iste'mol omili korxonalarni o'ziga «tortadi». Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'z talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularni transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarni iste'mol rayonlarida barpo etishni nazarda to'tadi.

Transport ham juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy-geografik omil bilan ham chambarchas bog'liq. Bu obyektning eng avvalo, tashqi (hududiy) iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot omilining ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etishda aniq namoyon bo'ladi. Masalan, mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar yuksak darajada ilmiy texnika qudratiga ega bo'lgan shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan omillarning ahamiyati katta. Ammo ularning barchasi pirovard natijada **ekologik omil** bilan «hisoblashishlari» kerak. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalarining ishlashi shu nuqtai nazardan to'xtatilganligi bejiz emas. Ekologik jihatdan kimyo, yog'och-tsellyo'loza, go'sht, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostantsiyalari aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshi. Bu omil bilan hozirgi kunda hisoblashmasdan iloji yo'q.

Bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarining hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu borada an'anaviy fikr yuritish tarzimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda nimaga ixtisoslashuvni va qaerda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Bozor iqtisodiyotining o'zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda hal qiluvchi omildir. Sababi-bozortalab sohalargina rivojlanadi; bozori chaqqon mahsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar engadi.

Bozor (talab va taklif), erkin raqobat, u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradigan makonni, bozor muhitini belgilaydi. Shu bois, talabning nafaqat mikdor jihatdan o'sib borishini, balki uning xususiylashuvini, sifatini e'tiborga olish, ixcham, xarakatchan, boshqarishi oson bo'lgan kichik va o'rta korxonalarni joylashtirish o'tish davri uchun ayniqsa xosdir. Bu davrda vaqt va makondan unumli foydalanish o'ta zarur.

Hozirgi vaqtda qulay investitsiya makonini yaratish ham katta mazmun kasb etadi. Infrastruktura va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etilganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi. Ko'pincha investorlar huquqiy jihatdan kafolatlangan, ijtimoiy-siyosiy baqarorlik, arzon ishchi kuchi bo'lgan hududlarni qidiradilar.

Qurilgan qo'shma korxonalar esa mintaq va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga uning tarmoqlar va hududiy tarkibiga sezilarli o'zgarishlar kiritadi.

4.6. O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlar, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratilgani bilan davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ijtimoiy-ekologik omillari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, fan-texnika inqilobi tufayli yuzaga kelgan ekologik inqirozlar va sanoatning eng yangi sohalarini sof tabiiy muhitga bo'lgan talabi bilan bog'liq. Aholi o'sishi va ishlab chiqarish sur'atlarining haddan tashqari tezlashuvi, ya'ni kontsentratsiya jarayonining kuchayishi oqibatida atrof-muhitga ta'sir kuchaydi. Atmosferaning ifloslanishi, tuproq va yer resurslarining yaroqsiz holga kelishi, yirik shaharlardagi ijtimoiy-ekologik muammolarning haddan tashqari kuchayishiga olib keldi.

Natijada ishlab chiqarish kuchlarini «yengillashtirish», ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va infratuzilma sohalarini mamlakat hududlari bo'yicha bir tekis joylashtirish, atrof-muhitga ta'siri kuchli korxonalar (kimyo, neft-kimyo, metallurgiya va boshqalar) qurilishini cheklash yoki ularni aholi manzilgohlaridan chetga joylashtirish siyosatini yuzaga keltirdi. Mamlakatimiz hududida barpo etilayotgan Muborak, Ustyurt, Surg'ul neft-gaz majmualari ayni shu tamoyillarga asoslanadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan Nurota, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot,

Qiziriq, Muzrabot, Boyovut, Sardoba tumanlarini kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish vazifalari belgilab berildi.

Mintaqalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mavjud tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda hududlarga erkin iqtisodiy zonalar maqomini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda Xitoy tajribasi jahon hamjamiyatidan tomonidan keng e'tirof etiladi. Mamlakat sharqida 1333 ta bojsiz zonalar 32 ta zamonaviy texnologik ishlab chiqarish zonalar 52 ta texnopolislar 10 dan ortiq erkin savdo zonalar va ularni birlashtirib turuvchi yirik maxsus iqtisodiy zonalar tuzilgan bo'lib, bu hududlar Xitoyning tashqi dunyo bilan iqtisodiy a'loqa qilishdagi o'ziga xos «ochiq eshik»lar vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimizda dastlabki erkin industrial-iqtisodiy zona Navoiy viloyatida tashkil etildi. «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi farmonga asosan yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va zamonaviy korxonalar bunyod etish hamda xorijiy investorlarga soliq va boj to'lovlari bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar belgilab berildi.

Xorijiy investorlarning hududga qiziqishi yillar o'tgan sari ortib bormoqda va buning natijasida hududda yirik logistika markazlari tashkil etildi hamda qo'shma korxonalar soni ortib borishi kuzatilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 dekabrda «Angren maxsus industrial zonani barpo etish to'g'risida» gi, 2013 yil 18 martda «Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi, 2016 yil 26 oktyabrda PF-4853-sonli «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida» gi hamda 2017 yil 12 yanvarda PF-4931-sonli «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Xazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida» gi Farmonlari hududlarda ishlab chiqarishni yangi bosqichga o'tishiga muhim poydevor bo'ldi.

Ushbu hududlardagi mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlovchi va yuqori qo`shimcha qiymatga ega raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali va mahalliyashtiriladigan zamonaviy korxonalarni tashkil qilish uchun to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, erkin iqtisodiy zonalarining muayyan sohaga ixtisoslashuvini qo`llab-quvvatlash va ularda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Birgina «Angren» erkin iqtisodiy zonasida 2016 yilda 56,7 million AQSH dollari qiymatidagi investitsiyalar o`zlashtirildi, bu 2015 yilga nisbatan 6,1 foizga ko`pdir. Ushbu davr mobaynida 7 yangi zavod qurildi, 929 milliard so`mlikdan ortiq mahsulot ishlab chiqarildi.

Mamlakatimizda yangi kichik sanoat zonalarini tashkil etish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish, kichik sanoat zonalariga ularning ixtisoslashuvi, hududning resurs salohiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqarishning to`liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish hududiy tengsizlikni bartaraf etishining muhim omili bo`lmoqda.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni leberallashtirish bugungi kunning obyektiv zarurati aylandi. Chunki bozor iqtisodiyoti jahon sivilizatsiyasining g`oyat ulkan yutug`i sifatida – iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o`sinh va aholi farovonligini uzluksiz ta`minlovchi iqtisodiy tizim ekanligini isbotladi. Ayni shu yo`ldan dadil odimlayotgan O`zbekiston 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro`yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog`i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi¹⁴.

¹⁴ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi farmoni. //Xalq so`zi, 08.02.2017 y. №28

Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456ta loyiha amalga oshirilmoqda¹⁵.

Meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 147 mln. dollarlik 63 ta loyiha, rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 217 mln. dollarlik 6 ta loyiha, kimyoviy xomashyolarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 25 mln. dollarlik 2 ta loyiha, uglevodorod xomashyolarini qayta ishlashni chuqurlashtirish bo'yicha 342 mln. dollarlik 6 ta loyiha, tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 mln. dollarlik 9 ta loyiha, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 mln.dollarlik 7 ta loyiha, qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'yicha 151 mln. dollarlik 29 ta loyiha, tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 mln. dollarlik 15 ta loyiha shular jumlasidan.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda to'qimachilik sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, birinchidan qishloq aholi punktlari – tumanlarda paxatachilik sohasini salmog'i yuqoriligi, arzon xom-ashyoning mavjudligi;

ikkinchidan, asosan qishloq aholi punktlarida ortiqcha ishchi kuchining to'palinib qolganligini hisobga olsak, to'qimachilik sanoatining mehnat sig'imining yuqoriligi ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi;

uchinchidan, ishlab chiqarishda xom-ashyo transportirokasi nisbatan ancha arzon tushushi mahsulot tannarxini pasaytirishni ta'minlaydi;

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

toʻrtinchidan, toʻqimachilik sanoatini asosiy ishchi kuchiga oʻrta va kichik malaka talablarining qoʻyilishi; qishloq aholi punktlarida iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning yechimida toʻqimachilik sanoatining salmogʻi yuqori ekanligi va hakazolari bilan izohlanadi.

Qayd etilgan masalalarning dolzarbligidan kelib chiqib, Oʻzbekistonda 2017-2019 yillarda toʻqimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda. Dasturga muvofiq, 2020 yilga kelib ip kalava ishlab chiqarishni 2,5 baravar, tayyor matolarni – 2,8 baravar, notoʻqima materillarni – 1,5 baravar, trikotaj matolarni – 2,7 baravar oshirish rejalashtirilmoqda. Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 3,2 baravar, trikotaj mahsulotlarni 2,1 baravar, ipak xom ashyosi etishtirishni 2,1 baravar oshirish moʻljallanmoqda. 2011 yilda matolarni ishlab chiqarish hajmi 85,63 mln. kv. metrni tashkil qilgan boʻlsa, 2020 yilga kelib, ushbu koʻrsatkich 459,2 mln. kv.metrda oshadi va ishlab chiqarish hajmining 5,4 baravar oʻsishini taʼminlaydi.

Bunda 156 toʻqimachilik kompaniyalari Janubiy Koreya, Hindiston, Singapur, Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, AQSH kabi davlat investorlari ishtirokida tashkil qilingan.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini oʻrtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishga asos boʻladi. Mamlakatning barqaror rivojlanishi taʼminlab berayotgan hududiy iqtisodiyot tarmoqlari muhim hisoblanadi.

Bu tarmoqlar mamlakat aholisining sanoat, qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini taʼminlashda, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga boʻlgan talabini qondirishda katta ahamiyatga ega.

Mavzu boʻyicha qisqacha xulosalar

1. Mintaqaviy iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish umumiy tushuncha, obyekt hisoblanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish, ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va

kooperatsiyalashuvi, hududlarning kompleks rivojlanishi, ishlab chiqarishni hududlarda iloji boricha bir me'yorda joylashtirish yoki hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyatlaridan iboratdir.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yuqoridagi qonuniyatlar asosida yondashilsa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshadi, iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

2. Hududiy mehnat taqsimoti va uning doimiy «yoʻldoshi» boʻlgan ixtisoslashuv natijasida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Ular esa mamlakat iqtisodiyotining hududiy tarkibini tashkil qiladi. Ammo hududiy tarkib fakat iqtisodiy rayonlar turidan iborat emas, u ma'muriy birliklar, tabiiy geografik va gidrografik omillar asosida ham belgilanishi mumkin.

3. Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar hisobga olinishi zarur, lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan ayrimlarigina yetakchi rol o'ynaydi. Xususan, xom-ashyo, yoqig'i va energetika, suv va iqlim, transport, ijtimoiy-iqtisodiy (mehnat resurslari), ekologik, ilmiy texnikaviy taraqqiyot, bozor iqtisodiyoti kabi muhim omillar hisoblanadi.

4. Jahon bozori erkin iqtisodiyot, ochiq savdo tizimini joriy qilishni taqozo etadi. Ana shunday yoʻnalish fritredizm, ya'ni erkin savdo deb ataladi. Uning ilmiy asosini yaratishda A.Smit va, ayniqsa D.Rikardoning xizmati katta boʻlgan. Ularning gʻoyalari xalqaro geografik mehnat taqsimotini keng koʻlamda rivojlantirish, mamlakatlararo savdo sotiqni faollashtirishga qaratilgan boʻlib, u qiyosiy imtiyoz yoki qulaylik qonuni («zakon sravnitel'nogo preimuhstva») nomini olgan.

5. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar oʻrtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon boʻladi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

6. O`zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, mintaqalar sanoat, qishloq xo`jaligi, transport, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mavjud tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda hududlarga erkin iqtisodiy zonalar maqomini belgilash meva-sabzovot ishlab chiqarishni kengaytirish, to`qimachilik sanoatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish kuchlari nima?
2. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha ekanligini tushuntirib bering.
3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish va joylashtirish o`rtasida qanday o`xshashlik va farqlar mavjud?
4. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirib bering?
6. Ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etishda mujassamlashuvni qanday tushunasiz?
7. Ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli ixtisoslashuvni afzalliklari nimada?
8. Hududiy mehnat taqsimoti mazmun-mohiyatini bayon qiling?
9. Iqtisodiy rayonlashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy omillariga izoh bering.
11. O`zingiz yashab turgan viloyat tabiiy sharoiti va boyliklariga iqtisodiy baho bering.
12. Infrastruktura nima va u ishlab chiqarishni joylashtirishga qanday ta'sir ko`rsatadi?
13. Ekologik omil va ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish borasida nimalarni aytaolasiz?

14. I.Tyunenning «qishloq xo`jalik standarti» nazariyasining asosiy mohiyati nimada?
15. A. Veberning shtandort nazariyasini tushuntirib bering?
16. V.Kristallerning «Markaziy joy» nazariyasida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning samarali usullari nimalardan iborat?
17. A.Lyoshning «Joylashtirish» nazariyasi mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering?
18. F.Perruning «O`sinh qutblari va rivojlanish markazi» nazariyasining mazmun mohiyati nimada?
19. O`zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning o`ziga xos xususiyatlari tushuntirib bering?

3-MAVZU. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA`MURIY- HUDUDIIY TUZILISHI VA ULARNING MINTAQAVIIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Reja:

3.1.O`zbekiston Respublikasining ma`muriy hududiy tuzilishi

3.2. Davlat shakli tushunchasi, uning tarkibiy qismlari

3.3. Davlat tuzilishi va uning shakllari

3.4. Mamlakatda ma`muriy hududiy bo`linish masalalarini huquqiy asoslari

3.5. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari va shahar aglomeratsiyasi

Tayanch tushuncha va iboralar: davlat shakli, monorxiya, boshqaruv shakli, respublika, prezidentlik respublikasi, aralash respublika, oddiy – unitar hamda murakkab – federativ va konfederativ davlat, davlatlararo birlashmalar, shaxsiy uniya, hamdo`stlik, murakkab davlat, protektor, uyushgan davlat, shaharsozlik, aholi punktlari, urbanizatsiya, aglomeratsiya, bir markazli model, ko`p markazli model, chiziqli submodel, tarqoq submodel, hududiy rivojlanish, mintaq, aholi manzilgohi, yo`ldosh shahar.

3.1. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy hududiy tuzilishi

O`zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan bo`lib, mintaqadagi boshqa davlatlar orasida juda qulay tabiiy-geografik sharoitlarga ega. Mamlakat hududi o`ziga xos past-tekislik va tog` relefini o`z ichiga oladi.

O`zbekiston hududining katta qismini (4/5 qismi atrofida) pasttekisliklar tashkil etadi. Shulardan eng muhimi Turon past-tekisligidir. Mamlakat sharqi va shimoliy sharqida Tyan-Shan va Pomir tog` (mamlakatning eng yuqori nuqtasi (4643 m) tizmalari joylashgan. O`zbekiston hududi markazida dunyoning bepoyon cho`llaridan biri — Qizilqum yastanib yotadi.

Respublika hududining 1/5 qismini tog` va tog` oldi hududlar tashkil etadi. Sharqiy hududi o`rta va baland tog`li relefdan iborat. Mamlakat hududi G`arbiy

Tyan-Shan (Ugom, Pskem, Chotqol va Qurama tog` tizmasi) va Pomir-Oloy (Zarafshon, Turkiston, Hisor, Qo`hitangtog` va Boysuntog` tog` tizmasi) tog` tizmalari yonbag`rini o`z ichiga oladi. Janubdan g`arbga tomon ular qiyalab boradi va past-tekislikka qo`shilib ketadi. Ushbu tog`lar orasida ulkan Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand vohalari joylashgan. Bularning eng kattasi hisoblangan Farg`ona vodiysi - uzunligi 370 kilometr, kengligi 190 kilometr ga etadi. U uch tomondan baland tog` bilan o`ralgan va faqat g`arb tomoni tekislikdir. Afg`oniston bilan chegara hududda Amudaryo deltasi yoyilib yotadi.

O`zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig`ida joylashgan bo`lib, umumiy maydoni 448,9 ming km.kv.ni tashkil etadi. Respublika hududi sharqdan g`arbgacha 1 425 km ni, shimoldan janubgacha esa 930 km ni tashkil etadi.

Respublika shimolda va shimoliy-sharqda Qozog`iston, sharqda va janubiy-sharqda Qirg`iziston va Tojikiston, g`arbda Turkmaniston, janubda esa Afg`oniston bilan chegaradoshdir. Davlat chegarasining Afg`oniston bilan uzunligi — 137 km., Qozog`iston — 2.203 km., Qirg`iziston — 1.099 km., Tojikiston — 1.161 km. va Turkmaniston bilan — 1.621 km.

Mustaqil davlatimizning ravnaq topishi siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksala borishi, milliy iqtisodiyot, davlat qurilishi borasida rahbarlik va boshqarish tizimini nazariy va amaliy jihatdan tug`ri tashkil qilishda mamlakat ma`muriy hududiy tuzilishini oqilona belgilash katta ahamiyatga ega. Shuningdek, u davlat va ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, moliya, soliq kabi qator tizimlar faoliyatini amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni hududlar doirasida ijobiy tarzda rivojlantirish masalalarini to`g`ri hal etishda ham katta o`rin tutadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida shunday deyilgan: «Ma`muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo`li bilan tartibga solish, O`zbekiston Respublikasining chegaralarini o`zgartirish O`zbekiston Oliy Majlisining mutloq vakolatlari jumlasiga kiradi».

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariga o`tish jadallashib borayotgan hozirgi davrda Respublikamiz oldida iqtisodiy, ilmiy, madaniy jihatdan rivojlanishning zarur imkoniyatlari mavjud. Bu, eng avvalo,

Respublika aholi sonining ko`paya borayotganligi, zarur mehnat resurslarining borligi, tabiiy sharoitning qulayligi, xilma-xil tabiiy boyliklar ko`pligi bilan ifodalanadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib oqilona tarzda amalga oshirilayotgan ma'muriy-hududiy tuzilish mamlakat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy maqsad hamda vazifalarni bajarishga o`zining ijobiy ta'sirini ko`rsatadi.

Mamlakatimizning ma'muriy-hududiy tuzilishi o`z tarixiga ega. Mazkur masala borasida ishlab chiqilgan qonun va qoidalar, tartiblar bir necha marta qayta-qayta ko`rib chiqildi, ular ayrim o`zgartishlar, yangi fikr, mazmunlar bilan boyib bordi.

Avvalgi davrda O`zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarida ayrim hollarda mutasaddi tashkilotlar tomonidan shoshma-shosharlikka yo`l qo`yilgan, ilmiy jihatdan chuqur o`ylab ko`rilmagan va keng muhokamaga qo`yilmagan masalalar ilgari surilar edi. Bu ayniqsa viloyatlarni tashkil qilish, ularni noo`rin tugatish, bir viloyatni ikkinchi bir viloyatga qo`shib yuborish, qisqa vaqt o`tishi bilan o`sha tugatilgan viloyatlarni yana qaytadan tiklash hollari uchrab turardi. Bu haqida quyidagi misollarni keltirish mumkin.

1941 yil 6 martda tashkil topgan Namangan viloyati 1960 yil 25 aprelda tugatilib, Andijon viloyatiga qo`shib yuborildi. 1967 yil 18 dekabrda esa u qayta tiklanadi. Qashqadaryo viloyati 1943 yil 20 yanvarda tuzilgan. U 1960 yil 20 yanvarda tutatilib, Surxondaryo viloyati bilan birlashtiriladi. 1964 yil 7 fevralda esa Qashqadaryo viloyati yana o`z asliga qaytarildi.

Qizilqum sahrosida suvsizlikdan qaqrab yotgan yerlarning ma'lum qismini o`zlashtirish va samara bilan ishga solish maqsadida 1982 yil 20 aprelda tashkil topgan Navoiy viloyati ham shu yo`lni bosib o`tdi. Tashkil etilganidan bor yo`g`i 4 yil o`tishi bilan, ya'ni 1986 yilga kelib bu viloyat ham tugatilib Samaqand viloyati bilan qo`shib yuborildi. Oradan yana to`rt yil o`tgandan so`ng Navoiy viloyati 1998 yili qayta tiklandi.

Bunday noo`rin, mantiqqa to`g`ri kelmaydigan, ilmiy jihatdan asoslanmagan masalalarni tayyorlashda qanchadan-qancha kishi band bo`ldi, katta mablag`

behuda sarf etildi va eng asosiysi - aholi hayoti, uning kundalik turmushida uchrab turadigan qator masalalar murakkablashdi. Bu esa turli xil noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo`ldi.

3.2. Davlat shakli tushunchasi, uning tarkibiy qismlari

Umuman olganda, davlat qurilishida davlat shakli katta ahamiyatga ega. Yangi davlatlar tashkil topayotganda, ayniqsa, uning shakli to`g`ri tanlanishi, joriy etilishi muhim. Davlat shakli boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli (tartib, rejim) tushunchalarini o`z ichiga oladi. Davlat boshqaruv shakli davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibi hisoblanadi. Boshqaruv shaklining eng qadimgi va hozirgi kunga qadar rivojlanib kelayotgan shakli monarxiya va respublika sanaladi. Aytaylik, monarxiya ko`proq qadimgi Sharq, shu jumladan Turon zaminida tashkil topgan davlatlar shakli edi. Monarxiyaning o`zi ham mutlaq monarxiya va cheklangan monarxiya ko`rinishlariga ega. Davlatning respublika shakli esa prezidentlik, parlamentar va aralash respublika ko`rinishlarida o`z ifodasini topadi¹.

Agar davlat shakli tushunchasini atroflicha tahlil etadigan bo`lsak, avvalo, shuni ta`kidlash kerakki, butun jamiyat ich-ichiga singib ketuvchi siyosiy tashkilot sifatida, hokimiyat tizimi sifatida davlat turlicha tuzilishi, ya`ni turlicha shaklga ega bo`lishi mumkin. Uni qanday qilib yaxshiroq tashkil etish, tuzish ustida odamlar davlat yuzaga kela boshlagan paytlardan buyon bosh qotirib kelishadi, desak, yanglishmagan bo`lamiz. Zero, kishilar davlatga uyushgan jamiyatda yashar ekanlar, ularning butun hayotlariyu farovon-turmush tarzlari aynan shunga bog`liq bo`ladi. «Shakl buyumga hayot baxsh etadi», deyishgan edi rimlik yuristlar. Binobarin, davlat shakli tushunchasi davlatshunoslikning eng muhim mazmuniy tavsiflaridan biridir.

Eng avvalo, davlat shakli xalqlar hayotiga befarq qaraydigan «mavhum tushuncha» ham, «siyosiy chizgi» ham emas, balki **hayot tarzi va xalqning jonli tashkilotidir**. Xalq **o`z hayot tarzini tushunishi, aynan «shunday» tashkil bo`lishni uddalashi**; shu tuzum qonunlarini **hurmat qilish** hamda shu tashkilotga

ixtiyoriy hissasini qo`shishi zarur. Boshqacha aytganda, aynan *xalqning jonli huquqiy ong* davlat shaklini ro`yobga chiqaradi, unga hayot, kuch baxsh etadi; binobarin, davlat shakli, *eng avvalo, xalq huquqiy ongi darajasiga*, xalq tomonidan to`plangan tarixiy *siyosiy tajribaga*, uning iroda kuchi va milliy xususiyatiga bog`liq bo`ladi».

Gapni «*davlat shakli*» tushunchasiga oid turli nuqtai nazarlar mavjudligidan boshlash o`rinli deb o`ylaymiz. Jumladan, ayrim mualliflar uni faqat tor ma`noda izohlaydilar. Ularning fikriga ko`ra, bu – *faqat boshqaruv shakli xolos*. Boshqa mualliflar bu tushunchani *keng ma`noda* talqin etishadi. Zotan, ular mazkur tushunchaga *boshqaruv shakllari majmui bilan davlat tuzilishi shaklini* kiritadilar.

Biroq bu kabi nuqtai nazarlardagi farqlar shu yondashuvlar bilangina cheklanmaydi. Davlatning **ichki** va **tashqi** shakllarini farqlovchi mualliflar ham bor. Ichki shakl deganda, demokratiya, tashqi shakl deganda esa, siyosiy hokimiyatning aniq tashkiloti tushuniladi (D. A. Kerimov). Ushbu nuqtai nazar nimalarga asoslanganligini quyidagicha izohlash mumkin: modomiki, demokratiya siyosiy tartibning bir ko`rinishi ekan, uni **davlatning ichki shakli** sifatida tushunish zarur, boshqaruv va davlat tuzilishi shakllari majmui esa **tashqi shaklni** tashkil etadi.

Shunday qilib, *davlat shakli deganda, uch tarkibiy qism (yoki jihat) – boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli birgalikda olingan siyosiy hokimiyat tashkiloti tushuniladi* (S. A. Komarov).

Davlat shaklining **uch jihat**i mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Bular: boshqaruv shakli, ya`ni davlat hokimiyati va boshqaruvni tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibi;

– davlat tuzilishi shakli, ya`ni davlatning hududiy tuzilishi, markaziy, mintaqaviy va mahalliy hokimiyatlarning o`zaro munosabatlari muayyan tartibi;

– siyosiy (davlat) idora usuli, ya`ni siyosiy davlat (hokimiyati)ni amalga oshirish usul va metodlaridir.

Boshqaruv shakli – aniq bir davlatda davlat hokimiyatini tashkil etish usullarining majmuidir. Agar ushbu ta’rifni yanada aniqroq ifodalaydigan bo’lsak, u quyidagicha ma’no kasb etadi: ***boshqaruv shakli oliy hokimiyatni, boz ustiga, uning oliy va markaziy organlarini, tarkibini, vakolatini, shu organlarni tashkil etish tartibini, shuningdek, unda oddiy xalq ishtiroki darajasini, bu organlar vakolati muddatlarini nazarda tutadi***

Boshqaruvning qadim-qadimdan insoniyatga ma’lum bo’lgan shakllari **monarxiya** va **respublikadir**. Shu munosabat bilan Arastu o’z vaqtida boshqaruv shakllarini oliy hokimiyat tanho amalga oshiriladigan **monarxiyaga, tor doiradagi cheklangan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan aristokratiyaga, butun xalq hokimiyatni boshqaradigan demokratiyaga** bo’lganligini eslash o’rinlidir¹.

«**Monarxiya**» («monos» – bir, «arxe» – hokimiyat) atamasi yunoncha so’z bo’lib, «**yakkahokimlik**», «**yagona hukmdor**» ma’nolarini bildiradi. Monarxiya boshqaruv shakli sifatida o’zining aniq yuridik belgilariga ega. Monarx davlatning jonli timsoli bo’lib, tashqi va ichki siyosat bobida davlat boshlig’i sifatida, xalq vakili, millat «otasi» sifatida, fuqarolarni jipslashtiruvchi, ularni davlat tevaragiga birlashtiruvchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Monarxlar — Frantsiya qirollaridan biri: «Davlat — mening o’zimman», deb bejiz aytmagan. Biroq bu aksariyat hollarda masalaning faqat yuridik tomonini anglatar, amaldagi ahvolni ifodalay olmasdi.

Monarx tanho hukmdorlik qilardi. Albatta, bu davlatning barcha ishlarini uning bir o’zi hal etarkan, degan ma’noni bildirmaydi. Turli davlat organlarida xizmat qiluvchi ko’psonli maslahatchilar, vazirlar, amaldorlar davlat ishlarini boshqarishardi. Ayni paytda, eng muhim, asosiy davlat ishlari bo’yicha monarxning o’zi hukm chiqarishiga to’g’ri kelardi. U butun hokimiyatning to’la sohibidir. Monarx hokimiyati oliy hokimiyat bo’lib, mustaqildir. U – davlatdagi oliy hokimiyatdir.

Shunday qilib, monarxiya ming yillar davomida boshqaruvning hukmron shakli sifatida amal qilib keldi. O’ziga xos shakllarda u bugunda ham dunyoning

uchdan bir qism mamlakatlarida (masalan, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Daniya, Ispaniyada) saqlanib kelmoqda¹.

Respublika (lotincha Respublika – jamoa ishi) – *davlat hokimiyati aholi muayyan muddatga saylab qo'yadigan organlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv shakli*dir. Respublika ham monarxiya singari muayyan tarixiy xususiyatga ega. Boshqaruvning respublika shakli bir qancha turlari mavjudligi tarixdan ma'lum. Ular quldorlik sharoitlaridayoq namoyon bo'la boshlagan edi.

Prezidentlik respublika boshqaruv shakli sifatida, birinchi navbatda, saylab qo'yilgan davlat boshlig'i bir vaqtning o'zida hukumat rahbari ham bo'lishi bilan farq qiladi. Prezidentning o'zi parlament roziligi bilan shu hukumatni tuzadi va zarurat tug'ilganda uni tarqatib yuborish huquqiga ega bo'ladi. Butun xalq tomonidan saylangan prezident umummilliy manfaatlar ifodachisi, millat ramzi bo'lishi (har qalay shunday bo'lishi kerak ham) boshqaruv prezidentlik shaklining ijobiy tomonidir. Mazkur shakl butun vakolatni bir shaxsga beradi va u favqulodda holatlarda mas'uliyat va rahbarlikni o'z qo'lga oladi. Boshqaruvning prezidentlik shakli, odatda, parlament shakliga nisbatan yuqoriroq darajadagi siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Zero, hukumat (prezident) konstitutsiyada belgilab qo'yilgan qat'iy muddatga saylanadi.

Prezidentlik boshqaruv shaklining zaif joylari ham mavjud. Boshqaruvning parlament shaklidan farqli o'laroq, u hokimiyatning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi tarmoqlari o'rtasidagi ziddiyat va mojarolarni, shuningdek, konstitutsiyaviy inqiroz ehtimolini istisno etmaydi. Bunday vaziyat, chunonchi, prezident bilan parlament ko'pchiligi boshqa-boshqa partiyalar, siyosiy oqimlarga mansub bo'lgan vaqtlarda yuzaga kelishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, prezidentlik instituti vakolatlari deyarli barcha davlatlarda bir xil bo'lsa-da, ularni amalga oshirishda katta farqlar mavjud. Prezidentlarning quyidagi vakolatlari mavjud: mamlakat ichki va tashqi siyosatida davlatni namoyish etish bo'yicha vakolatlari; prezidentlik institutining qonunchilik tashabbusi bo'yicha vakolatlari; hukumatga nisbatan vakolatlari; davlat organlarini

shakllantirish va kadrlar siyosati bo'yicha vakolatlari; huquqiy hujjatlar, normativ aktlar yaratish bo'yicha vakolatlari; favqulodda vaziyatlar bo'yicha vakolatlari; harbiy siyosat sohasidagi vakolatlari; shaxsning huquqiy maqomini aniqlash sohasidagi vakolatlari; xalqaro munosabatlar bo'yicha vakolatlari. Bundan tashqari, prezidentlik institutiga nisbatan konstitutsiyalarda vakolatlar bilan birga, ma'lum bir javobgarlik va taqiqlar ham mavjud: boshqa lavozimlarni egallashning man etilishi; boshqa faoliyat bilan shug'ullanmaslik; badiiy, ilmiy, adabiy faoliyat uchun qalam haqi olmaslik; ayrim mamlakatlarda prezident mamlakat hududidan faqat parlament ruxsati bilan chiqishi mumkinligi; konstitutsiya va qonunlarni bila turib buzish, og'ir jinoyatlarni sodir etish, korruptsiya, davlatga xiyonat qilish kabi xatti-harakatlarga javobgarlik shular jumlasidandir.

Shunday qilib, boshqaruvning parlament va prezidentlik shakllaridan birini tanlash yagona, ammo beqaror rahbariyat (parlament boshqaruvi) bilan barqaror, lekin ikki hokimiyat o'rtasidagi ixtiloflarni istisno etmaydigan rahbariyatdan birini tanlash degan ma'noni anglatadi.

Aslida, «Prezidentni saylashning eng maqbul uslubining o'zi bormikan?» Ularning har biri o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega. Shu munosabat bilan prezidentlik saylovlarining ahamiyati ortib boradi. To'g'ridan-to'g'ri saylovlar eng sodda va demokratik saylovlardir. Bundan tashqari, prezidentlik hokimiyati qonunchilik hokimiyatiga nihoyatda qaram bo'lib qolishi ham mumkin (masalan, favqulodda holat sharoitlarida prezidentni ikkinchi muddatga qayta saylash tartibini olib ko'ring).

Shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, davlat boshqaruv tizimi qotib qolgan emas, balki tarixiy taraqqiyot jarayonida muqarrar ravishda o'zgarib, yangilanib turadi. Ayni paytda dunyodagi davlatlar boshqaruv shakllari ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyoti asosida takomillashib, mazmun jihatidan mukammallashib borgan. Buni O'zbekiston davlat boshqaruvi misolida ko'rish mumkin. Konstitutsiyamizga muvofiq O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri – xalq xokimiyatchiligidir. Respublikada xalq davlat xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalq

davlatni boshqaruvni bevosita yoki saylab qo'yilgan o'z vakillari orqali amalga oshiradi.

Shu o'rinda istiqlool bois O'zbekiston davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllantirila boshlanganligini alohida e'tirof etish lozim. «Prezidentlik boshqaruv usuli – shu tizimning o'zagidir».

Darhaqiqat, jahon tarixiy tajribasi prezidentlik respublika shakli davlat boshqaruvining eng maqbul, xalq manfaatlari – ehtiyojlariga javob beradigan qulay shakllaridan biri ekanligini ko'rsatib turibdi².

O'zbekistonda joriy etilgan davlat boshqaruvining prezidentlik shaklining mazmun-mohiyati, asosiy printsiplari, o'ziga xos xususiyatlari, Prezidentning huquqiy maqomi, vakolatlari mamlakatimiz konstitutsiyasida, 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengashning sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunda bayon etilgan.

Aralash respublikalar (Frantsiyada beshinchi respublika, Portugaliya, Finlyandiya, Evropaning totalitar tuzumidan keyingi ko'pchilik mamlakatlari) o'zida prezidentlik va parlamentar respublikalar institutlarini mujassam etadi. Ijro etuvchi hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan va xalq tomonidan saylanadigan prezident instituti prezidentlik-respublika boshqaruv shaklidan o'zlashtiriladi. Parlamentar respublika shaklidan esa bosh vazir yetakchilik qiladigan hukumatning parlament oldidagi mas'ulligi olinadi. Ijro etuvchi hokimiyatning bunday tizimi *bitsefal («ikki boshli»)* hokimiyat deb ataladi. Mabodo, prezident va parlament ko'pchiligi bir partiyaga (koalitsiyaga) mansub bo'lishsa, u holda prezidentning o'zi hukumatni shakllantiradi va amalda uning boshlig'i bo'lib qoladi. Agar ular turli partiyalarga mansub bo'lsalar, u holda prezident parlament ko'pchiligi boshlig'ini bosh vazir etib tayinlashga majbur bo'ladi. Bunda prezident va hukumatning birga yashashi, ya'ni hamxonaligi deb ataladigan vaziyat yuzaga keladi. Bunday vaziyatda u siyosiy jihatdan nisbatan zaif bo'ladi, lekin, shunga qaramay, hukumat prezident fikri bilan hisoblashishga majburdir.

Chunonchi, Frantsiyada prezident «hamxonalik» vaziyatida ham mustaqil vakolatlarini saqlab qolgan muhim siyosiy arbob bo'lib qolaveradi. U oliy bosh

qo`mondon hisoblanadi, referendum o`tkazish haqida qarorlar qabul qiladi, eng muhimi — qonunchilik predmeti bo`la olmaydigan masalalar yuzasidan tartibga soluvchi hujjatlarni e`lon qiladi. Darvoqe, bu hujjatlar bosh vazir tomonidan, zaruriy hollarda esa — mas`ul vazirlar tomonidan nazorat qilinadi. Natijada bu hujjatlar, prezident fikrini hisobga olgan holda, hukumat e`lon qilgan hujjat bo`lib chiqadi. Lekin, nima bo`lganda ham, «hamxonalik» vaziyatida prezident va hukumat bir-birlarining manfaatlari bilan hisoblashishga majbur bo`ladilar.

Agar aralash respublikada prezident va parlament bir-biriga nisbatan muxolifatda bo`lmasa, «partiya» hokimiyati tarkib topib, unda bosh rolni prezident o`ynaydi. Mabodo, ular bir-biriga muxoliflik qilsa, unda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlarga bo`linishining o`ziga xos ko`rinishi yuzaga keladi. Bunda ijro etuvchi hokimiyatni prezident va parlament oldida mas`ul bo`lgan hukumat amalga oshiradi, lekin, ayni paytda, u prezident fikrini hisobga olishga majbur. Hokimiyat bo`linishining bu turida hukumat boshqaruvning parlamentar respublika shakli amal qiladigan mamlakatlarga nisbatan parlamentga kamroq tobe bo`ladi.

3.3. Davlat tuzilishi va uning shakllari

Ma`lumki, har qanday davlat muayyan hududda joylashgan bo`ladi. Uning fuqarolari ham xuddi shu hududda istiqomat qilishadi. Davlat o`zining ijtimoiy funktsiyalarini bajarar ekan, fuqarolarning iqtisodiy turmushi va himoyasini tashkil etish, sug`urta zahiralarini yaratish va hokazolar uchun turli xil faoliyatni amalga oshiradi. Ammo aholining soni ancha ko`p, hududiy ko`lami katta bo`lgan sharoitlarda bir markazdan turib bu faoliyatni amalga oshirish – qariyb uddalab bo`lmaydigan vazifadir.

Fuqarolar soni va hudud ko`lami muayyan chegaraga etganda mamlakat hududini okruglar, viloyatlar, o`lkalar, shtatlar, kantonlar, guberniyalar, uezd singari hududlarga bo`lish hamda shu hududiy tuzilmalarda hokimiyatning mahalliy (hududiy) organlarini tuzish zarurati tug`iladi. Shu tariqa hokimiyat va boshqaruvning markaziy hamda mahalliy organlari o`rtasida vakolatlarni bo`lish

ehtiyoji ham paydo bo`ladi. Bu davlat (hududiy) tuzilishi zaruratini keltirib chiqaradigan birinchi sababdir.

Ikkinchi sabab u yoki bu davlat aholisining ko`pmillatliligi bilan bog`liq. Har bir xalq, millat o`z an`analari, davlatchilik bo`yicha tarixiy tajribasi, madaniy, til va boshqa ma`naviy ehtiyojlarga ega. Bularning hammasini davlat tuzilishi chog`ida nazarda tutish kerak.

Uchinchi sabab subyekti va hatto tasodifiy omillar – o`zlashtirib olish, mustamlakachilik ta`siri, siyosiy manfaatlar va boshqa ko`pgina holatlardan iborat bo`lishi mumkin.

Davlat tuzilishi shakli deganda – davlat hokimiyatining ma`muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o`rtasidagi, davlatning alohida qismlari o`rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar xususiyatini tushunish kerak, deb hisoblashadi.

Shunday qilib, davlatning hududiy tuzilishi bir butun va qismlarning, markaziy va mintaqaviy hokimiyat organlarining o`zaro nisbatini ifodalaydi.

Hududiy tuzilishning ikki asosiy farqlovchi jihati mavjud. Ya`ni: tuzilish tarkibiga ko`ra davlatlar **oddiy – unitar** hamda **murakkab – federativ va konfederativ** davlatlarga bo`linadi. Demak, davlat tuzilishi shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir jiddiy xususiyati – aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambaras bog`liqdir.

Unitar (yagona, lotincha «unus» – «bir» so`zidan olingan) **davlat** oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo`lib, to`la siyosiy birlik ekanligi bilan boshqalardan farq qiladi. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma`muriy - hududiy bo`linish (tumanlar, viloyatlar, kantonlar)ga ega. Biroq mazkur mustaqil qismlar davlat suvereniteti alomatlariga ega emas. Bunday davlatda oliy organlarning yagona tizimi hamda yagona qonunchilik mavjud bo`ladi. Unitar davlatning yaxshi tomoni shundaki, uning tuzilishi sodda bo`lib, oliy hokimiyat to`lalgicha uning tasarrufida bo`ladi.

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakllarda va turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda mahalliy organlar umuman bo'lmaydi va ma'muriy-hududiy bo'linmalar markaziy hokimiyat tayinlagan vakillar tomonidan boshqariladi.

Boshqa davlatlarda mahalliy organlar tashkil etiladi, lekin ular (bevosita yoki bilvosita) markaziy hokimiyat nazorati ostida bo'ladi. Markaziy hokimiyat mahalliy organlar ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab, ***unitar davlatlar markazlashgan*** (Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Daniya va boshqalar) va ***markazlashmagan*** (Frantsiya, Italiya, Ispaniya va boshqalar)ga bo'linadi¹.

Bundan tashqari, ba'zi unitar davlatlarda bir yoki bir necha hududiy bo'linmalarga boshqalardan imtiyozliroq huquqiy maqom berilishi mumkin. Bunday unitar davlat nisbiy ma'muriy mustaqil muxtoriyat (avtonomiya)ga ega bo'ladi. Davlat tuzilishining yuqoridagi shakli hududiy bo'linmalarning maxsus manfaatlarini hisobga olish zarur bo'lgan joylarda qo'llaniladi. Mazkur avtonom tuzilmalarda o'zini o'zi boshqarish huquqi boshqa aholiga qaraganda kengroq bo'ladi. Biroq muxtoriyatlar mustaqilligiga markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina yo'l qo'yiladi.

Federativ (lotincha «foedus» – ittifoq, shartnoma) ***davlat*** – murakkab davlat. Davlat va huquq fanida ***davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta'xis etishga asoslangan ittifoq federatsiya deb ataladi. Demak, o'zaro birlashishga intiluvchi bir qancha mustaqil davlatlar mavjud bo'lgan joydagina federatsiya tashkil etilishi mumkin.***

Ko'pchilik (hatto siyosatdonlar, yuristlar, jamoat arboblari ham) federatsiya nima ekanligi haqida juda mavhum tasavvurga ega. Shu munosabat bilan biz tirixga murojaat etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Federatsiyaning kelib chiqishi tarixini taxminan shunday tasavvur etish mumkin: siyosiy jihatdan shakllanib bo'lgan bir qancha kichik davlatlar mustaqil yashashga intilishadi, biroq tashqi xavf-xatar va ichki qiyinchiliklar ***ulardan boshqa o'ziga o'xshash davlatlar bilan birlashishni taqozo etayotganiga*** ishonch hosil qiladi. Shunday qilib, ular mazkur birlashuv nimalardan iborat bo'lishi hamda

qanday qonuniy tartibda bu amalga oshirilishi haqida shartnoma tuzib, yagona davlatni barpo etadi. Bu birlashuv, odatda, «abadiy» deb eʼlon qilinadi.

Shveytsariyada xuddi shunday voqea sodir boʻlgandi. U erda kuchli qoʻshnilarga qarshi kurash davomida dastlab, 1321 yili Uri, Shvits, Nidvalden va Obvalden deb nomlangan kichik davlatlar (kantonlar) **strategik** maqsadlarda birlashishdi va keyinchalik «ittifoq yorligʻi»ni yozishdi. 1332 yili ular federatsiyasiga Lyutsern kantoni qoʻshildi. 1352 yili Tsyurix, Glarus va Tsug federatsiyaga birlashdi. 1353 yili Bern «abadiy» qoʻshildi. 1415 yili Aargau kantoni Avstriyadan ajratib olindi va federatsiya tarkibiga kiritildi. Shu yildan boshlab Shveytsariyada har yili oʻtkaziladigan federal sʼezdlar oʻz ishini boshladi.

Ancha keyinroq Amerika Qoʻshma Shtatlari xuddi shunday asosda birlashdilar. Ular dastlab bir-biridan mustaqil 13 ingliz koloniyasidan iborat boʻlib, ularning har biri oʻzining maxsus siyosiy va konstitutsiyaviy tarixiga ega edi. 1775 yili bu koloniyalar Angliyaga qarshi kurashda **strategik** maqsadlarda birlashishdi. 1781 yili, keyin esa 1787 yili shtatlar oʻz federal konstitutsiyalarini ishlab chiqishdi, yaʼni ular endi **davlatchilik** asosida birlashishgandi. Keyin ular safiga Frantsiyadan sotib olingan Luiziana qoʻshildi. Rossiyadan Alyaska sotib olindi. Meksikadan «hududlar», Ispaniyadan Antil orollari tortib olindi.

Yuz yilliklar mobaynida mustaqil siyosiy hayot kechirib kelgan 25 nemis mustaqil davlatlari va erkin shaharlari 1871 yili xuddi shu tarzda birlashishdi. Ular «abadiy konfederatsiya» sifatida yagona Germaniyani tashkil etdi.

1867 yilda Shimoliy Amerikadagi uch ingliz viloyati (Kanada, Yangi Shotlandiya va Yangi Braunshveyg) «Kanada nomli yagona mustaqil davlat»ga birlashdi.

Hozirgi vaqtda Rossiya, AQSH, Braziliya, Hindiston federativ davlatlar sifatida mavjud. Odatda, federatsiya normativ shartnoma asosida (bunga 1922 yili SSSRning tashkil topishi misol boʻla oladi) yoxud konstitutsiya qabul qilinishi (1787 yili tashkil topgan AQSH misol boʻla oladi) asosida vujudga keladi.

Konfederatsiya davlatlarning shunday ittifoqidan iboratki, u qatʼiy muayyan maqsadlar (siyosiy, harbiy, iqtisodiy maqsadlar) yoʻlida shartnoma yoki bitim

asosida tuziladi hamda muvaqqat xususiyatga ega bo`ladi. Konfederatsiya keyinchalik yo federatsiyaga (AQSH, Shveytsariya singari) o`sib, birlashadi yoxud (Avstriya-Vengriya kabi) tarqalib ketadi.

Konfederatsiyani tashkil etuvchi davlatlar xalqaro huquqiy munosabatlar subyektlari sifatida saqlanib qolib, o`z fuqaroliklari, hokimiyat organlari tizimiga – boshqarmalari, sud organlariga egalik qilishda davom etadi. Ular hokimiyatni mustaqil boshqarib, o`z konstitutsiyalariga ega bo`ladi. Shuning uchun konfederatsiya darajasida qabul qilinadigan hujjatlar shu konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar oliy organlari tomonidan ma`qullanishi shart. Konfederatsiya a`zolari o`z mustaqil daromad manbalariga ega bo`lib, uning bir qismini konfederatsiya byudjetiga o`tkazishlari mumkin. Konfederatsiya Qurolli Kuchlari mazkur konfederatsiya a`zolari bo`lgan davlatlar harbiy qismlaridan tashkil topadi va ularning qarorlari asosida konfederatsiya qo`mondonligi ixtiyoriga yuboriladi.

Umuman, ta`kidlash lozimki, davlat hokimiyati tuzilishi biz yuqorida ko`rsatib o`tgan shakllardangina iborat, deb o`ylash noto`g`ri bo`lardi. Dunyo davlatlararo birlashish va oshkora huquqiy ittifoqlarning ko`plab shakllari (shaxsiy va real uniya¹, vassallik, syuzerenitet, millatlar va davlatlar hamdo`stligi, davlatlar hamjamiyati)ni, dominionlar va metropoliyalar, savdo ittifoqlari, harbiy bloklar munosabatlari va hokazolarni ko`p ko`rgan. Biroq bular endi davlatlar birlashmalarga kiradi.

Davlatlararo birlashmalar. Davlatning hududiy tuzilishdan davlatlararo birlashma (tuzilma)ni farqlash kerak. Bunday birlashma davlatlarning shunday ittifoqini bildiradiki, uning doirasida umumdavlat yoki davlatlar ustida turuvchi organlar mavjud bo`ladi. Lekin, ayni paytda, birlashadigan davlatlar o`z suverenitetlarini saqlab qoladi. Shu mazmunda shaxsiy va real uniyalar, protektorat va uyushgan davlatlar, konfederatsiya, hamdo`stlik va boshqa shakllarni ajratib ko`rsatish mumkin.

Shaxsiy uniya — bu boshqaruv monarxik shakli oqibatida yuzaga keladigan davlatlararo birlashishning eng oddiy tuzilishidir. U yo tasodifan to`g`ri kelib qolgan taxtning merosxo`ri sifatida yoxud bir davlat tojdorlik huquqini boshqa

davlatga topshirishi tufayli monarx boshqa davlat tojini egallash huquqiga ega bo'lganda yuzaga keladi. Bunda boshqa mamlakat monarxi davlat boshlig'i bo'lishi konstitutsiyaviy huquq bilan o'rnatilmaydi. Natijada bir shaxsning o'zi ayni paytda mutlaqo mustaqil davlat boshlig'i lavozimini egallagan bo'ladi. Shuning uchun ham shaxsiy uniya ikki davlatning yuridik ittifoqini anglatmaydi hamda umumdavlat organlarining tashkil etilishiga olib kelmaydi. Shu davlatlar taxtlarini boshqa shaxslar egallashi bilan u barham topadi. Shaxsiy uniyaga Polsha tojini qudratli Avgustga topshirish natijasida tashkil topgan Saksoniya bilan Polsha o'rtasidagi uniya (1697-1763 yillar), shuningdek, Buyuk Britaniya bilan Gannover o'rtasidagi uniya (1714-1837 yillar) misol bo'la oladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Shaxsiy uniyaga qarama-qarshi o'laroq **real uniya** davlat boshlig'i umumiy instituti – monarx va davlat hokimiyatining boshqa umumiy organlarini tashkil etish asosidagi davlatlarning huquqiy ittifoqini bildiradi. Real uniya doirasida ittifoq davlatlarining suvereniteti saqlanib qolishi mumkin. Shunday ittifoqqa Shvetsiya bilan Norvegiya uniyasi (1814-1905 yillar)ni misol qilib keltirish mumkin bo'ladi. Bu erda umumiy monarxdan tashqari faqat tashqi aloqalar organlari umumiy bo'lgan. Aksincha, Avstriya-Vengriya uniyasi (1867-1918 yillar)da imperatordan tashqari tashqi siyosat idorasi, moliya va Qurolli Kuchlar umumiy edi.

Hamdo'stlik deyilganda, odatda, Millatlar hamdo'stligi (ilgarigi Britaniya millatlar hamdo'stligi) tushuniladi. Bu — tarkibiga Buyuk Britaniya va uning sobiq mustamlakalari bo'lgan suveren davlatlar kirgan ittifoq davlatlari konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan xalqaro-huquqiy ittifoqdir. Dastlab Hamdo'stlik printsipi quyidagilardan iborat bo'lgandi: Britaniya monarxi Hamdo'stlik barcha a'zolari uchun nominal davlat boshlig'i hisoblanadi, har bir mamlakatda uning tomonidan tayinlangan bosh gubernator vakillik qiladi. Biroq hozir umumiy davlat boshlig'i instituti Hamdo'stlikning atigi bir nechta mamlakatida e'tirof etiladi va u faqat rasmiyatchilik xususiyatiga ega.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) qisman millatlar hamdo'stligini eslatadi. MDH sobiq ittifoq tarqalib ketgandan keyin tashkil topgan. Biroq Rossiya davlati boshlig'i MDH mamlakatlarida nomiga bo'lsa-da, davlat rahbari hisoblanmaydi, balki faqat MDH davlatlari boshliqlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi organning rahbari etib saylanadi.

Protektorat bir davlat amalda o'ziga qaram bo'lgan davlatga tashqi siyosiy va harbiy homiylik qilishiga asoslangan davlatlararo huquqiy ittifoqdir. Ichki siyosatda homiylikdagi davlat muayyan ma'nodagi mustaqillikka ega bo'ladi. Bunda homiylik qiluvchi davlatning tegishli organlari ayni paytning o'zida himoyadagi davlat vakolatlarini ham o'zlashtirib oladi. Protektorat sobiq mustamlakalar va ularning metropoliyalari o'rtasidagi munosabatlarning dastlabki bosqichida mavjud bo'lishi mumkin.

Uyushgan davlatlar shaklida yuzaga kelgan davlatlararo munosabatlar protektorat munosabatlariga o'xshab ketadi. Chunonchi, Puerto-Riko «asosiy» davlat — AQSH bilan uyushgan davlat hisoblanadi. Yuridik jihatdan bunday davlatlar faqat tashqi siyosatlarinigina «asosiy» davlat bilan kelishib olishlari kerak. Bu ularning tashqi suverenitetini rasmiyat nuqtai nazaridan cheklaydi. Lekin ular amalda ichki siyosatda ham, iqtisodiyotda ham «asosiy» davlatga qaramdir.

Bundan tashqari, tantanali ravishda e'lon qilingan federatsiya aslida unitar davlat bo'lib chiqqan holatlar ma'lum. «Sovet xalqi milliy sotsialistik davlatchiligining oliy shakli» hisoblangan sobiq ittifoq federatsiyasi xuddi shunday bo'lgandi.

Ittifoqdosh respublikalar SSSR Konstitutsiyasida mustahkamlangan ixtiyoriy birlashuv asosida yagona ittifoq davlati sifatida SSSRga kiradilar, deb hisoblanardi. SSR Ittifoqini tuzish haqidagi shartnoma (1922 yil) bu birlashuvning huquqiy asosi bo'lgandi. Biroq bu faqat qog'ozdagina shunday, ya'ni huquqshunoslar tili bilan aytganda, de jure bo'lib, amaldagi siyosat de facto markazdan turib amalga oshirilishi davom etavergan. Shunga o'xshash holatni Rossiyada hozir ham kuzatish mumkin. Chunonchi, bu erda ijro etuvchi hokimiyat rahbarlarini saylash – shahar va viloyatlar ma'muriyatlari boshliqlarini mamlakat

prezidenti tomonidan tayinlanishi bilan qo`shib olib boriladi. Lekin joylardagi oliy mansabdor shaxslarni poytaxtdan turib tayinlash va ularning vakolatlarini belgilab berish federatsiya emas, unitar davlatning belgisidir. Bunda oldingi xatolarining ham ta'siri katta. Aytaylik, davlat-hududiy chegaralanishi davrida sobiq ittifoq millatlar manfaatlari mutlaqo hisobga olinmagandi. O`sha vaqtlarda boshqacha bo`lishi ham mumkin emasdi. Zero, millat, millatga mansublik qandaydir ikkinchi darajali, asta-sekin barham topib ketadigan tushuncha deb qaralardi. Faqat birgina «millat» — yagona sho`ro xalqigina yashashga haqli edi.

Darhaqiqat, milliy g`ururi so`ndirilgan, madaniyati, tarixi, tili, urf-odat va qadriyatlari kamsitilgan, haq-huquqlari, izzat-nafsi yerga urilib ruhan ezilib, umidsizlikka tushgan xalq va millat mustamlakachilar o`ljasi edi. Mustabid sho`ro tuzumi zamonida O`zbekistonga nisbatan «mamlakat» atamasi hech qachon ishlatilgan emas. O`sha davrda kishilarni bevatanlikka targ`ib etuvchi, ona yurt, millat tushunchalarini ongdan, yurakdan butkul chiqarib yuborishga qaratilgan makkorona siyosat olib borilgandi. Ayniqsa, tarixni, milliy o`zligimizni anglashga bo`lgan har qanday intilish g`alamislik, millatchilik, feodal o`tmishni qo`msash, baynalmilallikning ildiziga bolta urish sifatida baholanib, qattiq tayziqqa olingandi.

Qolaversa, mustabid sho`ro tuzumi davrida millatchilik deb atalgan hodisa aslida tub milliy qadriyatlarni, o`ziga xos xususiyatlarni, an`analarni saqlab qolishga intilish bo`lib, bu millatning ijtimoiy, ma`naviy va tarixiy rivojlanish subyekti sifatida o`zini saqlab qolishga intilishdan iborat asosli ehtiyoji edi. «Har qanday millat, u naqadar kichik bo`lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo`q bo`lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi»¹.

Biroq tarix hamma narsani joy-joyiga qo`yishi yana bir bor o`z isbotini topdi: bunday davlat, to`g`rirog`i, davlat tuzilishining bu shakli o`limga mahkum bo`ldi.

Insoniyat uchun eng muhim saboqlardan biri shundan iboratki, davlat tuzilishining har qanday shaklida ham markaz bilan hududiy joylar o`rtasida vakolatlar har qanday milliy-etnik mojarolarning kelib chiqish ehtimolini qariyb

yo`q darajaga olib boradigan omillarni yaratish imkonini beradigan tarzda taqsimlanishi darkor. Buni, albatta, yodda tutish lozim. Jumladan, Checheniston-dagi voqealar buning yorqin dalilidir.

3.4. Mamlakatda ma'muriy hududiy bo`linishi masalalarini huquqiy asoslari

O`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o`n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi «O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy tizimi» deb atalgan XVI bobining 68-moddasida shunday deyilgan: «O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qorakalpokiston Respublikasidan iborat».

Konstitutsiyaning 69-moddasida esa Qorakalpog`iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshirilishi ko`rsatib utilgan¹⁶.

Mamlakatimizda ma'muriy hududiy tuzilish masalalari «O`zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to`g`risidagi Qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko`ra¹⁷:

ushbu Qonun viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o`zgartirish, ma'muriy markazlarni ko`chirish hamda aholi punktlarini shahar, shaharchalari turkumiga o`tkazish tartibini belgilaydi;

Viloyatlarni tuzish va tugatish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi;

Tumanlarni tuzish va tugatish tegishli viloyat va Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi;

¹⁶ O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

¹⁷ "O`zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to`g`risidagi Qonun. Manbaa Lex.uz

Qoraqalpogʻiston Respublikasida tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpogʻiston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Joʻqorgʻi Kenges tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. (Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [69-moddasi](#).);

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida esa — Joʻqorgʻi Kenges tomonidan amalga oshiriladi;

Respublika (Qoraqalpogʻiston Respublikasida), viloyat boʻysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida oʻttiz ming aholisi boʻlgan, muhim maʼmuriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin;

Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yoʻl stantsiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda qoida tariqasida kamida ikki ming aholisi boʻlgan aholi punktlari kiritilishi mumkin;

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, Toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi;

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashlari tomonidan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida esa — Joʻqorgʻi Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Maʼlumki, oxirgi yillarda Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimiz maʼmuriy hududiy tuzilishida hududlarning mavjud imkoniyat, salohiyat va rezerflarni ishga solish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi toʻgʻrisida»gi [Qonuniga](#) muvofiq hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, shaharlarning

rezerv va imkoniyatlarini to'liq ishga solish, bu boradagi strategik va eng muhim istiqbolli vazifalarni samarali hal etishda davlat boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 iyundagi «Respublika bo'ysunuvidagi shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinganligi bu boradagi izchil islohotlarning davomidir. Unga ko'ra¹⁸:

Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida 12 ta shtat birligidan iborat Respublika bo'ysunuvidagi shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'limi tashkil etildi.

Bo'lim Toshkent viloyatining Angren, Bekobod, Olmaliq, Ohangaron va Chirchiq shaharlari, Sirdaryo viloyatining Shirin shahri, Navoiy viloyatining Zarafshon shahri va Surxondaryo viloyatining Sharg'un shaharchasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni samarali hal etilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, shaharlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini tubdan oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, shaharlarni ishlab chiqarishga jalb etilmagan rezerv va imkoniyatlarini to'liq ishga solish, shaharlarda aholi daromadlari o'sishini ta'minlash kabi vazifalar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Xulosa o'rnida Angren, Bekobod, Olmaliq, Ohangaron, Chirchiq, Shirin, Zarafshon shaharlari va Sharg'un shaharchasi viloyatlar bo'ysundurividan Respublika bo'ysunuviga o'tkazildi.

Yuqoridagilarga asoslanib O'zbekistonda ma'muriy hududiy tuzilishini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri - (14ta);

Respublika bo'ysunuvidagi shaharlar (8ta) – Angren, Bekobod, Olmaliq, Ohangaron, Chirchiq, Shirin, Zarafshon shaharlari va Sharg'un shaharchasi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'ysunuvidagi tuman va shaharlar;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 iyundagi "Respublika bo'ysunuvidagi shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Manbaa Lex.uz

Tumanlar bo`ysunuvidagi shaharchalar, ovullar va aholi punktlari.

O`zbekiston Respublikasining ma'muriy – hududiy tuzilishi quyidagi asosiy taomillarga asoslanadi:

O`zbekiston Respublikasi hududining birligi va bo`linmasligi;

Davlat manfaatlari va tegishli hududlarda yashovchi aholi manfaatlarining uyg`unlashtirish;

O`zbekiston Respublikasi yagona davlat hokimiyatining fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish organlari bilan uyg`unligi;

ma'muriy – hududiy tuzilish va ijtimoiy-iqtisodiy rayonlashtirishning o`zaro bog`liqligi;

oshkoralik va ma'muriy – hududiy tuzilish masalalarini hal etishda jamoatchilik fikrini hisobga olish.

3.5. Aholi punktlariga shahar maqomini berishning qonuniy masalalari va shahar aglomeratsiyasi

Mamlakatimizda shahar maqomini berish «Shaharsozlik» kodeksi bilan tartibga solinadi. Shaharsozlik normalari va qoidalari shaharsozlikning asosi bo`lib, ular O`zbekiston Respublikasi va uning qismlari hududlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish, binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarning loyihalashtirilishi, qurilishi va rekonstruksiya, binokorlik materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish sohalardagi normalar va qoidalarni belgilaydi.

Aholi punktlari shaharlar, shahar posyolkalar va qishloq aholi punktlariga (qishloqlar, ovullar) bo`linadi.

Aholi soniga qarab shaharlar quyidagilarga bo`linadi:

eng yirik aholi punkti - aholisining soni bir milliondan ortiq kishidan iborat;

yirik aholi punkti- aholisining soni ikki yuz ellik mingdan bir milliongacha kishidan iborat;

katta aholi punkti - aholisining soni yuz mingdan ikki yuz ellik minggacha kishidan iborat;

o`rtacha aholi punkti - aholisining soni ellik mingdan yuz minggaacha kishidan iborat;

kichik aholi punkti - aholisining soni ellik minggaacha kishidan iborat.

Aholi soniga qarab qishloq aholi punktlari quyidagilarga bo`linadi:

yirik aholi punkti - aholisining soni besh mingdan ortiq kishidan iborat;

katta aholi punkti - aholisining soni uch mingdan besh minggaacha kishidan iborat;

o`rtacha aholi punkti - aholisining soni bir mingdan uch minggaacha kishidan iborat;

kichik aholi punkti - aholisining soni bir minggaacha kishidan iborat.

Urbanizatsiya dunyo bo`ylab jadal sur`atlar bilan rivojlanib borayotgan jarayon bo`lib, uni harakatlantirayotgan kuch mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksalayotganligidir. Yer yuzida shaharlar va ular aholisining soni o`sib, maydoni kengayib bormoqda. Turli miqyosdagi shaharlarning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatining kundan-kunga ortib borayotganligi ham sir emas. Shaharlar nafaqat kengaymoqda, balki ularning o`z atrofidagi boshqa shaharlar bilan integratsiyalashuvi kuchayib, o`zaro aloqadorlikda rivojlanuvchi aholi manzilgohlari guruhlarini paydo bo`lmoqda. Bu holat aglomeratsiyalarni vujudga keltiradi.

Shaharlar aglomeratsiyalari murakkab tuzilishga va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta`sir kuchiga ega. Shu sababli, urbanizatsiya jarayonining jadallashib borayotganligi aglomeratsiya hodisasini o`rganishni taqozo etadi. Aglomeratsiya katta miqdordagi aholi istiqomat qiluvchi yirik hududlarni kompleks ravishda o`zlashtirish usullaridan biri bo`lganligi sababli, hozirgi kunda geosiyosiy ta`sir markazlarini shakllantirishning muhim dastaklaridan biriga ham aylanib ulgurgan. Ushbu jarayonni o`rganishga bo`lgan qiziqishning ortishiga yana bir sabab dunyoning ko`pchilik mamlakatlarida iqtisodiy o`sish va rivojlanish ko`rsatkichlari barqarorligining pasayib borishidir. Hududiy rivojlanishning samarali modellarini amaliyotga joriy etish ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, hududiy rivojlanishni ta'minlash masalasi barcha mamlakatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ham asosiy yunalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha «Harakatlar strategiyasi»ning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy siyosat hududiy muvozanatlilikni ta'minlash, urbanizatsiyalashuv va hududlararo integratsiyalashuvni jadallashtirish yo'li bilan mintaqalar iqtisodiyotining kompleks rivojlanishiga erishishga qaratilgan. Bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri tashkil etishning naqadar dolzarb masala ekanligining isbotidir.

Inson hayot kechirishi uchun qulay makon yaratish usuli sifatida aglomeratsiya murakkab va fanlararo tushuncha bo'lib, iqtisodiyot, arxitektura, qurilish, sotsiologiya, psixologiya, madaniyat va boshqa sohalarga oid bilimlarni talab qiladi. Shu sababli, zamonaviy fanda «aglomeratsiya» tushunchasining umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Aglomeratsiyaning normativ-huquqiy hujjatlarda ham ta'rifi keltirilmagan. Bu masaladagi munozara hanuz davom etmoqda. Dunyo olimlari aglomeratsiyaning modellari, ularning afzallik va kamchiliklari, ijobiy va salbiy oqibatlarini xususida hamon bahs olib bormoqdalar, Shundan kelib chiqib, ushbu munozaralardagi ayrim muammoli savollar ustida to'xtalishga qaror qildik.

Aglomeratsiya (lot. agglomerare - birlashtirmoq, to'plamoq) yaqin hududdagi shaharlarning o'zaro «tortilishi», hudud aholisining mehnat va turmush jarayonlaridagi aloqadorligining ortishi hisobidan vujudga kelgan hodisadir. O'zbekiston Milliy Entseklpediyasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, aglomeratsiya - bu aholi manzilgohlari, asosan shaharlar, shuningdek qishloqlarning intensiv ho'jalik, mehnat va madaniy-maishiy hamda rekreatsion aloqalar bilan bog'lanib,

yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhidir¹⁹. Rus geograf olimi A.N.Lola ushbu atamaga «ishlab chiqarish, mehnat, madaniy maishiy, rekreatsion va boshqa sohalarda oʻzaro aloqador boʻlgan shahar, qishloq va dala hovlilar joylashgan manzilgohlarning hamda landshaftlarning bir butun tizimidir» deb taʼrif bergan²⁰. Rus mintaqashunos olimi V.N.Petrov esa aglomeratsiyalarga «bir hududda toʻplangan shahar va boshqa aholi manzilgohlarining toʻplanishi boʻlib, ular oʻsish jarayonida oʻzaro yaqinlashadilar va ular orasida xoʻjalik, mehnat va madaniy-maishiy aloqalar kuchayib boradi» deb taʼrif bergan.

Xulosa oʻrnida, aglomeratsiya murakkab hududiy dinamik tizim boʻlib, uning elementlari ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy va xoʻjalik aloqalarida, shuningdek infratuzilma va resurs salohiyatidan foydalanishda bir butunlikda namoyon boʻladi. Bu bir butunlik hududda mujassamlashgan resurslardan yanada samaraliroq foydalanish imkonini beradi. Aglomeratsiyalarning hosil boʻlishi sanoatning hamda urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi bilan bogʻliq. Boshqa tomondan, aksariyat hollarda shaharlar sonining koʻpligi, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining mavjudligi hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini koʻrsatadi²¹. Demak, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, urbanizatsiya va aglomeratsiya tushunchalari doimo yonma-yon yuradi va biri ikkinchisini taqozo etadi. Aglomeratsiyalar dunyoning barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida shakllangan. Bombay (Hindiston) shahar aglomeratsiyasida 20 million, Rio-de Janeyroda (Braziliya) 12 million, Myunxen (Germaniya) aglomeratsiyasida esa 2 million aholi istiqomat qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi mintaqalarida ham oʻnlab aglomeratsiyalar mavjud. Ular orasida eng yiriklari Toshkent, Samarqand, Fargʻona-Margʻilon, Andijon, Namangan aglomeratsiyalaridir. Masalan, Toshkent aglomeratsiyasi aholisi soni bugungi kunga kelib 4 milliondan oshib ketdi. Bu mamlakatdagi eng yirik aglomeratsiya boʻlib, ishlab chiqarish salohiyati ham eng yuqoridir. Aglomeratsiyalarni

¹⁹ Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, A-harfi. T.:Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. B.149.

²⁰ Lola A.M. Osnovo gradovedeniya i teorii goroda. M.: Izd- vo:«KomKniga », 2005. Str.202.

²¹ A.Soliev. Oʻzbekiston geografiyasi (Oʻzbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi). T.: “Universitet”, 2014. B.26.

aniqlashning umume'tirof etilgan yagona usuli mavjud emas. Jahon amaliyotida asosiy ko'rsatkich sifatida aglomeratsiya markazining aholisi soni (100 mingdan kam emas), shahar atrofidan shaharga etib olish uchun sarflanadigan vaqt (1,5 soatdan 2 soatgacha), aglomeratsiya zonasi aholi manzilgohlarining soni (kamida 3 ta), yo'ldosh shaharlar aholisi soni (50 ming kishidan kam emas), aglomeratsiya aholisining soni (kamida 110 ming kishi), shahar aholisining ulushi (kamida 10 foiz) va aglomeratsiyaning yetuklik koeffitsienti kabilardan foydalaniladi. Rus olimi P.M.Polyan tomonidan taklif etilgan aglomeratsiyaning yyetuklik darajasini aniqlash formulasi quyidagi shaklga ega:

$$K_{etuk} — R_x (M_x m Q N_x n)$$

Bu erda:

K_{etuk} - aglomeratsiyaning yyetuklik koeffitsienti;

R - aglomeratsiyaning shahar aholisi soni;

M va N - mos ravishda, shaharlar va shaharchalar soni;

m va n - ularning aglomeratsiya shahar aholisi sonidagi ulushi.

Formula muallifining fikriga ko'ra, aglomeratsiyaning shakllanganlik mezonini K ning 1 ga teng bo'lgan holatidir²². XXI asrda hududlarning rivojlanishini mintaqashunos olimlar asosli ravishda oqilona amalga oshirilgan mintaqaviy siyosat bilan bog'laydilar. Bunday mintaqaviy siyosat aglomeratsiyalar doirasida aholi uchun qulay turmush va mehnat sharoitlari yaratib berilishini nazarda tutadi. Aglomeratsiya hududiy rivojlanish nazariyasida yangi tushuncha bo'lmasada, ilmfan taraqqiyoti bilan uning yangidan-yangi qirralari ochilmokda, zamonaviy modellari yaratilmoqda. Ushbu modellar mintaqashunos olimlarning aholi turmush darajasi, shaharsozlik siyosati, hududiy rejalashtirish va sanoatning rivojlanishi borasidagi tasavvurlarini ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Aglomeratsiyalarning makondagi rivojlanishining bir qator modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Bir markazli;

²² Lappo G., Polyan P., Selivanova T. Administrativno territorialnoe preobrazovaniya i razvitie aglomeratsiy. M.: Izdvo: «KomKniga», 2011. Str.123.

- Ko`p markazli;
- Tarqoq;
- Chiziqli.

Bir markazli model «markaz-yo`ldosh shaharlar» tizimi shaklida bo`lib, rivojlanish jarayoni markazda jadal kechadi. Bu model ilk bor Kristallarning markaziy o`rinlar nazariyasida asoslab berilgan. Bunda markaziy shahar yetakchi bo`lib, yo`ldosh shaharlarni muhim xizmatlar bilan ta'minlaydi. Modelning afzalligi shundaki, aglomeratsiya doirasida resurslarning mujassamlashuvini ta'minlash va ularni mahalliy hududlar rivojiga yo`naltirish mumkin. Bunda kichik turur-joy va sanoat zonalari, transport va infratuzilmaning samarali tarmoqlari barpo etilishini kuzatish mumkin. Modelning kamchiligi shundaki, dolzarbligini yo`qotgan yo`ldosh shaharlar resurslarning boshqa hududlarga «oqib» chiqib ketishi natijasida rivojlanmay qoladi. Bu modelda aholi manzilgohlarining notekis rivojlanishi natijasida mahalliy mehnat migratsiyasi kuchayadi. Model ko`proq rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O`zbekistonga ham xosdir (Buxoro, Samarqand, Navoiy, Qo`qon va boshqa shaharlar aglomeratsiyalari).

Ko`p markazli (tarmoqli) modelda aglomeratsiya tarkibidagi qo`shni shaharlar teng huquqli bo`lib, barcha masalalarda bir-birini to`ldirib turadilar va mintaqaviy hamkorlikda rivojlanadilar. Bunda har biri biror tarmoqqa ixtisoslashgan mustaqil markazlar tarmog`i shakllanadi. Gorizontal mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida uncha katta bo`lmagan migratsion yo`qotishlar bo`lishi mumkin. O`zbekistonda ushbu model asosida Angren-Olmaliq, Farg`ona-Marg`ilon kabi shaharlar aglomeratsiyalari rivojlanmoqda. Masalan, Angren-Olmaliq shahar aglomeratsiyasida markaz shaharlarning biri yoqilg`i-energetika (Angren), boshqasi rangli metallurgiya (Olmaliq) tarmog`iga ixtisoslashgan. Ushbu shaharlar va ularga yondosh boshqa aholi manzilgohlari orasida ishlab chiqarish kooperatsiyasi, mehnat munosabatlari, xususan, mayatnikli migratsiya va savdo aloqalari yaxshi rivojlangan.

Tarqoq va chiziqli aglomeratsiya modellarini tadbiq qilish biroz munozarali masala hisoblanadi. Tarqoq model aholini tovar va xizmatlar bilan ta'minlovchi

markazlarning aglomeratsiya hududi bo`ylab bir tekisda taqsimlanishini nazarda tutadi. Bu model qishloq aholi manzilgohlarini joylashtirish uchun qulay bo`lib, qishloqlar yoki fermalarning bunday tarqoq joylashuvi AQSH, Kanada, Avstraliya va Boltiqbo`yi mamlakatlariga xos. Chiziqli modelda aholi manzilgohlari transport magistralari bo`ylab o`ziga xos «nur»lar hosil qilgan holda joylashadilar. Bunda aholi manzilgohlarining o`zaro emas, markaz bilan aloqalari yaxshi rivojlangan.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, aglomeratsiyalar tarkibiy tuzilishining ikki modeli mavjud: bir markazli va ko`p markazli. Tarqoq va chiziqli submodellar alohida model hisoblanmay, yuqoridagi modellar tarkibida uchraydi. Aglomeratsiyaning qaysi model asosida rivojlanishi uning tarkibidagi shahar va qishloq aholi manzilgohlarining joylashuvi, hududiy mehnat taqsimotidagi o`rni va ixtisoslashuvi hamda o`zaro aloqalarning mazmunidan kelib chiqadi. Aglomeratsiyalarning rivojlanishi ham ijobiy, ham salbiy natijalarga olib keladi. Hududning aglomeratsiya shaklida rivojlanishining ijobiy jihatlariga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratilishi, aholi turmush darajasining o`sishi kabilarni kirg`izish mumkin. Salbiy jihatlar sifatida aholi migratsiyasi natijasida ba`zi aholi manzilgohlarining bo`shab, rivojlanmay qolishi va mahalliy boshqaruvning susayishini e`tirof etish mumkin. Shuni ta`kidlash lozimki, bugungi kunda aglomeratsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta`minlash va hududiy boshqaruvni samarali tashkil etish jihatidan ko`p markazli model ancha qulay. O`zbekistonda ham bir markazli aglomeratsiyalarning ulushi ancha yuqori. Ularning ko`pchiligida yo`ldosh shaharlar iqtisodiyotini yuksaltirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, Andijon aglomeratsiyasi tarkibidagi Andijon-Asaka-Shahrixon uchburchagi ancha yaxshi shakllangan bo`lib, Asaka va Shahrixon shaharlarining rivojlanishiga biroz turtki berilsa, aglomeratsiyaning Farg`ona mintaqasi iqtisodiyotidagi ahamiyati yanada ortishiga erishiladi. Bu taklifni Samarqand, Kattaqo`rg`on va Jomboy shaharlariga nisbatan ham qo`llash mumkin. Shu o`rinda modelning bir kamchiligini ham ta`kidlab o`tish lozim: ko`p markazli aglomeratsiyalarning faoliyatini tashkil etishda infratuzilmani barpo etish xarajatlari ancha yuqori bo`ladi. Shunga qaramay, ushbu model hududda ishlab

chiqarish korxonalari va infratuzilma obyektlarini oqilona va qulay joylashtirish, insonlarning mehnat qilishi, yashashi va dam olishi uchun munosib sharoit yaratish yo`li bilan aholi turmush darajasi o`shishini ta'minlash imkoniyatiga ega.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Eng avvalo, davlat shakli xalqlar hayotiga befarq qaraydigan «mavhum tushuncha» ham, «siyosiy chizgi» ham emas, balki *hayot tarzi va xalqning jonli tashkilotidir*. Xalq o`z *hayot tarzini tushunishi, aynan «shunday» tashkil bo`lishni uddalashi*; shu tuzum qonunlarini *hurmat qilishi* hamda shu tashkilotga ixtiyoriy hissasini qo`shishi zarur. Boshqacha aytganda, aynan *xalqning jonli huquqiy ongi* davlat shaklini ro`yobga chiqaradi, unga hayot, kuch baxsh etadi; binobarin, davlat shakli, *eng avvalo, xalq huquqiy ongi darajasiga*, xalq tomonidan to`plangan tarixiy *siyosiy tajribaga*, uning iroda kuchi va milliy xususiyatiga bog`liq bo`ladi»

2. Davlat tuzilishi shakli deganda – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o`rtasidagi, davlatning alohida qismlari o`rtasidagi, markaziy va mahalliy organlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar xususiyatini tushuniladi.

Shunday qilib, davlatning hududiy tuzilishi bir butun va qismlarning, markaziy va mintaqaviy hokimiyat organlarining o`zaro nisbatini ifodalaydi.

Hududiy tuzilishning ikki asosiy farqlovchi jihati mavjud. Ya'ni: tuzilish tarkibiga ko`ra davlatlar **oddiy – unitar** hamda **murakkab – federativ va konfederativ** davlatlarga bo`linadi. Demak, davlat tuzilishi shakli nafaqat ommaviy hokimiyat bilan, balki davlatning yana bir jiddiy xususiyati – aholining hududiy tashkiloti bilan ham chambaras bog`liqdir.

3. Prezidentlik respublika boshqaruv shakli sifatida, birinchi navbatda, saylab qo`yilgan davlat boshlig`i bir vaqtning o`zida hukumat rahbari ham bo`lishi bilan farq qiladi. Prezidentning o`zi parlament roziligi bilan shu hukumatni tuzadi va zarurat tug`ilganda uni tarqatib yuborish huquqiga ega bo`ladi. Butun xalq tomonidan saylangan prezident umummilliy manfaatlar ifodachisi, millat ramzi

bo'lishi (har qalay shunday bo'lishi kerak ham) boshqaruv prezidentlik shaklining ijobiy tomonidir. Mazkur shakl butun vakolatni bir shaxsga beradi va u favqulodda holatlarda mas'uliyat va rahbarlikni o'z qo'liga oladi. Boshqaruvning prezidentlik shakli, odatda, parlament shakliga nisbatan yuqoriroq darajadagi siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Zero, hukumat (prezident) konstitutsiyada belgilab qo'yilgan qat'iy muddatga saylanadi.

3. Mustaqil davlatimizning ravnaq topishi siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksala borishi, milliy iqtisodiyot, davlat qurilishi borasida rahbarlik va boshqarish tizimini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil qilishda mamlakat ma'muriy hududiy tuzilishini oqilona belgilash katta ahamiyatga ega.

4. Konstitutsiyaning 69-moddasida esa Qorakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi. Mamlakatimizda ma'muriy hududiy tuzilish masalalari «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi Qonun bilan tartibga solinadi.

5. Shaharlar aglomeratsiyalari murakkab tuzilishga va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir kuchiga ega. Shu sababli, urbanizatsiya jarayonining jadallashib borayotganligi aglomeratsiya hodisasini o'rganishni taqozo etadi. Aglomeratsiya (lot. agglomerare - birlashtirmoq, to'plamoq) yaqin hududdagi shaharlarning o'zaro «tortilishi», hudud aholisining mehnat va turmush jarayonlaridagi aloqadorligining ortishi hisobidan vujudga kelgan hodisadir. Xulosa o'rnida, aglomeratsiya murakkab hududiy dinamik tizim bo'lib, uning elementlari ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy va xo'jalik aloqalarida, shuningdek infratuzilma va resurs salohiyatidan foydalanishda bir butunlikda namoyon bo'ladi. Bu bir butunlik hududda mujassamlashgan resurslardan yanada samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. Davlat tuzilishi shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Prezidentlik respublika boshqaruv shakli to'g'risida tushuncha bering?

3. Mamlakatimizda ma'muriy hududiy tuzilish masalalari qanday huquqiy hal etiladi?
4. Shaharlar aglomeratsiyalari deganda nimani tushunasiz?
5. Mamlakatimizdagi aglomeratsiya hududlariga izoh bering?
6. Rus olimi P.M.Polyan tomonidan taklif etilgan aglomeratsiyaning yetuklik darajasi qanday aniqlanadi?
7. Aglomeratsiyalarning qanday modellarini bilasiz, ularning bir-biridan farqlari nimada?

4-MAVZU. MINTAQALAR TABIIY-RESURS SALOHİYATI VA ULARNING HUDUDIIY TARAQQIIYOTDA TUTGAN O`RNI

Reja:

4.1.Mintaqa tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari

4.2.Mintaqada mineral xomashyo resurslari tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati va unda oqilona foydalanish muammolari

4.3. Mintaqa mineral resurslari va ulardan foydalanishning xozirgi holati

Tayanch tushuncha va iboralar: tabiiy resurslar, mineral xom-ashyo resurslari, hudud, tabiiy boylik, relef, foydali qazilma, ekologiya, investitsiyalar, geologik qiduruv.

4.1.Mintaqa tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari

Jamiyat va tabiat orasidagi o`zaro aloqalar bilan bog`liq bo`lgan muammo-masalalar ustida qator fan vakillari tadqiqotlar olib boradilar. Ammo bu borada mintaqaviy iqtisodiyot fani alohida o`rin tutadi. Chunki tadqiqot obyekti tabiat, aholi, xo`jalik bo`lib kelgan va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ularning kelajagi to`g`risida ish olib borish ushbu hududiy fanlar uchun nihoyatda muhimdir.

Tabiiy resurslar xaqida so`z borganda eng avvalo bir masalani yaxshi tushunib olish lozim. Ma`lumki, tabiiy resurslar tugallanib qoladigan va tugallanmaydigan resurslarga bo`linadi. Tugab qoladigan resurslar qatoriga masalan, yer osti va yer usti boyliklari kiradi. Shuning uchun ulardan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish lozim bo`ladi. Tugallanmaydigan tabiiy resurslarga asosan quyosh energiyasi, shamol, okean va dengiz suvlari tufayli olinadigan energiya kiradi.

O`z navbatida, tugallanib qoladigan tabiiy resurslar ikki qismga—tiklanishi mumkin bo`ladigan va qayta tiklanmaydigan resurslarga bo`linadi. Tiklanadigan tabiiy resurslar qatoriga o`rmon, suv, tuproq kiradi va ularning ayrimlarining qayta tiklanishi uchun uzoq vaqt kerak bo`ladi.

Ishlab chiqarish o`sb borgan sari tabiiy resurslarning deyarli barcha xillaridan foydalanish darajasi ham orta boradi. Tabiiy resurslar borasida gap borganda tabiiy boyliklar mamlakat milliy boyligi tarkibiga kiradimi yoki yuqmi?— degan savol tug`iladi. Albatta, ushbu savolga rad javobini berish ma`qulroq. Chunki milliy boylik tarkibiga inson mehnati natijalari: ishlab chiqarish fondlari, haxsiy mulk, mablaglar kiradi. Shu bilan birga tabiiy resurslar milliy boylik vujudga keltirishda ishtirok etadigan ijtimoiy mehnatga kiradigan sarf-xarajatlarga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Shuni aniq aytish mumkinki, ijtimoiy ishlab chiqarishda tabiiy boyliklar muhim omillardan biri bo`lib hisoblanadi. Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar jamiyat yoki biron-bir alohida olingan mamlakat hayotiga bevosita va bilvosita ta`sir ko`rsatishi mumkin. Ular ayrim xo`jalik tarmoqlarini rivojini tezlatish va aksincha sekinlashtirishga ham olib keladi. Bu jihatdan mustaqil mamlakatimiz o`ziga xos va qulay afzalliklarga ega.

O`zbekistan Osiyo qit`asida, geografik o`rni jihatidan hududning ikki yirik daryosi bo`lmish Amudaryo va Sirdaryo oralig`ida joylashgan. Ustyurt platosining shimoli-sharqiy qismi, Orol dengizining g`arbiy chekkasi O`zbekistonning eng shimoliy nuqtasi ($45^{\circ}36'$ shimoliy kenglik), Termiz haxri esa ($37^{\circ}11'$ shimoliy kenglik) janubiy nuqtasi bo`lib hisoblanadi. G`arbiy nuqtasi Ustyurt platosining 56° sharqiy uzoqligida, sharqiy nuqtasi Farg`ona vodiysining Kirg`iziston bilan chegaradosh qismida ($73^{\circ}10'$ sharqiy uzoqlik) joylashgan.

Tabiiy - geografik sharoiti nuqtai nazardan oladigan bo`lsak, O`zbekistan qator qulayliklarga ega bo`lgan mintaqalardan hisoblanadi. Respublika maydoni $448,9$ ming km^2 ga teng bo`lib, u g`arbdan sharqqa 1425 km ga, shimoldan janubga esa 930 km ga cho`zilgan. O`zbekiston o`z maydoniga ko`ra Evropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveytsariya, Avstriya kabi mamlakatlar maydonini qo`shib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi.

O`zbekiston Respublikasi qator mamlakatlar bilan shimolda Qozog`iston, sharq va janubi-sharqda Qirg`iziston va Tojikiston, g`arbda Turkmaniston, janubda Afg`oniston davlatlari bilan chegaradosh. Respublikamiz

davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 kilometrغا teng bo`lib, undan 2203 km Qozog`iston, 1621 km Turkmaniston, 1161 km Tojikiston va 109 km Qirg`iziston va, nihoyat, 137 kilometri Afg`oniston davlatiga to`g`ri keladi.

Respublika reliefi bir xil bo`lmay, uning janubi-g`arbiy qismlari asosan tekisliklardan iborat. O`zbekistonning tekisliklardan tashkil topgan qismi butun maydonining qariyb uchdan ikki qismini egallagan. Qolgan uchdan bir qismi esa tog` va tog` yonbag`rlaridan iborat bo`lib, ular Respublikaning sharqiy hamda janubi-sharqiy qismini egallagan. O`zbekistonning Tyanshon va Xisor — Oloy tog` tizmalari tarkibiga kiruvchi ana shu tog`li o`lkalari Tojikiston va Qirg`iziston hududidagi tog`liklar bilan tutashgan; O`zbekistonga kirib keladigan Ugom, Pskom, Chotqol, Turkiston, Zarafshon tog` tizmalari shimoli-g`arb va janubi-g`arb tomon asta-sekin pasaya boradi va tekisliklarga qo`shilib ketadi.

Mamlakat hududidagi tog`larning eng baland qismi 4643 metrغا teng. O`zbekistonning janubiy-sharqiy qismini egallagan tog`liklar Respublikaning suvga bo`lgan talab - ehtiyojini ma`lum jihatdan ta`minlab turishda ahamiyat kasb etadi.

Tog`lar orasida kattagina maydonlarni egallagan cho`kma-botiqlar mavjud. Ular jumlasiga Farg`ona, Sangzor — Nurota, Samaqand, Qashqadaryo va Surxondaryo botiklari kiradi. «Farg`ona vodiysi» deb nom olgan Farg`ona botigi tog`lar oralig`idagi yirik hudud bo`lib, uning uzunligi 370 kilometrغا teng. Farg`ona vodiysi uch tomondan tog`lar bilan qurshalgan, u faqat g`arb tomondangina ochiq.

Respublika doirasidagi tekislik qismiga Ustyurt yassitog`ligining bir qismi, Quyi Amudaryo, Qizilkum qumliklari kiradi. Qizilqum sahrosining markaziy va janubi-g`arbiy qismida Bukontov, Oltintov, Kukpatov kabi adirlar mavjud.

O`zbekiston tabiiy sharoitining o`ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu erda tez-tez yer qimirlash ruy berib turadi. Yer qimirlash kuchi ayrim hollarda sakkiz-to`qqiz ballga etishi mumkin. Chunonchi, 1823 yilda Farg`onada, 1889 va 1902 yillarda Andijonda, 1866 va 1868 yillarda Toshkent shahrida bo`lib o`tgan zilzilalar katta vayronalarga sabab bo`lgan. 1966 yil 26 aprel tongida Respublika

poytaxtida katta kuch bilan boʻlib oʻtgan zilzila koʻpchilikning yodida. Bu zilzila oqibatida shahar ikki mln. km² ga teng boʻlgan uy-joydan mahrum boʻldi, yuzlab maktablar, bolalar bogʻchalari va yashilar, kasalxonalar, maʼmuriy binolar, madaniyat, fan tashkilotlariga katta shikast etkazildi. Bu zilziladan shaharning markaziy qismi ayniqsa katta talafot kurdi.

Mamlakatimiz tabiati oʻzining serquyoshligi bilan ajralib turadi. Uning Osiyo qitʼasi markazida, okean va boshqa suv xavzalaridan uzoqda joylashganligi, iqlimning quruqligi, yogʻin-sochinning kamlamiga sabab boʻladi. Respublika iqlimi kushni Eron va Afgʻoniston uchun xos boʻlgan oʻzgaruvchan subtropik iqlimda maʼlum darajada farq qiladi. Bu farq relef xususiyatlari bilan bogʻliq.

Mamlakatimizning eng sovuq davri yanvar oyidir. Ayrim yillarning bu davrida sovuq minus 35 - 38 darajaga etadi. Oʻzbekistonning eng shimoliy qismida qish qariyb 5 oyga choʻzilsa, vodiylarda 1,5 - 2 oy davom etadi, xolos.

Baʼzan, qish mavsumi Oʻzbekistonda juda sovuk keladi. 1968—1969 va 1993—1994 yillardagi kish bunga misol boʻla oladi. 1994 yil yanvarida Ustyurtda sovuq 33 — 35 darajaga etdi. Qizigʻi shundaki, xuddi ana shu paytda Sobiq SSSR ning eng sovuq mintaqalaridan biri boʻlgan Yoqutistonda harorat ham aynan shu darajada boʻlgan.

Iyoʻl, togʻli tumanlarda esa iyul —avgust Respublika yozining eng issiq davridir. Bu davrda vodiylar va togʻ yonbagʻrlarida xarorat oʻrtacha 25 —30 darajaga etsa, janubiy viloyatlarda u 30 — 35, ayrim viloyatlarda 40 — 42 darajadan ham oshib ketadi. Oʻzbekistonning eng jazirama issiq boʻladigan Termiz shahrida 1944 yilning iyoʻl oyida harorat plyus 50 darajaga etganligi qayd qilingan.

Oʻzbekiston yogʻin-sochin kam tushadigan qurgʻoqchil mintakalar qatoriga kiradi. Buning ustiga barcha hududlarda yogʻin miqdori bir tekisda emas. Respublikaning koʻpchilik joylarida yillik yogʻin miqdori 200 — 300 mm ni tashkil etadi. Yogʻingarchilik eng kam boʻladigan hududlarga quyi Amudaryo va qizilqum chullari kiradi. Bu erlarga yil davomida yoqqan yogʻin miqdori juda oz. Tekisliklardan sharq va janubi-sharqqa borgan sari yogʻingarchilik koʻpayib boradi

va u tog`li hududlarga yaqinlashgan joylarda 900-950 mm ga etadi. Qishloq xo`jalik ekinlariga suv eng zarur bo`lgan paytga kelib yog`ingarchilik ayniqsa kamayib ketadi va suv tanqisligi boshlanadi. Yer usti suvlari Respublika hududlari buyicha nihoyatda notekis taqsimlangan. Mamlakat xududining uchdan ikki qismini egallaydigan poyonsiz tekisliklarda suv manbalari juda oz. Ayni paytda mamlakat sharqidagi tog`liklarda daryo shahobchalari ko`p. Yer usti suvlarining bu tarzda hududlar buylab notekis taqsimlanishi tabiiy sharoit xususiyatlari bilan borlikdir. Respublikada hukm surayotgan suv tanqisligi ayniqsa qishloq xo`jaligining rivojlanishida katta muammo bo`lib qolmoqda.

Mamlakatimizning suvga bo`lgan ehtiyojini qondirish borasida ikki yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo katta o`rin tutadi. Bu ikki azim daryodan biri — Sirdaryoning uzunligi 137; Amudaryoniki esa—1437 km ga teng. Sirdaryo Amudaryodan uzunligiga qaramay, suv xajmiga ko`ra undan keyin turadi.

O`rta Osiyoning bu ikki daryosi Sirdaryo va Amudaryo havzasini hosil qiladi. Sirdaryo havzasiga Norin, Qopadaryo, Chirchiq Ohangaron, Suh Isfara, Oqbura, Isfay-ramsoy, Shohimardon, G`ovasoy va Kosonsoy kiradi. Amudaryo havzasi esa Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, To`polangdaryo, Sherobod daryolaridan tashkil topadi.

Amudaryoning ham, Sirdaryoning ham asosiy o`zani o`zining o`rta va quyi oqimlari doirasidagina Respublika hududidan oqib o`tadi, xolos. Yana shuni ta`kidlab o`tish lozimki, Amudaryo va Sirdaryo O`zbekistonning suvga bo`lgan ehtiyojini to`la qondirolmaydi. Suv tanqisligini biroz bo`lsa ham yumshatish kichik daryolar va yer osti suvlari zimmasiga tushadi.

O`rta Osiyo va shu jumladan, O`zbekistondagi daryolarga suv beruvchi asosiy manba qor va muzliklardir. O`lkamizda suv tanqisligi ko`p yillar davomida sezilib kelinadi. Shu tufayli Respublikaning qator hududlarida bir nechta kanallar qurilgan. Bu borada sug`orish ustalarining amalga oshirgan ishlari kishini lol qildiradi. Xalq orasidan chiqqan bunday mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan ishlar qator olimlar, tarixchi, arxeolog va chetdan kelgan sayyohlarni hayratga soladi.

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon vodiysidagi Isfara, Suh Quvasoy kabi soylardan foydalanish maqsadida ana shunday kanallar vujudga keltirilgan, Respublika hududlarida qazilgan kanallardan yerlarni sug'orish ishlaridagina emas, balki elektr stantsiyalar qurish uchun ham foydalanib kelingan. Narpay, Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Eski Anhor, Amu-Buxoro, Katta Namanganga o'xshash kanallar va boshqa suv inshootlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston hududida anchagina ko'llar mavjud. Ammo ularning ko'pchiligi kichik ko'llar hisoblanadi. Ular orasida eng yirigi Orol kulidir. Bu kul ancha maydonni egallagani tufayli u dengiz deb yuritiladi. Biroz kattaroq qo'llar qatoriga Sudoche va Arnasoy kiradi.

Bir vaqtlar O'zbekistonning kemachilik va baliqchilik sohalarida muhim o'rin tutib kelgan Orol dengizining mavqei hozirgi davrga kelib ancha pasaydi. Amu va Sirdaryoning Orolga olib keladigan suv miqdori ancha kamayib ketdi. Natijada uning suv sath bir necha metrga pasaydi qirg'oqlari esa o'nlab metrga chekindi, Orol muammosi vujudga keldi.

Ko'zga ko'ringan mutaxassis-ekspertlar fikricha dolzarb masala Orol dengizining avvalgi qiyofasini tiklash emas, uning hozirgi sathini caqla6 qolishdan iboratdir.

Orol dengizi fojiasi oqibatida vujudga kelgan ekologik vaziyat endilikda mamlakat doirasidan chiqib butun sayyora muammosiga aylandi. Ushbu muammoni birorta davlat o'z kuchi, mablag'i bilan bajarishga ojizlik qiladi. Demak, Evropa mamlakatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahon miqyosidagi qator nufuzli boshqa tashkilotlar ham bu yirik muammoga diqqat-e'tiborini kuchaytirishlari lozim.

Toshkent, Ashxobod, Toshhovuz, Nukus kabi shaharlarda Orol muammosiga bag'ishlangan yirik Xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Bu anjumanlarda o'nlab mamlakat vakillari ishtirok etdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida jahon jamoatchiligi diqqat-e'tiborini yana bir bor Orol muammosiga qaratdi.

Xususan, «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q.

Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda deb ta'kidladi²³.

Respublikada suv etishmasligi nazarda tutilib sunggi yillarda qator suv omborlari barpo etildi. Hozir ularning soni 45 taga etdi. Ular orasida Chorvoq, Ohangaron, Tollimarjon, Tuyabug'iz, Janubiy Surxon, Chimqurg'on, Sardoba va boshqa suv omborlari bor. Qashqadaryo vohasining yirik suv inshootlari, jumladan jahonda tengi yuq 6 ta nasos stantsiyalari Amudaryodan 1 soniyada 240 m³ suvni 132 metr balandlikka — Tollimarjon suv omboriga chiqarib turadi.

Respublikada bir necha shifobaxsh mineral suv manbalari mavjud. Ayniqsa, tarkibida oltingugurt, vodorod, yod, radiy, radon kabilar bo'lgan suvlar katta ahamiyat kasb etadi. Ularning ko'pchiligi Kavkazning mashhur shifobahsh manbalaridan qolishmaydi. Mamlakatimizda ma'danli suv manbalaridan foydalanish maqsadida Chimyon, Chortoq, Yangiyo'l, Turon kabi sanatoriyalar tashkil qilingan.

O'zbekistonning o'simliklar dunyosi ham nihoyatda boy. O'simliklar orasida tarkibida efir moylari bo'lgan 25 ming xildan ortiq o'simliklar mavjud. Respublika o'simlik dunyosi borasida fikr yuritganda Amudaryo etaklaridagi keng kamishzor maydonlarni ham aytib o'tish lozim. Ulardan muynasi qimmat bo'lgan ondatralarni ko'paytirish, qushlar qurixonasi, chorva mollari uchun ozuqa maydoni sifatida foydalanish mumkin. Tog' yaylovlarining ko'p joylarini egallab olgan mevazor, rezavor va yong'oqzorlar iqtisodiyotning muhim tarmog'i bo'lgan asalarichilikni rivojlantirish imkonini beradi.

²³ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. Manba: [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti](http://www.president.uz). 2017 yil 20 sentyabr.

Mavjud o`simliklarning qariyb 30 foizi faqat Respublikamizda uchraydi. Mamlakatdagi o`simliklarning kamqismi chorvachilikda ozuqa bo`lib xizmat qiladi.

O`zbekistonda yer osti boyliklari ham ko`p. Ma'lumki hozirgi zamon ishlab chiqarishi va eng avvalo sanoatda mahsulotlar ishlab chiqarish asosan yer osti boyliklarga asoslanadi. Bu borada mamlakatimiz katta qulayliklarga ega. Tabiat yurtimizga turli-tuman xom ashyolarni in'om etgan.

O`zbekistan zamini shuncha ko`p boyliklarga egaki, bu jihatdan jahon xaritasida O`zbekistonga teng keladigan davlatlar uncha ko`p emas.

Darxaqiqat, Respublikamizda Mendeleev davriy tizimida aks ettirilgan elementlarning ko`pchiligi mavjud.

Yer osti boyliklari orasida mis, qurg`oshin, oltin, kumush, ruh volfram, uran, tabiiy gaz, neft, ko`mir, allyuminiy xom ashyosi, tuz, qimmatbaho toshlar, marmar, kaolin, ozokerit, korund kabilar bor.

Mutaxassis-olimlarning hisob-kitob qilishlaricha, Respublikamiz yer bag`ridagi foydali qazilma boyliklar zaxirasi 3,3 trillion AQSH dollariga teng.

O`zbekiston turli foydali qazilmalar: mis, kumush, oltin, kurg`oshin, tabiiy gaz kabi qator konlar zaxirasi buyicha jahon miqyosida ko`zga ko`ringan o`rinlarni egallaydi.

Yer osti boyliklari to`g`risida so`z yuritilganda, O`zbekistonning oltin zaxiralari to`g`risida alohida to`xtab o`tish o`rinli. Oltin mamlakatimizning eng asosiy boyliklaridan biri bo`lib, mustaqillikning ishonchli negizidir. Zero, barcha davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida oltin jahon valyutasi vazifasini o`taydi.

O`zbekiston Respublikasi oltin qazib chiqarish buyicha Mustaqil Davlatlar Hamdustligi (MDH) tarkibidagi mamlakatlar orasida Rossiyadan keyin 2-o`rinni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1 -o`rinni egallaydi.

Oltin zaxiralari buyicha O`zbekiston dunyoda ham katta mavqega ega. Mamlakatimiz qidirib topilgan oltin zaxiralariga ko`ra jahonda 4, uni qazib chiqarish hajmi buyicha esa 7-o`rinni egallaydi¹.

Oltin qazib chiqarishda Muruntov Respublikaning asosiy markazi hisoblanadi. Ushbu oltin koni tufayli Qizilkum sahrosida 1972 yili Zarafshon shahri vujudga kelgan. Muruntovdan tashqari Toshkent, Samarqand, Jizzax, Namangan viloyatlarida ham oltin konlari mavjud. O'zbekistondagi oltin konlar qatoriga Marjonbo'loq, Kukpatas, Zarmiton, Kuchbo'loq, Qayraroch, Pirmurob kabilar kiradi.

Respublikaning ayrim hududlarida mis konlari topilgan. Toshkent viloyatining Olmaliq atrofida mis konlari bor. Bu konning ishga tushirilishi natijasida 1951 yili Olmaliq shahri tashkil topgan, keyinchalik u rangli metallurgiya sanoati markaziga aylangan.

O'zbekistonda tabiiy gaz, neft, ko'mir konlari ham mavjud. Zaminimizda aniqlangan tabiiy gaz zaxirasi 2 trl. m³, ko'mir zaxirasi esa 2 mlrd. tonnadan ortiqni tashkil etadi. Tabiiy gaz yoqilgi sifatidagina emas, muhim kimyoviy hom ashyosifatida ham katta ahamiyatga ega. Qashqadaryo va Buxoro hududlari O'zbekistonning gazga eng boy hududlari hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda chiqarilayotgan tabiiy gaz va neftning undan tuqqiz qismi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Kukdumaloq neft koni mamlakatimiz yoqilgi energetikasi majmuasida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ko'p yillar neft va neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida uni tashqaridan olib kelinar edi. Hozirga kelib esa Respublika neft chiqarish sohasida katta istiqbollarga ega. Keyingi yillarda mamlakatimizda 20 ga yaqin neft konlarining borligi aniqlandi. Qator neft konlari ishga tushirilishi tufayli neft qazib chiqarish keskin ko'paydi. Masalan, 1990 yili O'zbekistonda chiqarilgan neft hajmi 2810 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bu raqam 2.5 mln. tonnadan atrofida bo'lmoqda. Neft chiqarish borasida Qashqadaryo viloyati Karvonboshilik qiladi. U hozir mamlakatda chiqarilayotgan neftning 92 foizi ana shu viloyatga to'g'ri keladi. Shunday, O'zbekiston endilikda neft buyicha ham mustaqilikka erishdi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ahamiyati ham juda katta. Angren qo'ng'ir ko'mir bu borada yetakchi o'rinni egallaydi. Mazkur konning ishga tushirilishi tufayli Angren shahri tashkil topdi.

Surxondaryo viloyatida Sharg'un, Boysun toshko'mir konlari bor.

Yer osti boyliklari tabiat in'om etgan buyuk ne'matdir. Biroq, ulardan oqilona va samarali foydalanish mintaqalar ekologik vaziyatini sog'lom holda saqlash bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Ma'lumot uchun dunyo mamlakatlarida Quyida neft, gaz, ko'mir va yog'och kabi tabiiy boyliklarining umumiy qiymati jihatidan kuchli oltilikka kirgan davlatlarni ko'rib chiqsak.

6-o'rin: Xitoy. Tabiiy boyliklari asosan ko'mir va yog'ochdan iborat bo'lgan Xitoyning bunday boyliklari taxminan 23 trln. dollarni tashkil qiladi.

5-o'rin: Eron. Uning umumiy tabiiy boyliklari 27,3 trillion dollarni tashkil qilishi hisoblab chiqilgan. Shundan 16 trln. dollari neft hissasiga to'g'ri kelsa, qolgan 11 trln. dollari gaz konlariga to'g'ri keladi. Eron gaz hajmi bo'yicha Qatar bilan bellashadi.

4-o'rin: Kanada. Tabiiy boyliklari qiymati 33,2 trillion dollarga teng. Bunga 2009-2010 yillarda ochilgan neftli qumlardan 150 mlrd. barrelga teng konlar topilgani sabab bo'lgan. Hozirda neft ortidan Kanada 21 trln. dollar ishlab olishi mumkin.

3-o'rin: Saudiya Arabistoni. Bu davlatning 34,4 trillion dollarlik tabiiy boyliklari bo'lib, bundan 31,5 trln. dollari neft hissasiga to'g'ri keladi. Aynan Saudiya Arabistoni hissasiga dunyodagi neftning taxminan 20 foizi to'g'ri keladi.

2-o'rin: AQSH. Tabiiy boyliklari 45 trillion dollarga teng deya baholangan. Shundan 11 trln. dollari yog'ochga to'g'ri kelsa, ko'mir 30 trln. dollarni tashkil qiladi. Bundan tashqari AQSH oltin, mis, neft va gaz konlariga ham ega. AQSH o'z tabiiy boyliklaridan kelgusi avlodga qoldirishni ko'zlab deyarli foydalanmaydi.

1-o'rin: Rossiya. Tabiiy boyliklari uning hududi qadar ulkan — 75 trillion dollardan ortiq. Shundan 28,5 trillions — yog'och, 19 trln. tabiiy gaz va 7 trln.

dollari neft hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Rossiya ko'mir bo'yicha ikkinchi o'rinda, oltin konlari bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Ammo bu konlarning ko'pchiligi etib borish qiyin va muzli hududlarda ekanligi bois hozircha foydalanilmaydi.

4.2.Mintaqada mineral homashyo resurslari tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati va unda oqilona foydalanish muammolari

Mineral xom-ashyo resurslari tushunchasi. Mineral-xomashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xomashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xomashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflangan. Ammo yer ostidagi bunday mineral xomashyo zaxiralari potentsial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer qa'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xomashyo hisoblanadi. Mineral xomashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular yer ostidan qazib olingandan keyin mineral xomashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. Shunday qilib, yer qa'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.

Mineral xom-ashyo resurslarining iqtisodiy ahamiyati. Foydali qazilmalarning tabiatdagi miqdori, foydalanishdagi maqsadiga ko'ra ma'danli va noma'dan foydali qazilmalarga bo'linadi. Suyuq va gazsimon foydali qazilmalar alohida guruhni tashkil etadi. Konlarning geologik o'rganilish darajasi, geologik tuzilmalari, foydali qazilmalari tarkibi va xossalarini o'rganish darajasi, tog' ishlari miqdori va xarakteri hamda ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab, kon zaxiralari

A, V, C1, C2 ya'ni 4 toifaga bo'linadi. A toifaga - foydali qazilmalarning turlari va texnologik xossalari o'rganilgan zaxiralari kiradi. Foydali qazilmalarning V toifadagi zaxiralari ruda jismlarining yotishi hollari, tabiiy turlari va sanoat navlari aniqlanib hisoblanadi. Bunday zaxiralar qidirib topilgan va chegaralangan bo'ladi. C1 kategoriyaga kiritilgan foydali qazilmalar zaxiralari konlarning alohida uchastkalaridan olingan texnologik namunalarni o'rganish asosida aniqlanadi, ammo rudalarning xillari, sifati va texnologik xarakteristikasi aniqlanmagan bo'ladi.

Zaxiralar geologik, sanoat ahamiyatiga molik va ekspluatatsiya turlariga bo'linadi. Mineral resurslarga bo'lgan talab vaqtga qarab o'zgarib turadi va u jamiyatning rivojlanish darajasiga, ishlab chiqarish ehtiyojlariga, shuningdek texnika taraqqiyotiga va iqtisodiy imkoniyatiga bog'liq bo'ladi.

Tabiiy mineral moddalar ularga bo'lgan ehtiyoj va amalda ulardan foydalanish usullari paydo bo'lgandagina mineral resurslarga aylanadi. Texnika bilan qurollanganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, foydali qazilmalar assortimenti shunchalik ko'p bo'ladi va mineral xomashyoning ko'plab yangi turlari sanoat ishlab chiqarishga jalb etiladi.

Masalan, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshko'mirdan faqat XVII asr oxiridan, neftdan XIX asr o'rtalaridan, alyuminiy, magniy, xrom va nodir elementlar ma'danlaridan va kaliyli tuzlardan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan, uranli ma'danlardan esa XX asr o'rtalaridan boshlab foydali qazilma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Mineral hom ashyoresurslarini xududiy joylashuvi, ularni iqtisodiyotda tutgan o'rni. Odatda, foydali qazilmalar zaxiralari va prognoz qilingan resurslar miqdoriy jihatdan baholanadi. Dunyo va ayrim mamlakatlar mineral-xomashyo balansida, har bir foydali qazilma turi, zaxiralarining 70-80 %dan ortig'i yirik va juda katta konlar hisobiga to'g'ri keladi, qolganlari o'rtacha kattalikdagi va ko'plab mayda konlarga jamlangan. Umuman qidirib topilgan foydali qazilmalarning talaygina qismi ma'dan miqdoriga nisbatan oz bo'lgan, yoki katta

chuqurlikda va murakkab tog`-geologik sharoitlarda joylashgan konlarda jamlangan.

Mineral resurslarni sanoat yo`sinida o`zlashtirish ularni baholashga (ilmiy-tadqiqot, izlash va geologik qidiruv ishlari) va hajmiga, sanoatning o`ziga xos xususiyatlariga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo`jalik mineral-xomashyo sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi roli bilan belgilanadi hamda qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlashni o`z ichiga oladi. Mineral resurslarning qaytadan tiklanmasligi, ulardan oqilona foydalanish zarurati, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashishda nes-nobud bo`lishini qisqartirish, shuningdek ikkilamchi xomashyo sifatida ishlatish va mineral resurslardan foydalanishda ekologik iqtisodiy yondoshuvga rioya qilish lozimligi bilan izohlanadi.

Mineral-xomashyo resurslariga bo`lgan ehtiyoj iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko`p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi. Mineral-xomashyo resurslari rolining ortib borishi ularga nisbatan ehtiyojning o`sishi bilangina emas, balki ularning o`ziga xos xususiyatlari va mehnat unumdorligiga ta`siri bilan shartlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirish sur`atlari va darajasi ko`p jihatdan foydali qazilmalardan foydalanish samadorligi ko`lamlari va darajasiga bog`liqdir.

Mineral homashyo resurslaridan oqilona foydalanish. O`zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan o`zining juda katta zaxiralari bilangina emas, balki quyidagi bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi:

- birinchidan, tabiiy va mineral-xomashyo zaxiralari yirik konlarda to`plangan bo`lib, ularni qazib olingan joyning o`zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

- ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko`pgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada bo`libgina qolmay, katta miqdorda yo`ldosh elementlarga ham ega;

- uchinchidan, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya ko'p miqdorda foydali komponentlar chiqarish va jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Ular qulay transport infratuzilmasi, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega.

4.3. Mintaqa mineral resurslari va ulardan foydalanishning xozirgi holati

O'tgan vaqt mobaynida respublikada yer qa'ridan foydalanish samaradorligini oshirish va uni muhofaza qilish, mineral-hom ashyoresurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan bir qator kompleks chora-tadbirlar maqsadli amalga oshirildi.

Yer qa'rini kompleks geologik o'rganish, uzoq istiqbolga mo'ljallangan mineral-hom ashyobazani rivojlantirish va takror ishlab chiqarish dasturlarini samarali amalga oshirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha yagona geologiya xizmati tashkil qilindi.

Shu bilan birga, ishlarning amaldagi holatini o'rganish ushbu sohada foydali qazilmalar zaxiralarini ko'paytirish va oqilona foydalanishni ta'minlashga, shuningdek, investitsiyaviy jozibadorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tizimli muammolar mavjudligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Unga ko'ra²⁴: geologiya tashkilotlari vakolatlarini amalga oshirishning aniq mexanizmi mavjud emasligi, yer qa'ridan foydalanish ustidan nazoratni samarali amalga oshirish uchun mavjud resurslarni jalb qilish imkonini bermayotganligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Manbaa Lex.uz.

texnologiyalari geologiya tashkilotlari faoliyatiga etarlicha joriy etilmasligi, geologiya tashkilotlari mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va ularni moddiy rag'batlantirishning amaldagi tizimi darajasi pastligi kabi bir qator jiddiy muammolar mavjudligi ta'kidlanadi.

Qarorga muvofiq Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi — yer qa'rini geologik o'rganish, undan foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek, konchilik munosabatlarini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda oltin zaxiralari va uni qazib olish. O'zbekiston hududining kattaligi bo'yicha 55-o'rinda, aholisi bo'yicha 39-o'rinda, oltin zaxiralari bo'yicha 4-o'rinda, ishlab chiqarishning umumiy hajmi yuzasidan dunyoda 8-o'rinda va aholi jon boshiga oltin ishlab chiqarish bo'yicha 5-o'rinda turadi. Mamlakatimizda yiliga qariyb 100 tonna atrofida oltin qazib olinadi. Ma'lumot uchun 2016-2018 yillarda 70-80 tonna atrofida oltin eksport qilimoqda. Shu o'rinda dunyodagi eng yirik oltin zahirlari mavjud davlatlarni ko'rib chiqsak. Xitoy 1-o'rinda 450 ming tonna, Avstraliya 270 ming tonna, Rossiya 245 ming tonna, AQSH 211 ming tonna, Kanada 160 ming tonna, JAR 150 ming tonna atrofida oltin qazib olmoqda.

Oltin global moliya tizimining muhim elementi, chunki bu metall korroziyaga moyil emas, ko'plab texnik sohalarga ega va uning zaxiralari kichikdir. Oltin tarixiy kataklizmalar jarayonida deyarli yo'qolib ketgan, lekin faqat to'plangan va erigan. Hozirgi kunda jahon bankining oltin zaxiralari 32 ming tonnaga baholanmoqda (agar siz bu oltinni birlashtirsangiz, siz taxminan 12 metrli bir kubni olasiz). Oltinning xalqaro valyuta sifatida rolini pasayishi bir necha marta ta'kidlangan, biroq jahonning deyarli barcha banklari oltinni likvidlilik manbalaridan biri sifatida saqlamoqda. Shunday qilib, 2007 yil ma'lumotlariga ko'ra, markaziy banklar zaxiradagi aktivlar sifatida minalashtirilgan oltinning jahon jamg'armalarining 20% ini ushlab turishgan, ayrim davlatlar zaxiralarning 10% ni oltin bilan ushlab turishgan. Mamlakatimizda 2019 yil ma'lumotlariga ko'ra valyuta zaxiralari 27,4 milliard dollarni tashkil etgan. Ularning 14,4 milliard dollari monetar oltindir.

O`zbekistonda uran zaxiralari. O`zbekiston Davlat Geologiya qo`mitasi ma'lumotiga ko`ra, respublikada aniqlangan uran zaxiralari miqdori 190 ming tonnani tashkil qiladi. Undan 140 ming tonnasi – qumloq uran konlaridir, 47 – ming tonnasi qora slanets uran konlari. Qazib olish osonroq bo`lgan qumloq uran konlari oldin xorijiy sarmoyadorlarga taklif qilinmas edi. Ushbu konlar O`zbekistonda uran qazib olish huquqiga ega bo`lga yagona korxona - Navoiy tog`-metallurgiya kombinati zaxiralari tarkibiga kiradi.

So`nggi bir necha yil davomida O`zbekiston hukumati xorijiy sarmoyadorlarni qora slanetsli uran konlaridan uran qazib olishga chorlashga harakat qildi, lekin muvaffaqiyatga erisha olmadi. Bunday uran qazib olish uchun katta investitsiyalar kiritish kerak.

Ayni damda O`zbekiston qazib olingan barcha uran rudasini eksportga yuboradi. Xususan 2019 yil yanvarida O`zbekiston va Hindiston orasida uran yetkazib berish bo`yicha 200 mln dollarlik shartnoma imzolangan edi.

Ma'lumot uchun, bugungi kunda dunyoning faqat 16 ta mamlakatida uran zaxiralari aniqlangan. Shunlardan biri O`zbekiston. Eng yirik uran zaxiralari: Avstraliyada – 1,6 mln tonna, Qozog`istonda – 745 ming tonna, Kanadada – 509 ming tonna, Rossiyada – 507 ming tonna.

O`zbekiston uran zahirlari bo`yicha dunyoda 11-12 o`rinlarda, uni qazib olish bo`yicha 7- o`rinda turadi.

Mamlakatimizda ushbu sohada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Frantsiyaning Orano Mining S.A kompaniyasi bilan Navoiy viloyatida uran konlarini qidirish va qazib olish bo`yicha qo`shma korxona tashkil qilindi.

O`zbekistonda mis zaxiralari. Mamlakatimiz mis zaxiralari bo`yicha dunyoda 10-11-o`rinda turadi. Bugungi kunda O`zbekistonda yagona mis ishlab chiqaruvchi, bu – «Olmaliq» TMK bo`lib, u yiliga 100 ming tonna mis ishlab chiqaradi. Kompaniya asosan Kalmako`r va Saro`-Cheku mis-porfir konlaridan foydalanadi. Undan tashqari yangi mis rudasi zaxiralarini izlab topish, mavjudlarini ishga tushirish borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Rossiyaning «Rosgeoperspektiva» kompaniyasi Navoiy viloyatidagi

«Kazaxtau» i «Kazaxtau –I» mis-porfir konlarida sinov quduqlari qaziladi. Dastlabki bosqichda sarmoyalar miqdori 3 million dollardan iborat.

Rio Tinto nomli Avstraliya-britaniya kompaniyasiga Namangandagi «Gava» hududida mis topish uchun «Dalnee» nomli konni o`zlashtirishga kirishdi. Uning umummiy qiymati 1,7 mlrd. dollar. Loyiha ochiq uslub bilan yiliga 23 million tonna ruda qazib olishni nazarda tutadi.

Mintaqada ko`mir zaxiralari. O`zbekiston qidirib topilgan ko`mirning 1900 mln. tonna miqdoridagi zaxiralari egadir, shu jumladan qo`ng`ir ko`mir zaxiralari 1853 mln. tonnani tashkil etadi.

Surxondaryo viloyatidagi Shargun ko`mir konida yillik ko`mir qazib olish hajmi bugungi 150 ming tonnadan 900 ming tonnaga etkazilishi rejalashtirilmoqda.

Xitoyning China Railway Tunnel Group kompaniyasi ushbu loyihani amalga oshirishga kirishdi. Xitoylik mutaxassislar umumiy uzunligi 1,5 ming kilometr bo`lgan eski ko`mir shaxtlarini qayta tiklash hamda 2,2 km yangi tunnellar qazish hisobidan qo`shimcha miqdorda xom-ashyo qazib olishni rejalashtirishgan.

Loyihaning umumiy qiymati 105,5 million dollarni tashkil qiladi. Tayyorlov ishlari 2020 yilning birinchi choragida yakunlash rejalashtirilgan. Shagunko`mir mahsulotini tashish uchun 20 kilometrli temiryo`l quriladi va mavjud yo`llar ta`mirlanadi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko`ra, Shargun konida ko`mir zaxiralari 33 million tonnadan ortiq. Bu respublikadagi eng boy kon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi ko`mir qazib oluvchi mamlakatlari Xitoy, AQSH, Hindiston, Germaniya, Rossiya va Ukraina hisoblanadi. O`zbekiston ham yaqin yillarda ushbu ro`yxatdan joy olishni rejalashtirgan.

«O`zbekneftgaz» sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar. 1997 yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi «Technip» (Frantsiya), Marubeni, «Djey Dji-Si» (Yaponiya) kompaniyalari bilan hamkorlik yo`lga qo`yildi.

1999 yilda ular Xayzhobod yer osti gaz omborini «BSI Industries» (AQSH) kompaniyasi bilan birgalikda Dresser-Rand (AQSH) kompressorlari yordamida ishlatishdi.

Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasini qurish 2001 yilda «ABB Lummus Global» (SShA), «Nisho Ivai» (Yaponiya), «ABB Soimi» (Italiya) kompaniyalari yordamida amalga oshirildi.

Shoʻrtan konidagi injiniring kompaniyasi Beitman (Isroil) bilan birgalikda kompressor stantsiyasini qurish loyihasi 2003 yilda tugallangan va foydalanishga topshirilgan.

Koʻkdumaloq konida joylashgan Dresser-Rand birliklari (AQSH) bilan kompressor stantsiyasi 1997 yilda qurilib ishga tushirildi. Ushbu loyihani amalga oshirish respublika uchun neft va gaz sohasini rivojlantirishda muhim qadam boʻldi. Ushbu loyihani Kellogg (AKSX) xorijiy kompaniyalari bilan birgalikda amalga oshirgandan soʻng, Nisho Ivai (Yaponiya) xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshladi.

2000 yilda Mitsui kompaniyalari (Yaponiya) va Toyo Engineering (Yaponiya) bilan hamkorlikda yuqori sifatli neft mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi rekonstruksiya qilindi.

«Oʻzbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Rossiyaning «Lukoil» va «Gazprom» kompaniyalari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻydi. Ushbu kompaniya Toshkentdagi Inha universiteti, Neft va gaz boʻyicha I. Gubkin nomidagi Rossiya davlat universiteti rasmiy homiysidir.

2004 yilda «Lukoil» kompaniyasining investitsion jamiyati va «Oʻzbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi Qandim konlari guruhida, Xauzak va Shodi uchastkasida, shuningdek Qoʻngʻirot uchastkasining yirik loyihasini 35 yil davomida ishlab chiqarishni taqsimlash toʻgʻrisidagi bitim (PSA) imzoladi.

2002 yil oxirida «Gazprom» va «Oʻzbekneftgaz» MXK oʻrtasida strategik hamkorlik toʻgʻrisida bitim imzolangan boʻlib, uning maqsadi kompaniyalar oʻrtasidagi hamkorlikni kengaytirishdir.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi «Gazprom» ga «Shoxpaxti» konida qazib olinadigan gaz zaxiralarini saqlash va rivojlantirishdan hamda O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sektorida o'z faoliyatini yanada rivojlantirishni boshlashga imkoniyat yaratdi. «Shaxpaxta konini qo'shimcha ravishda rivojlantirish», «O'zbekneftgaz» MXK va «Zarubezneftgaz» QK, «Gazprom» OAJ va «Gas Project Development Central Asia AG» (Shveytsariya) kompaniyalari kelishuv bitimlari imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 30 avgustdagi «Orolbo'yining o'zbek qismini geologik jihatdan o'rganish to'g'risida» gi Farmoniga muvofiq Mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi bitim shartlariga muvofiq yangi ochilgan uglevodorod konlarini keyinchalik rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasining «Orol dengizining O'zbekiston qismini taqsimlash to'g'risidagi bitimni imzolash to'g'risida»gi 2007 yil 30 yanvarda kuchga kirgan CNPC (KNR), KNOC(Koreya), LUKOILOverseasHoldingLtd (RF), PETRONAS Carigali Overseas SDNBHD ((Malayziya) va «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasida investorlar konsortsiumi kelishuvi imzolandi.

Ushbu loyiha Sho'rtan gaz-kimyo majmuasidan tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'ilarni ishlab chiqarishga qaratildi. Loyihaning umumiy qiymati 3,985 mln.dollarni tashkil etadi, loyihaning o'rtacha yillik quvvati 863 ming tonna dizel yoqilg'isi, 304 ming tonna kerosin, 393 ming tonna nafta, 11 ming tonna suyultirilgan gazni tashkil etadi. Ushbu loyiha Sasol (Janubiy Afrika) va Petronas (Malayziya) bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida gaz-kimyo majmuasi qurildi. Ushbu loyihaning qiymati 2 mlrd. dollarga baholanadi va rejalashtirilgan ishlab chiqarish quvvati 492 ming polietilen, 66 ming tonna gaz kondensati va 53 ming tonna pirobenzen kabi mahsulot turlarini tashkil etadi.

Dunyodagi eng yirik tabiiy gaz zaxiralari mavjud davlatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, Rossiya (Urengoy koni, Gazprom jahon gaz zaxirasining 17 foizini tashkil qiladi), Eron, Fors ko'rfazi mamlakatlarining aksariyati, AQSH, Kanada. Evropa mamlakatlari orasida - Norvegiya va Niderlandiya. MDH

respublikalari orasida Turkmaniston katta gaz zaxiralariga ega va shu jumladan Ozarbayjon, O'zbekiston va Qozog'iston kiritiladi. Ko'rinib turibdiki mamlakatimiz eng ko'p tabiiy gaz zaxiralari mavjudligi bo'yicha kuchli 10 talik qatorida.

Shuning bilan birga ushbu sohalarda yyechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, mintaqada 2006 yildan 2016 yilgacha neft ishlab chiqarish hajmi ikki baravar kamaydi. Agarda 2006 yilda 5.4 mln. tonna neft qazib olingan bo'lsa 2017 yilda bu ko'rsatkich 2.4 mln. tonna atrofida bo'lmoqda. Yuqori qayd etib o'tilgan neft va gaz sohasidagi hamkorliklar bu boradagi ishlarni yangi boqichga ko'taradi.

Mamlakatimizda mavjud xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilayotganini yana bir misolada yaqqol ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekistonda ilk bor temir rudasi qazib olinishi yo'lga qo'yiladi. «Kelgusi yilda nafaqat Qoraqalpog'iston, balki butun mamlakat iqtisodiyotida ulkan rivojlanishni ta'minlaydigan yirik loyiha amalga oshiriladi. Ya'ni, Tebinbuloq konini o'zlashtirib, mamlakatimizda birinchi marta temir rudasi qazib olishni ko'zda tutadigan, qiymati 810 million dollarga teng bo'lgan loyiha bajariladi», — deb ta'kidladi davlat rahbari²⁵.

Bu loyihaning ikkinchi bosqichini ishga tushirish uchun 940 million dollar sarmoya kiritiladi. Natijada 2021 yildan boshlab bu erda yiliga 1 million tonna po'lat ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan yutuqlar bilan birga ayrim sohalarda tizimli muammo va kamchiliklar mavjud. Xususan, neft va gaz kondensati qazish, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha zaxiralar etarli darajada oshirib borilmaganligi, geologiya-qidiruv jarayonidagi burg'ilash hajmi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bajarilmasligi oqibatida zaxirani yanada oshirish imkoniyatlaridan etarlicha foydalanmayotganligi, tabiiy gaz qazish quvvatlari hamda tarqatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ta'mirlash ishlari ham etarli darajada emasligi oqibatida

²⁵ Shavkat Mirziyoev Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari va faollari bilan bo'lib o'tayotgan uchrashuvi. 2017 yil 15 dekabr. Manbaa. uza.uz

gaz qazib olishdan boshlab, uni iste'molchiga yetkazib berguncha ushbu tabiiy boylikning 6 foizi atrofida yo`qotishlar mavjud.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan mamlakatimizda Neft-gaz sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqish, «O`zbekneftgaz» aktsiyadorlik jamiyatining kredit reytingini aniqlash ishlarini jadallashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

1. Tabiiy - geografik sharoiti nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, O'zbekistan qator qulayliklarga ega bo'lgan mintaqalardan hisoblanadi. Respublika maydoni 448,9 ming km² ga teng bo'lib, u g'arbdan sharqqa 1425 km ga, shimoldan janubga esa 930 km ga cho'zilgan. O'zbekiston o'z maydoniga ko'ra Evropaning Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shveytsariya, Avstriya kabi mamlakatlar maydonini qushib hisoblaganda ham ulardan kattalik qiladi.

2. Yer osti boyliklari orasida mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, ruh volfram, uran, tabiiy gaz, neft, ko'mir, allyuminiy xom ashyosi, tuz, qimmatbaho toshlar, marmar, kaolin, ozokerit, korund kabilar bor.

3. Mineral-xomashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xomashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

4. Mineral-xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoj iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi.

5. O'tgan vaqt mobaynida respublikada yer qa'ridan foydalanish samaradorligini oshirish va uni muhofaza qilish, mineral-hom ashyoresurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan bir qator kompleks chora-tadbirlar maqsadli amalga oshirildi.

Nazorat savollari:

1. Tabiiy resurslar tushunchasi mazmuni va mohiyatini izohlab bering?
2. O`zbekistonning tabiiy - geografik sharoiti haqida bayon qiling?
3. Mineral xom-ashyo resurslari tushunchasiga ta'rif bering?
4. Mineral xom-ashyo resurslarini iqtisodiy ahamiyati nimada?
5. O`zbekistonda oltin, uran, mis, ko`mir zaxiralari va uni qazib olish ko`rsatkichlari va iqtisodiy ahamiyatini baholang?
6. O`zbekistonda neft va gaz zaxirasi va uni qazib olish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar to`g`risida nimalarni bilasiz?

5-MAVZU. MINTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Reja:

5.1. Aholining tabiiy o'sishning asosiy omillari. Aholining o'sish dinamikasi va demografik tendentsiyalar.

5.2. Mintaqada mehnat bozori. Mehnat bozorini tartibga solishning xududiy asoslari, aholi bandligi va uni takomillashtirish yo'llari.

5.3. Mintaqada mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari

5.4. Xalqaro mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari

5.5. Mintaqa iqtisodiyotida mehnat resurslari mobilligi

Tayanch tushuncha va iboralar: aholi, aholining tabiiy o'sishi, aholi zichligi, demografiya, demografik vaziyat, demografik tendentsiyalar, demografik omillar, demografik xususiyatlar, hududiy demografik o'sish, mehnat bozori, bozor iqtisodiyoti, bandlik, ishsizlik, mehnat resurslari, ishchi kuchi, mehnat resurslari balansi, mehnat migratsiyasi, ish haqi, mehnat resurslari mobilligi.

5.1. Aholining tabiiy o'sishning asosiy omillari. Aholining o'sish dinamikasi va demografik tendentsiyalar.

O'zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 448,97 kv.km.ni tashkil etadi. Hozir respublikamiz aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 33 mln 375,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 120,3 ming kishiga yoki 0,4 foizga o'sdi.

1897-yilda O'zbekiston hududida atigi 3,9 mln. kishi yashar edi, ya'ni o'tgan 100 yildan sal ko'proq vaqt mobaynida bu erda aholi 6,3 baravar ko'paydi. XX asrda O'zbekiston aholisining soni bir tekis oshgani yo'q. Uning dastlab ikki hissa ko'payishi salkam 60 yil davomida, keyingi ikki hissa ko'payishi esa 20 yil ichida ro'y berdi. Respublika aholisi 2018 yilning oxiriga kelib, 1980-yildagiga nisbatan 2 baravar ko'paydi.

Aholining ko'payishi bilan bir qatorda respublika va uning hududlarida aholi zichligi ham oshib bormoqda. Xususan, yurtimizda har kv.km.ga 1940 yilda 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1991 yilda bu ko'rsatkich 46,3 kishi, 2010 yilda 64,9

kishidan iborat bo'lgan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 74,1 kishini tashkil etdi (1940 yilga nisbatan deyarli 5 baravar oshgan). Ayni paytda O'zbekistonning 14 ta hududidan 10 tasida aholi zich joylashgan bo'lib, ularning umumiy maydoni butun respublika hududining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. Aholisi uncha zich bo'lmagan to'rtta ma'muriy-hududiy birlik bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Jizzax viloyatlari hisoblanib, respublika hududining qolgan to'rtidan uch qismini egallagan (5.1-jadval).

5.1-jadval. Aholining zichligi (yilda, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2018 yildagi aholi zichligi eng yuqori va past hududlar
O'zbekiston Respublikasi	64,9	65,8	66,8	67,9	69,1	70,3	71,5	74,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10,1	10,2	10,3	10,4	10,6	10,8	10,9	11,2
Andijon	621,5	631,2	641,0	652,4	664,5	676,9	689,0	713,2
Buxoro	41,8	42,3	42,9	43,6	44,3	45,0	45,7	
Jizzax	55,0	55,9	56,8	57,8	58,9	60,2	61,3	
Qashqadaryo	95,3	97,2	99,1	101,3	103,6	105,9	108,1	
Navoiy	7,9	7,9	8,0	8,1	8,2	8,4	8,5	8,8
Namangan	319,8	325,3	330,5	336,6	343,3	349,9	356,5	370
Samarqand	195,0	198,3	201,6	205,5	209,6	213,7	217,8	
Surxondaryo	108,2	110,4	112,5	114,8	117,3	120,0	22,5	
Sirdaryo	169,9	172,8	175,4	178,5	181,6	184,7	87,6	
Toshkent	173,4	175,1	176,8	178,7	180,9	183,2	85,5	
Farg'ona	477,7	485,3	492,6	501,0	509,6	518,5	27,3	544,8
Xorazm	264,6	269,3	273,4	278,4	283,6	288,7	93,7	
Toshkent sh.	6875,7	6914,1	7008,8	7044,6	7099,6	7165,2	257,9	


Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston bo'yicha 1 kv kmga 74,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Andijon (1 kv kmga 713,2 kishi), Farg'ona (544,8 kishi), Namangan (370 kishi) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Navoiy viloyati (8,8 kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (11,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

²⁶ Stat.uz. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari


Ma'lumki, mamlakatning barqaror va samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri barqaror demografik vaziyat sanaladi. O'zbekistonda aholining tabiiy ko'payish sur'atlari so'nggi yillarda biroz pasaygan bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari orasida aholining ko'payishi ko'rsatkichi bo'yicha hamon yetakchi davlat hisoblanadi.

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz mustaqilligining 20 yili (1991-2011 yillar) mobaynida O'zbekiston aholisi soni 8,9 mln. kishiga oshgan holda, bu ko'rsatkich shu davrda qo'shni davlatlar, xususan, Tojikistonda 2,2 mln. kishi, Turkmanistonda 1,2 mln. kishi, Qirg'izistonda 1,0 mln. kishi, Qozog'istonda 0,8 mln. kishi hamda Ozarbayjonda 1,9 mln. kishiga to'g'ri keladi. Aksincha MDHning ayrim davlatlari, jumladan, Ukrainada 6,0 mln., Rossiyada 5,4 mln., Moldovada 0,8 mln., Belorussiyada 0,7 mln. va Armanistonda 0,3 mln. kishiga kamayish holati kuzatilgan.



5.1-chizma. O'zbekistonda aholi sonining o'sish dinamikasi (yil oxiriga, ming kishi).

Aholi soni jinsiy tarkibi bo'yicha respublikamizda har 1000 nafar erkakka 997 nafar ayol to'g'ri keladi (5.2-chizma). Bu ko'rsatkich dinamikasi bo'yicha oxirgi yillarda barqaror mutanosiblik kuzatilmoqda.



5.2-chizma. O'zbekistonda doimiy aholi umumiy sonida ayollar va erkaklarning nisbati (foizda).

Umumiy holda aytish mumkin, dunyo bo'yicha erkaklar soni ayollarnikidan ko'p. Gapni biologiya tili bilan tushuntirib ko'raylik. Ayrim jinsli organizmlarda (odam ham ayrim jinsli organizm) Fisher tamoyiliga ko'ra qoida bo'yicha jinslar nisbati 1:1 ga teng bo'ladi. Lekin amalda o'g'il va qiz chaqaloqlarning tug'ilish nisbati juda oz nisbatlarda farq qiladi. AQSH Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB) ning 2014-yilgi ma'lumotiga ko'ra butun dunyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichi bo'yicha 100 ta qiz bolaga 107 ta o'g'il bola to'g'ri kelgan. 2017-yilda butun dunyoda 100 ta ayolga 102 ta erkak to'g'ri kelishi qayd etilgan.

Ushbu raqamlarni davlatlar kesimida ko'rilsa yanada yuqori ko'rsatkichlar kelib chiqishiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, Xitoyda o'tgan asrda «Bir oila - bir farzand» demografik siyosati sabab o'g'il va qiz bolalarning soni orasida sezilarli darajada tafovut yuzaga kelgan. Jumladan, ushbu davlatda 100 ta qiz bola chaqaloqqa 115 ta o'g'il bola chaqaloq to'g'ri kelgan va bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Hindistonda bu ko'rsatkich 100:112, Armanistonda 100:113, Vetnam va Ozarbayjonda 100:111, Albaniyada 100:110 ni tashkil etadi.

O'zbekistonda esa 100 ta qiz bola chaqaloqqa 106 ta o'g'il bola chaqaloq to'g'ri keladi. 2016 yilgi ma'lumotga ko'ra butun dunyoda Qozog'istonni hisobga olmaganda (Qozog'istonda shu yili 100 ta qiz bola chaqaloqqa 94 ta o'g'il bola chaqaloq to'g'ri kelgan) barcha davlatlarda o'g'il bola chaqaloqlar qiz bola chaqaloqlarga nisbatan ko'p tug'ilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2017 yilda butun Respublikasida 715 519 ta chaqaloq tug'ilgan bo'lib, 100 ta qiz bolaga 108,5 ta o'g'il bola to'g'ri kelgan. Yosh davomida o'zgarib boradigan jinslar nisbatiga e'tibor beradigan bo'lsak ham O'zbekistonda ayollar va erkaklar o'rtasida keskin tavofutni uchratmaymiz. Jumaladan, 0-14 yosh oralig'ida 100 ta qizga 105 ta o'g'il bola, 15-24 yosh oralig'ida esa 103 ta, 25-54 yosh oralig'ida esa 99 ta, 55-64 yosh oralig'ida 90 va 65 yoshdan katta yoshlilar orasida 74 ta erkak to'g'ri kelishini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi kichik tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyatda ayollar erkaklarga nisbatan ko'payib ketgani yo'q,

Xitoy va Hindiston kabi aholisi Yer shari aholisining 35 foizini tashkil etuvchi mamlakatlarda umumiy holda erkaklar soni ayollarnikidan ko'p. Xitoylik mutaxassislarning fikricha 2030-yilga borib Xitoyda 30 mln ortiqcha balog'atga etgan erkak kishi bo'lar ekan. Bu esa o'z navbatida juda ko'plab ijtimoiy va demografik muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois Xitoy hukumati «Bir oila - bir farzand» siyosatidan chekinishni ma'qul ko'rdi.

Respublikamiz aholisi sonining hududlararo taqsimlanishida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra hozirgi davrda eng ko'p aholi soni Farg'ona vodiysi (Andijon, Farg'ona, Namangan) mintaqasi (28,6 foiz) va Zarafshon vodiysi (Samarqand, Navoiy, Buxoro) mintaqasiga (19,8 foiz) to'g'ri keladi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari mintaqasiga – 17,3 foiz, Toshkent viloyati va Toshkent shahriga – 16,5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga – 11,2 foiz, Jizzax va Sirdaryo viloyatlariga – 6,6 foiz aholi hissassi to'g'ri keldi (5.2-jadval).

Bu vaziyatda aholini mehnat bilan bandlik darajasini oshirish va mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish maqsadida ichki va tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari bo'yicha maqsadli davlat dasturlarini tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu dasturlarda mavjud mehnat resurslarini hududlardagi innovatsion rivojlanish istiqbollari munosib qayta taqsimlash, shu borada ichki

migratsiyaga jalb qilingan yosh oilalar uchun imtiyozli uy-joy qurilishi va hududlarda yangi ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishni taqozo etmoqda

5.2.-jadval. Hududlar bo'yicha aholi soni (ming kishi)

Hududlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2019 yil 1 yanvar holatiga	2019 yilda 2010 yilga nisbatan o'sishi (foizda)
O'zbekiston Respublikasi	29123,4	29555,4	29993,5	30492,8	31022,5	31575,3	32120,5	33254,1	114,2
Qoraqalpoqiston Respublikasi	1680,9	1692,8	1711,8	1736,5	1763,1	1791,1	1817,5	1869,7	111,2
Andijon	2672,3	2714,2	2756,4	2805,5	2857,3	2910,5	2962,3	3066,7	114,7
Buxoro	1683,8	1707,4	1729,7	1756,4	1785,4	1815,2	1843,5	1899,5	112,8
Jizzax	1166,7	1186,6	1205,0	1226,8	1250,1	1276,1	1301,0	1352,1	115,9
Qashqadaryo	2722,9	2777,8	2831,3	2895,3	2958,9	3025,6	3088,8	3213,3	118,0
Navoiy	873,0	881,2	888,4	901,1	913,2	927,9	942,8	974,3	111,6
Namangan	2379,5	2420,6	2458,7	2504,1	2554,2	2603,4	2652,4	2752,7	115,7
Samarqand	3270,8	3326,2	3380,9	3445,6	3514,8	3583,9	3651,7	3798,7	116,1
Surxondaryo	2175,1	2218,9	2260,6	2308,3	2358,3	2411,5	2462,3	2569,3	118,1
Sirdaryo	727,2	739,5	750,6	763,8	777,1	790,6	803,1	829,7	114,1
Toshkent	2644,4	2671,0	2695,7	2725,9	2758,3	2794,1	2829,3	2898,7	109,6
Farg'ona	3229,2	3280,8	3329,7	3386,5	3444,9	3505,3	3564,8	3683,1	114,0
Xorazm	1601,1	1629,1	1653,8	1684,1	1715,6	1746,9	1776,7	1835,5	114,6
Toshkent sh.	2296,5	2309,3	2340,9	2352,9	2371,3	2393,2	2424,1	2510,8	109,3

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari²⁷.

Respublika aholi sonidagi sifat jarayonlarining o'zgarishlari bevosita aholining yosh tarkibi o'zgarishlari bilan bog'liqdir. O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi XX asrning 90-yillarida boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, 2017 yil 1 yanvar holatiga aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi – 56,5 foiz, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi – 30,1 foiz, 16-29 yoshdagilar ulushi – 26,4 foizni tashkil etdi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlili so'nggi yillarda 0-15 yoshdagi aholi mutlaq sonining kamayotganligidan dalolat bermoqda (2010 yilda umumiy aholi sonida 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi – 31,2 foizni tashkil etgan).

2010-2018 yillar davomida respublikada aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar soni 2010 yilda 31,3 foizdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2019 yilning 1 yanvar holatiga kelib – 30,3 foizga teng bo'lgan. (5.3-chizma). Mazkur holat

²⁷ Stat.uz. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari


mustaqillik yillari yurtimizda tug'ilish ko'rsatkichining kamayganligi bilan izohlanadi. Jumladan, 1991 yili respublikada tug'ilishning umumiy koeffitsienti 34,5 foizdan 2018 yili 23,3 foizgacha kamaygan. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich oxirgi 5 yilda har yili 0,1 foiz atrofida ko'payish tendenitsiyasini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda bundan buyon ham davlatimiz aholisi tarkibiy jihatida rivoj topgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib mehnatga layoqatli aholi soni 2050 yilga qisqarib boradi va keksa avlod aksincha hozirgi 10,0-12 foizdan – 18-22 foizgacha oshib borishi faraz qilinmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarida o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berayotganligi xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilishi, omma o'rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida bandlik darajasining ortib borishi, har bir oila o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug'ilishini ko'rsatkichining biroz pasayishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2010-2019 yillarda O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – 2,8 foizga, mehnatga layoqatli bo'lgan keksa yoshdagi aholi soni esa 34,2 foizga ortgan (5.3-chizma).

Tahlil natijalari mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholining mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbatan yuqori sur'atda o'sganligini ko'rsatadi. Bu holat bir tomondan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi «demografik to'ldirish» davrida tug'ilgan aholining bugungi kunda keksalar guruhi qatoriga qo'shilishi bilan, ikkinchi tomondan, respublika aholisi o'rtacha yoshining nisbatan oshayotganligi bilan izohlanadi.



5.3-chizma. O`zbekistonda aholining yosh tarkibi bo`yicha taqsimlanishi (foizda). Izoh: ma`lumotlar har yilning 1 yanvar holatiga olingan.

Mamlakatda kechayotgan demografik jarayonlarning zamonaviy tendentsiyalari tahlili aholi yosh tarkibida bolalar salmog`ining nisbatan turg`un kechishi, mehnatga layoqatli yoshdagilar kamayishi va qariyalar salmog`i oshib borayotganligini ko`rsatmoqda. Ma`lumotlarga ko`ra, 2000-2019 yillarda O`zbekiston aholisining nisbatan sust keksayayotgan hududlarida ham aholining qarish indeksi ko`tarilib bormoqda. Bu esa, o`z navbatida, yaqin kelajakda respublikamizning barcha hududlarida ham aholining keksayish darajasi rivojlanishini ko`rsatadi.

Dunyo demograflarining prognozlari mazkur jarayon tobora kuchayib borishidan dalolat bermoqda. Xususan, BMT ekspertlarining prognozlariga muvofiq, 2050 yilga borib dunyoda eng yuqori qarish darajasi 72,7 foizga etishi taxmin qilinmoqda.

Aholining keksayish jarayoni mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o`zining salbiy ta`sirini o`tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi kutilmoqda:

1. Aholi o`rtasidagi keksalar ulushining ortishi fuqarolarning iqtisodiy faolligini pasaytirib boradi. Odamning yoshi qancha katta bo`lsa ularning mehnat jarayonidagi harakatchanligi va mahsuldorligi shunchalik pasayib boradi;

2. Aholining keksayishi iqtisodiyotda mehnatga layoqatli yoshlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq tarkibining o'zgarish jarayoni hamda binobarin, iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi;

3. Pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi, zero pensionerlar ulushining ko'payishi bilan biryo'la pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga layoqatli aholi salmog'i qisqaradi;

4. Keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish va dori-darmon uchun davlat va oila tomonidan ajratiladigan qo'shimcha mablag' miqdori oshib boradi, gerontologik muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;

5. Keksalikka qaramasdan o'z kasbining mohir sohiblari hali mehnat qilishni istaydigan «yosh qariyalar»ni ish bilan band bo'lishiga to'sqinlik qilmaslik siyosatini joriy etish zarur. Bu muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifa, chunki pensiya yoshiga etmaganlarga ham ish o'rinlari etishmaydi;

6. Aholining keksayish jarayoni moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiga, miqdoriga va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aholi bu guruhning talab va ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni ham o'zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak. Transport vositalari ham keksalar talabiga monand xizmat qilishi lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning oxirgi yillardagi demografik tendentsiyalari davlatimizda muntazam ravishda amalga oshirib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy davlat va hududiy dasturlari aholini takror barpo qiluvchi yuksak demografik salohiyat vujudga kelganligi va undan samarali foydalanishga zamin yaratilganligidan dalolat beradi.

5.2. Mintaqada mehnat bozori. Mehnat bozorini tartibga solishning xududiy asoslari, aholi bandligi va uni takomillashtirish yo'llari.

Mehnat bozori – bozor iqtisodiyoti tizimining tarkibiy qismi bo'lib, unda boshqa bozorlar: xomashyo, materiallar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar bilan birga faoliyat ko'rsatadi.

Umuman, mehnat bozori deganda, bozor iqtisodiyotining umumiy kichik tizimi tushunilib, unda, bir tomondan – ish beruvchilar (ishlab chiqarish vositalarining egalari), ikkinchi tomondan – yollanma ishchilar o'zaro aloqada bo'ladi. Bu o'zaro munosabatlar natijasida ishchi kuchi taklifi va unga talabning hajmi, tuzilmasi va nisbati shakllanadi.

Mehnat bozorining tarkibiy qismlariga mehnatga talab, mehnat taklifi, ishchi kuchi narxi, ishchi kuchi qiymati va raqobat kiradi.

Shunday qilib, mehnat bozori tovar bozorining o'ziga xos turi bo'lib, uning farqlovchi xususiyati bu bozorda tovarning maxsus turi – ishchi kuchi yoki kishining mehnat qilish qobiliyati sotilishidir.

Mehnat bozori iqtisodiy tushuncha sifatida bu tovarning egalari (yollanma ishchilar), ayni vaqtda uning sotuvchilari ham hisoblanadiganlar bilan xaridorlar (ish beruvchilar) o'rtasidagi o'zaro munosabatni aks ettiradi. Bu o'zaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyati va jamiyat uchun muhimligini nazarda tutib, ular mehnat qonunchiligida yuridik rasmiylashtiriladi.

Quyidagilar mehnat bozorining asosiy subyektlari hisoblanadi:

- ishlab chiqarish vositalarining egalari va ularning manfaatlarini ifodalovchi organlar (tadbirkorlar uyushmalari);

- yollanma ishchilar va ularning manfaatlarini aks ettiruvchi tashkilotlar (kasaba uyushmalari, xodimlar kengashlari);

- davlat (o'zining turli tuzilmalari timsolida) ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar o'rtasidagi vositachilar sifatida.

Shunday qilib, mehnat bozorining asosiy subyektlari orasida davlatga – yollash munosabatlarining ishtirokchisi, ish beruvchilar bilan yollanma ishchilar

o`rtasidagi vositachi va bu sohada bozor munosabatlari ishining bosh tashkilotchisi sifatida muhim rol ajratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori bir qator ijobiy taraflarga ega:

-zamonaviy ehtiyojlarga javob beradigan ishchi kuchini qayta tiklashda muhim rol o`ynaydi;

-ishchi kuchini tarmoqlar va hududlar o`rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlaydi;

-ish kuchining harakatchanligi (mobilligi)ni oshiradi;

-mehnat unumdorligi o`shirishini rag`batlantiradi va boshqalar.

Mehnat bozorining ijobiy vazifalari uning ishlashi va ichki tuzilmasi bilan bog`liq ichki mexanizmlar ta'siri vositasida amalga oshiriladi.

Mehnat bozori dinamikasiga ta'sir ko`rsatuvchi omillar quyidagilardir:

-demografik, u aholining soni, undagi iqtisodiy faol aholining salmog`i, uning harakatchanligi va boshqalarni o`z ichiga oladi.

-ijtimoiy, uning tarkibiga turmush darajasi, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ijtimoiy sheriklik munosabatlarning rivojlanganlik darajasi va boshqalar kiritiladi.

-tashkiliy-huquqiy – u davlat muassasalarining mehnat va aholi bandligini tashkil etishdagi rolini, mehnat sohasi va tadbirkorlikning xuquqiy bazasi ishlab chiqilganligi hamda uning sifatini va boshqalarni ifodalaydi.

Aholini ish bilan ta'minlash (bandlik) siyosati - jamiyat va uning har bir a'zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi chora tadbirlar yig`indisidir.

Bandlik sohasidagi davlat siyosati ikkita asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

birinchidan, amaldagi investitsiyalanayotgan kapitalning ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyojini qondirish. Jadval va foydali amal qiladigan kapital – ishchi kuchidan samarali foydalanishning eng muhim dalilidir;

ikkinchidan, mehnatga layoqatli aholini kishilarning me'yoridagi hayot kechirishlarining muhim sharti sifatida ish joylari bilan ta'minlash.

Aholining farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davlatning an'anaviy vazifasi hisoblanadi. Davlat mehnat bozorida ikki turdagi – passiv va aktiv siyosatni amalga oshirishi mumkin. Passiv siyosat ish izlayotgan fuqarolarni ro'yxatga olish, ishsizlik nafaqasini tayinlash, uni taqdim qilish tizimini tashkil etish, ishsizlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlashning pulsiz shakllarini amalga oshirish bilan cheklanadi.

Davlatning mehnat bozoridagi faol siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat qilayotgan aholi ehtiyojlariga ko'p darajada javob beradi. Uning maqsadi mehnat qilishni istagan har qanday inson o'z talablariga mos ish joyini topishidan iborat.

To'liq bandlikni ta'minlashga qaratilgan aktiv siyosat olib borish rivojlangan mamlakatlar mehnat bozoridagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu siyosat asosiy tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- davlat tomonidan iqtisodiyotga investitsiyalarni rag'batlantirish, bu yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;
- tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ish sizlarni qayta o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish;
- mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjalari va bandlik xizmatlarini rivojlantirish, friksion ishsizlik va tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsizlikni pasaytirish maqsadida vakant ish joylari to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, taxlil qilish va bartaraf qilish borasida choralar ishlab chiqish;
- kichik va oilaviy tadbirkorlikka ko'maklashish, bu ko'plab mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlashning muhim uslubi sifatida o'rganilmoqda;
- ish beruvchilar tomonidan alohida aholi guruhlari – yoshlar, nogironlarga ish joylarini taqdim etishni davlat tomonidan rag'batlantirish (soliq va qonunchilik tadbirlari orqali);
- zarurat tug'ilganda ish topish uchun yashash joyini o'zgartirishda ko'maklashish;
- bandlik muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlik, xalqaro mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarni hal qilish;

- davlat sektorida – ta'lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo'jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlarini qurish sohalarida ishchi o'rinlarini yaratish;
- jamoat ishlarini tashkil qilish.

Mehnat bozorida faol siyosat olib borishda bandlar, band bo'lmagan va ishsiz fuqarolarning yosh-jinsiy tarkibi, kishilarning o'rtacha yoshi, mazkur tarmoq mehnat salohiyatini tashkil qiluvchilar, ularning malaka darajasi, yollanib ishlashdan oladigan oila daromadi, mustaqil bandligi, yakka mehnat faoliyati hamda mehnat muassasalarini (tadbirkorlar, ishlovchilar, kasaba uyushmalari tashkilotlari) rivojlantirish va uning samaradorligini hisobga olish zarur.

Mehnat bozori bozor iqtisodiyoti tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Bu, birinchi navbatda, bozor munosabatlari sharoitlarida amal etadigan turli: xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, tayyor buyumlar, loyihalar, ilmiy ishlanmalar, xizmatlar, turar joy, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa bozorlar bir-birlaridan farq qilsa ham ularni asosiy subyekt - inson birlashtirib turishi bilan izohlanadi.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasining maqsadi mazkur sohalarda ro'y berayotgan voqea va jarayonlarni ilmiy holda ifoda etishdir. Bu nazariya amaliy ahamiyatga ega: u mazkur sohalarga oid bilimlarni integratsiyalashtirar va umumlashtirar ekan, ularni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va inson hayoti faoliyatining boshqa jabhalarida real tarzda namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasi uning vazifalarida konkretlashadi. Bu mehnat bozori va ish bilan bandlik rivojlanishi qonuniyatlari va tendentsiyalarining tahlili asosida mazkur sohalarning tub muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari va usullari yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash, mehnat bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan modellar ishlab chiqish, mehnat resurslari prognozlarini asosida mamlakat va mintaqani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish istiqbol rejalariga aniqliklar kiritish bo'yicha xulosalar tayyorlashdan iboratdir.

Mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasida umumiy, alohida va xususiy qonuniyatlar ham mavjud bo'lib, ular mehnat bozoridagi talab va taklifning ish


haqi miqdoriga bog'liqligi, ishsizlik va iqtisodiyotdagi mehnat unumdorligining o'zaro bog'liqligi («Oyken qonuni»), ish bilan bandlik tarkibining xo'jalik yuritish shaklidagi bog'liq ravishda o'zgarishi, ilmiytexnikaviy va texnologik taraqqiyot natijasida tarkibiy ishsizlikning paydo bo'lishi kabi jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

Mehnat bozorida faol siyosatni amalga oshirish mintaqalarda iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlar va uni tartibga solishning samarali usullarini shakllantirish bilan bog'liq.

Mehnat bozorini tartibga solish deganda, tashqi mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlar ko'zda tutiladi. Bu tadbirlar iqtisodiy, ma'muriy, tashkiliy, qonuniy va mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlari majmui hisoblanadi.

Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari ishsizlarni mehnat faoliyati jarayoniga yanada jadalroq jalb etish, tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirishni xohlovchilarga ishchi o'rinlarini taqdim etish va ishdan bo'shatilayotgan ishlovchilarni qayta taqsimlashdan iborat.

Band bo'lmagan fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash, egiluvchan mehnat bozorini huquqiy ta'minlash hamda ishga joylashtirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo'li bilan rivojlantirish bu faoliyatning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.



5.4-chizma. Mehanat, tovar va kapital bozorining o`zaro bog`ligi²⁸

Mehnat bozorlarida boshqa bozorlardagidan farqli ravishda iste'molchi ehtiyojini qondiradigan tovar emas, balki muayyan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat turi ko'rsatish) uchun talab etiladigan ishchi kuchi xarid qilinadi. Ya'ni ishchi kuchiga talab tovar va xizmatlarga talabdan kelib chiqadi, bu esa mehnat bozori tovar bozorlari bilan uzviy bog`liqligini ko'rsatadi. Ayni paytda ishchi kuchiga talab kapital bozoridagi holat investitsiya muhitidan ham kelib chiqadi. Mehnat va kapital bir-birini to`ldira oluvchi va bir-birining o`rnini bosa oluvchi ishlab chiqaruvchi omillar hisoblanadi. Shuning uchun kapital qiymatidagi har qanday o`zgarish mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu omillar mehnat, tovar va kapital bozorlari o`zaro aloqada amal qilishini ko'rsatadi (5.4-chizma).

Shu bilan birga mehnat bozori va ish bilan bandlik nazariyasiga hozirgi paytdagi kontseptual yondashuvlarda aholining ish bilan bandligi sifati muammosiga e'tibor tobora kuchaymoqda.

Iqtisodiy adabiyotda shaxsning ish bilan bandligi sifati hamda jamiyatdagi ish bilan bandlik sifati tadqiq etiladi. Lekin ayrim tadqiqotchilar ish bilan bandlik

²⁸ S.Raxmonova. Bandlik siyosati va uning asosiy yo`nalishlari. Iqtisod va moliya / ekonomika i finanso` 2017, 7

sifatiga ish bilan bandlik sharoitlari va inson salohiyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashsalar, boshqa izlanishlarda shaxs yoki ijtimoiy guruh turmush darajasi, shuningdek ish bilan bandlik xususiyatida namoyon bo'ladigan xususiyatlar tahlil etiladi.

Ish bilan bandlik sifatiga yondashuvlardagi bunday farqlarga qaramay, mazkur tushunchaning aniq ko'rsatkichlar tizimi mavjud, ular quyidagilardan iborat²⁹:

- ish bilan band xodim daromadining darajasi. Bu daromad Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hujjatlarida qayd etilganidek, faqat xodimning emas, shuningdek uning oila a'zolari ehtiyojlari eng kam miqdori hamda ish kuchini hosil etish (ta'lim olish, kasb egallash, salomatlikni saqlash va hokazolar) uchun etarli bo'lishi lozim;

- oilada jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning xarid qobiliyati;

- ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasi. Mazkur ko'rsatkichning umume'tirof etilgan mezoni - iqtisodiy faol aholi birligiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi mavjud;

- mehnatga haq to'lash xarajatlarining yalpi ichki mahsulot hajmidagi solishtirma ulushi. Bu ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ish bilan bandlik sohasidagi iqtisodiy siyosatning eng muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi;

- mehnat bozorida ish kuchi sifati va raqobatdoshligi darajasi. Ishsiz qolgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy muhofazalash mehnat bozoriga davlat siyosatining passiv shakliga kiradi. Ishsiz fuqarolarni davlat kafolatlaydi:

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar ko'rinishida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy to'lovlarni ta'minlash;

- bepul tibbiy xizmat ko'rsatish.

²⁹S.Raxmonova. Bandlik siyosati va uning asosiy yo'nalishlari. Iqtisod va moliya / ekonomika i finansi 2017, 7

Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlarga moliyaviy yordam ishsizlik bo'yicha sug'urta tizimi asosida amalga oshiriladi. Aholining alohida guruhlari, ishlovchilar, tadbirkorlar hamda mehnatni tashkil etishning ma'lum unsurlari davlat ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanadi. Davlat ularga turli imtiyozlar, shu jumladan, soliq imtiyozlari taqdim etadi, jamoat ishlarini tashkil qiladi, shu orqali mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantiradi va bandlik muammolarini hal qiladi, korxona va ish joylarini (davlat tadbirkorligi) o'zi yaratadi va h.k. Ta'sir ko'rsatish obyekti xususiyatlaridan kelib chiqib, umumiy ta'sir ko'rsatish choralarini va maxsus tadbirlarni ajratish mumkin. Ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha xodimlarga bo'lgan talabni ham, taklifni ham oshiradigan (kamaytiradigan), talab tarkibi va taklifning tarkibida aks etadigan, ularning o'zaro muvofiqligi darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlar farqlanadi.

Ta'sir ko'rsatish shakliga ko'ra, bevosita va bilvosita tartibga solish usullari farqlanadi.

Birinchi guruhga davlat subsidiyalashi va turli imtiyozlar, shu jumladan, soliqlardan imtiyozlar taqdim qilish yo'li bilan barcha mumkin bo'lgan tashkiliy-huquqiy shakllardagi, davlat bandlik xizmati bilan hamkorlik qiladigan va qandaydir kasb bo'yicha o'qigandan keyin ishga qabul qiladigan korxonalarda bandlikni rag'batlantirish kiradi.

Ikkinchi guruhga demografik vaziyatni tartibga solish, davlat xaridlarini ko'paytirish, soliq to'siqlarini kamaytirish, amortizatsiyani jadallashtirish va boshqa tadbirlar, ya'ni mamlakat iqtisodiyoti pasayish bosqichida bo'lgan davrdagi ishbilarmonlik faolligini rag'batlantiradigan dastaklar kiradi.

O'zbekistonda xozirda qanday bandlik siyosati qo'llaniladi? Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida O'zbekistonda aktiv bandlik siyosatga o'tish hayotiy zaruriyatdir.

Aktiv bandlik siyosati - bu davlat tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida olib boriladigan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar yig'indisidir. Bu siyosat ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida ishchilarni kutilayotgan bo'shatishlardan ogohlantirish; ish izlayotganlarni o'qitish, qayta

tayyorlash va malakasini oshirish; yangi ish o`rinlarini yaratishni moliyalashtirish; ish o`rinlarini izlash va tanlash; jamoat ishlarini tashkil etish tizimi orqali yangi ish o`rinlarini yaratish va boshqalarni qamrab oladi.

Bandlik sohasida faol davlat siyosatini olib borish aholini ish bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Bu dastur mehnat bozoridagi holat va uning rivojlanish istiqbollariiga mos ravishda shakllanadi. Bandlikni hududiy tartibga solish hududlar rivojlanishining ko`plab o`ziga xos jihatlariini hisobga olishni va ular asosida aniq maqsadga yo`naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdaagi 2019 yildaagi ustivor vazifalarga bag`ishlangan Oliy Majlisga Murojaatnomasida xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo`llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozimligini to`htalib o`tib, «Bu borada joriy yilda ko`rilgan amaliy choralarga qaramasdan, haligacha og`ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir»³⁰ deb ta'kidlagan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Xotin-qizlar qo`mitasi hududiy hokimliklar bilan birgalikda bir oy muddatda ana shunday ayollarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan dastur ishlab chiqish vazifasi berilgan.

Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyo`ldagi «Aholi bandligini ta'minlash borasidaagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarorida hududlardagi mehnat bozorida hali-hamon yuqori darajada keskinlik saqlanib qolayotganligi, doimiy ish o`rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari hal etilmayotganligi ta'kidlanadi.

³⁰ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018 yil 28 dekabr

Shuningdek, ishga joylashtirish sohasida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit, moliyaviy, maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi past deb baholanadi.

Ishlab chiqarish kadrlari ko`pincha iqtisodiyot tarmoqlarining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini, ularning imkoniyatlari va resurslarini hisobga olmagan holda kasbga tayyorlanmoqda va qayta tayyorlanmoqda. Oqibatda mehnat bozorida ayrim mutaxassisliklar bo`yicha malakali kadrlar taqchilligi kuzatilishi kabi muammolarni tizimli yyechimini topish masalalarida Qarorga muvofiq keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Jumladan, Aholi bandligini ta`minlash bo`yicha ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirishga doir «Yo`l xaritasi» ishlab chiqildi va tasdiqlandi;

Bandlikka ko`maklashish jamg`armasi uchun 2018 yilda Respublika byudjetiga qo`shimcha tushumlar hisobiga 150 milliard so`m ajratiladi, 2019 yildan boshlab esa byudjet parametrlarida 300 milliard so`mdan kam bo`lmagan miqdorda qo`shimcha mablag`lar ajratish nazarda tutildi;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida yangi ish o`rinlari tashkil etishni rag`batlantirish hududiy jamg`armalari tashkil etildi;

shuningdek, aholini ish bilan ta`minlash va tadbirkorlikka yo`naltirish maqsadida mikrokreditlar eng kam ish haqining 500 baravarigacha bo`lgan miqdorda 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdoridagi foiz stavkasi, shu jumladan, tijorat bankining ajratiladigan kredit stavkasining 50 foizi miqdoridagi marja bilan taqdim etilishi kabilar belgilab berildi³¹.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O`zbekistondagi ishsizlik darajasi haqida rasmiy ma`lumotiga ko`ra³² 2019 yilning mart oyida vazirlik huzuridagi Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan

³¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Manbaa Lex.uz.

³²Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy ma'lumoti.

respublikadagi 108 ta tuman va shaharlarda keng ko'lamli ijtimoiy tekshiruvlar o'tkazdi. Fuqarolarning 462 ta o'z-o'zini boshqarish organlari, 4900 ta uy xo'jaligi va 25691 nafar fuqaro qamrab olindi.

Tekshiruv natijalariga ko'ra, ijtimoiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi 9,4 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning yanvar-dekabriga (9,3 foiz) nisbatan 0,1 foizga ko'p, biroq 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,3 foizga pastroqdir. Eng yuqori ishsizlik darajasi 9,7 foiz bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Toshkent shahrida (8,0 foiz) aniqlandi. Ishga muhtoj aholi soni 1 391,1 ming kishini tashkil etdi. Ishsizlik darajasi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida 15,3 foizni, shundan 15-25 yoshlilar o'rtasida 17,1 foizni, ayollar ishsizligi esa 13,0 foizni ko'rsatdi.

Mehnat resurslari miqdori mehnatga layoqatlilar sonining 183,2 ming kishiga ortgani hisobiga 18 953,8 ming aholini tashkil etdi. Bu 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 1 foizga ko'p.

Ijtimoiy faol aholi soni esa 14 767,1 mingga etgan (2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1 foiz yuqori). Bunda rasmiy ijtimoiy sektordagi bandlik 5 412,1 ming kishini tashkil qiladi. Mazkur ko'rsatkich ijtimoiy sohada band bo'lganlar (92,2 mingga), shuningdek, patentga ega yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlar (76,9 mingga) ortishi hisobiga 176,3 mingga (3,4 foizga) ko'paygan.

Norasmiy sektordagi bandlik esa o'tgan yilgi ko'rsatkich bilan bir xilda qolgan – 7 963,9 ming kishi. Bunda vaqtinchalik bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar soni (41,9 mingga) oshgani kuzatilgan, mehnat shartnomalarisiz ishlayotganlar va maxsus ruxsatnomasiz tadbirkorlik faoliyatini olib borayotganlar soni esa umumiy olganda biroz (3,6 mingga) kamaygan.

Mamlakatimizda ishsizlikni muntazam bartaraf etib borish, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishni har tomonlama tahlil qilish, sifatli va xolisona baholash, ayniqsa mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlar, aholi bandligini ta'minlash dasturi samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22

dekabrdagi «Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorida 2018 yildan boshlab mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yagona idoralararo kompyuterlashtirilgan axborot tizimini joriy etish, aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, mehnat bozoriga ilk bor kirib keluvchi mehnatga layoqatli yoshlarni ishga joylashtirish hududiy va tarmoq dasturlari ko'rsatkichlarini shakllantirishda mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansiga muvofiq bu boradagi ishlarni tashkil qilish kabi vazifalar belgilab berilgan³³.

5.3. Mintaqada mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari

Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tadbqiq etish, aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Mehnat resurslari esa bugungi iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarida muhim salmoqqa ega bo'lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini mikro, mezo va makro darajalarda ko'rish mumkin.

Mehnat resurslarining mikro darajadagi ahamiyati ularning korxona (tashkilot) faoliyatidagi o'rni hamda ishlab chiqarishdagi ishtiroki bilan belgilanadi. Ma'lumki, mehnat resurslari ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib, uni yuzaga keltiruvchi barcha resurslar bevosita mazkur omil orqali boshqariladi. Hududlar va mintaqalar iqtisodiyotida mehnat resurslarining roli uning mezo darajadagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Mamlakatning qaysi hududida mehnat resurslari yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, u erda ishlab chiqarish, sanoat, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma va

³³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. ManbaaLex.uz.

kommunikatsiya rivojlanadi. Mehnat resurslarining makro ahamiyati uning mamlakat yalpi iqtisodiyotidagi o`rni va asosiy boylik sifatida e`tirof etilishi bilan asoslanadi. Aynan mehnat orqaligina mamlakatda moddiy va nomoddiy boyliklar yaratiladi. Mazkur mehnatning subyekti (muallif va ijrochisi) esa bevosita inson, ya`ni mehnat resurslaridir. Demak, mehnat resurslarining barcha darajadagi ahamiyati uni tadqiq etishning ham ilmiy ham iqtisodiy dolzarbligini belgilab beradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda hozirgacha «mehnat resurslari» tushunchasiga turli xil qarashlar mavjud bo`lib, ularni umumlashtirish va yagona to`xtamga kelish munozarali masala bo`lib qolmoqda.

Mehnatga oid munosabatlarning o`rganilishi va tadqiq etilishida sharq tafakkuri va ta`limotining hissasi beqiyosdir. Chunki, yozma manbalarda va hayotiy muomalada mehnat munosabatlarning ilk paydo bo`lishini aynan sharq madaniyati yodgorliklari va mutafakkirlarining asarlari bilan bevosita bog`lash mumkin. Eng qadimiy hisoblangan va islom dini kirib kelguncha Osiyo, xususan O`rta Osiyo hududida keng tarqalgan Zardushtiylik dini ta`limotida inson va uning mehnatiga alohida urg`u berilgan. Ushbu dinning muqaddas kitobi sanalgan «Avesto»da mehnatga oid munosabatlarning ilk talqini o`ziga xos tarzda ifoda etilgan. Shuningdek, iqtisodiy va mehnatga oid g`oyalar shakllanishida qadimgi Xitoy (Konfutsiy ta`limoti) va Hindiston («Manu qonunlari» va «Artxashastra» yodgorliklari) tafakkurlari ham alohida o`ringa egadir.

Sharq tafakkurining yirik namoyandalari Abu Nasr Forobiy («Fozil odamlar shahri» asari), Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib («Qutadg`u bilig» asari) kabi qomusiy olimlarning ta`limot va qarashlarida mehnat hamda inson omili alohida o`rin egallagan. Sharqda mehnatga oid munosabatlarning taraqqiy etishida Bahouddin Naqshbandiyning hissasi beqiyosdir. Bu o`rinda uning birgina «Dil ba yoru, dast ba kor» (Qalbing Ollohdayu, qo`ling mehnatda bo`lsin) degan ibratli so`zlarini keltirishning o`zi kifoya. Ushbu ibora zahirida kishilarni mehnat qilish, intilish va izlanishga undash yotadi.

Iqtisodiy bilimlarning taraqqiy etishi va unda mehnat munosabatlarning alohida o`rin topishida bobokalonimiz Amir Temurning o`ziga xos ta`limoti tub burilish yasadi. Sohibqiron tomonidan ilgari surilgan g`oyalarning amaliy hayot tajribalaridan o`tganligi ularning ilmiy ahamiyatini ta`minlagan. Uning asosiy ilmiy qarashlari «Temur tuzuklari» asarida o`z ifodasini topgan bo`lib, unda davlatni boshqarish, iqtisodiyotni yuritish va mehnatni tashkil etish masalalariga alohida yondashilgan.

Shuningdek, ulug` mutafakkir Alisher Navoiy («Vaqfiya» asari) hamda buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning («Mubayyin» va «Boburnoma» asarlari) yuritgan odil siyosatlari va iqtisodiy qarashlarida mehnat va inson omiliga alohida e`tibor qaratilgan. Ular mehnatning inson va jamiyat hayotidagi rolga yuksak baho berar ekan, boylik orttirish va to`q yashashning asosiy yo`li mehnatdir, deya ta`kidlaydilar.

Demak, qadimiy sharq ta`limotini, shu jumladan yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk allomalarimiz faoliyatini o`rganish shundan dalolat beradiki, ilmiy va hayotiy muomalada mehnatga oid munosabatlarning, tushuncha hamda qarashlarning paydo bo`lishi va taraqqiy etishida sharq iqtisodiy g`oyalari maktabining ahamiyati beqiyosdir. Ushbu g`oya va qarashlar hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda iste`molda bo`lgan atama va tushunchalarning paydo bo`lishida ilmiy asos vazifasini o`tagan, deb hisoblash mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi natijasida «mehnat resurslari», «ishchi kuchi» kabi iqtisodiy tushunchalarning ma`no va mazmuni birmuncha o`zgarib bormoqda. Bu tushunchalar faqat ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda emas, balki kundalik amaliyotimizda ham keng foydalanila boshlandi.

Ishchi kuchiga iqtisodiyot fanida mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma`naviy qobiliyatlarining majmuasi sifatida qaraladi. R.J.Erenberg va R.S.Smit «Ishchi kuchi deganda yoshi 16 dan yuqori bo`lgan xodimlar, ish bilan bandlar, faol ravishda ish qidirayotganlar, ishdan bo`shatilgandan keyin ish bilan bandlik xizmatlariga yana murojaat etish niyatida bo`lganlar tushuniladi», deb hisoblagan.

Ingliz siyosiy iqtisodi asoschilaridan biri A.Smit «iqtisodiy odam» atamasini fanga kiritgan. Uning fikriga ko`ra, «iqtisodiy odam» o`z shaxsiy manfaati va maqsadini ko`zlab, turmushini yaxshilashga intiladi. Shu boisdan, inson bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan mahsulotining qiymati yuqori bo`lgan va ko`p foyda keltiradigan faoliyat turini, sohasini tanlashga harakat qiladi. Faqatgina «ko`zga ko`rinmas qo`l», ya`ni erkin raqobat, bozor qonunlarigina o`z maqsadlarini ko`zlab faoliyat yurituvchilarni tartibga solingan tizimga birlashtiradi. Shu boisdan «iqtisodiy odam» o`z manfaatini ko`zlagani holda jamiyat manfaati uchun ham mehnat qiladi.

Amerikalik iqtisodchi olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryo`lar iqtisodiy o`sishga ta`sir ko`rsatuvchi omil sifatida mehnat resurslarining soni va sifatini alohida ajratib ko`rsatgan. Ular nazariyasiga muvofiq mehnat resurslarining soni iqtisodiyotda band bo`lgan kishilar soni hamda ularning mehnatga layoqatli aholi tarkibidagi ulushi bilan belgilanadi. Mehnat resurslarining sifatini ifodalovchi va mehnat unumdorligiga ta`sir ko`rsatuvchi omillar sifatida esa kishilar salomatligining yaxshilanishi, kasb tayyorgarligi, bilimi va manfaatdorligining o`sishi ko`rsatkichlari keltiriladi.

Ishchi kuchi – mehnat jarayonida inson foydalanadigan uning jismoniy va ma`naviy qobiliyatlarining majmuasidir.

«Ishchi kuchi» atamasi ko`p hollarda uch ma`noni anglatishda ishlatiladi:

organizm, tirik inson shaxsi ega bo`lgan va har safar u qandaydir iste`mol qiymatini yaratish chog`ida ishga soladigan jismoniy va ma`naviy qobiliyatlar majmui sifatida;

aholining ish bilan band bo`lgan yoki ish izlayotgan qismi – iqtisodiy faol aholining sinonimi sifatida;

umuman ishlovchilar yoki muayyan bir korxona ishchilari sifatida.

Ammo ayni bir vaqtda «mehnat resurslari» so`zi va «ishchi kuchi» so`z birikmalari turli variantlarga ega bo`lib, ularni qo`llashda ongli va tegishli izohlar berish kerak bo`ladi.

Shunday qilib, «mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalari turli manbalarda turlicha ishlatiladi va ko'p hollarda bir-biridan deyarli farqlanmaydi.

»Mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalari turli mazmunga ega bo'lib, mehnat resurslarining ishchi kuchiga aylanish jarayoni bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

Dastlabki bosqichda mehnat resurslari ishchi kuchining salohiyatli qismi bo'lib, ular mehnat vositalari va qurollari bilan ishlash tajribasini orttiradi.

Ikkinchi bosqichda esa mehnat resurslari ish joylariga taqsimlanadi. Shu tariqa jismoniy va aqliy qobiliyatlarning mehnat jarayonida sarflanishi ro'y beradi. Mehnat resurslari bu jarayonda ishchi kuchiga aylanadi.

Uchinchi bosqichda ishchi kuchi vaqt sarflab, moddiy ne'mat yaratadi va bu ne'mat iste'mol qiymatiga ega bo'ladi.

Ishchi kuchi mehnat faoliyatini to'xtatishi bilan yana iqtisodiy nafaol aholi tusini oladi, lekin mehnat resursi tarkibida qoladi.

Mehnat resurslari va ishchi kuchi tushunchalari o'rtasidagi o'xshashlik ikkala toifaga kiruvchi kishilar ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashishlari uchun o'zlarida mehnat layoqatini mujassamlashtirganligidir.

«Mehnat resurslari» tushunchasi birinchi marta 1922 yilda rossiyalik olim S.Strumilin tomonidan fanga kiritilgan. U mazkur tushunchani markazlashgan rejali iqtisodiyot yuritish tizimi nuqtai nazaridan talqin etgan bo'lib, unga ko'ra mehnat resurslariga rejalashtiriluvchi passiv ishchi kuchi majmuasi sifatida qaralgan.

Mehnat resurslariga mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslar kiradi.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga:

16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar;

16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar kiradi.

Lekin ushbu yosh guruhidagi barcha aholi ham mehnatga layoqatli aholi hisoblanmaydi.

Shuning uchun, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi bu yoshdagi I va II guruh nogironlari, shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar sonini chiqarib tashlash yo`li bilan aniqlanadi.

Misol uchun: Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra, Jizzax viloyatida 2017 yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 780,3 ming kishini, mazkur yoshdagi aholi tarkibida ishlamayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi I va II guruh nogironlari, imtiyozli shartlarda pensiya olayotgan ishlamayotgan shaxslar soni 27,5 ming kishini tashkil etgan.

Jizzax viloyatida 2017 yilda mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 752,8 ming kishiga teng ($752,8 = 780,3 - 27,5$).

Mehnat resurslariga kiradigan ikkinchi toifa bular mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo`lgan shaxslardir.

Ma'lumot uchun: Ishga qabul qilishga o`n olti yoshdan yo`l qo`yiladi. O`n besh yoshga to`lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o`rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin (*O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 77-moddasi*).

Demak, o`n besh yoshga to`lib ishlayotgan o`smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagi mehnat bilan band bo`lgan shaxslar toifasiga kiradi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko`ra mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagi aholiga 55 yosh va undan yuqori yoshdagi xotin-qizlar, 60 yosh va undan yuqori yoshdagi erkaklar kiradi.

Yoshga doir pensiyani rasmiylashtirib, mehnat faoliyatini davom ettirayotganlar ham mehnat resurslari tarkibida o`tiradi.

Endi mehnat resurslarining shakllanish manbalarini misol bilan tushunib olsak.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 752,8 ming kishi, mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo`lgan shaxslar soni 3,5 ming kishini tashkil etgan.

Demak, Jizzax viloyatida 2017 yilda mehnat resurslari soni 756,3 ming kishiga teng bo'lgan ($756,3 = 752,8 + 3,5$).

O'zbekiston Respublikasida har yili mehnat resurslari balansi ishlab chiqiladi.

Xo'sh, savol tug'iladi. «Balans» degan tushunchaning lug'aviy ma'nosi nima?

«**Balans**» atamasi lotincha **bis** – »ikki marta», **lanx** – «tarozi pallas» so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tom ma'noda «ikki palla» degan ma'noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida qo'llaniladi.

Demak, balans tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida qo'llanilsa, mehnat resurslari balansida tenglik, muvozanat nimada aks etadi.

Mehnat resurslari balansi - bu mehnat resurslari mavjudligini va ularning taqsimlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimidir.

Mehnat resurslari balansida tarozining bir pallas «shakllanish», ikkinchi pallas «taqsimlanish» qismi bo'ladi.

Biz yuqorida mehnat resurslarining mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan shaxslardan shakllanishini turli misollar bilan tushuntirib o'tdik.

Endi mehnat resurslarining taqsimlanish qismiga, ya'ni tarozining ikkinchi pallasiga to'xtalib o'tamiz.

Mamlakatning mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholiga taqsimlanadi.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda yil iqtisodiy faol aholi 492,6 ming kishini va iqtisodiy nafaol aholi 263,7 ming kishini tashkil etdi.

Demak, Jizzax viloyatida mehnat resurslari soni 756,3 ming kishiga teng ($756,3 = 492,6 + 263,7$).

Shu joyda, balans nimada aks etishini ko'rsak:

shakllanishi - $752,8 + 3,5 = 756,3$;

taqsimlashi - $492,6 + 263,7 = 756,3$.

Iqtisodiy faol aholi soni - bu ish bilan band aholi va ishsizlar soni yig'indisidan iboratdir.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda yil ish bilan band aholi soni 468,2 ming kishini va ishsiz aholi soni 24,4 ming kishini tashkil etgan.

Demak, Jizzax viloyatida iqtisodiy faol aholi soni 492,6 ming kishiga teng ($492,6 = 468,2 + 24,4$).

Ish bilan ta'minlanish - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Iqtisodiyotda ish bilan band aholi soni iqtisodiy faoliyat turlarining turli sohalarida ish bilan bandlar yig'indisidan tashkil topadi.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ish bilan bandlar soni – 195,7 ming kishi, sanoatda – 46,3 ming kishi, qurilishda – 31,2 ming kishi va boshqa sohalarda - 195,0 ming kishini tashkil etgan.

Demak, Jizzax viloyatida 2017 yilda ish bilan band aholi soni 468,2 ming kishini tashkil etgan ($468,2 + 195,7 + 46,3 + 31,2 + 195,0$).

Ishsizlar - qonun hujjatlariga muvofiq rasman ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar, shuningdek, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'lmagan, mustaqil ravishda ish izlovchi va bunday ish taklif etilsa, ishga joylashishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdagi vaqtincha mehnat bilan band bo'lmagan shaxslardir.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda iqtisodiy faol soni – 492,6 ming kishi, ishsizlar soni - 24,4 ming kishini tashkil etgan.

Demak, Jizzax viloyatida 2017 yilda ishsizlik darajasi 5,0 %ni tashkil etdi ($5,0 \% = (24,4 / 492,6) \times 100 \%$).

Iqtisodiy nafaol aholi – bu mehnat bilan band va ishsizlar deb hisoblanmaydigan shaxslardir. Ularga ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar; bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar; uy bekalari va ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar,

shuningdek ko`char va ko`chmas mulkdan daromad oladigan ishlamaydigan shaxslar kiradi.

Misol uchun: Jizzax viloyatida 2017 yilda ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o`quvchilar va talabalar soni 72,7 ming kishini, bolalarni parvarish qilayotgan ishlamaydigan ayollar soni 73,5 ming kishini, shuningdek uy bekaları va ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo`lmagan shaxslar, ko`char va ko`chmas mulkdan daromad oladigan ishlamaydigan shaxslar soni 117,5 ming kishini tashkil etgan.

Demak, Jizzax viloyatida iqtisodiy nafaol aholi soni 263,7 ming kishiga teng bo`lgan ($263,7 = 72,7 + 73,5 + 117,5$).

Xo`sh, respublikada mehnat resurslari soni aniq bo`lsa, endi undan samarali foydalanish kerak.

Mehnat resurslaridan foydalanishga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Geografik va tabiiy omillar. Respublikamiz mintaqalari turli tabiiy va geografik xususiyatlarga ega bo`lib, bu holat hududiy mehnat bozorlarining tabiiy sharoitga yuqori ta'sirchanligini anglatadi. Masalan, Orolbo`yi mintaqasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ekologik vaziyat bilan asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda qishloq xo`jaligi tarmog`ining yuqori ulushi respublikada ish bilan bandlikning mavsum va iqlim omillariga yuqori darajada bog`liqligini keltirib chiqaradi. Noqulay kelgan ob-havo sharoiti qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirishga salbiy ta'sir ko`rsatib, hosilning keskin kamayishiga sabab bo`ladi. Ushbu holat esa sanoat, jumladan, qayta ishlash, oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari korxonalarining to`la quvvatda ishlamasligi, ishchilarning bo`sh qolishi va qisqartirilishiga olib keladi. Respublikamizning qishloq joylarida mavjud yuqori darajadagi mavsumiy ishsizlik holati ham aynan mavsum va ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog`liq. Shu bois, qishloq xo`jaligida mehnat qilayotganlar mavsumdan tashqari vaqtda ishsiz qolmoqda yoki nomuayyan, vaqtinchalik va bir martalik ishlar bilan shug`ullanishga majbur bo`lmoqda.

2. Mavjud hom ashyoresurslari. Xom ashyo resurslari hududiy iqtisodiyot tarmoqlarining o`ziga xosligini keltirib chiqaradi. Masalan, tabiiy hom

ashyoresurslariga boy bo'lgan Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu mintaqalar ishchi kuchining salmoqli qismi ushbu tarmoqlarda banddir.

3. Demografik omillar. Bunda, demografik omillar ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aholi, jumladan, ishchi kuchining o'lim ko'rsatkichi ish bilan bandlikka sezilarli bo'lsa-da ta'sir qiladi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori darajada ro'y bersa, u holda mamlakat ishchi kuchi tarkibining sifat va miqdor jihatdan qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, kasb kasalligi va jarohatlari natijasida ham ish bilan band fuqarolar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari va ishchi kuchi safidan chiqib ketishlari mumkin.

Shuningdek, demografik jarayonlar ichida tug'ilish ko'rsatkichi ish bilan bandlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, farzand dunyoga kelishi natijasida ayollar vaqtinchalik ishchi kuchi safidan chiqadi va iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga qo'shiladi. O'zbekistonda ayollar farzandi 2 yoki 3 yoshga etguncha tug'ruq ta'tilida bo'ladi. Demak, bu holatda ayollar kamida 2 yildan so'nggina yana iqtisodiy faol aholi tarkibiga qaytishi mumkin bo'ladi. Shu sababli mamlakatda tug'ilishning yuqori ko'rsatkichi ayollar ish bilan bandligiga ta'sir qiluvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada yiliga o'rtacha 700 ming nafardan ortiq chaqaloq tug'iladi, bu esa, o'z navbatida, shuncha miqdordagi ayollarning mehnat bozoridagi faolligiga ma'lum muddat bo'lsada chek qo'yadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi hamda uning darajasi o'zgarishiga sabab bo'luvchi demografik omillardan biri mehnat migratsiyasidir. Mehnat migratsiyasi ishchi kuchining mehnat daromadi keltiradigan ish topish maqsadida bir hududdan boshqa hududga ko'chish harakatidir. Mazkur turdagi migratsiya vujudga kelishining asosiy motivi bo'lib fuqarolarning yuqori miqdordagi ish haqi va qulay mehnat sharoiti ilinjidagi harakatlari hisoblanadi. Mamlakat aholisini ish bilan ta'minlashda mehnat migratsiyasi quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: ishchi kuchining hududlararo va tarmoqlararo qayta taqsimlanishi ro'y beradi; aholining ishsiz qatlami ish bilan

ta'minlanadi; ishlovchilarning mehnat daromadi oshadi va turmush darajasi yaxshilanadi; ishlovchilar yangi kasb va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularning ish tajribalari ortadi.

4. Ta'lim tizimi. Ushbu omilning mehnat resurslaridan foydalanishga ko'rsatadigan ta'sirini quyidagilarda ko'rish mumkin:

aholi, jumladan yoshlar savodxonlik darajasining yuqori ko'rsatkichi malakali ishchi kuchi bozorini vujudga keltiradi;

mehnat bozorida raqobat kurashining paydo bo'lishiga olib keladi;

ishchi kuchi taklifining sifat tarkibini takomillashtiradi;

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan yoshlar sonining ko'payishi mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy nafaol aholi ulushining ortishiga sabab bo'ladi;

iqtisodiyot tarmoqlarining tegishli yo'nalishlardagi malakali kadrlarga bo'lgan talabini optimal qondirishni ta'minlaydi.

5. Ish haqi. Ish haqi va ijtimoiy transfert to'lovlari miqdorini muntazam oshirib borish siyosati aholi bandligi muammolarini bartaraf etish, farovonlikni oshirish va ishchi kuchining qayta tiklanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi, shuningdek, qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish mehnat resurslaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Bu esa shaxslarning manfaatlari, yashash tarzi, taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekistonda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning yo'llari quyidagilardan iborat:

qonunchilik bazasini mustahkamlash, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni amaliy hayotga tadbiq etish;

mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uning real miqdorining o'sishiga erishish;

ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari – kasanachilik, uy mehnati, oilaviy biznes, xizmat ko'rsatish va qoramolchilik kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanish hamda o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish;

ishsizlarni ishga joylashtirishda xususiy sektorning ishtirokini kuchaytirish va bu ishda xususiy kadr agentliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

mehnat resurslarini hududlar va tarmoqlar bo'yicha qayta taqsimlash hamda ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta'minlashda mehnat migratsiyasiga alohida e'tibor qaratish va h.k³⁴.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari jadal amalga oshirilayotgan bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda mehnat resurslarining o'рни va ahamiyati oshib bormoqda. Mamlakatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish aholi farovonligini oshirishga va iqtisodiy yuksalishga zamin yaratadi.

Zero, jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalqda qudratli salohiyat mujassam. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish esa jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi.

5.4. Xalqaro mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, mehnat migratsiyasi jarayonlari uzoq tarixga ega bo'lib, eramizga qadar ham odamlar o'zlarini mashg'ul qilish uchun bir davlatdan boshqasiga ko'chib yurgan. Bu borada XIX asrning o'rtalarida ishsizlik va og'ir yashash sharoitlari tufayli Evropa mamlakatlaridan katta miqyosdagi migrantlarni daromad topish maqsadida AQShga ko'chib o'tishlari, ikkinchi jahon urushidan keyin yuqori ish haqi taklif qilgan mamlakatlarga «aqliy salohiyatning oqib ketishi» deya nomlangan yuqori malakali kadrlarning emigratsiyasi, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib Evropa mamlakatlari tomon migratsiya jarayonlarining jadallashishi kabi holatlar mehnat migratsiyasining muntazam shakllanib kelayotganligidan dalolat beradi.

Xalqaro mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, unga turli mamlakatlardagi mehnat migrantlari ishtirok etadigan jahon mehnat bozorining alohida segmentlarining yuzaga kelishi asos yaratadi.

³⁴ B.Shodiev, Z.Yuldoshev. Aholi turmush darajasini oshirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari. Manbaa. stat.uz.

Xalqaro mehnat bozori bu – zarur ishchi kuchini tanlab olish uchun unga boʻlgan talab va taklifni davlatlararo miqyosda tartibga solish jarayonlarida ishtirok etuvchi hamda mamlakat tashqarisidagi ishchi kuchini sotuvchilari va haridorlari doimiy ravishda faoliyat koʻrsatuvchi xalqaro darajadagi bozordir³⁵.

Mazkur bozordagi jarayonlarni – milliy mehnat bozorlarining ishchi kuchi resurslarini mamlakatlar yoki mintaqalar oʻrtasida koʻchirish vositasida amalga oshiriladigan integratsiyasidir deya taʼriflash mumkin.

Shunday ekan, mamlakatlar oʻrtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi integratsiya jarayonlarining qay darajada barqaror va muvaffaqiyatli ahamiyat kasb etishi koʻp jihatdan unda ishtirok etuvchi ishchi kuchining soni, sifati va tarkibi kabi xususiyatlarga bogʻliqdir. Shu sababli ham xalqaro mehnat bozorida mehnat resursining sifatiga, uning umumtaʼlim va ixtisoslik boʻyicha tayyorgarligi hamda malakasiga eng yuqori talablar qoʻyiladi³⁶.

Ishga yollash shartlarida zamonaviy ishchining ijodiy yaratish salohiyatidan foydalanish, shu orqali jahondagi umumiy ishlab chiqarishning ilm-fanga asoslanishining umumiy darajasini koʻtarish manfaatlari koʻzda tutiladi. Bugungi kunga kelib, mehnat salohiyati faqatgina jamiyatga tegishli boʻlgan mehnat masalalari yoki jahon xoʻjaligi mehnat resurslarining umumiy sonini anglatish bilan chegaralanmaydi. Asosiy mezon bu – eng avvalo, ishchining malakasi va qobiliyati hamda uning mehnatga boʻlgan layoqati bilan aniqlanadigan mehnat sifatidir. Xalqaro ishchi kuchining muhim sifatleri boʻlmish kasbiy-malakaviy tuzilishi haqida soʻz ketganda, bir necha imkoniyatlarni hisobga olish zarur. Xalqaro mehnat bozorida ishtirok etayotgan ishchi kuchining sifati milliy mehnat bozorlarida faoliyat koʻrsatayotgan ishchilar harakteristikasida mavjud boʻlmagan xususiyatlarga ega. U oʻzida nafaqat milliy xususiyatlarni, balki xalqaro tajribani oʻzlashtirishi, dunyoviy muomala madaniyatini anglash xislatlarni ham mujassamlashtirishi lozim boʻladi. Xalqaro ishchi kuchining oʻziga xos farqli

³⁵V. V.Tomilov, L.N. Semerkova . Marketing rabochey sili. M. 2004.S. 243.

³⁶V. V.Tomilov, L.N.Smerkova. Marketing rabochey sili. M. 2006. S. 251

tomoni – uning xalqaro, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimga biriktirilganligi, xalqaro ishchilar mehnatining funktsional xususiyatlari hamda ularning jahon iqtisodiyoti, umuman, insoniyat taraqqiyotining umuminsoniy ijtimoiy vazifalari bilan chambarchas bogʻliqligida namoyon boʻladi.

Soʻnggi yillarga kelib, koʻpgina mamlakatlar oʻzlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bogʻliq boʻlmagan holda malakali ishchi kuchi taqchilligiga uchramoqda. Bu holat aksariyat sharoitlarda mikroelektronika va umuman, informatsion texnologiyalarning yuqori darajada rivojlanishi hamda aksariyat injener-texnik ishchilarning bilimlariga boʻlgan talabning keskin darajada oʻzgarishi bilan izohlanadi. Zarur malakaga ega boʻlgan ishchilar taqchilligi bugungi kunda boshqa mamlakatlardagi mutaxassislarni vaqtinchalik ishga yollash, malakali ishchi kuchining mobilligini faollashtirish, ishga yollash sharoitlarini diversifikatsiyalash hamda ushbu kategoriyadagi ishchilar mehnatini tashkil etish hisobdan qoplanmoqda.

Xalqaro ishchi kuchining asosiy guruhlariga zamonaviy texnika va informatsion texnologiyalar boʻyicha mutaxassislar hamda bozor iqtisodiyoti (marketing, savdo va moliya birjalari, bank va boshqalar) boʻyicha boshqaruvchilar va mutaxassilar kiradi. Bunday mutaxassislarga ayniqsa, rivojlangan, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik (ITTK) ishlariga katta miqdorda mablagʻ sarflaydigan, ishchilarning ijodiy faoliyat uchun tengi yoʻq – aʼlo sharoitlar yarata olgan, xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik dasturlarni bajarish uchun foydalaniladigan, koʻp miqdordagi ilmiy-tadqiqot institutlari va taʼlim muassasalariga ega boʻlgan mamlakatlarda talab katta. Bu kabi mamlakatlarda ish haqi toʻlovlarining nisbatan qulay sharoitlari yaratilgan, kasbiy va madaniy darajani oʻstirishning imkoniyatlari taʼminlangan, shuningdek, oilalar uchun yuksak madaniy hayot darajasi, bolalar uchun esa taʼlim olish imkoniyatlari yaratilgan boʻladi. Ammo bu hol oʻz navbatida, donor mamlakatlardan «aqliy salohiyatning oqib ketish» muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu kabi muammoni quyi daromadli mamlakatlarda koʻp uchratish mumkin. Masalan Gaiti va

Yamaykadagi universitetlar bitiruvchilarining har 10 tadan 8 tasi xorijda yashaydi³⁷.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy xalqaro mehnat bozorida yuqori malakali ishchilar bilan bir qatorda, past malakali ishchilarining ham alohida tabaqasi ham shakllanib bormoqda. Ayniqsa, nisbatan boy G'arbiy Evropa mamlakatlari o'ziga Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi, MDH mamlakatlarining kambag'al tabaqasini magnit kabi tortmoqda. Xorijiy ishchi kuchidan foydalanish – G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishining muhim shartlaridan biri bo'lib, ular o'zining iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turish, tug'ilishning quyi darajasini qoplash uchun xorijiy ishchilar oqimini qo'llab-quvvatlaydi. Ammo bu mamlakatlarda xorijiy ishchilar va mahalliy aholi o'rtasida irqiy va diniy tafovutlar bilan bog'liq mojarolar tufayli ijtimoiy muhit beqarorligining kuchayishi bilan bog'liq havotir hukm suradi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, xalqaro mehnat bozorida xarakteri jahon xo'jaligi manfaatlari bilan aniqlanadigan ishchi kuchi oldi- sotdisining almashuvi ro'y beradi. Bu borada jahon xo'jaligi manfaatlari xalqaro ishchi kuchini yollashning sharoitlarini, ish haqi miqdorini va mehnat bozorida talab qilinadigan harakterni aniqlab beradi. O'z navbatida, jahon xo'jaligining turli xil tuzilmalarida bo'lgan xalqaro ishchi kuchi yoki mehnat resurslari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Qo'shma korxonalarining ishchilari;
- TMKlarning asosiy va yordamchi bo'limlarida band bo'lgan ishchilar;
- Mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalarda band bo'lgan ishchilar.

Xalqaro ishchilar yuqori, o'rta, quyi toifalarga hamda idora hizmatchilari (kontora personal, turli hil profil mutaxassislari)ga ham qarab tasniflanadi. Tabiiyki, biz yuqorida ta'kidlagandek, xalqaro ishchi kuchining nisbatan mukammal differentsiatsiyalashda malaka darajasi, jinsi, yoshi va millati kabi xususiyatlar ham e'tiborga olinadi. Biroq har qanday holatda ham xalqaro ishchi kuchining nisbatan yirik va bazaviy segmentlarini ajratish maqsadga muvofiq

³⁷ Mejdunarodnaya migratsiya i denejnoe perevodi. www.un.org

hisoblanadi. Bularga eng avvalo, mamlakatlararo xo`jalik tizimlarida doimiy ishga ega bo`lgan ishchilar, xalqaro mehnat bozorining rezervi sifatida faoliyat ko`rsatuvchi yoki xalqaro mehnat bozori va turli xil mamlakatlarning milliy ishchi kuchi bozorlarida ish qidirish bilan band bo`lgan ishchilar kategoriyalari kiradi. Yuqorida ta`kidlangan barcha omillarga ko`ra shakllanayotgan xalqaro ishchi kuchi bozori aniq segmentlangan harakterga ega. Boshqacha qilib aytganda, ushbu bozor doirasida ishchi kuchi harakatida o`zining qonuniyatlariga ega bo`lgan bir qancha xususiy, nisbatan avtonom ishchi kuchi bozorlari shakllanadi. Bu kabi ishchi kuchi segmentatsiyasi shakllangan xalqaro mehnat taqsimotini, shuningdek, ishchi kuchi malakasining va unga bo`lgan talabning o`ziga xos xususiyatlarini o`zida namoyon qiladi. Xalqaro mehnat bozorini segmentlash ushbu bozorda ishtirok etuvchi ishchi kuchi tarkibidagi bir xillikni bekor qiladi. Biroq bu bilan ushbu ishchilarda faqatgina milliy mehnat bozorlaridagina ishtirok etuvchi ishchilardan butunlay farq qiluvchi spetsifik xususiyatlarni shakllanishini bekor qilmaydi. Shuni ta`kidlash joizki, bu kategoriyadagi ishchilarda milliy bog`lanish hissi sezilarli darajada sustlashadi, ular nisbatan mobil xarakterga hamda ish beruvchining talablariga moslashishda katta qobiliyatga ega bo`ladilar. Bu kabi qobiliyatga ayniqsa, Osiyo mintaqasi mamlakatlaridan xorijga chiquvchi migrant-ishchilar egadirlar.

Shu o`rinda, jahon mehnat bozorining shakllanishida alohida mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga jalb qilinganligi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Ma`lumki, mehnat taqsimotining rivojlanishi – ishlab chiqarishning ikkita asosiy omili bo`lmish mehnat va kapital mobilligining ortishi bilan chambarchas bog`liq. Aynan, xalqaro mehnat taqsimoti alohida mamlakatlarning ma`lum bir turdagi tovar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishini hamda o`z navbatida, aniq bir ijtimoiy-demografik harakteristikadagi ishchilarga bo`lgan talabni aniqlab beradi. Zamonaviy mehnat taqsimotining shakllanishida 3ta asosiy g`oya muhim rol o`ynaydi:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarda amaliy jihatdan arzon mehnatning cheksiz rezervuariga ega bo`lish³⁸.

2. Minimal turdagi mamlakatlar bilan alohida operatsiyalarni bajarishga qodirligini izohlovchi ishlab chiqarish jarayonining yuqori fragmentlashuvi.

3. Transport va kommunikatsion tizimlarning rivojlanganligi.

Endilikda zamonaviy hududiy mehnat taqsimoti alohida mamlakatlar o`rtasida emas, balki har birining tarkibida periferiya va markazlar bo`lgan Evropa Ittifoqi, NAFTA (AQSH, Kanada, Meksika), Osiyo Tinch okeani mintaqasi kabi yirik mintaqalar o`rtasida amalga oshirilmoqda. Bunday mehnat taqsimotining harakatlanuvchi kuchi sifatida bozorlarning o`zgarishi va texnologiyalar transferti xizmat qiladi. Ba`zi bir mintaqalar, masalan, Afrika zamonaviy mehnat taqsimotidan butunlay mustasno qilindi. Aksariyat Afrika mamlakatlari asosan, iqtisodiyotning agrar tipini o`zlarida namoyon etsalarda, ular mehnatning sanoat ishlab chiqarishi sektorida qayta taqsimlanishga jalb qilinganlar.

Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat bozorining rivojlanishini davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishi bilan izohlashning o`zi ham kifoya emas. Yuqorida ta`kidlanganidek, bunda xalqaro mehnat bozorining rivojlanish dinamikasi jahon iqtisodiyotining qator boshqa subyektlarining, masalan, o`zining investitsion va texnologik siyosati bilan milliy mehnat bozorlarini korrektilashtirishga va rivojlantirishga xizmat qiladigan TMKlarning taraqqiyoti bilan ham izohlanadi.

Bugungi kunda xalqaro mehnat bozorida quyidagi asosiy tendentsiyalar kuzatilmoqda:

- Nolegal (noqonuniy) migratsiya hajmining ortib borishi;
- Sharqiy Evropa va MDH mamlakatlari mehnat migrantlarining ko`payishi tufayli dunyo mehnat bozorining torayib borishi;
- Xalqaro mehnat bozoriga kirish uchun to`siqlar sonining ko`payishi;

³⁸ Ms CallumC/ Globalization, Development and Trends in the New International Division of Labour. Paper Number 19-99. Papers in International Bissiness, 2006 P.6.

– Ishchi kuchining sotuvchilari (ya'ni mehnat resurslari) o'rtasidagi raqobatning kuchayishi;

– Migrantlar diskriminatsiyasining davom etishi;

– Majburiy migratsiyaning ortib borishi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro mehnat bozori yuqorida qayd etilgan qator subyektiv va obyektiv omillar ta'sirida, talab va ehtiyojlar hamda ma'lum tartib hamda qonuniyatlar asosida rivojlanib kelmoqda. Dunyo mehnat bozori faqatgina ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi natijasida emas, balki individual, faqatgina o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy harakterga ega bo'lgan, natijada nafaqat alohida mintaqalarning, balki uning tarkibidagi butun dunyoning iqtisodiy holatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan alohida milliy mehnat bozorlari hisobidan ham shakllanadi. Biroq xalqaro mehnat bozori va uning bir qismi bo'lmish mintaqaviy mehnat bozoriga milliy mehnat bozorlarining mexanik birlashishi sifatida qarashning o'zi etarli emas. Biz xalqaro mehnat bozoriga xorijiy ishchi kuchining sotuvchilari va haridorlari sifatli mehnat resurslari uchun raqobatlashadigan milliy miqyosdan yuqori bo'lgan tuzilma sifatida qarashni maqsadga muvofiq deb topdik. Ammo boshqa tomondan esa, xalqaro mehnat bozori kapital mobilligining ortishi va yangi texnologiyalarnin paydo bo'lishi hisobidan ham shakllanishi mumkinligini ham alohida qayd etish joizdir. Bu holda xalqaro mehnat bozori tarkibiga jahon bozoriga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan TMK yoki boshqa subyektlarning ishchilari yoki davlat chegaralari orqali erkin harakatlanuvchi xalqaro mehnat migrantlari kiradi. Aynan shu bilan xalqaro mehnat bozorining asl qiyofasi namoyon bo'ladi.

5.5. Mintaqa iqtisodiyotida mehnat resurslari mobilligi

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish asnosi mehnat bozorida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ular turli sohalarni jadal rivojlantirishdan tashqari, yangi ish o'rinlari ochib, aholi

bandligini ta'minlashda, xalqimiz turmushini yanada farovonlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ammo barchamizga ayon bitta jiddiy muammoni ham ro'y-rost tan olishimiz kerak: iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi o'zgarishi bir qancha tarmoqlarda xodimlar ishsiz qolishi bilan birga kechmoqda. O'z navbatida, mehnatga layoqatli aholi sonining tabiiy o'sishi ham yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Oqibatda aholining ishga joylashish ehtiyoji bilan iqtisodiyotning mehnat resurslariga bo'lgan talabi, shuningdek, xodimlarning professional tarkibi bilan taklif etilayotgan ishning xususiyati o'rtasida nomuvofiqliklar yuzaga kelmoqda.

Institutsional nuqtai nazardan yondashganda, mehnat bozoridagi talab va taklifning nomutanosibliigi muammosini ijtimoiy nazorat tizimini o'rnatish orqali hal etish mumkin. Davlat esa mehnat bozoridagi rejali siyosatini shu bozorda amal qiladigan institutlar yordamida amalga oshirishi zarur. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, eng muhim ijtimoiy muammolar bevosita mehnat bozorida yyechim topadi. Inchunin, davlat mazkur jarayonda ishtirok etishi shart. Aks holda, ko'plab odamlar ishdan va tirikchilik uchun zarur ne'matlardan mahrum bo'lishadi. Davlat esa ish bilan bandlik darajasi yuqori bo'lishidan manfaatdor. Chunki u byudjetning daromad qismi va mamlakat boyligi ko'payishini ta'minlaydi.

Shaxs erkin bo'ladigan va kasb malakasini oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadigan izchil tartib o'rnatish uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosat quyidagi maqsadlarga yo'naltirilishi zarur:


- kasbni o'zgartirish, qobiliyatga yarasha kasb tanlash, buning uchun tegishli o'quvlar mavjudligi imkoniyatini yaratish;
- faol mehnat jarayonini tashkillashtirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish, xizmat vazifasida ko'tarilish uchun teng shart-sharoitlar muhayyo etish;
- mehnatni rag'batlantirishning turli shakl va vositalarini keng joriy etish, ishlab topilgan daromad o'z egasi va uning oilasidagilar munosib hayot kechirishini ta'minlaydigan miqdorda bo'lishiga erishish;

- xodimlar va ish beruvchilar oʻrtasidagi mehnat munosabatlarini, ayniqsa, xususiy sektordagi ish sharoitlarini huquqiy jihatdan tartibga solish, bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish.

Milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi barcha sohalar innovatsion tendentsiyalar taʼsiri ostida barqaror rivojlanayotgani bilan ajralib turibdi. Bu jarayon istiqbolda mamlakat mehnat resurslarini ichki va tashqi omillarning oʻzgaruvchan shartlariga binoan prognoz qilish hamda ularning bugungi innovatsion holatiga moslashuvini taʼminlashga, yangi raqobatbardosh ustunliklarni joriy etish va takomillashtirishga yordam beradi.

Albatta, iqtisodiyotdagi innovatsion tendentsiyalar jahonda ham, ichki mehnat bozorida ham mavjud mehnat resurslarining raqobatbardoshlik jihatidan afzalliklarining asosiy manbai boʻlib qolmoqda.

Hozirgi strategik rivojlanish davrida mehnat resurslarining mobilligi mehnat bozorida alohida oʻrin tutmoqda. Mehnat resurslari mobilligi deganda, mehnat resurslarining bir mintaqaga yoki hududdan boshqasiga oʻtishi, bir mehnat faoliyati turini boshqasiga almashtirishga tayyorligi darajasini tushunamiz. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mehnat resurslarining mobilligi turlari hududlar, kasb-malaka hamda davomiyligi boʻyicha tasniflanadi (5.5-chizma).




5.5-chizma. Ish kuchi mobilligining turlari.

Shuningdek, bu mobillik mehnat bozorida asosiy rol o'ynovchi omillar sirasiga kiradi. Har qanday bozorning bosh maqsadi almashinuv bo'lgani uchun jamiyat mehnat resurslarining ish beruvchilar o'rtasida maksimal darajada mobil bo'lishidan manfaatdordir. Chunki aynan mana shu tarzda ish beruvchi ham, mehnat resursi ham ayirboshlashdan maksimum darajada naf ko'radi. Mehnat resurslarining past ish haqi to'laydigan korxona, tashkilot va firmalardan yuqori ish haqi to'laydigan korxona, tashkilot va firmalarga mobilligi – muvozanat narxidan kam ish haqi to'layotgan korxona, tashkilot va firmalarning ish haqini oshirishga majbur qiladigan asosiy omildir.

Shu bilan birga, mobillik qo'shimcha xarajatlar va ortiqcha tashvishlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, mehnat resurslari boshqa ishlar haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun vaqt sarflashlari kerak. Boz ustiga, aksariyat hollarda ular yangi ishga ariza topshirishlaridan oldin eski ishlaridan bo'shashlari lozim bo'ladi. Eski ish joyini tark etish esa undagi hamkasblar, do'stlar va o'ziga xos muhit bilan xayrlashishni, qolaversa, kelajakda olinishi mumkin bo'lgan kafolat va bonuslardan voz kechishni anglatadi.

Hozir o'lkamizda bandlikni oshirish uchun yangi ish o'rinlarini asosan ijtimoiy jabha va bozor infratuzilmasida yaratish maqsadga muvofiqdir. Negaki, bu soha barcha iqtisodiy tarmoqlarga bog'liq. Binobarin, uning rivojlanishi boshqa tarmoqlar ravnaqi uchun lokomotiv vazifasini o'taydi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tarkibida ish bilan band bo'lganlarning o'ziga xos o'rni bor (*5.6-chizma*). Iqtisodiy faol aholi, o'z navbatida, ish bilan band aholini va ishsizlarni qamrab oladi. Demak, ishsizlar soni kamayishi ish bilan band aholi ko'payishiga olib keladi



5.6-chizma. Mehnatga layoqatli aholi tarkibida ish bilan band aholining o`rni.

Tadqiqotlarning aniq ijtimoiy-iqtisodiy va sotsiologik maqsadlaridan kelib chiqib, mehnat bilan bandlikni ishchilarning malakaviy, kasbiy, milliy yoki boshqa tarkiblari bo'yicha tahlil qilish mumkin.

Bizningcha, hozir ish bilan band aholi tarkibini mulk shakli; demografik belgilar; tarmoqlar; kasblar guruhlari; malaka darajalari; hududlar; jinsiy tarkib bo'yicha tasniflash o`rinlidir.

Milliy iqtisodiyot rivojiga ish bilan bandlikning tarmoq tarkibi eng ko`p ta'sir ko`rsatadi. Uning shakllanishi muayyan mamlakat ravnaqida aniq bir tarmoqning o`rni va joylashuviga bog`liq bo`ladi. Yurtimiz hududlarining iqtisodiy tarmoqlar ixtisoslashuvi tabiiy-iqlim xususiyatlari, har bir hududda tarmoq ishlab chiqarishi tarkibining joylashuvi, ishchi kuchlarining sifati bilan farqlanadi. Shuningdek, xalqaro mehnat taqsimoti ham ish bilan bandlikning tarmoq tarkibiga u yoki bu darajada ta'sir o`tkazadi. Bu ta'sir milliy mehnat bozorining xalqaro mehnat bozoriga qanchalik faol integratsiyalashuvini ko`rsatadi.

Milliy iqtisodiyot va ish bilan bandlik tarkibining shakllanishi nuqtai nazaridan qaraganda, har qanday mamlakat uchun tabiiy-iqlim sharoitlaridagi hududiy farqlar ham muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Ular iqtisodiy o`sish darajasi

bilan bir qatorda, hududlarning iqtisodiy istiqbollarini belgilab beradi. Natijada hududlar doirasida ishlab chiqarish va agrar ixtisoslashuv qaror topadi.

Tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuv, aholining turmush darajasidagi va migratsion harakatchanligidagi farqlar ta'sirida mehnat bilan band bo'lganlar mamlakatning iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlanayotgan hududlarda ko'proq to'planadi. Ularning demografik belgilari jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, millati va hokazolar bilan tavsiflanadi. Bu belgilar inson umri davomida o'zgarib boradi. Shu bois ish bilan mashg'ul aholi tarkibi odamlarning yoshi, jinsiy tarkibi, oilaviy ahvoli kabi xususiyatlar orqali mujassamlashadi. Unga aholi sonining tabiiy o'sishi ham ta'sir qiladi. Bu o'sishning yuqori sur'atlari qulay demografik vaziyat sifatida baholanadi. Natijada mamlakat mehnat bozorida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolari paydo bo'ladi. Bu holat O'zbekiston uchun alohida o'rin tutadi.

Ish bilan bandlik tarkibi keng ma'noda mamlakatning iqtisodiy o'sishi darajasining obyektiv indikatori. Pirovardida milliy mehnat bozorining rivojlanish darajasi, ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasida salbiy jarayonlar mavjudligi haqida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ma'lumki, davlatning aholini ish bilan ta'minlash siyosati bandlikning to'liq darajasiga erishish maqsadini belgilaydi. Uning ro'yobga chiqishi esa iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar nechog'li samarali amalga oshishiga bog'liq. Shuni nazarda tutib, aytish joizki, ish bilan bandlik qayta tuzilishi ta'minlanishida davlatning o'rni beqiyos. Chunki u, birinchidan, mulk shakli o'zgarishining islohotchisi sanaladi, ikkinchidan, makro va mikroiqtisodiy siyosatni amalga oshirib, tarmoqlar rivojiga ta'sir o'tkazadi, uchinchidan, institutsional shart-sharoitlarni dastlab u yaratadi. Demak, aholining ish bilan bandligi qayta tuzilishini boshqarish davlat tomonidan ish bilan band aholi tarkibi samarali o'zgarishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi, aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha muntazam olib boriladigan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Endi yetakchi mamlakatlarda ish bilan bandlikning o'zgarib borayotgan kasbiy-malakaviy tarkibi shakllanishini tahlil qilaylik. Undan oldin uchta narsani

eslatish joiz. Birinchisi – tarixiy jarayonda «ishchi kuchi malakasi» iborasi «ishchi kuchi miqdori» tushunchasidan zarurroq bo`la boshladi. Ikkinchisi – hozir iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlik sohasida o`ziga xos kasbiy-malakaviy tarkib vujudga keldi. Uchinchisi – ishchi kuchining malakasi oshishi band bo`lgan ishchi kuchi miqdori qisqarishiga, demakki, tarkibiy o`zgarishlarga olib keladi.

Endilikda boshqaruvchi, mahoratli kasb egalari va texnik mutaxassisliklar deyarli barcha mamlakatlarda ommaviylashmoqda. XX asr oxiridan boshlab asosiy e`tibor ishlab chiqarishni «strategik» boshqarish (yangi texnologiyalarni avtomatlashtirish tizimi), tashkiliy strukturalarni qayta qurish, tadbirkorlik, inson resurslarini boshqarish va kooperativ shakllantirish muammolariga qaratildi. Shuningdek, u yoki bu kasblarning nufuzlilik va talabgorligini baholashda ham ma`lum mamlakatlararo xususiyatlar mavjud (5.3-jadval).

5.3-jadval. AQShda eng nufuzli va eng ko`p haq to`lanadigan kasblarning qiyosiy tahlili³⁹

Eng nufuzli kasblar	
1. O`t o`chiruvchilar (57 foiz)	7. Fermerlar (41 foiz)
2. Olimlar (56 foiz)	8. Ruhoniylar (40 foiz)
3. Shifokorlar (53 foiz)	9. Injenerlar (40 foiz)
4. Tibbiyot hamshiralari va o`qituvchilar (52 foiz)	10. Kongressmenlar (28 foiz)
5. Harbiylar va politsiyachilar (46 foiz)	11. Jurnalistlar (18 foiz)
6. Bankirlar (47 foiz)	12. Aktyorlar (15 foiz) Kamroq obro`ga ega kasblarga rielterlik, birja brokerligi va boshqalar kiradi (6 foiz)
Eng ko`p haq to`lanadigan kasblar	
1. Vrach-anesteziologlar (yiliga 193 ming dollar)	5. Bola tug`ilishi bilan bog`liq vrachlar (yiliga 195,3 ming dollar)
2. Xirurglar (yiliga 191,4 ming dollar)	6. Top-menejer (yiliga 151,4 ming dollar)
3. Ortodontologlar (yiliga 185,3 ming dollar)	7. Pilot (yiliga 148,6ming dollar)
4. Stomatologlar (yiliga 189,3 ming dollar)	Yigirmatalik sanoatdagi injener-menejerlar va advokatlar bilan tugaydi. 25-o`rinda yiliga 106,2 ming dollar haq oluvchi moliyaviy menejerlar turadi

Manba: Head Hunter ma`lumotlari asosida N.Zokirova tomonidan tuzilgan..

³⁹ Head Hunter ma`lumotlari asosida N.Zokirova tomonidan tuzilgan. Milliy iqtisodiyotda mehnat resurslari mobilligi. biznes-daily.uz . 30.11.2018 | Nomer: №11(131)-2018

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, AQShda ko`proq haq to`lanadigan kasblar u yoki bu holda inson salohiyatini shakllantirishga bog`liq. Head Hunter agentligi ma`lumotlariga ko`ra, xalqaro mehnat bozorida so`nggi o`n yilda muhandislar, kompyuter ta`minoti ishlab chiquvchilar, axborot texnologiyalari, nanotexnologiyalar, elektronika va biotexnologiyalar, xizmatlar, logistika, ekologiya, tibbiyot, kimyo sohasiga bog`liq mutaxassislar yuqori daromadga talabgor bo`ladilar. Demak, yangi kasb sohiblari ilmtalab sohalar keng rivojlanishi natijasida daromad darajasi yuqori bo`lishiga erishadilar. Buning uchun esa ta`lim sohasini tubdan qayta tashkillashtirish, yoshlar kasb-hunarli bo`lishlari uchun institutsional shart-sharoitlarni kengaytirish talab qilinadi.

Ishlab chiqarish tarkibini tubdan modernizatsiyalash orqali ish bilan band bo`lganlar uchun ta`lim tizimini rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlari quyidagilardan iborat bo`lishi zarur:

1. Bilim berishning ilg`or chet el tajribasidan foydalanishni rag`batlantirish asosida ta`lim sohasiga kiritilgan zamonaviy uslub va shakllarni qo`llab-quvvatlash, bunda davlat – universitetlar – ishlab chiqarish tuzilmalari hamkorligini kuchaytirish lozim.

2. Kadrlarni o`qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi nodavlat o`quv muassasalariga tanlov asosida davlat grantlari ajratish.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini keng joriy etish, kadrlarni mustaqil o`qitish imkoniyatlarini kengaytirish.

4. Akademik va ta`lim muassasalariga yuqori sifatli uslubiy materiallardan foydalanishda, o`qitishning yangi usullari va amaliyotlarini joriy etishda ko`maklashish.

Aholining ish bilan bandligining sifat jihatidan samaradorligini oshirish qator muammolarni hal etishni taqozo qiladi. Bizningcha, ular quyidagilardan iborat:

Malakali kadrlar taqchilligi.

Tarkibiy ishsizlik.

3. Iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur malakali kadrlar tarkibi hamda kasbga tayyorlash va yo`naltirish bo`yicha o`quv yurtlari o`rtasidagi nomuvofiqlik.

4. Ishsizlikning davomiyligi yuqori ekanligi. Bu ko'rsatkich ishsizlik muddatini o'rtacha 6-7 oygacha cho'zmoqda.

5. Kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajada ekanligi.

6. Ish izlovchi fuqarolar uchun bo'sh ish o'rinlariga tanlovlar o'tkazish haqida axborotlar olish qiyinligi, ish beruvchilarning bo'sh ish o'rinlari haqidagi axborotlarni sir tutishlari.

7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish doirasidagi muammolar.

Aytilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi choralarni qo'llash ayni muddao bo'ladi:

– qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ishlab chiqarish infratuzilmasini ustuvor darajada rivojlantirish. Bunda asosiy e'tibor melioratsiya, gidrotexnika, elektr energiyasi inshootlari va tarmoqlarini rivojlantirishga, yerlarni sug'orishga, eroziyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishga, ko'p yillik ko'chatlar ekishga, qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qurish va texnik qayta jihozlashga qaratilishi kerak. Muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari, vodoprovod, kanalizatsiya tizimi va inshootlari, gaz va elektr ta'minoti tarmoqlari, yo'llar, telekommunikatsiya tizimlari diqqat markazida bo'lishi shart;

– qishloqda bozor infratuzilmasini tashkil qilish va jadal yaratish jarayonlarini boshqarish, uni jahon iqtisodiyoti talablariga moslashtirish maqsadida viloyatning barcha shahar-tumanlarida bozor qayta o'zgartirishlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga, uni rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirishga mo'ljallangan tadbirkorlik departamentlari faoliyati takomillashtirilishi kerak.

– davlat migratsiya jarayonlarini qishloq foydasiga o'zgartirishi uchun demografik siyosat o'tkazilishi, oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish darkor. Bu boradagi ezgu sa'y-harakatlar qishloq xo'jaligidagi ish bilan bandlik hajmiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Aholining qishloqda o'rnatib qolishini rag'batlantirish, uni kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida ushbu hududlarda shaharga nisbatan (aholi jon boshi

hisobiga) turarjoylarni, ta'lim, madaniyat va sport, sog'liqni saqlash muassasalarini, gaz, suv va elektr ta'minoti, telefonlashtirish, aloqa, kommunal obyektlarni qurishda, radio-televidenie xizmatlaridan foydalanishda afzalliklar yaratishni nazarda tutish zarur.

Ilmiy-texnik va ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash, standartlar va mahsulotlar sifati sohasidagi tartibga solishlar yo'li bilan kichik biznes subyektlari va xususiy korxonalar ishlab chiqaradigan tovarlar raqobatbardoshligini oshiruvchi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, ularni texnik jihatdan jadal qayta jihozlashni rag'batlantirish, texnologik inkubatorlar, qayta ishlovchi va mahsulotning yangi turlarini tayyorlovchi korxonalarning namunaviy loyihalarini yaratish, amaliyotga keng joriy qilish va yangi texnologiyalar sharoitlarida yo'nalish bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yish, keyinchalik kichik biznes sohiblari va xususiy tadbirkorlarga sotish uchun tamoman yangi mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi litsenziyalarini sotib olishni amalga oshirish joiz.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

1. O'zbekiston geografik jihatdan Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 448,97 kv.km.ni tashkil etadi. Hozir respublikamiz aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 33 mln 375,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 120,3 ming kishiga yoki 0,4 foizga o'sdi.

Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston bo'yicha 1 kv kmga 74,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Andijon (1 kv kmga 713,2 kishi), Farg'ona (544,8 kishi), Namangan (370 kishi) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Navoiy viloyati (8,8 kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (11,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

2. Mehnat bozori – bozor iqtisodiyoti tizimining tarkibiy qismi bo'lib, unda boshqa bozorlar: xomashyo, materiallar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar bilan birga faoliyat ko'rsatadi.

Umuman, mehnat bozori deganda, bozor iqtisodiyotining umumiy kichik tizimi tushunilib, unda, bir tomondan – ish beruvchilar (ishlab chiqarish

vositalarining egalari), ikkinchi tomondan – yollanma ishchilar o`zaro aloqada bo`ladi. Bu o`zaro munosabatlar natijasida ishchi kuchi taklifi va unga talabning hajmi, tuzilmasi va nisbati shakllanadi.

Mehnat bozorining tarkibiy qismlariga mehnatga talab, mehnat taklifi, ishchi kuchi narxi, ishchi kuchi qiymati va raqobat kiradi.

3. Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tadbqiq etish, aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog`liq. Mehnat resurslari esa bugungi iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlarida muhim salmoqqa ega bo`lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini mikro, mezo va makro darajalarda ko`rish mumkin.

4. Xalqaro mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi nihoyatda murakkab jarayon bo`lib, unga turli mamlakatlardagi mehnat migrantlari ishtirok etadigan jahon mehnat bozorining alohida segmentlarining yuzaga kelishi asos yaratadi. Xalqaro mehnat bozori bu – zarur ishchi kuchini tanlab olish uchun unga bo`lgan talab va taklifni davlatlararo miqyosda tartibga solish jarayonlarida ishtirok etuvchi hamda mamlakat tashqarisidagi ishchi kuchini sotuvchilari va haridorlari doimiy ravishda faoliyat ko`rsatuvchi xalqaro darajadagi bozordir.

5. Hozirgi strategik rivojlanish davrida mehnat resurslarining mobilligi mehnat bozorida alohida o`rin tutmoqda. *Mehnat resurslari mobilligi* deganda, mehnat resurslarining bir mintaqaga yoki hududdan boshqasiga o`tishi, bir mehnat faoliyati turini boshqasiga almashtirishga tayyorligi darajasini tushunamiz. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mehnat resurslarining mobilligi turlari *hududlar, kasb-malaka hamda davomiyligi bo`yicha* tasniflanadi

6. Ma'lumki, davlatning aholini ish bilan ta'minlash siyosati bandlikning to`liq darajasiga erishish maqsadini belgilaydi. Uning ro'yobga chiqishi esa iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar nechog`li samarali amalga oshishiga bog`liq. Shuni nazarda tutib, aytish joizki, ish bilan bandlik qayta tuzilishi ta'minlanishida davlatning o`rni beqiyos. Chunki u, birinchidan, mulk shakli o`zgarishining islohotchisi sanaladi, ikkinchidan, makro va mikroiqtisodiy siyosatni amalga

oshirib, tarmoqlar rivojiga ta'sir o'tkazadi, uchinchidan, institutsional shart-sharoitlarni dastlab u yaratadi. Demak, aholining ish bilan bandligi qayta tuzilishini boshqarish davlat tomonidan ish bilan band aholi tarkibi samarali o'zgarishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi, aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha muntazam olib boriladigan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda aholining tabiiy o'sishi va aholi zichligini o'sib borish tendentsiyalariga baho bering?
 2. O'zbekistonda aholining yosh tarkibi bo'yicha hozirgi holatiga iqtisodiy baho bering?
 3. Aholining keksayish jarayoni mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o'zining qanday salbiy ta'sirlarini ko'rsatadi?
 4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining ijobiy taraflari nimalarda ko'rinadi?
 5. To'liq bandlikni ta'minlashga qaratilgan aktiv siyosat olib borishda rivojlangan mamlakatlarning mehnat bozoridagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tadbirlariga nimalar kiradi?
 6. Ish bilan bandlik sifatiga yondashuvlardagi ko'rsatkichlar tizimi nimalardan iborat?
 7. Ijtimoiy faol aholi kimlar?
 8. Norasmiy sektordagi bandlik deganda nimani tushunasiz?
 9. Mehnat resurslarini mikro, mezo va makro darajalarda ahamiyatini tushuntirib bering?
 10. «Mehnat resurslari» va «ishchi kuchi» tushunchalariga ta'rif bering?
 11. Mehnat resurslari balansi deganda nimani tushunasiz?
- Mehnat resurslaridan foydalanishga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
12. O'zbekistonda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning yo'llari nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

13. Mehnat migratsiyasi jarayonlari qanday kechishi va uning o`ziga xos xususiyatlari nimada?
14. Xalqaro mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishini tushuntirib bering?
15. Zamonaviy mehnat taqsimotining shakllanishidagi asosiy g`oyalar va ularning mohiyati nimalarda aks etadi?
16. Mehnat resurslari mobilligi deganda nimani tushunasiz va erishish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?

6-MAVZU. MINTAQADA SANOAT TARMOG`INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHATLARI

Reja:

6.1.Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida sanoatning o`rni

6.2.Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning ijtimoiy ixtisoslashuvi

6.3. Strategik ahamiyatga sanoat tarmoqlarini mintqa iqtisodiyotdagi roli. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning shart-sharoitlari.

Tayanch tushuncha va iboralar: Sanoat, sanoat tarmog`i, innovatsiyalar, mehnat unumdorligi, diversifikatsiya, ijtimoiy mehnat taqsimoti, kontsentratsiyalashtirish, mahalliyashtirish, sanoat koperatsiyasi, kombinatsiyalashtirish, mujassamlashtirish, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, tog`-kon sanoati, kimyo sanoati, **energetika**, modernizatsiya, neft-gaz sanoati, oziq-ovqat sanoati.

6.1.Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida sanoatning o`rni

Sanoat har qanday mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot va barqaror iqtisodiy o`sishni ta'minlashda hal qiluvchi o`rin egallaydi. Uning ahamiyati nafaqat qishloq xo`jaligi, transport, qurilish, savdo va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashida namoyon bo`ladi, balki u innovatsiya jarayonlarini jadallashtirish, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, shuningdek, fan, ishlab chiqarish hamda ta'lim integratsiyasini ta'minlashda ham muhim rol o`ynaydi. Shu sababli O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida ishlab chiqilgan 2017-2021-yillarda O`zbekistonni yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasida «yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo`shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o`tkazish orqali

sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish»⁴⁰ masalasiga alohida o`rin berilgan.

Sanoat – bu har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismi hisoblanadi. «Brokgauz va Efronning ensiklopedik lug`aviy manosidan» kelib chiqadigan bo`lsak »sanoat» tushunchasi kengroq ma`noda «insonning hunarmandchilikka yo`naltirilgan, moddiy buyumlarni yaratish, o`zgartirish yoki ko`chirishga qaratilgan xo`jalik faoliyati»ni, tor ma`noda esa «biron bir xom ashyoni iste`mol uchun yaroqli narsaga qayta ishlashni, aylantirishni» anglatadi.

Sanoatning jamiyat ishlab chiqarishda mustaqil soha sifatida paydo bo`lishi, tarixiy jihatdan qishloq xo`jaligidan hunarmandchilikni ajralib chiqish jarayoni bilan bog`liq. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sanoatning jadal o`shishiga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tubdan o`zgarishiga, oddiy kooperatsiyaning manufakturaga, keyin esa yirik mashina industriyasiga – fabrikalarga aylanishiga olib keldi.

Iqtisodiyot uchun rivojlangan sanoat tarmog`i katta ahamiyatga ega. Sanoat ishlab chiqarishining o`shish sur`atlari qanchalik ko`p bo`lsa, iqtisodiyotda o`shish shunchalik yuqori bo`ladi, mamlakat xilma xil va murakkab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qodir bo`lsa, uning farovonlik darajasi va mamlakat iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishi shunchalik yuqori bo`ladi. Agarda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmog`i innovatsiyalarning joriy etilishini, mehnat unumdorligi va diversifikatsiyalangan eksportni oshishini ta`minlab bersa, rivojlanayotgan mamlakatlarda - turmush darajasining oshishiga yo`l ochib berilishini ta`minlaydi.

Zamonaviy sanoat tarmog`i yuqori ixtisoslanganlik darajasi bilan ajralib turadi. Mehnatning ijtimoiy chuqur taqsimlanishi natijasida sanoatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ko`plab sohalari paydo bo`ladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat tarmog`i quyidagi turlarga bo`linadi:

- tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

⁴⁰ 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha harakatlar strategiyasi. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>

- qayta ishlash sanoati (ishlab chiqaradigan sanoat);
- elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;
- suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish.

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati ko`mir, lignit, neft, tabiiy gaz, metall rudalarini qazib olish va tog`-kon sanoatining boshqa turlari bilan shug`ullanadigan korxonalar faoliyatini o`z ichiga oladi.

Qayta ishlash sanoatiga oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, tamaki, to`qimachilik, rezina va plastmassa mahsulotlari, kiyim-kechak, charm va kimyoviy mahsulotlar, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori darmonlar, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari, yog`och va po`kak buyumlar, pohl va to`qish uchun materiallar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari, mebel, boshqa noruda mineral mahsulotlar, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o`rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish, qora va rangli metallar va ulardan buyumlar ishlab chiqarish bilan shug`ullanuvchi korxonalar kiritiladi.

Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari elektr energiya, bug`, gazsimon yoqilg`ini ishlab chiqarish, yetkazib berish, tarqatishni ta'minlaydi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish korxonalari suvni qayta ishlash (tozalash), suv bilan ta'minlash, oqova suvlarini tozalash, transportirovka qilish va tozalash, chiqindi tashlaydigan o`ralarni tozalash va ishlov berish, chiqindilarni yig`ish, tozalash va utilizatsiya qilish, rekultivatsiya qilish xizmatlarini ko`rsatish bilan shug`ullanadilar.

Dunyoda qayta ishlash sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim va ahamiyatga ega tarmoq sifatida qoraladi. Sanoatning kuchli qayta ishlash sektori mamlakatning texnologik qudratini ifodalaydi. Uning kamayishi yoki qisqarishi iqtisodiyotning pasayishi belgisi sifatida qoraladi. Bu esa, o`z

navbatida qayta ishlash sanoatining muhim tarmoq ekanligini va ahamiyatlilikini ifodalaydi.


Qayta ishlash sanoatining ustuvor yoʻnalish sifatida namoyon boʻlishi, Germaniyada XVI asr oʻrtalariga toʻgʻri keladi, yaʼni nemislarning iqtisodiy fikrlashi faol rivojlanib borishi bilan sodir boʻladi. Uning negizida, millatning intellektual rivojlanishi muhimligi toʻgʻrisida gapirgan F.L. Zekendorf taʼlimoti yotadi. Uning fikricha, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini faqatgina odamlarning intellektual rivojlantirish evaziga taʼminlash mumkin, shuning uchun hukumat nafaqat ularni boshqarishi lozim, balki intellektual salohiyatini rivojlantirishi zarur.

Shu bilan birga, 1581 yilda J. Xeyls inglizlarning XVI asrdagi iqtisodiy siyosatini tanqid qilib, «oʻz xom-ashyomizni begonalarga qayta ishlash uchun yuborib, undan tayyorlangan mahsulotni begonalardan qaytib sotib olishga yoʻl qoʻyish»ga katta aqil kerak emasligi toʻgʻrisida yozgan (E.S.Reynertning «Qanday boy davlatlar boy boʻlgan va kambagʻal mamlakatlar kambagʻalligicha qolmoqda»dan tekst parchasi, M., 2011 yil). Undan keyin ingliz iqtisodchisi J.Keri umuman mamlakatdan xom-ashyo tovarlarini eksport qilishga oʻlim jazosini joriy etilishini taklif qilgan.

A.Smitdan oldin ijod qilgan aksariyat iqtisodchilar mamlakatning iqtisodiy siyosati, xom-ashyo sanoatiga emas, birinchi navbatda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan boʻlishi zarurligini ishontirishga yoʻnaltirilgan. Ularning fikricha faqatgina qayta ishlash sanoatining rivojlanishi dolzarb muammolarning yyechimi hisoblanadi, misol uchun aholi bandligining oshishi, foyda va ish xaqining koʻpayishi, soliq solinadigan bazaning oshib ketishi va pul muomalasining yaxshilanishi kabi masalalarni koʻrsatish mumkin.

Bugungi kunda respublikada 49 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatayotgan boʻlib, ulardan togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 3,1 %, qayta ishlash sanoatida – 94,4 %, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda – 0,7 %, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda – 1,8% korxonalardir.


Shu bilan birga, 2017 yil yanvar-dekabr oylari holatiga sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibi boshqacharoq ko`rinishga ega, ya'ni tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`ining jami sanoat ishlab chiqarishdagi hisssasi – 12,7%, qayta ishlash sanoatining hisssasi – 78,1, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning hisssasi – 8,4 hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilishning hisssasi – 0,8%.



6.1-rasm. O`zbekiston Respublikasida 2017 yil uchun sanoatning seksiyalari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi va faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalari tarkibi

Yuqori ulushga ega sanoat tarmog`ining xalqaro taqqoslanishi. Taqqoslash uchun qayta ishlash sanoatining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi Frantsiyada – 85 %ni, Germaniya Federativ Respublikasida – 77, Italiyada – 76, Rossiya Federatsiyasida – 68, Qozog`iston Respublikasida – qariyb 40 va O`zbekiston Respublikasida 78,1 %ni tashkil etganligini ko`rsatib o`tish mumkin (6.1-rasm).

O`zbekiston Respublikasida yuqori va o`rta texnologik sanoat tarmoqlarining bugungi ahvoli va uning rivojlantirish istiqbollari. O`zbekiston sanoati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishga, ilmiy va texnik taraqqiyotga ko`ra hududiy jamoaviy mehnatni rivojlantirishga qaratilgan o`zgarishlarni ifodalovchi murakkab diversifikatsiyalashgan va ko`p tarmoqli tarkibga ega.



6.2-rasm. Ayrim dunyo mamlakatlarida qayta ishlash sanoatining jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %da

Sanoat tarmog'ida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va texnologik yangilash hamda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni keng joriy etish natijasida, elektr uskunalar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, avtotransport vositalari, kimyo mahsulotlari, mashina va uskunalar, farmatsevtika mahsulotlari va preparatlar ishlab chiqarish kabi yuqori va o'rta texnologik sanoat tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi ta'minlandi, va ularning ulushi jami sanoat ishlab chiqarish tarkibida 19,1 %ni tashkil etdi.

Shuni ta'kidlash joizki Prezidentimizning 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi qabul qilgan PF-5264-son farmonlari ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan mamlakat sanoatining jadal innovatsion rivojlanishiga qo'shimcha turtki bo'ladi.

6.2. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning ijtimoiy ixtisoslashuvi

Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ularni umumlashtirish va ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonlari sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sanoatni kontsentratsiyalashtirish va kombinatsiyalashtirish ijtimoiy mehnatni yirik

korxonalarda mujassamlashtirishni ifodalasa, ixtisoslashtirish hamda kooperativlashtirish esa sanoat tarmoqlari tarkibida mehnat taqsimoti va ularning hamkorligini ifodalaydi. Mehnat taqsimotining rivojlanish darajasi va uni umumlashtirish jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda munosabatlarning takomillashishida o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakllari mustaqillik tufayli va milliy iqtisodiyotni isloh etish, erkinlashtirish munosabati bilan o'z mohiyati va mazmunini, maqsad va vazifalarini anchagina o'zgartirdi. Ayniqsa ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish, kichik va o'rta korxonalarining paydo bo'lishi munosabati bilan ular o'rtasida uyg'unlashuv yuzaga keldi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllariga quyidagilar kiradi:

- Kontsentratsiyalashtirish;
- mahalliyashtirish;
- iqtisoslashtirish;
- diversifikatsiyalashtirish;
- kooperativlashtirish;
- kombinatsiyalashtirish;

Ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish— bu mahsulot tayyorlash, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishni eng yirik korxonalarda to'plash jarayonidir. Uning bir necha turlari mavjud. Ular agregat, texnologik, tashkiliy xo'jalik va korxonalarni yiriklashtirish shakllarida ifodalanadi.

Agregat shaklida ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish dastgohlarning quvvatini oshirishdir, ya'ni agregatlarning unumdorligini yuqori darajaga hamda ma'lum xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning umumiy quvvatida yuqori unumdor agregatlar salmog'ini ko'paytirishdir. Bu jarayon sanoatning yetakchi, ayniqsa, elektroenergetika, metallurgiya, kimyo, yoqilg'i va qurilish materiallari tarmoqlarida sezilarli.

Kontsentratsiyalashtirishga texnologik jihatdan o'xshash ishlab chiqarishlarning quvvatini oshirish orqali erishish mumkin. Masalan,

metallurgiyada - cho`yan, po`lat eritish, prokat ishlab chiqarish, to`qimachilikda — yigirish, to`qish, bo`yash, mashinasozlikda - quyuv, mexanik ishlov berish, yig`uv jarayonlarining mujassamlashishi.

Korxonalarni va ularning tarkibidagi tsex va uchastkalarni yiriklashtirish ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmini ko`paytiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi, mehnat unumdorligini oshiradi.

Yirik korxonalarining afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- ✓ yuqori unumli texnika va innavatsion texnologiyalarni qo`llash va ulardan foydalanish imkoniyatlarining ko`pligi;
- ✓ ishlab chiqarish fondlaridan oqilona va samarali foydalanish;
- ✓ xodimlar mehnat unumdorligining yuqoriligi;
- ✓ sanoatga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradigan eng yangi fantexnika yutuqlarini, o`zlashtirishga ta'sir ko`rsatadigan quvvatli konstruktorlik, texnologik va ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, byurolarini tashkil etish imkoniyatlar;
- ✓ mahsulot birligiga to`g`ri keladigan asosiy va yordamchi xizmat ko`rsatish harajatlarining pastligi va h.k.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag`batlantirish tadbirlari ahamiyatli o`rin tutadi. Mahalliyashtirish dasturi o`z mazmuniga ko`ra respublikamiz korxonalarida zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh va import o`rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, asossiz import hajmini qisqartirish, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish joylarini yaratish kabi maqsadlarni namoyon etadi.

O`zbekistonda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlariga 2000 yildan boshlab alohida e`tibor berila boshlangan bo`lib, maqsadli dasturlar asosida davlat tomonidan qo`llab-quvvatlanib kelinmoqda. Mahalliyashtirish faoliyati bilan shug`ullanayotgan real sektor vakillariga bir qator imtiyozlar, jumladan, bojxona va soliq imtiyozlari, banklar tomonidan maqsadli kreditlar ajratib kelinmoqda. Aslida esa, mamlakatimizda mahalliyashtirish jarayonlari 1996 yildan Koreya

Respublikasi bilan hamkorlikda tashkil qilingan «UzDaewoo» avtomobil ishlab chiqarish zavodini, O`zbekiston bozorida o`zining munosib o`rnini topgan «Korzinka.uz» supermarketlar tarmog`ini misol qilib keltirish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 dekabrda PQ-2698-sonli «2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi qism va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo`yicha istiqbolli loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qaroriga asosan mahalliyashtirish dasturi tasdiqlangan.

Ushbu dastur doirasida 2017-2019 yillar davomida 3,4 mlrd. dollarlik 1146ta mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish orqali talab yuqori bo`lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish rejalashtirilgan.

2017 yilda 960ta loyihani amalga oshirish hisobiga 6,5 trln. so`mga teng mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish belgilangan.

Shu bilan birga, 122 turdagi o`zlashtirishga taklif etilgan mahsulotlar ro`yxati aniqlangan.

Respublikada tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi doirasida 2000 yildan buyon qiymati 5,5 mlrd. AQSH dollaridan ortiqroq 2,8 mingdan ziyod mahalliyashtirish loyihalari amalga oshirildi, ilgari import bo`yicha keltirilgan 4,8 mingdan ziyodroq yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish o`zlashtirildi. Natijada keyingi besh yilda import hajmi 752 million dollarga, jumladan, 2016 yilda 286 million dollarga kamaydi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining umumiy hajmida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ulushi 20 foizdan ko`proqni tashkil etadi⁴¹.

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini oshirish iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishi, uning tashqi omillarga tobeligini kamaytirish, ishlab

⁴¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2019 yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2698 sonli Qarori. 2016 yil 26 dekabr. Manbaa Lex.uz.

chiqarish jarayonlariga yangi samarali texnologiyalarning tatbiq etilishini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2010-2016 yillarda ikki mingga yaqin mahalliyashtirish loyihasining amalga oshirilishi natijasida umumiy import o`rnini bosish samaradorligi 7 milliard 500 million dollardan ko`proqni tashkil etdi.

So`nggi uch yilda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga shaxta vagonetkalari, vakuum nasoslar, ko`tarma kranlar, har xil turdagi o`tg'a va kislotaga chidamli materiallar, qurilish jihozlari, sendvich panellar, sun'iy sintetik gazonlar, shisha bankalar, butilkalar, kraxmal, non mahsulotlari uchun achitqilar singari yuz turdan ortiq tovarlarning mamlakatimizga olib kirilishi butunlay to`xtatilgan.

Maishiy elektrotexnika mahsulotlari, avtomobillarning filtr va radiatorlari, po`lat quvurlar, keramik plitalar, tibbiyot ampulalari, poligrafik bo`yoqlar, bolalar o`yinchoqlari, sport anjomlari kabi 350 dan ortiq turdagi mahsulotni chetdan keltirish ikki baravardan ziyodga kamaygan.

Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tarmoq korxonalarining imkoniyatlarini batafsil o`rganish natijasida, 2017 yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va import o`rnini bosuvchi yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil qilishga yo`naltirish hisobiga 1,1 mlrd. dollardan ortiqroqqa yoki importni 23 foizga kamaytirish imkoniyati aniqlandi.

Mahalliy xomashyo va resurslardan yanada oqilona foydalanish va eksport salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida mahalliyashtirish dasturiga yangi loyihalarni kiritish bo`yicha yagona mezon va talablari belgilangan:

- dasturga kirish uchun talab etiladigan minimal mahalliyashtirish darajasi dasturga kirgan yildan boshlab birinchi yilga 36 foiz, ikkinchi yilga 45 foiz, uchinchi yilga 50 foizdan (mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog`i mahsulotlariga mos ravishda 36 foiz, 40 foiz, 50 foiz) kam bo`lmagan miqdorni ta'minlash;

- mahalliyashtirilgan mahsulotlar sof tushumidan eksport ulushini ikkinchi yili 20 foiz, uchinchi yili 30 foizga oshirish belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 10.04.2017 yildagi 197-son qarori bilan tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturiga tuzatishlar kiritildi.

Xususan, maishiy texnika, tibbiy asbob-uskunalar, qurilish materiallari va boshqalar ishlab chiqarish bo'yicha 12 ta loyiha kiritildi.

Bunda Dasturga yangitdan kiritilgan tashkilotlarga nisbatan quyidagilar bo'yicha imtiyozlar qo'llaniladi:

- bojxona to'lovlari bo'yicha – 2017 yil 17 apreldan;
- soliqlar bo'yicha – 2017 yil 1 maydan.

Biroq import o'rnini bosadigan mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilayotganiga qaramasdan, mamlakatimizda import hajmining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymoqda. Bu, davlatimiz iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan valyuta mablag'laridan samarasiz foydalanishga olib kelmoqda.

Bunday holat «O'zbekenergo», «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati», «O'zbekto'qimachilik», «O'zqurilishmateriallari» aktsiyadorlik jamiyatlari, «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi, «O'zpaxtasanoateksport» xolding kompaniyasi, «O'zdonmahsulot» aktsiyadorlik kompaniyasi, «O'zbekcharmpoyabzali» uyushmasi, «O'zfarm sanoat» davlat aktsiyadorlik kontserni korxonalarida kuzatilmoqda.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda uni ratsional tashkil etish, jumladan, ixtisoslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish (frants. — specialisation, lotincha specialis — ayrim, maxsus) — ijtimoiy mehnat taqsimotining shakli. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish xilma-xil mahsulotlarni, ularni ishlab chiqarishning turli bosqichlarini bir biridan ajralib chiqishi tufayli yangidan yangi ko'pgina ishlab chiqarish sohalarining vujudga kelish jarayonidir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida qishloq xo`jaligi, sanoat, qurilish va boshqa har xil ishlab chiqarishlar mustaqil soha bo`lib ajralib chiqqan. Bu sohalarning o`z ichida ham ajralib chiqish sodir bo`lishi natijasida biron alomatiga ko`ra bir-biriga yaqin korxonalarni birlashtiruvchi ixtisoslashgan tarmoq vujudga kelgan.

Alohida ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar bir xil yoki bir turli mahsulot ishlab chiqarishni yo`lga qo`yishga erishganlar hamda maxsus, o`ziga xos texnologiya jarayoni va ixtisoslashgan kadrlar bilan ajralib turgan va turishi mumkin.

Ishlab chiqarishning ixtisoslashtirishning eng birinchi va elementar shakli sanoatning boshlang`ich shakli bo`lmish hunarmandchilik bilan birga vujudga keldi. Mehnat taqsimoti asosida rivojlanayotgan tovar xo`jaligi natural xo`jaligi, ishlab chiqarishning universalizmini emirib tashladi.

Korxonalarining ixtisoslashuvi - ularda mukammalroq texnika va texnologiya, mehnatni tashkil etishning ilg`or usullarini qo`llashni engillashtiruvchi turdosh mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirish jarayonidir.

Ixtisoslashtirish jarayonining taraqqiyoti ijtimoiy ishlab chiqarishning o`sishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Ixtisoslashtirish o`z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiiga yordam beradi. Ishlab chiqarish vositalari va ish kuchining juda keng miqyosda birlashtirilishi hozir iqtisodiy zaruriyat bo`lib qoldi.

Hozirgi zamon texnika taraqqiyotining muhim omillari — elektronizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish, yangi materiallarni yaratish va joriy etish, ilg`or texnologiyalarni, jumladan, biotexnologiyalarni vujudga keltirish ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bilan bevosita bog`liqdir.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish sanoat korxonalarining ishini eng ratsional, oqilona tashkil etish hisoblanib, binolardan, jihoz va asbob-ukunalardan, materiallardan bekami-ko`st foydalanishda, fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlarini joriy etishda, takomillashgan maxsus mashina va asboblarni qo`llashda, mehnat unumdorligini oshirishda, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish harajatlarini tejashda katta samara keltiradi.

Korxona bo`limlarining ixtisoslashuvi - ayrim tsexlar, uchastkalar, ish joylarining ayrim mahsulotlar ishlab chiqarishga va jarayonlarni bajarishga ixtisoslashuvida ifodalanadi.

Sanoatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish jarayonining quyidagi shakllari keng tus olgan:

-birinchi, eng oddiy va keng tarqalgan shakli buyumlar buyicha ixtisoslashtirish. Uning bunday shakli korxonalarni texnologik jihatdan bir-biriga o`xshash bo`lgan va cheklangan miqdordagi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga moslashtirishdan iborat;

-ikkinchi, detalli ixtisoslashtirish, ya'ni buyum yoki mahsulotning bir qismini, uzul detalini (masalan, motor, reduktor, karbyurator, porshen, gilza, kuzov, bunker va x.k.larni) ishlab chiqarish;

-uchinchi, texnologik ixtisoslashtirish. Bu ixtisoslashtirishning eng oliy shakli bo`lib, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasining ma'lum operatsiyalarini bajarishni o`zida mujassamlashtiradi. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot turlarining kengayishi ixtisoslashishning doimo rivojlanishi va mukammallashuvining zarurligini ifodalaydi. Masalan, mashinasozlikda buyumlar buyicha ixtisoslashish - ma'lum ishlab chiqarish tarmoqlari yoki ish turlari uchun mashinalar ishlab chiqarishning mujassamlashuvi yo`nalishida rivojlanmoqda. Bunday ixtisoslashish konstruktorlarga ayrim tarmoqlarda mashinalarning ishlash sharoitlarini chuqurroq o`rganish hamda mukammalroq texnika yaratish imkonini kengaytiradi. Bir korxona miqiyosida tugallangan holatda mahsulot ishlab chiqarishning tashkil etilishi unga doimo xizmat qilib, zarur qismlarni yetkazib beruvchi ixtisoslashgan korxonalar tashkil etilishinn taqazo etadi.

Qismlar yoki mahsulot bo`laklarini ishlab chiqarish bo`yicha korxona va tarmoqlarga sharikopodshipniklar, porshen ishlab chiqaruvchi zavodlar, karbyurator zavodi, reduktor, asbob-anjomlar, quyma, ehtiyot qismlar, televizor transformatorlari, televizorga futlyarlar, kondensatorlar, yuqori bosimli nasoslar, divan-krovatlar uchun oyoqlar va boshqalarni ishlab chiqarish misol bo`la oladi.

Masalan, sharikodshipniklar, porshenlar, reduktorlar, motorlar va boshqalar tayyorlaydigan turli jarayonlarga tashkiliy jihatdan bo`linishi mumkin.

Diversifikatsiyalash - lotincha diversification so`zidan olingan bo`lib «o`zgarish, xilma-xillik» ma'nosini bildiradi.

Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish tufayli tarmoqlar va korxonalarning faoliyat sohalari o`zgaradi va tayyorlanadigan mahsulotlar turi ko`payib boradi.

Ilgari to`la ixtisoslashgan korxonalarning boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko`rsatish sohalariga kirib borishi, ularning faoliyat sohalarining kengayishini bildiradi.

Diversifikatsiya natijasida turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko`rsatish hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan band bo`lgan kompaniyalar, birlashma va jamiyatlar, ammo hamisha ham texnologik jihatdan bog`lanmagan keng tarmoqli komplekslar vujudga keladi.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab asta-sekin tovar ishlab chiqarishda tor ixtisoslikdan voz kechish, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini (nomenklatura va assortimentini) ko`paytirish, ko`rinishini o`zgartirish, yangidan yangi mahsulotlari ishlab chiqarishni o`zlashtirish ya'ni ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish jarayonlarini amalga oshirish yo`lga qo`yildi.

Keyingi yillarda esa past rentabelli va zarar ko`rib ishlaydigan korxonalarni diversifikatsiya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Natijada ular oyoqqa turib mahalliy xomashyodan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar va hozirgi paytda nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham yetakchi o`rinlarni egallamoqdalar.

Masalan, diversifikatsiyalashning eng yuqori darajasi Navoiy viloyatiga xosdir. Bu hudud nafaqat oltin, kumush, marmar, fosforit, kvarts, feruza va ohaktosh kabi mahsulotlarni, balki yassigulli, qalamdulli, qovurg`a gulli kumush sur terisi kabi qorako`l terilari bilan ham ma'lum va mashxurdir. Ulardan tikilgan ayollar va erkaklar liboslari, turli dizayndagi to`n, nimcha va bosh kiyimlari ichki

bozorda ham, tashqi bozorda ham raqobatdosh va bozori chaqqon tovarlar hisoblanadi.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o`ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratadi.

Kooperativlashtirish. Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni kooperativlashtirish asosida amalga oshadi.

Kooperativlashtirish- bu ma'lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo'yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biri.

Kooperativlashtirishda mahsulot yetkazib berish tartibi ishlab chiqarish jarayonida buyurtmachining ma'lum ishlab chiqarish-texnikaviy topshiriqni bajarishini hisobga olishini talab etadi. Kooperativlashtirish xomashyo, yoqilgi va standartlashtirilgan yarimfabrikatlar hamda buyurtmalarni yetkazib berish bosqichlarini qamragan holda moddiy-texnika ta'minotidan farqlanadi.

Kooperativlashtirish murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni o`zlashtirishni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog`liq bo`lgan muhim vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratib beradi.

Sanoatning rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishni kooperativlashtirishning bir qancha samarali shakllari vujudga keldi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: - buyumli (agregatli) kooperativlashtirish; - texnologik kooperativlashtirish; - tarmoqlararo kooperativlashtirish;

- iqtisodiy rayonlararo kooperativlashtirish. Buyumli (agregatli) kooperativlashtirish - bu mashina va asbobuskunalar ishlab chiqaruvchi bosh korxonaga turli butlovchi buyum va detallarni yetkazib beruvchi korxonalarning faoliyatidan iborat. Masalan, detallar bo'yicha kooperativlashtirish usulida ixtisoslashgan korxonalar bosh korxonaga sharikopodshipniklar, porshenlar, turli uzellar va asbob-uskunalarining qismlarini yetkazib berishlari mumkin.

Texnologik kooperativlashtirish — bu bir va bir necha korxonalar o`rtasida alohida jarayonlarni bajarish bo`yicha hamkorlikdir.

Ishlab chiqarishning qaysi tarmoqqa taalluqliligi nuqtai nazaridan tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish koooperatsiyasi vujudga keladi.

Tarmoqlararo kooperativlashtirish sanoat tarmoqdarining bir biriga xizmat ko`rsatishini ifodalaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining mashinasozlik tarmog`i metallurgiya sanoati bilan hamkorlik qilishi mumkin. Kooperatsiya asosida ma`lum mahsulotlarni tayyorlashi, bir biriga butlovchi buyumlar yetkazib berishi va muayyan ishlarni bajarib berish mumkin.

O`zaro bog`liq bo`lgan korxonalarni joylashtirish nuqtai nazaridan iqtisodiy rayonlar miqyosida va rayonlararo kooperativlashtirish keng tus olishi mumkin.

Rayonlararo kooperativlashtirish turli iqtisodiy hududlarda joylashgan korxonalar o`rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakliga baho berish uchun uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko`rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

birinchidan, ushbu korxona bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar soni. Bunda yetkazib beruvchi va buyurtmachi korxonalarning soni alohida-alohida hisob-kitob qilinadi. Masalan, avtomobil zavodlari yuzlab korxona (firma)lar bilan hamkorlik qilsalar, stanoksozlik korxonalarining ishlab chiqarish aloqalari atiga bir nechta korxonalar bilan chegaralangan bo`ladi.

ikkinchidan, kooperatsiya usulida olinayotgan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ushbu korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot tannarhidagi ulushi. Masalan, avtomobil tannarhida tashqaridan kooperativlashtirish yo`li bilan olinadigan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ulushi taxminan 60-65 foizni tashkil etadi.

Mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo`lgan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sanoatda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, xo`jalik yurituvchi subyektlar o`rtasida o`zaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Ichki bozordagi ehtiyojlar hajmlarining tahlili davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini amalga oshirish orqali sanoat kooperatsiyasini va talab yuqori bo'lgan tovarlarning alohida turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Xususan, ushbu yuqorida qayd etilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 maydagi «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishning uzoq muddatga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

Kombinatsiyalashtirish. Sanoatning har bir tarmog'ida katta korxonalar bo'laveradi. Lekin ikkinchi tomondan zamonaviy sanoatga kombinatsiya degan narsa xosdir.

Sanoatni kombinatsiyalashtirish turli sanoat tarmoqlarining bir korxonada qo'shilishidirki, bu tarmoqlar yo homashyoni ketma-ket ishlab beruvchi tarmoqlar (masalan, rudadan chuyan quyish va chuyanni pulatga aylantirish, sungra, ehtimol, pulatdan turli mahsulotlar ishlab chiqarish) yoki biri ikkinchisiga nisbatan yordamchi rol o'ynovchi tarmoqlar (masalan, chiqindilarni yoki qo'shimcha mahsulotni ishlash; qadoqlash buyumlari ishlab chiqarish va h.k.) bo'ladi.

Kombinat tarkibidagi bo'limlarning texnik-iqtisodiy birligi, ishlab chiqarish quvvati, mahsulot miqdori, turlari na sifati bo'yicha o'zaro mosligi ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqadorlikni ifoda etadi. Bo'linmalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqadorlik esa turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Kombinatning xomashyo, energetika va transport manbalari birligi, uning barcha ishlab chiqarish bo'linmalarining umumiy kommunikatsiya (suv, byg', gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash) tizimlari birlashganligini, umumiy transport xo'jaligidan foydalanishini, dastlabki xomashyolarni yoki ishlab chiqarish

chiqindilarini qayta ishlashini, bir-birlarini yarim fabrikat yoki chala mahsulot bilan ta'minlashini ko'rsatadi.

Kombinatsiyalashtiriladigan korxonalarning hududiy birligi yagona texnologik sistemani tashkil etuvchi birlashtiriladigan ishlab chiqarishlarning uzviy texnologik bog'liqligidan kelib chiqadi. Bu tizimda uzilish bo'lmasligi uchun, kombinatning barcha ishlab chiqarish bo'limlari bir maydonda joylashtiriladi. Bu kimyo-texnologik va termik ishlab chiqarish jarayonlari (kimyoviy, metallurgiya, neftkimyo, oziq-ovqat va h.k.) ustun bo'lgan kombinatsiyalashtirilgan korxonalar uchun ayniqsa muhimdir. Kombinatsiyalashtirishni rivojlantirishning asosiy sharti ishlab chiqarishni yiriklashtirishdir.

Kombinatsiyalashtirish natijasida xomashyodan, ishlab chiqarish chiqindilaridan to'liq foydalanish imkoniyati yaratiladiki, bu esa sanoatning xomashyo manbaini kengaytiradi.

Kombinatsiyalashtirish ishlab chiqarishda jarayonlarni uzluksiz olib borish, ularni qisqartirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish va natijada ish kuchini tejash, ishlab chiqarishning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday ishlab chiqarish sharoitida bir qator qurilish obyektlari uchun kapital harajatlar, mahsulot va xomashyoni uzoqqa tashish, umumzavod harajatlari qisqaradi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi, tannarhi kamayib, sifati esa ancha yaxshilanadi va iste'molchilar talabi to'laroq qondiriladi.

Kombinatlashtirishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

- xomashyoni tayyor mahsulot olguncha ketma-ket bosqichlarda qayta ishlash;
- ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishga asoslangan holda mahsulot tayyorlash;
- xomashyoni yoppasiga qayta ishlash.

Xomashyoni kompleks qayta ishlashga asoslangan kombinatlashtirish eng rivojlangan ishlab chiqarish bo'lib juda katta xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir. Chunki bu shaklda xomashyo, materiallar va chiqindilardan to'la-tukis foydalanish mumkin bo'ladi. Kombinatlantirishning bunday zarurligi xomashyo tarkibida turli

elementlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Masalan, Ohangaron rudalarining ko'p qismi kompleks, polimetallik tavsifga ega bo'lib, ulardan ba'zi bir elementlarning qiymati mis qiymatidan 9-10 barobar yuqoridir. Hozirgi zamon texnika va texnologiyasi yordamida u erda mis bilan birga oltingugurt, qalay, qo'rg'oshim, oltin, selen, telur va boshqa bir qator nodir metallar olinmoqda.

Alohida kombinatning rivojlanish darajasi o'sha kombinat qamrab olgan tarmoqlar va ishlab chiqarish pag'onalarining soni bilan tavsiflanadi. Shu sababli odatda to'la-to'kis va to'la bo'lmagan kombinatlarni farqlaydilar. Masalan, to'la-to'kis to'qimachilik kombinati barcha bosqichlar (yigirish, to'qish va pardoqlash)ni qamrab oladi. To'la bo'lmagan to'qimachilik kombinati esa o'z ichiga bir yoki ikki bosqichni oladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni kombinatlashtirish juda yuqori darajaga ko'tarilgan. U ayniqsa metallurgiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan. Respublikada bu tarmoqlarga taalluqli juda yirik, dunyo miqyosida tan olingan kombinatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular jumlasiga Navoiy Kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, O'zbekiston metallurgiya kombinati, Chirchiq elektr-kimyo kombinati, Toshkent yog'moy kombinati va boshqalarni kiritish mumkin.

6.3.Strategik ahamiyatga sanoat tarmoqlarini mintaqqa iqtisodiyotdagi ro'li va sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish

Tog'-kon sanoati. Mamlakatimizda tog'-kon va qayta ishlash korxonalari quvvatlarini oshirish maqsadida mineral-hom ashyobazasidan foydalanish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalari - «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» DK, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ va «O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJda strategik turdagi mahsulotlar, jumladan oltin, kumush, mis, rux va po'lat prokati kabi mahsulotlar, shuningdek 20 dan ortiq turdagi boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

So`nggi ikki yil davomida kon-metallurgiya tarmog`ining yirik korxonalarini jadal rivojlantirish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlar qabul qilindi. 2026 yilgacha «Navoiy KMK» DKda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 30 foizga, «Olmaliq KMK» AJga 2,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etish va 2023 yilgacha mis ishlab chiqarish hajmini 28 foizga, rux ishlab chiqarish hajmini 75 foizga oshirish ko`zda tutilgan.

Shu bilan birga, kon-metallurgiya tarmog`ining yirik korxonalaridagi mavjud boshqaruv tuzilmasi, foydali qazilmalar zaxiralarining hisobini yuritish va baholash uslublari, moliyaviy hisobotlarning eskirgan shakllari ishlab chiqarishning o`shishiga va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga to`sqinlik qilmoqda.

Kon-metallurgiya tarmog`ining yirik korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida investitsiyalarni jalb etishga qo`shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kon-metallurgiya tarmog`i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori qabul qilindi.

Kimyo sanoati O`zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib mineral o`g`itlar chiqaruvchi korxonalarni qurish orqali tashkil topgan.

Respublikaning zamonaviy kimyo sanoati tarixi Shorsuv oltin gugurt koni 1932 yilda ishga tushirilishi bilan boshlanadi.

1940 yilda kimyo sanoatining eng yirik korxonasi — Chirchiq elektr kimyo kombinati (bugungi kunda «Maksam-Chirchiq» AJ) mahsulot bera boshladi.

1962 yilda Farg`ona azotli o`g`itlar zavodi (bugungi kunda «Farg`onaazot» AJ) ishga tushirildi.

1964 iylda navoiy kimyo kombinati (bugungi kunda «Navoiyazot» AJ) mahsulot bera boshladi.

1969 yilda Olmaliq kimyo zavodi (bugungi kunda «Ammofos» AJ) ishga tushirildi.

Hozirgi vaqtda «Maksam-Chirchiq», «Navoiyazot» va «Farg`onaazot» aksiyadorlik jamiyatlar azotli o`g`itlar — ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati ishlab chiqaradilar. «Ammofos», «Samarqankimyo» va «Qo`qon superfosfat zavodi» ochiq aksiyadorlik jamiyatlar fosforli o`g`itlar — ammos, suprefos, oddiy ammoniyli superfosfat, ammoniy sulfofosfat va nitrokaltsiy fosfat — ishlab chiqaradilar. Ularni hom ashyobilan Qizilqum fosforit kombinati ta'minlaydi. «Elektroximzavod» QK-AJ o`simliklarni muhofaza qilish kimyo vositalarni ishlab chiqaradi.

Kompaniya korxonalarini ishlab chiqaradigan mahsulotlar turlaridan kelib chiqib quyidagi ishlab chiqarish majmualarga bo`lish mumkin:

mineral o`g`itlar, noorganik moddalar va energetika, oltinkon va kimyo sanoatlari uchun kimyo reagentlar ishlab chiqarish majmuasi;

organik kimyo, sun'iy tola va polimer materiallar ishlab chiqarish majmuasi; o`simliklarni muhofaza qilish kimyo vositalari ishlab chiqarish majmuasi;

kaltsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish majmuasi.

«O`zkimiyosanoat» AJ korxonalari 170-dan ortiq kimyo mahsulotlar turlari ishlab chiqariladi.:

Kimyo sohasi – zamonaviy sanoatning «katalizatori» bo`lib, har qanday ishlab chiqarish negizida kimyoviy jarayonlar yotadi, bu sohasiz iqtisodiyotda taraqqiyot bo`lmaydi.

Mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususan, birgina 2018 yil yakuni bilan «O`zkimiyosanoat» korxonalarida 4,17 trln. so`mlik tovar mahsulot ishlab chiqarildi. Sof holda 1170,77 ming tonna mineral o`g`itlar, shu jumladan 847,98 ming tonna azotli o`g`itlar, 140,38 ming tonna fosforli o`g`itlar va 182,41 ming tonna kaliyli o`g`itlar ishlab chiqarildi. Yil yakuni bilan birja savdolarida 884,66 ming tonna mineral o`g`itlar sotildi. Mahsulot eksportining prognozi 100%ga bajarildi. Ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish prognozi 107.6%ga yoki 260,8 mlrd. so`mga kamaytirildi. Investitsiya dasturiga

kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida «O`zkimyosanoat» AJ korxonalari tomonidan 466,9 mln.dollar hajmida investitsiyalar o`zlashtirildi. 1242 yangi ish o`rni yaratildi.

Mamlakatda kimyo sanoatida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda tizimli muammolar mavjud. Xususan, O`zbekiston zaminida Mendeleev jadvalidagi barcha kimyoviy elementlar mavjud, mamlakatimiz uglevodorodlarga boy bo`lsa-da, kimyo sanoatimiz asosan qishloq xo`jaligi uchun mineral o`g`it ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Qurilish materiallari, farmatsevtika, tekstil, mashinasozlik kabi tarmoqlar uchun zarur bo`lgan murakkab polimerlar, katalizatorlar, reagentlar va sintetik tolalar ishlab chiqarish yo`lga qo`yilmagan.

Buning oqibatida har yili 1,5 milliard dollarlik kimyo mahsulotlari import qilinmoqda. Ishlab chiqarilayotgan fosfor va kaliyli mineral o`g`itlar ham mavjud talabning faqat uchdan birini qoplaydi, xolos.

Murakkab mineral o`g`itlar ishlab chiqarish quvvatlari 60-70 foizga eskirgani energiya resurslarining ortiqcha sarflanishi, kimyo mahsulotlari tannarxining asossiz oshishiga olib kelmoqda.

2018 yildan boshlab, mineral o`g`itga talabni qondirish uchun 3,1 milliard dollarlik 17 ta investitsiya loyihasi amalga oshirila boshlandi. Bundan tashqari, kimyo sanoati mahsulotlarini diversifikatsiya qilish maqsadida 2025 yilgacha 4,2 milliard dollarlik yana 17 ta loyiha hayotga tatbiq etiladi.

Shuning uchun, kimyo tarmog`iga xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, mahsulot hajmi va turini ko`paytirish, sohaning eksport salohiyatini oshirish «O`zkimyosanoat» aktsiyadorlik jamiyatining muhim va ustuvor vazifasi bo`lishi zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda azotli o`g`itlarga talab 73 foiz, fosforli o`g`itlarga — 20 foiz ta`minlanmoqda. Azotli o`g`it ishlab chiqarish quvvatlarining o`rtacha eskirish darajasi 64 foizni, fosforli o`g`it bo`yicha — 77 foizni tashkil qiladi.

Sohadagi vaziyatni yaxshilash maqsadida kelasi 5 yilda umumiy qiymati 2,8 milliard dollar bo'lgan 9 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, buning natijasida mineral o'g'it va sulfat kislotasi ishlab chiqarish hajmi 2 barobar ko'payadi. Azotli va kaliyli o'g'itlarga talab to'la qoplanadi, fosforli o'g'itlarga talabni qondirish darajasi bir necha barobar oshirilishi belgilangan.

Kimyo sanoatini yanada rivojlantirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va tarmoq diversifikatsiya qilishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ayni paytda sohada tabiiy gazning bor-yo'g'i 14 foizi, jumladan, kimyo tarmog'ida 5 foizi chuqur qayta ishlanmoqda. Kremniy, kaolin va gips xomashyosidan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish e'tibordan chetda qolmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan noo'g'it mahsulotlar, asosan polietilen, polipropilen, polistirolga xorijiy davlatlarda 100 milliard dollardan ortiq hajmda ehtiyoj mavjud. Bu esa biz uchun yaxshi imkoniyat.

Shu sababli, kimyo sanoatida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish uchun organik moddalar ishlab chiqarish bo'yicha 15 ta va noorganik moddalar bo'yicha 8 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, sohaga innovatsiyalar umuman joriy qilinmagani, ilm-fan salohiyatidan samarali foydalanilmayotganidan dalolat beradi.

Energetika - energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o'zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanishni hamda shular bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o'z ichiga olgan xalq xo'jaligi, fan va texnika sohasi.

Insoniyat taraqqiyotida kishilarning turli energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojlari ularni tabiiy manbalar - o'tin, ko'mir, torf va boshqalar yoqilg'ilardan, shamol, suv oqimi energiyasi (masalan, shamol va suv tegirmonlari) dan

foydalanishga majbur qildi. Keyinchalik fan va texnika taraqqiyoti, fantexnika inqilobi tufayli XX-asrning 2-yarmidan boshlab asosan elektr energiyasiga ehtiyoj juda oshib ketdi.

Ana shu omillar energetikani jadal rivojlantirishni taqozo qildi. Fan va texnika taraqqiyoti energiya ishlab chiqarish va uni o'zgartirishning yangi usullarini ishlab chiqish, yangi samarali asbob-uskunalar va texnologiyalarni yaratish, energiyani taqsimlashni markazlashtirish va boshqalar orqali ifodalanadi.

Energetika fani tabiiy energiya resurslarining potensial energiyasini xalq xo'jaligida foydalanishga yaroqli va foydali energiya turlariga aylantirish hamda shu bilan bog'liq ilmiy-texnik muammolarni hal qilish masalalari bilan shug'ullanadi.

Energetikaning taraqqiyoti ko'p jihatdan mamlakat energiya resurslari bilan qanchalik ta'minlanganligiga chambarchas bog'liq. Ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, o'tin, slanets, suv, elektr va yadro energiyasi, shamol va quyosh energiyasi energetika resurslari hisoblanadi. Energetika resurslari yoqilg'i (ko'mir, neft, gaz, yadro, torf, slanets, o'tin) va yoqilg'i bo'lmagan vositalar (suv, shamol, quyosh energiyasi va boshqalar) ga bo'linadi.

Yoqilg'i bilan bog'liq energetika resurslari tiklanmaydigan, yoqilg'i bilan bog'liq bo'lmaganlari esa tiklanadigan resurslar hisoblanadi.

Jahon miqyosida turli yoqilg'i energetika resurslari miqdorini taqqoslash uchun shartli yoqilg'i birligi (1 kg yoqilg'i yonganda 7000 kkal issiqlik ajralishi) qabul qilingan. Jahondagi barcha yoqilg'i resurslarining (yadro energiyasidan tashqari) potensial zaxiralari 25000 mlrd. tonna shartli yoqilg'iga teng. Uning 95% i yoqilg'ining qattiq turlariga to'g'ri keladi.

Yadro energiyasining asosiy manbai bo'lgan uran va toriyning zaxiralari dunyo okeani suvlaridagi zaxiralar bilan birga 69000 mlrd. tonna shartli yoqilg'iga teng.

Eng ko'p ishlatiladigan energetikaning tabiiy resurslari (ko'mir, neft, gaz) jahon mamlakatlari bo'yicha notekis taqsimlangan.

Shu jihatdan O`zbekistonning energetika resurslarini hisobga olsak, mamlakat energetikasi xalq xo`jaligining baza sohasi hisoblanadi.

O`zbekiston energetika tizimi xalq xo`jaligi va aholining yoqilg`i (ko`mir, gaz, neft), elektr energiyasiga bo`lgan ehtiyojini to`liq qondiradi va eksport ham qilinadi. O`zbekistonda 20 issiqlik elektr stansiyalari, 27 gidroelektr stansiya (GES) ishlab turibdi.

Bularning umumiy o`rnatilgan quvvati 11,5 mln. kv*soat (yiliga 55 mlrd. kv*soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniga ega), transformatorlarning umumiy quvvati 44850 MVA, elektr tarmoqlarining umumiy uz. 232 ming km, shu jumladan, yuqori quvvatli (500 kV li)lari 1660 km ni tashkil qiladi.

Energetika xalq xo`jaligining muhim tarmog`i sifatida gidroenergetika va issiqlik energetikasiga ajraladi. Gidroenergetika - energetikaning suv resurslari energiyasidan foydalanishga doir bo`limi.

Suv resurslari energiyasidan foydalanish uchun suv oqimi maxsus qurilgan inshootlar va jihozlar majmui - gidroelektr stansiyalar (GES) yordamida elektr energiyasiga aylantiriladi. O`zbekiston Respublikasi «O`zbekenergo» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi tizimida 26 GES ni birlashtirgan 7 ta GES kaskadlari hamda Farhod GES bor. Eng yirik GES lar: Chorvoq GES (quvvati 620,5 MW), Xo`jakent GES (165 MW), Farhod GES (126 MW), G`azalkent GES (120 MW).

O`zbekiston energetika tizimidagi barcha GES larning umumiy belgilangan quvvati 1419 MV. Mamlakat gidroenergetikasining istiqboldagi taraqqiyoti, asosan, kichik suv havzalari gidroresurslaridan foydalanish bilan bog`liq.

Issiqlik energetikasi - energetikaning issiqlikni issiqlik dvigatellari va boshqalar yordamida boshqa energiya turlari (mexanik energiya, elektr energiyasi) ga aylantirib beruvchi issiqlik texnikasi bo`limi.

Issiqlik energetikasida asosiy issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxona issiqlik elektr stansiyalari (IES) hamda Davlat issiqlik elektr stansiyasi (DIES) hisoblanadi. Yirik DIES lar: Sirdaryo DIES (3000 MVt), Toshkent DIES (1850 MVt), Tolimarjon DIES (loyiha bo`yicha 3200 MVt).

O'zbekistonning issiqlik elektr stansiyalari respublikada ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 85% ini tashkil qiladi.

O'zbekistonning yoqilg'i balansida gaz va ko'mirning salmog'i katta, «Ko'mir» aktsiyadorlik jamiyati ham «O'zbekenergo» tarkibiga kiradi.

Energetika sohasining hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanishi. «O'zbekenergo» aktsiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasidagi elektr energiyasini asosiy ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi hamda respublika iqtisodiyoti va aholisini elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondiradi.

Bugungi rivojlanish bosqichida elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni qondirish, mavjud elektr stansiyalar va tarmoqlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, yuqori samarali energiya ishlab chiqarish texnologiyalari asosida yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish, elektr energiyasini hisobga olish tizimini takomillashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish hisobiga yonilg'i-energetika resurslarini diversifikatsiyalash elektr energetika sohasining asosiy maqsadi hisoblanadi. 2021 yilgacha energetikani rivojlantirishning barcha sohalariga tegishli 52 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Respublika elektr energetikasi xaqli ravishda O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari tarkibiga kiradi. U yirik ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyati bilan iqtisodiyotning rivojlanishi va xalq farovonligiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

«O'zbekenergo» AJ elektr energetika sohasidagi maxsus vakolatli organ bo'lib, respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va aholisini markazlashtirilgan holda elektr energiyasi bilan ta'minlaydi, shuningdek respublikaning bir qator shaharlaridagi sanoat va kommunal-maishiy iste'molchilariga issiqlik energiyasini yetkazib beradi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayonining, elektr energiyasini taqsimlash va iste'mol qilishning o'ziga xosligi jamiyat tarkibiga kiruvchi elektr stansiyalar,

magistral va taqsimlovchi elektr tarmoqlarini markazlashtirilgan holda boshqarishni saqlash zarurligini taqozo etadi.

2017 yilda elektr stansiyalarning o`rnatilgan quvvati jami 14,1 mln.kVt dan ortiq bo`lib, «O`zbekenergo» AJ tomonidan 13,6 mln.kVt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

2017 yilda respublika bo`yicha 58,9 mlrd.kVt-s elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo`lib, bundan 52,14 mlrd.kVt-s issiqlik elektr stansiyasi (IES) hissasiga to`g`ri keladi, shuningdek 7,3 mln.Gkal issiqlik energiyasi yetkazib berilgan.

Elektr energiyasini hosil qiluvchi korxonalardan umumiy uzunligi 8,8 mingdan ortiq bo`lgan 220-500 kV quvvatli magistral elektr tarmoqlari orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonalariga elektr energiyasini yetkazib berish ishlari «O`zelektrtarmoq» unitar korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

Elektr energiyasini respublika iste'molchilariga sotish har bir hududiy tuzilmada aksionerlik jamiyati sifatida faoliyat ko`rsatuvchi 14 ta hududiy taqsimlash-sotish korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonalar balansida umumiy uzunligi 226,2 ming kilometrdan ortiq elektr uzatish liniyalari va kuchlanishi 110 kV gacha bo`lgan kichik stansiyalar mavjud.

Umumiy uzunligi 196 ming kilometrdan ortiq 0,4-6-10 kV kuchlanishli elektr tarmoqlari eng keng tarqalgan bo`lib, ular orqali elektr energiyasining ko`p qismi respublika iste'molchilariga yetkazib beriladi.

«O`zbekenergo» AJ loyihalash, qurilish-montaj va sozlash ishlarini amalga oshiruvchi hamda elektr stansiyalari va tarmoqlarining asosiy va yordamchi uskunalarini ta'mirlash va ulardan foydalanish bilan shug`ullanuvchi yagona ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi.

«O`zbekenergo» AJ da rivojlangan ishlab chiqarish bazasi va yuqori malakali xodimlarning mavjudligi, energetika sohasidagi qurilish ishlarini yuqori darajada olib borish imkonini beradi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekenergo» AJ da 2018 yildan 2021 yilgacha bo`lgan davrda tarkibiy o`zgarishlar, ishlab chiqarishni

modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish» bo'yicha farmoniga muvofiq umumiy qiymati 11 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan 52 ta, shu jumladan issiqlik energetikasida 25 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Issiqlik energiyasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish bilan, energobloklarning foydali ish koeffitsiyenti 60 foizgacha yetadigan yuqori samarali bug'-gaz va gaz-turbina qurilmalari asosida zamonaviy energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, «O'zbekenergo» aktsiyadorlik jamiyatida, elektr energiyasini yetkazib berishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bilan respublikaning barcha hududida loyihani bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadigan elektr energiyasini hisoblash tizimini modernizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Noan'anaviy qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish sohasida, Samarqand, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida quvvati 100 MVt dan bo'lgan quyosh elektr stansiyalarini hamda Navoiy viloyatida quvvati 102 MVt ga teng shamol elektr stansiyasini qurish rejalashtirilgan.

Zamonaviy texnologiyalar va energiya tejovchi uskunalarni joriy etish bilan belgilangan dasturni amalga oshirish, elektr energiyasini yetkazib berish uchun maxsus yonilg'ining solishtirma sarfini 10 foizgacha qisqartirish bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, yoqilg'i energetika balansining diversifikatsiyasini qattiq yoqilg'ining ulushini 2016 yildagi 5,2 foizdan 2021 yilda 7,1 foizgacha ko'tarish bilan amalga oshirish va iste'molchilarning ortib borayotgan elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda jami 14 ming megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lib, uning 86 foizi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi.

Biroq, issiqlik elektr stansiyalari quvvatlarining 84 foizi qariyb yarim asr avval ishga tushirilgan bo'lib, ular ham 83 foizga ishlamoqda, xolos.

Rivojlangan davlatlarda 1 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 240-260 gramm yoqilg'i sarflansa, mamlakatimizdagi ayrim stansiyalarda 2 barobar ko'p yoqilg'i sarflanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishi natijasida elektr energiyasiga bo'lgan talab 2030 yilga borib 20 ming megavattga etadi.

Mamlakatimizda elektr energiyasi asosan tabiiy gazni yoqish evaziga ishlab chiqariladi. Gaz resurslari cheklangan bugungi sharoitda 2030-yilga borib uni yanada ko'proq sarflash – tiklanmaydigan tabiiy resurslarning juda katta miqdorini uvol qilish deganidir.

Mamlakatimizda 2030-yilga borib qo'shimcha talab etiladigan 12,5 ming megavatt quvvatlarni yaratish chorasini ko'rish, jumladan, bug'-gaz qurilmalari, atom elektr stansiyasi, gidroelektrstansiyalar barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy, Taxiatosh issiqlik elektr stansiyalaridagi energobloklarni yangilash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikni elektr energiyasi tizimiga ham joriy qilish orqali zarur bo'ladigan quvvatlarni qoplash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda sohaga xususiy sektorni jalb qilish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmining huquqiy, institutsional, texnologik asoslari ishlab chiqilishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oddiy misol, Turkiyada 60 foiz, Janubiy Koreyada 20 foiz elektr energiyasi xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi.

Hozirgi holatda sohada 30 yildan ko'proq vaqtdan buyon foydalanib kelinayotgan tarmoqlar ulushi 62 foizni tashkil etadi, taqsimlovchi tarmoqlarda liniyalarning 57 foizi va 39,6 mingta transformator manan eskirgan.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturga asosan joriy yilda 34 ming kilometrlik elektr uzatish tarmog'i va 7 ming transformator punktida, 2019-yilda 7 ming kilometr elektr uzatish tarmog'i va 2 ming transformator modernizatsiya qilinishi lozim.

Bugungi kunda sohaning energiya ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlar barpo etish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish asosiy vazifasi sifatida belgilangan.

«O`zbekenergo» AJning 1,4 mln. kVt quvvatga ega bo`lgan gidroelektr stansiyalari kaskadlarga bo`linib, suv oqimida ishlaydi.

2018 yilda gidroelektr stansiyalar tomonidan 5501,0 mln.kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

«O`zbekenergo»AJda bir qator investitsiya loyihalari doirasida ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Farhod GESni modernizatsiya qilish», «Quyi-Bozsuv GESlar kaskadini modernizatsiya qilish (GES-14)», «Qodiriya GESlar kaskadini modernizatsiya qilish (GES-3)», «Toshkent GESlar kaskadini modernizatsiya qilish (GES-9)», «Shahrixon GESlar kaskadini modernizatsiya qilish (GES JFK-2)» investitsiya loyihalaridir.

Modernizatsiya qilish jarayonida gidroagregatlarni turbina, generatorlari, elektrotexnik va gidromexanik uskunalarini almashtirish rejalashtirilgan. Buning natijasida uskunalarining mustahkamligi va foydalanish muddatini uzaytirish ko`zda tutilgan.

O`zbekistonda 430dan ortiq daryolar mavjud. Har yili O`zbekistonda ishlab chiqarilayotgan 60 milliard kVt/soat energiya ning 6,5 mlrd GESlar hisobidan amalga oshiriladi. Yaqin bir necha yil ichida Respublika energosanoatida GESlar ulushi 27,4 milliardov kVt/soatga yetkazish kutilmoqda.

Mamlakatda O`rta Osiyoda eng yirik gidro obyektlardan biri — Pskom GESini qurishni boshladi.

Toshkent viloyatining Bo`stonliq tumanida Pskom daryosida joylashgan yangi gidroelektrostantsiya, yirikligi bo`yicha O`zbekistonda Chorvoq GESidan keyin, ikkinchi o`rinda bo`ladi. Uning quvvati 400 MVtni tashkil qiladi, yillik energiya ishlab chiqarish hajmi — 900 mln kVtG`soatni tashkil qiladi.

Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o`rin egallaydi. Ushbu soha nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki ko`plab tarmoqlar uchun zarur

boʻlgan polimerlar, organik kimyoviy moddalar hamda azotli mineral oʻgʻitlar ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi.

Keyingi ikki yilda sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida gaz qazib chiqarish hajmi 10 foizga ortdi, aholiga tabiiy gaz 15 foiz va suyultirilgan gaz 1,6 barobar koʻp yetkazib berildi.

Shoʻrtan va Ustyurt gaz-kimyo majmualarida joriy yilning oʻzida gazga nisbatan qoʻshilgan qiymati 4 barobar koʻp boʻlgan qariyb 700 million dollarlik polietilen va polipropilen ishlab chiqariladi.

Neft-gaz sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2030 yilgacha geologiya-qidiruv ishlari olib borish, uglevodorodlarni qazib chiqarish va chuqur qayta ishlash boʻyicha umumiy qiymati 36,5 milliard dollarlik 30 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish belgilangan.

Neftni qayta ishlash. Oʻzbekistonda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi mavjud boʻlib, uchinchi neftni qayta ishlash zavodi Jizzax viloyatining Zafarobod tumanidagi «Chimqoʻrgʻon» qishlogʻi yaqinida barpo etiladi.

Jizzax Neftni qayta ishlash majmuasining qiymati 2 milliard 200 million AQSH dollariga baholanmoqda.

Bu erda bir yilda 5 million tonna neft xomashyosini qayta ishlash mumkin boʻladi.

Jizzax zavodiga neft «yaqinda barpo etiladigan neft quvuri orqali yetkazib kelinadi».

Majmuada aviatsiya kerosini, avtomobil yoqilgʻilari, benzol, mazut, bitum va boshqa neft mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Mazkur zavodlarning toʻla quvvat bilan ishlashi Oʻzbekistonning yoqilgʻiga boʻlgan ehtiyojini toʻla qondirish va eksportga mahsulot chiqarish uchun etarli hisoblanadi.

Oʻzbek-xitoy savdo uyi orqali Xitoydan uskuna, hom ashyova qurilish texnikasini izlash va yetkazib berish ishlari samarali yoʻlga qoʻyilgan.

Xususan mazkur savdo uyi chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantiriga keng yoʻl ochib bermoqda. Mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash sanoati hali yaxshi oʻzlashtirilmagan soha hisoblanadi.

Masalan, mamlakatimiz yoʻllarida harakatlanayotgan avtomobillar soni kundan-kunga koʻpayib, buning natijasida ishlatilgan shinalar miqdori ham ortib bormoqda. Shu oʻrinda ushbu shinalarni nima qilish kerak degan tabiiy savol paydo boʻladi? Xoʻsh, shinalarni qanday qilib qayta ishlash mumkin? Koʻpchilik odamlar shinalarni shunchaki chiqindiga tashlab yuboradilar, bu esa oʻz navbatida yirik chiqindi uyumlarini hosil qilib, ekologiyaga xavf tugʻdiradi.

Avtomobil shinalarini qayta ishlashga moʻljallangan mobil zavod yordamida nafaqat katta maydonlarni shinalardan boʻshatish, balki ulardan zaruriy hom ashyo (rezina uvoq, metall) olish mumkin. Shinalarni qayta ishlash yana shunisi bilan ahamiyatliki, hatto ancha eskirgan pokrishkadan ham yaxshi polimer hom ashyo sifatida foydalansa boʻladi.

Yoki, bugungi kunda oʻz egasiga daromad keltirishdan tashqari atrof-muhitga ham foydali boʻlgan startaplar yaxshi ommalashib bormoqda. Foydalanilgan moylarni qayta ishlash yoʻnalishini hech ikkilanmasdan aynan mana shunday faoliyat turiga kiritish mumkin. Ishlatilgan moylarni qayta ishlaydigan mini zavodni tashkil qilish uchun maxsus tajriba yoki bilim talab etilmaydi, shuning uchun Oʻzbekistonda har bir odam bunday zavod ochish imkoniyatiga ega. Yana bir ijobiy jihat: ayni paytda hukumat ham bunday turdagi tadbirkorlik faoliyatiga kam foizli kreditlar ajratish orqali ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlab kelmoqda.

Oziq-ovqat sanoati. Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini taʼminlashda oziq-ovqat sanoati muhim oʻrin tutadi. (6.1-jadval).

Bugungi kunda ushbu sohadagi oʻzgarishlar ijobiy boʻlib, uning rivojlanishiga mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va mulkka boʻlgan munosabatni tubdan oʻzgartirish jarayoni asos boʻlmoqda. Oxirgi yillarda nodavlat sektorga tegishli oziq-ovqat korxonalari soni davlat sektoridagiga nisbatan tez koʻpaymoqda. Bu tendentsiya saqlanib qoladi.

6.1-jadval. O`zbekistondagi oziq-ovqat korxonalarining mulk shakllari bo`yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)

Korxonalar	2003 yil	2007 yil	2011 yil	2014 yil	2016 yil	2017 yil
Jami	100	100	100	100	100	100
Davlat sektoriga taalluqli oziq-ovqat korxonalari	10,4	10,0	8,0	7,0	5,4	4,9
Nodavlat sektorga taalluqli oziq-ovqat korxonalari	89,6	90,0	92,0	93,0	94,6	95,1
Shu jumladan						
Fuqarolar xususiy mulki	42,3	32,5	28,1	20,8	20,1	20,5
Xo`jalik birlashmalari	0,4	0,4	0,5	0,4	0,3	0,3
Qo`shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari	1,7	1,2	1,0	0,9	0,7	0,6
Boshqa turdagi nodavlat mulk shakllari	45,2	55,9	62,4	70,9	73,5	73,7

Manba: O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari.

Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning keng tarmoqli sohasi bo`lib, uning tarkibida go`sht-sut, sut-yog`, yog`-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, meva-sabzavot konservalari, sharbatlar, turli ichimliklar, shakar, qandolatchilik mahsulotlari, non va boshqa noz-ne'matlar ishlab chiqaradigan korxonalar mujassamlashgan.

Mavzu bo`yicha qisqacha xulosalar

1. Sanoat har qanday mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot va barqaror iqtisodiy o`sishni ta'minlashda hal qiluvchi o`rin egallaydi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat tarmog`i quyidagi turlarga bo`linadi: - tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash; - qayta ishlash sanoati (ishlab chiqaradigan sanoat); - elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash; - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish.

2. Sanoatni kontsentratsiyalashtirish va kombinatsiyalashtirish ijtimoiy mehnatni yirik korxonalarda mujassamlashtirishni ifodalasa, ixtisoslashtirish hamda kooperativlashtirish esa sanoat tarmoqlari tarkibida mehnat taqsimoti va ularning hamkorligini ifodalaydi.

3. Tog`-kon sanoati. Mamlakatimizda tog`-kon va qayta ishlash korxonalari quvvatlarini oshirish maqsadida mineral-hom ashyo bazasidan foydalanish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, investitsiyalarni faol jalb etish bo`yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kon-metallurgiya tarmog`ining yirik korxonalari - «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» DK, «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ va «O`zbekiston metallurgiya kombinati» AJda strategik turdagi mahsulotlar, jumladan oltin, kumush, mis, rux va po`lat prokati kabi mahsulotlar, shuningdek 20 dan ortiq turdagi boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

4. Kimyo sanoati O`zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo`jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib mineral o`g`itlar chiqaruvchi korxonalarni qurish orqali tashkil topgan.

Mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususan, birgina 2018 yil yakuni bilan «O`zkimyosanoat» korxonalarida 4,17 trln. so`mlik tovar mahsulot ishlab chiqarildi. Sof holda 1170,77 ming tonna mineral o`g`itlar, shu jumladan 847,98 ming tonna azotli o`g`itlar, 140,38 ming tonna fosforli o`g`itlar va 182,41 ming tonna kaliyli o`g`itlar ishlab chiqarildi.

5. Energetika - energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o`zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanishni hamda shular bilan bog`liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o`z ichiga olgan xalq xo`jaligi, fan va texnika sohasi.

Insoniyat taraqqiyotida kishilarning turli energiya manbalariga bo`lgan ehtiyojlari ularni tabiiy manbalar - o`tin, ko`mir, torf va boshqalar yoqilg`ilardan, shamol, suv oqimi energiyasi (masalan, shamol va suv tegirmonlari) dan foydalanishga majbur qildi. Keyinchalik fan va texnika taraqqiyoti, fantexnika inqilobi tufayli XX-asrning 2-yarmidan boshlab asosan elektr energiyasiga ehtiyoj juda oshib ketdi.

6. Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o`rin egallaydi. Ushbu soha nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki ko`plab tarmoqlar uchun zarur bo`lgan polimerlar, organik kimyoviy moddalar hamda azotli mineral o`g`itlar

ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi. Keyingi ikki yilda sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida gaz qazib chiqarish hajmi 10 foizga ortdi, aholiga tabiiy gaz 15 foiz va suyultirilgan gaz 1,6 barobar ko`p yetkazib berildi.

Neftni qayta ishlash. O`zbekistonda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Farg`ona neftni qayta ishlash zavodi mavjud bo`lib, uchinchi neftni qayta ishlash zavodi Jizzax viloyatining Zafarobod tumanidagi «Chimqo`rg`on» qishlog`i yaqinida barpo etiladi.

7. Oziq-ovqat sanoati. Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati muhim o`rin tutadi. Oxirgi yillarda nodavlat sektorga tegishli oziq-ovqat korxonalari soni davlat sektoridagiga nisbatan tez ko`paymoqda. Bu tendentsiya saqlanib qoladi. Xususan, nodavlat sektorga taalluqli oziq-ovqat korxonalari hozirgi kunda 95,1 foizni tashkil etadi.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirishga iqtisodiy ta'rif bering?
2. Mintaqada yirik korxonalarning afzalliklarini nimada deb hisoblaysiz?
3. Mamlakatda mahalliyashtirish ahamiyatini iqtisodiy misollar tariqasida tushuntiring?
4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish ahamiyati nimada?
5. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida diversifikatsiyani mohiyati nimada?
6. Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni koooperativlashtirish asosida amalga oshadi deganda nimani tushunasiz?
7. Sanoatni kombinatsiyalashtirishi deganda nimani tushunasiz?
8. Mamlakatimizda tog`-kon va qayta ishlash korxonalari quvvatlarini oshirish maqsadida mmamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan nimalardan xabardorsiz?
9. O`zbekistonda mineral o`g`itlar chiqaruvchi korxonalarni faoliyati rivojlanishini bayon qiling?
10. Energetika sohasining hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanishi mamlakatimizda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?.

11. Noan'anaviy qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish sohasida mintaqada amalga oshiralyotgan islohotlar to'g'risida fikrlaringizni bayon qiling?

12. Neft-gaz sanoatini mintaqadagi ahamiyatini qanday baholaysiz?

7-MAVZU. MINTAQADA QISHLOQ XO`JALIGINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUVI

Reja:

7.1. Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi

7.2. Qishloq xo`jaligi tarmog`ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi

7.3. ASK tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish. Agrosanoat majmuasi siyosatdagi ustuvorliklar

7.4. Mintaqa qishloq xo`jaligini isloh qilish jarayoni

7.5. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari

Tayanch tushuncha va iboralar: qishloq xo`jaligi, eksport, tabiiy unumdorlik, iqtisodiy unumdorlik, transformatsiyasi, irrigatsiya, melioratsiya, ball bonitet, agrosanoat majmuasi, agrosanoat integratsiyasi, tuproq eroziyasi.

7.1. Qishloq joylarning tabiiy-iqlim sharoiti va reliefi

O`zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida juda qulay tabiiy-geografik sharoitga ega. Mamlakat hududi o`ziga xos pasttekislik va tog` reliefini o`z ichiga oladi. O`zbekiston hududining katta qismini pasttekisliklar tashkil etadi. Shulardan eng muhimi Turon pasttekisligidir. Mamlakat sharqi va shimoliy sharqida Tyan-Shan va Pomir tog` (mamlakatning eng yuqori nuqtasi (4643m.) tizmalari joylashgan. Dunyoning bepoyon cho`llaridan biri mamlakat hududi markazida - Qizilqum joylashgan.

Mamlaktimiz bo`yicha qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3 988,5 ming gektarni, ko`p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo`z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11 028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4 760,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda yurtimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo`llash, yer-suv resurslaridan

foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g`alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar etishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

Yer va suvning jamiyatdagi, ayniqsa, qishloq xo'jaligidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Aholi ulardan yashash uchun uy-joy, binolar qurish, iste'mol etish uchun turli hildagi mahsulotlarni etishtirish va boshqa maqsadlarda foydalanadilar. Shunday ekan yer va suvdaning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdagi ahamiyati juda ulkandir. Chunki tarmoqda ulardan foydalangan holda turli hildagi o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini, talabni qondiradigan darajada ishlab chiqarish mumkin. Shunday holni e'tiborga olgan holda ingliz iqtisodchi olimi Uiliyam Petti «yer boylikning onasidir» deb aytgan.

Respublika dehqonchiligi sug'orishga asoslangan. Shuning uchun suv ham yer kabi eng zarur vosita hisoblanadi. Qishloq xo'jaligidan olinayotgan mahsulotlar, masalan, paxta, sholi, tamaki, sabzavot, poliz, makkajo'xori, bug'doy, arpa, emxashaklarning aksariyat qismi sug'oriladigan erlarda yetishtiriladi.

Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95foizdan ortig'i sug'oriladigan maydonlarda etishtiriladi. Sanoatning qishloq xo'jalik xomashyolariga, aholining esa oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirilishida yer va suvning ahamiyati juda katta. Yerlardan, suvlardan qanchalik oqilona, samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi shunchalik ko'payadi, natijada yuqorida ta'kidlangan talablarning qondirilish darajasi ortadi.

Lekin yerdan asosiy vosita sifatida foydalanishda uning quyidagi xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

a) yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Ona zamin tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Chunki u tabiat mahsuli hisoblanadi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan, traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida xohlagancha ishlab chiqarish mumkin;

b) erning tabiat mahsuli ekanligi. Yer va suv tabiat mahsulidir. Shuning uchun uning kelajakdagi taqdiri tabiatga bog'liq. Boshqa asosiy vositalar, ya'ni binolar,

inshootlar, kombaynlar, traktorlar inson mehnatining mahsulidir. Zaruriyat tug'ilganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Yer va suvni esa inson ishlab chiqara olmaydi. Shuning uchun ular cheklangan resurslar deb ataladi;

v) yer - qishloq xo'jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Respublika hududida mavjud bo'lgan yerlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishda bizdan oldingi avlodlar foydalangan, hozirgi davrda biz foydalanmoqdamiz, kelajakda esa avlodlarimiz foydalanadi;

g) erni qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yurish imkoniyati cheklangan. Undan joylashgan makonida, ya'ni statsionar holatda oqilona foydalanish mumkin. Lekin mashina va traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin;

d) erning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi, unga ilmiy asoslangan holda ishlov berish natijasida uning unumdorligi oshib boradi. Darhaqiqat, tuproqqa vaqtida ishlov berilsa, o'g'itlansa, uning unumdorligi oshib borishi mumkin.

Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi oqibatida jismoniy jihatdan eskirib ishdan chiqadi. Ular vaqt o'tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Lekin yerga e'tibor berilsa, undan fan-texnika yutuqlarini joriy etgan holda oqilona, samarali foydalanilsa, unumdorligi oshib borishi mumkin. Ammo bu, uning unumdorligi cheklanmagan, degani emas. Shunday ekan, erning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida erning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligi katta ahamiyat kasb etadi. Hayotda tuproq unumdorligining quyidagi turlari mavjud: tabiiy, sun'iy va iqtisodiy unumdorlik.

Tuproqning tabiiy unumdorligi–tabiat mahsulidir. U tabiatning ta'siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yog'ingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta'siriga bog'liqdir. Ularning

ijobiy ta'sirida tuproq tabiiy unumdorligi yaxshi bo'ladi. Sun'iy va iqtisodiy unumdorlik esa inson mehnati natijasida shakllantirilib, oshirilishi mumkin. Jumladan, mehnat, mablag` sarflab, yerlarning irrigatsion, meliorativ holatini yaxshilab, sifatli urug` ekib, ularni o`g`itlash, yaxshi sifatli ishlov berish orqali tuproqning suniy va iqtisodiy unumdorligini yuksaltirilishi mumkin.

Qishloq xo`jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda bo`lmay, bir-birlaridan farq qiladi.

Masalan, Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlarining aksariyat hududlarida ekinlarni sug`orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya'ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta'sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Sirdaryo, Jizzah, Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa moddalar ko`p.

Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hol qishloq xo`jalik mahsulotlari etishtirish hajmiga, sifatiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini samarali amalga oshirish orqali zarur qishloq xo`jalik mahsulotlari hajmini, miqdorini ko`paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Respublika jami yer fondining asosiy qismini qishloq xo`jalik korxonalari, tashkilotlari foydalanmoqdalar. Masalan bu tarmoqda 1995-yilda 67foizga yaqini foydalangan bo`lsa 2018-yilga kelib 48.3foizi foydalangan. Ular bu yerlardan turli hildagi qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida foydalanadilar. Demak, qishloq xo`jaligining asosiy maqsadi aholi va chorva hayvonlari iste'mol qiladigan mahsulotlarni hamda qayta ishlovchi sanoat korxonalari uchun hom ashyo mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Qishloq xo`jaligining asosiy maqsaddidan kelib chiqqan holda yerdan quyidagi yo`nalishlarda foydalanilmoqda:

-urug` ekib va ko`chat o`tkazib hosil olinadigan yerlar. Ular ekinzor yerlar deb ataladi. Ularning maydoni hrtacha 4 mln. gektarni tashkil etgan.

-meva mahsulotlarini etishtirish maqsadida ko`chatlar o`tkaziladigan yerlar. Ular ko`p yillik darahtzor yerlar deb ataladi. Ularning maydoni 334.4ming gektar.

-chorva hayvonlari uchun mahsulotlar etishtiriladigan yerlar. Ularni pichanzorlar va yaylovzorlar deb atash mumkin. Ular 11973.3ming gektarni tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlangan yerlar qishloq xo`jalik yerlari deb ataladi. Qishloq xo`jaligida bulardan tashqari fuqorolarga meros qoldirish huquqi bilan berilgan yerlar mavjud. Ular oila tamorqa yerlari deb yuritiladi. Bulardan tashqari o`rmonzor yerlar ham mavjud. Bu yerlar suv bilan ta'minlaydigan sug`orish shahobchalarining mavjudligiga qarab sug`oriladigan hamda lalmi yerlardan tashkil topgan.

O`zbekistonda 2019 yil 1-yanvar holatida sug`oriladigan yer maydoni 4191,2 ming gektarni tashkil etgan. Bu jami yer maydonining 9.34 foiziga tengdir. Shu maydondan mamlakat qishloq xo`jalik mahsulotining 95 foizi olinmoqda. Bu sug`oriladigan erning ahamiyatini nihoyatda ulkanligidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham respublikada bu yerlardan to`liq va samarali foydalanishga doimo katta e'tibor beriladi.

7.2. Qishloq xo`jaligi tarmog`ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi

Mustaqillik yillarida islohatlar oqibatida, respublika iqtisodiyotining barcha sohalarini rivojlanishi qishloq xo`jaligida foydalanilyotgan yer maydonlarining o`zgarishiga ta'sir etmoqda.

Masalan 1995-yilda qishloq xo`jaligida jami foydalanilgan yer maydoni 29736 ming gektarni tashkil etgan bo`lsa, 2000-yilda 25736ming gektarni, 2005-yilda 22371.3ming gektarni, 2010 yilning 1-yanvariga esa 21453.2 ming gektarni, 2019 yilga kelib 20236,3 ming gektarni tashkil etgan (1-jadval). Shu yillarda tarmoqda foydalanilgan yerlar 27.9 foizga kamaygan. Lekin shu davrda tarmoqning sug`oriladigan yer maydoni atigi 2.5 ming gektarga qisqarib, 2019-yilning boshiga 3262,2 ming gektarni tashkil etdi. Demak so`ngi 20 yil mobaynida

hukumat tarmoqda sugʻoriladigan yerlarni kamaytirmaslik siyosatini amalga oshirgan. Bunday siyosatni respublika hukumatining mamlakat aholisini qishloq xoʻjalik mahsulotlari bilan toʻlaroq taminlash siyosati taqozo etgan (7.1-jadval).

Tarmoqdagi umumiy yer maydoni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga berilishi natijasida yuz began. Oʻtgan 15 yilda qishloq xoʻjaligidagi ekinzorlar maydoni atigi 19.5 ming gektarga, koʻp yillik daraxtzorlar maydoni 26.9 ming gektarga yaylovzorlar esa 7212.3 ming gektarga qisqargan. Yaylovzorlar maydonining qisqarishiga asosiy sabab ularni qoʻychilik (qorakoʻlchilik) va echkichilikka ixtisoslashgan shirkat xoʻjaliklariga ajratib berilganligidir.

7.1-jadval. Oʻzbekiston Respublikasining yer fondlari boʻyicha taqsimlanishi

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydoni		Shu jumladan sugʻoriladigan yerlar	
		jami	foiz hisobida	jami	foiz hisobida
1	Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar	20236,3	45,08	4191,2	9,34
2	Aholi punktlarining yerlari	221,4	0,49	51	0,11
3	Sanoat transport, aloqa, mudofa va boshqa maqsadlarga moʻljallangan yerlar	866,3	1,93	12,3	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar	710,4	1,58	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,5	0,03		
6	Oʻrmon fondi yerlari	11199,5	54,95	44,6	0,09
7	Suv fondi yerlari	836,9	1,87	4,7	0,01
8	Zaxira yerlar	10807,1	24,07	2,2	0,005
	jami yerlar	44892,4	100	4306,6	9,59

«Davergeodezkadastr» qoʻmitasi maʼlumotlari.

Qishloq xoʻjalik yerlarning tarkibiga iqtisodiy jihatdan eng nafli ekinzor, sugʻoriladigan yerlar hisoblanadi. Ular jami qishloq xoʻjalik yerlarning 2019 yilning 1-yanvariga 20.7 foizini tashkil etgan. Shundan 81.5% sugʻoriladigan ekinzordir. Shu davrda hukumatning fuqorolarga cheklangan miqdordagi yerlarni

berish siyosatining amalga oshirilishi natijasida fuqorolarning oila tamorqa xo`jaligidagi yerlari 17 foizga ko`payib, 2019-yilning boshiga 697,4 ming gektarni tashkil etgan, shundan 74 foizdan ko`prog`i sug`oriladigan yerlardan iboratdir. Boshqa yerlar ham ma'lum darajada o`zgarib borgan (7.2-jadval).

Fanda qishloq xo`jalik yerlarning bir turdan ikkinchi turga o`tishini yer transformatsiyasi deyiladi. Masalan, lalmi yerlar kompleks o`zlashtirilishi oqibatida sug`oriladigan ekinzorlarga aylanadi. Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashishi oqibatida, yomonlashib boshqa erlarga aylanadi. tarmoqda ijobiy transformatsiyasini amalga oshirishga e'tibor berish lozim.

7.2-jadval. O`zbekistonda jami foydalaniladigan yer maydonlarining salmog`i

T/R	Respublika shaxar va viloyatlarning nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlar		Ko`p yillik daraxtlar		Bo`z yerlar		Pichanzor va yaylovlar		Jami qishloq xo`jalik yerlari		Tomorqa yerlar		O`rmonzorlar		Bog`dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari		Butazorlar	Boshqa yerlar
		jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani	jami	shu jumladan sug`oriladigani		
1	Qoraqalpog`iston Respublikasi	16656,1	510,4	418,3	418,3	8	8	11,2	11,2	5277,8	36,7	5715,3	474,2	47,6	35,2	1075	0,9	0,1	0,1	105,2	9713
2	Andijon	430,3	273,1	202,1	202,1	30,1	30,1	2,8	0,6	21	0,9	256	233,7	48	35,2	3,9	3,9	0,3	0,3		122,1
3	Buxoro	4183,1	274,6	199,5	199,5	20,8	20,8	6,9	6,9	2530,4		2757,6	227,2	58,6	45,4	334,6	1,8	0,3	0,2	45,4	986,6
4	Jizzax	2117,9	299,2	483,2	258,8	20,5	16,9	8,2	0,7	750,5		1262,4	276,4	31,8	18	164,4	4,8	0,1			659,2
5	Qashqadaryo	2856,8	514,8	676,1	417,6	39,1	36,9	21,9	4,6	1407,1	0,1	2144,2	459,2	80	49,1	164,3	6,2	0,3	0,3		468
6	Navoiy	10948,1	123,5	111,5	91,7	10,3	9,6	6,8	6,7	8747,6		8876,2	108	20	13,5	1271	1,7	0,7	0,3		780,7
7	Namangan	718,1	282,9	190	190	45,1	45,1	2,5	2,5	151,1		388,7	237,6	50	40,8	23,3	4,4	0,1	0,1		256
8	Samarqand	1677,3	379,4	429,1	247	68,1	63,4	5,2		797,1		1299,5	310,4	86,5	62,6	13	6	0,7	0,4		277,6
9	Surhondaryo	2009,9	325,2	278,8	239,3	33,6	32,2	0,3		826,7		1339,4	271,5	63,2	50,4	233,4	3,3				573,9
10	Sirdaryo	427,6	286,8	249,4	249,4	7,2	7,2	10,3	10,3	20,3		287,2	266,9	19,2	15,2	4,6	4,6	0,1	0,1		116,5
11	Toshkent	1525,4	398,6	329	295,7	52,6	43,5	0,8	0,4	440	1,4	8224	341	62,3	51,5	83,5	2,5	3,6	3,6	2,1	551,5
12	Farg`ona	700,5	368,6	274,5	274,5	49,4	49,4			23,5	3,9	320,4	300,8	72	52,9	14,6	14	0,9	0,9		292,6
13	Xorazm	608,2	265,7	205,2	205,2	13,2	13,2	3,8	3,8	109,4		331,6	222,2	51,3	43,1	57,5	0,3	0,1	0,1		167,7
14	Toshkent. sh	33,13,8	0,1	0,1								0,1	0,1	6,9	3,7		0				26,1
	Jami:	44892,4	4306,6	4019,8	3262,2	398	376,3	80,7	47,7	21102,5	43	25601	3729,2	697,4	516,6	3443	54,4	7,3	6,4	152,7	14991,5

«Davergeodezkadastr» qo`mitasi ma'lumotlari.

Lekin so`nggi yillarda yangi sug`oriladigan maydonlar kam o`zlashtirilmoqda. Bunga suv va mablag` resurslarining etishmayotganligi asosiy sabab bo`lmoqda. Yer va suvga nisbatan davlat mulkchiligi saqlangan holda ulardan yil davomida to`liq va samarali foydalanish huquqi jismoniy hamda yuridik shaxslarga uzoq muddatga hamda umrbod berilmoqda. Ulardan to`liq va samarali foydalanganlik darajasini va samaradorligini ma`lum bir ko`rsatkichlar tizimi yordamida tahlil etish lozim.

Mintaqada amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida yer va suvdan foydalanish darajasi hamda samaradorligi oxirgi 20 yilda ma`lum darajada oshgan, lekin keyingi yillarida yerlardan, suvlardan foydalanishning samaradorligi talab darajasida emas. Sababi – yerlarning irrigatsiya-melioratsiya holati yomonlashayotganligi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekish to`liq joriy etilmayotganligi, sug`orish inshootlarining ishga yaroqlilik holati pasayishi, yer va suvlardan samarali foydalanganlik uchun rag`batlantirishning sustligidir (3-jadval).

2019 yil ma`lumotlariga ko`ra, sug`oriladigan tuproqlarning sifat bahosi quyidagilarni ko`rsatadi: yomon yerlar 503,2 ga, o`rtacha past yerlar 637339,0 ga, o`rtacha yerlar 1 976 359,5 ga, yaxshi yerlar 1 027 076,5 ga, eng yaxshi yerlar 74 110,3 ga. Viloyatlar kesimida o`rtacha ball boniteti Qoraqalpog`iston Respublikasida 41,3 ball eng past ko`rsatkich, 50-55 ball boniteti bilan Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlariga to`g`ri kelmoqda. Yaxshi va eng yaxshi yerlar asosan Andijon, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida mavjud (7.3-jadval)⁴².

⁴² “Davergeodezkadastr” qo`mitasi ma`lumotlari.

7.3-jadval. Sug`oriladigan tuproqlarining sifat ma'lumotlari

TG`R	Respublika va viloyatlar	YILLAR	Kadastr guruhlari										Jami, ga	O`rtacha bal
			yomon yerlar		o`rtachadan past		o`rtacha yerlar		yaxshi yerlar		eng yaxshi yerlar			
			Kadastr klasslari											
			I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X		
			Bonitet bali											
			0-10	noya.20	21-30	31-40	41-50	51-60	61-70	71-80	81-90	91-100		
1	Qoraqolpog`iston Resp.	1997-2013		181,3	25912.0	226274,4	143333.0	39504,2	12076,5	1396,2			448677,6	41,3
2	Andijon	2013			844.0	22345,5	51596,6	52837,3	62741,5	36573,3	5857.0	67,2	232862,4	57,5
3	Buxoro	2010-2011		262,7	15373,5	48790,9	53825,2	51310,8	46751,6	12714,2	81.0		229110,1	51
4	Jizzax	2018			124,9	14643,6	133190.0	91705,2	36708,4	9959,2	2060,4		288391,7	52,3
5	Qashqadaryo	2012-2013			354,1	40742,7	207262.0	111116,2	67181,2	26402,4	7059,5		460118,2	52,5
6	Namangan	2008-2011			4596,5	41141,3	48999.0	39358,6	46533,4	33581,1	19195,4	1729,5	235134,6	60
7	Navoiy	2007-2015		59,2	5319,8	20386,6	20618,7	25388,4	22621,9	10602,9	1437,1		106434,5	53,2
8	Samarqand	2018				4497.0	55936,4	105422,8	95816,3	39456,1	15529,9	187,1	316845,6	60,3
9	Surhondaryo	2013			3592,4	33964,5	75733,1	79766,8	53375,7	18772,5	5885,9		271091.0	56
10	Sirdaryo	2014			489,2	26515,9	105404,6	69828.0	58603,4	6541,8	8,8		267391,7	53
11	Toshkent	2014-2018			696,3	11745,8	54471,5	106080,8	116610,7	42094,3	9639,1	8,9	341347,4	59,9
12	Farg`ona	2008-2011			5557.0	44499,3	79437,3	58661,3	74163,1	29300,1	5267,9	48,8	296934,2	54
13	Xorazm	2012			2837,4	36094,5	45590,6	69981.0	57666,5	8832,4	46,8	0.0	221049,2	54
Jami:				503,2	65697,1	571642.0	1075398,1	900961,4	750850,1	276226,4	72068,8	2041,5	3715388,5	55

7.3. ASK tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish. Agrosanoat majmuasi siyosatdagi ustuvorliklar

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, ularni tayyorlash va qayta ishlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq ishlashini ta'minlashdan iborat.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mexanizmni yaratish, mahsulotlar sifatini oshirish, ishlab chiqarishning eng maqbul shakllarini vujudga keltirish, mahsulotlar tannarxini arzonlashtirishga intilish agrosanoat majmuasining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Bugun O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida asosiy vositalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning rivojlantirilishi tarkibga kiruvchi tarmoqlarning fond bilan ta'minlanishi va jihozlanishini yaxshilashga, natijada ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlari o'zgarib, oxir-oqibatda aholining turmush sharoitlari yuksalishiga olib keladi.

Agrosanoat kompleksi (ACM) - qishloq xo'jaligi xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlash hamda undan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning bir nechta tarmoqlarini yakuniy iste'molchiga yetkazib beradigan eng yirik tarmoqlararo kompleks. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash, qayta ishlash, uni iste'molchilarga yetkazib berish, qishloq xo'jaligini mashinalar, kimyoviy moddalar va o'g'itlar bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jaligi va sanoat sohalari qatoriga kiradi.

ASM faoliyatning 4 yo'nalishini o'z ichiga oladi:

- Qishloq xo'jaligi - agrotexnika kompleksi, uning tarkibida o'simlikchilik, chorvachilik, fermer xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va boshqalar kiradi.

- qishloq xo`jaligini ishlab chiqarish va moddiy resurslar bilan ta'minlaydigan tarmoqlar va xizmatlar: traktor va qishloq xo`jaligi texnikasi, mineral o`g`itlar ishlab chiqarish, kimyoviy moddalar va boshqalar.

- Qishloq xo`jaligi xomashyosini qayta ishlash bilan shug`ullanadigan sohalar: oziq-ovqat sanoati, engil sanoat uchun xom ashyolarni dastlabki qayta ishlash sanoati.

- Infrastruktura bloki - qishloq xo`jaligi xomashyosini xarid qilish, transport, saqlash, iste'mol tovarlari savdosi, qishloq xo`jaligi uchun treninglar, agrosanoat sohasida qurilish ishlari bilan shug`ullanadigan ishlab chiqarish.

Agrosanoat kompleksining eng muhim muammo energiya tejashni ta'minlashdan iborat.

Agrosanoat kompleksining filiallari bilan o`zaro munosabatlari:

- Biokimyo (o`g`itlarni ishlab chiqarish);
- kimyo sanoati;
- Qishloq xo`jaligi sanoati (chorvachilik, o`g`itlarni ishlab chiqarish);
- transport sohasi;
- Engil sanoat.

ASM tarkibida ikkita yirik majmua mavjud:

1) oziq-ovqat majmuasini tashkil etadigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;

2) qishloq xo`jaligi xomashyosidan sanoat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va sotish uchun.

Agrosanoat kompleksida paxta, zig`ir, meva-sabzavot, uzum va sharob, sut, go`sht va boshqa bir hil mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan sanoat majmuasi shakllantirildi.

Agroiqtisodiy kompleksning asosiy darajasini tashkil etuvchi mikro-darajadagi birlamchi darajadagi sheriklar, kooperativlar, agrosanoat birlashmalar, agrofirmalar, fermer xo`jaliklari, dehqon xo`jaliklari va hokazolar kiradi. Bo`limlar va diversifikatsiyalangan tuzilmalarga ega bo`lgan korxonalar birgalikda hududiy majmualarni tashkil qiladi.

Agrosanoat kompleksini rivojlantirish, uning tarmoq va hududiy tuzilmasini takomillashtirish ishlab chiqarishni yanada oqilona taqsimlash, resurslarni kompleks va samarali ishlatish, uning yakuniy natijalarini takomillashtirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Ishchilarning asosiy qismi, barqaror va aylanma kapital, YaIM. Bu agrosanoat kompleksining miqyosida, uning tuzilmasini takomillashtirish va uning ishlashi samaradorligi, aholi turmush darajasining oshishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash katta darajada bog`liqdir.


Agrosanoat ishlab chiqarishni barcha turdagi texnikalar bilan ta'minlash zarur miqdorda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini rejalashtirish hajmlarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o`ynaydi. Shu bois, qishloq xo`jaligi texnikasi bilan jihozlangan uskunalarning muammolari va ulardan foydalanish samaradorligi alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiy va tashkiliy sharoitlar, narxlarning nomutanosibligi, xususan, asosiy fondlar va texnik bazaning oddiy va ayniqsa kengaytirilishi bilan takomillashtirilgan jarayonni amalga oshirish mumkin emas edi.

Agroiqtisodiy majmui» tushunchasining sharhlari, bizning fikrimizcha, ASMni iqtisodiy tarmoqlarning funktsional o`zaro ta'siriga asoslangan iqtisodiy va huquqiy tizim sifatida davolash imkoniyatini yaratadigan «ishlab chiqarish majmui yoki majmuasi» sifatida muhim ahamiyatga ega. Agrosanoat kompleksini tushunishning iqtisodiy va huquqiy yondashuvi strategik ahamiyatga ega zonalarini belgilab beruvchi tizim-qiymat va klasterli yondashuv tamoyillariga asoslangan boshqarish mexanizmini yaratish imkonini beradi(7.1-rasm).

Yagona tashkilotning faoliyati yetkazib beruvchilar va iste'mol qiymatlari zanjirlarining qiymat zanjirlari bilan bog`liq holda ko`rib chiqiladi. X.Xorngren, J.Foster, S.Datar qiymat tizimi ta'minot zanjiri deb ataladi va dastlabki bog`dan (dastlabki ishlab chiqaruvchilardan) oxirgi (yakuniy iste'molchi)ga o`tadigan mol, xizmatlar va axborot oqimi sifatida tushuniladi. Eng umumiy shaklda agrosanoat

kompleksining qiymat tizimi uning shakllanishining iqtisodiy asoslari sifatida ifodalanishi mumkin.



7.1-rasm. Agrosanoat kompleksining tarkibiy qismi

Agrar siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u qishloq xo'jaligi va unga bog'liq xo'jalik sohaslarini qamrab oladi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini va aholini oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, agrar sektor ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Uni davlatning agrar iqtisodiyot doirasida harakatga keltiriladigan jarayonlar shakli va metodlari ko'rinishidagi faoliyati deb ham tushunish mumkin.

Agrar siyosatni agrar iqtisodiyot sohasida eng ta'sirchan shakl va usullar orqali yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning o'zaro ta'siri orqali amalga oshuvchi agrar sektorda xo'jalik-moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlatning faoliyati sifatida belgilash mumkin. Davlatning agrar siyosati qishloq xo'jaligi va hududlarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi deganda ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o`shishi, qishloq xo`jaligi samaradorligining oshishi, qishloq aholisi to`liq bandligiga erishish va turmush darajasining oshishi, yerlardan oqilona foydalanish tushuniladi.

Agrar siyosat o`zida qishloq aholisining moddiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy shartsharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini qamrab oladi. Agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliqlar va soliqqa tortish, ijtimoiy muhit, maqsadli va tarkibiy qayta shakllanish agrar siyosatning asosiy sohalaridir. Agrar siyosatning umumiy maqsadi muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy, tarmoq, ekologik maqsadlar bilan tavsiflanadi. Davlat rivojlanishi bosqichlari va tabiiy-tarixiy sharoitlarga bog`liq ravishda aniq maqsadlar o`zaro nisbati o`zgaradi (7.2-rasm).

Davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

qishloq xo`jaligi mahsulotlari va tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlash;



7.2-rasm. Agrar siyosatning maqsadi

qishloq hududlari barqaror rivojlanishini, qishloq aholisi bandligini ta'minlash, ularning turmush darajasini, shuningdek qishloq xo`jaligida band bo`lganlarning ish haqini oshirish;

qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qo`llaniluvchi tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish va asrab-avaylash;

qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari daromadliligi oshishini va shu bozorlar infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlovchi xomashyo, qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari samarali faoliyat yurituvchi bozorlarini shakllantirish;

qishloq xo`jaligi sohasida investitsiyalar hajmini oshirish va qulay investitsion muhitni yaratish;

Agrar siyosat negizida agrar qonunchilik va agrar tarkib shakllanadi. Agrar qonunchilik - qishloq xo`jaligida va qishloq aholisi hayoti bilan bog`liq holda amalga oshayotgan jarayonlarga ta'sir o`tkazuvchi huquqiy me'yorlardir. Yerga egalik munosabatlari, kredit va soliqqa tortish, mehnat munosabatlari, mulkiy munosabatlar, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'moli yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ta'minot va boshqalar agrar qonunchilikning muhim sohalariga kiradi: Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo`jaligi rivojlanishi, aholining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari hisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog`liq agrar sohaning iqtisodiy, texnik va ijtimoiy unsurlari yig`indisidir. U mutlaq va nisbiy ko`rsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning negizida agrar bozor yotadi. Agrar bozor agrar siyosatni ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi manfaatlariga mos amalga oshirilishiga yordam qiladi.


Agrar siyosatning asosiy vazifasi – agrar sohadagi jarayon va qarashlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki kishilarning shu sohadagi qarashlari, jarayonlari va qonunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

mamlakat aholisini iqtisodiy asoslangan baholardagi sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;

qishloq xo`jaligining umumiy daromad yaratish sohasidagi ishtirokini ta'minlash, agrar sektorni rivojlantirish;

agrar tashqi savdo siyosatini olib borish, qishloq xo`jaligi infratuzilmasini yaratish

atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilish (7.3-rasm).



7.3-rasm. Agrar siyosatning vazifalari.

Agrar siyosatning tamoyillarini ko`rib chiqib uning muhim oziq-ovqat, qishloq xo`jaligi, agrosanoat va tashqi savdo jihatlariga, shuningdek uni tavsiflovchi ko`rsatkichlariga e`tiborni qaratish lozim: Oziq-ovqat jihatida tamoyillar tahlilining muqaddimasi bo`lib, agrar siyosat maqsadi-oziqovqat xavfsizligining miqdoriy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlariga talabning fiziologik va to`lovga qodir chegaralarini aniqlaydi, shuning uchun iste`molning fiziologik me`yorlari, iste`molning mavjud tarkibi, mamlakatni shu jumladan ichki ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlanishi ko`rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Qishloq xo`jaligi jihatida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning haqiqiy holatini tavsiflaydi, oziq-ovqat mahsulotlarini olishda agrar salohiyatni aniqlaydi. U qishloq xo`jaligi samaradorligi ko`rsatkichlarini o`z ichiga oladi: (yer hosildorligi, mehnat unumdorligi, chorva mollari mahsuldorligi, ozuqa qoplanganligi, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnatga haq, qishloq xo`jaligiga dotatsiyalar, fond qaytimi va boshqa omillar). Agrosanoat jihatida, bir tomondan, qishloq xo`jaligi moddiy-texnika bazasi tahlilini amalga oshirish, ikkinchi tomondan marketing sohasi samaradorligini baholashga imkon beradi. Baholash uchun muhim ko`rsatkichlar-sarf-xarajtalarning yiriklashtirilgan tarkibi, turli maqsadlarda mahsulotni ishlatish. Tashqi savdo jihatida jahon va ichki qishloq xo`jaligi bozorlari o`zaro bog`liqligini aks ettiradi. U turli mahsulotlar bo`yicha importga qaramlik, qishloq xo`jaligi va tayyor mahsulotni chetga chiqarish va olib kirish balansi, qishloq xo`jaligini

erkinlashtirishdan kutilayotgan zararni baholash va boshqalar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki masala iqtisodiyotni tezroq barqarorlashtirish va shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, mamlakat aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish, mamlakatni oziq-ovqat bilan to'la ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini etarli xomashyoga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish, agrar resurslar salohiyatidan maqsadli foydalanishga erishish orqali davlatimizning iqtisodiy qudratini yanada o'stirish, mamlakat aholisini yashash farovonligini yaxshilash eng muhim masalalardan hisoblangan edi.

Agrar Agrosanoat integratsiyalashuv jarayonining hozirgi bosqichi avvalgi holatdan tubdan farq qiladi. Birinchidan, u iqtisodiyotni isloh qilish, uni bozor boshqaruv tamoyillariga o'tkazish bilan bog'liq.

Zamonaviy agrar iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Uning rivojlanish holati doimiy e'tiborga molikdir. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligining iqtisodiy inqirozga yuz tutganligining bir qator sabablari mavjud edi:

birinchidan, ko'p yillar davomida yerga nisbatan davlat mulki munosabatlari hukmronlik qilgani va kishilarda sotsializmga xos fikrlashning hukmronlik qilishi iqtisodiy islohotlarni amalga oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi;

ikkinchidan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga fan-texnika yutuqlarini qo'llash va uni amalga oshirishning qiyinlashib qolganligi;

uchinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida keragidan ortiqcha mehnat resurslarining yig'ilib qolganligi, ularni bo'shatish va boshqa ish bilan ta'minlash hukumat oldiga yana bir ulkan muammoni qo'yganligi;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligi texnikalarining eskiligi va tarmoqda mexanizatsiyalashtirish darajasining pasayib ketganligi, yangi texnika sotib olish va ishlab chiqarishga jalb qilish qimmatligi va ishlab chiqaruvchilarda buning uchun kerakli mablag'ning yo'qligi;

beshinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirish uchun kerakli miqdordagi ssuda va kreditlarning etishmasligi yoki ularni olishning haddan tashqari qiyinligi.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi bu kabi muammolarga imkon qadar tezroq barham berish va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishiga erishishdir. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakat agrar tarmog'ini rivojlantirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muhimlaridan biri mamlakat agrar siyosatining huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston agrar siyosatining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Yer Kodeksi; - Mehnat Kodeksi;
- Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun;
- Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonun;
- Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi qonun;

- Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, undagi ishlab chiqarish, moliya, soliq, kredit va boshqa munosabatlarni takomillashtirish borasidagi qonunlar, farmonlar, qarorlar, me'yoriy hujjatlar va boshqa qonunosti hujjatlari. Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan institutsional o'zgarishlar natijasida bozor institutlarini shakllantirishga erishildi. Biroq, rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha agrar sohada muhim institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish murakkab va davomli jarayondir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda, avvalambor, amaliy tajribaning etishmasligi natijasida qator muammolar, kamchiliklar hamda nomutanosibliklar mavjud bo'lib, ular bevosita chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni va nazariy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Shu bois institutsional muhitni faollashtirish, faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, uni modernizatsiya qilish mexanizmlarini tanlash va xavf-xatarning oldini olishning samarali vositasi zarur. Rasmiy qoidalar bir kechadayoq siyosiy qarorlar yordamida o'zgartirilishi mumkin bo'lgani holda, norasmiy me'yorlar juda sekin o'zgaradi. Norasmiy qoidalar asrlar

davomida qaror topgan urf-odatlar, hatti-harakatlar me'yorlari, milliy mentalitetdan tashkil topgan. Ular vaqti kelib ushbu jamiyat uchun majburiy bo'lgan rasmiy qoidalar darajasiga ko'tarilishi yoki ularni qaror topishiga ta'sir ko'rsatgan shart-sharoitlarning o'zgarishi natijasida yo'q bo'lib ketishi mumkin. Masalan, O'zbekiston qishloq xo'jaligida tarixan mayda oilaviy ishlab chiqarish keng tarqalgan va bu ko'nikma hosil etgan shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining dehqon xo'jaliklariga aylantirilishi. Qonun rasmiy qoidalar sifatida asta-sekin urf-odat va an'analardan vujudga keladi. Bunga teskari jarayon qonunlar urf-odat va an'analarga ta'sir ko'rsatgan chog'da yuz berishi mumkinki, buni ko'proq iqtisodiyot sohasida kuzatish mumkin. Ammo yangi qonunlarning bunday ta'siri jamiyatda ularga ehtiyoj etilgan bo'lishini yoki ularni ijtimoiy ongga singdirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan mafkuraviy ishlarning olib borilishini taqozo etadi.

7.4-jadval. Qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslari

Qishloqda agrar munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslari		
Bevosita talluqli qonunlar	Asosiy qonunlar	Bilvosita talluqli qonunlar
Yer kodeksi	O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida	Davlat tassarufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida
Yer to'g'risida		Ijara to'g'risida
Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida		Tadbirkorlik erkinliklari va kafolatlari to'g'risida
Fermer xo'jaligi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Yer solig'i to'g'risida
		Soliq kodeksi
		Fuqarolik kodeksi
Dehqon xo'jaligi to'g'risida		Aholini ish bilan ta'minlash va bandlik to'g'risida
Naslchilik to'g'risida		Banklar va bank faoliyati to'g'risida
Suv va suvdan foydalanish to'g'risida		Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida
	Mulkchilik to'g'risida	Bankrotlik to'g'risida
Sanatsiya to'g'risida		Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida

Agrosanoat integratsiyasi butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qiymat tizimidagi ishtirokchilarning iqtisodiy manfaatlarini birlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, agrosanoat kompleksini boshqarishni mexanizmini agrosanoat majmui shakllantirish va hududiy va tarmoq xususiyatlariga nisbatan «o'sish polosini» joylashtirish kabi tushunchalar asosida tashkil etishga imkon beradi.

Eng umumiy tavsifda qiymat zanjiri xarajat manbalarini va differentsiatsiya manbalarini tushunish uchun mo'ljallangan strategik ahamiyatga ega faoliyatlar orqali xom-ashyolardan final iste'molchilarga tasniflash usuli hisoblanadi. Zanjirning har bir bosqichi o'zining maqbul miqyosiga ega, shuning uchun turli tashkilotlarda, kompaniyalarda, firmalarda yoki yirik sanoat korporatsiyasining bo'linmalarida qo'shimcha qiymat mavjud.

Mamlakatning raqobatbardosh afzalliklaridan biri qishloq joylarining tabiiy, demografik, iqtisodiy, tarixiy va madaniy salohiyati bo'lib, ulardan oqilona va samarali foydalanish ko'p tarmoqli barqaror rivojlanishni, to'liq ish bilan ta'minlanishni, qishloq aholisining turmush darajasini va sifatini ta'minlaydi.

Qishloq joylarining strategik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish qishloq rivojlanishining kompleks yondashuvidan jamiyatning ijtimoiy-hududiy kichik tizimi sifatida foydalanishni talab qiladi, u ishlab chiqarish, demografik, ijtimoiy-madaniy, ekologik, rekreatsion kabi bir qator muhim milliy iqtisodiy funktsiyalarni amalga oshiradi. Qishloq joylarini barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri qishloq aholisi uchun mavjud bilim va ma'lumotlarning darajasini oshirishdan iborat.

Agrosanoat majmuasida muhim o'rinni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar egallaydi. O'zbekistonda etishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida yuqori darajada raqobatlasha oladi. Aynan agrar sektorda eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uni

qayta ishlaydigan sanoatni yetakchi o`ringa ko`tarish qishloq xo`jaligida barqaror iqtisodiy o`sishni ta'minlaydi.

Mamlakat raqobatbardoshligini oshirishni global tizimga integratsiyalashgan hamda optimal loyihalashtirilgan milliy logistik xizmatlar majmui taqdim etadi. Bunda ichki va tashqi logistika xizmatlarining qay darajada rivojlanganligi katta o`rin egallaydi. Aynan jahon bozoriga eksport qilinayotgan mahsulotlarni tashish jarayonida uning sifati o`zgarmasligi, tovar yetkazib berish umumiy zanjiridagi xarajatlarni monitoring qilib borish va bozordagi holatni nazorat qilish uchun agrosanoatda logistik funktsiyalariga birinchi navbatda e'tiborni qaratishi lozim.

Logistik tizimlarda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish logistik masalalarni hal etishning samarali axborot va instrumental-operatsion ta'minotini yaratish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga asos bo`ladi. Birinchi navbatda, bunday ta'minot logistikada qaror qabul qilishni qo`llab-quvvatlash tizimlari uchun ayniqsa zarurdir.

Meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish va ularni saqlashga qaratilgan hajmining oshishi, mazkur mahsulotlarni saqlash uchun maxsus sovutgichlarni qurish va saqlash texnologiyasini takomillashtirishga mustahkam zamin yaratdi. Xususan, 2016 yilda 93,1 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 204 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi hamda 12,7 ming tonna mahsulotni saqlaydigan 26 sovutish kamerasi modernizatsiya qilindi.

Qishloq xo`jaligi tarmog`ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o`rnini inobatga olgan holda mazkur tarmoqni modernizatsiyalash, bu jarayonda esa temir yo`l logistikasini yanada rivojlantirish, bu sohalardagi islohotlarni yanada izchil davom ettirish lozim.

Aynan logistika xizmatlarini ko`rsatish miqdori va sifati jihatdan dunyo tajribasida temir yo`l sohasi katta o`rinni egallamoqda. Yurtimizda ham temir yo`l logistika liniyasi bo`ylab zamonaviy agrosanoat korxonalari qurilmoqda, yangi ish o`rinlari tashkil etilmoqda.

Mintaqalar qishloq xo`jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida paxta maydonlari kamaytirilib, meva-sabzavotlar etishtirish ko`paymoqda. Bu esa o`z

navbatida ichki va tashqi bozorni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Bu jarayonni tizimli tashkillashtirish maqsadida mintaqalar va xalqaro magistrallarga chiqishni temir yo'l liniyalarini qurish orqali amalga oshirish lozim.

Mamlakat agrosanoat majmuasining xalqaro aloqalarini rivojlantirish, dunyo mamlakatlari va ilg'or texnologiyalardan foydalanish katta ijobiy ahamiyatga ega. Shuningdek, o'zimizda shakllangan tajriba va texnologiyalarni targ'ib qilish va dunyoga tarqatish zarurati ham mavjud.

7.4. Mintaqa qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayoni

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijrosiga muvofiq agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 fevraldagi «Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5330-son [Farmoniga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi negizida Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi.

Ushbu vazirlikni ikkiga ajratilishi qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi va suv iste'moli sohalarida haqiqiy holatni va rivojlanish istiqbollarini chuqur tahlil qilish asosida ularni strategik rejalashtirish siyosati bo'yicha ta'sirchan ishlarni yo'lga qo'yish, mazkur yo'nalishlar bo'yicha boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Fermerlari kengashi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda qishloq xo'jaligida 6 124,1 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi, 2 410,7 ming tonna kartoshka kavlab olindi, 8 661,4 ming tonna sabzavotlar, 1 607,2 ming tonna

oziqbop poliz, 2 090,0 ming tonna mevalar va rezavorlar, 1 313,6 ming tonna uzum yig`ib olindi.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo`jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo`lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 84,8 %i, sabzavotlarning 74,7 %i, polizning 56,2 %i, mevalar va rezavorlarning 61,3 %i, uzumning 53,7 %i ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo`jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 81,2 %i ular hissasiga to`g`ri keladi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo`jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,7 foizni tashkil etdi. 2018 yilning yanvarsentyabr oylarida barcha turdagi xo`jaliklar tomonidan tirik vaznda 1 788,8 ming tonna go`sht, 7 830,1 ming tonna sut, 5 368,2 million dona tuxum, 30,2 ming tonna jun ishlab chiqarildi.⁴³

2017 yildan boshlab g`alladan bo`shagan qariyb 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekilmoqda va qariyb 5 million tonnadan ortiq mahsulot etishtirilishi yo`lga qo`yildi.

Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gretsiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vetnam va Indoneziya davlatlarining ilg`or tajribasidan keng foydalanishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noan`anaviy ekin ekish yo`lga qo`yildi, soya ekish kengaydi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, 856 million dollarlik 724 ming tonna ho`l meva eksport qilindi.

Chorvachilik tarmog`ini rivojlantirish dasturlari doirasida baliq, asal etishtiriladigan, parranda, echki, qoramol boqiladigan ko`plab xo`jaliklar faoliyati yo`lga qo`yildi. Zotdor qora bayir otlarini ko`paytirish va ot sportini rivojlantirish

⁴³ O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi qishloq xo`jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi ma`lumotlari. Manbaa stat.uz.

maqsadida Qashqadaryoda yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va boshqa hududlarda ham bunday majmualar barpo qilinmoqda.

Pillachilikda yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ammo deyarli yo'qolib borayotgan an'analar qayta tiklanmoqda. Qimmatbaho hom ashyo bo'lgan ipak etishtirishning mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yildi. O'tgan yil mamlakatimizda birinchi marta pilladan yiliga ikki marta hosil olish tajribasi sinovdan o'tkazildi va ijobiy natija berdi. Har bir viloyatda pilla xom ashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot olish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari jalb qilindi va ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan 10 ta korxona ishga tushirildi.

Baliqchilik sohasini tiklash uchun «O'zbekbaliqsanoat» uyushmasi tashkil etildi. Uning tizimiga 3 ming 600 ta baliqchilik xo'jaligi kiritildi. 580 ming gektar tabiiy va 28 ming gektar sun'iy ko'llarda 100 ming tonnadan ortiq baliq etishtirildi.

Asalarichilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etilib, unga asal etishtiradigan 14 mingdan ortiq tadbirkor a'zo bo'ldi.

Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo'llab-quvvatlanib, ularning tashabbuskori bo'lgan xo'jalik va tashkilotlarga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berildi. Natijada, bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar erda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

2013 — 2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturiga muvofiq 5443 kilometr kollektor-drenaj shoxobchalari, 751 ta tik drenaj quduqlarini qurish va rekonstruktsiya qilish, 72,2 ming kilometr kollektor-drenaj tarmoqlarini, 2907 ta tik drenaj quduqlari, 75 ta meliorativ nasos stantsiyalari va boshqalarni ta'mirlash hamda qayta tiklandi, 1745 kilometrdan ko'proq irrigatsiya tizimlari, 388 kilometr novli sug'orish shoxobchalari, 135 ta gidrotexnika inshootlari, umumiy hajmi sekundiga 49,6 kub metr suv chiqaradigan nasos stantsiyalari qurilishi va ularni rekonstruktsiya qilindi.

Natijada, kuchli va o`rtacha sho`rlangan maydonlar 149,4 ming gektarga kamaydi, sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqin (2 metrgacha) joylashgan maydonlar 302,9 ming gektarga qisqardi, 897 ming gektardan ko`proq maydonning meliorativ holatini saqlash chora-tadbirlari amalga oshirildi, sug`oriladigan 1,3 million gektardan ko`proq yerlarning suv ta`minoti yaxshilandi.

Shu bilan birga, sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashni va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta`minlash bo`yicha qabul qilingan kompleks chora-tadbirlarga qaramay:

4487 kilometr irrigatsiya tizimi kanallarini, 5250 kilometr sug`orish tarmog`ini, 3636 ta gidrotexnika inshootini, 495 ta nasos stantsiyalari (agregatlari)ni va 1500 ta tik sug`orish quduqlarini, shuningdek, 7500 kilometr kollektor-drenaj shoxobchalarini, 13 ta meliorativ nasos stantsiyalari hamda 185 ta tik drenaj quduqlarini rekonstruktsiya qilish va qurish talab etiladi;

167 ming gektar sug`oriladigan yerlarning suv ta`minoti nihoyatda past darajada qolmoqda, 1957 ming gektar sug`oriladigan yerlarni turli darajada sho`r bosgan, shu jumladan, 542 ming gektari o`rtacha va 99 ming gektari kuchli sho`r bosgan erlardir.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida 2018-2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi qabul qilindi. Unga ko`ra, sug`oriladigan yerlarning suv bilan ta`minlanganlik va meliorativ holatini baholashning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, suv resurslarini oqilona boshqarish va foydalanishni, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarining o`z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta`minlash vazifalari beligilab berildi.

7.5. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari

Respublika aholisi sonining yuqori sur`atlar bilan o`sib borishi, qishloq xo`jaligi yerlarning boshqa toifaga o`tkazilishi va global iqlim o`zgarishi ta`sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to`g`ri keladigan sug`oriladigan yer maydonlari o`lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16

gektargacha), o`rtacha yillik suv ta`minoti darajasi esa 3 048 m³ dan 158,9 m³ kubgacha qisqargan.

Uzoq yillar davomida qishloq xo`jaligi erlaridan nooqilona foydalanilishi oqibatida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, etishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof-muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug`oriladigan ekin erlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o`rtachadan past darajaga tushib qolgan.

Qishloq xo`jaligida o`rtacha yillik suv sarfi 45 696 mln. m³ yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste`mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib, yuqoriligicha qolmoqda.

Yer va suv resurslari tobora tanqis bo`lib borayotgan sharoitda qishloq xo`jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor kon`yunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo`jaligi joriy etilmaganligi sababli qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda.

Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 m³ suv bilan 4–6 AQSH dollarilik mahsulot etishtirilayotgan bo`lsa, respublikamizda bu ko`rsatkich 0,15 AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish yirik kapital qo`yilmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo`naltiriladigan byudjet mablag`lari hajmining cheklanganligi, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilish masalasiga e`tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo`jaligi yerlarning foydalanishdan chiqib ketishi, hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, bu esa o`z navbatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshirishga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi

texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish orqali suv yo`qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 17 iyundagi «Qishloq xo`jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda, qishloq xo`jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish kontseptsiyasi va uni amalga oshirish bo`yicha «Yo`l xaritasi»ga ko`ra 2020–2030 yillarda qishloq xo`jaligi erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo`yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning hamda 2019–2022 yillar davomida qishloq xo`jaligi erlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishning prognoz ko`rsatkichlari tasdiqlandi.

Kontseptsiyada 5 ta muhim ustuvor vazifa belgilangan bo`lib, unda asosan qishloq xo`jaligi erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv va gidroinshootlardan foydalanish samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo`jaligi ekinlari selektsiyasi va urug`chiligini rivojlantirish, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va sotish, logistika va marketing tizimlarini rivojlantirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda ilm-fan va amaliyot integratsiyasini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarni o`z ichiga oladi.

Kontseptsiyani amalga oshirish doirasida irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini tiklash, rekonstruktsiya qilish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish hamda suvsizlikka chidamli ekinlarni ekish orqali foydalanishga kiritish uchun investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik asosida 50 yilgacha bo`lgan muddatga berish belgilandi.

Shuningdek, qishloq xo`jaligida foydalanishdan chiqib ketgan sug`oriladigan yerlar, shuningdek, lalmi va o`rmon fondi yerlari – O`zbekiston Respublikasi fuqarolari va qishloq xo`jaligi korxonalariga, yaylov, bo`z, ko`p yillik daraxtzorlar va boshqa yerlar – yuqorida qayd etilgan subyektlar bilan birga O`zbekiston Respublikasi rezidenti bo`lgan investorlarga ham beriladi.

Kontseptsiyani amalga oshirishda yer maydonlarini foydalanishga kiritishda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi mexanizmlari qo'llanilmoqda:

yerdan foydalanuvchilarga qishloq xo'jaligi ekinlarini mustaqil joylashtirish, yerga ishlov bermasdan ekin ekish va yerlarni ikkilamchi ijaraga berish huquqi beriladi.

mazkur yer maydonlari maqbullashtirilmaydi, yer uchastkasi yoki uning bir qismi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishiga yerdan foydalanuvchi roziligi asosida sarf etilgan mablag'larning bozor qiymati va olib qo'yish sababli etkazilgan zararining o'zni to'liq qoplanganidan so'nggina ruxsat etiladi.

Ushbu yer maydonlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlarini (dala shiypov, mahsulotlar saqlanadigan omborxonalar, sug'orish inshootlari va boshqalar) joylashtirishga ruxsat beriladi.

Erdan foydalanuvchilarning ehtiyojlari uchun olib kelinadigan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan xomashyo, materiallar, texnika, asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda bojxona to'lovlari (qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari) to'lashdan ozod qilinadi.

Qonunchilikda belgilangan imtiyozli davr yakunlanganidan so'ng, yangidan foydalanishga kiritilgan yer uchastkasiga nisbatan 10 yil davomida ushbu yer uchastkasi foydalanishga kiritilgunga qadar belgilangan soliq stavkalari qo'llaniladi.

Investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har bir gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizi, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan oshmagan qismi qoplab beriladi.

Investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yerlarning suv ta'minoti tizimlarini qurish,

rekonstruktsiya qilish uchun jalb etilgan kreditlarning bir gektar hisobiga 40 mln. soʻmdan oshmaydigan qismiga tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 5 foizlik punkti qoplab beriladi.

Bunda yer maydonlari investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisidagi bitim imzolanganidan soʻng qonun hujjatlarida vakolat berilgan davlat organi ning qaroriga asosan ajratib beriladi.

Bundan tashqari mazkur farmon bilan qishloq xoʻjaligi yerlari maxsus muhofazaga olinib, ushbu yerlarni qishloq xoʻjaligidan boshqa maqsadlarga, shu jumladan sanoat va fuqarolik obyektlari (binolar va inshootlar) qurilishi uchun ajratilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Unga koʻra, qishloq xoʻjaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun olib qoʻyiladigan sugʻoriladigan yerlar uchun kompensatsiya toʻlovi, olib qoʻyilayotgan yer maydonlari joylashgan joylarni hisobga oluvchi koeffitsientlar qoʻllanilmagan holda, xuddi shunday yangi yerlarni oʻzlashtirish uchun talab etiladigan mablagʻning 10 barobari, lalmi yerlar va sugʻorilmaydigan koʻp yillik daraxtzorlar egallagan yerlar, pichanzorlar va yaylovlar holatini tubdan yaxshilash bilan bogʻliq xarajatlarning 20 barobari miqdorida hisoblanadi.

Ushbu meʼyor oʻzboshimchalik bilan yerlarning qishloq xoʻjaligi muomalasidan chiqishiga sabab boʻlgan hollarda etkazilgan zararni hisoblashda ham qoʻllaniladi.

Sugʻoriladigan yerlar hisobidan bogʻdorchilik, uzumchilik va boshqa koʻp yillik daraxtzorlar hamda issiqxona xoʻjaliklarini tashkil etish uchun yer ajratish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida amalga oshirilishi belgilab qoʻyildi.

Oʻzbekistonda iqlim oʻzgarishlari: trendlar, dolzarb muammolar hamda moslashish choralarining zarurati. Global iqlim oʻzgarishi muammosi insoniyat kun tartibida dolzarb boʻlib turibdi. Global iqlim oʻzgarishi bu sayyoramizda faqat haroratning oʻrtacha yillik koʻtarilishi emas, balki barcha geotizimning oʻzgarishi, Jahon okeanining koʻtarilishining yuzaga kelishi, muz va doimiy muzliklarning erishi, yogʻingarchilikning bir tekisda yogʻmasligining ortishi, daryolar oqimi

rejimining oʻzgarishi va iqlimning beqarorligi bilan bogʻliq boshqa oʻzgarishlar demakdir. Insoniyatning vazifalaridan biri shuki, iqtisodiy va ekologik muvozanatni mutanosiblashtirish hamda adolatli hal etilishiga erishishdir. Shubhasiz, inson faoliyati iqlimga taʼsir koʻrsatadi. Shu munosabat bilan tevarak-atrofga zararli taʼsir etishni cheklash uchun hamjihatlikda harakat qilish zarur.

Sanoatlashtirish davri boshlangunga qadar iqlim oʻzgarishiga faqat tabiiy sabablar, yaʼni materik va okeanlarning oʻlchami, Yer orbitasi, uning magnit maydonining oʻzgarishi, vulqonlarning otilishi taʼsir koʻrsatar edi. Biroq hozir Iqlim oʻzgarishi masalalari boʻyicha hukumatlararo ekspertlar guruhi –xulosalariga koʻra, sayyoramizda iqlim oʻzgarishining tezlashishi koʻproq insonning iqtisodiy faoliyati natijasi oʻlaroq havoga turli chiqindi gazlar chiqishi tufayli yuzaga kelmoqda. Oʻzbekistonda chiqindi gazlarning chiqishi 2005 yilda qariyb 200 mln. tonna SO₂ darajasiga etdi. Oʻzbekistonda bunday gazlarning asosiy manbai boʻlib energiya ishlab chiqarish va isteʼmol qilish hisoblanadi. U uglerod dioksid, SO₂ni ishlab chiqarib, atmosferaga chiqadigan barcha chiqindilarning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Metan ahamiyati boʻyicha keyingi gaz boʻlib, tabiiy gaz, neft va koʻmirni qazib olishda hamda tashishda yuzaga keladi⁴⁴.

Undan tashqari, maʼlumotlarga koʻra, Oʻzbekistonda bir yilda 35 million kubometrqa yaqin maishiy chiqindi hosil boʻladi. Ularni utilizatsiya qilish va qayta ishlashni samarali tashkil etish yurtimizda ekologiya hamda sanitariya muhitini yanada yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlash, ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Iqlim oʻzgarishi, aholi sonining ortishi, urbanizatsiya, oʻrmonlarni yoppasiga kesish Markaziy Osiyo mintaqasining suv resurslariga, xususan Oʻzbekistonga, katta qiyinchilik tugʻdirmoqda. Global isish tufayli togʻli hududlarda muzliklarning erishi allaqachon daryo va koʻllarning toshib ketishiga olib kelmoqda. Boshqa tomondan, bugungi kunga qadar muzliklarning erishi daryolarda suvning qoʻshimcha hajmini ushlab turardi. Muzliklar hajmining

⁴⁴ <http://www.climate.uz/ru/section.scm?sectionId=4316&contentId=4344>

kamayishi so`ngi 20 yilda daryolar oqimi, xususan, Amudaryo hamda qisman Sirdaryo va Zarafshonga quyiladigan suvlarning 25-30%ga qisqarishi mumkinligini e`tiborga olishga majbur etadi. Bu esa butun mintaqaga jiddiy muammolar tug`diradi². Bunda, qurg`oqchil yillarda Amudaryoning quyi qismida suv mineralizatsiyasining o`rtacha yillik miqdori 1,5 martaga, daryo suvi qo`shilgan ko`l suvlarining mineralizatsiyasi boshlang`ich ko`llarda 2,5 martaga, ko`l zanjirini oxirgi suv havzalarida esa 6-9 martaga ortishi mumkin.

So`nggi 50 yil davomida O`zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko`rsatdiki, maksimal haroratning o`sish sur`ati yiliga 0,22 darajaga, minimal esa -0,36 darajani tashkil qildi. Shunga asoslangan holda ahvolni u qadar yaxshi deb bashorat qila olmaymiz, ya`ni 20 yildan keyin respublikaning shimoliy qismida o`rtacha yillik harorat 2-3 darajaga, janubiy qismida esa 1 darajaga ortadi.

Respublikaning butun hududi bo`ylab yog`ingarchilikning ortishi kutilmoqda: Farg`ona vodiysida 5-15% ga, respublikaning shimoliy qismida esa 15-20%gacha. Biroq boshqa tomondan, iqlim o`zgarishi suv yuzalaridan suvning 10-15%ga, o`simliklar transpiratsiyasi va sug`orish me`yorlarining ortishi tufayli 10-20% ko`proq yo`qolishiga olib keladi. Bu esa suvning tiklanmay iste`mol qilinishi suv chiqishining o`sishiga³ muvofiq tarzda o`rta hisobda 18%ga ortishiga olib keladi. Bu, shubhasiz, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining keyingi o`sishini qiyinlashtiradi.

Prognozlarga ko`ra, ekstremal harorat ko`rsatkichli kunlar sonining ortishi (39 darajadan yuqori), O`zbekistonning bir qator viloyatlarida paxta hosildorligining 2030 yilda 4%ga va 2050 yilda 10%ga pasayishiga olib keladi. Qishloq xo`jaligining boshqa ekinlarida ham hosildorlikning kamayishi, shuningdek, sug`orishning kamligi, qurg`oqchilik, tuproqning emirilishi va shamol eroziyasi, tuproqning sho`rlanishi, gumus tarkibining pasayishi va em-xashak bazasining yomonlashishi hisobiga chorvachilikda mahsuldorlik pasayishi kutilmoqda.

Tadqiqotlarga ko`ra, O`zbekistonda iqlim o`zgarishi e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan boshqa quyidagi oqibatlariga olib kelishi mumkin:

- ✓ Suv resurslari tanqisligining ortishi;
- ✓ Muz va qor qoplamli kunlar davrining 7-10 kunga kamayishi;
- ✓ Qurg'oqchilik xavfi takrorlanishining ortishi (bugunda so'ngi 10 yilda har 3 yilda);
- ✓ O'rtacha haroratning ortishi;
- ✓ Issiq mavsumning 10-15 kunga cho'zilishi;
- ✓ Yog'ingarchilikning hududlar bo'yicha bir tekisda yoyilmasligi;
- ✓ Seryog'in yoki umuman yog'ingarchiliksiz kunlar sonining ortishi;
- ✓ Qishloq xo'jaligida etishtiriladigan ekinlar tarkibining o'zgarishi;
- ✓ Harorat ko'tarilishi tufayli aholi salomatligining yomonlashishi bilan bog'liq muammolarning ortishi;
- ✓ Ko'pchilik hayvonlar va o'simliklar dunyosi arealining qayta taqsimlanishi, ya'ni ekologik jarayonlarning, olinayotgan ekologik mahsulotlar va ekotizim tomonidan bajariladigan funktsiyalarning butunlay o'zgarishi;
- ✓ Cho'llanish jarayonining kuchayishi, ya'ni yashash va xo'jalik yuritishga yaroqli yerlarning kamayishi;
- ✓ Iqtisodiy sohalar ta'sirida tarmoqlarning tubdan o'zgarishi hamda yana ko'plab oldindan aytib berish mushkul bo'lgan oqibatlar.

Iqlim o'zgarishining og'ir oqibatlarini yumshatish va engib o'tish kuchlarning birlashishini hamda manfaatdor barcha tomonlarning maqsadli yo'naltirilgan hamkorligini talab qiladi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ortga surib bo'lmaydigan vazifalar qatorida suv, yer va energetik resurslarni tejash va ularni samarali ishlatishga yordam beruvchi yetakchi texnologiyalarni tatbiq qilish, agroo'rmonchilik amaliyotini keng tatbiq qilish, yangi ekologik sof ishlab chiqarish va havoga zararli gazlarning tabiatga chiqishini kamaytirish bilan bog'liq vazifalarni ta'kidlab o'tish zarur.

Tuproq eroziyasi. O'zbekiston hududi tabiiy-iqlim sharoitiga ko'ra cho'llanish va tuproqning anchagina emirilish jarayonlariga uchragan. O'zbekiston hududidagi eng jiddiy ekologik muammolar quyidagilar: tuproqning

sho'rlanishi, eol va suv eroziyasi, yaylovlarda em-xashak mahsuldorligining pasayishi, o'rmonsizlanish va boshqalar.

Tuproq eroziyasi – agrotizimning asosiy muammolaridan bo'lib, tuproqning ifloslantiruvchilari uchun bufer va filtr bo'lib xizmat qilish, yashash muhitini ta'minlash qobiliyati va bioxilma xillikni ushlab turish kabi funktsiyasiga jiddiy ta'sir qiladi. Tuproq eroziyasi deganda vaqtinchalik suv oqimi yoki shamol bilan tuproqning ustki qismini uzib olish, ko'chirish va qatlam hosil qilish kabi o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar yig'indisi tushuniladi. Shuning uchun eroziyaning ikkita turi farqlanadi: suv va eol.

Eol eroziya (shamol eroziyasi, deflyatsiya) – dinamik jismoniy jarayon bo'lib, tuproq buzilishiga olib keladi, yumshoq, qurib ketgan, bo'shab qolgan yer ustidan kuchli shamol o'tganda yuzaga keladi. U chang bo'ron (zarrachalar muallaq holatda) va mahalliy eroziya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Aniqlanganki, 2,5 sm qalinlikdagi tuproq qatlami buzilishi bilan har bir gektardan qariyb 15 t gumus, 1000 kg azot, 200 kg fosfor uchib ketadi. Shamol eroziyasi natijasida urug'lar uchib ketadi, qishloq xo'jaligi ekinlari nobud bo'ladi va zarar ko'radi, o'g'itlar yerga singmay daladan tashqari chiqib ketadi, tuproq unumdorligi pasayadi, oxir-oqibat, turli ierarxiyadagi ekologik tizimlar buziladi. Bu esa iqtisodiy, ijtimoiy muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Eol eroziya butun dunyoning arid va yarimarid iqlim sharoitli mamlakatlarida milliy va baynalmilal muammodir

O'zbekiston hududida 3 viloyat tabiiy sabablarga ko'ra shamol eroziyasiga duch keladi: Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyatining janubi-sharqiy chekkalari hamda Farg'ona viloyatining g'arbiy qismi. Bundan tashqari, O'zbekistonning sug'oriladigan erlarida shamol eroziyasi Farg'ona, Zarafshon vodiylari va Qarshi cho'llarida yoyilgan. O'zbekiston hududi tekisliklarining katta qismidagi tuproq, jumladan, Ustyurt yassi tog'lari, Janubiy Orololdi, Qizilqum o'rtacha eroziyaga uchragan deb baholanadi. Iqlim o'zgarishi bilan eroziya jarayoni kuchaydi. Agar 1965 yilda O'zbekistonda sug'oriladigan maydonning 395,1 ming gektar shamol eroziyasiga uchragan bo'lsa, 2018 yilda esa bu maydon 1,5 martaga ortib 628,4 ming gektarga etdi.

Tuproqning eol eroziyasining intensivligiga, birinchi navbatda, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: shamolning tezligi va yo'nalishi; tuproq ustki qatlamining fizik-ximik holati; atmosfera va to'shaladigan yuza oralig'idagi chegara qatlamning harorat va shamol gradientlari. Eol eroziyasi jarayonlarining rivojlanishiga antropogen omillarning ta'sir ko'rsatishiga ham hech shubha yo'q. Bu, birinchi navbatda, aholi sonining o'sishi hamda ularni suv va oziq-ovqat resurslari bilan ta'minlash zaruratiga bog'liq. Erdan intensiv foydalanganda tuproqqa ortiqcha ta'sir etish birdan kuchayish ro'y beradi. Bu holat uning sho'rlanishi, kimyoviy moddalar bilan zararlanishi (pestitsidlar, og'ir metallar) gumusning kamayishi hamda boshqa salbiy oqibatlarini yuzaga keltiradi.

Tuproq emirilishiga olib keladigan jarayonlardan ko'riladigan zararni imkon qadar kamaytirish uchun doimiy ekologik monitoring ma'lumotlariga asoslangan bir qator tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur. Shamol eroziyasi bilan kurashning an'anaviy usuli fitomeliorativ tadbirlarni o'tkazishdir. Shu maqsadda iloji boricha uzoq vaqtga tuproq yuzasini vegetativ qoplam bilan yopish, dalani himoyalovchi o'rmon ixota tizimini yaratish hamda asrab-avaylash va boshqalarga e'tibor qaratish lozim. Muammoli hududlarda joylashgan sug'oriladigan yerlar uchun iqlim o'zgarishi sharoitida quyidagi tadbirlar juda zarur: sug'orish uchun katta miqdorda suv talab qilmaydigan qishloq xo'jaligi ekinlarini tanlab olish hamda navlar bilan seleksion ishlar olib borish; yuqori darajadagi agrotexnika, ekishning asoslangan muddatlari, mineral va organik o'g'itlarni o'z vaqtida solish, imkon boricha, tomchilab sug'orishni qo'llashga rioya qilish.

Bu borada mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 iyundagi «Sug'oriladigan yerlarni shamol eroziyasiga hamda suv xo'jaligi obyektlarini qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish va rekonstruktsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Jamg'armasining 2018 yil uchun meliorativ tadbirlarni moliyalashtirishga 494,6 mlrd. so'm mablag'lar sarflagan. Jumladan, meliorativ

texnikalar sotib olish 40,0 mlrd. so'm, tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilish uchun 10,0 mlrd so'm, ixota daraxtzorlarini barpo etish maqsadlarida 2.5 mlrd so'm mablag'lar yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda mamlakatning o'rmon xo'jaliklari Orol dengizining qurigan tubida 500 ming gektardan ortiq maydonlarda o'rmon ixotazorlari barpo etilgan va bu ishlar har yili muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

2018 yilning 29 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi farmoni qabul qilingan edi.

Farmonga ko'ra, qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi «Aqlli qishloq xo'jaligi» kontseptsiyasiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy sinalgan shakllarini joriy etish, agrar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, hosildorlikni jiddiy oshirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish kabi vazifalar vazirlikning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi.

Olimlarning taxminlariga ko'ra, 2050 yilga borib Yer sayyorasi aholisi 9,6 milliardga etib, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun bugungiga nisbatan 70 foiz ko'p mahsulotlar kerak bo'lar ekan. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, energiya vositalarining qimmatlashuvi va yer unumdorligining pasayib ketishi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishga jiddiy to'siq bo'lishi ham ta'kidlanmoqda. Xo'sh, unda kelajakda bashariyat ochlikka mahkum bo'ladimi? Albatta, yo'q. Bu muammolarni dehqonchilik faoliyatini o'zgacha usullar asosida boshqarish, xususan, sohaga narsalar interneti kontseptsiyasi kabi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yyechimlar kiritish, bir so'z bilan aytganda, «aqlli» qishloq xo'jaligi orqali hal etish mumkin.

«Future Market Insights» tahlilchilariga ko'ra, dunyoda «aqlli» qishloq xo'jaligiga o'tish sekinlik bilan, ammo ishonchli tarzda amalga oshirilyapti. Bozorning katta qismi (53 foizi) Shimoliy Amerikada joylashgan.

Bu AQSH fermerlari tomonidan aqlli innovatsiyalarga boʻlgan kuchli qiziqish bilan bogʻliqdir. IT-texnologiyalar yer maydonlarida asosan don ekinlari etishtirishda faol qoʻllanilyapti va bu «aniq dehqonchilik» nomi bilan atalyapti.

Umuman olganda, «Goldman Sachs Group» tahlilchilari koʻplab mamlakatlar «analog»dan «aqlli»ga oʻtish orqali oʻz qishloq xoʻjaligini faol rivojlantirib borayotganini tasdiqlashyapti. Ularning prognoziga koʻra, yangi texnologik yechimlarni joriy etish bilan 2050 yilga borib dehqonchilikni dunyo boʻyicha 70 foizga oshirishga erishish mumkin. Bu deyarli 800 mlrd. dollarlik qoʻshimcha mahsulot demakdir.

Albatta, bularning ustida ishlash uchun hozirgidan tamomila boshqacha mashinalar va agregatlar kerak. Taʼkidlash joizki, qishloq xoʻjaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi dunyoning yetakchi kompaniyalari oʻz taraqqiyot strategiyalarini dehqonchilik jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab olishni allaqachon boshlab yuborishgan.

Agrar texnikalar sohasida «aqlli» qurilmalarni qoʻllash darajasi boʻyicha Evropa hozircha AQShdan ortda qolmoqda. Eida 80 foiz qishloq xoʻjaligi texnikalari navigatsiya tizimlari bilan sotilishiga qaramay, ularning qariyb 30 foizi amalda tarmoqqa ulangan xolos. Bunga sabab, Eida yirik fermer xoʻjaliklari AQShdagiga nisbatan ancha kam. Chunki Evropada etarli texnikalarga ega kichik oilaviy fermalar ustuvorlik qiladi va ularni ancha qimmat boʻlgan «aqlli»lariga almashtirishga shoshilishmaydi.

Uchuvchisiz transport vositalari. Tractica konsalting kompaniyasi maʼlumotiga koʻra, 2024 yilga borib, qishloq xoʻjaligi robotlari yetkazib berish 32 mingtaga oshib, 594 ming birlikni tashkil etadi. 2016 yili dunyo boʻyicha agrar ishlab chiqarish kompleksi (AIChK)ni robotlar bilan taʼminlovchi 150dan ortiq sanoat ishtirokchilari roʻyxatga olingan. Tahlilchilar AIChKda robotlar qoʻllashning quyidagi muhim sohalariga eʼtibor qaratishadi:

- ✓ haydovchisiz traktorlar va uchish apparatlari;
- ✓ moddiy resurslarni boshqarish;

- ✓ qishloq xo'jaligi vegetatsiyasi avtomatlashtirilgan tizimlari;
- ✓ o'rmon va yerosti boshqaruvi;
- ✓ qoramol fermalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari.

Traktor va yuk tashuvchi mashinalarga o'rnatilgan o'ziyurar tizimlarning inson omili ta'sirini kamaytirish bilan bir qatorda, yana bir muhim afzalligi bor: ular don va yonilg'i o'g'irligini kamaytirishga imkon beradi.

Intellectual fermalarda nafaqat haydovchisiz transport vositalari, balki kamera va yuqori sezuvchi sensorlar bilan ta'minlangan uchuvchisiz uchish apparatlaridan ham foydalanish mumkin. Ular bir necha soat davomida qishloq xo'jaligi uchastkalarida tadqiqot olib borish, kamera va sensorlar yordamida yiqqan ma'lumotlarni fermerga yetkazish, maydonlar elektron xaritasini 3D formatda yaratish, ekinlarni samarali o'g'itlash maqsadida me'yorlashtirilgan vegetatsiya indeksini hisoblash, olib borilayotgan ishlarni xatlash, erni himoyalash va boshqa imkoniyatlarga ega. Hozirda uchuvchisiz qurilmalardan AQSH, Xitoy, Yaponiya, Braziliya va YI mamlakatlari qishloq xo'jaliklarida keng foydalanilmoqda.

Dehqonchilikda datchik va sensorlardan foydalanish — intellektual ferma tashkil etishda muhim qadam hisoblanadi. O'nlab kvadrat kilometr joydan ular radiokanallar orqali nazoratdagi obyektlar holati — asosan, tuproqning namlik darajasi, harorat, o'simlikning sog'lomlik darajasi, yonilg'i zaxirasi va boshqa muhim parametrlar haqida uzluksiz ma'lumot yetkazib tura oladi.

Masalan, nazorat nuqtalariga o'rnatiladigan sensorlar tuproq xususiyatlarining asosiy tizimlarini aniqlashga moslashtirilgan. Datchiklar esa tabiiy xilma-xillik (relef, tuproq turi, yorug'lik, ob-havo, begona o'tlar va zararkunandalar miqdori), kasallikka chalingan o'simlik, hosildorlik haqida oldindan ma'lumot beradi. Sensor va datchiklar nafaqat ekin etishtirishga, balki hosilni to'liq saqlashga ham yordam beradi. Bularning bari o'simliklarni parvarishlashga aql bilan yondashuvni ta'minlaydi.

Elektron qurilmalar chorvachilik va baliqchilik xo'jaligini samarali boshqarishga ham yordam beradi — qoramollar joylashgan joy va ob-havo o'zgarishlarini nazorat qiladi. Bunday qurilmalar orqali fermerlar allaqachon

jonivorlar homiladorligi, sog`ish vaqti va kasallik belgilarini aniqlashni o`rganib olishgan.

Qoramollarni sun'iy yo`ldosh orqali nazorat qiluvchi «FindMySheep» mashinalararo yechimi bunga ajoyib misol bo`la oladi. Bu tizim datchiklari xaritada har qanday hayvonning harakatini ko`rsatib, ularni biriktirib turadi. «General Alert»ning boshqa bir tizimi esa fermalardagi hayvonlarni kuzatish bilan birga, ularning salomatliklarini ham tekshiradi.

Dunyo bo`yicha 70 foiz toza suv qishloq xo`jaligi uchun sarflanar, achinarlisi uning 60 foizi shunchaki isrof bo`lib ketar ekan. Bu muammoni ham aqlli tizim hal qiladi — tizim suv nasoslarini masofadan turib boshqarish imkonini berib, fermerlarni suv oqishi va etishmovchiligi haqida ogohlantiradi. Hindistonlik fermerlar bu borada «Nano Ganesh» mobil tizimidan foydalanishadi. Tizim yordamida ular suvni, mablag`larini va vaqtlarini tejab qolishga erishmoqdalar.

Chilida esa mevalar plantatsiyasini datchiklar bo`yicha sug`orish suv sarfini 70 foizga kamaytirish imkonini bermoqda. Albatta, bunday tadqiqotlar dunyo bo`ylab olib borilyapti. Masalan, NASA AQSH geologiya xizmati bilan hamkorlikda sun'iy yo`ldosh yordamida shtatlar hududida tuproq namligi haqida dolzarb ma'lumotlarni qo`lga kiritgan.

Qishloq xo`jaligiga intellektual texnologiyalarni joriy etish iste'molchilari, albatta, fermerlar va fermalar rahbarlaridir. Texnologik provayderlar esa yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Ular iste'molchilar uchun innovatsion dasturlar yoki mobil ilovalar, M2M uskunalari, datchiklar va kuzatuv qurilmalari, aloqa kanallari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va boshqa aqlli yechimlar ishlab chiqish uchun javobgardir. Ammo, har bir ferma (har bir fermer) ham internetga ulangan emas. Hatto tarmoqqa ulanish uchun uncha katta bo`lmagan fermaga etarlicha sarmoya lozim. Byudjeti kam xo`jaliklarga qanday yordam berish kerak?

Masalan, 10 million kamrentabelli fermalarga ega Afrikada «Esoko» mahalliy ishlanma yordamga keldi. Ishlanma fermerlarga xo`jaliklari holati, ob-havo, mahsulot etishtirish bo`yicha tavsiyalar haqidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Shu tizimda «eBay» usulidagi internet-do`kon ham faoliyat ko`rsatadi.

Uning eng ommalashgan funktsiyasi fermerlarga turli mahsulotlarning joriy narxini ko'rsatib turishidir. Bu orqali ular mahsulotini foydali narxlarda sota oladilar. Mazkur tizim natijasida shaxsiy xo'jaliklar daromadi ikki yilda 12 foizga o'sgan.

Yaponiyaning «SoftBank» mediakorporatsiyasi esa iyo'l oyida Kolumbiyada aqlli datchiklar parvozi sinovini yakunladi. Sholi maydonlari uchun mo'ljallangan bu qurilma tuproq va suvning ozuqaviy miqdori, namlik va harorat darajasini o'lchaydi hamda yig'ilgan ma'lumotlarni smartfonlar orqali har bir fermerga individual jo'natadi.

O'zining barcha afzalliklariga qaramay, aqlli qishloq xo'jaligi hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichida. «AQShning Trimble» kompaniyasi hisobotiga ko'ra, dunyodagi har to'rtta fermadan faqat bittasi ma'lumotlar yig'ish bazasidan foydalanadi. Bunga moliyaviy omillar (bunday infratuzilmani tashkil etish fermerlar tomonidan salmoqli dastlabki sarmoya talab qiladi) asosli to'siq bo'lib turibdi. Bundan tashqari, ma'lumotlar xavfsizligi, dehqonchilikdagi o'ziga xos siyosat va ob-havo ham aksariyat fermerlarni ikkilantiradi.

Aqlli texnologiyalar nafaqat dehqonchilik, bog'dorchilik yoki chorvachilikda, balki baliqchilik sohasida ham o'z samarasini bermoqda. Baliqlar migratsiyasini kuzatib borish va baliq ovlash uchun eng yaxshi joyni tanlash, ozuqa namunalarini tahlil qilish, ehtimoliy kasalliklarni aniqlash kabilarni endi zamonaviy texnik qurilmalar, monitorlar yoki GPS datchiklari yordamida amalga oshirsa bo'ladi. Shuningdek, suvning sifati haqida ham ma'lumot olish mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

1. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati katta. Uning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, ularni tayyorlash va qayta ishlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish tizimining maqsadga muvofiq ishlashini ta'minlashdan iborat.

2. Mintaqalar qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida paxta maydonlari kamaytirilib, meva-sabzavotlar etishtirish ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida ichki va tashqi bozorni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

3. Respublikada yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta'minlash ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

4. Iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortishi, urbanizatsiya, o'rmonlarni yoppasiga kesish Markaziy Osiyo mintaqasining suv resurslariga, xususan O'zbekistonga, katta qiyinchilik tug'dirmoqda. Global isish tufayli tog'li hududlarda muzliklarning erishi allaqachon daryo va ko'llarning toshib ketishiga olib kelmoqda.

5. O'zbekiston hududi tabiiy-iqlim sharoitiga ko'ra cho'llanish va tuproqning anchagina emirilish jarayonlariga uchragan. O'zbekiston hududidagi eng jiddiy ekologik muammolar quyidagilar: tuproqning sho'rlanishi, eol va suv eroziyasi, yaylovlarda em-xashak mahsuldorligining pasayishi, o'rmonsizlanish va boshqalar hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Agrosanoat majmuasining ahamiyati nimada?
2. Agrosanoat integratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mintaqada qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlarni so'zlab bering?
4. Mintaqamizda suv resurslari bilan ta'minlanishi va undan oqilona foydalanish to'g'risida o'z mulohazalaringizni yuriting?
5. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari haqida fikr yuriting?
6. Mintaqada qishloq xo'jaligida jiddiy ekologik muammolar va ularning yechimlari nimada?

8-MAVZU. TRANSPORT, AXBOROT KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINING MINTAQAVIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Reja:

8.1. Mintaqada transport tizimining ahamiyati

8.2. Mintaqada transport tizimini isloh qilish muammolari va vazifalari

8.3. Kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari

8.4. Telekommunikatsiya xizmatlari sohasi rivojlanishi

Tayanch tushuncha va iboralar: transport, transport infrastrukturasini, temir yoʻl, havo, daryo transportlari, metropoliten, magistral quvur, transport xizmatlari bozori, temir yoʻl zichligi, logistika markazi, optik tolali liniyalar, telekommunikatsiya.

8.1. Mintaqada transport tizimining ahamiyati

Transportning asosiy vazifasi keng aholi ommasi hamda milliy iqtisodiyot korxona va tashkilotlarining transport xizmatiga boʻlgan barcha talab-ehtiyojlarini tula va yuqori sifat bilan kondirishdan iborat.

Oʻzbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustaxkamlash va uning jahon uyushmasiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimiga ega boʻlish kerak. Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xoʻjalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni isteʼmolchilarga oʻz vaqtida, isrof qilmasdan etkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzildan ikkinchi bir manzilga etkazishda ham transportning ahamiyati kattadir.

Transport ishlab chiqarish tizimida muhim oʻrin tutishi bilan birga u har qanday hudud xoʻjaligi majmuasining zaruriy oʻrini boʻlib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashtirish mumkin.

Transport infrastrukturasini va yoʻl tarmoqlarining samarali rivojlanishi kadrlarning qishloqlarda mustaxkam urnashib kolishiga, mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini yaratadi.

So`nggi yillarda mamlakatimizda transport va transport kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish, tashishlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta`minlash, transport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, soha uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo`naltirilgan keng ko`lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlar respublikaning geografik joylashuvini inobatga olgan holda transport xizmatlarining sifatligi va ommabopligini ta`minlashga yo`naltirilgan yagona transport siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, sohani boshqarishning zamonaviy texnologiyalari va intellektual tizimlarini joriy etishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatmoqda.

Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko`rsatishini ta`minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko`ra⁴⁵:

Vazirlik avtomobil, temir yo`l, havo, daryo transportlari, metropoliten, shuningdek, yo`l xo`jaligini rivojlantirish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo`yicha davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

Vazirlik transport va yo`l xo`jaligi sohasidagi tashkilotlar faoliyatini normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, litsenziya va ruxsatnomalar berish, sertifikatlashtirish, samarali texnik va tarif siyosatini amalga oshirish yo`li orqali davlat tomonidan tartibga solish vazifasini amalga oshiradi.

⁴⁵ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni. Manbaa uzA.

Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, aviatsiya, quvurlar va daryo suv yo'llaridan iborat. Transportning barcha turlari yordamida Respublikada xar yili folk xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi.

Transport infratuzilmasi - transport tizimini ishlashi uchun shart-sharoit yaratadigan va mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, hududlarning hududiy yaxlitligini va uning iqtisodiy makonining birligini ta'minlaydi,

Shuning uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish mintaqada iqtisodiy o'sishning innovatsion modelini amalga oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilash uchun zarur shartidir.

Infrastruktura majmui sifatida mintaqada transport infratuzilmasi o'ziga xos xususiyatlarga mos keladi. Shu bilan birga, transport infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni va mintaqani tashkil etuvchi xususiyati bilan belgilanadigan muhim tayanch vazifasi mintaqaviy va mintaqalararo transport-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdir.

«Mintaqaning transport infratuzilmasi» tushunchasini aniqlashga yondashuvlarda zamonaviy iqtisodiyotda «transport infratuzilmasi» tushunchasini aniqlashda uchta asosiy uslubiy yondashuv mavjud – bular investitsiyaviy jozibadorlik ko'rsatkichi orqali texnokratik, funktsional va iqtisodiy yondoshuvlar.

Birinchi yondashuv doirasida transport infratuzilmasi deganda transport jarayonining tez va uzluksiz bajarilishini ta'minlaydigan texnologik majmua bo'lgan mintaqaning o'ziga xos muhandislik-texnik infratuzilmasi tushuniladi. Transport infratuzilmasi «muhandislik infratuzilmasining bir qismi, shu jumladan yuk va yo'lovchilar tashishni ta'minlovchi transport kommunikatsiyalari va qurilmalari kompleksi» deb tushuniladi.

Ikkinchi yondashuv doirasida transport infratuzilmasi transport jarayonini uzluksiz va tezkor amalga oshirish uchun sharoitlarni ta'minlash uchun ma'lum funktsiyalarning maxsus birikmasi sifatida belgilanadi.

Uchinchi yondashuvda transport infratuzilmasi mintaqaviy infratuzilma kapitalining bir turi hisoblanadi. Shunday qilib, mintaqaviy transport infratuzilmasi deganda mintaqaviy transport infratuzilmasi markazi ya'ni. «O`ziga xos ijtimoiy xususiyatga ega bo`lgan kapitalning ma'lum bir turi, transport infratuzilmasi mintaqaga nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga ham foyda keltirishi mumkin va bu uni amalga oshirishdan sinergistik samara beradi».

Bizning fikrimizcha, «transport infratuzilmasi» tushunchasini aniqlash uchun ikkita yondashuv - funktsional va iqtisodiy kombinatsiyani qo`llash samaraliroq bo`ladi. Bu quyidagi qoidalar bog`liq:

birinchidan, yuqorida ta'kidlab o`tilganidek, infratuzilma birinchi navbatda ma'lum funktsiyalar majmui bo`lib, ular tashkiliy (mintaqaning funktsional elementlari o`rtasidagi munosabatni amalga oshirish), ishlab chiqarish va ijtimoiy (tovarlar va odamlarni tashish jarayonini uzluksiz va tezkor amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash).

Iqtisodiy mohiyati va mintaqani tashkil etuvchi xususiyati bilan belgilanadigan transport infratuzilmasining asosiy markaziy funktsiyasi mintaqaviy va mintaqalararo transport-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdir.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning aksiomatik nazariyasi narxni tizimni tashkil etuvchi omil va bozor iqtisodiyotining universal ko`rsatkichi sifatida ko`rib chiqiladi, transport infratuzilmasini yaratish va ishlatish esa investitsiyalarsiz imkonsizdir. Shu bilan birga u iqtisodiyotning kapital talab qiladigan va inertsiyal tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Shuning uchun transport infratuzilmasi xarajatlar omili rivojlanishda hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Transport infratuzilmasining barcha iqtisodiy omillarini ekzogen (asosiy) va endogenlarga bo`lish mumkin.

Transport infratuzilmasi tannarxini shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- mintaqada ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo`lgan talab va taklif nisbati;

- vaqt va tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda mintaqaning xo`jalik yurituvchi subektlari tomonidan olinadigan daromadlar;

- infratuzilmani boshqarish darajasi.

Transport infratuzilmasining tarkibi va ahamiyati o`ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan endogen omillar soni quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- transport infratuzilmasi obyektlarini qurish va yangilash uchun zarur bo`lgan investitsiya manbalarining hajmi va shakli;

- yuk tashish hajmi, ularni amalga oshirish uchun foydalanish xarajatlari hajmi va tarkibi;

- transport infratuzilmasidan foydalanish va texnik xizmat ko`rsatish xarajatlarining hajmi va tarkibi.

Uchinchidan, transport infratuzilmasi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yaratishda va uning yakuniy qiymatini shakllantirishda, ijtimoiy obyektlardan hududda foydaanish imkoniyatlarini amalga oshirishda, aholining transport harakatchanligini ta'minlashda va mintaqaviy infratuzilmaning ushbu turiga yuklatilgan vazifalarni bajarish orqali yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda bevosita hissa qo`shadi.

Shu bilan birga, transport infratuzilmasiga investitsiya qilingan kapital hajmi to`g`ridan-to`g`ri mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur`atlariga bog`liq.

Amalga oshirilgan taxminlarga asoslanib, bizning fikrimizcha, mintaqaviy transport infratuzilmasi - mintaqaning hududiy yaxlitligini ta'minlash va uni funktsiyalarini amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sinergetik samarasini yaratish uchun transport infratuzilmasi imkoniyatlarida namoyon bo`ladigan o`ziga xos mintaqaviy xususiyatga ega bo`lgan infratuzilma kapitalining alohida turi sifatida tushunilishi kerak.

Mavjud yondashuvlardan farqli o`laroq, transport infratuzilmasi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ma'lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq o`rganish imkonini beradi.

Shunday qilib, ma'lum bir hududning transport infratuzilmasini rivojlantirish infratuzilmani tashkil etuvchi omillar va iqtisodiyotda shakllangan sharoitlarning ta'siri bilan belgilanadi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatimiz uchun zamonaviy va rivojlangan transport infratuzilmasi haqiqatan ham kelajakka yo'l desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bu iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga sifatli o'tish uchun strategik ahamiyatga ega. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi imkoniyatlari haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda transport sanoatining roli juda katta. Uning samaradorligi boshqa sohalarning ishlashiga va shuning uchun mamlakatning iqtisodiy farovonligiga bog'liq.

Transport xizmatlari bozori dunyodagi eng dinamik bozorlardan biridir. Iqtisodiyotning o'sishi transport, ekspeditorlik va logistika xizmatlari bozorining jadal o'sishi bilan birga keladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'zgarishlardan biri muqarrar va birinchi navbatda transport va logistika infratuzilmasini jadal modernizatsiya qilish va qurish zarurligidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda hozirgi davrdagi transport strategiyasining maqsadlariga to'liq mos keladigan transport infratuzilmasini rivojlantirishda mintaqaviy jihatlarni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bu nafaqat transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bilan bog'liq balki transportning turli turlari va transport xizmatlaridan foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va muvofiqlashtirishni rivojlantirishni ham talab etadi. Transport yo'laklari va integratsiyalashgan transport markazlarini faol rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shubhasiz, transport infratuzilmasini rivojlantirmasdan turib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin emas.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida 2017-yilda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmining 12,6 %i

transport va aloqa tarmog`iga to`g`ri keldi. Bu ko`rsatkich 1990-yilda 5,9 %, 1995-yilda 8,4 %, 2000-yilda esa 7,7 %ga teng bo`lgan. Demak, transport va aloqa tarmog`ining yalpi ichki mahsulotdagi salmog`i oshib bormoqda. Sanoat va qishloq xo`jaligida ishlab chiqarishning o`sishi, keng miqyosdagi kapital qurilishi va transport moddiy texnika bazasining yuksalishi bilan hamohang holda yuk va yo`lovchilar tashish hajmlari ham ortdi. Jumladan, 2010 yildan 2017 yilgacha yo`lovchi tashish 34,5 %, yo`lovchi aylanmasi 51,7 %, yuk tashish 37,9 %, yuk aylanmasi 19,1 % ga ko`paydi.

8.2. Mintaqada transport tizimini isloh qilish muammolari va vazifalari

Temir yo`l. «O`zbekiston temir yo`llari» AJ O`zbekiston respublikasi hududida joylashgan sobiq O`rta Osiyo temir yo`llari bazasida 1994 yil 7 noyabrda tashkil topgan. Mamlakat temir yo`llarining umumiy uzunligi 20-yillar boshida 15-89 km ni tashkil etgan bo`lsa, hozirga kelib umumiy temir yo`l uzunligi 6,1 ming kmni tashkil etadi. Jumladan elektrlashtirilgan temir yo`llar 1714 km.ga etdi yoki ushbu ko`rsatkich jami temir yo`llarning 2019 yil holatiga 39 foizini tashkil etadi. Jamiyatda 54.7 mingdan ortiq xodimlar faoliyat ko`rsatadi. Yillik yukni ayirboshlash barcha turdagi transportlarning yuk ayirboshlashi qo`shilmasining 90% tashkil etadi.

O`zbekistonda mavjud bo`lgan transport turlari orasida yetakchi va muhim o`rinni temir yo`llar egallaydi. Mamlakatda tashiladigan yuklarning 66 foiziga yaqini transportning ana shu tarmog`i zimmasiga tushadi va bu transport mamlakat transport tizimining negizini tashkil etadi.

Eksport va import qilinadigan yuklarning qariyb 80 foizi ham temir yo`l transporti orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo`l yordamida 2018 yil tashilgan yo`lovchilar soni qariyb 20 million kishini tashkil etgan.

Iqtisodiy isloxotlar amalga oshirilayotgan va bozor munosabatlariga utilayotgan hozirgi murakkab sharoitda ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va mamlakat hududlarining samara bilan ishlashi ko`p jihatdan temir yo`llarning kay darajada faoliyat ko`rsatishga bevosita bog`liq. Yuklarning temir yo`llar yordamida

va iloji boricha arzon tashilishi iqtisodiyot taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yana shunisi muhimki, temir yo'llarda yuk tashishning tannarxi avtomobillarda yuk tashishga nisbatan 3-5 marta, havo transportiga qaraganda esa 12-15 marta arzon tushadi.

Mazkur transport turida mehnat xarajatlari ham avtomobil va havo transportiga ko'ra ancha kam.

Temir yo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundan iboratki, bu transport atrof muhitga kam zarar etkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori bo'lib, ob-havo injikliklari bilan deyarli bog'liq emas va muntazam ravishda xarakatda bo'ladi. Bu bilan u avtomobil va ayniqsa havo transportidan katta farq qiladi.

O'zbekistonda temir yo'llar qurish o'zining ma'lum tarixiga ega. Mamlakat hududida birinchi temir yo'l 1888 yilla Farob stantsiyasidan Samaqand shahrigacha kurilgan bo'lib, u Turkmanboshi (Sobiq Krasnovodsk shahri) — Chorjuy temir yo'l tarmorining davomi edi. Uning qurilishi keyinchalik davom ettirilib, 1899 yili Andijon va Toshkent shahrigacha etkazilgan edi.

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda ham mamlakat hududida qator temir yo'l tarmoqlari kurilgan. Ularga Farg'ona - Kuvasoy, Asaka -Shahrixon, Qorasuv - Ush, Uch - kurg'on - Toshko'mir, Andijon - Tentaksoy kabilar kiradi.

O'rta Osiyoning, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida 30-yillarda qurilgan, uzunligi 1400 km dan ziyod bo'lgan Turksib (Turkiston — Sibir) temir yo'l magistralining bunyod etilishi o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushining og'ir yillarida temir yo'llar qurilishi va ishga tushirilishi muhim ishlarni bajarish imkoniyatini berdi. Dushman egallab olgan joylardan o'nlab sanoat korxonalarini Respublikamizga kuchirib kelinishi, urushga jalb qilinganlarni qurol-yarog'lar, turli oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va boshqa yuklarni frontga etkazishda temir yo'l transporti katta xizmat qildi. Ana shu davrda temir yo'l tarmoqlarini bevosita sanoat korxonalariga yaqinlashtirish

muhim edi. Masalan, yirik Angren ko'mir havzasiga temir yo'l tarmog'i o'tkazildi, Chirchiq shahridagi o'z davri uchun ulkan bo'lgan va keyinchalik yirik kimyo korxonasiga aylangan elektrokimyo kombinatiga yo'llar qurildi.

Urush tugab tinch davr boshlangan yillarda mamlakatning mavjud temir yo'llarini qaytadan tiklash va yangi temir yo'l tarmoqlarini qurish, zarur texnika bilan ta'minlash evaziga transportning bu turi rivojlandi. Chunonchi, urushdan keyingi yillarda Mirzachul, Karshi chuli, Amudaryoning quyi kismida qo'riq yerlarni o'zlashtirish buyicha katta ishlar olib borildi.

Uzunligi 410 km bo'lgan Kung'irov-Beynovo temir yo'l tarmog'ining ishga tushirilishi O'rta Osiyo iqtisodiy mintakasidan Kozog'istonga, Sobiq SSSRning Evropa qismiga, Kavkaz hududlariga ikkinchi yo'l orqali chiqish imkonini yaratdi. Yuk va yo'lovchilarni uzoq aylanma yo'llar orqali tashishga barham berish transport xarajatlarini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, Kung'irov-Beynovo temir yo'l tarmog'i Amudaryoning quyi qismi tabiiy resurslarini o'zlashtirishga va mazkur mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga imkon yaratdi.

Yuqori qayd etganimizdek, mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 20-yillar boshida 15-89 km ni tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib u 6,1 ming km ga etgan hamda temir yo'llar uzunligi borasida ancha ishlar qilingan bo'lsada, hali mamlakatimizda bu tizim talab darajasida emas. Masalan, O'zbekiston temir yo'l zichligi buyicha nafakat «Uzok» xorij mamlakatlaridan, balki Ukraina, Belorussiya, Boltiqboyi davlatlaridan ham orqada turadi.

Samaqand, Sirdaryo, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari temir yo'l tarmoqlari bilan biroz yaxshi ta'minlangan. Korakalgoriston Respublikasi, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari esa bu borada ancha orqada.

O'zbekiston Respublikasi xukumati 1995 yil avgust oyida G'uzor-Boysun - Qumqorg'on temir yo'lini qurish to'g'risida Qaror qabul qildi. Ushbu yo'l mamlakatimizning janubiy hududlari-Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tabiiy boyliklari hamda mavjud boshqa imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish imkonini beradi, mazkur hududda istiqomat qiluvchi aholining ish

bilan bandlik darajasini ko'tarish imkonini ham yaratadi. G'uzor - Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'li Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo stantsiyasidan Qashqadaryodagi Qarshi stantsiyasigacha bo'lgan masofani qariyb ikki martaga qisqartiradi.

Amalga oshirilgan bu buyuk ishlarning eng muhim ahamiyati va mohiyati shundaki, o'zbek xalqi o'z kuch-qudratini va nimalarga qodir ekanini yana bir bor namoyon etdi. Buni dengiz sathidan 1800 metr balandlikda, qattiq qoya toshlardan iborat tog'li hududlar bo'ylab, yozning jazirama issig'i, garmsellari, qishning izg'irin shamollari ostida temir yo'l izlari yotqizilgani, Toshguzar va Dehqonobod, Oqrabot va Darband, Boysun va Qumqo'rg'on kabi 6 ta yangi stansiya va yo'lovchi platformalariga ega bo'lgan 9 ta bekat barpo etilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ayniqsa, barcha stansiyalarda yo'l xavfsizligini ta'minlaydigan ishlab chiqarish obyektlari, maktab, tibbiyot maskanlari, suv va gaz tarmoqlari kabi ijtimoiy infratuzilma inshootlari barpo qilingani bu loyihaning eng zamonaviy talablar darajasida amalga oshirilganini ko'rsatadi. «Toshguzar–Boysun–Qumqo'rg'on» temir yo'lining qurilishi jarayonida 43 ta ko'prik, jumladan, temir yo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlari singari murakkab muhandislik inshootlari yaratildi. Bu ko'priklarning 9 tasi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda bunyod etilgani, bu borada ilgari O'zbekiston tajribasida ko'rilmagan mislsiz ishlar bajarilganini ko'rsatadi.

Mazkur temir yo'lining qurib, ishga topshirilishi respublika rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l respublikaning janubiy mintaqasi – Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini boshqa hududlar bilan bog'laydigan, qon tomirday zarur bo'lgan vositani, butun mamlakat bo'ylab yagona va yaxlit temir yo'l transport kommunikatsiya tizimini barpo etishga imkon berdi.

Mamlakatimizda yaxlit temir yo'l tarmog'ini shakllantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar belgilab olindi. Bu borada 1994-2001 yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin «Navoiy–Uchquduq–Nukus» temir yo'li qurib bitkazildi. Natijada, ushbu temir yo'l liniyasi ishga tushirilgan dastlabki yillardanoq, Qoraqalpog'iston

Respublikasi va Xorazm viloyatiga katta miqdorda har xil xalq iste'mol yuklari yetkazib berila boshlandi.

Bu yo'l O'zbekistonning chet davlatlarga, avvalo, Transafg'on temir yo'l koridori orqali yaqin kelajakda to'g'ridan-to'g'ri Hind okeani, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish va eksport imkoniyatini, shu bilan birga, respublikaning tranzit rolini kengaytirish borasidagi salohiyatini keskin oshirdi.

Temir yo'l tarmog'ining ishga tushirilishi natijasida yuk tashish va yo'lovchilar qatnovini tashkil qilish, temir yo'llarga xizmat ko'rsatish va yo'l xavfsizligini ta'minlash uchun 2,5 mingga yaqin qo'shimcha yangi ish o'rni yaratildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va xizmat shoxobchalarida, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida esa qo'shimcha tarzda 4 mingdan ortiq kishi ish o'rinlariga ega bo'ldi.

Mintaqaning tabiiy yer osti boyliklarini o'zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tub burilishlarga yuz tutib, aholining turmush farovonligi oshdi. Yuk va yo'lovchi tashish masofasi 170 kilometr ga, harakat vaqti esa 7 soatga qisqardi. Natijada temir yo'l bo'ylab tashilayotgan tranzit va mahalliy yuklar salmog'i sezilarli miqdorda ko'paydi. O'tgan yili mazkur temir yo'ldan bir yilda o'rtacha 5 million tonna yuk o'tkazilayotgani, shundan qariyb 80 foizi tranzit yuklar ekanligi ana shundan dalolat beradi.

Respublikaning xorijga, jumladan, mamlakatimiz janubidagi davlatlarga chiqishida Mashxad—Seraxs —Tajan temir yo'lining qurilishi muhim voqea bo'ldi. 1996 yil 13 mayda Eron Islom Respublikasining Mashxad shahrida uzunligi salkam 300 km bo'lgan bu temir yo'l tarmog'ining tantanali ochilish marosimi bo'lib utdi. Bu yo'l eng qisqa masofa orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarini Fors qo'ltig'i bilan bog'laydi va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Markaziy Osiyo hududida Toshkentdan Samarqandgacha ilk tezyurar yo'lovchi harakatni tashkil qilish maqsadida 2008 yil «O'zbekiston temir yo'llari»

AJ va «Talga» (Ispaniya) kompaniyasi o`rtasida 2 ta tezyurar yo`lovchi elektropoezdlarni sotib olish to`g`risida bitim imzolandi.

2011 yil 8 oktyabrdan «Afrosiyob» (Ispaniyaning «Talga» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan) yuqori tezlikda xarakterlanadigan poezdi Toshkent-Samarqand-Toshkent 161G`162 sonli yo`nalishga ishga tushirildi.

Yangi tezyurar poezd bu marshrut orqali xizmat ko`rsatadigan boshqa elektr poezdlar bilan birga, Toshkent va Samarqand shaharlari o`rtasida harakat qiladi. Yuqori tezlikdagi «Afrosiyob» poezdi ikki soat va o`n besh daqiqa ichida 344 km temir yo`l masofasini bosib o`tadi. Maksimal tezligi soatiga 250 kilometrni tashkil etadi.

O`zbekiston temir yo`llarini doimiy tok asosida elektrlashtirish 1971 yilda boshlangan. So`nggi loyihalardan biri To`qimachi-Angren temir yo`l uchastkasini elektrlashtirish edi, bu 2010 yilda amalga oshirildi. Ko`rsatilgan temir yo`l uchastkasini ishga tushirish hisobiga elektrlashtirilgan uchastkalar uzunligi 1601 km ga etdi.

Loyihaning maqsadi bu uchastkada mavjud bo`lgan dizel tortishni o`zgaruvchan tokli elektr tortishga o`zgartirish edi, bu Toshkent hududida barcha temir yo`l liniyalarini zamonaviy texnologiyalarga o`tishni yakunlashga olib keladi.

Loyihaning maqsadi bu uchastkada mavjud bo`lgan dizel tortishni o`zgaruvchan tokli elektr tortishga o`zgartirish edi, bu Toshkent hududida barcha temir yo`l liniyalarini zamonaviy texnologiyalarga o`tishni yakunlashga olib keladi.

Butun uchastka bo`ylab yangi texnologiyalar - SCADA masofadan boshqarish tizimi, aloqa tizimi, tortish podstantsiyalari, mikroprotsessor markazlashtirish tizimi, o`q va telekommunikatsiya elektron hisoblash tizimlari joriy qilingan. Elektr ta`minot tizimi poezdlarning soatiga 160 km gacha tezlik bilan harakatlanishini hisobga olgan holda qurilgan.

Qurilish paytida umumiy uzunligi 265 m bo`lgan 3 ta ko`prik, 2258 ta elektr minoralar, elektr podstantsiyalar, poezdlar harakat xavfsizligini ta`minlovchi

zamonaviy uskunarlar va nazorat asboblari bilan jihozlangan navbatchi punktlari va markazlashtirilgan elektr ta'minot postlari uchun 6 ta bino va inshootlar barpo etildi.

Hozirgi vaqtda Maroqand-Qarshi, Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, yangi elektrlashtirilgan Angren-Pop liniyasini qurish investitsion loyihalari amalga oshirildi.

2016 yilning 22 iyunda O'zbekiston va Xitoy hamkorligining yirik va istiqbolli loyihasi ijrosi – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li hamda Qamchiq tunneli foydalanishga topshirildi.

Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etishdan maqsad ham nafaqat Farg'ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtasida temir yo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatini yaratish, shu bilan birga, Xitoy – Markaziy Osiyo – Evropa yangi xalqaro tranzit temir yo'l koridorining eng muhim bo'g'ini bo'lishi nazarda tutilgan edi. Uzunligi 123,1 kilometr bo'lgan Angren-Pop temir yo'lining Qamchiq dovonidan o'tgan qismida 19,2 kilometrlik tunnel barpo etildi. Ushbu qurilish jarayonlari davomida o'zbekistonlik temiryo'lchilarning salohiyatiga xitoylik mutaxassislar qoyil qolishdi, xitoyliklarning mahoratiga o'zbekistonliklar tasannolar aytishdi. Katta mehnat g'alabasiga har ikki tomonning yuksak mehnati, hamjihatligi tufayli muddatidan avval erishildi.

2017 yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi davomida Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashdi. Aynan ana shu anjumanda Davlatimiz rahbari Xitoyning «China Railway Tunnel Group» kompaniyasiga Angren-Pop temir yo'lining Qamchiq dovoni qurilishining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi uchun alohida minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, mazkur tashrif doirasida ko'plab sohalar, xususan, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida «O'zbekiston temir yo'llari» aktsiyadorlik jamiyati bilan XXRning yetakchi quruvchi kompaniyalari o'rtasida samarali kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda ushbu temir yoʻl orqali Toshkent – Andijon – Toshkent yoʻnalishida har kuni zamonaviy tezyurar yoʻlovchi poezdlari aholiga xizmat koʻrsatmoqda. Andijon – Buxoro – Andijon yoʻnalishida haftasiga ikkita yoʻlovchi poezdi, haftada bir marotaba Andijon – Urganch – Andijon, Andijon – Moskva – Andijon yoʻnalishlarida yoʻlovchi poezdlari qatnovi tashkil etildi. Bundan tashqari, bir sutkada oʻnlab yuk poezdi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yoʻli orqali oʻtib, yuklarni oʻz manziliga etkazmoqda.

Xususan, mazkur temir yoʻl orqali, bir yil davomida 413 ming 162 nafardan ortiq yoʻlovchiga xizmat koʻrsatildi, 7395,6 ming tonna yuk tashildi. Shuningdek, 1718 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Mustaqillik yillarida temir yoʻllarni elektrlashtirish ishlariga katta ahamiyat qaratildi. Oʻtgan davrda Xovos–Bekobod, Xovos–Jizzax liniyalari elektrlashtirildi va Maroqand–Qarshi, Maroqand–Buxoro yoʻnalishlarini elektrlashtirish ishlari 2016 yilda yakunlandi. Toshkent–Samarqand–Buxoro, Toshkent–Samarqand–Qarshi yoʻnalishlarida tezyurar elektropoezdlar qatnay boshladi. Natijada poezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yoʻlovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshirish imkoni yaratildi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng birinchi boʻlib yuqori tezlikda harakatlanuvchi Toshkent, Samarqand, Qarshi va Buxoro shaharlarini bogʻlovchi «Afrosiyob» poezdlari qatnovi yoʻlga qoʻyildi.

Jamiyat lokomotiv parklarini, yoʻlovchi va yuk vagonlarini yangilash boʻyicha bir qator loyihalarni amalga oshirish muhim masalardan biridir. «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ korxonalarida yoʻlovchi va yuk vagonlarini seriyali ishlab chiqarish oʻzlashtirildi. Bu, hususan, havoni sovitish moslamasi bilan johozlangan kupeli vagonlar, yuk vagonlarining eng katta talabga turlari – yopiq, neft mahsulotlari uchun sisternalar, yarimvagonlar va boshqalar.

Bundan tashqari, temir yoʻl infratuzilmasi va harakatlanuvchi tarkib uchun ehtiyot qism, uzal va detallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va import oʻrnini bosishni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Mintaqada avtomobil yo'llari. O'zbekiston hududida avtomobil yo'llari tarmog'i ancha keng. Hap 1000 km² maydonga avtomobil yo'llarining zichligi 210 km ga etadi. Qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega.

Hozirgi kunda avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 90 ming km dan ortiq. Mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llari jumlasiga, eng avvalo Toshkent, Samaqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlar orqali o'tgan Katta O'zbek avtomobil trakti kiradi. 1940 yili qurib bitkazilgan va 700 km dan ortiq uzunlikka ega bo'lgan ushbu ravon yo'l qanchadan-qancha yuk va yo'lovchilar tashishga va hududlar orasida transport xizmati ko'rsatishni yaxshilashga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan oldin Farg'ona vodiysidagi uch viloyat va qator shaharlarni, jumladan Qo'qon, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Namangan, Chust shaharlarini bog'lab turuvchi aylanma yo'l qayta qurildi. Shuningdek, Toshkent — O'sh, Samarqand — Ashxobod — Turkmanboshi, Toshkent halka yo'li, Nukus — G'uzor, Qo'ng'irot — Beynov kabi yana qator avtomobil yo'llari ham O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda kushni Tojikistonda vujudga kelgan vaziyat sababli mamlakatimizning markaziy va g'arbiy qismlaridagi hududlarini Fargona vodiysi viloyatlari bilan aloqasini bog'lashda ancha muammolar yuzaga keldi. Shuni e'tiborga olib Respublika xukumati Toshkent-O'sh yo'lining Angren suv omboridan Farg'ona vodiysiga kirib borguncha qismini qayta qurish buyicha maxsus Qaror qabul qildi. Bu maqsadni ko'zlab Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil transporta xarakati uchun muljallangan tonnellar qurish borasida katta ishlar boshlab yuborildi va bu ishlar muvaffakiyat bilan amalga oshirildi.

Qamchiq tonnelining uzunligi 890, Rezak tonnelining uzunligi esa 368 metrga teng bo'ldi. Bu tonnellarining ishga tushirilishi tufayli Qamchiq dovoni orqali amalga oshiriladigan avtomobil transporti aloqalarida avvallari tez-tez uchrab turadigan xavf-xatarga chek qo'yildi. Qamchiq va Rezak tonnellaridan bir kecha-kunduzda 12 mingga yaqin avtomobillar o'tish imkoniga ega. Shunday qilib

mazkur yo`l Farg`ona vodiysini Respublikaning boshqa hududlari bilan bog`lab turadigan eng yaqin va qulay yo`l bo`lib qoldi.

Mustaqillikka erishish tufayli respublikamizni halkaro avtomobil yo`llari bilan bog`laydigan yo`llar qurish ishlariga ham e`tibor kuchaydi. Jumladan, Xitoy Halk Respublikasiga chiqish uchun imkon tug`diradigan Andijon — O`sh — Ergashtom — Qashqar avtomobil yo`lining qurilishiga O`zbekiston o`z hissasini qo`shmoqda.

Ko`pgina mamlakatlarda bo`lgani kabi, O`zbekistonda ham halkaro yunalishlarda yuklarni avtomobillarda tashish buyicha Uyushma tashkil etilgan. Jeneva shahrida avtomobil transporti Xalqaro uyushmasi kongressida O`zbekiston ham bu nufuzli tashkilotga a`zo bo`lib kirdi. Ushbu uyushma Respublikamiz hududida boshqa mamlakatlar yuk tashuvchilarining manfaatlarini muhofaza qiladi va avtomobil yo`llari holati, yoqilgi narxi, yo`l uchun tulov bahosi va boshqa masalalar buyicha zarur ma`lumotlar bilan xabardor etib turadi.

1926 yili Respublikada muntazam avtobus qatnovi yo`lga quyilgan edi. Shundan beri o`tgan davr ichida yo`lovchilar tashuvchi avtobuslar son va sifat jihatidan tez rivojlandi. Transportning bu xili orqali yo`lovchilar tashish 1940 yildagiga nisbatan qariyb 250 martadan ziyod ortdi.

Mamlakatda turli hajmda yuk ko`taradigan yangi yuk tashuvchi avtomobillar, qulay va shinam avtobuslar hamda engil avtomobillar soni yil sayin oshib bormoqda.

Respublika poytaxti Toshkent shahrida 1977 yili metro kurilib ishga tushirildi. Aholisi ikki milliondan ziyod shahar uchun ushbu transportning bu vositasi mohiyatini to`la ifodalash qiyin.

Hozircha Toshkentda metroning uch yunalishi mavjud: birinchisi Sobir Raximov—Buyuk Ipak yo`li, ikkinchisi Beruniy—Chkalov yunalishi, uchinchisi Yunusobod tumani bilan Janubiy vokzal orasidagi yunalishdir. Keyinchalik Janubiy vokzaldan Sirg`ali tumani orasida metroning to`rtinchi yunalishini qurish ishlari davom etmoqda va undan keyin esa Toshkent halqa yo`lini vujudga keltirish mo`ljallanmoqda.

Mintaqa havo transporti. Mustaqil Respublika transporti haqida soʻz yuritilganda havo transportining mohiyati tobora ortib borayotganini ham koʻrsatib oʻtish lozim. Transportning bu xili oʻz ishini birinchi marta 1924 yili boshlagan edi. Oʻsha yilning 12 may kuni Toshkent—Bishkek—Olmaota shaharlari orasida havo transporta aloqasi yoʻlga quyilgan edi. Ana shundan beri utgan davr ichida transportning bu xili tez rivojlanib ketdi. Hozir havo transporta orqali asosan yoʻlovchilar tashiladi. Shu bilan birga bir manzildan ikkinchi bir manzilga tez yetkazish zarur boʻlgan yuklarni, ayniqsa tez buziladigan yuklarni ham tashishda havo transportidan foydalaniladi.

1993 yili «Oʻzbekiston havo yoʻllari» Milliy aviakompaniyasi tashkil topishi havo yoʻli transporti taraqqiyoti sohasida qoʻyilgan muhim qadam boʻldi. Bu kompaniya xizmati tufayli Toshkentdan Nyu-York, London, Tokio, Pekin, Parij, Istanbul, Dehli, Tel-Aviv, Seul, Kuala-Lumpur, Jidda, Oʻrumchi kabi jahonning koʻpgina shaharlari bilan havo transporti qatnovi amalga oshirilmoqda. Keyinchalik Toshkentdan samolyotlar qatnaydigan manzillar ruyxati yanada kengayishiga shubha yoʻq.

«Oʻzbekiston havo yoʻllari» aviakompaniyasi bilan AKShning «Boing» kompaniyasi oʻrtasida imzolangan shartnomaga koʻra 1996 yil avgust oyidan boshlab Toshkent bilan jahonning qator shaharlari, jumladan Nyu-York, Afina, Jakarta, Singapur kabi shaharlar orasida «Boing» samolyotlari uchishi yoʻlga qoʻyildi.

2010 - 2017 yillarda havo transporti yoʻlovchi aylanmasi hajmi 5,8 dan 7,5 mlrd.yoʻlovchiGʻkm oshdi, yoʻlovchi aylanmasi bu davrda 4,7 barobar oshdi.

Mustaqillik yillarida havo kemalari parki «Boeing-757-200», «Boeing-767», «Boeing 767-300 YER», «Boeing 787-8», «Dreanliner», «Airbus», «A 310», «A320-200», «RJ-85», va yuklarining «Boeing-767-300BCF» va Airbus «A300-600» kabi zamonaviy yoʻlovchi samolyotlar bilan toʻldirildi.

Shu bilan birga, aviakompaniya tarkibida faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyodagi yagona soʻnggi avlod aviatsiya texnologiyasiga xizmat koʻrsatish markazi 300 dan ortiq xorijiy samolyotlarga xizmat koʻrsatmoqda. Bugungi kunda

«Navoiy» aeroporti negizida tashkil etilgan xalqaro intermodal logistika markazi mintaqadagi eng yirik va eng yuqori texnologik havo yuklari komplekslaridan biridir.

MDH davlatlari hududida «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi mahsulotni yuklash, tushirish, joylashtirish, ularni qisqa vaqt ichida omborlarga joylashtirish bilan shug`ullanadigan yagona markazdir. Havo sharoitlariga qaramasdan, zamonaviy aviatsiya uskunalari bilan jihozlangan xalqaro intermodal logistika markazi turli xil avialaynerlarni qabul qilishga muvaffaq bo`ldi.

Bugungi kunda u O`zbekistonni asosiy logistika markazlari Evroosiyo - Frankfurt, Milan, Bryussel, Vena, Bazel, Zaragoza, Dubay, Dehli, Inchon, Tyanjin, Guangjou, Xanoyi va Shanxay bilan bog`laydi. Aeroportning yuk terminali turli xil harorat sharoitlariga -25 dan Q2 daraja haroratgacha bo`lgan maxsus xonalar bilan jihozlangan.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash keng imkoniyatlar mavjud, shuningdek, katta hajmli, og`ir, havfli va nostandart yuklarni eksport va import. Uning sig`imi kuniga 300 tonnagacha yukni saqlash va qayta ishlash imkonini beradi. Xalqaro standartlarga muvofiq 11 aeroport (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg`ona va Navoiy shaharlarida) modernizatsiya qilindi. Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroport hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari ham xalqaro aeroport maqomiga ega.


Mintaqada magistral quvurlar. O`zbekiston hududida yirik tabiiy gaz, neft konlarining topilishi va ishga tushirilishi sababli quvur transporti rivojlandi, muhim ahamiyatga ega bo`lgan gaz quvurlari vujudga keldi.

Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali tashish temir yo`l va daryo yo`llari orqali tashishdan iki-uch marta arzon, yo`l davomida mahsulotning tabiiy yukolishi kamayadi, tashish jarayoni muntazamlashadi.

Quvur orqali yuk tashish jarayonini avtomatlashtirish ancha oson bo`lib, ko`p sonli ishlovchilarga zaruriyat bulmaydi. 1980 yilda truboproddagi neft

mahsulotlarini tashish tannarxi bir tiyindan xam kam, bu temir yo'lga nisbatan 2,6 mildir. sum iqtisod qilish imkonini bergan.

Neftigaz industriyasi sanoatning flagmani va iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. U mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. 2018 yil 1 yanvar holatiga respublika bo'yicha magistral quvurlarning uzunligi 13895,7 km.ni tashkil qildi (8.1-rasm).



8.1-rasm. 2018 yil 1 yanvar holatiga magistral quvurlar uzunligi, km

Gaz quvurlari barcha magistral quvurlarning 99,2 %ni tashkil qiladi. Neft quvurlarining ulushi 0,8 % ni tashkil etadi.

Magistral quvurlarning muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

- 1) yuklarni tashishning arzonligi (ular orqali neft tashish temir yo'l transportiga qaraganda 3 baravar kam xarajat qiladi);
- 2) quvur liniyalari qurilishi uchun nisbatan kam xarajatlarda (bir xil quvvatga ega magistral yoki temir yo'l qurilishidan 2 baravar kam);
- 3) to'g'ri ishlaydigan quvurlar ishonchli, iqlim sharoitiga bog'liq emas, yil bo'yi ishlaydi;
- 4) minimal yo'qotishlar kam (temir yo'l bilan taqqoslaganda 1,5 baravar kam va suv transportiga nisbatan 2,5 baravar kam);
- 5) yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega.

Ushbu transport turining kamchiliklari: yuklarni tashish tezligining pastligi va ekologik halokat xavfini tug'diradigan avariya xavfi bilan izohlanadi, metall sarfining ko'pligi kiradi. Quvur diametri 24 dyum bo'lgan 1 km quvurga 123 tonna metal sarflanadi.

Quvur transporti rivojlantirish muammolari. Quvur transporti oldiga quyilgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun magistral quvurlar miqdorini ko'paytirish bilan birga ularning ish samaradorligini oshirish xam katta ahamiyatga egadir.

Ish samardorligini oshirishda tarmoqda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga quvurlar umumiy miqdorini yanada ko'paytirish, ularning o'tqazuvchanlik qobiliyatini oshirish, quvurlarni karroziyaga karshi neft bitumlari bilan qoplash, boshqarish ishlarida telemexanika va avtomatlashtirish asboblari keng qo'llash va boshqalar kiradi.

Quvur transportining yuqori samaradorligi hisobga olinib, ko'pchilik davlatlarda og'ir uglerod-etan, etilen, propan, propilen va boshqalar, suyuq va gazsimon moddalar-kislorod, ammiak, vodorod, azot, xlor, rasstvorli har xil tuzlar hamda ayrim oziq-ovqat (sut) buyumlari ham quvur orqali tashilayotir.

Ko'p vaqtlardan beri ayrim qattiq moddalar ham gidprotransport orqali eritma (pulpa) shaklida tashilayotir. Hozir ba'zi bir qattiq moddalarni (ko'mir, madan va boshqalar) kapsulalarga joylashtirilib, gaz yoki suyuq neft mahsulotlari bilan yuborish masalalari ham ishlab chiqilayotir.

Qattiq moddalarni quvurlar orqali yuborish ancha murakkabligi tufayli bu masalani hal qilish ustida hali juda ko'p tadqiqotlar o'tkazish zarur. So'nggi yillarda qum shag'al va boshqa materiallarni konteynerlarga joylashtirib (2-3 tonnalik) katta bosim yordamida trubaprovod orqali yuborish ustida sanoat miqyosida tajribalar o'tkazilayotir. Bunday konteynerlarda yuk yuborish tezligi 40-5 kmG's atrofidadir. O'tkazilayotgan tajribalar kelajakda yuklarni man shunday usulda tashish tejamli bo'lishini ko'rsatayotir.

8.3. Transport korxonalarini rivojlantirish istiqbollari

Yuqorida aytib o'tilganidek, temir yo'l transporti jahondagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotining muhim aloqa vositasi bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimiz uchun esa uning ahamiyati yana ham katta. Chunki, Respublika chetga chiqish uchun zarur bo'ladigan suv yo'llaridan olis bo'lganligi uchun temir yo'l transporti mamlakatni jahon mamlakatlari bilan bog'lab turuvchi asosiy

vositadir. Ayni vaqtda temir yoʻl transporti doirasida mavjud boʻlgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yoʻllarini topa bilish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda jamiyat tuzilamasi tubdan isloh qilinmoqda. Alohida eʼtibor muayyan sohalarni hususiylashtirishga qaratilmoqda.

Jamiyatning asosiy faoliyat yoʻnalishlari quyidagilardir:

- ✓ tarqatish vat temir yoʻl orqali yuklarni yetkazib berish;
- ✓ temir yoʻl vagonlarini sozlash va texnik xizmat koʻrsatish;
- ✓ yoʻlovchi, sayyohlik tashishlar;
- ✓ xizmat koʻrsatish, lokomotiv va vagon parkini yangilash.
- ✓ Jamiyat uchun ustuvor yoʻnalish quyidagi sarmoya loyihalarini amalga oshirish hisoblanadi:
- ✓ optik tolali liniyalar yordamida aloqa kanallarini mustahkamlash;
- ✓ yangi harakatlanuvchi tarkib sotib olish (elektrovoz va vagonlar) hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish;
- ✓ yangi temir yoʻl liniyalarini qurish;
- ✓ temir yoʻllarni elektrlashtirish;
- ✓ yoʻllarni kapital taʼmirlash loyihalarini amalga oshirish, jamiyat zavodlarida yoʻlning ustki qurilmasi elementlarini ishlab chiqarishni tashkil qilish va h.z

Jamiyatda sarmoyaviy qoʻllab quvvatlashni talab qiladigan bir necha loyihalar mavjud boʻlib, ular amalga oshirilgan taqdirda sarmoyachiga katta foyda olib kelishni vaʼda qiladi.

«Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ 1993 yildan beri Temir yoʻl Hamkorlik Tashkiloti aʼzosidir. Jamiyat Xalqaro Temir yoʻllari Ittifoqi va Osiyo va Tinch okeani hududidagi BMTning Iqtisodiy komissiyasi bilan uzviy aloqaga ega.

«Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ TRASEKA (Evropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori) loyihasining Evropa Ittifoqi Komissiyasi TESIS dasturi bilan hamkorlikda ish olib bormoqda.

1994 yil 7 noyabr yaratilganidan buyon «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ 20 yildan ortiq davr mobaynida Oʻzbekiston Respublikasining tuzilishi-shakllantirish

va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Barqaror rivojlanish, barqarorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, va «O'zbekiston temir yo'llari» AJ korxonalarining iqtisodiy va sanoat rivojlanishining o'sish dinamikasining oshishi O'zbekiston Respublikasining butun iqtisodiyoti va transport sohasining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Temir yo'l transporti mavjud bo'lgandan beri va faoliyati davomida O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Uning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun o'z vaqtida yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlash hisoblanadi. Bu boradagi ishlar turli ko'rinishlarda amalga oshirilmoqda va O'zbekiston Respublikasi temir yo'l tarmog'ini o'tkazish va tashish imkoniyatlarini maksimal xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Yuk va yo'lovchi tashish shakllantirish, temir yo'ldan foydalanish xarajatlarni optimallashtirish, poezd harakatining xavfsizligini ta'minlash xalqaro shartnomalar doirasida xorijiy sheriklar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi strategik geografik o'rinni egallashi va mintaqadagi geosiyosiy rivojlantirish markazi ekanligini hisobga olib, asosiy tranzit yo'laklarini qit'amizning Shimoliy va Janubiy Sharq va G'arbni bog'lovchi O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tgan. Bu AJni rivojlantirishni rejalashtirishda va qo'shimcha o'rganishga va optimallashtirishga muhtoj bo'lgan muammolarni aniqlashda muhim omil hisoblanadi .

Temir yo'l transporti qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, hozirgi kunga kelib «O'zbekiston temir yo'llari» AJ nafaqat MDH mamlakatlari a'zolari bilan balki chet el mamlakatlari bilan temir yo'l sohasida hamkorlik to'g'risida ikki tomonlama kelishuvga egadir.

Jamiyat shuningdek Xalqaro temir yo'l ittifoqi (UIC, Frantsiya), BMTning Osiyo va Tinch okeani hududi va Markaziy Osiyo uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP), Osiyo tarraqiyot banki doirasida Markaziy Osiyo hududiy iqtisodiy hamkorlik (CARES), temir yo'l tashkilotlari hamkorligi (OSJD, Polsha), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO, Eron), MDHga a'zo davlatlarning

temir yoʻl transporti boʻyicha kengashi kabi tashkilotlari bilan faol hamkorlik qiladi.

Oʻzbek temir yoʻllarining zamonaviy texnik uskunalar bilan jihozlanganligi, geografik joylashuvi Evropa-Osiyo xabarlarida muhim bogʻlovchi omil hisoblanadi. U Xitoy, Yaponiyani MDH mamlakatlari, Eron, Turkiya va Evropa bilan transport aloqalarini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy Ipak yoʻlini qayta tiklashda Oʻzbekiston Respublikasi va uning temir yoʻllari muhim ahamiyatga ega oʻrin egallaydi yoki TRASEKA transport yoʻlagi, Osiyodan Evropaga qisqa va arzonroq yoʻnalish hisoblanadi.

2006 yil noyabr oyida Pusan shahrida (Janubiy Koreya) transport boʻyicha Xalqaro konferentsiya oʻtkazish jarayonida Oʻzbekiston temir yoʻl maʼmuriyati rahabari tomonidan Transosiyo temir yoʻllari tarmogʻi boʻyicha hukumatlararo kelishuvi imzolandi. Agar transosiyo temir yoʻllari doirasidagi hamkorlikning amaliy ahamiyatini eʼtiborga olinsa, hamda Oʻzbekiston Respublikasi geografik joylashuv sababiga koʻra dengiz portlariga toʻgʻridan toʻgʻri chiqishga ega emasligi ushbu hujjatning imzolanishi Oʻzbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini temir yoʻl transporti taʼminoti takomillashuviga sabab boʻladi.

Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJning xalqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega, bu yarmarkalarda Hamdoʻstlik va chet el mamlakatlarining yuzlab mashhur turistik firmalari taqdim etilgandi. Bu savdo maydonlarida jamiyat nomidan «Oʻztemiryoʻlyoʻlovchi» AJ temir yoʻl transportida turistik tashishlarni tashkillashtirish sohasida oʻz imkoniyatlarini koʻrsatmoqda. Bu imkoniyatlardan biri bu jahon standartlarining barcha talablariga javob beradigan yangi rusumdagi yoʻlovchi vagonlarda yoʻlovchilarni tashish hisoblanadi. «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ turli xalqaro tashkilotlar, firmalar, kompaniyalar, MDH davlatlari temir yoʻl maʼmuriyatlari, Boltiq va uzoq horij vakillarini qabul qiladi. Muzokaralarda ikki tomonlama hamkorlik, tashishlarni tashkil qilish, material va ehtiyot qismlar bilan taʼminlash, yangi liniyalar va inshootlarni qurish, investitsiya dasturi va koʻpgina boshqa masalalar koʻrib chiqilmoqda.

Hozirda Butunjahon Banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Evropa qayta qurish va rivojlanish banki (EBRR), KfB Banki (Germaniya), Eksimbank (KXR) jamiyatning jiddiy hamkorlari bo`lib kelmoqda. Shu bilan birga «Patentes Talgo L.S.» (Ispaniya), «Jeysmar» (Frantsiya), «Plasser end Toyrer» (Avstriya), «CNTIC» va «CRTG» (Xitoy), «BELAM» (Latviya), «Sumimoto», «Marubeni», «Shimidzu», «Kanimatsu» (Yaponiya) va boshqa mashhur firmalar tomonidan jamiyatga katta qiziqish bildirilgan.

Temir yo`llar mintqa ichida joylashganligi sababli, biz xalqaro tashish sifatini oshirgan va yetkazish muddatlarini qisqartirgan holda, bu sohada hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Mintqada ayni vaqtda qishloq avtomobil yo`llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko`chalarining holati bilan bog`liq bo`lgan bir qator muammolar hal etilmasdan qolmoqda, ushbu avtomobil yo`llarining aksariyat qismi belgilangan sifat va xavfsiz harakatlanish talablariga javob bermaydi.

Yangi turar joy mavzellarining barpo etilishi, shaharlarning kengaytirilishi, transport vositalari sonining jiddiy ko`payishi mintaqaviy avtomobil yo`llari holatini tubdan yaxshilash yuzasidan amaliy chora-tadbirlar ko`rishni talab qiladi.

Tuman va shaharlarning yo`l tashkilotlari yo`l-ta`mirlash texnikasi, moddiy-xomashyo resurslari bilan etarli darajada ta`minlanmagan, har yili ajratilayotgan mablag`lar xo`jaliklararo qishloq avtomobil yo`llarini, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko`chalarini zarur darajada saqlash va ta`mirlash ishlarining sifatli bajarilishini ta`minlash uchun etarli emas.

2017 yil 14 fevraldagi «Yo`l xo`jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi farmoni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Farmonga muvofiq⁴⁶, avtomobil yo'llari sohasida yagona texnik siyosatni olib borish, avtomobil yo'llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash, xalqaro tranzit yo'laklarini shakllantirish, umumiy foydalanishdagi hamda ichki yo'llarni ta'mirlash kabi vazifalar qo'mitaning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Hududlardagi mintaqaviy yo'llarni kapital va joriy ta'mirlash ishlari qo'mita tasarrufidagi tuman yo'l xo'jaligi korxonalariga birlashtirilgan.

Mamlakatimizning ba'zi hududlaridagi ta'mirtalab yo'llar aholi va transport harakatiga noqulayliklar tug'dirmoqda. Bu aholi va foydalanuvchilar e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Mintaqaviy avtomobil yo'llarining yo'l qoplamalari holatini zarur darajaga keltirish, yo'l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholining hayot faoliyati uchun, ayniqsa, qishloq joylarida qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini va hududlarini istiqbolli rivojlantirish maqsadida 2017 yilning 14 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va 2017–2018 yillarda mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish dasturini tasdiqlangan.

Ushbu yillar dasturda 2017–2018 yillarda 5454 km, jumladan, 2017 yilda — 2700 km, 2018 yilda — 2754 km xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlandi.

Jumladan, Qoraqalpog'iston bo'yicha 295 km, Andijon viloyati bo'yicha — 324 km, Buxoro- 439 km, Jizzax — 222 km, Qashqadaryo — 679 km, Navoiy — 216 km, Namangan — 309 km, Samarqand — 479 km, Surxondaryo — 535 km, Sirdaryo — 267 km, Toshkent — 516 km, Farg'ona — 520 km, Xorazm — 321 km va Toshkent shahri bo'yicha — 332 km yo'llar va ko'chalarni ta'mirlandi.

⁴⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi «Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. Manbaa uzA.

Biroq bu ko'rsatkichlar va ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning jami mamlakat bo'yicha 184 ming km.ni tashkil etadigan avtomobil yo'llarini ta'mirlangan, zamonaviy talabga javob beradigan mahalliy ichki yo'llarni qismini 60 foiziga ham etmaydi.

Bu borada kamchiliklardan biri avtotransport ho'jaliklari holati bilan bog'lab ko'rsatish mumkin. Xususan:

- avtotransport ho'jaliklarini modernizatsiya qilish zamonaviy talablar darajasida emasligi, sohada ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual transport tizimlari etarli darajada joriy etilmayotganligida;

- og'ir yuk tashuvchi avtotransport vositalarining harakatdagi tarkibi parkining eskirganligi yuqoriligicha qolayotganida;

mamlakatning avtotransport xizmatlari eksporti va tranzitini oshirish salohiyatining imkoniyatlari va zaxiralaridan to'laqonli foydalanilmayotganligida ko'rish mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun birgina 2017-2018 yillarda xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullarning ko'chalarini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun mintaqaviy yo'llarni ta'mirlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni 330 ta yo'l texnikasi bilan ta'minlandi.

Shuningdek ushbu dasturda mavjud respublika xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloq va ovullar ko'chalarini bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazish va ularni pasportlashtirish, bu boradagi ishlar natijalari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini yaratish belgilangan.

2018 yilda «Obod qishloq» dasturi doirasida respublikaning 159 ta tumanidagi 417 ta qishloqning me'moriy qiyofasini tubdan yangilash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida ulardagi yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarida qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Xususan umumiy uzunligi 5 476 kilometrdan iborat mintaqaviy yo'llar (ichki ko'chalar)ni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirilgan. Bu

boradagi ishlarni davlat darajasida e'tiborda ekanligi albatta yo'llarimizni yildan-yilga yaxshilanib borishiga xizmat qiladi.

8.4. Axborot kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanishi

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu iqtisodiy o'sish mexanizmi, hamda boshqa sohalarda iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirib va intellektual inson mehnat mahsuloti, ma'lumotlaridan foydalanish va bilimlarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishni davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'li bilan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida tub o'zgarishlarni, birinchi navbatda zamonaviy yuqori texnologiyali xizmatlar, shuningdek, yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, boshqaruv tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hayotning barcha javhalarida innovatsion usullar bilan bog'liq bo'lgan yuksak salohiyatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Bugungi kunda respublikamiz AKT sohasidagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tan olingan. 2017 yilda Xalqaro elektraloqa ittifoqi («Axborot jamiyati o'lchovi») ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yil bilan taqqoslanganda mamlakatimiz AKTni rivojlanish indeksi bo'yicha sakkiz pog'onaga ko'tarilib, 95 o'rinni egalladi.

2016 yilda respublika YaIMda AKT sektorining ulushi 2,6 % ni tashkil etdi. AKT tarkibida yuqori ulush xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotda aloqa va axborotlashtirishning ulushi telekommunikatsiya tarmog'iga aholining texnik imkoniyatlarini ta'minlash, ularning asosida sifatli xizmat ko'rsatish, raqamli telefon aloqa va televidenie tizimlarga to'liq o'tish orqali erishiladi. «Axborot va aloqa» iqtisodiy faoliyatning bir turi sifatida O'zbekiston Respublikasi YaIMning 2,5 % ni tashkil etadi.

2017 yilda aloqa xizmatlari hajmi 7168,1 mlrd.so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 28,5 % ga o'sdi (amaldagi narxlarda). Eng katta hajm mobil aloqa xizmatlari (3881,0 mlrd.so'm); ma'lumotlar uzatish tarmog'i, shu jumladan Internet (1808,8 mlrd.so'm); shaharlararo, xalqaro telefon aloqasi xizmatlari (911,1 mlrd. so'm) egallaydi.

O'zbekistonda magistral telekommunikatsiya transport tarmoqlari kengaytiriladi. Bu haqda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ta'kidlangan.

Xususan, amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda «O'zbektelekom» AK magistral telekommunikatsiya tarmog'i o'tkazuvchanligini viloyat markazlarigacha 100 Gbit/s dan 400 Gbit/s gacha, tuman markazlarigacha 10 Gbit/s dan 100 Gbit/s gacha oshirish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek, mobil aloqa tarmog'i kengaytiriladi. Bu borada amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilib, bunda mobil aloqa tarmog'ini kengaytirish maqsadida 1050 ta GSM baza stantsiyalari o'rnatiladi.

Bundan tashqari, keng polosali ma'lumotlar uzatish tarmoqlari rivojlantiriladi - amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bunda: 620 000 portli ma'lumotlar uzatish qurilmalari o'rnatiladi; loyihani amalga oshirish natijasida aholiga (Triple play) Internet, IP va video telefoniya, IPTV, VPN va boshqa turdagi zamonaviy xizmatlarni taqdim etish imkoniyatlari kengaytiriladi

Optik tolali aloqa liniyalari ham quriladi. Bu bo'yicha ishlab chiqiladigan amaliy chora-tadbirlarda: 2 000 km optik tolali aloqa liniyalarini quriladi; loyihani amalga oshirish natijasida aholiga sifatli keng polosali telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish imkoniyati kengaytiriladi.

Mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar

1. Transportning asosiy vazifasi keng aholi ommasini hamda milliy iqtisodiyot korxona va tashkilotlarining transport xizmatiga bo'lgan barcha talab-ehtiyojlarini tula va yuqori sifat bilan qondirishdan iborat.

2. O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustaxkamlash va uning jahon uyushmasiga kirib borishi uchun mukammal transport tizimiga ega bo'lish kerak. Turli xil transport vositalari sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga o'z vaqtida, isrof qilmasdan etkazishda faol ishtirok etadi. Aholini bir manzildan ikkinchi bir manzilga etkazishda ham transportning ahamiyati kattadir.

3. Transport ishlab chiqarish tizimida muhim o'rin tutishi bilan birga u xar qanday hudud xo'jaligi majmuasining zaruriy o'rinini bo'lib xizmat qiladi. Uning rivoji tufayli hududlarni iqtisodiy jihatdan ixtisoslashtirish mumkin.

4. Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, aviatsiya, quvurlar va daryo suv yo'llaridan iborat. Transportning barcha turlari yordamida Respublikada xar yili halk xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi.

5. Transport infratuzilmasi - transport tizimini ishlashi uchun shart-sharoit yaratadigan va mintaqqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, hududlarning hududiy yaxlitligini va uning iqtisodiy makonining birligini ta'minlaydi. Shuning uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish mintaqada iqtisodiy o'sishning innovatsion modelini amalga oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilash uchun zarur shartidir.

6. Mamlakatimiz uchun zamonaviy va rivojlangan transport infratuzilmasi haqiqatan ham kelajakka yo'l desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bu iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga sifatli o'tish uchun

strategik ahamiyatga ega. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi imkoniyatlari haqida gapirmasa ham bo`ladi. Transport yo`laklari va integratsiyalashgan transport markazlarini faol rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shubhasiz, transport infratuzilmasini rivojlantirmasdan turib, iqtisodiy o`shishni ta'minlash mumkin emas.

7. O`zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hayotning barcha javxalarida innovatsion usullar bilan bog`liq bo`lgan yuksak salohiyatli loyihalarni amalga oshirish bo`yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Bugungi kunda respublikamiz AKT sohasidagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tan olingan.

Nazorat savollari

1. Transport tizimining ahamiyati va vazifalarini yoritib bering?
2. Transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish maqsad va vazifalarini bayon qilib bering?
3. Transport infratuzilmasining mazmun va mohiyatini tushuntirib bering?
4. Mintaqada temir yo`l kommunikatsiyasi rivojlanish bosichlari va istiqbollari to`g`risida tushuncha bering?
5. Mintaqada temir yo`llardan foydalanishning iqtisodiy afzalliklari nimalarda iborat?
6. Mintaqada avtomobil yo`llar qurilishi uning iqtisodiy ahamiyatini ko`rsatkichlar asosida izohlab bering?
7. O`zbekiston havo yo`llari rivojlanishi, hozirgi holati va istiqbollari haqida tushunchalaringizni bayon qiling?
8. Mintaqada magistral quvurlar va ulardan foydalanish samaradorligi to`g`risida nimalarni bilasiz?
9. Mintaqada temir yo`llar tizimini isloh etishning asosiy yo`nalishlari nimalardan iborat?
10. Mintaqada boshqaruv tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga nimalar kiradi?

9-MAVZU. O`ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA, VA MAHALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O`RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLAS MEXANIZMI

Reja:

9.1. Davlat hokimiyatining turli pog`onalari o`rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari va zaruriyatlari

9.2. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyati hamda mustaqilligini yanada oshirish

9.3. Ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash

Tayanch tushuncha va iboralar: davlat boshqaruvi, mintaqaviy boshqaruv, mahalliy boshqaruv, vakolatlar, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari, ko`chmas mulk bozori, ijro organlari, strategik reja, motivatsiya, axborot almashinuv tizimi, nomarkazlashtirish, menejment.

9.1. Davlat hokimiyatining turli pog`onalari o`rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari va zaruriyatlari

Turli miqyosdagi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirmay, iqtisodiy rivojlangan davlat qurish, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mushkul. «Davlat boshqaruvi», «Mintaqaviy boshqaruv» va «Mahalliy boshqaruv» atamalari murakkab tizimni (davlat boshqaruv faoliyatining o`zaro bog`liq tarkibiy qismlari majmui)ni tashkil etadiki, odatda, boshqaruv maqsadlari, vazifalari, printsiplari, vazifalari, usullari, shakllari, subyektlari va obektlari mazkur tizimning asosiy unsurlari hisoblanadi.

O`zbekistonda Respublikasi mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o`rtasida vakolatlarni o`zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati - mahalliy tuzilmalar faoliyatining quyidagi muhim muammolari bilan belgilanadi:

a) mahalliy tuzilmalar va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarini himoya qilish;

- b) davlat mulkini respublika, mintaq va mahalliy mulklarga taqsimlash;
- v) mahalliy mulkning barcha shakllarini muhofaza qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- g) mahalliy tuzilmalarning xususiyatidan kelib chiqib, minimal byudjet bilan ta'minlash normativlari asosida belgilanadigan mahalliy byudjetlarning minimal zarur xarajatlarini qoplash uchun daromad manbalarini mustahkamlash yo`li bilan mahalliy byudjetlarning minimal miqdorini ta'minlash;
- d) mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror normativ-huquqiy negizini ta'minlash;
- e) mamlakatdagi mahalliy tuzilmalarning negizini tashkil etuvchi mahalliy o`zini-o`zi boshqarish quyi organlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash;
- j) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining sud tartibida himoyalaniishga bo`lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;
- z) mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan qo`shimcha xarajatlarning qoplanishi bilan bog`liq konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash;
- i) mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari berilgan alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslarning berilishini ta'minlash;
- k) huquqning kompleks sohasi sifatida mahalliy huquqni shakllantirish, mahalliy qurilish va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish.

Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaq boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo`lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o`rtasida vakolatlarni samarali taqsimlashning muhim shartidir.

O'zbekistonda respublika mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning quyidagi asosiy tamoyillariga asoslanadi:

- davlat, mintaqaviy va mahalliy siyosat maqsadlari, yo'nalishlari, vazifalari hamda vakolatlarini taqsimlash mexanizmlarining yagonaligi printsipi;

- Respublika, mintaq va mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqa o'rnatish printsipi;

- mahalliy islohotni amalga oshirishning turli bosqichlarida davlat siyosatining vorisiyligini ta'minlash printsipi;

- mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlariga davlat hokimiyati yuqori organlarining aralashmasligi printsipi va h.k.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, har birining mustaqilligini kengaytirish, muayyan vakolatlar ularni mumkin qadar samarali amalga oshirishga qodir hokimiyat organlari zimmasiga yuklanishi uchun tegishli hududlarning o'ziga xos (geografik, iqtisodiy, demografik, etnik va h.k.) xususiyatlarini e'tiborga olishni tabaqalashtirish imkonini beradi.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati

O'zbekistonda respublika mahalliy xo'jalik amaliyoti jahon tajribasidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirishning quyidagi samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutadi:

- 1) mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy ahamiyatga molik quyidagi masalalarni mustaqil hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish:

- a) mahalliy mulkka, shu jumladan yerga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

- b) mahalliy byudjetlarni shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish, mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilash;

v) jamoat tartibini saqlash bilan boqliq chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish;

g) fuqarolarning: turar joyga ega bo'lish; sog'lig'ini saqlash; tibbiy yordam olish; bilim olish huquqlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish;

d) soliq va byudjet islohotlari doirasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy negizini shakllantirishni nihoyasiga yetkazish, avvalambor, quyidagilar hisobiga byudjet va soliqlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish:

e) O'zbekiston Respublikasi subyektlarining birlashtirilgan byudjetlarga yo'naltiriluvchi respublika byudjeti mablag'larini qayta taqsimlash, mahalliy tuzilmalarning vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalarni hal qilish uchun mazkur tuzilmalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;

j) davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan alohida davlat vakolatlarining amalga oshirilishi va davlatning minimal ijtimoiy standartlarini belgilash printsiplarini ishlab chiqish;

z) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish moliyaviy-iqtisodiy negizining muhim tarkibiy qismi – mahalliy mulkni faol shakllantirish;

k) ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish va aholi daromadlarini jalb etish hamda kichik va o'rta biznes vakillarining ishtirokini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish;

l) tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda kichik va o'rta biznes korxonalarining aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlash va ular xizmatlar ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

m) respublika, mintaqaviy, mahalliy davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarni hamda tegishli moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash;

n) mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishlari ustidan samarali davlat nazorati tizimini shakllantirish;

o) mintaqa, respublika va xalqaro miqyosda o`zaro hamkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish;

p) mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini davlat tomonidan ilmiy-uslubiy, tashkiliy-uslubiy va axborot bilan qo`llab-quvvatlash;

r) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarida ishlash uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va kadrlarning malakasini oshirish samarali davlat tizimini tashkil etish

Davlatning vakolatlarni taqsimlash muammolarini hal qilish borasidagi faoliyati mahalliy boshqaruvni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan kuchli demokratik davlat qurishning zarur sharti sifatida mahalliy boshqaruvning samaradorligi, roli va maqomini oshirishga yo`naltirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur maqsadga erishish uchun respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o`rtasida vakolatlarni taqsimlash sohasidagi siyosat:

- fuqarolarning mahalliy o`zini-o`zi boshqarishni amalga oshirish konstitutsiyaviy huquqlarini ro`yobga chiqarish;

- mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining o`z faoliyatiga davlat tomonidan kafolat berilishini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo`naltirilgan bo`lishi lozim.

Umuman, o`zaro aloqalarning yo`nalish va tamoyillari universal xususiyatga ega, chunki ular davlat hokimiyatining nafaqat ijro etuvchi, balki boshqa organlarining va mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlarining o`zaro aloqa usullari hisoblanadi. Boshqaruv aloqalarining asosiy turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vakolatlarni taqsimlash;
- vakolatlarni o`zaro o`tkazish (berish);
- mahalliy hokimiyat organlariga ko`maklashish (davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash);
- turli boshqaruv bo`g`inlari o`rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
- turli hokimiyat organlarining faoliyati ustidan davlat nazoratini o`rnatish.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan respublika, mintaqaviy va mahalliy organlarning o'zaro munosabatlari tamoyillarini umumlashtirib, mintaqaviy boshqaruv organlari yuqorida zikr etilgan maqsadlarga erishish uchun qo'llashlari mumkin bo'lgan, qonun hujjatlari va huquqiy nazoratning tabiatiga zid kelmaydigan quyidagi nazorat shakllarini ajratish mumkin:

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish (mahalliy tuzilmalarning ustavlari, ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi);

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning me'yoriy huquqiy hujjatlarini muvofiqlashtirish;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi (mansabdor shaxs) vakolatlarini to'xtatish;

9.2. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyati hamda mustaqilligini yanada oshirish

Mamlakatimizdagi bugungi holat, mahalliy boshqaruvni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda. «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar kontsepsiyasi» qabul qilinishi ham bu boradagi ahvol nechog'lik jiddiyligidan dalolatdir.

Kontsepsiyada mahalliy boshqaruvdagi asosiy subyekt – ijro organlari faoliyati islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgani e'tirof etildi va bu boradagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari belgilandi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan voz kechish zarurligi ta'kidlanib, ko'pgina vakolatlarni markazdan hududiy organlarga o'tkazilishi zarurligi, buning uchun tuman, shahar, viloyat hokimliklarida, investitsiyalarni faol

jalb etish bo'yicha hokim o'rinbosarlari lavozimi joriy etilgani ma'lum qilingan edi.

Shuningdek, hududiy boshqaruv organlari rahbarlik lavozimiga tayinlash vakolati hokimlarga o'tkazilgani, nomarkazlashtirish natijasi sifatida ko'rsatildi.

Mahalliy ijro hokimiyati rahbarlarining mas'uliyatini kuchaytirish, hokimning vakillik organlariga boshchilik qilish faoliyatiga barham berish uchun qo'yilgan muhim qadamlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 avgustdagi «Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy eksperiment to'g'risida»gi farmonini ko'rsatish mumkin.

Farmonda Toshkent shahar va uning tarkibidagi tumanlar hokimliklari boshqaruv apparatlari negizida hokim devonlarini tuzish, Toshkent shahar hokimligi huzuridagi ko'plab komissiya, kengash va boshqalarni tugatish orqali hokim o'rinbosarlarining vakolat va mas'uliyatini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar nazarda tutildi.

O'zbekiston Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida, zamonaviy oqilona boshqaruv tizimini joriy etish vazifasini qo'yar ekan, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustahkamligini yanada oshirish, davlat boshqaruvi sohasida ijobiy natija berayotgan eksperimentni boshqa hududlarda ham joriy etish zaruratligi ta'kidlandi.

Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati va tarkibiy tuzilmalarining joriy holati. Tadqiqotlar hamda mutaxassis va ekspertlar bilan suhbatlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi 1993 yil 2 sentyabrda qonun normalari eskirgan va hozirgi zamon talablariga mos kelmaydi. shuningdek, bu hujjat mahalliy boshqaruvni hozirgi zamon talablari darajasida tashkil etish va tashkiliy mexanizmlarini yaratishga imkon bermaydi.

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatida tizimli kamchiliklar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatida qonun va qonunosti hujjatlari, ichki tartib-qoidalar asosida ish yuritish o`rniga, yuqoridan ko`rsatma berish tartibi shakllangan;

- hokimliklarda hujjat almashinuvi eskirgan tizim asosida olib borilmoqda. Hokimlar, ijro hokimiyati tizimida, boshqaruvda asosiy rol o`ynaydigan hokim o`rinbosarlarini tanlash, lavozimga tayinlashda mustaqil emas.

- Boshqaruv organlari yuqoridan ko`plab vazifalar yuklangani bois o`zlarining funksional vazifalarini to`liq bajarish imkoniyatidan mahrum bo`lmoqda. Hokimlik apparatida vazifalar taqsimoti qoniqarli darajada yo`lga qo`yilmagan (hatto ayrim tumanlarda huquqiy asoslari mavjud emas).

- Hokimlikda xodimlar qo`nimsizligi mavjud. ortiqcha vazifalarning yuklanishi, normal dam olish, o`z ustida ishlash, oilasi bilan shug`ullanish uchun etarli vaqt mavjud emasligi tufayli xodimlar o`z ishlaridan manmun emas (boshqacha aytganda, ularga motivatsiya etishmaydi). Moddiy manfaatdorlik past darajada (asosan quyi lavozimdagi xodimlarda).

Bu esa ish sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

2018 yil 12 sentyabr holatiga ko`ra, Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek, Shayxontohur, Olmazor tumanlari va Toshkent viloyatining Bo`ka, Namangan viloyatining Kosonsoy, Surxondaryo viloyatining Muzrabod, Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Mirishkor tumanlari hokimliklari faoliyatini o`rganish, Qoraqalpog`iston Respublikasi shahar va tumanlari, viloyatlar, Toshkent shahri hokimlari o`rinbosarlari, viloyat tashkiliy-nazorat guruhi rahbari va tuman hokimlari uchun «Boshqaruv mahorati» bo`yicha tashkil etilgan treninglar natijasida quyidagi muammo va kamchiliklar aniqlandi: ⁴⁷

1. Tuman hokimliklari faoliyati aniq rejaga asoslanmay tashkil etilmoqda. Tuzilgan «yo`l xarita»laridagi vazifalar va muammolar shoshilinch hamda

⁴⁷ D. Raximova, O. Xusanov. Mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko`rib chiqish hamda mustaqilligini yanada oshirish. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o`rganish va keng jamoatchilik o`rtasida targ`ib etishga bag`ishlangan Ilmiy-ommabop qo`llanma. Toshkent «Ma'naviyat» 2019 y.

favqulodda shakllantirilgan bo`lib, ularni amalda bajarish muddati va sifati talab darajasida emas. Jumladan:

- topshiriqlarni muhim va nomuhimga ajratish hamda shu asosda ustuvorliklarni aniqlash, maqsadlarni belgilash malakasi sust;
- vakolatlarni uzatish va topshiriqlarni taqsimlash ko`nikmalari shakllanmaganligi;
- rejadagi ishlar o`rniga ko`plab rejalashtirilmagan topshiriqlarning berilishi va bajarilishi tufayli hokimlarda rejalarini keraksiz deb hisoblash ko`nikmasi shakllanib qolgani;
- viloyat hokimi o`rinbosarlari va tuman hokimlari tomonidan ish yuklamasini taqsimlashda ijro uchun ketadigan vaqtning noto`g`ri belgilanishi natijasida ishlar sifatsiz bajarilmoqda;
- hokimlar aksariyat hollarda kundalik ishlarni bajarganligi bois, hududlarni rivojlantirishning istiqboldagi va muammolarni hal qilishning strategik rejalarini ishlab chiqishga etarli darajada e`tibor qaratmasliklari kuzatildi.

Hokimliklarda hujjatlar bilan ishlashning eskirgan tizimi amalda bo`lib, bugungi kun talablariga javob bermaydi. O`rganish natijasida barcha hokimliklarda elektron hujjat almashinuv tizimidan foydalanish past darajada tashkil etilgani aniqlandi (masalan, Surxondaryo viloyati, Muzrabot tumanida topshiriqlar ijrosini ta'minlashda elektron hujjat aylanish tizimi mavjud emas). Hokimliklarning hozir ishlab turgan elektron hujjat almashinuv tizimida hujjatlarning ijrosi va topshiriqlarni nazorat qilish hamda monitoringini olib borish elementlari shakllantirilmagan. Zamonaviy to`liq elektronlashtirilgan axborot almashinuv tizimini joriy etishga tumanlarning moliyaviy imkoniyatlari etmaydi. Hujjat almashinuv tizimida qo`l mehnatining ulushi katta bo`lib, ba'zi tuman hokimliklarida hujjatlarni ijro etish intizomiga rioya etilmaydi.

2. Hokimliklar xodimlarining soni kelib tushayotgan murojaatlarni ko`rib chiqish va yuqoridan topshiriq hamda vazifalarni bajarish uchun etarli emas. Hokim va uning o`rinbosarlari faoliyati, asosan, murojaatlar bilan ishlashga qaratilmoqda. Masalan, shayxontohur tumani hokimiga 2018 yilning birinchi

yarmida 976 ta, o`rinbosarlariga esa 1239 ta murojaat, Namangan viloyati kostonsoy tumani hokimligiga esa jami 2601 ta murojaat, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hokimligiga 262 ta topshiriq va jismoniy va yuridik shaxslardan 1081 ta murojaat, Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani hokimligiga 6917 ta murojaat va topshiriqlar kelib tushgan. Bundan tashqari hokimga puxta o`ylanmagan topshiriqlarning berilishi ham uchraydi. Toshkent viloyati Bo`ka tuman hokimi tajribasi o`rganilganda hokimiyatning yuqoridan beriladigan topshiriqlar ijrosini ta`minlashga asosiy e`tibor qaratishga obyektiv sabablarga ko`ra imkoni yo`qligi aniqlandi. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari misolida ko`rilsa, unga kuniga o`rtacha 20 ga yaqin yozma topshiriq beriladi. Barcha hokimliklarda topshiriqlarning yuqori sifatda va o`z vaqtida bajarilishiga quyidagi omillar salbiy ta`sir ko`rsatayotgani aniqlandi: – ba`zi topshiriqlar kechikib kelgani uchun o`z vaqtida ijrosi ta`minlanmaydi; – mazkur topshiriqlarning hammasini bir vaqtda bajarish uchun xodimlar soni cheklangan; – topshiriqlarni bajarishda hokimiyatda ishlayotgan kadrlarning salohiyati etarli emas; – ba`zi topshiriqlarni bajarishda vakolatlar etarli darajada emas;

– aksariyat hollarda topshiriqlarga tegishli davlat boshqaruvi organlari tomonidan bajarish imkonsiz bo`lgan muddatlar qo`yiladi va u bevosita ijrochiga etib kelishida bir qator bosqichlardan o`tadi (yuqori davlat organlari viloyat hokimiyatiga, u erda devondan ro`yxatdan o`tib rahbarga viza uchun yuboriladi, rahbar viza qo`yib, masalani tegishliligiga qarab o`rinbosarga chiqaradi, tegishli viloyat hokimining o`rinbosari uni tuman va shahar hokimliklariga ijro uchun yuboradi, tegishli tuman va shahar hokimligining devonxonasida ro`yxatdan o`tgach, tegishli hokimga kiritiladi, hokim masalaga bevosita mas`ul bo`lgan tegishli o`rinbosariga chiqaradi, o`rinbosari masalani tegishli tashkilotga chiqaradi). Bu esa yuqoridan berilayotgan topshiriqlarning o`z vaqtida bajarilishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bo`ka tumani hokimligida 7 ta o`rinbosar bo`lib, har bittasida bittadan mutaxassis faoliyat olib bormoqda. Yuqoridan berilayotgan topshiriqlarni samarali bajarish uchun shtat etarli emas. natijada, ba`zi topshiriqlarning ijrosi bajarilmasdan qoladi yoki juda past sifatda bajariladi.

3. Hokim va uning o`rinbosarlariga ko`plab funktsiya va vazifalar yuklangan. Masalan, Mirzo Ulug`bek tumani hokimi, uning o`rinbosarlari, tashkiliy nazorat guruhining rahbari va voyaga etmaganlar ishlari bo`yicha komissiyasi kotibiga 510 ta dan ortiq funktsiya va vazifalar yuklangani aniqlandi. shulardan 256 tasi bevosita ularning funktsional majburiyatlari bo`lib, qolgan 204 tasi yuqori turuvchi organlarning protokol topshiriqlari bilan yuklatilgan. namangan viloyati kosonsoy tuman hokimining jami bajarayotgan funktsiyalari va vazifalarining soni 34 ta, tuman hokimining o`rinbosarlari va tashkiliy nazorat guruhi rahbarining bajarayotgan funktsiyalari va vazifalarining soni 240 ta. Ulardan bevosita 125 tasi funktsional majburiyatlar, yuqori tashkilotlarning protokol topshiriqlari bilan yuklatilgan. Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani hokimi, uning o`rinbosarlari va tashkiliy nazorat guruhi rahbarining jami bajarayotgan funktsiyalari va vazifalarining soni 172 ta, shundan yuqori tashkilotlarning protokol topshiriqlari bilan yuklatilgani 44 tani tashkil etadi. Ushbu holat hokim va uning o`rinbosarlari funktsiya va vazifalarini optimallashtirish, ularni bajarish uchun etarli mehnat resrurslari bilan ta`minlashni taqazo qiladi. Bunday holatning vujudga kelishiga O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 dekabrda PQ-2691-son qaroridan kelib chiqib, tumanlarda hokim o`rinbosarlari, hokimlik apparatining boshqa xodimlarining vazifa va funktsiyalari yagona hujjat shaklida qabul qilinmaganligi sabab bo`lmoqda. Masalan, Toshkent shahrining o`rganilgan tumanlarida bunday hujjatlar qabul qilinmagani aniqlandi (Shayxontohur tumani bundan mustasno).

4. Hokimlik xodimlarida hujjatlar bilan ishlash va topshiriqlarni mahalliy xususiyatga moslashtirish, ijroni samarali tashkil etish, chet tillarini bilish va shunga o`xshash ko`nikma hamda bilimlar etarli emas. Ayniqsa chet el investorlarini jalb etishda va ular bilan muloqat qilishda xorijiy tillarni biladigan xodimlarga ehtiyoj katta. shu bilan birga, hokimlikda tartibsiz ish vaqtining mavjudligi yuqori salohiyatli kadrlarni jalb qilishga jiddiy ta`sir ko`rsatmoqda. Masalan, Toshkent shahri tumanlarining barchasida kommunal, qurilish, kommunikatsiya sohasidagi mutaxassislariga ehtiyoj kattaligi sezilmoqda.

5. Ba'zi topshiriqlarni bajarish uchun hokimliklarda vakolatlar kamligi pand bermoqda. Vazirlik yoki boshqa davlat boshqaruvi organi hududiy tuzilmasiga tegishli bo'lgan topshiriq yoki funktsiyalarni bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun o'sha tashkilot rahbarlariga tuman hokimining to'g'ridan-to'g'ri chora qo'llash vakolati bo'lmagani sababli topshiriqlar to'liq bajarilmay qolmoqda. Misol tariqasida, qo'shimcha soliq manbalarini aniqlash va soliq bazasini ko'paytirishga qaratilgan topshiriqni olaylik. Hududda mazkur topshiriq ijrosini ta'minlashni tuman hokimligi tuman soliq inspeksiyasi zimmasiga yuklaydi, biroq inspeksiya ushbu topshiriqni bajarishda kamchilikka yo'l qo'ysa, uning rahbariga hokimiyat to'g'ridan to'g'ri hech qanday ta'sir chorasini qo'llay olmaydi. Bu esa o'z navbatida berilayotgan topshiriqlarning samarali ijrosini ta'minlashga to'siq bo'lmoqda. shuningdek, investorlarni jalb etish va ular uchun infratuzilmani tashkil etish borasida ham hokimliklarning etarlicha vakolati mavjud emas.

6. Hokimliklar faoliyatida qarorlar qabul qilish amaliyoti ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Yuqorida aytilgan treninglar natijasida hokimliklar tomonidan qarorlar qabul qilishda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- qarorlarning strategik ahamiyati hisobga olinadi, biroq amaliyotga joriy etish masalasi e'tibordan chetda qolaveradi;

- tuman miqyosidagi muammolarning hal qilinishida murakkab markazlashgan tizim mavjud bo'lib, muammolarni hal qilishda «tuman hokimligi – viloyat hokimligi – vazirlik va idoralar» hamkorligi tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmagan;

- viloyat va tuman hokimliklarida «nomarkazlashtirishga oid munosabatlar algoritmi» ishlab chiqilmagan;

- tuman hokimlari tomonidan umumiy mazmundagi va bir xil yechimga asoslangan (shablon), hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda qarorlar qabul qilinishi odatiy holga aylangan;

- qaror loyihasini manfaatdor tashkilotlarga kelishish uchun yuborish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan, shuningdek, vazifalarni to'g'ri taqsimlash, ularning

ijrosi, moliyaviy manbalar bilan ta'minlash va nazorat qilish faoliyati inobatga olinmaydi;

– viloyat va tumanlar hokimliklarining veb-saytlarini yuritish va ularning investorlar uchun jozibadorligini oshirish xususidagi ko'nikmalar shakllanmagan. shuningdek, hokimliklarda yuridik xizmat qoniqarli darajada tashkil etilgan deb bo'lmaydi. Qabul qilingan qarorlarning huquqiy ekspertizasi va ularning qonunchilikka mos kelishi talab darajasida emas. Misol tariqasida, 2018 yil sakkiz oyi natijasiga ko'ra, Toshkent viloyati prokuraturasi tomonidan viloyatdagi tuman va shahar hokimlari qarorlarini bekor qilish yuzasidan 325 ta protest keltirilgan. Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi orasida «Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari» ahamiyati jihatidan yetakchi bo'lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi qolgan to'rtta yo'nalishni amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishda – davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish ko'rsatmasi alohida ahamiyatga ega. Haqiqatan ham hozirgi kunda davlat boshqaruvi markazlashgan bo'lib, bu mahalliy davlat boshqaruv rolining pasayishiga olib kelgan, natijada mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligi chegaralangan, bu esa ularning mas'uliyatsizligini keltirib chiqargan. Mazkur omillardan kelib chiqib, mahalliy davlat va boshqaruv organlari faoliyati va tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va mulohazalarni bildirish mumkin: «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunni qayta ishlab chiqish, unda o'tkazilayotgan eksperimentlar natijalaridan foydalanish va qonun loyihasini keng muhokamadan o'tkazib qabul qilish;

«Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi»da ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari haqida «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish, kontseptsiyada belgilangan vazifalarni bajarishni kechiktirmaslik, ayniqsa «nomarkazlashtirish» jarayonini puxta o'tkazish; mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati ochiqligi (shaffofligi)ga erishish, jamoatchilik nazoratining samarali usullarini joriy qilish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish; Xalq deputatlari kengashlarining faoliyatini jonlantirish, deputatlar faolligini oshirish, buning uchun ularni

rag`batlantirish choralarini ko`rish, manfaatdorlikni ta`minlash maqsadga muvofiqdir.

9.3. Ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma`muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo`llash

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018 yilda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash yili» Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar va 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag`ishlandi. Bu esa O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevpaldagi «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar stategiyasi to`g`risida»gi PF-4947-conli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Hapakatlar stategiyasidan belgilangan vazifalar bilan bevosita bog`liqdir.

Harakatlar strategiyasida birinchi marta davlat boshqaruvini isloh qilish davlat xizmati institutini rivojlantirish bilan bog`liq holda olib borilishi belgilandi.

Chunki, aynan davlat islohotlarni amalga oshiradi va moliyalashtipadi. Davlat boshqaruvida davlat xizmatini uzluksiz takomillashtirmasdan turib islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas.

Murojaatnomada Hukumat va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va mas`uliyatini kuchaytirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta`minlash vazifalariga alohida e`tibor qaratildi.

Ma`lumki, jamiyat taraqqiyoti ko`p jihatdan hokimiyatni to`g`ri tashkil qilishga, boshqaruvda eng samarali vositalardan foydalanishga bog`liq. Bu borada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish orqali uning vakolatlari, mas`uliyati va davlat tizimidagi mavqeini oshirish

bo'yicha islohotlarni izchil amalga oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilgani bejiz emas. Unga ko'ra Hukumat komplekslari tarkibiga kiruvchi vazirlik va kompaniya rahbarlari iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni chuqur tahlil qilishlari va joylardagi haqiqiy ahvolni o'rganishga e'tiborni kuchaytirishlari zarur. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son Fapmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasida ham etarli bayon etilgan.

Jumladan, mazkur kontsepsiyada davlat boshqaryvini markazlashtirishdan chiqarib, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, davlat va jamiyiyat pivojlanish dasturlarini shakllantirishda jamiyiyat ijro etuvchi hokimiyat organlarining tashabbuskorligini oshirish hamda ularni kuchaytirish, davlat xizmatlarining kabi tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlari, ular va javobgarligini kengaytirish, mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsiplarining amalga oshirilishini ta'minlash kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida bildirgan fikrlaridan kelib chiqib, mahalliy ijro hokimiyati organlarida ochiqlikka asoslangan, zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, uning samarali usullarini xorij tajribasiga qiyoslash asosida taklif va tavsiyalar berish zarur.

Hozirgi davrda Vazirlik va idoralar boshqaruvida menejmentning iqtisodiy, tashkiliy-farmoyish, ijtimoiy-psixologik usullari yetakchi o'rin tutmoqda. Boshqaruvning iqtisodiy usullari xalqqa iqtisodiy manfaatlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy usullar iqtisodiy ta'sir vositalari yig'indisidan (narx, kredit, biznes-reja, foyda, soliqlar, ish haqi, iqtisodiy rag'batlantirish va h.k.), iboratdir. shunday qilib, menejmentning iqtisodiy usullari juda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ular muvaffaqiyatli va o'z vaqtida tashkiliy-farmoyish, ijtimoiy-psixologik va huquqiy usullar bilan qo'shib olib borilgan taqdirda yaxshi natijalarga erishishga imkoniyat yaratadi.

Menejmentning tashkiliy-farmoyish usuli hududlarni, tashkilot va idoralarni boshqarishga turli tashkiliy-farmoyish usullarini qo'llash bilan xarakterlanadi. Menejmentning tashkiliy-farmoyish usullari iqtisodiy usullarni to'ldirib, bozor iqtisodiyoti qonunlari, huquqiy aktlarni hisobga olish va bajarishga asoslanadi.

Davlat maxsus tuzilgan boshqaruv tashkilotlari vositasida boshqariladigan tizimga ma'muriy va tashkiliy jihatdan ta'sir o'tkazadi. Har bir buyruq yoki farmoyishda qanday vazifa bajarilishi, qachon bajarilishi kerakligi belgilanadi. Ta'sir etishning farmoyish usuli tashkiliy ta'sirga nisbatan uning bajarilishini nazorat qilishni ko'proq talab etadi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari – bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik usullarini qo'llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni chuqur o'rganish, xodimlar kayfiyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni bilishni talab etadi.

Ijtimoiy psixologiya guruh va omma psixologiyasining xususiyatlari, ularning shaxs ongi va xulqiga ta'siri, kishilar faoliyatini rag'batlantiruvchi omillar, kayfiyat, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillarni tadqiq etadi. shaxs psixologiyasi oliy nerv faoliyati turlari va inson temperamenti, xarakteri, shaxsning irodasi, qobiliyati, hissiyoti, xotirasi, anglash va his etish qobiliyatini o'rgansa, mehnat psixologiyasi mehnat faoliyatlari, jumladan, rahbar va mutaxassislar (kasbiy xususiyat va qobiliyatlari, kadrlarni o'qitish usullari, ish va dam olish tartibi, kadrlarni tanlash va baholash usullari, mehnat jarayonining psixologik jihatlari) faoliyatini tadqiq etadi.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, har birining mustaqilligini kengaytirish, muayyan vakolatlar ularni mumkin qadar samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

2. Davlatning vakolatlarni taqsimlash muammolarini hal qilish borasidagi faoliyati mahalliy boshqaruvni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan kuchli demokratik davlat qurishning zarur sharti sifatida mahalliy boshqaruvning samaradorligi, roli va maqomini oshirishga yo`naltirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi yagona davlat siyosati doirasida amalga oshiriladi.

3. Mamlakatimizdagi bugungi holat, mahalliy boshqaruvni tubdan isloh qilish zarurligini ko`rsatmoqda. «O`zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi» qabul qilinishi ham bu boradagi ahvol nechog`lik jiddiyligidan dalolatdir. Kontseptsiyada mahalliy boshqaruvdagi asosiy subyekt – ijro organlari faoliyati islohotlarni to`liq ro`yobga chiqarishga, qo`yilgan vazifalarni amalga oshirishga to`squinlik qilayotgani e`tirof etildi va bu boradagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari belgilandi.

4. Hokimliklarda hujjatlar bilan ishlashning eskirgan tizimi amalda bo`lib, bugungi kun talablariga javob bermaydi. O`rganish natijasida barcha hokimliklarda elektron hujjat almashinuv tizimidan foydalanish past darajada tashkil etilgani past darajada. Zamonaviy to`liq elektronlashtirilgan axborot almashinuv tizimini joriy etishga tumanlarning moliyaviy imkoniyatlari etmaydi. Hujjat almashinuv tizimida qo`l mehnatining ulushi katta bo`lib, ba`zi tuman hokimliklarida hujjatlarni ijro etish intizomiga rioya etilmaydi.

5. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti ko`p jihatdan hokimiyatni to`g`ri tashkil qilishga, boshqaruvda eng samarali vositalardan foydalanishga bog`liq. Bu borada mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish orqali uning vakolatlari, mas'uliyati va davlat tizimidagi mavqeini oshirish bo`yicha islohotlarni izchil amalga oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Nazorat savollari

1. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshirishning qanday samarali shakllarini bilasiz?

2. Hokimliklarda xodimlar qo`nimsizligi mavjudligi sabablari nimada va buni bartaraf etish uchun qanday amaliy ishlar qilish kerak?

3. Hokimliklarda hujjatlar bilan ishlashda eskirgan tizimidan voz kechib, barcha hokimliklarda elektron hujjat almashinuv tizimidan foydalanishni to'liq joriy etishga nimalar to'siq bo'layapti deb hisoblaysiz?

4. Hozirgi kunda mamlakatimizda hokimliklar faoliyatida qarorlar qabul qilish amaliyotida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar nimalarada ko'rinadi?

5. Mamlakatimizda qabul qilingan «Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi»ning mazmun mohiyatini tushuntirib bering?

6. Davlat boshqaryvini markazlashtirishdan chiqarib, davlat xizmatlari ko'pchilik tizimini yanada takomillashtirish zaruriyati nimada?

7. Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari deganda nimani tushunasiz?

10-MAVZU: MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT

Reja:

10.1. Mintaqaviy siyosat: kontseptsiyasi, turlari, obyektlari, subyektlari, amalga oshirish mexanizmlari

10.2. Xorijiy mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning xususiyatlari

10.3. O`zbekistonda mintaqaviy siyosatni rivojlantirishning o`ziga xos xususiyatlari

Tayanch tushuncha va iboralar: mintaqaviy siyosat, yagona iqtisodiy makon, depressiya, ixtisoslashtirish, aglomeratsiya, erkin savdo zona, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, integratsiya, agrar siyosat, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy samaradorlik, tahlil, korporatsiya, urbanizatsiya, depressiya, kichik sanoat zonalari, mahallilashtirish, eksport, Obod qishloq, Obod mahalla, elektr energiya, sanoatlashtirish.

10.1. Mintaqaviy siyosat: kontseptsiya, turlari, obyektlar, subyektlar, amalga oshirish mexanizmi

Har qanday mintaqa o`ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadigan hududdir. O`ziga xos xususiyatlar bir mamlakatni, jahon mintaqalarini (madaniyati va sivilizatsiya, madaniy va tarixiy, geosiyosiy, xalqaro siyosiy va hokazo) va mamlakatlar ichidagi hududlarni (ichki hududlar deb ataladi) o`z ichiga olgan hududlarga ega.

Dunyo kabi ichki mintaqalar ularning rivojlanish sharoitlarining tengsizligi kabi xususiyatga ega.

Bu tengsizlik turli omillarga bog`liq: demografik, ekologik, geosiyosiy, ijtimoiy-tarixiy, o`tmishda mavjud bo`lgan ayrim muammolar va albatta, tabiiy va iqlimiy. Masalan, O`zbekiston hududlarini 2G`3 qismini tashkil etadigan cho`l va sahro hududlari odamlarning yashash tarzi uchun salbiy tabiiy sharoitlarga ega. Yoki Toshkent shahriga tutash bo`lgan Toshkent viloyati potentsiali mamlakatimizda juda yuqori baholanadi. Mintaqaga xos bo`lgan sharoitlar

tengsizligi iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining sifati, aholining turmush darajasi boshqacha ekanligi bilan belgilanadi. Bu o'z konstitutsiyalari bilan e'lon qilingan eng kam miqdordagi davlatlar hududida ham hamma joyda bir xil qo'llaniladi.

Ichki mintaqalarni rivojlantirish uchun sharoitlar tengsizligi davlat mintaqaviy siyosatining obyektiv asosidir.

Davlatning mintaqaviy siyosati - mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishini davlat, mintaqalar va mintaqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettiradigan keng ko'lamli, mintaqaviy jihatdan boshqarish uchun faoliyat doirasi hisoblanadi.

Odatda, mintaqaviy siyosatning quyidagi turlari farqlanadi: iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik, ilmiy-texnikaviy.

Mintaqaviy siyosat - ishlab chiqarish kuchlarini yanada oqilona taqsimlashga, alohida hududlar rivojlanishidagi farqlarni bartaraf etishga yordam beradigan qonunchilik, ma'muriy va ekologik tadbirlar tizimi. Ya'ni, oxir-oqibat, mintaqaviy rivojlanishda muvozanatni ta'minlash, hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish asosiy maqsad qilib olinadi. Ushbu maqsad mintaqaviy siyosatda muayyan muvozanatni saqlashni talab qiladi: markazlashtirish va markazsizlashtirish, davlatchilik va avtonom, tabiiy farqlar va tartibga solish.

Hududiy rivojlanishni tartibga solish turli darajalarda - mahalliy, mintaqaviy va davlat tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda mintaqaviy siyosatning davlatlararo darajasini (masalan, Evropa Ittifoqi) ajratish uchun barcha asoslar mavjud.

Mintaqaviy siyosatning obyekti sifatida mintaq, aniqrog'i, ijtimoiy-iqtisodiy mintaqalar tushuniladi. Ushbu siyosat asosan ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatdagi hududiy farqlarni yumshatishga qaratilgan. Mintaqaviy obyektlarni boshqarish orqali ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy, pul-kredit, moliyaviy va boshqa sohalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi mumkin.

Mintaqaviy siyosat subyektlari mahalliy, mintaqaviy, davlat, davlatlar darajasida maxsus vakolatga ega organlardir.

Mintaqaviy siyosatning vositalari har xil: moliyaviy (yordam, imtiyozlar, jarimalar va boshqalar), ma'muriy (ruxsatnoma va taqiqlar), infratuzilma (birinchi navbatda yo'llarni qurish).

Mintaqaviy siyosat mexanizmlari ham har xil. Ushbu siyosat hududlarda resurslarini taqsimlash ya'ni birinchi navbatda, moliyaviy (maxsus), turli xil maxsus dasturlar (muammolar, maqsadlar) orqali amalga oshiriladi.

Hududiy jihatdan farqlar deyarli barcha mamlakatlar uchun keng tarqalgan. Biroq, mintaqaviy siyosatning maqsad va vazifalari shuningdek uning shakllari va usullari hududlarga to'raligicha mos kelaveramaydi va juda keng chegaralarda o'zgarib turadi.

Shunga qaramay, amalda deyarli barcha mamlakatlarda umumiy maqsadlar mavjud. Bu borada rus olimlari Yu.N. Gladkiy i A.I. Chistobaev quyidagi vazifalarni alohida ta'kidlaydi:

- yagona iqtisodiy makonni yaratish va mustahkamlash hamda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini ta'minlash;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning nisbiy tarzda taqsimlanishi;
- davlatlar uchun alohida strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni ustivor rivojlanishi;
- tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanish, shu jumladan resurslar, hududlarning xususiyatlarini hisobga olish;
- atrof-muhitni ifloslanishining oldini olish, hududlarni atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar.

10.2. Xorijiy mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning xususiyatlari

G'arb mamlakatlarida mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi mamlakatning ayrim mintaqalari o'rtasidagi eng keskin ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etishdir.

G`arb davlatlarining zamonaviy mintaqaviy siyosatida odatda to`rtta asosiy yo`nalish mavjud.

Birinchi yo`nalish rivojlanishdan orqada qolgan hududlarni ko`tarishdir. Ular odatda agrar yoki mineral-xom ashyoga asoslangan qoloq ijtimoiy infratuzilma, ta`lim va madaniyatning zaif rivojlanishi bilan tavsiflanadigan hududlardir. Masalan Frantsiyaning janubi-g`arbiy hududlari, Italiyaning janubida, Shvetsiyada, Finlyandiyada, Norvegiyada - shimoliy hududlarni misol qilib ko`rsatish mumkin. Biroq G`arbiy davlatlarning rivojlanmagan hududlarida vaziyat o`zgarishsiz qolayotganini ta`kidlash lozim. Bu mamlakatlarning faol mintaqaviy siyosati obyektlari bo`lgan Frantsiya va Italiya agrar hududlarida yaxshiroq o`zgarishlar yuz beradi. Ammo bu juda zaif tabiiy sharoitdagi shimoliy hududlarda yuz bermayapti.

Ikkinchi yo`nalish - bu depressiyalangan hududlarni «reanimatsiya» qilish. Ular orasida, odatda, Germaniyada Rur va Saarni, Frantsiyadagi Elzasni, Belgiyadagi Valloniyani, Buyuk Britaniyadagi Uelsni va boshqalarni kiritish mumkin. O`tmishda rivojlanishning yuqori darajasi ko`rsatgan bu hududlar yirik ko`mir-metallurgiya markazlari edi. Yigirmanchi asrning oxirida. «depressiya» belgilari kimyoviy, yog`ochga ixtisoslashtirilgan hududlarga xos bo`lib qoldi.

Ushbu va boshqa shunga o`xshash hududlarda ilmga asoslangan sanoatni, biznesni rivojlantirishni, rekreatsiv rivojlantirish, bo`shab qolgan ishchi kuchining boshqa mintaqalarga ko`chib ketishini rag`batlantirish natijalari o`z natijalarini berdi: ular sobiq inqirozga o`xshash hududlarga o`xshamaydi. Shunga qaramay iqtisodiy hayotni qayta tiklash vazifalari hali kun tartibidan olib tashlanmagan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan —O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risidagi Farmonining 3.2-bandi **«Tarkibiy o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish»** deb nomlanib, unda —iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko`rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish; printsiptial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o`zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta`minlash vazifalari belgilab berilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

Zamonaviy O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlar qo`lga kiritilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning bosh omili bo`lib

qolmoqda. Pirovardida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida yurtimiz kun sayin ravnaq topib, mamlakatimizning nafaqat shaharlarida, balki qishloqlarida ham sanoat jadal rivojlanib bormoqda, zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari barpo etilayapti.

Milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligi oshib borayotganligining isboti tariqasida mamlakatimizda o'tgan 2019 yilning birinchi yari yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 5,8 foizga o'sganligi, sanoat mahsuloti hajmlari – 6,9 foizga, qurilish-pudrat ishlari – 20,0 foizga, chakana savdo aylanmasi – 6,4 foizga, xizmatlar – 12,7 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 58,9 foizga o'sganligi, yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushi 26 foizdan 30 foizga etdi, 2019 yilning yanvar-iyol oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi hajmi 24,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 6,8 mlrd dollarga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,6 %ga oshganligi uning ijobiy saldosi ta'minlanganligini sanab o'tishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'li to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liqdir. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilmoqda.

12.3. Hududlar raqobat ustunligini belgilovchi omillar

Hozirgi vaqtda mintaqqa iqtisodiy jihatdan mustaqil obyekt bo'lib, nafaqat mamlakat bozorida, balki jahon hamjamiyatida barqaror va ishonchli pozitsiyani egallashga intilmoqda, bu esa ma'lum mintaqalarning jahon bozoriga kirishiga olib

keladi. Ushbu globallashuv tendentsiyasi doirasida mintaqaviy raqobatbardoshlik alohida o`rin tutadi.


Mintaqaviy raqobatbardoshlik darajasining o`shishi, ko`pincha hududlarning iqtisodiy makonining turli xilligi va global raqobat jarayonlarida yuzaga keladigan mamlakat iqtisodiyotidagi roli va o`rnini o`zgartirishga imkon beradi.

Xalqaro amaliyotda raqobat deganda bozor munosabatlari sharoitida mavjud bo`lgan iqtisodiy kategoriya tushuniladi, buni boshqacha aytganda raqobatga bardosh berish qobiliyatini anglatadi. U tovar, tashkilot, sanoat, kompleks, mintaqa yoki hatto mamlakat darajasida shakllanishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida mahalliy mintaqaviy fanlarda raqobatbardoshlik mamlakatning resurs va ishlab chiqarish bazasi sifatida tushunilgan bo`lib, mintaqani boshqa mintaqalar, shuningdek, umuman mamlakat manfaatlaridan farq qilishi mumkin bo`lgan alohida manfaatlar tashuvchisi sifatida ajratmaydi.

Raqobat mohiyatini eng to`liq va aks ettirgan rus olimi A. Seleznev tomonidan taklif etilgan «mintaqaviy raqobatbardoshlik» ta`rifidir. Mintaqaning raqobatbardoshliligi - bu mintaqaning va uning alohida elementlarining (fabrikalar, korxonalar va boshqalar) ichki va tashqi bozorda tutgan o`rni bo`lib, bu iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilma, siyosiy va boshqa omillarga bog`liq. Ular mintaqaning holati va dinamikasini etarli darajada tavsiflovchi ko`rsatkichlar orqali aks ettirilgan.

Mintaqaning raqobatbardoshligi - bu doimiy iqtisodiy hodisa bo`lib, firmalarning raqobatbardoshliligi, umuman milliy iqtisodiyot, shuningdek mintaqani bozor munosabatlarining subyekti sifatida ajratib turadigan o`ziga xos xususiyatlari bilan o`xshashliklari mavjud. Iqtisodiyot subyekti sifatida mintaqa resurslarga nisbatan turli darajadagi mintaqalar bilan raqobatdosh munosabatlarning murakkab tizimiga kiradi. O`zaro munosabatlarda mintaqaning funktsiyalari amalga oshiriladi va natijalar olinadi va bu esa o`z navbatida jarayonlarga ta`sir qiladi. Mintaqaning raqobatbardoshligi bir qator omillarga bog`liq (12.1-rasm).



12.1-rasm. Mintaqa raqobatbardoshlik omillari

Zamonaviy bozor sharoitida ustunlik raqobatbardosh mavqega ega boʻlgan mintaqaga beriladi va bu uning sanoat ixtisoslashuvi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Bizning fikrimizcha aynan sanoat ixtisoslashuvi kabi omillar alohida eʼtiborni talab qiladi, chunki nomuvofiq tuzilma etarli raqobatbardoshlikni talab qilmaydi. Mintaqaviy raqobatbardoshlik nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish quvvatlari uchun foydalaniladigan obyekt sifatida ishga joylashish uchun boʻsh hududlar, balki mintaqada mavjud boʻlgan iqtisodiyot tarmoqlarining mahsuldorligiga taʼsir qiladi. Sanoat tarmoqlari esa samaradorlikning ichki tarmoq darajasiga bogʻliqdir. Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiy tuzilma ichki va jahon bozorlarining zamonaviy talablariga javob berishi kerak. Ushbu omil mintaqaning geografik joylashuvi bilan chambarchas bogʻliq. Shunday qilib, masalan, yirik va rivojlangan shaharlarga yaqin joylashgan mintaqalar qoʻshni oʻsayotgan iqtisodiyotning ortiqcha taʼsiridan foyda olishlari mumkin. Shu bilan birga, noqulay geografik fazilatlarga ega boʻlgan hududlar (noqulay iqlim sharoiti, chegaradan uzoqligi va boshqalar) raqobatdosh boʻlish imkoniyatiga ega emaslar.

Shuni taʼkidlash kerakki, hududlarning raqobatbardoshligi va institutsional muhit, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishni boshqarish usullari oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Rivojlanish uchun javobgarlik hukumat darajalarida (davlat va mintaqaviy), shuningdek xususiy sektor va fuqarolik jamiyati vakillari oʻrtasida taqsimlanadi.

Bundan tashqari, u aniq individual loyihalarga emas, balki strategik rejalarga asoslangan va ma'lum bir mintaqaga mo'ljallangan o'rta va uzoq muddatli rivojlanish dasturlariga asoslanadi.

Har bir mintaqada ishchi kuchi mavjud, ammo ular ixtisoslashuvga mos kelishi kerak, chunki sifat darajasi raqobatbardoshlikka bevosita ta'sir qiladi. Birinchidan, ishchi kuchining samaradorligini, ya'ni mehnatga layoqatli aholining mavjudligi, mehnat resurslarining moslashuvchanligi, mehnat dunyosidagi ayollarning o'рни, mehnatga layoqatli va iqtisodiy faol aholining o'rtacha yoshi, o'sish sur'atlari va migratsiya oqimlarining asosiy tendentsiyalari va boshqalarni hisobga olish kerak.

Mehnat resurslari sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mintaqaning innovatsion salohiyati yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va tarqalishini belgilovchi eng muhim omil bo'lib, innovatsiyalarni idrok etishda mintaqaning iqtisodiy potentsiali o'sishi uchun zarur shart bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda rivojlangan infratuzilma bo'lmagan mintaqaning mavjudligini tasavvur qilish qiyin. Ko'pchilik infratuzilmani faqat transport va kommunikatsiya mavjudligi deb tushunadi, ammo bu fikr noto'g'ri, chunki uning kontseptsiyasi yanada keng va hududiy, ijtimoiy, innovatsion, moliyaviy infratuzilma, axborot texnologiyalari infratuzilmasi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mintaqaning innovatsion salohiyati mintaqaviy raqobatdoshlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Mintaqani innovatsion rivojlanish yo'lida shakllantirish uchun mintaqada innovatsiyalarni yaratishda foydalanilishi mumkin bo'lgan mavjud moddiy va nomoddiy resurslar etarli emas, chunki innovatsiyalar ushbu resurslardan foydalanish samaradorligi bilan baholanadi.


Innovatsion salohiyat bilim manbalari, institutsional tuzilma, shuningdek hududlarning texnologik dinamikasini shakllantiradigan iqtisodiy agentlar o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Birgalikda ular mintaqaning va umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsiyalarni samarali amalga oshirish uchun zamin yaratadilar.

Mintaqaning raqobatbardosh ustunligi nafaqat hududiy mezonlar bo'yicha, balki rivojlangan sanoat, madaniy, infratuzilma va rekreatsion aloqalar bilan birlashtirilgan komplekslarni birlashtirishdan iborat bo'lgan aglomeratsiya bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashuvning mustahkamlanishi boshqa pudratchilar: kompaniyalar, tashkilotlar, yetkazib beruvchilar bilan o'zaro bog'liqlik darajasiga olib keladi. Shuning uchun aksariyat hollarda kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun mos yechim tarmoqlarning, komplekslarning yoki klasterlarning bir qismi bo'lishdir. Shunday qilib, kompaniyalar ko'proq xizmat ko'rsatuvchi sohalar yetkazib beruvchilari va xizmatlaridan, shuningdek tajribali va malakali mehnat resurslari va ma'lumot almashish imkoniyatlaridan, shuningdek o'zaro ta'sirli tarmoqlarni jalb qilishdan foydalanadilar.

Mintaqaning investitsion jozibadorligi raqobatbardosh bo'lish uchun asos bo'lgan va keyinchalik ham rivojlanishga olib keladigan muhim omilidir. Mintaqaning sarmoyadorlar uchun jozibadorligi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik raqobatdosh bo'ladi. Sarmoyadorlar oldida qiyin tanlov turibdi, ular bu mintaqaning yetkazib beruvchilar uchun qulayligi, bozorlar va ular bilan aloqalar orasidagi masofa, infratuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, huquqiy va soliq bazasi, ish haqi va sifat, shuningdek turmush darajasi va boshqalardir.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, mintaqadagi raqobatbardoshlikni baholash mintaqalarning mahalliy hokimiyat organlari uchun boshlang'ich vazifa bo'lib, uning vazifalari qo'llab-quvvatlash va mintaqaning raqobatdosh ustunliklarini oshirishdan iborat. Raqobat ustunliklari nafaqat korxonalar, majmualar, balki butun mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir (12.2-rasm). Ushbu sxemani tahlil qilganda shuni ta'kidlash kerakki, raqobatdosh ustunliklar mintaqa tizimiga va uning elementlari - korxonalar, tashkilotlar, fabrikalar va boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



12.2-rasm. Mintaqada raqobat ustunligidan olinadigan samara

Raqobat har qanday yangilikdan foydalanishni oʻz ichiga olganligi sababli pirovardida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozor talabiga muvofiq boʻlishi kerak, masalan, narx, sifat, yangilik va boshqalar tufayli raqobatbardosh mahsulotlarni sotish ichki raqobat sharoitida foydalaniladigan afzallik masalan, yangi texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari tijorat samarasini - foyda olish imkonini beradi. Bozorda tovarlar sotilgandan keyin olingan daromad, shu jumladan samarasi masalan, raqobatbardosh ustunlik orqali foyda olishi natijasida u aynan oʻsha ishlab chiqarishini yanada kengaytiradi va korxonalarni sarmoya kiritishga undaydi kelgusida mintaqani yanada rivojlantirishga hissa qoʻshadi.

Xulosa chiqarib, shuni taʼkidlash kerakki, mintaqada raqobatni rivojlantirish foydalidir, bu esa mavjud omillarni aniqlash uchun mintaqaning barcha elementlarini batafsil tahlil qilishga majbur qiladi

12.4. Mintaqaviy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat choralari bilan mintaqaning raqobatdoshligini oshirish

Raqobatbardoshlik mazmunini ijobiy anglash ekzogen va endogen omillar (oʻzgaruvchilar) ni hisobga olgan holda butun iqtisodiyot darajasida ham, maʼlum bir mintaq miqyosida ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosat tadbirlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega.

Milliy iqtisodiyot singari, mintaqa uchun ham mintaqalarning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadigan uchta vositani ajratish mumkin.

1. Mintaqaviy iqtisodiyotni va uning milliy va jahon iqtisodiyotidagi mavqeini mustahkamlashga, pirovardida firmalar va ularning mahsulotlarining raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan umumiy chora-tadbirlar. Ushbu turdagi choralar mamlakat va mintaqa iqtisodiyotining raqobatdoshligi uchun zamin yaratadi. Umumiy xarakterdagi chora-tadbirlar orasida, birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi subyektlarning muayyan guruhlarining kutilayotgan daromadlaridan qat'iy nazar, biznes sharoitlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning institutsional asoslarini ajratib ko'rsatish mumkin.

2. Ishlab chiqaruvchilarga ularning eksport faoliyatini amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rinishidagi davlat yordamini (subsidiyalar, soliq imtiyozlari, hom ashyo importi bo'yicha soliqlardan ozod qilish, eksport faoliyatini axborot bilan ta'minlash) amalga oshirish.

3. Boshqa mintaqalarda, shuningdek tashqi bozorlarda mintaqaviy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlariga talabni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni (ko'rgazmalar, chet elda yoki boshqa mintaqalarda savdo va axborot markazlarini tashkil etish va boshqalar) amalga oshirish.

Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, mintaqaning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning raqobatdoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muvozanatiga bog'liq bo'ladi. Mintaqaning raqobatbardoshligi uning hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligidan kelib chiqqanligi sababli, sanoatning raqobatdoshligini oshirish sharoitida mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini tanlash masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarning samarasi farqlanishi aniq. Bundan tashqari, tegishli sohaning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini hal qilish oqilona bo'lishi aniq.

Shu munosabat bilan, raqobatbardoshlikni oshirish nuqtai nazaridan potentsial rentabellik va uni oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar nuqtai nazaridan sohalarni guruhlash mustaqil masaladir.

Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini nazorat sifatida ishlatish muammolari ularni boshqarish xavfini kamaytiradi. Keling, muammoning mohiyatini tushuntirishga harakat qilaylik. Aytaylik, barcha ishtirokchilar taklif qilingan ko'rsatkichlar mintaqani (uning raqobatbardoshligini) qiyosiy baholash nuqtai nazaridan etarli deb taxmin qiladilar. Agar ishtirokchining farovonligi ushbu ko'rsatkichning darajasiga yoki dinamikasiga bog'liq bo'lsa, unda uning mos ravishda o'zgarishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, ishtirokchilar ushbu maqsadga eng kam xarajat bilan erishish yo'llarini izlaydilar. Masalan, agar biz mehnat unumdorligi dinamikasini nazorat sifatida qabul qilsak, natijada mehnatni tejaydigan va kapitalni tejaydigan texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishi mumkin. Shu bilan birga, raqobatdosh ustunlik bo'lgan sharoitda nisbatan arzon ishchi kuchi resurslar tanlovi amalga oshirisa, bu (hech bo'lmaganda bir qator sohalarda) raqobatdoshlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqaning raqobatbardoshligini baholash hozirgi paytda imkonsiz yoki miqdorini aniqlash qiyin bo'lgan omillarni hisobga olish zarurati bilan bog'liq. Bu, ayniqsa, murakkab bo'lgan omillar uchun to'g'ri keladi. Bularga mintaqaviy darajadagi institutsional muhitning sifati, nafaqat qonunlarning mazmuni, balki ularning bajarilishini ta'minlash mexanizmlari ham kiradi. Ushbu vaziyatni tushunish, bir tomondan, raqobatbardoshlikning barcha miqdoriy baholariga va uning o'zgarishlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga imkon beradi va boshqa tomondan «hozirda miqdoriy bo'lmagan» omillarni aniqlash usullarini izlashni rag'batlantiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq:

- Samarali raqobat muxitini shakllantirish hamda tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

- ·Ko`rsatiladigan xizmatlarni sifat jihatdan yaxshilash hisobiga raqobatbardoshlikka erishish;
- ·Tarmoqlarda mehnat unumdorligini oshirishda ilg`or xorij tajribasidan foydalanishni yo`lga qo`yish;
- ·Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini jahon bozori kon'yunkturasiga bog`liqligini kamaytirishning eng qulay va maqbul usullarini ishlab chiqish va boshqalar.

Mintaqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga etarli ta'sir ko`rsatadi hamda tarmoqlar, korxonalar va tovarlar raqobatbardoshligi bilan o`zaro bog`langan holda amal qiladi. Mintaqaning raqobatbardoshligi mintqa aholisining turmush tarzi va farovonligini oshib borish qobiliyati bilan belgilanadi.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanib borishi orqali uning raqobatbardoshligi ta'minlanadi va mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardosh bo`lishiga asos bo`lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy investitsiyalarni hududlarga to`g`ri va mutanosib joylashtirish, hududlarning investitsion jozibadorligini takomillashtirish, mintaqalar innovatsion faolligini yanada mukammallashtirish kabi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini muvofiq tarkibiy o`zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo`nalishida korxonalarning mablag`lari, O`zTTJ, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 2017—2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog`i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017-2021 yillarda aholining energiya ta'minoti yaxshilash uchun ko'mir qazib olish sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobiga ko'mir qazib olishni yiliga 7,8 mln. tonnaga oshirish imkonini beruvchi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, ularning natijalari atroflicha muhokama qilinmoqda.

Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi hal etish bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi 4400 dan ortiq korxonalarning rentabellik darajasini oshirish va moliyaviy sog'lomlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish asosida ishchilar sonini ko'paytirishga erishish rejalashtirilgan. Bu tadbirlar natijasida korxonalarning rentabellik darajasi oshadi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish va ishchilar sonini ko'paytirishga olib keladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash va sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2019 yilning birinchi yarimida 2018 yilning mos davriga nisbatan 6,9 foizga o'sishini ta'minladi. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarida dinamik rivojlanish ta'minlandi. 2018 yilda mahalliy xomashyo resurslarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash va tayyor iste'mol mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish tarmoqlari evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

Sanoatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YaIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan

mahsulotlar tannarxini esa o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 10,6 foiz kamaytirishga erishildi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan. Shu jumladan, ma'nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'nalishga korxonalarning mablag'lari va tijorat banklar kreditlari hisobidan 602 000,0 mln. so'm investitsiyalar yo'naltiriladi, bu esa mahalliy mahsulotlarning, birinchi navbatda, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda Harakatlar strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish Xarakat dasturining eng ahamiyatli vazifalari qatoridan o'rin olgan. Mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport salohiyatini yuksaltirish iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2019 yil oxiriga qadar Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 25 ta, «O'zeltexsanoat»da 18 ta, «O'zavtosanoat»da 7 ta, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 5 ta investitsiya loyihasi bo'yicha yangi quvvatlar ishga tushiriladi.

Hozirgi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarning son va sifat jihatidan o'sishi bu jarayonlarni har tomonlama chuqur o'rganishga yanada yuksak talablar qo'ymoqda. Oxirgi yillar davomida diversifikatsiya qilish va iqtisodiyot sohalarini raqobatbardoshligini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida

jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib turgan va jahon bozoridagi narxlar darajasi pastligi respublikaning asosiy eksport nuqtalariga ta'sirini kamaytirishga erishildi.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Mintaqaning raqobatbardoshligi tegishli mintaqada iqtisodiy rivojlanish darajasi va aholining turmush darajasining muhim jihatidir. Shuning uchun mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish davlat va mintaqaviy darajada iqtisodiy siyosatning muhim va murakkab vazifasidir.

2. Hozirgi paytda ushbu sohadagi empirik tadqiqotlarning barcha holatlariga nisbatan «raqobatbardoshlik» atamasining umume'tirof etilgan qat'iy va tezkor ta'rifi mavjud emas. Bu ushbu kontseptsianing individual ishlab chiqaruvchilarga yoki tovarlarga nisbatan shuningdek, ayrim mintaqalarga ham taalluqli.

3. Shu bilan birga, qaror qabul qiluvchilarni ma'lum manbalardan foydalanishning yangi imkoniyatlarini izlash, shuningdek oldingi noma'lum bo'lgan qiymat yaratadigan manbalarni aniqlash uchun qaror qabul qiluvchilarni rag'batlantirish printsipli asosida raqobatdoshlikni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bu tadbirkorlik subyektlariga, shuningdek, ushbu hududda institutsional muhitning sifatiga bog'liq bo'lgan qaror qabul qiladigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu yondashuv «raqobat» va «raqobatbardoshlik» tushunchalarini birlashtirishga asoslangan.

4. Mintaqaning raqobatbardoshligi nazariy tasnifga bog'liq bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq. Qarorlarni qabul qilish jarayoni nuqtai nazaridan, eng muhimi, endogen va ekzogen raqobatdosh omillar guruhlaridir.

5. Amaliy tadqiqotlarda har birining qiyosiy afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lgan ko'rsatkichlar majmuasi asosida raqobatbardoshlikni baholashning turli usullari qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan sifatida aniqlangan taqqoslama afzalliklar koeffitsienti, ishlab chiqarish birligiga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi va mehnat xarajatlari kabi ko'rsatkichlarni ta'kidlash kerak. Raqobatbardoshlikni baholash uslubini tanlash maqsadga shuningdek mavjud

ma'lumotlarga bog'liq. Bundan tashqari, mavjud ma'lumotlar har doim ham muhim emasligini va muhim ma'lumotlar har doim ham mavjud bo'lmashligini yodda tutish kerak. Barcha holatlar uchun bir xil raqobatbardoshlikni baholash uchun qo'llaniladigan ideal usul aniqlanmagan.

6. Tarmoq va bozorda ishlab chiqaruvchilarning raqobatdoshligini ajratib ko'rsatish kerak. Agar bozorda ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi mahsulot tannarxi darajasiga bevosita bog'liq bo'lsa, soha ichidagi raqobatbardoshlik (turli xil va har doim ham osongina bir-birini almashtirib bo'lmaydigan tovarlarni ishlab chiqarish) qo'shimcha omil - ishlab chiqaruvchining qiyosiy afzalliklarini aks ettirgan ixtisoslikni tanlashdir. O'z navbatida, mintaqaning raqobatbardoshligi ishlab chiqarishning institutsional sharoitlarini tannarx va ixtisoslashuv omili bilan birga kiritishni nazarda tutadi, bu esa ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini nafaqat tabiiy qiyosiy ustunliklar yoki afzalliklar tufayli, balki davlat tomonidan o'rnatilgan (hukumat va mintaqaviy darajada) majburiy talablarga rioya qilish bilan bog'liq xarajatlar farqlari tufayli farqlanishiga olib kelishi kerak.

Nazorat savollari

1. Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan «mintaqaviy raqobatbardoshlik» tushunchasini aniqlashning asosiy yondashuvlarini tushuntirib bering?
2. «Mintaqaviy raqobatbardoshlik» tushunchasining mohiyatini aniqlang?
3. «Mintaqaning ichki» va «tashqi raqobatbardoshligi» tushunchalarini farqlang
4. Raqobat ustunliklarining tashuvchilari va foydalanuvchisi kimlar?
5. Raqobatbardoshlikni mintaqaviy maqsadlarini sanab bering va tavsiflang.
6. Mintaqaning tashqi muhitga nisbatan raqobatbardoshligi qanday vazifalarni ajratib ko'rsatishi mumkin?
7. Tizim sifatida mintaqaviy raqobatbardoshlik belgilarini sanab bering.
8. Mintaqaning raqobatbardoshligi va raqobatbardosh potentsiali elementlarini sanab bering. Ikkala tizim o'rtasidagi farq nima?
9. «Mintaqaning raqobatdosh ustunliklari» tushunchasini aniqlang

10. «Raqobatbardoshlik» va «mintaqaning raqobatbardosh ustunliklari» tushunchalari qanday bog`liq?
11. Mintaqaning raqobatbardosh ustunliklari turlarini sanab bering va tavsiflang.
12. Hududlarning raqobatbardosh pozitsiyalari qanday?
13. Mintaqaning raqobatbardosh muvaffaqiyati nimada?
14. O`zbekistondagi mintaqalararo raqobat yo`nalishlarini ajratib bering va tavsiflang.

13-MAVZU. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO`PAYTIRISH YO`LLARI

Reja:

13.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va uning nazariy jihatlar

13.2. Mintaqa eksport hajmini ko`paytirishni huquqiy asoslari

13.3. Mintaqa iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish omillari. Qo`shma korxonalarni rivojlanishi

13.4 Mintaqada tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati va hozirgi holati

13.5. Mintaqada xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilgan ishlar

13.6. To`qimachilik sanoati - eksporti hajmini ko`paytirishning muhim omillaridan biri sifatida

13.7. Qishloq xo`jaligida eksport hajmini ko`paytirish istiqbollari

Tayanch tushunchalar va iboralar: eksport, xorijiy korxonalar, qo`shma korxonalar, tashqi iqtisodiy potentsial,. YaIM, integratsiya, savdo, kon'yunktura,. raqobat muhiti, ishbilarmonlik muhiti, modernizatsiya, yuqori qo`shilgan qiymat, marketing tadqiqotlari, infratuzilma, innovatsiya, savdo nazariyasi, merkantilizm, mutloq ustunlik nazariyasi, ixtisoslashuv, tabiiy ustunlik, o`zlashtirilgan ustunlik, investitsiya,. intensiv rivojlantirish, ekstensiv rivojlantirish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, sug`urtalash, import, jahon savdo tashkiloti, xorijiy kapital, tashqi savdo, reeksport, reimport, oltin valyuta zaxiralari, tashqi qarz, globallashtirish, xalqaro savdo, milliy valyuta kursi.

13.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va uning nazariy jihatlar

Bugungi kunda O`zbekiston jahon hamjamiyatida o`zining mustaqil ovozigaga ega bo`lgan davlat darajasiga ko`tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a`zo bo`ldi. Dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o`rnatmoqda. Ikki va ko`p tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bormoqda.

Shunday sharoitda mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatida tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarning barpo etilishi, infratuzilma, ijtimoiy soha, mahsulot va xizmatlarning mamlakat tashqarisiga eksport qilinishi yoki chet el fuqarolariga, korxona va tashkilotlariga, shu jumladan respublikadagi xorijiy korxonalar va qo'shma korxonalarga sotilishi bilan aniqlanadi.

Mamlakat tashqi iqtisodiy potentsialini aniqlovchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar YaIM ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan aholi jon boshiga, YaIMda tovar va xizmatlar eksportining ulushi hamda tovarlar umumiy eksporti hajmida sanoat tovarlari ulushi hisoblanadi.

Ma'lumki, yurtimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatdagi integratsiya jarayonlarini va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Harakatlar strategiyasi dasturi doirasida tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan kontseptsiya O'zbekiston iqtisodiyotini, chunonchi, vertikal integratsiyani tashkil etish va rivojlantirish borasida dasturilamal hujjat vazifasini o'taydi. Kontseptsiyada integratsiyaning yangi modeli taklif etilgan. U iqtisodiy adabiyotlarda «savdo» yoki «kon'yunktura» deb nomlanadi.

Yangi kontseptsiyaning asosiy maqsadi tashqi iqtisodiy siyosatda markaziy o'rin egallash uchun o'zbek eksportini yangi bosqichga ko'tarishdan, ya'ni xalqaro ishlab chiqarishning progressiv shakllarini va ilmiy-texnik kooperatsiyani rivojlantirish uchun investitsion hamkorlik hamda innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murajaatnomasida iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini **30 foizga** oshirib, **18 milliard** dollarga etkazishni maqsad qilib qo'ymoqdamiz. Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki

bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarurligini aniq vazifa qilib qo'ydi.⁶⁰

Biroq mamlakatimizda eksport qilish mumkin bo'lgan potentsialidan lozim darajada foydalanilmayapti. Xususan, eksportga ko'maklashish uni qo'llab-quvvatlash borasida qator me'yoriy huquqiy xujjatlar qabul qilingan bo'lsada, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksportga mahsulot yetkazib berishni ko'paytirishni rag'batlantirish, mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarning raqobatdoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirish, ortiqcha va eskirgan ruxsat berish tartibotlarini bekor qilish orqali ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish masalalari to'laligicha o'z yechimini topganicha yo'q.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiy ijobiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o'sish sur'atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur'atlariga muvofiq emasligini ko'rsatmoqda.

Birinchi navbatda raqobatbardosh afzalliklarga ega bo'lgan tarmoqlarda bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarning saqlanib qolayotganligi eksport hajmlarining salmoqli o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan:

birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan va keng turdagi xom ashyo, shuningdek, mehnat resurslari mavjud bo'lgan hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlovchi afzalliklardan to'liq hajmda foydalanilmayapti;

ikkinchidan, eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari rivojlanmayapti, eksportoldi va eksportni moliyalashtirish mexanizmlari mavjud emas;

uchinchidan, chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish, uzoq muddatli barqaror tashqi bozorlarni shakllantirish va xorijda tashqi savdo infratuzilmasini yaratishga etarli darajada e'tibor qaratilmayapti;

to'rtinchidan, har xil xizmat turlari eksportini tashkil qilish va ilgari surish bo'yicha tizimli ishlar mavjud emas, ularni ko'rsatish uchun zarur infratuzilma

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murajaatnomasi.

rivojlanmagan.⁶¹

Hozirgi diversifikatsiya jarayonlarida innovatsiyalarni qo'llash va joriy etish keng avj olgan bo'lib, bu sohada haligacha o'rganilayotgan muammolar mavjud. Innovatsiyani qo'llash masalalariga doir fikrlar Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategisida o'z aksini topgan va aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, Adam Smit, D.Rikardo, Eli Xekshker va Bertil Olin kabi taniqli iqtisodchilar tomonidan ham amaliy jihatdan o'rganilgan. Bu borada rossiyalik olimlardan Vasiliy Leontev, S.I. Simonovskiy, V.M. Kudrov, Ya. Korkoral kabilarni nomlarini keltirish mumkin.

O'zbekistonda innovatsion sohada amalga oshirilgan ishlar, olib borilayotgan islohotlar negizida tashkil etilib, B. Abdullaev, I. Abduraimov, S. Kosimov, N. Muminov, S.Fulomov kabi iqtisodchilarning ilmiy izlanishlarida yangi texnologiyalardan foydalanish va ularni amaliyotga joriy etishga doir mulohazalar yuritilgan.

Hozirgi vaqtgacha savdo nazariyasining ikki turi ishlab chiqilgan. Uning birinchi turi savdoning tabiiy borishini aniqlab, davlatlar o'rtasida savdo erkin bo'lgan sharoitda savdo tuzilishi qanday bo'lishini tushintiradi va o'rganadi. Bu turdagi nazariya hech qanday tusiqlar bo'lmagan sharoitda qaysi bir davlat bilan savdo qilish kerak, qaysi turdagi mahsulotni va qanday hajmda sotish kerak kabi savollarni qo'ygan.

Ikkinchi turdagi nazariya savdo xajmini, yo'nalishini va birikmasini (sostav) o'zgartirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning erkin oqimiga davlatning aralashuvini nazarda tutadi. Merkantilizm nazariyasiga asosan davlatning boyligi uning ixtiyoridagi oltin miqyosidagi qimmat baholar bilan o'lchanib, har bir davlat importga qaraganda ko'prok eksport qilish kerak. Bu xolda davlat aktiv to'lov balansiga ega bo'ladi. Milliy davlatlar vujudga kelayotgan davrda (1500-1800

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Manbaa. Lex.uz.

yillar) oltin markaziy xokimiyatlarni mavqeini mustaxkamlash uchun xizmat qilgan⁶².

Nima uchun umuman olganda davlatning eksport salohiyoti importga nisbatan yuqori bo'lishi kerak? Buning uchun davlat savdoni ustidan monopoliya o'rnatib, importning ko'p qismiga to'siq (chegara) o'rnatishi zarur va ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'p qismini eksport qilish uchun subsidiya berishga to'g'ri keladi. Merkantilizm davrida koloniya bo'lgan davlat xom ashyolarni eksport qilib, tayyor mahsulotlarni import qilganlar. Bu nazariya metropoliylarning boyishiga olib kelgan. Natijada koloniya davlatlarning noroziligi vujudga kelgan va mustakillik uchun kurasha boshlaganlar.

Merkantilistik epoxaning bir qismi hozirda ham saqlanib qolgan. Aktiv to'lov balansi termini hozir ham ishlatiladi. Bunga ko'ra davlatning eksport miqdori importdan katta bo'lishi kerak. To'lov balansida difitsit (kamomad) bo'lganini ko'rsatuvchi termin bu passiv to'lov balansidir.

Keyingi vaqtlarda biron bir sotsial yoki siyosiy maqsadlarni amalga oshirish maqsadida ochiqdan ochiq aktiv to'lov balansiga ega bo'lishga harakat qilayotgan davlatlarga nisbatan neomerkantilizm termini ishlatilmoqda. Masalan, to'la bandlikni ta'minlash maqsadida mamlakat ichidagi talabdan ko'proq mahsulot ishlab chiqarib, ortiqchasini eksport kiladilar. Yoki davlat biron bir xududda siyosiy mavqeni saqlab qolish maqsadida ko'prok mahsulot eksport qiladi.

Ko'p davlatlar merkantilizm siyosatiga amal qilib, imkoniyat darajasida ishlab chiqarishni tashkil etib, iqtisodiy jixatdan mustaqil bo'lishga harakat qilganlar. Adam Smit 1776 yilda chop etgan «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatini tadqiqoti» degan kitobida merkatilistlar qarashini tanqid qilgan. Uning fikricha davlatning xaqiqiy boyligi uning fuqorolari foydalana oladigan mahsulot va xizmatlardan iboratdir. Smit mutloq ustunlik nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariyaga ko'ra, ayrim mamlakatlar boshqalariga nisbatan tovarlarni samarali ishlab chiqarishadi. Shu nazariyaga asoslanib u quyidagi savolni qo'ydi: nimaga

⁶² Mirovaya ekonomika. Pod redaktsii A.S.Bulgakova M.:Ekonomist, 2005.

fuqorolar mahalliy tovarlarni sotib olishlari kerak, agar ular xuddi shunday tovarlarni xorijdan ancha arzon narxlarda sotib olishlari mumkin bo'lsa. Smitning isbotlashicha, agar savdo chegaralanmasa, har bir davlat raqobat ustunligiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Har bir mamlakatning resurslari rentabel sohalarga o'tib ketadi, chunki mamlakat norentabel sohalarda raqobatlasha olmaydi.

Ixtisoslashuv natijasida mamlakatning ishlab chiqarish samaradorligi quyidagi sabablarga ko'ra oshadi:

- bitta topshiriqni bajarganligi uchun ishchi kuchilarining malakasi ortadi;
- xodimlar bir turdagi mahsulotdan ikkinchisiga o'tishda vaqtni yo'qotmaydilar;
- bir xil mahsulotni uzoq muddat ishlab chiqarish samarali usullarini joriy etishni taminlanadi va rag'batlantiradi.

Lekin mamlakat qanday mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak degan savolga A.Smit bozor javob beradi, biroq bu xolda mamlakatning tabiiy va ortirilgan ustunliklarini hisobga olish zarurdir.

Mamlakat boy tabiiy resurslar va qulay ob-havoga sharoitiga ega bo'lganligi sababi biror mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha **tabiiy ustunlikga** ega bo'lishi mumkin. Ob-havo sharoiti qanday qishloq xo'jalik mahsulotlarini samaradorlik bilan etishtirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Masalan, Shri-Lanka bug'doy va sut mahsulotlarini import qiladi, chunki ob-havo ularni etishtirishga mos emas, lekin uning ob-havo sharoiti choy, kauchuk, kokos yong'oqlarini etishtirish hisobidan ko'p foyda olishga imkoniyat beradi.

O'zbekiston paxta etishtirishga ajratilgan resurs hisobidan choy ham etishtirish mumkin edi, lekin iqlim choy etishtirishga moslashmagan. Shuning uchun O'zbekiston uchun paxta etishtirish fodaliroqdir. Lekin aynan shu nazariyaga kura Shri-Lanka choy, O'zbekiston esa paxta mahsuloti bilan xalqaro savdoda qatnashib o'z ehtiyojlarini qondirishlari shart.

Uzlashtirilgan ustunlik - bu yuqori malaka va rivojlangan texnologiyalar bilan bog'lik. Hozirgi kunda jaxondagi mahsulotlar ayiraboshlash tayyor mahsulot

va xizmatlardan iborat bo`lib, ularning ulushi qishloq xo`jalik mahsulotlari yoki qazilma boyliklarga qaraganda ancha yuqori. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishni joylashtirish asosan o`zlashtirish ustunligi bilan bog`liqdir. Ishlab chiqarish texnologiyasi bo`yicha ustunlikka ega murakkab va turli mahsulotlarni ishlab chiqarish qobiliyatini ta`minlaydi. Masalan, Daniyada kumush konlari bo`lmasa ham u kumush mahsulotlarini boshqalarga nisbatan ko`p eksport qiladi, chunki ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Yaponiya temir va ko`mirni import qilib, ular asosida yuqori sifatli po`lat ishlab chiqarib, boshqa mamlakatlarga eksport qiladi.

Endi tashqi va ichki savdoda mutloq ustunlik mohiyatini ikki davlat AQSH va Shri-Lanka misolida tushuntirib berishga harakat qilamiz⁶³. Shri-Lanka va AQSH bir xil miqdordagi resurslarga ega (yer, mehnat resursi va kapital) bo`lib, choy va bug`doyni ishlab chiqarishadi. Shri-Lanka 1 tonna choy ishlab chiqarish uchun 4 birlik resurs va 1 tonna bug`doy ishlab chiqarish uchun 10 birlik resurs sarf qiladi. AQSH esa 1 tonna choy ishlab chiqarish uchun 20 birlik resurs va 1 tonna bug`doy ishlab chiqarish uchun 5 birlik resurs sarflaydi. Demak, Shri-Lanka choy ishlab chiqarishga, AQSH esa bug`doyga ixtisoslashishi lozim. Ularda jami 100 birlik resurs bor va resurslarini teng yarmisini bu mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarf qiladilar deb faraz qilamiz.

Ikki davlat bir biri bilan savdo qilmagan xolni ko`ramiz. Bu xolda davlatlar resurslar yarmisini choy va bug`doy etishtirishga sarflaganlari uchun Shri-Lanka 12,5 tonna choy va 5 tonna bug`doy ishlab chiqaradi. AQSH 2,5 tonna choy va 10 tonna bug`doy ishlab chiqaradi. Har bir davlatda faqat 100 birlik resurs mavjud bo`lganligi sababli, xech qaysinisi choyni miqdorini kamaytirmasdan bug`doyni ko`paytira olmaydilar, va aksincha. Ular orasida savdo bo`lmaganda birgalikda 15 tonna choy va 15 tonna bug`doy ishlab chiqarildi. Lekin har bir davlat mutloq ustunlikka ega bo`lgan mahsulot ishlab chiqarganda Shri-Lanka 25 tonna choy (100:4) va AKSh 20 tonna bug`doy (100:5) etishtirgan bo`lardi. Shunday qilib, bu

⁶³ Daniels, John D. Lee H. Radebaugh. International business: environments and operations. Addison-Wesley Publishing Company, 1998.

davlatlar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashtirilsa, ikkala mahsulot etishtirish miqdori ortadi. Natijada bu davlatlar o'rtasida savdo aloqalari o'rnatilsa, ikkala davlat ham oldingi xolatga karaganda choy va bug'doy mahsulotlarini ko'paytirishlari mumkin.

Mutloq ustunlik nazariyasi davlatlarni ishlab chiqarish ixtisosligi bo'yicha har xilligini hisobga olmaydi. Biroq davlatning katta kichikligi omiliga asoslangan nazariya qancha miqdorda va qaysi turdagi mahsulot savdoga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin degan savolga javob berishga yordam beradi. Bu nazariyaga asosan katta maydonga ega bo'lgan davlatlarning iqlim sharoitlari va tabiiy resurslari har xil bo'lib, umuman olganda ular kichik davlatlarga nisbatan o'zlarining iqtisodiy etarlilik qobiliyatiga egadirlar.

Masalan, Braziliya, Xitoy, AQSH, Xindiston, Rossiya kabi katta davlatlar Iroq, Islandiya, Niderlandiyaga nisbatan iste'mol mahsulotlarining kamroq qismini import qilib, ishlab chiqargan mahsulotlarining xam kam qismini eksport qiladilar. Amaliyotda davlatning katta kichikligi tasdiqlangan bo'lishiga qaramasdan istisno xollari xam mavjud masalan, Albaniya katta bo'lmagan davlat bo'lib, savdo cheklamalari og'ir bo'lganligi sababli savdo-sotiq oboroti milliy daromadining juda oz qismini tashkil etadi.

Mutloq ustunlik nazariyasi transport xarajatlarini hisobga olmaydi. Transport xarajatlari katta kichik davlatlarga har xil ta'sir etadi. Odatda savdoda masofa muxum rol o'ynaydi, aniqrog'i masofaning katta bo'lishi transport xarajatlari ortishiga olib keladi. Shuning uchun maydoni katta bo'lgan davlatlarda bu ko'rsatkich yuqoridir. Jaxon tajribasiga ko'ra yuk tashishda masofa 100 mildan ortiq bo'lishi kerak emas. AQShda barcha bozor va ishlab chiqarish quvvatlari 100 mil orlag'idagi masofada joylashgan. Masalan, Niderlandiyada ishlab chiqarish quvvatlarining deyarli ko'p qismi davlat chegarasidan 100 mil masofa oralig'ida joylashgan. Davlat kattaligi ko'p maydon talab etadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

1817 yilda D.Rikardo A.Smit nazariyasini rivojlantirib agar biron mamlakat absolyut ustunlikga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarsa, nima bo'ladi degan savolga javob berishga harakat qildi. D.Rikardo bu muammoni o'rganib, izlanishlar natijasida nisbiy ustunlik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, agar mamlakat mutloq ustunlikni hisobga olmagan xolda boshqa mahsulotlarga nisbatan samaraliroq ishlab chiqaradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashsa savdodan foyda (yutishi) qurishi aniq. Agar mamlakat o'z resurslarini faqat samarali ishlab chiqaradigan mahsulotga jalb etsa, u bundan albatta yutadi. Natijada u mana shu mahsulotni o'zida ishlab chiqarishdan bosh tortgan davlatlardan xom ashyolarni keltirib, ularga egalik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu nazariya nisbiy ustunlik nazariyasi deb ataladi. Ushbu nazariyani misolda ko'ramiz.

Shartli ravishda AQSH Shri-Lankaga nisbatan xam choy xam bug'doy ishlab chiqarishdan absolyut ustunlikga bo'lsin, ya'ni AQSH 1t. choyga 5-birlik, 1t. bug'doyga 4-birlik resurs sarflaydi. Shri-Lanka esa, 1t. choy va 1t. bug'doyni ishlab chiqarish uchun har biriga 10 birlikdan resurs sarflaydi. Agar mamlakatlar resurslarning yarimini har bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga sarflaydigan bo'lsa, AQSH 10 t. choy 12,5 t. bug'doy etishtiradi; Shri-Lanka esa 5t. choy va 5t. bug'doy ishlab chiqargan bo'lar edi. AQSH ikkala mahsulot bo'yicha absolyut ustunlikga ega bo'lishiga qaramay, faqat bug'doy ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlikga ega. Bu degani choyga nisbatan bug'doy ishlab chiqarish ko'proq ustunlikga egadir. Bir xil miqdordagi resurslarni sarflaganda AQSH Shri-Lankaga nisbatan bug'doyni 2,5 barobar ($12,5:5$) choyni esa 2 barobar ($10:5$) ko'p ishlab chiqaradi, Shri-Lanka absolyut yutuqsiz xolatda turgan bo'lsada, choy bo'yicha nisbiy afzallikka egadir. Bu davlatlar o'rtasida savdo bo'lmaganda xech biri choyni miqdorini kamaytirmasdan bug'doyni ko'paytira olmaydilar, va aksincha.

Davlatlar o'rtasida savdo bo'lmaganda bu davlatlar birgalikda 15 t. choy va 17,5 t. bug'doy etishtirgan bo'lardilar. Erkin savdoga o'tilsa, choy va bug'doy etishtirish rejasini o'zgartirib, ularning miqdorlarini oshirgan bo'lar edik. Bug'doy miqdorini o'zgartmasdan choy miqdorini oshiradigan bo'lsak, u xolda AQSH

bug`doyni xammasini, ya'ni 17,5 t. bug`doyni 70 birlik resurs sarflab ishlab chiqaradi. AQSH qolgan 30 birlik resursni 6 t. choy ishlab chiqarishga sarf qilgan bo`lar edi. Bu 3-rasmning D nuqtasida o`z aksini topgan.

Agar Shri-Lanka barcha resurslarini choy ishlab chiqarishga sarf etib, 10 t. choy etishtirsa, u xolda birgalikda etishtirilgan bug`doyni miqdori o`zgarmasdan 17,5 t. bo`lib, choyning xajmi esa 15 dan 16 t.ga ortgan bo`lar edi.

Agar biz davlatlar o`rtasida savdo bo`lmagan xolatdagi choyning miqdorini o`zgartirmasdan bug`doyni miqdorini oshiradigan bo`lsak, u xolda Shri-Lanka o`zining xamma resursini choy ishlab chiqarishga sarf etib, 10 t. choy etishtiradi. AQSH esa 25 birlik resursga 5 t. choy etishtirib, qolgan 75 resursni 18,75 t. bug`doy etishtirishga sarf egan bo`lar zdi. Bu xolda birgalikda etishtirilgan choyning miqdori o`zgarmasdan 15 t. bo`lib, bug`doyni miqdori bug`doyni xajmi esa 17,5 dan 18,75 t.ga ortgan bo`lar edi.

Ikkala, ya'ni absolyut va nisbiy ustunlik nazariyalari mehnat resurslardan to`la to`kis foydalanishni nazarda tutadi. Davlatlar katta miqdordagi ozod resurslarga ega bo`lsa, ular ishlatilmagan resurslarni samarali ishlatish usullari bo`lmagan xollarda xam bu xom ashyolarni ishlab chiqarishga yo`naltirish maqsadida importga cheklama qo`yishlari mumkin.

Nisbiy ustunlik xam, yuqorida absolyut ustunlik nazariyasda ta'kidlab o`tilganidek mahsulotlarni bir davlatdan ikkinchi davlatga harakatidagi yo`l xarajatlarini hisobga olmaydi. Bu nazariyalar bir davlat miqyosida bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdagi resurslar boshqa turdagi mahsulotni ishlab chiqarishda erkin harakat qilishini nazarda tutadi. Biroq resurslarning davlat chegarasidan o`tishini inkor etadi. Xaqiqatan xam ingliz engil sanoat ishchisi ishdan bo`shab koliforniyaning elektron sanoat ishlab chiqarish korxonasiga borishi mumkin emas.

Biz ko`rib chiqilgan ushbu nazariyalar o`z obyekti va mohiyatiga ko`ra ba'zi omillarni e'tiborga olmaganliklarini ko`rish mumkin:

- to`la bandlik, ya'ni mamlakat erkin bo`sh turgan resurslarga ega bo`lsa u ustunlikga qaramay ko`p turdagi mahsulotni ishlab chiqaradi.

- bir sohaga e'tibor berilishi orqali ikkinchi soha bo'yicha malakani yo'qotmaslik maqsadida mamlakatlar bu nazariyaga e'tibor bermaslik.

- transport xarajatlari ushbu nazariyalarda hisobga olinmagan.

- mobillik, ya'ni resurslarning bir mamlakatda bir sohadan ikkinchisiga o'tishi uncha engil kechmaydi.

- ushbu nazariyalar ko'proq tovarga tegishli bo'lib, xizmat xususiyatlarini deyarli aks ettirmaydi.

A.Smit va D.Rikardo o'zlarining absolyut va nisbiy ustunlik nazariyalarida agar mamlakat ustunlikga ega bo'lgan ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashgan bo'lsa, ishlab chiqarish xajmini qanday qilib ko'paytirish mumkinligini ko'rsatib berdilar. Lekin bu nazariya qaysi turdagi mahsulotni tezroq ustunlikga erishishini ta'minlay olishini ko'rsatib bermadi. Ularning fikricha faoliyat ko'rsatayotgan erkin bozorning o'zi ishlab chiqaruvchiga samaradorligi yuqori bo'lgan mahsulotni ko'rsatib beradi va norentabel sohalardan qochishni ta'minlaydi.

125 yildan so'ng ikki shved iqtisodchilari Eli Xekshker (Eli Heckcher) va Bertil Olin (Bertil Ohlin) ishlab chiqarish omillarning nisbat nazariyasini yaratdilar. Unga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha mehnat ulushining yerga yoki kapitalga nisbati orasidagi farqlari ishlab chiqarish omillarining qiymatidagi farqni tushuntirish imkonini beradi.

Ularning fikricha agar mehnat resurslari, yer va kapitalga nisbatan ko'p bo'lsa, mehnatga sarflanadigan xarajatlar past bo'lib, yer va kapital qiymati (narxi) esa yuqori bo'ladi. Agar mehnat resurslari chegaralangan bo'lsa, u xolda uning narxi yer va kapitalga nisbatan yuqori bo'ladi. Mana shu ishlab chiqarish omillarining narxi mahsulotning qaysi turini ishlab chiqarish, rivojlantirish va eksport qilish kerakligiga undaydi⁶⁴.

Ko'p aholiga ega, lekin etarlicha yer maydoniga ega bo'lmagan mamlakatlarda, masalan, Gonkong va Niderlandiya urning narxi juda yuqori, shuning uchun ular iqlim va yer qatlamining qanday bo'lishidan qat'i nazar katta

⁶⁴ E.V.Vavilova, L.P.Borodulina. Mejdunarodnaya trgovlya. M.: GARDARIKI, 2006

miqdorda yer maydoni talab etiladigan mahsulotlarni (qora mol, bug`doy va shu kabi mahsulotlar) ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkoniyatlari yo`q. Bu kabi mahsulotlar Avstraliya, Kanada va Rossiyada ishlab chiqariladi, chunki ularda aholiga nisbatan yer maydoni ko`pdir. Shuning uchun u yoki bu mamlakatdagi ishlab chiqarish sohasining rejalashtirilishi mehnat resurslari va yer o`rtasidagi mutanosiblikni e`tiborga olishni taqazo etadi. Masalan, Gonkongda yer maydoni ishchi kuchiga qaraganda kam talab etiladigan bo`lgan sohalar samaralidir masalan, ko`p kavvatli binolarda faoliyat ko`rsatadigan tikuv tsexlari, elektronika sohasi. Shuning uchun u ishchilar soniga qaraganda ko`proq yer maydon talab etiladigan avtomobilsozlik sohasida raqobatlasha olmaydi.

Agar mehnat resurslari kapitalga nisbatan ko`p bo`lsa, ish xaqi past bo`lishini, kapitalga nisbatan ko`p mehnat talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarilishi va bu mahsulotni raqobatdosh, eksportbop bo`lishini kutish mumkin. Masalan: Xindiston, Eron, O`zbekiston va Tunis mamlakatlarining qo`l bilan to`qilgan gilamlari Buyuk, Britaniya, AQShda texnikadan foydalanib to`qilgan gilamlaridan sifati, jidamliligi bilan farq qiladi.

Mehnat va kapital o`rtasidagi munosibatni o`rganish maqsadida ko`plab tadqiqotlar o`tkazilgan. Masalan: Vasiliy Leontev shuni ta`kidlaydiki, AQShning eng yaxshi va ko`p eksport qiladigan sohalarida import qilinadigan mahsulotlar bilan raqobatlashadigan sohalarga nisbatan yuqori (ko`p) mehnat talab etilagan. Biroq, AQSH mehnat resurslariga qaraganda ko`proq kapitalga ega. Bu antika natija «Leontiv paradoksi» deb ataladi.

Xaksher–Olin nazariyasida ishlab chiqarish omillarini bir jinsliligi deb qarashlari, ular tomonidan qo`yilgan xato yoki kamchilikdir. Xaqiqatan ishchilarning malakalari mamlakat ichida, xamda davlatlararo har xildir, turli odamlar har xil kasbiy tayyorgarlikga va ta`limga egadirlar. Kasbiy tayyorgarlik va ta`lim, kapital sarflashni talab etib, qurilma va asbob-uskunaning narxini o`z ichiga olgan kapitalning ko`rsatkichlarida o`z aksini topmaydi. Ishchi kuchining har xil guruhlarini va bu guruhlarining kasbiy tayyorgarligiga ajratilgan kapitalni hisobga olgan xolda ishlab chiqarish omillarining nisbat nazariyasi kuchga ega bo`lib

qoladi. Agar biz ishchi kuchiga bir jinsli tovar sifatida emas, balki uni kategoriyalarga bo'lingan ko'rinishida qarasak, sanoati rivojlangan davlatlar yuqori saviyali mehnat resurslarga ega ekanini ko'rishimiz mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarning eksportida, yuqori saviyali mutaxassis, olim va injenerlar ko'prok jalb qilinganligi bilan ajralib turadi. Sanoati rivojlanmagan davlatlarning eksportida esa, saviyasi yuqori bo'lmagan mutaxassis, olim va injenerlar ko'proq jalb qilinganligi bilan ajralib turadi.

Savdo xamkorlarini aniqlashda quyidagilarga katta ahamiyat beriladi:

- davlatlar o'rtasidagi farq;
- dalatlarning o'xshashligi;
- savdo aloqalarining juftligi.

Ushbu ko'rib chiqilgan nazariyada mavjud savdo aloqalari davlatlarning har xilligiga asoslangan edi, masalan, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakatlar. Bu nazariyadan kelib chiqib shuni aytish mumkinki davlatlar o'rtasidagi farq kanchalik katta bo'lsa savdo qilishning imkoniyatlari ancha yuqori buladi. Masalan, iqlimlari tubdan farq qiladigan davlatlar qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan savdo qilish imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Mehnat resurs va kapitallari bilan tubdan farq qiladigan davlatlarning mahsulot ishlab chiqarish assortimentlari biridan katta fark qiladi, bu esa ularni biri biri bilan savdo qilishga undaydi.

Hozirgi vaqtda tashqi savdoning ko'p qismi o'xshash davlatlar bilan bo'ladigan savdoga to'g'ri kelmoqda. Bular iqlimlari, daromadlari bir xil, xalqlarining ta'lim darajasi yuqori bo'lgan davlatlardir. Mamlakatlarning o'xshashlik nazariyasiga ko'ra, ichki bozorda shakllangan ehtiyojga javoban yangi mahsulotni ishlab chiqargan mamlakat o'zining bozoriga o'xshash xorijiy bozorlarga murojat qiladi. Boshqacha aytganda, rivojlangan mamlakatlar fuqarolari yuqori sifatli va qimmat tovarlarga qiziqish ko'rsatishsa, daromadning past darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar iste'molchilari bunday tovarlarni kam miqdorda sotib oladilar. Mamlakatlarning o'xshashlik va farq tomonlarini tadqiq

qiladigan nazariyalar deylik, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasidagi xalqaro savdo modellarini tushuntirib beradi⁶⁵.

Nima uchun sanoati rivojlangan ma'lum bir davlat rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlat bilan ko`proq savdo-sotiq ishlarini olib boradi? Bunga savdo aloqalarining juftligi degan termin javob beradi. Bu savolga davlatlar orasidagi masofaning yaqinligi, ya'ni transport xarajatlarining pastligi, madaniyatlarining o`xshashligi, tillari, dinlari va urf-odatlarini yaqinligi javob bo`ladi. Mamlakatlarning madaniy tomondan, til va dinlarning o`xshashligi savdo aloqalarining yo`nalishlarini belgilab berish mumkin. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o`rtasidagi savdoning ko`p aspektlari tarixiy taraqqiyot natijasidagi mustamlaka aloqalariga xam bog`liq, chunki tovarning ulgurji taqsimlashning yangi tizimini shakllantirishidan ko`ra, bor va mavjud bo`lgan aloqalarni saqlab qolish va takomillashtirish osonroq.

Savdo siyosatida bog`liq bo`lmaslik, o`zaro bog`liqlik bog`liq kontseptsiyalari xam muxim o`rin egallaydi. Bu kontseptsiyalar jahon savdo tuzilishini va davlatlarning savdo siyosatini tushinishga yordam beradi. Dunyoda xech bir davlat yo`qki u to`liq yoki bog`liq bo`lmagan.

Bog`liq bo`lmaslik kontseptsiyasining mohiyati ma'lum bir davlat mahsulotlarga, texnologiyalarga ega bo`lishda va maishiy xizmatlarda foydalanishda boshqa davlatlarga bog`liq emas. Biroq savdo jarayonida bir qancha davlatlar ishtirok etganligi sababli, xech bir davlat to`liq iqtisodiy bog`liq bo`lmaslik (mustaqil) xususiyatiga ega emas. Ba'zi davlatlar bu kontseptsiyaga amal qilishga harakat qilganlar. Masalan, Xitoy va Hindiston bir vaqtlarda iqtisodiy bog`liq bo`lmaslikga harakat qilganlar. Xozirgi vaqtda xech bir davlat to`liq bog`liq bo`lmaslikga harakat qilmaydi, lekin o`zlarining tashqi savdo siyosatlarini shunday tashkil etadilarki, natijada talab va taklif ustidan xorijiy nazorat minimal bo`lishga harakat qiladilar.

⁶⁵ Daniels, John D. Lee H. Radebaugh. International business: environments and operations. Addison-Wesley Publishing Company, 1998

O'zaro bog'liqlik kontsepsiyasining mohiyati bir tomonni ikkinchi tomonga va aksincha bog'liqligidir. Masalan, Germaniya bilan Frantsiya iqtisodiyotining bir biriga bog'liqlik darajasi juda yuqoridir. Har bir tomon bir xil me'yorda bir biriga bog'liqdir, agar bir tomon ta'minotni kamaytirs, ikkinchi tomon ham darhol shunday javob qiladi.

Bog'liqlilik kontsepsiyasining mohiyati bu bir davlat ikkinchi davlatga bog'liq bo'lib, ikkinchi davlatda bo'layotgan o'zgarishlar albatta birinchi davlatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oxirgi vaqtda ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar ochiqdan ochiq o'zlarini boshqa davlatga bog'liq ekanliklarini etiroz etmoqdalar. Buning sababi rivojlanayotgan davlat bir muncha kichik, ularning sanoati rivojlanmagan, ilg'or texnologiya, mutaxassislar mavjud emas, shuning uchun ular sanoati rivojlangan mamlakatlardan mahsulotlar sotib olishga majburdirlar. Masalan, Meksikaning eksport va iportining 60 foizi AQShga to'g'ri keladi va uz navbatida AQShning Meksikaga bu ko'rsatkich bo'yicha bog'liqligi 5 foizni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlar bog'liqlik siyosatidan kutilishlari uchun ular tashqi bozorlarga chiqishlari kerak.

13.2. Mintaqa eksport hajmini ko'paytirishni huquqiy asoslari

Mamlakatimizda qulay investitsion muhit, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, eksportni qo'llab-quvvatlash borasida oxirigi uch yilda 10 dan ortiq farmon va qarorlar hamda turli darajadagi huquqiy hujjatlar imzolandi.

Bunda birinchidan, hamkor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlardagi yondashuv o'zgartirildi. Oliy darajadagi tashriflar chog'ida Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, AQSH, Koreya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar imzolandi. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan to'laqonli munosabatlar tiklandi, bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka 190 million AQSH dollari miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Turli yo'nalishlarda 20 dan ortiq loyihalar ishlab chiqildi. Evropa investitsiya banki, Frantsiya rivojlanish agentligi bilan hamkorlik o'rnatildi.

O'zbekiston yangi tuzilgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining teng huquqli a'zosiga aylandi.

Ikkinchidan, tashqi savdo faoliyatidagi barcha sun'iy to'siqlar olib tashlandi. Xususan, oldindan to'lovlarsiz va kafolat majburiyatlarisiz eksport qilish tartibi joriy etildi. Ortiqcha va eskirgan ruxsat beruvchi talablar bekor qilindi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish mexanizmlari soddalashtirildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida eksport hajmi 11,3 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va oldingi yil shu davr ko'rsatkichiga nisbatan 126 foizga oshdi.

MDH davlatlari ichida mahsulot eksport qilinadigan eng yirik davlatlar qatoriga Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston hamda uzoq xorijiy mamlakatlar – Xitoy, Turkiya, Afg'oniston, Eron, Koreya Respublikasi va Frantsiya davlatlarini kiritish mumkin. Mahsulot turlari bo'yicha eksportning eng yuqori o'sish sur'atlari mashina va asbob-uskuna, rangli metall, oziq-ovqat mahsulotlari hamda to'qimachilik mahsulotlariga to'g'ri keldi. Bunda mevasabzavot mahsulotlari eksporti ham mablag' jihatidan (592,6 million dollar), ham miqdor jihatidan (831,7 ming tonna) o'sishiga erishildi. Bugungi kunda eksport tarkibining qariyb 78 foizini qayta ishlash tarmog'i mahsulotlari tashkil etmoqda. Jumladan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportining ulushi 28,5 foizdan 34,5 foizgacha ortdi, elektr maishiy texnika 2,4 baravarga, avtomobil eksporti 3 baravarga, to'qimachilik mahsulotlari 1,3 baravarga va charm-poyabzal mahsulotlari eksporti 14,2 foizga o'sdi.

Agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 2017 yil davomida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy qilindi. O'zbekiston Fermerlari kengashi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi. O'tgan yilda

mamlakatimizda 8 million 377 ming tonna g`alla, 2 million 900 tonnadan ziyod paxta, 12 ming 450 tonna pilla, 500,8 ming tonna sholi, 22 million tonna meva-sabzavot, 12,3 million tonna go`sht va sut mahsulotlari etishtirildi. Bu yilda birinchi marta g`alladan bo`shagan qariyb 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot etishtirildi. Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gretsiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vetnam va Indoneziya davlatlarining ilg`or tajribasidan keng foydalanishga alohida e`tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noan`anaviy ekin ekish yo`lga qo`yildi, soya ekish kengaydi. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, 856 million dollarlik 724 ming tonna ho`l meva eksport qilindi.

Chorvachilik tarmog`ini rivojlantirish dasturlari doirasida baliq, asal etishtiriladigan, parranda, echki, qoramol boqiladigan ko`plab xo`jaliklar faoliyati yo`lga qo`yildi. Zotdor qora bayir otlarini ko`paytirish va ot sportini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryoda yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va boshqa hududlarda ham bunday majmualar barpo qilinmoqda. Pillachilikda yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan, ammo deyarli yo`qolib borayotgan an`analar qayta tiklanmoqda. Qimmatbaho hom ashyo bo`lgan ipak etishtirishning mutlaqo yangi tizimi yo`lga qo`yildi. O`tgan yil mamlakatimizda birinchi marta pilladan yiliga ikki marta hosil olish tajribasi sinovdan o`tkazildi va ijobiy natija berdi.

Har bir viloyatda pilla xom ashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot olish maqsadida to`g`ridan-to`g`ri chet el investitsiyalari jalb qilindi va ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan 10 ta korxona ishga tushirildi.

Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo`llab-quvvatlanib, ularning tashabbuskori bo`lgan xo`jalik va tashkilotlarga qo`shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berildi. Natijada, bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar erda tomchilatib sug`orish texnologiyasi joriy qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksportga mahsulot yetkazib berishni ko'paytirishni rag'batlantirish, mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarning raqobatdoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirish, ortiqcha va eskirgan ruxsat berish tartibotlarini bekor qilish orqali ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish maqsadida quyidagilar nazarda tutilgan:

2017 yilning 1 iyo'lidan boshlab barcha tadbirkorlik subyektlariga yangi meva-sabzavot mahsulotlari, uzum va poliz mahsulotlarini to'lovni oldindan 100 foiz amalga oshirish sharti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida eksport qilish huquqi berildi.⁶⁶

Ta'kidlash joizki, ushbu choralar meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini kengaytirish bilan birgalikda dehqon va fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, yer resurslaridan samarali foydalanish, shu jumladan, takroriy ekinlar ekish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga rag'batlantiradi.

Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining narxi va sifati bo'yicha tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, dehqon va fermer xo'jaliklari etishtirgan mahsulotlarining haqiqiy egasi sifatida ulardan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, mustaqil eksport qilish, daromadlarini oshirish, oilasining moddiy farovonligini ko'tarishlari mumkin bo'ladi, qo'shimcha valyuta tushumlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va ularni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi loyihalarni investitsiyalash uchun imkoniyat yaratadi.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori 2017 yil 20 may.Manbaa. Lex.uz

Shu bilan birga, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish uchun chet elda qabul qilingan me'yor va standartlarga mahsulotlarning muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish vazifasi qo'yildi

Qabul qilingan qarorning muhim jihatlaridan biri, nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchilarga, balki mahsulotlarni chet elga eksport qilishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ko'maklashadigan tashqi savdo tashkilotlariga ham eksport faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratildi.

Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi-eksport qiluvchilar uchun qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan imtiyoz va qulayliklar endilikda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari eksporti bilan shug'ullanadigan barcha tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etiladi.

Bu eksport bilan tegishli tajriba va zarur mablag'larga ega, doimiy ravishda jahon bozori kon'yunkturasini kuzatib boradigan hamda tashqi bozorlarda ishonchli hamkorlari bor ixtisoslashgan kompaniyalarning mahsulotlar eksporti bilan shug'ullanishi xalqaro amaliyotga to'liq mos keladi.

Bundan tashqari, ushbu me'yorning tatbiq etilishi zamonaviy marketing usullaridan, shuningdek, tashqi savdo kompaniyalarining imkoniyat va afzalliklaridan maksimal foydalanish imkonini beradi, bu o'z navbatida respublikamiz eksport salohiyatini sezilarli darajada kuchaytirishga, eksport geografiyasi va mahsulotlar eksporti nomenklaturasini kengaytirishga olib keladi.

Shuningdek, hujjatda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlarining ruxsat olish tartibidan o'tishdagi, shu jumladan, mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirish muddatlarining cho'zilib ketishi kabi ayrim qiyinchiliklar yuzasidan ko'plab davlat organlariga murojaatlarning yechimi o'z aksini topgan va mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatlari 3 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda rasmiylashtirilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda «Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4069-sonli Qarorida amalga oshirilayotgan

tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiy ijobiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o'sish sur'atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur'atlariga muvofiq emasligini ko'rsatayotganligi qayd etilib aniq vazifalar belgilandi.

Xususan, tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini tubdan oshirish, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida:

Tadbirkorlik subyektlariga quyidagilarda har tomonlama ko'maklashish davlat idoralarining asosiy vazifalari etib belgilandi.

Tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Markaziy bankning Eksportni qo'llab-quvvatlash milliy tizimini tashkil etish va uning asosiy vazifalari etib eksport faoliyatiga axborot-tahliliy ko'maklashish bo'yicha:

eksportni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini takomillashtirish, eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda ko'maklashish;

marketing, narx shakllanishi, transport logistikasi, sertifikatlash, standartlashtirish va sifat nazorati, soliq hamda bojxona ma'muriyatchiligi (shu jumladan, xorijdagi) masalalari, «yagona darcha» tamoyili asosida tashqi bozorlarga kirish sharoitlari bo'yicha eksport qiluvchilarga va ularning chet eldagi hamkorlariga axborot va maslahat ko'magini ko'rsatish;

xorijiy xaridorni izlashga va eksport shartnomasini tuzishga qadar muzokaralar jarayoniga, shu jumladan ularning loyihalarini tayyorlashga ko'maklashish;

respublika vazirliklari va idoralari, viloyatlar hamda tuman hokimliklari bilan milliy mahsulotlarni chet elga eksport qilish, eksport qiluvchilarni eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar, mavjud imtiyozlar va preferentsiyalar, vakolatli davlat organlarining vazifalari va funktsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashda tizimli hamkorlikni ta'minlash;

hududlarda axborot-maslahat markazlari tarmog'ini tashkil etish;

mahalliy eksport qiluvchilar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar bazasini ta'minlash orqali elektron tashqi savdo maydonchalarini yuritish, ishlab chiqarish va eksport faoliyati bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga yetakchi xalqaro elektron tijorat maydonchalariga kirish uchun yordam ko'rsatish;

ishonchli sifatli mahsulot yetkazib beruvchi sifatida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning halolligini isbotlash uchun, shu jumladan har yili «Made in Uzbekistan» milliy ko'rgazmasini, tarmoq va mintaqaviy tovarlar ko'rgazmalari va savdo yarmarkalarini o'tkazish, xalqaro ko'rgazmalar va taqdimotlarda ishtirok etish yo'li orqali o'zbek brendlari va mahsulotlarini xorijda ilgari surish bo'yicha «Made in Uzbekistan» dasturini amalga oshirish;

eksport qilishni boshlayotganlar uchun o'quv seminarlari va treninglar, tadbirkorlar uchun xorijiy mamlakatlarga tashqi savdo masalalari bo'yicha savdo missiyalari tashkil etish va o'tkazish;

eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash qismida:

eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, noxomashyo eksport hajmi, milliy eksport qiluvchilar va ularning mahsulotlarini sotib oladigan mamlakatlar sonini oshirishga ko'maklashish;

ko'rgazma stendlarini tashkil etish va respublika korxonalarining xalqaro savdo yarmarkalari, taqdimotlari va reklama kampaniyalarida ishtirok etishi, shu jumladan an'anaviy milliy mahsulotlar va brendlarni potentsial bozorlarda ilgari surishni moliyalashtirish;

milliy mahsulotlarni xorijiy vakolatli organlar tomonidan rasmiylashtirilishi orqali standartlashtirish va sertifikatlashtirishning ham respublikadagi, ham xorijdagi xalqaro tizimlarini joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash maqsadida eksport qiluvchi korxonalarga maqsadli moliyaviy yordam ko'rsatish;

moliyaviy qo'llab-quvvatlash va milliy eksportni sug'urtalashning zamonaviy mexanizmlarini muvaffaqiyatli qo'llagan xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olib, shu jumladan xalqaro moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda eksportoldi va eksportni moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiligini sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish;

savdoni moliyalashtirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlarini va imtiyozli kreditlarini jalb qilish;

boshqa kompleks moliyaviy va konsalting xizmatlarini ko'rsatish.⁶⁷

Ma'lumki, mamlakat eksport salohiyatini kengaytirishda tabiiy salohiyat muhim o'rin tutadi

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 oktyabrdagi «Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3978-sonli Qarorida mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlari eksportining to'laqonli rivojiga to'sqinlik qilayotgan g'ovlarni bartaraf etish, eksport faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarishning kompleks tizimini tashkil etish maqsadida quyidagi imtiyozlar berildi:

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish mexanizmi ancha soddalashtirildi.

Birinchidan, endi yuridik shaxslar uni dastlabki to'lovsiz, akkreditiv ochmasdan, bank kafolatini rasmiylashtirmasdan hamda eksport shartnomasini siyosiy va tijorat xavflaridan sug'urta polisisiz eksport qilishlari mumkin.

Ikkinchidan, eksportdan tushumlarni o'z vaqtida ta'minlamagan tashkilotlar Nohalol meva-sabzavot mahsulotlari eksport qiluvchilar reestriga kiritiladilar. Ularni eksport qilishda ularga nisbatan 100 foizlik oldindan to'lov olish talablari qo'llaniladi.

Uchinchidan, tadbirkorlik subyektlari ulgurji savdo qilish litsenziyasiga ega bo'lmasdan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish huquqiga egadirlar. Yakka tartibdagi tadbirkorlar meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishdan tushgan tushumdan YaST to'lashlari kerak bo'ladi.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4069-sonli Qarori Manbaa. Lex.uz

To`rtinchidan, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari bojxona ko`rigidan o`tkazilmaydi, bojxona qonun hujjatlari buzilishi xavfi belgilari aniqlangan holatlar bundan mustasno. Bunda hujjatlarda mavjud ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek tovarlarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o`tish uchun eksport qiluvchi javobgar bo`ladi.

Beshinchidan, tadbirkorlik subyektlari o`zlariga ajratilgan yer uchastkalarida meva-sabzavot mahsulotlarini bevosita ularni etishtirish joylarida sug`orish, tayyorlash va saqlash bo`yicha infratuzilma obyektlari qurish uchun engil konstruksiyalarni qurishlari mumkin. Aniq tartib keyinroq tasdiqlanadi.

Tashqi savdo vazirligi meva-sabzavot mahsulotlari eksporti sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiradi, eksport qiluvchilarga sotish bozorlarini izlashda yordam beradi, ular bilan har oyda uchrashuvlar o`tkazadi. Meva-sabzavot mahsulotlari etishtiruvchilar hamda eksport qiluvchilar **O`zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar uyushmasiga** birlashadilar. Bunda ularga SSP, Adliya vazirligi va biznes-ombudsman ko`mak beradi.

Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar axborot portali ishga tushiriladi. U «TradeUzbekistan.com» elektron savdo maydonchasi, DSQ va DBQ axborot tizimlari bilan integratsiyalanadi. Portal meva-sabzavot mahsulotlari etishtiruvchilar va eksport qiluvchilar, salohiyatli import qiluvchilar va h.k. to`g`risida axborot olish, shuningdek eksport jarayonining barcha bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

13.3. Mintaqa iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish omillari. Qo`shma korxonalarni rivojlanishi.

Bugungi kunda O`zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish ko`p jihatdan integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga bog`liq. Chunki ishlab chiqarish samarasi bevosita bir qator ichki va tashqi omillar hamda holatlarga uyqashib ketadi.

Sir emas, endilikda korxonalar yakka tartibdagi ishlab chiqarishni rivojlantirsalar, bozor sharoitida bu jarayon uzoq davom etmaydi. Masalan, Yaponiyada «Toyota» avtomobilini tayyorlash hamda butlash uchun o`n uchta davlatdan zarur detallaru butlovchi qismlar olinadi. Bu mamlakat va korxona

iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti uchun o'zaro integratsiyani rivojlantirish darkorligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy integratsiya hozirga qadar atroflicha o'rganilgan va ilmiy adabiyotlarda u haqda talay tushunchalar bayon etilgan. Shunday esa-da, biz ham ushbu muammoga nisbatan o'z yondashuvimizni va fikrimizni bildirishni lozim topdik.

«Integratsiya» aslida lotincha so'z bo'lib, keng ma'noda qo'llaniladi. Jumladan, davlatlar, regionlar, kompaniya va korxonalar o'rtasida tashkiliy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa yo'nalishlardagi hamkorlikni mustahkamlashni ifodalaydi. Ma'no-mohiyatiga ko'ra, bir necha turga bo'linadi. Ular orasida iqtisodiy integratsiya ayni jabhada davlatlararo aloqalarni o'rnatishi, har bir mamlakatda strukturaviy o'zgarishlar negizida milliy xo'jalikni texnologik modernizatsiyalash va uning raqobatbardoshligini ta'minlanishi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, hozirgi davrda jahon xo'jaligini va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda ekzogen omil ta'siri ostida milliy iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyoti hamda barqarorligini ta'minlab, samaradorligini oshirish uchun puxta zamin yaratadi.

Ma'lumki, yurtimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi hamda Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi [1]. Ularda mamlakatdagi integratsiya jarayonlarini va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Harakatlar strategiyasi dasturi doirasida tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan kontseptsiya O'zbekiston iqtisodiyotini, chunonchi, vertikal integratsiyani tashkil etish va rivojlantirish borasida dasturilamal hujjat vazifasini o'taydi. Kontseptsiyada integratsiyaning yangi modeli taklif etilgan. U iqtisodiy adabiyotlarda «savdo» yoki «kon'yunktura» deb nomlanadi.

Yangi kontseptsianing asosiy maqsadi tashqi iqtisodiy siyosatda markaziy o`rin egallash uchun o`zbek eksportini yangi bosqichga ko`tarishdan, ya'ni xalqaro ishlab chiqarishning progressiv shakllarini va ilmiy-texnik kooperatsiyani rivojlantirish uchun investitsion hamkorlik hamda innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirishdan iboratdir.

Hozir integratsiya jarayonlari erkinligini iqtisodiy adabiyotlarda umum qabul qilingan qoidaga tayangan holda ta'minlash iqtisodiy o`sishga va millatning turmush darajasi farovonlashishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ayon bo`lishicha, ular turli sharoitlarda integratsiya jarayonlarini liberallashtirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borganlar. Shu bois iqtisodiy ziddiyatlarni kamaytirishga erishganlar va iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ko`targanlar.

O`zbekistonda Istiqlol yillari integratsiya jarayonlarini erkinlashtirish eksport va import sturukturasini o`zgartirdi. Masalan, 2017 yili eksport tarkibida tayyor mahsulotlar 72 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi esa 26907,6 million AQSH dollariga etdi. Integratsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad esa uning faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitlar yaratishdir. Davlat bu jarayonning strategik maqsadlarini belgilab borishi lozim. Ayniqsa, eksportni rivojlantirish, o`zbek eksporti tuzilishini takomillashtirish, eksport qilinayotgan mahsulotlar turini ko`paytirish va sifatini oshirish, eksportning tovar va geografik tuzilishini rivojlantirish, xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlikning ilg`or shakllaridan foydalanish, boshqa ishlarni tashkillashtirish va kadrlar tayyorlashni yaxshilash masalalariga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, integratsiya jarayonida eksport-import operatsiyalari ishlab chiqarishni kooperatsiyalash, investitsiyaviy hamkorlikni kuchaytirish rejalari bilan boyitilishi lozim. Bundan tashqari, xorijiy kapital, yangi texnologiyalar, lizing bo`yicha jihozlar va hokazolardan qayta ishlab chiqarishning barcha pog`onalarida unumli foydalanish zarur.

O`zbekiston integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish uchun xalqaro amaliyotga bog`liq muayyan masalalarni ijobiy hal etishi lozim. Birinchidan,

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi, ikkinchidan, o'zga davlatlar bilan integratsiya kelishuvlarini amalga oshirishda savdo oqimlari tuzilishi va dinamikasi huquqlararo komissiyalarda hal qilinishiga erishishi, uchinchidan, ikkilamchi soliqqa tortish va investitsiyalar himoyalaniishi masalalarini chuqur o'rganib chiqishi kerak.

Baralla aytish mumkinki, yaqin va qo'shni davlatlar bilan integratsiyani tezlashtirish kelgusida Vatanimiz iqtisodiyotini ko'tarish uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratadi. Hozir O'zbekiston Rossiya, Belarus, Ukraina, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi savdo-siyosiy aloqalar o'rnatgan. Shuning sharofati o'laroq, yurtimizda ko'plab qo'shma korxonalar ishlab turibdi. Biz kelgusida MDH mamlakatlari bilan bir qator muammolarni, jumladan, davlatlararo o'zaro majburiyatlarni bajarish, tovarlarni sotish bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish, diyorimizda ishlab chiqarilgan tovarlar hamdo'st davlatlar hududida erkin sotilishini ta'minlash masalalarini ijobiy hal etish choralarini ko'rishimiz shart.

Xususan, mamlakatda asosan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yilning 1-iyol holatiga xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar 9 014 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 720 taga yoki 43,2 %ga o'sgan. Shundan mintqa kesimida eng yuqorisi Toshkent shahrida (5 427 ta), Samarqand (465 ta), Farg'ona (348 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq ko'rsatkichlar bilan Xorazm (111 ta), Sirdaryo (129 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (125 ta)ni tashkil qiladi (13.1-rasm).



13.1-rasm. O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar soni.

Mintaqada eng ko'plari xorijiy kapital ishtirokidagi birlikda Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 251 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 289 ta, va Koreya Respublikasi - 115 ta ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar va yangi loyihalar bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yishga dastlabki qadamlarni qo'ymoqda.

«Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rib chiqiladigan bo'lsa, 2019 yilning birinchi yarimida asosan sanoat (527 ta), savdo (501 ta), qurilish (195 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (144 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (29 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etmoqda.

Integratsiya jarayonlarini rivojlanishida kapital qo'yilmalarning ko'payishi, ya'ni kapital kirishi va chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon sobiq Ittifoq tanazzulga yuz tutgandan so'ng tez sur'atlarda ijobiy tomonga o'zgardi. Masalan, XX asrning 90-yillari boshida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'sish sur'atlari 4-5 baravarga oshib, jahon YaIM qiymatiga nisbatan tezlashdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yaxshi investitsiyaviy muhit yaratildi. Natijada oxirgi 25 yil mobaynida iqtisodiyotga 200 milliard AQSH dollaridan ortiq

miqdorda investitsiya kiritildi. Shundan 70 milliard dollari xorijiy investitsiyalardan iborat bo'ldi.

O'zbekistonning investitsiya qonunchiligi MDX mamlakatlarinikiga nisbatan ancha pozitivdir. Chunki unda xalqaro investitsiyaviy huquqning barcha jihatlari e'tiborga olingan. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlari huquqiy jihatdan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Milliy iqtisodiyotimizga investitsiyalarni kiritish va ularni sarflash uchun qulay sharoitlar mavjudligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik.
2. Me'yoriy-huquqiy baza yaratilgani.
3. Biznesga soliq va bojxona preferentsiyalari to'g'ri tashkil etilgani.
4. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish qoidalarining liberallasuvi.
5. Erkin iqtisodiy zonalar yaratilishi.

Hozir bizda xorijiy investitsiyalar uchun, kiritilgan sarmoyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddat uchun imtiyozlar belgilangan. Jumladan:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar 3 yil muddatga;
- 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar 5 yil muddatga;
- 5 million AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha hajmdagi investitsiyalar 7 yil muddatga;
- 10 million va undan ko'p AQSH dollari hajmdagi investitsiyalar so'nggi 5 yildagi joriy stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i to'lovi stavkalari qo'llanilgan holda 10 yil muddatga beriladi.

Integratsiya jarayonini amalga oshirishda, avvalo, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahsulotlar jahon standartlariga javob berishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilishi muhim mezonlar hisoblanadi.

Integratsiyani kuchaytirishning asosiy yo`nalishlaridan biri erkin industrial iqtisodiy va kichik maxsus sanoatlashgan industrial zonalar barpo etib, zamonaviy ishlab chiqarishini kengaytirishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oxirgi 1,5-2 yil ichida diyorimizda ishlab chiqarishni va logistikani kengaytirish ishlari shitob bilan rivojlandi. Hozir turli shahar-viloyatlarimizda 15 taga yaqin iqtisodiy, 60 tadan ziyod industrial zonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy maqsadlaridan biri xorijiy investitsiyalardan foydalangan holda, erkin zonalar va logistik markazlar faoliyati samaradorligini oshirishdir.

Darvoqe, mahsulot ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish mehnat unumdorligi o`shishiga, yuqori qo`shilgan qiymatli mahsulotlar ko`payishiga, yirik bozorlarda foydali ishlarga qo`l urishga, sirasini aytganda, integratsiya jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

13.4. Mintaqada tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati va hozirgi holati

Mamlakat tashqi iqtisodiy potentsialini aniqlovchi eng muhim iqtisodiy ko`rsatkichlar YaIM ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan aholi jon boshiga, YaIMda tovar va xizmatlar eksportining ulushi hamda tovarlar umumiy eksporti hajmida sanoat tovarlari ulushi hisoblanadi.

Avvalo, tashqi savdo deganda nimani tushunamiz?

Tashqi savdo - bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki **mamlakatlar bilan olib boradigan o`zaro tovar almashish jarayonidir**. Tashqi savdo mamlakatdan tovar va xizmatlar chiqishi (eksport) va kirib kelishi (import)dan tashkil topadi.

Eksport va import yig`indisi mamlakatning tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi. Mamlakatlar o`rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi **ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi**.

Tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va eng qadimiy shaklidir. Insoniyat tarixida birinchi marta Sharq va G`arb dunyosini bir-biri bilan bog`lagan Buyuk Ipak yo`li qit`alararo savdoni yo`lga qo`ydi. Bu yo`l

qadimgi erlarimiz hududida joylashgan shaharlarda savdo-sotiqning keng quloch yoyishiga olib kelgan.

Endi tashqi savdodagi **eksport** va **import** tushunchalarining o'zi nima?

Eksport (ing. export, lot. exporto – olib chiqaman, chetga chiqaraman) – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarishdir.

Tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika yutuqlari va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgarib boradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3G`4 qismi to`g`ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1G`4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k.).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aktsiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi.

Import (ing. import – keltirish, olib kelish) – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, chet el tovarlari, xizmatlari, texnologiyalar va boshqalarni keltirishdir. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog'dagi xarajatlaridan yuqori bo'lgan mahsulotlar import qilinadi.

Import bojxona bojlari, shuningdek, miqdoriy cheklashlar, litsenziyalash tizimi va boshqa notarif tarzdagi vositalar bilan tartibga solinadi.

Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – bu mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur etkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismidir.

Qaysidir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda **reeksport** ro'y beradi, **reimport** esa iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

Agar mamlakatda eksport miqdori import miqdoridan oshib ketsa, bu nimalarga ta'sir qiladi?

Birinchidan, mamlakat oltin valyuta zaxiralari hajmiga ta'sir qiladi. Chunki, eksportni biz xorijiy valyutaga sotamiz va o'z navbatida importni ham xorijiy valyutaga sotib olamiz, ya'ni eksportning importdan oshishi – mamlakatga sof xorijiy valyutaning kirib kelishini bildiradi.

Ikkinchidan, bu sof xorijiy valyutaning kirib kelishi o'z navbatida milliy valyuta almashuv kursiga ta'sir qiladi:

Xorijiy valyutalar kirib kelishining o'sishi ($\text{sof eksport} > 0$) \Rightarrow Valyuta bozorida xorijiy valyutalarning o'sishi \Rightarrow bozordagi talab va taklif qonuniga asosan milliy valyutaning mustahkamlanishini bildiradi.

Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy infratuzulmadagi shart-sharoitlarning yaratilishi mamlakatdagi inflyatsiyaga ta'sir qiladi:

Eksport tovarlar narxining o'sishi \Rightarrow xorijiy valyutalarning o'sishi ($\text{sof eksport} > 0$) \Rightarrow Mamlakat ichida so'mga bo'lgan talabning oshishi (eksportchilarga so'm kerak - qonun bo'yicha mamlakat ichidagi soliqlar, ish haqi va boshqa to'lovlarni olib borishga) \Rightarrow Markaziy bank bu talabni qondirishi zarur – qog'oz pul chiqarish orqali (so'mning emissiyasi) \Rightarrow Iqtisodiyotda inflyatsiya tendentsiyasi ro'y beradi.

To'rtinchidan, Mamlakatning tashqi qarzi hajmiga ta'sir qiladi (mamlakatning tashqi savdodagi ijobiy qoldig'i xalqaro bozorlarga qaramlikni yumshatadi va mamlakatning tashqi qarzini xorijiy valyutada to'lash imkonini beradi).

Beshinchidan, investitsiyaviy muhitga ijobiy ta'sir qiladi (chunki, sarmoyachilar bunday holatlarga jiddiy e'tibor berishadi).

Nima sababdan mamlakatlar tashqi savdo yoki **xalqaro savdo aloqalarini** yanada kengaytirishga ahamiyat beradilar?

Chunki, **har qanday ayirboshlashning ahamiyati**, uning samaradorligi bilan, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham kelishilgan bitimlardan tomonlarning oladigan **samarasi** bilan belgilanadi. Ya'ni, xoh tovar va xoh xizmatlar savdosi bo'lsin, ayirboshlashdan olinadigan **afzallikka** har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi tizimi o'zaro manfaatdor bo'ladi.

Mamlakatlar o'rtasidagi **xalqaro ayirboshlash** va **xalqaro savdoning rivojlanishida globallashuvning ahamiyati** to'g'risida gapiradigan bo'lsak, mamlakatlar qadim zamonlardan buyon moddiy noz-ne'matlarni tayyor mahsulotlar va turli xil resurslar ko'rinishida o'zaro ayirboshlab kelishgan, ya'ni bir-birlari bilan **xalqaro iqtisodiy munosabatlarga** kirishishgan. O'z navbatida, ayirboshlashning hajmi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga va tovar ishlab chiqarish hajmining oshishiga bog'liq bo'lgan. Chunki, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, bir tomondan, mamlakatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan, turli xil xomashyolar, materiallar va boshqa resurslarga bo'lgan talabning oshib borishi ayirboshlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuvning shakllanishi mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga olib kelgan.

Globallashuvning I bosqichi 1870-1913 yillar mobaynida shakllandi va bu davr mobaynida tovarlar ayirboshlash 20 martagacha oshdi yoki jahon ishlab chiqarishining 33 foizini tashkil etdi.

Globallashuvning II bosqichi 1950-1973 yillarga to'g'ri keladi va bu davr jahon ishlab chiqarishida va savdosida **»oltin davr«** hisoblanadi.

Globallashuvning III bosqich davri o'z ichiga 1983 yildan boshlab hozirgi kungacha davom etib kelmoqda va bu bosqichda jahon iqtisodiyotida yirik integratsion hududlar, ya'ni NAFTA, Evropa Ittifoqi, ASEAN, ATES, MERKOSUR hamda Yaponiya blokining paydo bo'lishi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish orqali dunyo bozorlariga kirib borishni asosiy maqsad qilib oldilar.

O`z navbatida xalqaro savdoning rivojlanishi Umumjahon savdo tashkiloti mamlakatlari o`rtasidagi savdo aloqalarini tartibga solish, (**GATT-the General agreement on tariff and trade**) nazorat qilish yoki bir necha mamlakatning boshqalarga nisbatan kamsitilishiga yo`l qo`ymaslik kabi muhim vazifalarni bajarishi natijasini bildiradi.

Mamlakatimizda xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar o`rta asrlardan boshlangan va u bugungi integratsiyalashuv jarayonida ham o`z o`rniga ega bo`lib kelmoqda.

Ayniqsa, O`zbekiston mustaqillikka erishganidan so`ng **xalqaro savdoni** erkinlashtirishning asosiy omillaridan biri xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a`zo bo`lish va ana shu tashkilotlar doirasida faoliyat ko`rsatish jarayonlarini faollashtirishi zarur edi. O`zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Evropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti (ShHXT), Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT), **Jahon Savdo Tashkilotining kuzatuvchisi** (JST), Jahon Banki (JB), Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, YuNESKO va shu kabi o`nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarning a`zosi bo`lishga erishdi.

O`zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan hamkorligi alohida o`rin tutadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat har jihatdan dunyoda o`z mavqeiga ega va xalqaro iqtisodiy aloqalarni yo`lga qo`yishda ham o`rnak bo`la oladi.

Xo`sh, O`zbekiston xalqaro savdoda ishtirok etishning barcha huquqiy-me`yoriy talablariga javob berar ekan, uning iqtisodiyotida **eksport va importni rivojlantirish** orqali qanday imkoniyatlarga ega bo`lishi mumkin?

Birinchidan, tashqi bozorga o`zining tayyor mahsulotlari bilan chiqayotgan ishlab chiqaruvchilar rag`batlantiriladi, ya`ni ular mahsulotlarini eksport qilish orqali barqaror valyuta zaxiralariga ega bo`ladilar.

Ikkinchidan, ishlab chiqaruvchilar o'z ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida texnika va texnologiyalarni harid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, tashqi bozorlarni monitoring qilish orqali ichki va tashqi bozorlarda talabgor bo'lgan import hamda eksport tovarlari o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni qurish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotda texnologik yangilanish amalga oshadi va milliy sanoat ishlab chiqarishiga yangi texnika va zamonaviy uskunalar o'rnatiladi va natijada jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlaydi.

Beshinchidan, mamlakatimizda xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi yanada mustahkamlanadi.

Bir so'z bilan aytganda mamlakat iqtisodiyoti uchun eksportning ahamiyati quyidagilarda ifodalanadi:

1. YalMning oshishiga yordamlashadi va korxona hamda tashkilotlarning yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini beradi. Eksport hajmi qancha katta bo'lsa, shuncha ko'p mablag` davlat byudjetiga tushadi. Boshqa tomondan, bu yanada ko'p mahsulot ishlab chiqarish zarurligini shakllantiradi, bu uchun esa yanada ko'proq ishchi-xodimlar yollanishini taqozo etadi. Demak, eksport nafaqat iqtisodiyotni yaxshilash usuli, balki ishsizlikning yuqori darajasiga kurashning eng muhim vositalaridan biri hamdir.


2. Mamlakatga chet el valyutasi oqimining oshishiga yordam beradi. Xorijga o'z tovarlarini sotib, O'zbekiston kompaniya va korxonalari AQSH dollari yoki evroda foyda oladilar. Shu uchun eksport mamlakatga chet el valyutasini jalb etishning muhim manbai hisoblanadi. Eksportning o'sishi, milliy valyutani mustahkamlash imkonini beradi va davlatning muvozanatlashgan savdo balansini ushlashga yordam beradi. Ammo, shuni ham aytish joizki, eksportning importdan keskin oshib ketishi savdo balansiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Agar milliy valyuta kursi keskin koʻtarilib ketsa, bunday holda tovarlar va xizmatlar narxlarining qimmatlashuvi natijasida ularning haridorgirligi, raqobatbardoshligi tashqi bozorda tushib ketadi va natijada eksportning kamayishiga olib keladi. Shu sababdan ham mamlakatlar eksport va importning balansini saqlashga harakat qiladilar.

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabrida 33 809,1 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 14 253,9 mln. AQSH dollarini, import – 19 555,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo saldosini – minus 5 301,3 mln. AQSH dollarini, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus 1 846,5 mln. AQSH dollarini va boshqa davlatlar bilan minus 3 454,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

13.1-jadval. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi (2018 yilning yanvar–dekabrida)

	Mln. AQSH dollari	2017-yil yanvar-dekabrdagi nisbati % da	Jamiga nisbati % da
Tashqi savdo aylanmasi	33800,1	127,3	100
MDH davlatlar	12431,5	136,9	36,8
boshqa davlatlar	21377,6	122,3	63,2
Eksport	14253,9	113,5	100
MDH davlatlar	5292,5	129,7	37,1
boshqa davlatlar	8961,4	105,8	62,9
Import	19555,2	139,6	100
MDH davlatlar	7139,0	142,7	36,5
boshqa davlatlar	12416,2	137,8	62,5
Saldo	-5301,3	x	X
MDH davlatlar	-1846,5	x	X
boshqa davlatlar	-3454,8	x	X



13.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlar dinamikasi (mln.AQSH.dollari)

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Ukraina, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,0 % ni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida esa Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Latviya, AQSH, Eron, Frantsiya, Italiya davlatlarining ulushi 43,1 % ni tashkil qildi.


13.2-jadval. Respublika tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha taqsimlanishi (2018 yilning yanvar–dekabrida)
(mln. AQSH dollari)

	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
			2017 yilning yanvar-dekabriga nisbatan % da	Jamiga nisbatan % da
Jami	14253,9	19555,2	127,3	100.0
<i>shu jumladan:</i>				
Evropa	5956,4	7056,4	113,4	38,5
Osiyo	7167,1	7018,6	140,1	52,3
Amerika	37,2	470,3	79,4	1,5
Afrika	11,6	15,9	97,0	0,1
Avtraliya va Okeaniya	0,4	1,7	42,7	0.0


2018 yil dekabr oyida amalga oshirilgan tovar va xizmatlar eksporti noyabr bilan solishtirganda 3 barobarga oʻsganligini koʻrishimiz mumkin. Mazkur oʻsishning asosiy omili 1351,4 mln. AQSH.dollariga amalga oshirilgan oltin eksportidir.

Oltin eksporti oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 % kamayib 2909,5 mln.AQSH.dollarini tashkil qildi. 2017 yilning yanvar-dekabrida oltin eksporti 3260,0 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga koʻra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 23,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 17,2 %ga oʻsdi. Shu jumladan, eksport hajmi mlrd. AQSH dollarga (0,4 %ga kamaygan) va import hajmi 13,7 mlrd.AQSH dollariga (oʻsish surʼati 33,3 %) etdi. Tashqi savdo saldosi minus mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi (13.3-rasm).




13.3-rasm. Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi, yanvar-dekabr, 2017 yil yanvar-dekabr 2018 yil (mln. AQSH dollari)




13.4-rasm. Tashqi savdo tovar aylanmasida eksport va import ulushi (foizda)

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.



13.5-rasm. 2021 yilda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko`rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)



13.6-rasm. MDH va boshqa xorijiy davlatlarning tovar va xizmatlar eksportidagi hajmi (chorak uchun, mln. AQSH dollari)

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi 2019 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qoldi.

13.4-jadval. Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar (mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo avlanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish
Xitoy	4 429,0	1 937,2	2 491,8	19,2	129,3
Rossiya	4 178,3	1 532,7	2 645,6	18,1	120,1
Qozog'iston	2 136,4	1 039,8	1 096,6	9,3	144,6
Turkiya	1 520,6	619,7	900,9	6,6	140,0
Koreya Respublikasi	1 288,5	67,4	1 221,1	5,6	134,0
Germaniya	526,0	31,9	494,1	2,3	112,8
Afg'oniston	473,8	472,4	1,4	2,1	110,9
Latviya	336,7	31,2	305,5	1,5	163,7
AQSH	331,9	22,8	309,1	1,4	196,0
Ukraina	325,8	74,3	251,5	1,4	170,5
Belarus	316,9	10,0	306,9	1,4	262,6
Qirg'iziston	285,0	185,2	99,8	1,2	145,1
Tojikiston	282,5	165,8	116,6	1,2	158,5
Yaponiya	278,3	27,3	251,0	1,2	250,9
Eron	228,5	135,8	92,7	1,0	112,4
Frantsiya	224,3	135,3	89,0	1,0	115,8
Hindiston	206,6	17,1	189,5	0,9	156,1

Respublikada tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % oshdi va 38,6 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 66,3 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,4 %ga tushdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida eksport hajmi 9,3 mlrd. AQSH dollarga (0,4%ga kamaygan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlarning ulushi 75,9 %ga ega bo'lib, bular asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari (20,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,8 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,3 %) guruhlariga to'g'ri kelmoqda.

13.5. Mintaqada xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilgan ishlar

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga asosan keyingi yillardagi davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarning mablag'lari, O'zTTJ, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 2017–2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, «2018 yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda»

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida investitsiyalarga alohida to'xtalib, «Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi», deb ta'kidlab o'tdi⁶⁸.

Investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalar asosida moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Xorijiy korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'laridan qisqa muddatli investitsiyalar qatorida yuqori foyda olish maqsadida foydalanish moddiy manfaatdorlikni belgilashga olib keladi. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan bo'ladi, ba'zida esa ular o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi.

O'zbekiston bugungi kunda investitsiyalarning kirib kelishiga tayyor turgan mam lakat hisoblanadi. Bu erda olib borilayotgan mahalliy siyosat, tinchlikning saqlanishi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ijobiy holat – bularning barchasi xorijiy in- vestitsiyalarni faol jalb etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday vaziyatning mavjudligi xorij investorlarida ham katta qiziqish uyg'otayotganligi bejiz emas.

O'zbekiston xorijiy investorlar bilan tengma-teng iqtisodiy aloqalar olib borish asosida sherikchilik munosabatlarini o'rnatmoqda. Har qanday investitsiyalar mamlakatimizga kirib kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar ular mamlakatimiz iqtisodiyotiga, uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratsa, bunday xorijiy investitsiyalar albatta qo'llab-quvvatlanadi.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://kun.uz>

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. O'zbekiston rahbariyatining mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish sari tutgan izchil yo'li xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoit yaratmoqda.

Milliy iqtisodiyot tuzilmasini tubdan o'zgartirishning hozirgi bosqichida bevosita xorijiy investitsiyalar katta qiziqish uyg'otmoqda. Ularni jalb etishning asosiy usullari quyidagilardir:

- qo'shma korxonalar ochish (shu jumladan, xorijiy investorlarga o'zbek emitentlari aktsiyalar paketlarini sotish yo'li bilan);
- O'zbekiston hududida butunlay xorijiy kapitalga tegishli korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish;
- kontsessiyalar asosida xorijiy kapitalni jalb etish;
- xorijiy investorlarni mamlakatning muayyan mintaqalariga faol jalb etishga qaratilgan erkin iqtisodiy zonalarni (EIZ) ko'paytirish.

Hozirda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar tuzilmasini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, bunday investitsiyalarning katta qismi eksportga mo'ljallangan tarmoqlarga – yoqilg'i-energetika majmuasi, neft-kimyo, oltin qazib olish va paxtani qayta ishlash sanoatiga yoxud o'z-o'zini qoplash muddatlari qisqa bo'lgan va ko'p fond talab qilmaydigan yuqori rentabelli loyihalarga: savdo, telekommunikatsiya, umumiy ovqatlanish, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolari qurish, oziq-ovqat sanoati va moliya xizmatiga yo'naltirilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni boshqarish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati kompleks tarzda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli yuritish uchun respublikada qator farmonlar, qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ular orasida Prezidentning 2018 yil 1 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5495-sonli Farmoni ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu me'yoriy hujjat mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiya- larni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratishni ta'minlaydigan huquqiy asosni yanada mustahkamlaydi.

Ana shu qonun-qoidalarga asoslanib, pul kreditlarining taqchilligi tufayli milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda kuchli rag'batlantiruvchilik tadbirlarini olib borish davom etmoqda.

Bu tadbirlar orasida chet el investorlariga davlat tomonidan kafolat beruvchi yo'nalishlar ham mavjudki, bular quyidagilardan iborat:

- milliylashtirish va rekvizitsiyadan saqlangan holda, siyosiy xavf-xatarni sug'urta qilish;
- subyektlarning foydasi va olgan boshqa mablag'larini chet el valyutasida chegaradan (boshqa davlatlarga) o'tkazish;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiya uchun qulay muhit yaratish;
- joriy investitsiyaning keyingi holati yomonlashsa, investitsiya kiritilgan vaqtdan boshlab qabul qilingan qonunlarning uzoq muddat davomida qo'llanilishini ta'minlash;
- investorlarning huquqlari tasodifiy holatlarda buzilgan taqdirda davlat organlari orqali keltirilgan zararlarni to'lash;
- respublika banklarida har qaysi valyutada cheksiz hisob raqamlarini ochish;
- respublika hududida sug'urta kompaniyalarini xorijiy kapital ishtirokida tashkil etish.

Chet el investitsiyasi jalb qilingan kichik korxona (yirik korxona bo'lsa ham) daromadining ma'lum qismi soliqlardan ozod qilinadi. Chunki bunday kichik korxonalarga ishlab chiqarishni kengaytirishda investitsiya va yangi texnologiyani joriy qilish uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, mamlakat iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'lik to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liq. Shu boisdan ham, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2008 yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar 2170,2 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 3348,2 million AQSH dollariga etgan, bu esa ularning hajmi 2008 yilga nisbatan 130 foizga oshganligidan dalolat beradi.

2017–2018 yillarda O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalariga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: – Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlovchi zavodning qurilishi; – Xauzak va shadi konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash, shuningdek, Quvachi-olot konlarini kengaytirish; – Xisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida mahsulotni taqsimlash bo'yicha bitim asosida konlar bilan ishlash va uglevodorod

qazib chiqarishni tashkil etish; – Hojisayat gaz kondensati konini, Dengizko`l, Hojidadvat va sharqiy olot gaz kondensati konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash; – uyali aloqa tizimini rivojlantirish, kengaytirish, texnik va texnologik qayta jihozlash; – milliy mobil aloqa operatori tarmog`ini yaratish.

O`zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy xajmi 2008 yilda 9555,9 milliard so`mni tashkil etgan bo`lsa, 2017 yilga kelib 68423,9 milliard so`mni, 2018 yilning uch choragida 71068,1 milliard so`mni tashkil etgan. Jumladan, mos ravishda jami investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya- lar va kreditlar 2008 yilda 2863,9 milliard so`mni, 2017 yilda 17146,5 milliard so`mni va 2018 yilning uch choragida 17770,6 milliard so`mni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin. Bu esa, o`z o`rnida xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga o`sib borayotganligini ko`rsatadi. 2018 yil (yanvar-sentyabr)da jami asosiy kapitalga yo`naltirilgan investitsiyalar (71068,1 milliard so`m) tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlar (17770,6 milliard so`m) 25 foizini tashkil etmoqda.

O`zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo`naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, o`shish sur`ati foizlarda, milliard so`mda 2008 yildan 2018 yil o`shish dinamikasi keltirilgan (13.4- jadval).

Ushbu rasmdan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning yildan yilgan o`sib borayotganini birgina 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 134,9 foizga o`sganligini ko`rishimiz mumkin. Yurtimiz salohiyatining tobora yuksalib borayotgani, so`nggi yillarda ishga tushirilayotgan yangi zamonaviy quvvatlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivoji, tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti keyingi 30 yilda iqtisodiy rivojlanishning yanada yuksak maqsadli ko`rsatkichlarini belgilash imkonini beradi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo`shilgan qiymatning hissasi yuqori bo`lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko`paytirish muhim ahamiyatga ega.

**13.4- jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyaviy manbalari
(mln. AQSH dollari)**

Ko'rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	yanvar- sentyabr 2018
Jami investitsiyalar	7241,3	8548,5	9712,7	10468,0	12062	13695	15243	16445	16213,3	13361	8878,6
Davlat byudjeti	618,8	695,4	588,0	672,9	655,3	783,6	736,8	745,8	749	678,5	312,4
Korxonalar mablag'i	2985,9	3103,8	3124,4	3643,8	3950	4767,2	5187,6	5272,6	5089,2	4121,1	2763,4
Aholi mablag'i	632,4	903,8	1554,2	1947	2414	2797,2	3157,5	3440,4	3245	1821,1	1118,9
Bank kreditlari	390	444,4	943,0	1209,1	1333	1407,3	1700,1	1944,5	1862,6	1782,2	1499,1
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	2170,2	2768,2	2824,5	2247	2462	2640,6	3019,7	3248,5	3578,1	3348,1	2220,1
Tiklanish va taraqqiyot fondi	112,1	245,9	366,0	366,3	625,9	398,2	486,3	730,6	788,5	1111,5	574,4
Bolalar sportini rivojlantirish fondi	x	x	x	x	x	x	x	107,2	104,3	30,7	15,3
Byudjetdan tashqari fondlar	331,9	387,0	312,6	381,9	622,1	901	945,5	x	x	x	x
Davlat maqsadli fodlari	x	x	x	x	x	x	x	955,5	796,6	467,8	375

Mamlakatdagi iqtisodiy o'sish omillari va manbalari tahlilining ko'rsatishicha, inqirozga qadar bo'lgan davrda iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlariga asosan eksport salohiyatini rivojlantirishni jadallashtirish, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalarning miqyosi, iqtisodiyot tarkibini tizimli va bosqichma-bosqich yangilanishi hisobidan erishilgan.

Iqtisodiy o'sishni iqtisodiyot erkinlashuvining chuqurlashuvi va miqyosi kengayishi, valyuta bozorining barqarorlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining jadal sur'atlarda rivojlanishini ta'minladi. keyingi yillarida xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar ulushining ortishiga qaratilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining pasayishi va sanoat, xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi ortishi kuzatilmoqda.

Bu esa bank tizimining mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini saqlash va milliy ustuvor tarmoqlar raqobatdoshligini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashdagi o'rnini kengaytirishga xizmat qildi.

Ushbu vazifalar doirasida bank tizimi nazoratini Bazel qo`mitasining yangi tavsiyalari asosida takomillashtirish, bank tizimi va alohida banklarning yuqori xalqaro reyting baholariga ega bo`lishini ta'minlash, tijorat banklarining resurs bazasini yanada kengaytirish, ularning investitsiyaviy faolligini kuchaytirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o`zgartirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, tarmoqlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan kreditlar hajmini ko'paytirish kabi muhim chora-tadbirlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda. Albatta ushbu natijalarga iqtisodiyotdagi modernizatsiya va tarkibiy o`zgarishlar jarayonini jadallashtirish, uning muhim tarmoqlariga xorijiy va ichki investitsiyalarni keng jalb etgan holda, texnik va texnologik jihatdan yangilash orqali erishiladi

2010-2017 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami asosiy kapitalga investitsiyalar qariyb 4,5 barobar ortgan. Uning xajmi 2010 yilda 15338,7 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 68423,9 milliard so'mgacha ortib borgan. Sanoat sohasidagi tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash yo'nalishiga yo'naltirilgan investitsiyalar tahlil davri boshida 1514,6 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, davr oxirida 14203,8 milliard so'mgacha yoki qariyb 9,4 marta ortgan. Bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'sish darajasidan ikki marta ko'pdir. O'zbekiston iqtisodiyotining sanoat tarmoqlarida ham asosiy kapitalga investitsiyalarning dinamikasi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2010 yilda uning xajmi 2334,9 milliard so'm bo'lgani holda, 2017 yilda 12238,1 milliard so'mni tashkil etgan.

2017 yili 2010 yilga nisbatan 524 foizga ortgan. Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasiga 2010 yilda 895,9 milliard so'm investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, 2017 yili uning hajmi 5472,2 milliard so'mga etgan yoki 611 foizga ortgan. O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki

bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat. Strategik yo`nalish sanoatning eksportga yo`naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xom-ashyoga nisbatan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hisoblanadi.

13.5-jadval.O`zbekistonda investitsiya ko`rsatkichlari dinamikasi

Ko`rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	yanvar- sentyabr 2018
Investitsiyalar mlrd. AQSH doll.	7,2	8,5	10,0	10,5	12,1	13,7	15,2	16,3	16,2	13,4	8,9
Xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSH doll.	2,2	2,8	2,8	2,2	2,5	2,6	3,0	3,2	3,6	3,3	2,2
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. AQSH doll.	1,8	2,4	2,5	1,9	1,9	2,1	2,4	2,4	2,5	2,5	0,9
Aholi jon boshiga investitsiyalar, AQSH doll.	265,2	307,9	353,6	356,8	405,1	452,8	495,6	525,4	509,1	412,5	270,1
Aholi jon boshiga Xorijiy investitsiyalar, AQSH doll.	79,5	99,7	100,1	76,6	82,7	87,3	98,2	103,8	112,3	103,4	67,5
Aholi jon boshiga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar, AQSH doll.	66,0	85,7	87,1	63,9	65,2	68,1	77,2	76,6	77,9	77,0	27,4

To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar ro`yxatini shakllantirish, shuningdek, 2018–2019 yillarda boshlangan, ma`qullangan, shakllantirilayotgan investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida qarorda sanoat tarmoqlari va korxonalariga xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb etish nazarda tutilgan. 2019 yil va undan keyingi yillarda amalga oshiriladigan, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar ishtirokidagi tarmoq investitsiya loyihalari ro`yxatidan bir qator katta loyihalar o`rin olgan. Jumladan, 2019 yilda umumiy qiymati 24 880,5 million AQSH dollari ekvivalentida investitsion loyihalar rejalashtirilgan bo`lib, 2019 yilning o`zidayoq 2 417,3 million AQSH dollari o`zlashtirilishi bashorat qilinmoqda. Ushbu investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari bo`yicha tahlil qiladigan bo`lsak, 2019 yil va undan keyingi keyingi yillarda 2 882,6 million AQSH dollari

korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan, 51,6 million AQSH dollari tijorat banklari kreditlari hisobidan va 21 946,3 million AQ dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilishi rejalashtirilmoqda. Rejalashtirilayotgan investitsion loyihalarning iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlari va korxonalarida o'zlashtirilishi nazarda tutilgan:

Geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, qimyo, neft-qimyosi va metallurgiya sanoati masalalari majmuasi bo'yicha 19 988,30 million AQSH dollari, jumladan: «O'zbekneftgaz» AJ bo'yicha 19 158,60 million AQSH dollari;

«O'zbekenergo» AJ bo'yicha 230 million AQSH dollari;

«O'zkimyosanoat» AJ bo'yicha 71,7 million AQSH dollari; Geologiya davlat qo'mitasi bo'yicha 193 million AQSH dollari; «Toshkent metallurgiya zavodi» AJ bo'yicha 335 million AQSH dollari;

Tashqi savdo faoliyatini, eksport salohiyatini, mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnik, mudofaa, paxtani qayta ishlash va engil sanoat, mahsulotlarni standartlashni rivojlantirish masalalari majmuasi bo'yicha 629 million AQSH dollari, jumladan «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi bo'yicha 629 million AQSH dollari;

Hududlarni va kommunal sohani, ekologiya, atrof-muhitni, transport, kapital qurilish, qurilish sanoatini kompleks rivojlantirish masalalari majmuasi bo'yicha 801,4 million AQSH dollari, jumladan: «O'zbekiston temir yo'llari» AJ bo'yicha 180 million AQSH dollari;

«O'zqurilish materiallari» AJ bo'yicha 566,4 million AQSH dollari; ekologiya davlat qo'mitasi bo'yicha 55 million AQSH dollari; Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi va iste'mol mahsulotlarini qayta ishlash masalalari majmuasi bo'yicha 562,3 mln. AQSH dollari, jumladan: «O'zbek- oziqovqatxolding» XK bo'yicha 530,6 million AQSH dollari; «O'zbekbaliqsanoati» uyushmasi bo'yicha 24,5 million AQSH dollari; «O'zpaxtayog» AJ bo'yicha 7,2 million AQSH dollari;

Ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, turizm masalalari majmuasi bo'yicha 51 million AQSH dollari, jumladan: farmatsevtika sohasini

rivojlantirish agentligi bo'yicha 21 million AQSH dollari; sog'liqni saqlash vazirligi bo'yicha 30 million AQSH dollari;

Investitsiyalar, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari majmuasi bo'yicha 2 848,50 million AQSH dollari, jumladan: «Asaka bank» ATB bo'yicha 448,8 million AQSH dollari; Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bo'yicha 1 618,50 million AQSH dollari; «O'zsanoatqurilishbank» ATB bo'yicha 660,3 million AQSH dollari;

«O'zsharobsanoat» AJ bo'yicha 65,4 million AQSH dollari; «O'zcharmsanoat» uyushmasi bo'yicha 55,5 million AQSH dollari qiymatida o'zlashtirish rejalashtirilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jalb etilayotgan xorijiy va ichki investitsiyalar faoliyat yuritayotgan ustuvor tarmoqlardagi korxonalarni texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish va raqobatdoshligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

13.6. To'qimachilik sanoati - eksporti hajmini ko'paytirishning muhim omillaridan biri sifatida

Paxta etishtirish bo'yicha 6-o'rinni egallovchi O'zbekiston paxta eksporti bo'yicha 3-o'rinda edi. Ammo keyingi yillarda paxta xom ashyosi eksporti qisqarmoqda, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot eksportiga urg'u berilmoqda.

Engil sanoat O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, iqtisodiy va sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi. O'zbekistonning noyob geosiyosiy joylashuvi ko'plab mamlakatlar bilan bevosita iqtisodiy muloqotda bo'lish, Evropa va Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini amalga oshirish imkonini beradi.

Engil sanoat yil sayin rivojlanib bormoqda. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy qilinishi, yuqori samarali, zamonaviy uskunalardan

foydalanish, va ayni paytda samarali boshqaruv soha korxonalarida mehnatning yuqori samaradorligini, sanoat ishlab chiqarishi hajmi o`shishini ta'minlaydi. Ko`p yillar davomida faqat paxta tolasini eksport qilgan respublika, bugungi kunda nafaqat paxta tolasini ta'minotchisi sifatida, balki to`qimachilik mahsulotlari, ayniqsa, tayyor mahsulotlar eksport qiluvchisi sifatida jahon to`qimachilik bozorida yetakchi mavqega ega bo`lish uchun cheklanmagan imkoniyatlarga ega.

O`zbekiston engil sanoati yetakchi va jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri. Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlariga ko`ra, 2017 yilda mamlakat umumiy sanoat hajmida soha ulushi 30% ga yaqin bo`lgan, YaIM da gi ulushi 4% ga yaqin, noziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmida esa – 44 dan ortiq. So`nggi yillarda ishlab chiqarish hajmining yillik o`shishi taxminan 18 % ni, eksport esa 10 % ni tashkil etdi.

O`zbekiston dunyodagi eng yirik tabiiy to`qimachilik tolalari, ip kalava va trikotaj ishlab chiqaruvchilaridan biri hisblanadi. Respublikada 7000 dan ziyod to`qimachilik korxonalari mavjud, ularning yillik quvvati quyidagicha:



Paxta tolasini, ip-kalavasi – 650 ming.t



Paxta tolasini matosi – 425 mln.kv.m.



Trikotaj mato – 140,7 ming.t.



Trikotaj mahsulotlari – 660 mln.dona



Paypoq buyumlari mahsulotlari – 132 mln.juft

13.7-rasm. To`qimachilik korxonalarini yillik quvvati.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14.12 dagi PF-5282 sonli farmoni bilan «O`zbekengilsanoat» AJ ning tugallanishi va «O`zto`qimachilik sanoat» uyushmasining tashkil qilinishi ko`zda tutilgan edi. Ushbu islohotlar, «O`zto`qimachilik sanoat» uyushmasining to`g`ri tanlangan

strategiyasi va savodli menejmenti mamlakatimiz to`qimachilik kompaniyalariga ijobiy o`shirish dinamikasini namoyish qilish imkonini berdi. Bugungi kunda Uyushma o`z tarkibida O`zbekiston to`qimachilik bozoridagi 1400 dan ziyod ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Ishlab chiqarilayotgan engil sanoat mahsulotlarining salmoqli qismi, xususan, 706 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash va turli navdagi 510 mln. kv. metr matolarni, jumladan, quyidagilarni ishlab chiqarish to`g`ri keladi:

Trikotaj gazlamalar – 89 korxona;

Tayyor to`qimachilik mahsulotlari – 495 korxona;

Tikuvchilik mahsulotlari – 354 korxona;

Paypoq-noski mahsulotlari – 54 korxona;

To`qimachilik galantereyasi – 20 korxona.

Bunda 156 to`qimachilik kompaniyalari Janubiy Koreya, Hindiston, Singapur, Germaniya, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, AQSH kabi davlat investorlari ishtirokida tashkil qilingan.

Uyushma korxonalari shuningdek keng turdagi va o`ziga xos profildagi mahsulotlarni, xususan, tibbiyot yo`nalishidagi tovarlar, noto`qima materiallarni ishlab chiqarib, paxta mahsulotlari, maxsus ish kiyimi, boshqa mahsulotlarga bo`lgan ehtiyojni qondirib kelmoqda, ayni paytda ishlab chiqarishga yangi avlod mahsulotlarini – yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqilishi va joriy qilinishini ta'minlamoqda.

To`qimachilik sohasida paxtaga oid ishlab chiqarish zanjirida eng yuqori qo`shimcha qiymat tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari sohasida kuzatiladi.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to`qimachilik sohasining muhim ahamiyatidan kelib chiqib, O`zbekistonda 2017-2019 yillarda to`qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish bo`yicha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda. Dasturga muvofiq, 2020 yilga kelib ip kalava ishlab chiqarishni 2,5 baravar, tayyor matolarni – 2,8 baravar, noto`qima materillarni – 1,5 baravar, trikotaj matolarni – 2,7 baravar oshirish rejalashtirilmoqda. Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 3,2 baravar, trikotaj mahsulotlarni 2,1

baravar, ipak xom ashyosi etishtirishni 2,1 baravar oshirish mo'ljallanmoqda. 2011 yilda matolarni ishlab chiqarish hajmi 85,63 mln. kv. metrni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 459,2 mln. kv.metrдан oshadi va ishlab chiqarish hajmining 5,4 baravar o'sishini ta'minlaydi.

2017 yilda qariyb \$1,2 mlrd. AQSH doll. ga teng to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi. Bunda, inqiroz sharoitida hom ashyo va to'qimachilik mahsulotlarining asosiy turlari narxlari pasayib ketgan edi.

To'qimachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar Rossiya (36,8%), Turkiya (18,8%), Xitoy (16,2%), Evropa Ittifoqi mamlakatlari (15,3%), Janubiy Koreya (5%) hisoblanadi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti nomenklaturasi quyidagicha:

Ip kalava – 67,2%;

Ip gazlamalar – 7,3%;

Ip gazlamali trikotaj matolar – 6,2%;

Tayyor trikotaj mahsulotlari – 17,4%;

Boshqa to'qimachilik mahsulotlari – 6,4%.

Respublika ichki iste'molchilari tomonidan paxta tolasini qayta ishlashning solishtirma salmog'i ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 50% gacha bo'lgan ko'rsatkichga etdi.

O'z ichiga bo'yash, ishlov berish, to'qish va tikishga oid ishlab chiqarishlarni qamrab oluvchi zamonaviy to'qimachilik korxonalari ishga tushirildi.

Xom ashyoga qayta ishlov berish darajasi pastligi tufayli O'zbekiston to'qimachilik mahsuloti eksporti unchalik salmoqli emas. 2016 yilda respublika to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi 1 mlrd. 146,5 mln.AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, Xitoy 104,6 mlrd. doll., Turkiya – 10,9 mlrd. doll., Hindiston – 16,2 mlrd. doll., Bangladesh – 1,76 mlrd. doll., Pokiston – 7,68 mlrd. dollarga teng to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. 2012-2016 yillarda to'qimachilik tarmog'ida eksportning o'sishi (paxta tolasini hisobga olmasdan) 132,5% ni tashkil etdi. 2016 yilda tovar mahsulotining umumiy hajmida eksportning ulushi 40% ni tashkil etdi. Natijada, jahon paxta xom ashyosini etishtirish bozorida

O'zbekistonning ulushi 3,6% ni tashkil etsa-da, jahon gazlama va matolar, tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha ulushi birmuncha kam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga binoan korxonalarga preferentsiyalar beriladi.⁶⁹

2019 yil 1 apreldan kreditlar bo'yicha preferentsiyalar:

2019-2021 yillarda ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotning kamida 80 foizini eksport qiladigan tikuv-trikotaj korxonalariga tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda qoplanadi;

aylanma mablag'larni to'ldirish (tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ip-kalava, trikotaj mato, ip gazlama va boshqalar harid qilish) maqsadida tijorat banklari tomonidan milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 25 foizi miqdorida, ammo 5 foizli punktdan yuqori bo'lmagan holda;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish (bino va asbob-uskunalarini sotib olish) maqsadida tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha belgilangan foiz stavkasining 50 foizi miqdorida;

birja savdolari orqali paxta tolasini sotishda qat'iy talab qilinadigan bank kafolatlari bekor qilinadi. Bunda taraflar o'rtasida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash tartibi shartnoma asosida belgilanadi.

Soliq bo'yicha preferentsiyalar:

nol stavkani qo'llash natijasida vujudga kelgan qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish zarur bo'lgan hujjatlar to'liq taqdim etilgan kundan e'tiboran 7 ish kuni davomida soliq to'lovchiga tezkorlik bilan qaytariladi.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. Manbaa Lex.uz

Bunda davlat soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, shu jumladan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha taqqoslash dalolatnomasi hamda qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi bekor qilinadi;

2019 yil hosilidan boshlab respublika tashkilotlariga paxta tolasini sotishda qo'shilgan qiymat solig'i jahon bozorlarida shakllangan narxlardan qat'iy nazar, paxta tolasining amaldagi sotish narxidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Kadrlar omili:

2019/2020 o'quv yilidan boshlab Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutida yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlarining qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etiladi;

2019 yil oxiriga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy kompaniyalarning o'quv-ishlab chiqarish klasteri ishtirokida ishlab chiqarish obyektlarida ta'lim jarayonini bevosita amalga oshirish ishlari tashkil etiladi;

Xususiy kompaniyalar ta'lim kontraktlarini to'lagan holda Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutiga kadrlar uchun buyurtmalar berishlari mumkin.

Axborot ko'magi

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining yagona axborot portali tashkil etiladi. Unda:

tarmoqning tender savdolari (tanlovlar), ko'rgazma va yarmarkalar, shu jumladan, xorijiy ko'rgazma va yarmarkalar ro'yxati e'lon qilinadi;

kichik tadbirkorlik subyektlarini to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini eksport qilishning to'liq jarayoniga masofaviy o'qitiladi;

butun dunyo mamlakatlari bo'yicha to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini olib kirish va olib chiqish tahlili yuzasidan to'liq hisobotlar e'lon qilib turiladi;

«To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash navigator choralari» joylashtiriladi;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati ishlab chiqaruvchilar va xizmatlar, materiallar va hom ashyo yetkazib beruvchilar joylashuvi ko'rsatilgan O'zbekistonning interaktiv xaritasi yaratiladi;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish uchun O'zbekistonning qiyosiy ustunliklari e'lon qilinadi;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan onlayn-dasturiy mahsulotlarni xorijiy analoglar bilan integratsiya qilinadi;

moliya xizmatlarini, shu jumladan, lizing kontraktlari bo'yicha qarz mablag'larini, uskunalarni hamda sug'urta xizmatlarini jalb qilish bo'yicha yetkazib beruvchilar aks ettiriladi;

milliy to'qimachilik korxonalari uchun ishlab chiqariladigan va talab qilinadigan xizmatlar, materiallar va xom ashyolar nomenklaturasi va hajmi aks ettiriladi.

13.7. Qishloq xo'jaligida eksport hajmini ko'paytirish istiqbollari

Qishloq xo'jaligi eksporti O'zbekiston uchun, shuningdek mintaqadagi boshqa mamlakatlar uchun muhim daromad manbasidir. Qishloq xo'jaligi aholining daromad manbalaridan biri bo'lib qolmoqda va rivojlangan qishloq xo'jaligi sektori iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi sohasining eksport salohiyatining sezilarli darajada o'sishi 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. FAO Texnik Hamkorlik Dasturining yangi loyihasi Hukumatning ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani tayyorlashdagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

«Ushbu loyiha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini eksport qilish bo'yicha milliy strategiyani shakllantirishga tizimli yordam beradi, shuningdek, respublikamiz qishloq xo'jaligi siyosati sohasidagi maqsadlardan biriga erishish uchun birlamchi hissa qo'shadi.

O'tgan yillar davomida Qishloq xo'jaligi vazirligi FAO bilan birgalikda organik qishloq xo'jaligi, o'simliklarni himoya qilish, resurs tejovchi texnologiyalar yordamida fermerlik va urug'chilikni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni muvaffaqiyatli joriy etdi. Yangi loyiha O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarishning samarali mexanizmlarini yaratishga xizmat qilishi kerak.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi eksportini kengaytirish uchun yechimini topadigan asosiy masalalar – transport, logistika, saqlash, yuqori sifatli oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir.

Nihoyat, rivojlangan mamlakatlarga – G'arbiy Evropa, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilishda, mahsulot sifati va kelib chiqishiga alohida jiddiy e'tibor beradigan yirik supermarket zanjirlari bilan ishlash uchun kuzatish tizimini yaratish kerak.

O'zbekiston statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yilda meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha 2017 yilga nisbatan 36 foizga (1,23 mln. tonnaga), mablag' hisobidan 37,5% ga (874,5 mln AQSH dollariga) o'sgan. Hukumat yaqin yillarda ham shunday o'sish tendentsiyasini saqlab qolish niyatida (13.8-rasm).

O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti (2017-2018)		Eksport-2018 ming, t	2017 yil o'sish dinamikasi
	Sabzavotlar	670,1	↑ +84%
	Meva rezavorlar	307,6	↑ +8,1%
	Uzum	206,8	↓ -3,3%
	Yeryong'oq	29,3	↑ +120%
	Tarvuz va qovun	16,5	↓ -4,1%

13.8-rasm. O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2016-2018 yillar)⁷⁰

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi statistikasi davlat qo'mitasi ma'lumotlari. Manbaa. Stat.uz.

Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlariga tayanib e'lon qilingan ma'lumotlarga ko`ra, 2018 yilda sabzavotlar eksporti 84 foizga (670,1 ming tonnaga), mevalar 8,1 foizga (307,6 ming tonnaga), yer yong`oq 2,2 baravarga (29,3 ming tonnaga) o`sgan. Biroq o'tgan yilda O'zbekiston tarvuz-qovunlarni 4,1% kam eksport qilgan. Uzum eksportida ham xuddi shunday holat uning eksporti 206,8 ming tonna (3,3%)ga kamaygan.

O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti (2017-2018)		Eksport 2018 ming. t	2017 yil o'sish dinamikasi
	Sabzavotlar	670,1	↑ +84%
	Meva rezavorlar	307,6	↑ +8,1%
	Uzum	206,8	↓ -3,3%
	Yeryong`oq	29,3	↑ +120%
	Tarvuz va qovun	16,5	↓ -4,1%

13.9-rasm. O'zbekistondan meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2017-2018 yillar)⁷¹

Mamlakatimizda 2021 yilda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 5 milliard AQSH dollarigacha oshirishni rejalashtirilmoqda.


Chunki, mahsulotlar hajmini oshirishdan tashqari, yana ular yetkazib berilayotgan mamlakatlar geografiyasi ham kengaymoqda. Masalan, 2016 yilning o'zida eksport qiluvchi mamlakatlar 9 taga ko'paydi. Ispaniya va Italiyaga ilk bora konservalangan kavar, Livanga yong`oq, Vetnamga – quritilgan uzum (mayiz) eksport qilindi. Ro'yxatda yana Belgiya, Shveytsariya, Gollandiya, Chexiya va Isroil ham bor. 2018 yilda O'zbekiston Xitoy bozoriga ilk bora gilos va moshni eksport qildi. Kelajakda qovun, uzum, anor, o`rik, olxo`ri, xurmo, anjir, limon va yer yong`oqni eksport qilish rejalashtirilmoqda.

MDH mamlakatlari, Rossiya, qo'shni Qozog'iston bilan savdo-sotiq ham rivojlanmoqda (13.10-rasm).

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi statistikasi davlat qo`mitasi ma'lumotlari. Manbaa. Stat.uz.


Shu bois, bugungi kunda ko`pchilik o`zbekistonlik iste'molchilarni tashvishga solayotgan savol – bular ichki bozorga, eng avvalo narx-navoga ta'sir ko'rsatmaydimi, degan savol, juda o`rinlidir. Boshqa so`z bilan aytganda, mahsulotlar o`zimizning bozorlarda ham qoladimi, yoki hamma ham ularni sotib ololadimi?

Sir emaski, sotuvchilarning o`zlari narxlarning oshishini «bozorda shu mahsulotning, masalan, bu yili gilos yoki tarvuz, qovun va hokazo o`zi kam bo`ldi, hammasini Rossiyaga jo`natishdi...» – deb izohlashmoqda.



13.10-rasm. O`zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari ayrim importchilari⁷²

⁷² O`zbekiston Respublikasi statistikasi davlat qo`mitasi ma'lumotlari. Manbaa. Stat.uz.



3.11-rasm. O'zbekistonda meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Mamlakat tashqi iqtisodiy potentsialini aniqlovchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar YaIM ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan aholi jon boshiga, YaIMda tovar va xizmatlar eksportining ulushi hamda tovarlar umumiy eksporti hajmida sanoat tovarlari ulushi hisoblanadi.

2. Shuning bilan birga, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish ko'p jihatdan integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga bog'liq. Chunki ishlab chiqarish samarasi bevosita bir qator ichki va tashqi omillar hamda holatlarga uyqashib ketadi.

3. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish ko'p jihatdan integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga bog'liq. Chunki ishlab chiqarish

samarasi bevosita bir qator ichki va tashqi omillar hamda holatlarga uyqashib ketadi. Shunday qilib, integratsiya jarayonida eksport-import operatsiyalari ishlab chiqarishni kooperatsiyalash, investitsiyaviy hamkorlikni kuchaytirish rejalari bilan boyitilishi lozim. Bundan tashqari, xorijiy kapital, yangi texnologiyalar, lizing bo'yicha jihozlar va hokazolardan qayta ishlab chiqarishning barcha pog'onalarida unumli foydalanish zarur.

4. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi eksportini kengaytirish uchun yechimini topadigan asosiy masalalar – transport, logistika, saqlash, yuqori sifatli oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir.

Nazorat savollari

1. Mamlakat tashqi iqtisodiy potentsialini aniqlovchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?

2. Mamlakatda eksport hajmlarining salmoqli o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan omillarni izohlab bering?

3. Nima uchun umuman olganda davlatning eksport salohiyoti importga nisbatan yuqori bo'lishi kerak?

4. Ixtisoslashuv natijasida mamlakatning ishlab chiqarish samaradorligini oshishi sabablarini asoslab bering?

5. Mutloq ustunlik nazariyasini mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering?

6. Mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish mexanizmini soddalashtirilgani natijalarini nimalarda ko'ramiz?

7. O'zbekistonda xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar sonining o'sishi dinamikasi qanday imkoniyatlardan dalolat beradi?

8. Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar bilan hamkorlik to'g'risida ma'lumotlar bering?

9. Mamlakatimizda to'qimachilik sanoati eksportining istiqbollari haqida so'zlab bering?

14-MAVZU: KLASSTER SIYOSATI MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING VOSITASI SIFATIDA

Reja:

14.1. Mintaqaviy iqtisodiyotda klasterning iqtisodiy mazmuni

14.2. Klaster siyosati mintaqaviy rivojlanishning vositasi sifatida

14.3. O'zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlar

Tayanch tushuncha va iboralar: klaster, raqobatbardosh, transmilliy kompaniya, sanoat kompleksi, ildiz firma, aglomeratsiya, transformatsiya, innovatsiya, ishbilarmonlik muhiti, infratuzilma, institutsional zichlik.

14.1. Mintaqaviy iqtisodiyotda klasterning iqtisodiy mazmuni

So'nggi yillarda klasterlarga bo'lgan qiziqish keskin oshdi. Zamonaviy makon ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy landshaftning shakllanishiga ularning ta'siri tobora sezilarli bo'lib bormoqda.

Klaster modeli mavhum nazariy g'oya emas, u o'zlashtirilishiga yaxshi mos keladi va boshqaruv amaliyotiga aniq «chiqish» ga ega. «Klasterlarga bo'lgan qiziqish kuchayib ketdi, chunki ular iqtisodiy haqiqatni tasvirlashning bir yo'li emas, balki amaliy ta'sir mexanizmidir»⁷³.

Klasterlarni tushunishning umumiy yondashuvlarini ko'rib chiqish va ularni tasniflash. Bugungi kunda klasterning umumiy qabul qilinadigan ta'rifi yo'q. Klaster nazariyasi asoschisi, Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter klasterning tushunchasini quyidagicha ifodaladi:

«Klaster bu - raqobatbardosh, bir vaqtning o'zida birgalikda ish olib boradigan o'zaro bog'liq bo'lgan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli tarmoqlardagi firmalar va ularning faoliyati bilan bog'liq tashkilotlar (masalan, universitetlar,

⁷³ Ketels Ch. European Clusters. Structural Change in Europe. 3: Innovative City and Business Regions. Hagbarth Publications, 2003.

standartlashtirish agentliklari va savdo uyushmalari)»⁷⁴. Ta'rifdan kelib chiqadiki, ushbu yondashuv, mamlakat iqtisodiyoti haqidagi odatiy qarashimizdan tubdan farq qiladi.

M. Porter, mamlakatning raqobatdoshligini xalqaro kompaniyalarning raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak, deb hisoblaydi, biroq turli tarmoqlardagi firmalarning klasterlari - bu klasterlarning ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyatlari juda muhimdir.

O'nta mamlakatda 100 dan ortiq sohaning raqobatbardosh imkoniyatlarini tahlil qilgach, M. Porter eng raqobatbardosh transmilliy kompaniyalar odatda mamlakat bo'ylab tarqalib ketmaganligini, bir mamlakatga, ba'zan hatto mamlakatning bir mintaqasida ham to'planishga intilgan degan xulosaga keldi. Ushbu hodisaning tavsifi quyidagicha: jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishish uchun bir yoki bir nechta kompaniyalar o'zlarining yaqin atrof muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar: yetkazib beruvchilar, iste'molchilar va raqobatchilar. Va atrof-muhitning muvaffaqiyati, o'z navbatida, kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir qiladi. Ushbu o'zaro manfaatli hamkorlik natijasi sifatida bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan firmalarning, yaqin aloqador tarmoqlarning birlashmasi «klaster» shakllanmoqda.

Shuningdek, u «raqobatbardosh olmos» deb nomlangan mamlakatlarning asosiy guruhlar soniga nisbatan raqobatbardoshlik afzalliklarini belgilovchi tizimini ishlab chiqdi

Bunday afzalliklarga quyidagilar kiradi:

- omil shartlari: inson va tabiiy, ilmiy axborot salohiyati, kapital, infratuzilma, shu jumladan hayot sifatining omillari;
- ichki talabning shartlari: talabning sifati, jahon bozorida talabning rivojlanish tendensiyalariga rioya qilinishi, talabning hajmini oshirish;

⁷⁴ Klaster'naya teoriya ekonomicheskogo razvitiya / M. Porter. M.: Izdatelskiy dom «Vilyams », 2000. 496 s.

- tegishli va xizmat ko'rsatish sohalari: hom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni olish joylari, asbob-uskunalarini olish joylari. Xom ashyo, jihozlar, texnologiyalardan foydalanish sohalari;
yo`naltirish, mahsulotlarning xizmat tarkibiy qismini oshirish, yangi texnologiyalarda muhandislik xizmatlarini eksport qilish yetakchilikni saqlab qolishdir. E`tiborli jihat shundaki, o`rmon xo`jaligi, mashinasozlik va energetika majmui klasterlari ekologik tayyor mahsulot va foydalaniladigan texnologiyalarning barqarorligi mutanosib bo`lgan global strategiyaning muhim bosqichi bo`ladi. Metallurgiya majmui uchun korporativ strategiyaning asosiy yo`nalishi ishlab chiqarish moslashuvchanligi, investitsiyalar, qo`shilishlar va sotib olishlar va korporativ alyanslar orqali o`sishi mumkin. Qurilish majmuasi, shuningdek, sog`liqni saqlash va biznes xizmatlarining klasterlari, uzluksiz innovatsiyalar, ichki va tashqi talabning o`sishi kelajakdagi raqobatbardoshlikning muhim elementiga aylanadi.

Mintaqaviy darajada klasterli yondoshuvning afzalliklari va kamchiliklari. Birinchidan, mintaqaviy innovatsion-sanoat klasterlari yangi ilmiy texnologiyalarni, bilimlarni, mahsulotlarni, birgalikdagi ilmiy bazaga asoslangan texnologik tarmoqni tarqatish uchun barqaror tizimga asoslangan.

Ikkinchidan, klaster korxonalari innovatsion xarajatlarni minimallashtirish uchun ichki ixtisoslashtirish va standartlashtirishni amalga oshirish qobiliyati tufayli qo`shimcha raqobatbardosh afzalliklarga ega.

Uchinchidan, innovatsion-sanoat klasterlarining muhim xususiyati - bu kichik korxonalar egallab turgan tadbirkorlik subyektlari tuzilmasida mavjudligi, bu mintaqada iqtisodiy o`sishning innovatsion nuqtalarini shakllantirish imkonini beradi.

To`rtinchidan, kichik biznesni rivojlantirish uchun mintaqaviy sanoat klasterlari juda muhimdir: ular sanoat korxonasining kapitaliga kirishni osonlashtiradigan, shuningdek, mutaxassislardan bilimlarni almashish va tadbirkorlar uchun ma`lum bir tadbirkorlik mavqeiga xizmat ko`rsatishda yuqori darajadagi ixtisoslashgan kichik firmalarga ega.

Dasturlarning maqsadli yo`nalishi bo`yicha klasterli yondoshuvdan foydalanish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining samarali vositasi bo`lib, bir tomondan ichki va mintaqalararo hamkorlik salohiyatiga erishishga

imkon beradi, ikkinchidan, bu korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Klaster yondashuvi mintaqaning raqobatbardosh rivojlanishi uchun maqbul yechim ekanligini quyidagilarda ko`rish mumkin:

- mintaqaviy rivojlanish siyosatining integral (tarmoqlararo) nuqtai nazarida;
- asosiy ishtirokchilar (hukumat, biznes, universitetlar, mintaqaviy elita va boshqalar) o`rtasida o`zaro muloqotni rivojlantirish, birgalikda ko`rish va umumiy maqsadlarni shakllantirish, barcha manfaatdor tomonlar uchun kelishilgan harakat rejasini ishlab chiqishda;
- unumdorlik va bandlik o`rtasidagi ziddiyatni kamaytirishda.

Klasterlarni shakllantirish bosqichida uning rivojlanishida davlat boshqaruvi organlari yetakchi rol o`ynaydi va uning vazifasi potentsial klaster a`zolarini: asosiy, qo`llab-quvvatlovchi va tegishli tarmoqlar, ilmiy va moliyaviy institutlar, hamkorlik tashkilotlari kompaniyalarini safarbar qilishdir.

Klasterlarning yuqoridagi shubhasiz afzalliklaridan tashqari, ularning kamchiliklari haqida gapirishimiz mumkin.

Amaliyot shuni ko`rsatadiki, ba`zan klasterlardagi munosabatlar «juda yaqin» bo`lib, keyin davlat organlari bilan keng hamkorlik qilib, ya`ni, klasterlarning davlat tartibga solinishi ostida ko`p hollarda mansabdor shaxslar safida korruptsiyaga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, klasterlarning shakllanishi va ishlashi alohida tegishli vazirliklar va idoralar o`rtasida ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Davlat boshqaruvi tuzilmalaridan biri alohida bo`limlarning umumiy siyosati va harakatlarining bir-biri bilan muvofiqlashtirilmaganligi va uzluksizligining yo`qligi bilan bog`liq. Ba`zan bu bir vazirlik boshqa qo`shni vazirlik qoidalariga zid bo`lgan qoidalar va qoidalarni belgilashga olib keladi.

Klasterlashtirishni rivojlantirishga tayangan holda boshqa jihatlari bilan bir qatorda bu kabi yon ta`sirlarni hisobga olish kerak, chunki bu kompaniyalarni blokirovka qilish ehtimoli bor ya`ni yakka tartibdagi kompaniyalar klasterlarga nisbatan raqobatbardosh bo`lishi mumkin.

Klasterlashtirishni quyidagi zaif tomonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin⁹⁷:

- zayiflik. Ixtisoslashuv hududni zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Texnologik uzilishlar klasterning ba'zi afzalliklariga putur etkazishi mumkin;

- izolyatsiyasi (yopiqligi)ning ta'siri. Mahalliy aloqa va «beparvo» bilimlarga haddan tashqari ishonish, tashqi aloqalar va nazariyalarning etishmasligi bilan birgalikda o'rnatilgan amaliyotlarning keng tarqalganligi sababli izolyatsiyalashning ta'sirini tushuntirishi mumkin;

- chidamlilikni kamayishi. Qiyin mavjud tuzilmalar radikal qayta yo'naltirishni kechiktirishi yoki zarur restrukturani to'xtatib qo'yish xavfini tug'dirishi mumkin;

- raqobatbardosh bosimlarning pasayishi. Kooperatsion raqobatbardosh bosimlarning pasayishiga va natijada innovatsion harakatlantiruvchi kuchlarning pasayishiga olib kelishi mumkin;

- o'zini o'zi ta'minlash sindromi. O'tmishdagi muvaffaqiyatlarga erishish uchun klaster o'zgaruvchan tendentsiyalarni bilishga qodir emas;

- tadbirkorlik tashabbusi va boshqaruvi darajasi pasayishi.

Klaster a'zolarining o'zaro aloqasini hisobga oladigan bo'lsak, faqatgina ichki munosabatlarga e'tibor qaratish kerak, klasterlar subyektlari mustaqillikni yo'qotibgina qolmay, balki klasterdan chiqishga xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishonchning yo'qligiga ham xavf tug'diradi. Bizning fikrimizcha, o'zini o'zi ta'minlash sindromi klasterlashtirishning keskin muammosidir. Klasterlar raqobatbardoshlikni oshirishning bir ko'rinishidir, aksariyat hollarda keng miqyosli ilmiy faoliyatlar, yangi texnologiyalarni yaratish va innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini ta'minlash sindromi agar u butunlay to'xtamasa - klasterning ilmiy faoliyati va bu o'z navbatida, texnik taraqqiyotning xarakatini to'xtatib qo'yadi. Klasterlarda raqobatbardosh bosimlarning pasayishi kabi kamchiligi bizning fikrimcha, klasterning o'zini o'zi ta'minlash sindromi bilan chambarchas

⁹⁷ Markov L. S. Ekonomicheskie klasteri: ponyatiya i xarakternoe cherto / L. S. Markov G'G' Aktualno'e problemo' sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya: vzglyad molodo'x ucheno'x. M., 2004. C. 125

bog`liq. Shunday qilib, klasterning asosiy zaif tomonlari aniqlandi va ularni yo`q qilish butun mintaqaning yoki butun mamlakatning klaster siyosatining muhim qismi bo`lishi kerak.

Klaster siyosati. Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmog`ini rivojlantirish mavjud korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, yangilarini barpo etish - ishlab chiqarish va qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda klaster siyosatining mohiyatida yuqori monopollashgan O`zbekiston iqtisodiyotining asosiy muammolarini ya`ni mintaqaviy va mahalliy bozorlarni, iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Birinchidan, klaster siyosatining markazida raqobatbardosh bozorni rivojlantirish, raqobatni kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi hamda asosiy omil sifati xizmat qiladi.

Shu bilan birga, klaster siyosatidagi davlat tashabbusi birinchi navbatda kuchli va ijodiy kompaniyalarni qo`llab-quvvatlashga va samarador muhitni yaratishga qaratilgan, bu esa o`z navbatida, zaif va qayta ishlaydigan firmalarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi⁹⁸.

Ikkinchidan, klaster siyosati mikroiqtisodiyotga katta e`tibor beradi - mahalliy bozorlarni va noyob bo`lmagan (tabiiy resurslar va boshqalar) asosida kompaniyalarni tahlil qilish va birinchi navbatda ishlab chiqarish omillari (yuqori malakali ishchi kuchi, qulay infratuzilma va boshqalar) yaratildi.

Klaster siyosatidagi mikroekonomik yondashuv rivojlanishning mahalliy xususiyatlarini inobatga olib, xususan, paxtachilik-to`qimachilik, farmatseptika kabi tarmoqlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishni jadallashtirish va raqobatdoshligini oshirish bo`yicha samarali maqsadli dasturlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

⁹⁸ Porter M., Ketels K. Konkurentosposobnost na raspute // Strategiya i konkurentosposobnost.2008. № 1 (25). S. 42–52.

Uchinchidan, klaster siyosati davlat va mahalliy hokimiyat organlari, biznes va ilmiy va ta'lim muassasalari o'rtasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining innovatsionligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun o'zaro hamkorlikni tashkil etishga asoslangan.

Nihoyat klaster siyosatini amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda kam rivojlangan kichik va o'rta biznesning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Klaster siyosatining asosiy obyektlari - klaster va klaster tashabbuslarini shakllantiradigan kichik va o'rta korxonalar (kichik va o'rta biznes).

Shunday qilib, potentsial va tuzilmalar nuqtai nazaridan, klaster siyosati, bizning fikrimizcha yuqori texnologiyali bozorlarni shakllantirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning turli sohalari, shu jumladan real sektor korxonalarida innovatsiyani joriy etishni oshirish, rag'batlantiruvchi tashabbuslar, davlat, biznes va ilmiy jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishga yordam berishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar majmuidir

Hozirgi vaqtda ikki avlodning klaster siyosati ajratib ko'rsatiladi. Birinchi avlod klasterlar siyosati, davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan klasterlarni tashkil etishga ko'maklashish, klasterlarni tashkil qiluvchi firmalarning faoliyat sohasini aniqlash, klasterlarni qo'llab-quvvatlovchi davlat organlarini yaratish va mamlakat va mintaqada (sanoat) klasterlarni saqlash bo'yicha umumiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi avlod klaster siyosati - mamlakatda yoki sanoatda mavjud bo'lgan klasterlar haqida to'liq ma'lumotga asoslangan va har bir klasterning alohida rivojlanish muammolariga alohida yondashuvni nazarda tutadi. Bunga misol qilib mamlakatimizda har bir tashkil topayotgan klasterlar uchun Prezident qarori qabul qilinayotganligi masalaning mohiyatini nechog'lik ahamiyatlilikidan dalolat beradi.

Davlatning klaster siyosatini yuritishda to'rtta roli mavjud⁹⁹:

1) moliyaviy klaster siyosati. Davlat manfaatdor tomonlarni (masalan, xususiy kompaniyalar va tadqiqot tashkilotlari) birgalikda loyihalarni taqdim etganda loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy ko'makni ta'minlaydigan klaster siyosatida;

2) klaster siyosatini qo'llab-quvvatlash. Klasterlarni rivojlanishiga rag'batlantirish uchun mintaqaviy infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi investitsiyalarini qo'llab-quvvatlashda;

3) davlatning qo'llab-quvvatlovchi funksiyasi. Klasterlarni rivojlantirish orqali mintaqaviy ixtisoslikni o'zgartirishga qaratilgan maxsus dasturlar bilan to'ldirilganda;

4) Hukumat o'zining siyosat funksiyasi. Klasterlarning kelgusida rivojlanishi va transfer, subsidiyalar, cheklashlar yoki tartibga solish, shuningdek, klasterdagi firmalarning faol nazoratini ta'minlash bo'yicha mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan faol klaster siyosatini yuritish tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, klasterlar rivojlanishini rag'batlantirish orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi sifatida tavsiflangan klaster siyosati O'zbekiston iqtisodiyotida 14.1-jadvalda keltirilgan yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Klaster loyihalarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda qulay imkoniyatlar yaratildi. Fermer xo'jaliklari va to'qimachilik sanoati korxonalari o'rtasida bozor munosabatlarini shakllantirishga doir chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish doirasida 2018 yil boshidan buyon respublikaning 20 ta tumanidagi 160 ming gektar hududda paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shakli joriy etildi.

⁹⁹ Enright M. J. Regional Clusters: What we know and what we should know. Paper prepared for the Kiel Institute International Workshop on Innovation Clusters and Interregional Competition, 2002. P. 18.

14.1-jadval. Klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari

Ishlab chiqarish korxonasining shakli	manzili	Siyosatni o`tkazuvchi davlat organlari	Siyosatni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari	Siyosatni amalga oshirish shakli
Kengaytirilgan klasterlar	Mamlakat	Davlat boshqaruvi organlari	Raqobatni qo`llab-quvvatlash, umumiy ta`lim va ekologik standartlarni oshirish; klaster kompaniyalarining tashqi bozorlarda manfaatlarini ilgari surish	Qonun ijodkorligi, xalqaro shartnomalar
Hududiy ishlab chiqarish komplekslari	Hudud yoki bir necha hududlar	Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan - hududiy ishlab chiqarish komplekslari loyihalarini	Yangi foydali qazilmalarni qazib olish; yangi o`zlashtirilgan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish; mavjud MIKni kengaytirish	Hududiy ishlab chiqarish komplekslarini davlat xususiy sherikchilikga oid qonunchilik bazasi bilan mustahkamlash
Klasterlar geografiyasi	Mamlakat, viloyat, tuman	Hududiy mahalliy davlat hokimiyati	Mahsulotlarni O`zbekiston va tashqi bozorlarga olib chiqish; mintaqaning «brendini» yaratish; hokimiyat, universitetlar tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o`rtasidagi aloqalarni faollashtirish,	Davlat-xususiy sherikligi; huquqiy tartibga solish; klasterni rivojlantirish bo`yicha tadqiqotlar o`tkazish
Klaster tashabuskorligi	Mahalliy hokimiyat	O`z-o`zini boshqarish mahalliy davlat hokimiyati	Tegishli quyi tarmoqlarda kompaniya tarmoqlarini rivojlantirish; hokimiyat, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnoparklar va xususiy kompaniyalar o`rtasida aloqa tarmoqlarini yaratish; mahsulotlarni O`zbekiston va tashqi bozorlarda ilgari surish	Davlat-xususiy sherikchiligi; davlat xaridlarini amalga oshirish; kompaniyalarni faoliyatini diversifikatsiya qilish

14.3. O`zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etishning o`ziga xos jihatlari

O`zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida yaqinda qabul qilingan «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» davlat dasturida mamlakatni rivojlantirishning eng muhim va

ustuvor yo`nalishlari ifodalanib, ular so`nggi yillarda ayniqsa iqtisodiy o`shish sohasida shakllangan qarashlarni tubdan qayta ko`rib chiqishni taqozo etmoqda.

So`nggi yillarda O`zbekiston iqtisodiyotida shiddatli, sifat jihatdan yangi tarkibiy va erkin bozor munosabtlarini qaror toptirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklari tubdan qayta ko`rib chiqilmoqda, iqtisodiyotni haqiqatda harakatga keltiruvchi quvvatga ega bo`lgan iqtisodiy o`shishning yangi, amaliy drayverlari joriy etilmoqda. Eski, o`z ahamiyatini yo`qotgan institut va iqtisodiy regulativ vositalar iqtisodiyotga ta`sir etishning yangi innovatsion va samarali shakl hamda usullariga o`z o`rnini bo`shatib bermoqda¹⁰⁰.

Bugungi kunda har bir sohada innovatsiya va izlanish, yangi yutuqlarga erishish, sog`lom raqobat muhitini yaratishda muhim omil bo`lmoqda. Xususan, mamlakatimizda agrar sohani isloh qilish, qishloq xo`jaligida ham zamonaviy usullardan oqilona foydalanish ijobiy samaralar bermoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bozor munosabatlarini va amaliy tajribalarini hayotga izchil joriy etishga katta e`tibor qaratilmoqda. Shulardan biri klaster tizimi bo`lib, hozirda iqtisodiyotimizning paxtachilik, to`qimachilik va engil sanoat sohasida ushbu tizim faoliyatini yo`lga qo`yish masalalari ustivor vazifa etib belgilangan.

Agrosanoat majmuasi iqtisodiy faoliyatning turli-tuman jabhalarini birlashtiruvchi yirik tarmoqlararo va ko`p funktsiyali tizim hisoblanadi. Ammo agrosanoat majmuasida kechayotgan jarayonlarni to`lig`icha ilg`ab olish, mazkur jarayonlarni tashkil etish va ularni boshqarishni har tomonlama asoslash uchun agrosanoat majmuasi tarkibini to`laqonli tushunib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Etarlicha uzoq davr mobaynida agrar (qishloq xo`jaligi) sektori qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi, jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini sotish bilan shug`ullanuvchi tarmoqlardan alohida qarab kelingan bo`lsa, XX asrning 70-

¹⁰⁰Obidov R., "Klaster tizimda qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash hamda sotish xarajatlari hisobining xususiyatlari"// "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №3, iyun, 2018 yil

yillariga kelib bu tasavvurlar barham topdi, zero bugungi kunga kelib qishloq xo'jaligi xomashyosining asosiy qismi sanoat usulida qayta ishlanmoqda va keng tarmoqli infratuzilmaga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan savdo tarmoqlari orqali o'z iste'molchilariga yetkazib berilmoqda.

Yuksak taraqqiy etgan davlatlarda oziq-ovqat mahsulotlari kompleksining tovar mahsulotlari qiymatida qishloq xo'jaligining ulushi 20-30 foizdan oshmaydi, tovar mahsuloti qiymatining yarmidan ko'pi mahsulotni taqsimlash va iste'molchilarga yetkazib berish sohasiga to'g'ri keladi.

Dastlab agrosanoat majmui qishloq xo'jaligi va sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarini o'z ichiga qamrab oladi, deb hisoblangan va mazkur majmua tomonidan ishlab chiqariluvchi mahsulotlar qatoriga oziq-ovqat mahsulotlari, teri, tekstil, tamaki va shu kabi mahsulotlar kiritilgan. O'tgan asrimizning 80-yillarida agrosanoat majmuasining tarmoq tuzilmasi borasida ilmiy izlanishlar olib borgan N.E. Smetanina, V.A. Tixonova, M.Ya. Lemesheva kabi rossiyalik tadqiqotchilar agrosanoat majmuasini uchta sohaga ajratishni taklif qilganlar¹⁰¹:

-xizmat ko'rsatuvchi soha (turli mashinasozlik korxonalari, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, kadrlar tayyorlash va boshqalar);

- qishloq xo'jaligi (o'simchilik va chorvachilik);

- oziq-ovqat sanoati.

O'sha davrda mazkur masalalar bilan shug'ullangan AQSH qishloq xo'jaligi vazirligining iqtisodiy tadqiqotlar xizmati yuqoridagi uchta soha bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga turli xizmatlar, jumladan transport xizmatlari ko'rsatishni tasniflashda alohida e'tiborga olishadi. Bu borada ilmiy izlanishlarni yanada jadallashtirgan mahalliy olimlar va mutaxassislar agrosanoat majmuasini tasniflash borasida chuqurroq yondashgan holda, uni beshta sohaga bo'lishni taklif qiladilar. Mazkur yondashuv qisqacha quyidagicha ko'rinishga ega:

¹⁰¹Klasterniy podxod k razvitiyu agropromishlennogo kompleksa Omskoy oblasti / pod obh.red. V.V. Karpova, V.V. Alehenko. – Novosibirsk: izd-vo SO RAN, 2014. – 416 s.

- 1) qishloq xo`jaligi;
- 2) mashinasozlik va texnika ta'miri, mineral o`g`itlar va omuxta em ishlab chiqarish, qishloq hududlarida qurilish ishlarini amalga oshirish;
- 3) qayta ishlash sanoati tarmoqlari va engil sanoat;
- 4) muoamala sohasi tarmoqlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, qishloq xo`jaligining moddiy-texnik ta'minoti;
- 5) ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish, karantin xizmati.

O`tgan asrning 90-yillari oxirida agrosanoat majmui tarkibini tovar-pul muoamalasi va axborot ta'minoti tizimi bilan to`ldirish taklif etildi. Zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlarida bu o`rinda qishloq xo`jaligi sohasida marketing, qishloqda matlubot uyushmalari, agrosanoat majmuini ilmiy asosda qo`llab-quvvatlash, majmuani davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish ko`zda tutiladi.

Shu tariqa, ASM favqulodda keng ko`lamli va ko`p qirrali tizim sifatida namoyon bo`ladi. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining uchdan bir qismidan ko`prog`i agrar sektor bilan uzviy bog`liqlikda faoliyat ko`rsatsada, biroq bugungi kunda davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan yagona yaxlit agrosanoat majmui mavjud emas.

Biz bu o`rinda, mazkur sohadagi holatni zudlik bilan o`zgartirish tarafdori emasmiz, chunonchi bu boradagi shoshma-shosharlik haddan ziyod murakkab boshqaruv tizimining paydo bo`lishiga olib keladi, zero mazkur sohada turli ishlab chiqarishlarni tashkil etish haqiqatdan ham tarmoqlararo tavsifga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda statistika sohasida ham agrosanoat majmuasi borasida yagona yondashuv mavjud emasligi bois, agrosanoat majmuasi tarkibiga u yoki bu faoliyat turini kiritish borasida tadqiqotchilar hali ham o`z da`volarini ilgari surib kelmoqdalar. Bu esa bizning fikrimizcha, agrosanoat majmuini jadal rivojlantirish borasida ishlab chiqilayotgan turli darajadagi dasturlar ijrosiga o`z salbiy ta`sirini ko`rsatmasdan qolmaydi. Agrosanoat majmui tarkibida qishloq xo`jaligi etarlicha katta ulushga ega bo`lmasada, qishloq xo`jaligi ASMning asosiy elementi sanaladi, u mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim omil hisoblanishi bilan bir qatorda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning o`ziga xos lokomotivlaridan biri hamdir.

Rossiyalik tadqiqotchilar S.G. Azikova, G.A. Bobkov, X.X. Soxrokovlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda agrar soha mahsulotlarining 1 % qo'shimcha o'sishi sanoat infratuzilmasi tarmoqlari mahsulotlarining 2,5%ga, qayta ishlovchi tarmoqlar mahsulotlarining – 1,4%, transport xizmatlarining - 0,33%, savdo hajmining esa 2,7%ga o'sishiga olib kelishi aniqlangan¹⁰².

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari uchun asosiy mahsulot va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoq sanalishi bilan bir qatorda, mamlakatning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydi, mamlakatning import oziq-ovqatlariga bo'lgan qaramligiga barham beradi. Shu bois iqtisodiy nuqtai nazardan oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan olib kirish foydali bo'lsa ham, rivojlangan mamlakatlar o'z qishloq xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida turli-tuman vositalardan keng foydalanadilar. Masalan, AQShda davlatning fermerlarga ko'rsatadigan yordami ular oladigan daromadning 30 foizini tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada 66 %, Norvegiyada 77%, Shveytsariyada esa 80 %ni tashkil etadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'rsatilayotgan ko'mak 10 foizni tashkil etgani holda, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha importga qaramlik o'zining belgilangan me'yoridan bir necha barobarga ko'pdir.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida va oziq-ovqat sanoatida mamlakatimiz aholisining har beshtasidan bittasi band bo'lsa, mamlakat YaIMida mazkur tarmoqlarning ulushi qariyb 23 foizni tashkil etadi, chakana savdo aylanmasining salkam 51foizi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq hududlarida mamlakatimiz aholisining salkam 50 foizi, shahar atrofi hududlarida 21 foizi istiqomat qilayotgan bir paytda, agrosanoat majmui korxonalari aholi bandligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Agrosanoat majmuini tashkil etuvchi unsurlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda qishloq xo'jaligi bu erda markaziy o'rinni egallaydi. O'z navbatida o'simchilik va

¹⁰² Azikova S.G., Bobkov G.A., Soxrokov X.X. Zakonomernosti formirovaniya, transformatsiy i razvitiya APK // Upravlenie ekonomicheskimi sistemami.2012. №39. S. 105.

chorvachilik uchun urug`lik materiallari, yirik shoxli qoramol, parranda va shu kabilar birlamchi unsur hisoblanadi.

Kadrlar, ilmiy ishlanmalar, axborot ta'minoti, qishloq xo'jaligini yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlash, qishloq xo'jaligini yuritish uchun zarur bo'lgan tuproq, suv va shu kabilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilma elementlari hisoblanadi. Iqtisodiyot va ASMning bir qator unsurlari qishloq xo'jaligiga boshqaruvchi ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Masalan mintaqaning geografik joylashuvi qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini belgilab bersa, milliy qonunchilik, davlat va mahalliy hokimiyat idoralarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va rivojlantirish borasidagi siyosati va shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan tanlab olingan xo'jalik yuritish shakli ASM subyektlarining o'zaro ta'sirlashish qoidalarini belgilaydi. Raqobat kurashining keskinlashishi va boshqa noqulay xavf-xatarlarning vujudga kelish xavfining kuchayishi korxonalarini ishlab chiqarish, moliya va sotish bozorlarini boshqarishning eng samarali usullarini izlab topishga majbur qiladi. Buning natijasida aholi iste'moli bilan bir qatorda qayta ishlash sanoati tarmoqlari uchun ham har tomonlama sifatli xomashyo yaratiladi. Agrosanoat majmui ushbu tizimning barcha elementlari, shu bilan bir qatorda ular o'rtasida tarkib topgan o'zaro aloqalar muammosiz amalga oshganda va ishlab chiqaruvchilarni ular uchun maqbul bo'lgan daromad bilan ta'min etgandagina samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin. Ammo bugungi kunda mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan muammolar uning potentsial imkoniyatlari va investitsion jozibadorligining sezilarli darajada pasaytirib yubormoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda masalaning ushbu jihati etarlicha batafsil qarab chiqilganligi bo'lsada, quyida mamlakatimiz agrosanoat majmui uchun xos bo'lgan ba'zi bir jihatdar ustida to'xtalib o'tamiz.

1. Kuchli raqobat muhiti. Bir xil tabiiy-iqlim sharoitlarida faoliyat ko'rsatuvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining natijalari bir-biridan unchalik ham katta farq qilmaydi.

2. Yaxshi hosil olishning to'liq kafolatlanmaganligi. Hattoki serhosil erlarda ham noqulay ob-havo tufayli yaxshi hosil olinmasligi mumkin (bu vaziyat keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari bois ko'p kuzatilmoqda).

3. Mavsumiylik, texnologik jarayonning uzoqligi, tushumlarning kechikishi.

4. Ko'pi bilan uchtagacha qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishga mo'ljal olish. Bunday yondashuv doimiy bir xillikka ega bo'lgan texnikalardan foydalanishni, bir xil iste'molchilar bilan ish olib borishni ko'zda tutsada, o'zgaruvchan bozor sharoitida bunday yondashuv o'zini oqlamaydi.

5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tovarlilik darajasining pastligi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlaridan biri shundaki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ma'lum bir qismi takror ishlab chiqarish maqsadlarida qishloq xo'jaligining o'zi tomonidan iste'mol qilinadi.

Agrosanoat majmuining tashkiliy-ishlab chiqarish muammolari sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) kadrlar masalasi - ASM korxonalari har qachongidan ham bugungi kunda malakali mutaxassislarga katta ehtiyoj sezmoqda, bu birinchi navbatda ta'limi tizimining bugungi kun talablaridan ortda qolayotganligi, ish haqi va qishloq hududlarida aholi turmush darajasining pastligi kabi omillar bilan bog'liq.

2) mahalliy hokimiyat idoralari bilan o'zaro munosabatlar borasidagi mavjud qiyinchiliklar, ko'pincha mahalliy boshqaruv idoralari erkin bozor munosabatlariga moslasha olmayotganliklari yoki bunga uquvlari yo'qligi bois, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va investorlar ma'muriy resurslar uchun katta mablag' va vaqt sarflashlariga to'g'ri kelmoqda;

3) agrosanoat majmuini qo'llab-quvvatlash borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning markazdan uzoq hududlarda amalga oshirishning murakkabligi;

4) agrar sohaga oid ilm-fanni moliyalashtirishdagi byudjet taqchilligi;

5) oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mashinasozligining etarlicha taraqqiy etmaganligi, ASMning moddiy-texnik jihatdan etarlicha ta'minlanmaganligi, bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar oltinchi

texnologik ukldga o`tayotgan bir paytda mahalliy agrosanoat majmui korxonalarining aksariyat qismi uchinchi va to`rtinchi texnologik ukld sharoitida faoliyat ko`rsatmoqda. Aksariyat qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari qishloq xo`jaligi texnikalarini sotib olish imkoniyatiga ega emaslar;

6) yerga bo`lgan mulk huquqini qo`lga kiritish yoki uni uzoq muddatli ijaraga olish bilan bog`liq bo`lgan muammolar;

7) qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilariga ijtimoiy majburiyatlarning yuklanishi – bu o`z navbatida qishloq hududlarida yo`llar qurilishi va ta`mirlanishini, ijtimoiy obyektlar qurilishini ko`zda tutadi, bunday majburiyatlar qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy samaradorligiga katta putur etkazadi;

8) qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlash, sotish borasidagi murakkabliklar, bozor infratuzilmasining etarlicha rivojlanmaganligi;

9) kafolatlangan sotish bozorlarining mavjud emasligi- ilgari qishloq xo`jaligi mahsulotlarining yirik ulgurji xaridori davlat hisoblangan bo`lsa, bugungi kunga kelib erkin bozor munosabatlari mazkur sohaga ham izchillik bilan joriy qilinayotganligini inobatga olish lozim;

10) tayyor qishloq xo`jaligi mahsulotlari narxining keskin tebranib turishi – bu birinchi navbatda o`simchilik tarmog`i uchun xos hisoblanadi: masalan, g`alla narxi uning hosildorligiga teskari proportsional bo`lib, hosil qancha ko`p bo`lsa, narx shuncha past bo`ladi. Ko`pchilik qishloq xo`jaligi ishlab chiqaruvchilari etishtirilgan mahsulotlarni uzoq muddat davomida saqlash imkoniyatiga ega emaslar, bu esa ko`pincha ularning parokanda bo`lishigacha olib keladi.

Biroq ASMning yuqorida sanab o`tilgan muammolarini bir yoki bir nechta korxonalar ko`magida hal etib bo`lmaydi. Shu sababli ham mazkur sohada qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, xizmat ko`rsatuvchi korxonalar va savdo tashkilotlarining o`zaro integratsiyasiga har qachongidan ham ko`ra bugungi kunda katta ehtiyoj sezilmoqda.

Bu borada jahonda va mamlakatimizda to`plangan tajribalar o`zaro integratsiyalashgan tuzilmalarning bozor iqtisodiyoti talablariga to`la-to`kis javob

bera olishini ko'rsatmoqda. Integratsiya mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash va sotishning yopiq siklini tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb qilish va unda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, shuning bilan bir qatorda mahsulotlarning tovarlilik darajasini oshirish, mahsulotlarni vositachilarsiz sotish imkonini beradi. Aynan mana shunday avfzalliklar va ustunliklarni ta'minlash orqali ASMning investitsion jozibadorligini oshirish mumkin. 2017-2021 yillarda O'zbekistonni beshta ustivor yo'nalish bo'yicha rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xom ashyosini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish borasida integratsion va kooperatsion aloqalarni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ko'pchilik tadqiqotchi va mutaxassislarning ta'kidlashlaricha agrosanoat integratsiyasining ikkita turi mavjud bo'lib, ularning birinchisi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining boshqa sohada faoliyat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish asosida hamkorlik qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchisi esa alohida korxonalarning resurs va imkoniyatlarini birlashtirishni ko'zda tutuvchi tashkiliy tuzilmalarni ifoda etadi. Integratsion aloqalarning birinchi ko'rinishi aksariyat xorijiy mamlakatlarda keng yoyilgan bo'lsa, integratsion aloqalarning ikkinchi ko'rinishi ko'proq mahalliy agrosanoat majmui korxonalari uchun mos keladi. Boshqa bir tomondan agrosanoat majmuida faoliyat ko'rsatuvchi mahalliy va xorijiy korxonalar uchun bir turdagi mahsulot komponentlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarning o'zaro qo'shilishida namoyon bo'luvchi vertikal integratsiya ham xosdir. Ushbu holatda korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlari izchil birlashtirilgani holda, integratsiyalashgan tuzilma ishtirokchilarining transaksion xarajatlari qisqartirilishiga erishiladi. Klasterli yondashuvdan foydalangan holda vertikal integratsiyalashgan korxonalar faoliyati samadorligini yanada oshirishimiz mumkin. Xususan mazkur sohada ilmiy izlanishlar olib borgan rossiyalik mutaxassis I.N. Goretovning fikriga ko'ra, klasterli yondashuv vertikal integratsiyalashgan korxonalarning manfaatlariga to'la mos keladi va shuning

uchun ham klasterli yondashuv korxonalarida klasterga birlashish borasida katta ishtiyoq uygʻotadi¹⁰³.

Korxona va tashkilotlarning geografik jihatdan kontsentratsiyasi klaster kontseptsiyasining yadrosini tashkil etadi. Klaster tarkibiga kiruvchi kompaniyalar axborot, texnologiyalar, tovar va xizmatlarni oʻzaro ayriboshlaydilar, ular jamoaviy brend va yaxlit savdo tarmogʻidan birgalikda foydalanadilar. Klaster tizimini joriy etish- bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yoʻli boʻlib qolmasdan, balki mamlakat va mahalliy darajada korxonalarining innovatsion faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri boʻlib, hududning geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim sharoitlari va agrosanoat ixtisoslashuvi bilan bogʻliq boʻlgan raqobat ustunliklarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Alohida shaxslarga tayanuvchi yangi bilimlar nazariyasiga muvofiq, yangi bilimlar va tajribalar ilmiy maqolalar yoki qoʻllanmalar yordamida emas, balki shaxsiy muloqot yoʻli bilan aniq bir mutaxassislarning amaliy tajribalarini oʻzaro muhokama qilishlari orqali samarali tarzda yoyiladi. Oʻz navbatida oʻzaro aloqada boʻluvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlar bevosita bir-birlari bilan yaqin masofada joylashishlari talab etiladi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning geografik jihatdan lokalizatsiyasi amaliyotda ham yaqqol oʻz tasdigʻini topganligini koʻrishimiz mumkin, xususan Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya sanoati bugungi kunda toʻliq klaster tizimi asosida faoliyat koʻrsatmoqda.

Sanoat korxonalari vertikal va gorizontall integratsiyasining jahon amaliyoti tahlili koʻrsatishicha korxonalar kooperatsiyasini rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri boʻlib ularning klasterda birlashishi hisoblanadi. Mohiyati jihatidan sanoat klasteri bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui boʻlib, u ilm-fan, taʼlim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etish imkonini

¹⁰³Гогетов И.Н. Теоретические и практические аспекты интеграции в АПК // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2009. № 10. С. 110.

beradi. Pirovardida esa, hom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o`tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi¹⁰⁴.

Sanoat klasterlari deganda sanoat korxonalarining hududiy belgisi bo`yicha va ular bilan uzoq muddatli kooperatsion aloqalari mavjud bo`lgan boshqa iqtisodiy subyektlarning o`zaro bog`liq majmuasi tushunilib unda iqtisodiy manfaatlarning umumiyligini ta`minlash orqali muayyan hududda ishlab chiqarish va kapitalning jamlanishini hamda raqobat afzalliklarini kuchaytirish hisobiga sanoat korxonalari rivojlanish samaradorligini oshirishga imkon yaratiladi.

Bitta hududda joylashgan sanoat korxonalarining o`zaro va boshqa iqtisodiy subyektlar bilan birgalikda faoliyat yuritishining ko`plab umumiy zarurat va imkoniyatlari mavjud bo`lib bu holat, integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni jumladan, sanoat klasterlarini shakllantirishni taqozo etadi. Sanoat klasterlarini tashkil etish asosida sanoat korxonalari va ular bilan uzoq muddatli kooperatsion aloqalarga ega bo`lgan boshqa iqtisodiy subyektlarni qo`shimcha raqobat afzalliklariga ega bo`lish va istiqbolda foydani oshirish maqsadida birlashtirish yotadi.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida sanoat klasterlari muhim o`rin tutadi, chunki ularda ishtirokchilarning birgalikda faoliyat yuritishi kuchayib borayotgan raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulot va ko`rsatiladigan xizmatlar sifatining oshishiga imkon yaratadi. Bunga sanoat korxonalarining ko`p tomonlama va ko`p darajali o`zaro faoliyati hamda integratsiyalashgan tuzilma barcha ishtirokchilari salohiyatidan samarali foydalanish orqali erishiladi. Integratsiya natijasida yuzaga keladigan imkoniyatlar qo`shimcha raqobat afzalliklarini shakllantirishga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda Germaniyada (kimyo va mashinasozlik), Singapurda (neftkimyo sanoati), Frantsiyada (ozuq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va

¹⁰⁴Ataniyozov J.X. O`zbekistonda integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning istiqbolli yo`nalishlari// Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil

kosmetika), Yaponiyada (mashinasozlik) sohalarida klasterlar muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatib kelmoqda.

Dunyo amaliyotida klasterlar faoliyatini tashkil etishning bir necha modellari mavjudligi bois, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlar faoliyatini yo`lga qo`yish masalasiga bir tomonlama yondashish bizningcha ma`qul emas. Masalan, klasterlar faoliyatini yo`lga qo`yishning evropa modeli tabaqalashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi o`zaro raqobatlashuvchi korxonalarning ma`lum bir hududda mujassamlashuvini va mazkur korxonalarning ushbu hududdan tashqarida alohida marketing strategiyasini qo`llashlarini ifoda etsa, klasterlar faoliyatini tashkil etishning shimoliy amerika modeli esa hududiy ixtisoslashuv tamoyili bo`yicha o`zaro iqtisodiy aloqalarga kirishuvchi korxonalarning geografik jihatdan bir joyda mujassamlashishini ko`zda tutadi.

Klasterlar faoliyatini yo`lga qo`yishning osiyo modeli yuqoridagi ikki modeldan biroz farq qilib, u davlatning iqtisodiy siyosati doirasida ma`lum bir hududda yo`lga qo`yilgan korxona va tashkilotlarning vertikal integratsiyasini nazarda tutadi.

Va nihoyat klasterlashtirishning to`rtinchi, yapon modeli yetakchi-korxona atrofida kichik korxona va tashkilotlarning to`planishi va ularning o`z faoliyatlarini birgalikda tashkil etishlari bilan tavsiflanadi. Bunday kichik korxona va tashkilotlar yetakchi- korxonaga yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar yetkazib berish huquqini qo`lga kiritish maqsadida narx va sifat borasida o`zaro raqobatlashadilar. O`z-o`zidan ko`rinib turibdiki, klasterlashtirishning birinchi, ikkinchi va to`rtinchi modellarida klasterning ichida keskin raqobat kurashi mavjud, bunda yapon modeli rivojlanish vektori yetakchi – korxona tomonidan belgilab berilishi bilan ajralib tursa, osiyo modeli esa klasterlashtirishda davlatning yo`naltiruvchi va boshqaruvchi siyosati muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Ammo har qanday holatda ham ishlab chiqarish turlari va yo`nalishlarini tanlab olish bosqichida klaster doirasida o`zaro raqobatlashayotgan firmalar tovarlarni sotish bosqichida o`zaro kooperatsiyalashish yo`lini tutadilar. Klasterda raqobatning mavjudligi klasterning iqtisodiy jihatdan zaif ishlab chiqarishlarni

qo'llab-quvvatlashini anglatmaydi, klasterda ishtirok etish uchun korxona ma'lum bir talablarga javob berishi lozim. Bunday talablar sirasiga korxona mahsulotlarining ma'lum bir sifat mezonlariga javob berishi va iste'molchilarga mahsulotlar yetkazib berishda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik kabilarni kiritishimiz mumkin.

Klaster dinamik tuzilma hisoblanadi: uning tarkibi va unga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining o'zgarishi mumkinligi klasterning iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning boshqa shakllariga nisbatan ustun jihatlaridan biridir.

Mamlakatimizda tarixan tarkib topgan vaziyat, uzoq yillar mobaynida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va vertikal integratsiya aloqalarining ustun bo'lib kelganligi bir qarashda mamlakatimiz uchun osiyo modeli mos kelishini ko'rsatsada, bizning fikrimizcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki tashabbuslari klasterlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiy yo'sinda korxonalarini «yuqoridan»sun'iy ravishda integratsiyalashga undash holatida hududiy ishlab chiqarish majmualariga o'xshash tuzilmalarning vujudga kelsada, bunday holatda klasterlarni tashkil etishdan ko'zlangan asl maqsad o'z ahamiyatini yo'qotadi. Shu sababli ham agrosanoat klasterlarini tashkil etishda iqtisodiy jihatdan asoslangan shart-sharoitlar va tarixan tarkib topgan vaziyat lozimligini unutmasligimiz lozim.

Shu bilan bir qatorda bir qator tadqiqotchilar hududiy iqtisodiy klaster modeliga davlat boshqaruvi organlarini kiritadilar va hududiy rivojlanish strategiyalarida klasterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari muhim o'rin tutishini ta'kidlaydilar¹⁰⁵. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, agrosanoat majmuida klasterlarni tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'yishda davlat va xususiy sherikchilik munosabatlariga alohida urg'u berish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi mazkur sohadagi nafaqat tashkiliy ishlarni balki investitsiyalash masalalarini ham osonlik bilan hal etish imkonini beradi. Klasterlar byudjet mablag'lari, investorlarning

¹⁰⁵Ataniyozov J.X. O'zbekistonda integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning istiqbolli yo'nalishlari// Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil

mablag'lari yoki ularning ikkisidan ham birdek foydalangan holda tashkil etilishi mumkin.

Klasterlarni turlicha talqin qilish va klasterlarning turli modellarining mavjudligi klasterga bir-biri bilan o'xshash jihatlari ko'p bo'lgan turli xil ta'riflarni keltirib chiqargan. Masalan I.N. Goretov agrosanoat klasterini «qo'shilgan qiymat yaratishning texnologik zanjiriga kiruvchi va agrosanoat majmuining turli sohalarini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi asosida tashkil etilgan, innovatsion yo'naltirilgan va tarmoqli tashkillashtirish elementlariga ega hududiy-lokal integratsion tuzilma»¹⁰⁶ sifatida ta'riflaydi.

V.A. Kundius i N.A. Golovinlar esa agrosanoat klasterini «innovatsion faoliyatni faollashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish maqsadida savdo-ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va ma'lum bir hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning o'zaro uyg'unligi»¹⁰⁷ sifatida talqin qiladilar. Umuman olganda bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish –agrosanoat majmuidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda agrosanoat klasteriga quyidagicha ta'rif berishni taklif etamiz: agrosanoat klasteri – bu ma'lum bir turdagi qishloq xo'jaligi ekinini etishtirish va shuningdek, ilg'or innovatsion texnika va texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va bozorda mahsulotlarning samarali sotilishini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning hududiy integratsion birlashmasidir.

Mamlakatimiz rahbari 2018 yilning 28 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida va shuningdek, Samarqand viloyatiga amalga oshirgan tashriflarida qishloq xo'jaligida klasterlarni tashkil etish masalasi har qachongidan ham dolzarb ekanligini va bu masala davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida muhim o'rin

¹⁰⁶Goretov I.N. Klasternoe texnologii v upravlenii APK // Vestnik Chuvashskogo universiteta. 2009. № 1. S. 390.

¹⁰⁷Golovin N.A. Kontseptualnoe polozheniya upravleniya integratsionnomy protsessami v mejotraslevoxy produktovoy podkompleksax APK G'G' Vestnik Udmurtskogo universiteta. 2012. № 2 (Vo'p. 4). S. 21.

tutishini ta'kidlab o'tdilar. Agrosanoat majmuida klasterlarni tashkil etish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari A.Bekmuradov, N.Yo'ldoshev, M.Boltabaev, Sh.Madjidov, D.Mirzaxalilova, D.Kurbanova, G.Zaxidov kabilar tomonidan atroflicha yoritib berilgan¹⁰⁸.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida klasterlarni tashkil etish borasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar viloyatlarda tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi sohasidagi klasterlarda to'planayotgan amaliy tajribalar bilan yanada boyib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi qaroriga muvofiq, respublika hududlarida 16 ta paxta-to'qimachilik klasteri tashkil qilinib, qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydoni birlashtirilgan. 2019 yilda respublika bo'yicha klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga yetkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Mamlakatimiz agrosanoat majmuida klasterlar faoliyatini tashkil etish borasidagi ishlarning boshlanganligiga uncha ko'p muddat bo'lmagan bo'lsada, o'rganishlar bu borada bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda :Klasterlar faoliyatini tartibga solish bo'yicha yagona normativ-huquqiy hujjat qabul qilinmagan, hamda ularning muammolarini tezkor hal etishga amaliy yordam ko'rsatuvchi yagona tizim mavjud emas;

Mahalliy hokimliklar tomonidan klasterlar uchun yer maydonlarini o'z vaqtida ajratish borasida muammolar mavjud;

Klasterlarning aylanma mablag'lari etishmasligi sababli ular tomonidan qo'shimcha mineral o'g'itlar va kimyo vositalarini import qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda;

Banklar tomonidan klasterlarga kredit mablag'lari ajratilishida bo'lg'usi hosilni garovga qo'yish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan.

¹⁰⁸Zaxidov G.E. "O'zbekiston engil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2017 yil.

Mavjud muammolarni bartaraf etish va mamlakatimiz hududlarida klasterlar faoliyatini kengaytirish maqsadida hukumat qarori bilan maxsus ishchi guruh tashkil etildi.

Yuqorida bayon etilganlar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va boshqa korxona –tashkilotlarning integratsiyalashgan tuzilmasini barpo qilishda agrosanoat majmuida faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlardan biri tashabbuskor bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu o'rinda integratsion tuzilmani tashkil etish tashabbuskori yoki tashabbuskorlar guruhining mahalliy hokimiyat idoralari, ilmiy hamjamiyat va oliy ta'lim muassasalarining vakillari bilan o'zaro yaqindan hamkorligi talab etiladi. O'z navbatida hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taklif etamiz:

1. Integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tuzish, ishlarni amalga oshirish tartibi, muddatlari va moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirib olish. Ishchi guruh quyidagi variantlardan birini ifoda etishi mumkin:

- ekspertlar sifatida mahalliy hokimiyat idoralari mutaxassislari va tarmoq korxonalari vakillaridan iborat bo'lgan ishchi guruh;

- ma'lum bir xizmatlar ko'rsatish maqsadida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat ko'rsatuvchi konsalting kompaniyalari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy hokimiyat idoralari vakillari;

- ta'sislaridan biri mahalliy hokimiyat idoralari bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot.

2. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash Strategiyasi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish Strategiyalari va mazkur yo'nalishlarda ishlab chiqilgan Dasturlarda ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini e'tiborga olgan holda integratsiyalashgan tuzilmani tashkil etishning maqsad va vazifalarini asoslash.

3. ASM tarmoqlari va korxonalari o'rtasida iqtisodiy jihatdan asoslangan, istiqbolli texnologik va ishlab chiqarish aloqalarini aniqlashtirish.

4. Integratsion tuzilmaning boshqaruvchi organini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

5.integratsiyalashgan tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari tarkibi va ularning vazifalarini aniqlashtirish.

6. Birlashmaning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlab olish.

7. Integratsion tuzilmaning ehtimoliy ishtirokchilari uchun talablarni ishlab chiqish.

8. Integratsion tuzilma ehtimoliy ishtirokchilarining ishlab chiqarish va moliyaviy-xo`jalik faoliyatini taftishdan o`tkazish.

9. Integratsion tuzilmaning muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatishi va unga to`sqinlik qiluvchi omillar va shart-sharoitlarga oydinlik kiritish, mavjud to`siqlarni engib o`tish yo`llarini izlab topish.

10. Integratsion tuzilmani tashkil etish, shu jumladan sinergetik samaraga erishishning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish.

11. Integratsion tuzilma faoliyati samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish.

12. Korxona va tashkilotlarning integratsion jarayonlari sxemasini aniqlashtirish.

13. Integratsion tuzilma ishtirokchilarining o`zaro aloqalarining tartib-tamoyillarini mustahkamlovchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

14. Mahalliy hokimiyat idoralari bilan integratsion tuzilmaning o`zaro munosabatlari mexanizmini shakllantirish va davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash imkoniyatlariga aniqlik kiritish.

15. Monopoliyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar xulosasini olish.

16. Integratsion tuzilmani tashkil etish borasida shartnomalar loyihasini ishlab chiqish, uni atroflicha muhokama qilish va imzolash.

Har bir hudud doirasida integratsion tuzilmalarni barpo etish bo`yicha uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqish orqali yuqorida keltirib o`tilgan savollarga osonlik bilan javob topishimiz mumkin bo`ladi. Yuqorida bayon etilganlardan xulosa qilgan holda, aytishimiz mumkinki agrosanoat majmuida tashkiliy-iqtisodiy faoliyatni yo`lga qo`yish bilan bog`liq bo`lgan masalalar ko`lami juda ham kengdir. Agrosanoat majmui milliy iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biri

hisoblanadi, chunki u mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Globalashuv sharoitida raqobatning tobora shiddatli tus olishi agrosanoat majmui korxonalari va tashkilotlari o'rtasida o'zaro aloqalarning samarali usul va vositalarini ishlab chiqishni va hayotga izchil joriy etishni talab etadi. Agrosanoat majmuida integratsion tuzilmalar faoliyatini yo'lga qo'yish unga kiruvchi tarmoqlarning raqobatbardoshligi, samaradorligini oshirish, pirovardida esa mazkur tarmoq va sohalarning investitsion jozibadorligining yaxshilanishiga xizmat qiladi. ASMdagi integratsion tuzilmalar qatorida klaster tuzilmalari muhim o'rin egallaydi. Aynan klasterlar kichik va yirik korxonalarning o'z imkoniyatlarini birlashtirishlariga imkoniyat yaratib beradi. Bunda yirik korxonalar iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi lokomotiv sifatida maydonga chiqsa, kichik korxonalar o'rtasidagi raqobat ularni o'z faoliyatlari samaradorligini oshirishga va ishlab chiqarayotgan mahsulotlari sifatini yaxshilashga undaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun bugungi kunda hududlarni kompleks rivojlantirish masalalarini atroflicha qamrab olgan yaxlit iqtisodiy siyosat tamoyillarini amalga oshirish har qachongidan ko'ra muhimroqdir.

Hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, hududlarga investitsiyalarni faol jalb etish orqali innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun zamin yaratishda hududlarning tabiiy-iqlim va geografik joylashuv o'rnini, hududda an'anaviy tarzda rivojlanib kelayotgan xo'jalik yuritish shakllarini, infratuzilma obyektlarining rivojlanganlik darajasini hisobga olish ahamiyatlidir.

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

E'tirof etish joizki, bugungi kunda viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish hisobidan hududlarni barqaror rivojlantirishga erishish,

aholi bandligini ustuvor ta'minlashga erishish, barcha mavjud resurslar salohiyatidan oqilona foydalanishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz tarkibiga kirgan har bir viloyat, tuman ma'lum obyektiv qonuniyatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, geografik va hududiy joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanganlik darajasi, hududlarning demografik holati va aholining joylashuvi, shuningdek, iqlimi, suv va tabiiy resurslar salohiyatiga egaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida foydali qazilma va mineral xomashyo resurslari juda kam, Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi foydali qazilma va mineral xomashyo resurslarga boy, Jizzax, Samarqand viloyatlari ushbu resurslar mavjud hududlar qatoriga kiradi.

Mamlakatimiz yoqilg'i - energetik salohiyatida esa Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlarining salohiyati yuqori. Yurtimiz aholisi ham viloyatlar bo'yicha notekis joylashgan. Masalan, Andijon viloyatida 1 kvadrat kilometrga to'g'ri keladigan aholi soni 665 kishini, Navoiy viloyatida esa 8,2 kishini tashkil etadi. Viloyatlar va tumanlarning yer-suv resurslari, iqlim sharoitlari ham kam bo'lsa-da, farqlanadi. Yer-suv resurslarining sifatida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Toshkent, Jizzax va Samarqand viloyatlarida tabiat bilan bog'liq ekologik turizmni rivojlantirish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud.

Yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon kabi jahonga mashhur turistik shaharlar mavjud. Turizm sohasida deyarli barcha viloyat va tumanlarda imkoniyatlar etarli, ammo yuqorida sanab o'tilgan hududlarda mutlaq va nisbiy ustunliklar ko'proq sanaladi. Yana bir jiddiy farq - hududlarda iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va insonlar yashashi uchun zarur ne'matlar bilan ta'minlash imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Ana shunday murakkab holat sharoitida barcha viloyat va tumanlarni barqaror va jadal rivojlantirish, ular o'rtasidagi tafovutlarning juda kattalashib ketishiga yo'l qo'ymaslik mamlakatimiz rahbariyatining jiddiy e'tibor berayotgan masalalari qatoriga kiradi. Olib

borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasiga ko`ra, hududlarning rivojlanishida, ularning iqtisodiyotining tarkibida sezilarli farqlar mavjud.

Mamlakatimizning barcha viloyat va tumanlaridagi mavjud imkoniyatlarni chuqur o`rganish, iqtisodiyotini ilmiy, amaliy tahlil etish asosida viloyat va tumanlarda, chekka qishloqlarda ham sanoat, qishloq xo`jaligi, xizmat ko`rsatish sohalarini keng rivojlantirish ko`zda tutilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadlaridan bir yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Hududlarning tabiiy-resurs, ishlab chiqarish va kadrlar salohiyati, hududdagi ekologik vaziyat, hududda yashovchi aholi mentaliteti, hudud landshaftlarining madaniy jihatdan o`zlashtirilganlik darajasi va shu kabilar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning istiqbolli dasturlari va rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy-tarixiy yondashuvga asoslangan tahlil g`arb mamlakatlarida yangi samarali kooperatsiya shakllari va klaster strategiyalari 1970-yillarda boshlangan globallashuv jarayonlari va informatsion-texnologik inqilob natijasida shakllanganligini ko`rsatadi. Bir qator mamlakatlarda klasterga xos belgilarni o`zida mujassamlashtirgan firmalar guruhi bundan chamasi 100 yillar oldin ham mavjud bo`lgan bo`lsada, biroq aynan bugungi kunga kelib axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi hisobiga yuqori raqobatbardoshlikka ega bo`lgan ilmiy-tadqiqot, ta`lim va ishlab chiqarish korxonalarining kooperatsiyasi rivoj topa boshladi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab klasterlar korxonalarning geografik kontsentratsiyasi sifatida butun dunyoda hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishning asosiy dastaklaridan biri sifatida muhim o`rin egallay boshladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni klasterli tahlil qilish va klaster strategiyalari mamlakatimiz iqtisodiy fanida hali keng quloch yozmagan bo`lsada, sobiq ittifoq davrida hududiy-sanoat komplekslari anchagina taraqqiy etganligini ta`kidlab o`tish lozim.

Korxonalar va ularning hamkorlari o`rtasida kooperatsiyaning klaster shaklining rivojlanishi ularning transaksion xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi, ishtirokchilarning o`zaro samarali aloqalari, ko`lam samarasi, mahsulotlarni standartlashtirish, ishtirokchilar o`rtasida raqobat kurashining saqlanib qolishi, boshqaruvda innovatsion tavsifga ega bo`lgan usul va vositalardan foydalanilishi hisobiga yuqori sinergetik samaraga erishiladi.

Klasterlar iqtisodiy faoliyatning o`zaro bog`liq bo`lgan va eng samarali turlarini birlashtirgan holda, hududning mahalliy, milliy va jahon bozorlaridagi o`rnining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli ham mamlakatimizning har bir hududini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida klasterli yondashuvning resurs imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish va shu asosda har bir hududning tabiiy-iqlim sharoitlari va ixtisoslashuv darajasidan kelib chiqqan holda klasterlar faoliyatini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratish talab etiladi.

Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda ilmiy va texnologik infratuzilmaning mavjudligi va shuningdek, salohiyatli ishtirokchilarning bilimlarni uzatish va kooperatsiyaga ruhiy jihatdan tayyorligi, ular o`rtasidagi ishonch darajasining mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilaridan ma`lum bir bilimlarni va madaniyatni talab qilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Yuqori samara bilan rivojlanib borayotgan klasterlar va klasterlarning erishgan iqtisodiy natijalari, ularning ta`lim, ishlab chiqarish va ilmiy tashkil etuvchilarining mavjudligi «bilimli inson»ning shakllanishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sezilarli darajada ta`sir ko`rsatgani holda, hududlarga o`zlarining ishlab chiqarish va texnologik salohiyatini oshirish, samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini shakllantirish, raqobat ustunliklarini yanada mustahkamlash imkoniyatini ta`min etadi.

Aynan klaster mexanizmi yordamida mamlakatimiz korxonalari va hududlarini eng avvalo ichki aloqalar mexanizmini intensivlashtirish hisobiga rivojlanishning innovatsion yo`liga burishimiz mumkin bo`ladi.

Bugungi kunda «klaster siyosati» tushunchasi ning mamlakatimiz iqtisodiy hayotiga moslashuvi jarayoni kechmoqda.

Qishloq xo'jaligi va engil sanoatni istiqbolda barqaror rivojlan-tirishning strategik yo'nalishi bo'lib xom-ashyoni etishtirish va uni yetkazish bosqichidan boshlab, birlamchi qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga qamrab olgan integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayonda rivojlanishning klasterli modelini joriy etish alohida ahamiyatga ega (2-rasm).

Hududlarda klasterlashtirish jarayonini kengaytirish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- sanoat tarmoqlarida klasterli rivojlanish faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish;
- klasterlarni tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish;
- yangi raqobat afzalliklarini shakllantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qobiliyatli sanoat klasterlarini tashkil etish;
- klasterlar faoliyatining barcha bosqichlarida innovatsion muhitni shakllantirish.

Xususan, mazkur islohotlar natijasida tashkil etilayotgan paxtachilik – to'qimachilik klasterlari tizimida birinchidan davlatning rolini qisqartiradi;

ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantiradi;

uchinchidan paxta va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning samarali usullarini joriy etish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi;

to'rtinchidan xom-ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil qilishni to'liq qamrab oladi shuningdek, agrar sektorda mehnat unumdorligini va kafolatlangan haq to'lashni ta'minlab berishi bilan izohlasak bo'ladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish asosida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek mazkur sohada unumdorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi «Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-

to`qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ–3279-sonli Qarorining qabul qilinishi muhim o`rin tutdi. Mazkur qarorga asosan paxta xomashyosini etishtirish va qishloq xo`jaligi mahsulotlarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, ularni chuqur qayta ishlash va tijorat banklari investitsiyalari hamda kreditlarini, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hisobiga raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish bo`yicha zamonaviy klaster «Vek cluster» ma`suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo`shma korxona tashkil etildi.

«Vek cluster» MChJ QK tarkibiga quyidagi tashkilotlar kiritildi:

1. Paxta xomashyosi va boshqa qishloq xo`jaligi ekinlarini etishtirish bo`yicha qishloq xo`jaligi tashkilotlari.
2. Paxta xomashyosini qayta ishlash bo`yicha tashkilot.
3. Yog`-moy mahsulotlari ishlab chiqarish bo`yicha tashkilot.
4. To`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo`yicha tashkilot.
5. Tuxum, go`sht va sut ishlab chiqarish hamda qayta ishlash bo`yicha tashkilot (chorvachilik va parrandachilik majmuasi).
6. Sabzavotlar etishtirish bo`yicha tashkilot (zamonaviy issiqxona majmuasi).
7. Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo`yicha tashkilot.

Jahon tajribalarida klaster tizimi asoschilaridan biri sifatida Garvard biznes maktabining professori Maykl Porter fikriga ko`ra, rivojlangan va rivojlanayotgan soha yoki tarmoqlar aynan klasterni tatbiq etish yoki uning ba`zi bir elementlaridan foydalanish orqali yuqori natijalarga erishgan. U tomonidan jami 9 ta mamlakatda 100 dan ortiq tarmoqlarni tahlil qilgan va shunday xulosaga keladiki, yuqori raqobatdoshlikka ega bo`lgan transmilliy kompaniyalarning rivojlanishi bir nechta davlatlarga bo`linib ketgan tashkilotlarning mustaqil harakat qilishi orqali emas, balki tizimli ravishda bitta davlat yoki bitta mintaqaga kontsentratsiyalashuvi orqali erishganligini ko`rsatmoqda.

Mazkur korxonaga qarorga muvofiq, 18 ming gektar sug`oriladigan yer ajratildi (Mirzaobod tumanida - 13 ming gektar, Xovos tumanida - 5 ming gektar). «Vek cluster» MChJ QK va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar o`zi ishlab

chiqargan mahsulotlarni erkin tasarruf etadi, narxlarni shakllantirish siyosatini va mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini mustaqil belgilaydi. Biroq etishtirilgan paxta xom ashyosidan faqat keyinchalik chuqur qayta ishlash uchun foydalanishi o'z navbatida yangi kafolatlangan zamonaviy ish o'rinlarni yaratish orqali hududa ijtimoiy masalalarni yechimini topishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda qulay investitsion muhitni rivojlantirishga ushbu qarorda ko'zda tutilgan afzalliklar tahlil qiladigan bo'lsak, 2022 yilgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha «Vek cluster» MChJ QK tomonidan investitsiya loyihalari doirasida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinadigan asbob-uskunalar, maxsus transport va texnika, hayvonlar va o'simliklar, veterinariya preparatlari, butlovchi buyumlar, hom ashyo va materiallar, qurilish materiallari, issiqxona komplekslari bojxona to'lovlaridan ozod etilishi (bundan bojxona yig'implari mustasno)kabi imtiyozlar tugallangan ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratishda nechog'lik ahamiyatli ekanligini e'tirof etish mumkin.

Bundan tashqari, «Vek cluster» MChJ QK moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun o'zining tarkibiga kiradigan tashkilotlarning so'mdagi mablag'larini jamlashi va mablag'ni ularning o'rtasida taqsimlaydi, uning tashkilotlariga va ular o'rtasida olinadigan va beriladigan o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish oboroti bilan bog'liq bo'lmagan pul mablag'lari va mol-mulk, shuningdek sof foydani taqsimlash soliq solish obyekti hisoblanmaydi, mazkur korxona qishloq xo'jaligi tashkiloti yagona ijtimoiy to'lovni kichik korxonalar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'laydi.

«TRONTEX LP» (Buyuk Britaniya) va «GRATUM TRADING LP» (Buyuk Britaniya) xorijiy kompaniyalari – muassislar bilan birgalikda o'tkazilgan marketing tahlili asosida mahsulotlarni sotish bozorlarida shakllanadigan narxlarda yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulotlarni eksport qiladi.

«Vek cluster» MChJ qo'shma korxonasining maqsadli faoliyatini quyidagilarda ko'rish mumkin. Xususan, klasteryagona zanjirda jamlangan

taraqqiyot yo`li sifatida baholasak, bu jarayon to`rt bosqichga bo`lgan holda ko`rsak bo`ladi.

Birinchi bosqich agrar tarmoq yumushlari – sanoatbop xomashyo etishtiruvchi jabha bo`lib, erni ekinga tayyorlashdan, to hosilni yig`ishtirib olguncha bo`lgan jarayonni o`zi ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich xom-ashyoni birlamchi qayta ishlash – hosilni tola, urug`, chigit kabi mahsulotlarga aylantirishni o`z ichiga oladi. Bunga qurilish sohasi uchun g`o`zapoyani tayyorlashni ham qo`shsa bo`ladi.

Uchinchi bosqich chuqur qayta ishlash jarayonini hisoblanadi. Bunda paxta xomashyosidan olingan birlamchi mahsulotlar iste`mol uchun tayyor mahsulotga aylanadi. Jumladan, toladan ip-kalava va undan mato, tayyor kiyim-kechaklar, chigitdan o`simlik moyi, xo`jalik sovuni, chorva uchun ozuqa, farmatsevtika uchun kerakli mahsulotlar olinadi. Zaruriyat bo`lsa, g`o`zapoya qayta ishlanib undan issiqxona uchun biogaz tayyorlanadi va ushbu jarayonlarni yana davom ettirish mumkin.

To`rtinchi bosqichda birinchisi bilan o`zaro bog`lanadi – haqiqiy uzilmas zanjirni hosil qiladi. Ya`ni olingan ozuqa hisobiga chorvachilik majmui tashkil etilib, undan olingan mahsulotlarni qayta ishlash orqali oziq-ovqat sanoati uchun go`sht-sut etishtirish, uni qayta ishlash natijasida esa bozorga 10 dan ortiq qo`shimcha turdagi tayyor mahsulot chiqarish orqali qo`shimcha qiymat yaratadi.

Xulosa o`rnida paxtachilik-to`qimachilik klasteri tizimida quyidagi afzalliklarni va ijobiy jihatlarni ajratib ko`rsatish mumkin:

Xususan, klaster korxonasi paxta xom ashyosini etishtiradi, o`ziga qarashli bo`lgan paxta qabul qilish punktiga yo`naltiradi, saqlaydi, tashish va qayta ishlash, ekiladigan urug`lik chigitni tayyorlash bo`yicha ishlarning butun kompleksini mujassamlashtirgan holda tashkil etadi va amalga oshiradi, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli paxta mahsulotini tayyorlash bo`yicha zamonaviy ishlab chiqarishni yo`lga qo`yadi;

mazkur jarayonlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali hisobga olish hamda nazorat qilish ishlarini tashkil etadi;

modernizatsiya jarayonlarini amalga oshiradi, zamonaviy yuqori unumli uskunarlar va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qiladi, hatto ushbu texnologiyalarni o'zining tarkibiga kiruvchi korxonalarida ishlab chiqaradi, tarmoqqa investitsiyalar, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb etishni yanada rag'batlantiradi;

ilmiy-texnik va tajriba-eksperimental tadqiqotlarni rivojlantirish, paxtachilik tarmog'iga innovatsion g'oya, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish orqali uzviy aloqalarni tiklaydi hamda o'zining tarkibida ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish samarasi bu boradagi ishlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi;

klaster tarmog'i korxonalarining kadrlarini, shu jumladan xorijiy ta'lim muassasalarini jalb etgan holda qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tizimli asosda tashkil qilish, shuningdek, paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish sohasida chet davlatlarning yetakchi tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Klaster tizimida iqtisodiy salohiyatidan foydalanishda qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantiradi, paxta hosildorligini hamda mehnat unumdorligini oshirish hisobiga paxtani faqat rentabelligi bor joylarda ekish orqali qisqartirilgan paxta maydonlarida tabiiy iqlim sharoitiga mos hudud uchun yangi, ayni paytda o'ta daromadli hisoblangan ziroat turlari joylashtiriladi. Shu jumladan, raps, kungaboqar, kunjut, soya kabi moyli ekinlar, achchiq qalampir, salat bargi, barokko karami singari sabzavotlar, no'xat, mosh, loviya kabi dukkaklilar, dorivor o'simliklarni etishtirish anorzor, intensiv bog' va tokzor barpo etish kabi qator yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Bu esa aholi dasturxonini noz-ne'matlar bilan to'ldirish barobarida, hudud eksport salohiyatini oshirishda ayni muddaodir.

Agrar sohada boshlangan islohotlar uzviyligi, izchilligi ta'minlanishi g'oyatda ahamiyatli. Negaki, samara ana shunda seziladi. Shu ma'noda, paxta maydonlarini maqbullashtirish harakati davomiyligi bilan dehqonu fermerlar daromadini oshirishda mustahkam poydevor yaratmoqda.

Yuqoridagilardan ko`rishimiz mumkinki, mazkur paxtachilik-to`qimachilik klasterining shakllantirilishi yirik integratsiyalashgan sanoat tuzilmasining vujudga kelishiga va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida aholi iste'moli uchun zarur bo`lgan yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, hududiy iqtisodiy salohiyatning yanada yuksalishiga imkon yaratadi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan ijobiy siljishlarga qaramasdan, ularni kompleks va muvozanatli rivojlantirish, sanoat va xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlash, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va shu asosda yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, aholining, ayniqsa hududlarda yashovchilarning hayot darajasi va sifatini izchil oshirib borish bilan bog`liq tizimli muammolar mavjuddir. Aynan shuning uchun, hududlarda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash negizida tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi o`z ichiga texnologik aloqador korxonalarni qamrab olgan integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirish va ular faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Yuqorida tahliliy ma'lumotlarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish, qishloq xo`jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg`or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifa ekanligini tushunib olish muhimdir.

Mavzuga oid qisqacha xulosalar

1. Klaster modeli mavhum nazariy g`oya emas, u o`zlashtirilishiga yaxshi mos keladi va boshqaruv amaliyotiga aniq «chiqish» ga ega. «Klasterlarga bo`lgan qiziqish kuchayib ketdi, chunki ular iqtisodiy haqiqatni tasvirlashning bir yo`li emas, balki amaliy ta'sir mexanizmidir.

2. Ta'kidlash joizki, tashkilotning klaster shakli maxsus innovatsiya shaklini - «jami innovatsion mahsulot»ni yaratishga olib keladi. Bu xususiyat tufayli sektoral xarakterga ega klasterlar turli xil ilmiy va texnologik kashfiyotlarning o`z-o`zidan konsentratsiyasiga emas, balki yangi axborot va texnologiyalarni tarqatish uchun barqaror tizim paydo bo`lishiga olib keladi. Ushbu ixtironi innovatsiyalarga

aylantirish uchun katalizator va innovatsiyalarni raqobatbardosh afzalliklarga aylantirish uchun barcha klaster a'zolari o'rtasida barqaror aloqa tarmog'i shakllanadi.

3. Klasterlarning mintaqaviy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi mahalliy xom-ashyolar va inson resurslarini, ularning o'zaro bog'liqligini anglatadi va butun mintaqaning iqtisodiyoti va iqtisodiyotini rivojlantirishga sinerjistik ta'sir ko'rsatadi.

4. Mintaqaviy klasterlarning innovatsion rivojlanishining nafaqat firmalarning innovatsion faoliyatidagi hamkorligi, balki yangi ma'lumotli avlod muhitlari - universitetlar, tadqiqot markazlari, shuningdek, texnologiyalar transferi agentliklari, biznes uyushmalari va moliyaviy institutlarning hamkorligi asosida yaratilgan innovatsion rivojlanish mintaqaviy innovatsion tizimni tashkil etadi.

5. Dasturlarning maqsadli yo'nalishi bo'yicha klasterli yondoshuvdan foydalanish mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining samarali vositasi bo'lib, bir tomondan ichki va mintaqalararo hamkorlik salohiyatiga erishishga imkon beradi, ikkinchidan, bu korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

6. Klasterlarni shakllantirish bosqichida uning rivojlanishida davlat boshqaruvi organlari yetakchi rol o'ynaydi va uning vazifasi potentsial klaster a'zolarini: asosiy, qo'llab-quvvatlovchi va tegishli tarmoqlar, ilmiy va moliyaviy institutlar, hamkorlik tashkilotlari kompaniyalarini safarbar qilishdir.

Nazorat savollari

1. Klaster so'ziga iqtisodiy kategoriya sifatida ta'rif bering?
2. Klasterlar innovatsiyalarning rivojlanishiga qanday hissa qo'shadi?
3. Germaniya klasterini rivojlantirish modelini tushuntirib bering?
4. Fin klasterlarining rivojlanishidagi eng muhim tendentsiyalar nimalardan iborat?
5. Mintaqaviy darajada klasterli yondoshuvning afzalliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Klasterlashtirishni zaif tomonlari nimalarda ko'rinadi?

7. Mamlakatimizda klaster siyosati qanday iqtisodiy ko`rsatkichlar bilan izohlanadi?

8. Davlatning klaster siyosatini yuritishda roli qanday?

9. Agrosanoat majmuining tashkiliy-ishlab chiqarish muammolari nimalarda deb hisoblaysiz?

MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANIDAN TEST

SAVOLLARI

- 1. Nechanchi yildan boshlab O`zbekistonda davlat byudjeti defitsit bilan bajarilmoqa?**
 - a) 2016
 - b) 2004
 - c) 2000
 - d) 2010
- 2. Atmosferani ifloslantiruvchi korxonalar asosan qaysi viloyatlarga to`g`ri keladi ?**
 - a) Toshkent, Qashqadaryo, Farg`ona, Buxoro, Navoiy
 - b) Toshkent, Xorazm, Farg`ona, Buxoro, Navoiy
 - c) Toshkent, Qashqadaryo, Farg`ona, Buxoro, Qoraqalpog`iston Respublikasi
 - d) Samarqand, Jizzax, Farg`ona, Buxoro, Surxondaryo
- 3. Iste`mol tovarlari bozori–bu...**
 - a) bozorda keng istemol buyumlari, madaniy maishiy va kommunal xizmatlari oldi-sotdisi olib boriladi
 - b) bozorda barcha fuqaro ishtirok etadi
 - c) magazinlar, savdouylari, firmalar bozori
 - d) bozor oldi-sotdi obektini tashkil etadi
- 4. Davlat darajasidagi makrostrategiya qanday yo`l bilan amalga oshiriladi ?**
 - a) Markazlashgan resurslarni aniq, mintaqadagi korxona va tashkilotlarga joylashtirish
 - b) Makroiqtisodiy siyosatlar to`g`ri olib borilishi orqali
 - c) Korxonalarga mikroinnovatsiyalar kiritish orqali
 - d) Investitsiyalarni jalb etish orqali
- 5. Mintaqaviy strategiyaning qo`llanish va amalga oshirish zarurligi jihatidan muvofiqlashtiruvchi to`rt omilni ko`rsating ?**

- a) Barcha javoblar to'g'ri
- b) Mintaqaviy rivojlantirishning davlat siyosati, korxonalarning mikroinnovatsiya strategiyasi
- c) Mintaqalar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqsadlari
- d) Makroinnovatsiya mintaqaviy strategiyalarining nuqtayi nazarlari

6. Mobilizatsiya nima ?

- a) O'zining intellektual ishlab chiqarishi va xom-ashyo resurslarini ishga solish hisobiga rivojlanishni ta'minlash
- b) Boshqa mintaqalardan tovar keltirish bilan bog'liqlikni kamaytirish
- c) Mintaqalar darajalarini zaruriy resurslarini yo'naltirish hisobiga tenglashtirish
- d) Resurslarni alohida mintaqalar orasida mutanosib ishlangan parametrlar bo'yicha taqsimlash

7. Konsentratsiya bu ...

- a) Makroinnovatsiya strategiyasini yuqori rivojlangan mintaqalarning chegaralangan doiradagi potensialidan foydalanilgan holda amalga oshirishga intilish
- b) Ayrim ustuvor mintaqalarda azaldan yuksak rivojlanish darajasiga ega davlat resurslarining konsentratsiyalanganligi
- c) To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha chora tadbirlar majmuyi
- d) To'g'ri javob yo'q

8. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?

- a) tovar turlarini ko'paytirish
- b) tovar turlarini birxillashtirish
- c) ixtisoslashish
- d) mehnat taqsimotini kuchaytirish

9. Lokalizatsiya deb nimaga aytiladi ?

- a) Makroinnovatsiya strategiyasining imkon bo'yicha mintaqalarning potensialini jalb etish va rivojlanish hisobiga amalga oshirish

- b) Korxonalar va tashkilotlar xususiy jamg'armalari o'sishiga ko'maklashadigan iqtisodiy usullar
- c) Rivojlanishni intellektual hamda boshqa tur resurslar yordamida va boshqa mintaqalardagi resurslar hisobiga ta'minlash
- d) Xususiy tadbirkorlar investitsion faolligini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmi

10. Hududlarga kiritilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish muhim o`rin tutadi ?

- a) Alohida xizmatlar, to`qimachilik mahsulotlari, neftni qayta ishlash mahsulotlari
- b) Farmatsevtika vositalari, telekommunikatsiya, mineral o`g`itlar
- c) Engil avtomobillar, avtobuslar, elektrotexnika vositalari, meva-sabzavot mahsulotlari
- d) a va b javoblar to`g`ri

11. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo`shma korxonalar eksportining hududiy tarkibida qaysi viloyatlar muhim o`rin tutadi?

- a) Qashqadaryo, Navoiy, Andijon, Toshkent, Farg`ona, Toshkent shahri
- b) Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Farg`ona
- c) Navoiy, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo
- d) Samarqand, Surxondaryo, Andijon, Namangan

12. 2018 yilda O`zbekistonda davlat byudjeti xarajatlarining qancha qismi ijtimoiy sohaga yo`naltirildi?

- a) 59,2 %
- b) 50 %
- c) 60,7 %
- d) 55 %

13. YaIM ni 1 % ga o`stirish uchun ishlab chiqarishga investitsiyalar hajmi necha foizga ortishi lozim ?

- a) 3 %

- b) 4 %
- c) 5 %
- d) 2 %

14. Hududiy siyosat nima ?

- a) Markaziy hokimiyat organlarining hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir o'tkazish maqsadidagi hatti-harakatidir
- b) Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish
- c) Hududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish
- d) Bandlik va farovonlikning muvozanatlashgan taqsimotini o'rnatish bilan shug'ullanuvchi siyosat

15. Hududiy siyosatning bosh maqsadi bu ...

- a) Ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishiga zamin yaratuvchi, mamlakat yoki uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tengsizliklarni kamaytirish
- b) Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish
- c) Davlatning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturi
- d) Ekologik va favqulodda holatlarda davlat tomonidan iqtisodiyotga yordam ko'rsatish

16. Davlat hududiy siyosatining vazifalari to'g'ri keltirilgan javobni toping ?

- a) Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidagi katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o'z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish
- b) Hududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa, axborot va boshqalar) rivojlantirish, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarga yordam ko'rsatish

- c) Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish
- d) Barcha javoblar to'g'ri

17. Hududiy siyosatni amalga oshirish vositalari qanday shakllarda bo'lishi mumkin ?

- a) Davlat buyurtmalarini joylashtirish, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish
- b) Hududlar iqtisodiyoti va ijtimoiy soha obyektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki
- c) Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish
- d) a, b va c javoblar to'g'ri

18. Mehnat unumdorligi - bu...

- a) insonning vaqt birligida malum miqdorda maqsulot yarata olishi
- b) sifatli maqsulot yaratish
- c) farovon qayotga intilish
- d) tejab-tergab ishlatish

19. Hududiy rivojlanishning makroiqtisodiy vositalari davlatning qaysi siyosatlari orqali namoyon bo'ladi?

- a) Soliq, kredit, ijtimoiy, investitsiya, narx
- b) Narx, kredit, proteksionizm
- c) Soliq, kredit, ijtimoiy
- d) Monetar, demping, investitsiya

20. 2018- yilda mamlakatimizda qancha miqdorda paxta etishtirildi?

- a) 3 mln.t
- b) 3,35 mln.t
- c) 2,5 mln.t
- d) 4 mln.t

21. Bugungi kunda O'zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokida nechta korxona faoliyat yuritmoqda?

- a) 137 ta

- b) 122 ta
- c) 103 ta
- d) 154 ta

22. Bugungi kunda o'zbek paxta tolasini sotib oladigan yirik hamkorlari qaysi mamlakatlar hisoblanadi?

- a) BAA, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Shvetsariya, Turkiya
- b) Braziliya, AQSH, Xitoy, Gretsiya, Argentina
- c) Ozarbayjon, Qozog'iston, Italiya, Angliya
- d) Kuba, Kanada, Tojikiston, Hindiston

23. Hududiy moliya nima ?

- a) Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir
- b) Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish
- c) Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish
- d) Byudjet mablag'larini muayyan ma'muriy-hududiy birliklar daromadlarini shakllantirish uchun safarbar qilish

24. Hududiy moliya vositalari qaysi javobda to'g'ri keltirilgan ?

- a) Davlat byudjetidan beriladigan mablag'lar va davlatning makroiqtisodiy siyosati
- b) Korxona va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy kommunal obyektlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, hududiy nobyudjet fondlari
- c) Mahalliy byudjet, munitsipal mulk hisoblanuvchi korxonalarning moliyaviy resurslari
- d) a va b javoblar to'g'ri

25. Byudjet subvensiyasi nima ?

- a) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan mablag'lar

- b) Yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarib berish sharti bilan beriladigan mablag`lar
- c) Hududlar bo`yicha tovarlar qiymatining farqlanishi
- d) Sog`liqni saqlashga ajratiladigan mablag`lar

26. Respublikamizda subvensiyaga ehtiyoji moyilligi ko`proq viloyatlar keltirilgan qatorni ko`rsating ?

- a) Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo, Namangan
- b) Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy
- c) Farg`ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo
- d) Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyati

27. Mintaqaviy siyosat deb nimaga aytiladi ?

- a) Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishi
- b) Mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanishni tartibga solish
- c) Mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari rivojlanishi bo`yicha dastur ishlab chiqish
- d) Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar

28. Mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi bu ...

- a) Aholining turli qatlamlari o`rtasida moddiy ne`matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish
- b) Hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o`-o`zini boshqarish organlari vakolatini oshirish
- c) Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish

d) Barcha javoblar to'g'ri

29. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatning 2 xil usuli qo'llaniladi. Bu usullar qaysilar?

- a) Adolatli, samarali
- b) Samarali, oqilona
- c) Adolatli, texnik
- d) Rejalashtirish, ma'muriy

30. Subventsiya nima?

- a) davlat tomonidan beriladigan moliyaviy yordam puli
- b) qimmatli qog'oz turi
- c) xalqaro shartnoma
- d) nafaqa turi

31. O'zbekistonda hozirgi zamon transportining qaysi asosiy turlari yaxshi rivojlangan ?

- a) Elektr, quvur, temir yo'l, avtomobil, havo
- b) Havo yo'llari, temir yo'llar, avtomobil yo'llar
- c) Elektr, havo, temir yo'llar, oken orqali
- d) Dengiz, havo yo'llari, temir yo'l

32. Suv transporti O'zbekistonni qaysi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar olib borishi uchun xizmat qiladi?

- a) Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston
- b) Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston
- c) Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston
- d) Afg'oniston, Xitoy, Bangladesh

33. Sug'orma dehqonchilik mintaqasi respublika hududining necha foizini tashkil etadi ?

- a) 20 %
- b) 40 %
- c) 30 %
- d) 25 %

34. Respublikamizning cho'l-yaylov mintaqasi asosan qaysi hududlarga to'g'ri keladi?

- a) Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi
- b) Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm
- c) Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo
- d) Navoiy, Namangan, Samarqand

35. Gaz qazib olish bo'yicha asosiy sanoat korxonalari joylashgan viloyatlar bu...

- a) Qashqadaryo, Buxoro
- b) Toshkent viloyati, Navoiy, Andijon
- c) Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Buxoro
- d) Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona

36. Respublikamizda rangli, kamyob va qimmatli metallardan qaysilari mavjud ?

- a) Oltin, mis, simob, rux, qo'rg'oshin
- b) Volfram, nikel, qalay, po'lat
- c) Simob, litiy, temir, ftor
- d) Oltin, mis, kumush, palladiy

37. O'zbekistonda qora metallurgiya sohasida yagona faoliyat ko'rsatayotgan korxona qaerda joylashgan?

- a) Bekobod
- b) Navoiy
- c) Angren
- d) Olmaliq

38. O'zbekistondagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uzunligi qanchani tashkil etadi ?

- a) 42530 km
- b) 61664 km
- c) 79367 km

d) 67274 km

39. Yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) nima ?

- a) Mamlakat hududlarida yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning bozor qiymati
- b) Mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
- c) Mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymati
- d) Yalpi ichki mahsulotda mamlakat hududlarining ulushi

40. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi qachon tashkil etilgan ?

- a) 2008 yil 3 dekabr
- b) 2009 yil 3 sentabr
- c) 2006 yil 10 oktabr
- d) 2007 yil 30 avgust

41. Modernizatsiya bu...

- a) Obyektni yangi talab va meyorlarga moslashtirish
- b) Obyektni texnik shart-sharoit va sifat ko`rsatkichlariga erishtirish
- c) Obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash
- d) Barcha javoblar to`g`ri

42. Makroiqtisodiy ko`rsatkichlar to`g`ri keltirilgan qatorni ko`rsating ?

- a) YaIM, milliy daromad, iqtisodiy o`shish, ishsizlik, inflatsiya
- b) YaIM, ishsizlik, investitsiya, sof eksport
- c) YaIM, YaMM, milliy daromad, to`lov balansi
- d) YaIM, sof daromad, iqtisodiy o`shish, daromad

43. Iqtisodiyotning real sektoriga qaysi tarmoqlar kiradi?

- a) Qurilish, qishloq xo`jaligi, sanoat, transport, aloqa
- b) Qurilish, qishloq xo`jaligi, maorif, sanoat
- c) Sanoat, ta`lim, sog`liqni saqlash, aloqa
- d) Madaniyat, davlat byudjeti, sanoat

44. Stagnatsiya nima?

- a) iqtisodiyotdagi tang holat
- b) xalqaro bitim
- c) bozordagi keskin vaziyat
- d) narxlarning o`shishi

45. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha nazariyalar orasidagi «Bozor mintaqasi nazariyasi» qaysi olimga tegishli ?

- a) Lesh
- b) Tyunen
- c) Veber
- d) Perru

46. Yer ostidagi hom ashyo zaxiralari qanday resurs hisoblanadi?

- a) potensial resurs
- b) iqtisodiy resurs
- c) tabiiy resurs
- d) Qazilma boyliklari

47. Foydali qazilma deb.....

- a) Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalar
- b) Yer qobig'idagi mineral resurslar zaxirasi
- c) Mamlakatda muayyan muddatda qidirilagan, aniqlangan mineral resurslar
- d) Ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan barcha resurslar

48. Respublikamizda umumiy mineral homashyo salohiyati qanchani tashkil qilmoqda?

- a) 3.5trl \$
- b) 2.3 trl \$
- c) 1,8 mlrd \$
- d) 3.9trl \$

49. Har yili respublikamiz konlaridan qancha miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda?

- a) 5.5mlrd \$
- b) 6,4mlrd \$
- c) 4.7mlrd \$
- d) 4.2 mlrd \$

50. Bugungi kunda O`zbekistonda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi necha foizni tashkil qilmoqda?

- a) 70 %
- b) 55 %
- c) 40 %
- d) 50 %

1938-yilda O`zbekistonda qaysi viloyatlar mavjud bo`lgan?

- a) Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg`ona va Xorazm
- b) Buxoro, Samarqand Xorazm va Navoiy
- c) Samarqand, Toshkent, Farg`ona, Surxandaryo va Navoiy
- d) Buxoro, Xorazm, Namangan va Sirdaryo

51. Hozirgi kunda respublikamizda nechta shahar mavjud?

- a) 120ta
- b) 107ta
- c) 146ta
- d) 185ta

52. Mintaqada nechta o`xshash jixatlar mavjud?

- a) 3
- b) 5
- c) 7
- d) 9

53. Transfert to`lovlar, bu:

- a) milliy daromadga qo`shilmaydigan daromad turi;
- b) hukumat tomonidan alohida shaxslarga to`lanadigan to`lovlar;

- c) mahsulot va xizmatlarga uy xo`jaliklari tomonidan to`lovlar;
- d) hamma javoblar noto`g`ri

54. Mintaqa iqtisodiyoti fani qaysi fanlar bilan uzviy bogliq?

- a) tarmoqlararo balans.
- b) xalqaro integratsiya
- c) investitsion loyixa taxlili
- d) Xorijiy investitsiya

55. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishda nechta tamoyilga amal qilinadi?

- a) 5
- b) 7
- c) 8
- d) 3

56. Mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishning qanday usullari mavjud?

- a) b va d javoblar to`g`ri
- b) normativli
- c) ko`rgazmali dasturli
- d) maqsadli,. dasturli

57. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishni muvofiqlashtirish jamg`armasi nechanchi yilda tashkil etildi?

- a) 1975-yil
- b) 1915-yil
- c) 1965-yil
- d) 1955-yil

58. Mintaqaviy iqtisodiyot qanday talablarga javob berish kerak?

- a) Nazorat kompleks tarzda bo`lishi lozim
- b) iqtisodiy matematik
- c) keng ko`lam daraja xisob kitoblari
- d) tashkiliy – iqtisodiy

59. Ishchi kuchini ishlab chiqarishga qanday omillar tasir etadi?

- a) ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishi
- b) mintaqani ishchi kadrlar bilan taminlash
- c) maxalliy xokimiyat idoralari
- d) mexnat resurslarini prognoz qilish

60. Daromadni qo'llashni Keynes nazariyasi necha qismga bo'lingan?

- a) 3
- b) 8
- c) 12
- d) 5

61. Mintaqa qishloq xo'jaligining ekin maydoni qanday aniqlanadi?

- a) to'g'ri javob b,c
- b) urug'ga ehtiyoj aniqlanadi
- c) em xashak fondi aniqlanadi
- d) chorva mahsulotiga ehtiyoj aniqlanadi.

62. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qanday nazariyalarga ajratiladi?

- a) statik va dinamik
- b) mutloq va nisbiy
- c) lounxard va veber
- d) statik va nisbiy

63. Standartlar nazariyasiga muvofiq sanoatni joylashtirishga qanday omillar orqali aniqlanadi?

- a) korxonalarni joylashtirishda transport xarajatlari, arzon ishchi kuchi va sanoat rayonlarini joylashtirishni hisobga olgan holda
- b) korxonalarni joylashtirishda malakali ishchilar va aholi bandligi orqali hisobga olgan holda
- c) korxonalarni joylashtirishda texnika va texnologiyalarni hisobga olgan holda

- d) korxonalarni joylashtirishda resurslar va qazilma boyliklarni hisobga olgan holda

64. Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari qaysilardan iborat?

- a) ishlabchiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish
- b) mintaqalardagi resurslarni hisobga olish
- c) malakali kadrlarni yetishtirish
- d) mintaqalar iqtisodiy rivojlanish tendensiyasini kuchaytirish

65. Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jarayonida mintaqalarda qanday muamo dolzarb bo`lmoqda?

- a) tabiatdan foydalanish muommosi
- b) ekalogiyani buzilishi muommosi
- c) cheklangan resurslar muommosi
- d) ishchi kuchi muommosi

66. Transport ishini tartibga solishda qanday vazifalar bajariladi?

- a) yuklar transport turlariga taqsimlanadi
- b) yuk tashish koyfisenti aniqlanadi
- c) trasporlarni balansi tuziladi
- d) transport faoliyati rejalashtiriladi

67. Aholi turmush darajasini oshirish qanday siyosat bilan bog`liq?

- a) daromad siyosati
- b) ijtimoiy soxa
- c) ijtimoiy siyosat
- d) iqtisodiy barqarorlik

68. Kommunal korxonalar rivojlanish dasturi qanday bo`limlardan iborat?

- a) to`g`ri javob c; d
- b) tarmoqda suvning yo`qolishi
- c) mexnat va ijtimoiy muxofaza

d) ishlab chiqarish bo`limi

69. Havoni muxofaza qilishdagi yo`nalishlar qaysi?

- a) iqlimga salbiy tasir ko`rsatishni kamaytirish
- b) dorivor o`simliklarni takror ishlab chiqarish
- c) o`simliklar qoplami sifatini ta'minlash
- d) yong`oqzorlar miqdorini xisobga olish

70. Mintaqaviy barqarorlashtirishni taqsimlovchi mablag`lar qanday ifodalanadi?

- a) dotatsiyalar subsensiyalar
- b) birjadagi oldi sotdi
- c) savdo sotiq qilish xuquq yig`imi
- d) qimmatli qog`ozlar muomilasini o`tkazish

71. Mehnat bozoriga tegishli muxim masalalardan biri...?

- a) bandlik hajmini aniqlash
- b) mehnatga bo`lgan talabni aniqlash
- c) segmentatsiya tashqi bozorni aniqlash
- d) mulkchilik bo`yicha ma'lumotni aniqlash

72. Ijtimoiy siyosatning obyekti nima?

- a) ijtimoiy soha.
- b) modernizatsiya siyosati
- c) iqtisodiy soha
- d) xizmatlar sohasi

73. Iste'mol savatining qiymat ifodasi nima deyiladi?

- a) eng kam iste'mol byudjeti
- b) eng ko`p iste'mol byudjeti
- c) o`rta iste'mol byudjeti
- d) to`g`ri javob yo`q

74. Jahonda ro`y berayotgan 2008-2012 yillardagi «Moliyaviy - Iqtisodiy Inqiroz» ta'sirida ishsizlar soni qanchani tashkil etdi?

- a) 56 mln kishi
- b) 58 mln kishi
- c) 40 mln kishi
- d) 45 mln kishi

75. Respublikamizda qanday baza barpo qilingan?

- a) huquqiy baza
- b) ijtimoiy baza
- c) siyosiy baza
- d) demokratik baza

76. Respublikamizda metallurgiya sanoatining yetakchi tarmog`i qaysi?

- a) Rangli metallurgiya
- b) qora metallurgiya
- c) ruda metallurgiya
- d) Oltin metallurgiya

77. Bozordagi segmentatsiya qanday amalga oshiriladi?

- a) barcha sektorlar orqali
- b) ish xaqining yuqori darajasi bo`yicha
- c) yosh jixatdan malaka bo`yicha
- d) mexnat bozori shakllanishi bo`yicha

78. Ish xaqi to`lovlar miqdori O`zbekistonda nimaga qarab farqlanadi?

- a) tarmoqlar va lavozimga qarab.
- b) takomillashgan yangi mexanizmga qarab
- c) yillik ta`til to`lovlariga qarab
- d) bandlikni shakllanishiga qarab

79. Transport aloqasini taminlaydigan xalqaro logistika markazi qaysi shaharlarda foydalanishga topshirildi?

- a) Angren – Farg`ona
- b) Guliston – Jizzax

- c) Namangan – Marg`ilon
- d) Andijon – Qo`qon

80. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti bu-?

- a) Barcha javoblar to`g`ri
- b) xududiy moliya-kredit munosabatlarni va mintaqalardagi qimmatli qog`ozlar bozorining shakllanish jarayonini o`rganadi
- c) mamlakat ishlab chiqarishkuchlarining joylashuvini xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, demografik va ekologik xususiyatlarini xamda ularning xudud ichidagi, ududlararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarni o`ganadi
- d) b va c javoblarto`g`ri

81. Mintaqa iqtisodiyoti qanday fan -?

- a) Ijtimoiy fan
- b) Siyosiy fan
- c) Tabiiy fan
- d) Tabiiy resurslarni o`rganuvchi fan

82. O`zbekiston Respublikasida nechta ma`muriy hudud bor?

- a) 14
- b) 12
- c) 16
- d) 13

83. Mamlakatimizdagi mavjud ma`muriy–xudud birliklarni ierarhiya tizimiga ko`ra 3 bo`limga ajratish mumkin bular qaysilar?

- a) yuqori, o`rta, quyi
- b) yuqori, quyi, tashqi
- c) yuqori, ichki, quyi
- d) tashqi, ichki, quyi

84. O`rta bo`g`inga qayerlar kiradi -?

- a) viloyatgabo`y sunuvchi shaharlar qishloq va shahar tumanlari
- b) Toshkent shahri, 12 ta viloyat va qoraqolpog`iston Respublikasi

- c) tumanga buesunuvchi shaharlar qishloquqorolar kengashlari va mahalla yig`inlari
- d) viloyatgabuysunuvchi shaharlar va 12 viloyat

85. Mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar?

- a) iqtisodiy, sanoat, ijtimoiy, tabiiy-iqtisodiy
- b) iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar
- c) qishloq xo'jaligi, iqtisodiy, sanoat, demografik,
- d) ijtimoiy, demofrafik, qishloq xo'jaligi

86. Ijtimoiy siyosat deganda...

- a) ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotiga o'tish
- b) aholi bandligini oshirish
- c) bandligini oshirish davlat hokimiyatining ijtimoiy soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlarni amalga oashirish bilan bog'liq siyosat
- d) b javob to'g'ri

87. Daromad siyosatini qaysi siyosat amalga oshiradi ?

- a) ijtimoiy siyosat
- b) fiskal siyosat
- c) pul-kredit siyosati
- d) valyuta siyosati

88. «Ijtimoiy himoya yili» mamlakatimizda nechanchi yil e'lon qilingan?

- a) 2007 yil
- b) 2005 yil
- c) 2006 yil
- d) 2003 yil

89. Mamlakatimizda necha xil qazilma boyliklar bor ?

- a) 3000 ga yaqin

- b) 1500 dan ortiq
- c) 2000
- d) 4000 ga yaqin

90. O`zbekistonda ko`mirni sanoat usulida qazib olish qachon boshlangan?

- a) 1930 yil
- b) 1945 yil
- c) 1960 yil
- d) 1938 yil

91. Ijtimoiy infrastrukturaga nimalar kiradi?

- a) uy-joy, kommunal xo`jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, sog`liqni saqlash, maorif, maishiy xizmat
- b) tabiiy demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va etnik sharoitlar
- c) uy-joy kommunal xo`jaligi, tabiiy demografik
- d) Barcha javoblar to`g`ri

92. O`zbekistonda birinchi elektr uzatgich liniyasi GESi nechanchi yil va qaerda qurilgan?

- a) Navoiyda 1930 yilda
- b) Buxoroda 1931 yilda
- c) Toshkentda 1933 yilda
- d) Andijonda 1934 yilda

93. Agrofirma deb...

- a) muayyan turdagi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo`shib olib boradigan korxona
- b) qo`shimcha ish kuchi ishlab chiqarish vositasi va resurslarni jalb qilish hisobiga tashkil etilgan korxona
- c) a va b javoblar to`g`ri
- d) zamonaviy dastgohlar bilan jihozlangan korxona

94. Navoiy sement kombinatlarini qachondan ishga tushirilgan?

- a) 1977 yil

- b) 1980 yil
- c) 1978 yil
- d) 1975 yil

95. O`zbekiston oltinining tasdiqlangan zaxiralari bo`yicha dunyoda nechanchi o`rinda turadi ?

- a) 4 o`rinda, qazib olish bo`yicha 7 o`rinda
- b) 5 o`rinda, qazib olish bo`yicha 7 o`rinda
- c) o`rinda, qazib olish bo`yicha 8 o`rinda
- d) o`rinda, qazib olish bo`yicha 10 o`rinda

96. Mamlakatimizda neft va gaz mavjud bo`lgan asosiy mintaqalar qaysilar ?

- a) Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-G`arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg`ona
- b) Samarqand, Navoiy, Buxoro, Hisor, Ustyurt
- c) Ustyurt, Xiva, Jizzax, Surxondaryo, Farg`ona
- d) Toshkent, Buxoro, Andijon, Navoiy

97. Ixtisoslashuv uch turga bo`linadi ?

- a) Qism (detal), texnologik yoki yarim mahsulot, predmet (Tovar mahsulot ishlab chiqarish)
- b) xom-ashyoni chuqur texnologik qayta ishlash, texnologik yoki yarim mahsulot
- c) qism (detal), xom-ashyoni chuqur texnologik qayta ishlash
- d) predmet (tovar mahsulot ishlab chiqarish), moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas

98. Hududiy mehnat taqsimoti nima?

- a) muayyan mamlakat doirasida ayrim hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi
- b) ijtimoy mehnatning turli davlatlar yoki davlatlar guruhi o`rtasida taqsimlanishi
- c) ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan xizmatlarni yaratish
- d) a va b javoblar to`g`ri.

99. Hududlar nechaga bo`linadi va qanday?

- a) davlat hududi, xalqaro va aralash tartibdagi hududlarga
- b) quruqlik shelflari, davlat hududi
- c) xalqaro va aralash tartibdagi hududlarga
- d) qutbiy sektor, xalqaro

100. Aholi migratsiyasi bu...

- a) lotinchadan (migratio) ko`chish, ko`chirish ma`nosini anglatadi. Turar joyining o`zgarishi bilan yakunlanadigan aholining hududiy harakati
- b) bu insonlarning tarixan shakllangan o`xshash, avloddan-avlodga o`tuvchi tashqi belgilari bo`yicha ayrim guruhlaridir
- c) o`zining hayotiy faoliyatini ma`lum ijtimoiy va hududiy jamoalar doirasida amalga oshirayotgan insonlar guruhidir
- d) hammasi to`g`ri.

101. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish nima ?

- a) bozor iqtisodiyotida davlat va jamiyat tashkilotlari tomonidan harakatdagi sotsial-iqtisodiy tizimni o`zgarib turgan shartga moslashtirish maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy, ijro nazorat qilish xususiyatiga ega bo`lgan tadbirlar tizimi
- b) ichki va tashqi faoliyatda bir yilda moddiy va nomoddiy sohalarida qanday millat tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy qiymati bo`lib mamlakatning yaxlit sotsial-iqtisodiy ko`rsatkichi hisoblanadi
- c) a javob to`g`ri
- d) yirik kompaniyalar buyurtmalari va davlat bitimlari bo`yicha ilmiy tekshirish sohalarida muhandislikda, innovatsiyada faoliyat ko`rsatuvchi firmadir

102. Tabiiy resurslar deganda ...

- a) tabiat, tabiiy muhit bilan bevosita bog`liq bo`lgan, jamiyat o`zining ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanayotgan tabiat komponentlaridir

- b) jamiyatni tabiiy va inson resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi
- c) malakatdagi mavjud konlar zaxiralari va ularni qazib olish
- d) Barcha javoblar to'g'ri

103. Respublikamizda nechta uran koni mavjud?

- a) 30 ta
- b) 35 ta
- c) 20 ta
- d) 23 ta

104. Milliy boylik nima?

- a) insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamqarilgan moddiy va ma'naviy boyliklar qamda foydalanishga jalb qilingan tabiat boyliklari;
- b) yalpi ijtimoiy maqsulotning yangidan qosil qilingan va uning qiymatda ifodalanadigan qismidir;
- c) faqat tabiat resurslari majmuining qiymat shakli;
- d) to'g'ri javob yo'q.

105. Byudjet-bu ..

- a) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrgamo'ljallangan pul ifodasidagi daromad va sarf-xarajatlari;
- b) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrgamo'ljallangan pul ifodasidagi sarf-xarajatlari;
- c) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrgamo'ljallangan pul ifodasidagi daromadlari;
- d) to'g'ri javob yo'q.

106. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maxsus arzonlashtirilgan baholar qanday nom bilan ataladi?

- a) dotatsiyalangan baho
- b) demping baho;

c) ulgurji baho;

d) nufuzli baho;

107. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi PF-4947-son Farmoni qabul qilingan sanani aniqlang.

a) 2017 yil 7 fevral

b) 2017 yil 17 yanvar

c) 2016 yil 8 dekabr

d) 2016 yil 4 dekabr

108. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi»da nechta ustuvor yo`nalish belgilangan?

a) 5ta

b) 7 ta

c) 4 ta

d) 6 ta

109. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi»da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari nechanchi ustuvor yo`nalish sifatida belgilangan?

a) birinchi ustuvor yo`nalish

b) uchunchi ustuvor yo`nalish

c) ikkichi ustuvor yo`nalish

d) beshinchi ustuvor yo`nalish

110. «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi»da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

a) Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish

- b) Qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish
- c) Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish
- d) Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash

111. «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish qaysi ustuvor yo`nalishda mustahkamlangan?

- a) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari
- b) Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari
- c) Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari
- d) Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo`nalishlari

112. «2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlariga nechta band kiritilgan?

- a) 3 ta
- b) 4 ta
- c) 5ta
- d) 6 ta

113. Rivojlangan mamlakatlarning milliy boyligida inson kapitalining ulushi necha foizni tashkil etadi?

- a) 80 foizni
- b) 50 foizni
- c) 40 foizni
- d) 25 foizni

114. Ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, aholi daromadlari va hayot darajasini ushlab turish, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy soha tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi -

- a) ijtimoiy siyosat;
- b) ijtimoiy soha;
- c) ijtimoiy ta'minot;
- d) ijtimoiy himoya.

115. Nogironlarga organizmining izdan chiqqan yoki yo`qolgan funksiyalarini tiklashiga va ularni kompensatsiya qilishiga, turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi uchun yordam berishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, jismoniy, kasbga, mehnatga doir chora-tadbirlar tizimi -

- a) nogironlarni reabilitatsiya qilish;
- b) nogironlarni ijtimoiy himoya qilish;
- c) nogironlarni ish bilan ta'minlash;
- d) nogironlarga pensiya va nafaqalartayinlash.

116. Davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo`lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi -

- a) ijtimoiy sheriklik.
- b) ijtimoiy himoya;
- c) ijtimoiy ta'minot.
- d) ijtimoiy siyosat;

117. Respublikada ish bilan band aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bandligi darajasi 2018 yilda:

- a) 79 foiz;

- b) 42,6 foiz;
- c) 75 foiz;
- d) 56,7 foiz.

118. 2014-2018 yillarda davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i –

- a) 58,9-59,2 foiz;
- b) 23,6-24,7 foiz;
- c) 13,1-9,2 foiz;
- d) 8,8-5,4 foiz.

119. Mahalliy iqtisodiy rivojlanish degandamahalliy odamlarning birgalikda mehnat qilib iqtisodiy o'sishiga erishishi, iqtisodiy manfaat va turmush sifatining butun hududda oshishi tushuniladi. Jumlani to'ldiring.

- a) Mahalliy odamlarning birgalikda mehnat qilib iqtisodiy o'sishiga erishishi, iqtisodiy manfaat va turmush sifatining butun hududda oshishi tushuniladi.
- b) Manfaaddor tomonlar orasidakuchli aloqalar o'rnatilishitushuniladi.
- c) ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish,mintaqa xo'jaligining kompleks rivojlantirish, xududiy mehnat taqsimoti
- d) to'g'ri javob yo'q.

120. Respublika hududlarida aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida ajratilgan bank kreditlari hajmi:

- a) 400 000,0 mln.so'm;
- b) 60 000,0 mln. so'm;
- c) 8,5 mln. doll.;
- d) 4 300 000,0 mln. so'm.

121. Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida Jahon

bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, «Salomatlik-3» loyihasi va byudjet mablag`lari hisobidan onalar va bolalarga yuqori malakali tibbiy yordam ko`rsatish uchun tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining 40 ta tug`ruq bo`limlari negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etish maqsadlariga qancha mablag` ajratish ko`zda tutilgan?

- a) 5,8 mln. doll.
- b) 83,85 mln.doll.;
- c) 220 mln.so`m;
- d) 1625,8 ming doll;

122. Mehnat resurslarining erkaklar bo`yicha yosh chegarasini to`g`ri aniqlab bering

- a) 16 - 63
- b) 18 - 55
- c) 16 - 65
- d) 18 - 65

123. Mehnat resurslarining ayollar bo`yicha yosh chegarasini to`g`ri aniqlab bering

- a) 16 - 58
- b) 16 - 65
- c) 18 - 55
- d) 16 - 70

124. Ishchi kuchiga bo`lgan talab nimalardan iborat?

- a) ish beruvchilarning muayyan ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyoji;
- b) ma'lum tarkibga ega bo`lgan ishchi kuchining ish joylariga bo`lgan ehtiyoji;
- c) ishchi kuchi bilan ta'minlanmagan bo`sh ish joylari miqdori;
- d) ishchi kuchi bilan ta'minlangan ish joylari miqdori.

125. Ishchi kuchining taklifi nimalardan iborat?

- a) ish joylari bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi miqdori;

- b) ish joylari bilan ta'minlangan ishchi kuchi miqdori;
- c) ma'lum tarkibga ega bo'lgan ishchi kuchining ish joylariga bo'lgan ehtiyoji;
- d) mehnat birjalariga murojaat qilgan ishsizlar soni.

126. A. Ouken qonuni deganda nimani tushunasiz?

- a) mamlakat miqyosida tabiiy ishsizlikning 1% oshishi YaMM ning 2.5% ga kamayishiga olib keladi;
- b) mamlakat miqyosida inflyatsiya darajasining o'rtacha ko'rsatkichi kamayib borsa, yangi ish joylarining barpo etish 50% ortadi;
- c) tabiiy ishsizlikning o'sishi hech qanday o'zgarishga olib kelmaydi;
- d) aholi bandligi bilan ishsizlik o'rtasida aloqadorlikni aniqlab beradi.

127. Aholining turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar qaysilar?

- a) salomatlik, ovqatlanish, turur joy, uylardagi mol-mulklar, pulli xizmatlar, aholining madaniy darajasi, daromadlar va xarajatlar;
- b) pulli xizmatlar, ovqatlanish, davolanish;
- c) salomatlik, turar joy, malaka darajasi;
- d) ovqatlanish, uylardagi mol-mulklar, daromadlar.

128. Ish haqi nima?

- a) ishchi kuchining qiymat ekvivalenti;
- b) tovar ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlar majmuasi;
- c) tovar ishlab chiqarishga ketgan ishchi kuchiga xarajatlar;
- d) tarif stavkasi bo'yicha to'lanadigan oylik maoshi.

129. Ish haqining asosiy shakllari qaysilar?

- a) ishbay va vaqtbay;
- b) ishbay, ishbay-mukofot, akkord;
- c) vaqtbay, vaqtbay-mukofot, jamoa;
- d) yagona tarif tizimi bo'yicha va tarifsiz.

130. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi qanday usulda tartibga solinadi?

- a) talab va taklif mexanizmi orqali, shuningdek davlat kafolatlari orqali;

- b) bozor mexanizmi orqali;
- c) davlat orqali;
- d) ijtimoiy hamkorlik yo`li bilan.

131. Jinni koeffitsenti nimani ifoda etadi?

- a) daromadlar taqsimlanishini;
- b) xarajatlar taqsimlanishini;
- c) mamlakatdagi ishsizlik darajasini;
- d) ish haqi belgilashning mezonlarini.

132. Mamlakatimizda 2018 yilda turizm xizmatlari eksporti hajmi qancha bo`ldi?

- a) 1 041 million AQSH dollari
- b) 1104 million AQSH dollari
- c) 1401 million AQSH dollari
- d) 1014 million AQSH dollari

133. Mamlakatimizga 2025 yil yakuniga qadar qancha turistlarni jalb qilish belgilab quyilgan?

- a) 9 milliondan ortiq
- b) 11 millionga yaqin
- c) 10 million
- d) 12 million

134. Mamlakatimizda turizm navigatsiyasining yagona qanday tizimini joriy etish ko`zda tutilgan?

- a) unifikatsiyalashtirilgan
- b) tizimlashtirilgan
- c) soddalashgan
- d) diversifikatsiyalashgan

135. Zamonaviy va raqobatbardosh hunarmandchilik-suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda «..... — turizm»ni rivojlantirish bo`yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish» jumlani to`ldiring?

- a) MICE

- b) Wonderful
- c) LINE
- d) Speed

136. Quyidagilarning qaysi biri elektron bo`lmagan viza?

- a) barcha javoblar to`g`ri
- b) «Student viza»
- c) «Medical viza»
- d) «Vatandosh»

137. Mamlakatimizda turizmni, avvalambor, qaysi sektorda rivojlantirish kerak?

- a) xususiy
- b) jamg`arma
- c) sanoat
- d) davlat

138. So`nggi yillarda mamlakatimizda urbanizatsiya darajasining kuzatilmoqda?

- a) pasaygani
- b) barqarorlashgani
- c) stabillashgani
- d) o`sgani

139. Mamlakatimizda shahar aholi punktlari soni nechtani tashkil etmoqda?

- a) 1071
- b) 1067
- c) 1069
- d) 1065

140. Nimaning hisobiga yirik shaharlar aholisini to`liq va samarali bandligini ta`minlashga ko`maklashish mumkin?

- a) barcha javoblar to`g`ri
- b) iqtisodiy resurslaridan foydalanishni kengaytirish

- c) sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish
- d) aholisining farovonligini ta'minlash

141. Mamlaktimizda qaysi sohalarda aholining daromadlarini oshirish lozim deb hisoblaysiz?

- a) barcha javoblar to'g'ri
- b) xizmat
- c) servis
- d) sanoat

142. Mamlakatimizda urbanizatsiyani rivojlantirish Kontsepsiyasi nechanchi yilgacha mo'ljallangan?

- a) 2035
- b) 2025
- c) 2030
- d) 2021

143. Mamlakatimizda «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi PF-5623-sonli Farmoniga asosan qaysi vazirlik huzurida Urbanizatsiya agentligi tashkil etildi?

- a) Iqtisodiyot va sanoat
- b) Moliya
- c) Adliya
- d) Turizm

144. «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi PF-5623-sonli Farmonida qaysi organ va Agentlik tomonidan aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini takomillashtirish rejalashtirilgan?

- a) Davlat statistika qo'mitasi
- b) Urbanizatsiyani rivojlantirish jamg'armasi

- c) Iqtisodiyot vazirligi
- d) Demografiya vazirligi

145. Mamlakatimizda nima asosida urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish rejalashtirilgan?

- a) yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish
- b) investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash
- c) bozor mexanizmlarini joriy etish
- d) ipotekani kreditlash

146. Yuridik shaxslar — bu?

- a) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari
- b) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari
- c) a va b javoblar
- d) xuquqiy vakolatli kishilar

147. 2018 yilda mamlakatimizda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» davlat dasturi doirasida qancha qiymatga ega bo'lgan nechta loyiha amalga oshirilgan?

- a) 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyiha
- b) 20 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyiha
- c) 21 trillion so'm va 2 milliard dollarga teng 86 mingta loyiha
- d) 20 trillion so'm va 2 milliard dollarga teng 66 mingta loyiha

148. 2018 yilda mamlakatimizda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» davlat dasturi doirasida «Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar doirasida qancha mablag` ajratilgan holda nechta biznes biznes loyihalar amalga oshirildi?

- a) 2 trillion so'mga yaqin mablag` ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi
- b) 3 trillion so'mga yaqin mablag` ajratilib, joylarda 3 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi

- c) 4 trillion so`mga yaqin mablag` ajratilib, joylarda 4 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi
- d) 5 trillion so`mga yaqin mablag` ajratilib, joylarda 5 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

149. 2018 yilda mamlakatimizda soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda necha trillion so`m qo`shimcha mablag` qoldirildi?

- a) 5,5
- b) 4,5
- c) 6,5
- d) 7,5

150. 2018 yilda mamlakatimizda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobini aniqlangan?

- a) qurilish va obodonlashtirish ishlariga **3 trillion** so`m mablag` yo`naltirildi. Natijada **416ta** qishloq yangicha qiyofaga ega bo`ldi.
- b) qurilish va obodonlashtirish ishlariga **3.5 trillion** so`m mablag` yo`naltirildi. Natijada **426ta** qishloq yangicha qiyofaga ega bo`ldi.
- c) qurilish va obodonlashtirish ishlariga **3.5 trillion** so`m mablag` yo`naltirildi. Natijada **406ta** qishloq yangicha qiyofaga ega bo`ldi.
- d) qurilish va obodonlashtirish ishlariga **3 trillion** so`m mablag` yo`naltirildi. Natijada **436ta** qishloq yangicha qiyofaga ega bo`ldi.

151. Mamlakatimizda «yashirin» iqtisodiyotga barham berishning yagona yo`li sifatidajumlanı to`ldiring?

- a) Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish
- b) Xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish
- c) davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish
- d) barcha javoblar to`g`ri

152. «Muvaffaqiyatni – sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa – loqaydlik va dangasalikda ko`rdim», deb berilgan ta'rif qaysi allomaga tegishli?

- a) Najmiddin Kubro
- b) Ahmad Farg`oniy
- c) A.Navoiy
- d) Chigiz Aytmatov

153. Jahon bankining biznes yuritish sohasidagi reytingida mamlakatimizda qaysi sohada jiddiy maummolar borligi ko`rinib qoldi?

- a) Qurilish sohasida
- b) Turizm sohasida
- c) Xizmat ko`rsatish sohasida
- d) barcha javoblar to`g`ri

154. 2018 yil yakunlari bo'yicha mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi necha foizni tashkil qildi?

- a) 35 foizni
- b) 37 foizni
- c) 39 foizni
- d) to`g`ri javob yo`q

154. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda «Markaziy o`rin» nazariyasi asoschisi kim?

- a) V. Kristallyer
- b) I.Tyunen
- c) A.Lyosh
- d) U.Ayzard

155. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha «qishloq xo`jalik standarti» nazariyasi kim tomonidan ilgari surilgan?

- a) I.Tyunen
- b) A.Veber

- c) A.Lyosh
- d) U.Ayzard

156. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha sanoat «shtandortlar» nazariyasi asoschisini aniqlangan.

- a) A.Veber
- b) U.Ayzard
- c) A.Lyosh
- d) I.Tyunen

157. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- a) ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, mintaqa xo'jaligining kompleks rivojlantirish, xududiy mehnat taqsimoti.
- b) Ishlab chiqarish kuchlarini mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra joylashtirishi
- c) Ishchi yo'nalishi, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini eng arzon ishchi kuchi mavjud aholi manzilgohlarida qurishga intilishi
- d) Aholining hududiy joylashishiga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirish migratsion jarayonlarning tartibga solish va boshqarish imkonini berishi

158. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda A.Lyoshning kontseptsiyasi to'g'ri ko'rsatilgan ta'rifni aniqlang.

- a) yangi korxonalarni joylashtirishda yuqori foyda olishni ko'zlagan tadbirkorlar bilanbutun iqtisodiyot manfaatlari o'rtasida kurash ketadi
- b) Ishlab chiqarish kuchlarini mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zaxiralarining miqdori, komponentlar tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra joylashtirish nazarda tutiladi.
- c) monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat chegarasi, xalqaro savdo, texnika taraqqiyoti va boshqa tushunchalar mohiyatini ochib beradi.

159. Iqtisodiy rayonlar bir-biridan ishlab chiqarish sharoitlari bilan farqlanadi. Bunday sharoitlar:

- a) barcha javob to'g'ri
- b) ishlab chiqarish tizimining ixtisoslashuvi va konsentratsiyasi; transport turining shakllanishi;
- c) ishlab chiqarishning tabiiy omillari hamda tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan belgilanadi.
- d) iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari

160. Iqtisodiy rayonlashtirishni asoslanishini aniqlang.

- a) hududiy mehnat taqsimotiga asoslanadi
- b) ishlab chiqarish tizimining ixtisoslashuvi va konsentratsiyasi; transport turining shakllanishiga asoslanadi;
- c) ishlab chiqarishning tabiiy omillari hamda tabiiy-tarixiy xususiyatlariga asoslanadi;
- d) iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlariga asoslanadi;

161. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni ularning ta'sir darajasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'lish mumkin.

- a) tabiiy omillar; ijtimoiy-iqtisodiy omillar; ijtimoiy - demografik omillar; ijtimoiy-ekologik omillar.
- b) tabiiy omillar; ijtimoiy-iqtisodiy omillar; ijtimoiy - demografik omillar; ijtimoiy-tarixiy omillar.
- c) ishlab chiqarishning tabiiy omillari; tabiiy-tarixiy xususiyatlari; mehnat resurslarining shakllanish omillari;
- d) iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari;

162. Mamlakatimizda dastlabki erkin industrial-iqtisodiy zona qaysi viloyatda tashkil etilgan.

- a) Navoiy viloyatida

- b) Toshkent viloyatida
- c) Andijon viloyatida
- d) Samarqand viloyatida

163. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali hududlar ijimoiy iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda jahon hamjamiyatidan tomonidan keng e'tirof etiladigan tajriba qaysi davlatga tegishli

- a) Xitoy
- b) Turkiya
- c) Singapur
- d) Daniya

164. Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tumanlarini aniqlang.

- a) Nurota, Kattaqo'rg'on, Qo'shrabot, Qiziriq, Muzrabot, Boyovut, Sardoba
- b) Nukus, Shumanay, Uchqo'rg'on, Payariq, Qushrobod, Qiziltepa
- c) Qiziriq, Muzrabot, Boyovut, Sardoba, Mingbuloq, Pop
- d) Yozyovon, Quva, Romiton, Qorako'l, Olot, Forish

165. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda aglomeratsiya tushunchasini ta'riflab bering.

- a) mulkdorlar o'z korxonalarini boshqa sanoat korxonalari to'plangan hududlarda ko'rishga harakat qiladilar va bu bilan transport yo'llari, energetika xo'jaligi, kommunal xo'jaligi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasi tizimi) barpo qilishga bo'lgan xarajatlarini qisqartirishga harakat qilishi.
- b) Ishchi yo'nalishi, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini eng arzon ishchi kuchi mavjud aholi manzilgohlarida qurishga intilishi
- c) Transport yo'nalishi, ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini transport xarajatlari eng kam bo'lgan aholi manzilgohlarida ko'rishga intilishi
- d) ishlab chiqarish tizimini tobora transport-geografik o'ringa va xomashyoga bog'liqligining qisqarib borishi

166. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning quyidagi ayrim asosiy tamoyillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- a) barcha javoblar to'g'ri.
- b) yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmualiy foydalanish tizimini barpo qilish;
- c) mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrofmuhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish
- d) ishlab chiqarish tizimlarini xomashyo manbalari, yoqilg'i va energiya resurslarini iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish

167. Kichik sanoat zonasidagi tadbirkorlik subyekti agar ishlab chiqarilgan mahsulotning eksport ulushi realizatsiyaning umumiy hajmida kamidatashkil qilsa, soliq imtiyozlarning amal qilish muddati yana ikki yilga uzaytiriladi. Jumlani to'ldiring?

- a) 30 foizni
- b) 40 foizni
- c) 50 foizni
- d) 80 foizni

168. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PQ-2973-sonli qaroriga asosan Kichik sanoat zonalarida belgilangan imtiyozlardan foydalanish shartlari amal qilishiga asos bo'lgan to'g'ri javobni ko'rsating.

- a) KSZ ishtirokchilari tomonidan eng kam ish haqining 3000 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritilishi;
- b) KSZ ishtirokchilari tomonidan eng kam ish haqining 2000 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritilishi;
- c) KSZ ishtirokchilari tomonidan eng kam ish haqining 1500 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda investitsiya kiritilishi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

169. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 maydagi PQ-2973-sonli qaroriga asosan Kichik sanoat zonalarida (KSZ) belgilangan imtiyozlardan foydalanish shartlari amal qilinmasligiga asos bo`lgan to`g`ri javobni ko`rsating

- a) KSZ ishtirokchisining yillik sof tushumi eng kam ish haqining 2000 baravaridan kam bo`lsa;
- b) KSZ ishtirokchisining yillik sof tushumi eng kam ish haqining 3000 baravaridan kam bo`lsa;
- c) KSZ ishtirokchisining yillik sof tushumi eng kam ish haqining 4000 baravaridan kam bo`lsa;
- d) to`g`ri javob yo`q.

170. Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma`noda . . . bo`lishi shart. tushirib qoldirilgan so`zlarni toping.

- a) Xalq
- b) Oliy majlis
- c) Prezident
- d) Deputat

171. Davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash uchun O`zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo`yicha . . . kerak. Tushirib qoldirilgan so`zlarni toping.

- a) kuchli raqobat muhiti
- b) ijtimoiy siyosat
- c) kuchli tadbirkorlik
- d) b va s javoblar

172. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga bugungi kungacha qancha fuqaro murojaat qildi?

- a) 1,5 mln.dan ziyod

- b) 2 mln.dan ziyod
- c) 2,5 mln.dan ziyod
- d) 3 mln.dan ziyod

173. 2018 yilda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o`sinh sur'atlari necha foizni tashkil etdi?

- a) 5,2 foiz
- b) 5,1 foiz
- c) 5,5foiz
- d) 5,3 foiz

GLOSSARIY

Aholini joylashtirish tizimi - mavjud aholi punktlarini rivojlantirish hamda yangi aholi punktlarini barpo etish yo`li bilan aholini tegishli hududga tartibga solib boriladigan tarzda joylashtirishning shaharsozlik hujjatlari bilan belgilanadigan asosiy yo`nalishlari.

Aholi punktining bosh rejasi - yashash va faoliyat muhitini shakllantirishning kompleks sharoitlarini, aholi punktlari hududiy rivojlanishining asosiy yo`nalishlarini belgilaydigan shaharsozlik hujjati.

Aholi punktlariaro hududlar - aholi punktlari chegarasidan tashqaridagi ikki va undan ortiq aholi punkti o`rtasidagi hududlar.

Aholi punkti - O`zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan nomi, maqomi va chegaralari belgilangan O`zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining tarkibiy qismi bo`lib, asosan muqum holatda yashaydigan aholiga ega hudud;

Aglomeratsiya - katta miqdordagi aholi istiqomat qiluvchi yirik hududlarni kompleks ravishda o`zlashtirilishi.

Aglomeratsiya - (lot. agglomerare-birlashtirmoq, to`plamoq) - yaqin hududdagi shaharlarning o`zaro "tortilishi", hudud aholisining mehnat va turmush jarayonlaridagi aloqadorligining ortishi hisobidan vujudga kelgan hodisadir.

Aglomeratsiya - bu aholi manzilgohlari, asosan shaharlar, shuningdek qishloqlarning intensiv ho`jalik, mehnat va madaniy-maishiy hamda rekreatsion aloqalar bilan bog`lanib, yagona birlikni tashkil qilgan kompakt hududli guruhidir.

Aglomeratsiya samaradorligi - mujassamlashuv (kontsentratsiya) samaradorligi bo`lib, korxonalarning kooperatsiya va ixtisoslashuv («xilma-xillik», yoki sifat iqtisodi) dir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish - davlat tomonidan yashash uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltilgan kafolatlar tizimidir.

Assotsiatsiya - Tijorat tashkilotlari o`rtasida ular faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy mulkiy manfaatlarni ifodalash va himoya

qilish maqsadida tashkil etiladigan birlashma tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir.

Aktiv bandlik siyosati - bu davlat tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida olib boriladigan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar yig`indisidir.

Bino - funktsional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo`lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo`ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to`sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruktsiyalardan iborat qurilish tizimi.

Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg`ul bo`lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funktsiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog`langan turli boshqaruv organlari va boo`g`inlarining majmui.

Brand strategiya-xo`jalik yurituvchi subyekt obro`si (imiji)ni bozorda uni brendini ilgari siljitish asosida majmuaviy ishlab chiqish.

Byudjet chegarasi-»umumiy vaqt-daromad» koordinatalariga ega bulgan to`qri chiziq bo`lib, uning yotiqlik burchagi ish haqini ifodalaydi.

Byudjet chizig`i - byudjetni to`liq sarflash sharti bilan iste`molchi sotib oladigan tovarlar kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

Bandlik siyosati - jamiyat va uning har bir a`zosining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta`sir etuvchi chora tadbirlar yig`indisidir.

Globallashish (fr. global-umumiy, lot. Glob-qadam) - butun yer sharini qamrab oluvchi va innovatsiyalar tomonidan pul sarmoyasi aloqalarini mustahkamlash maqsadida jahon bozorida faol harakat qiluvchi yangi aqliy-axborot texnologiyalaridan tashkil topgan universal jarayondir.

Geosiyosiy muvozanat - ma`lum bir hududdagi mavjud siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish.

Giperinflyatsiya - tovarlar bahosi va pul massasining yuqori sur'atlarda oshib ketishi. Giperinflyatsiyada baholarning oylik o'sish sur'ati 50foizni va undan yuqori bo'ladi.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor - jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishga asoslangan munosabatlar.

Diversifikatsiya - ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirish.

Defitsit - byudjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Davlat byudjeti - davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Demografik omillar - ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlardir.

Davlat krediti - davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Denonsatsiya - shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Devalvatsiya- milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi.

Demarkatsiya (fran. Chegaralarni o'rnatish) - u yoki bu mulohazaning ilmiy yoki noilmiylikini aniqlash mezon.

Denominatsiya-yangi pul birligini ma'lum nisbatda eski pul birligiga almashtirilishi. O'zbekistonda milliy valyuta 1994 yilning 1 iyo'lidan boshlab muomalaga kiritilganda yangi valyuta so'm eski valyuta-so'm - kuponga 1ga 1000 nisbatda almashtirilgan edi.

Denonsatsiya (fr. Denouncer-bekor qilmoq)-xalqaro shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi. Denonsatsiya shartnomaning o'ziga muvofiq yoki

xalqaro huquqning boshqa normalariga ko`ra amalga oshiriladi. Denonsatsiya shartnomaning buzilishi hisoblanmaydi, balki shartnomaning huquqiy bekor qilinishi hisoblanadi.

Deflyatsiya - tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishi.

Davlat-xususiy sheriklik - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo`lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

Diskont siyosati - mamlakat to`lov balansi va valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida Markaziy bankning diskont stavkasini o`zgartirish siyosati.

Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (ETTB) bosh bo`limi Londonda joylashgan bo`lib, 1990 yil 29 maydagi kelishuvga asosan Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarini bozor iqtisodiyotiga o`tish bo`yicha islohotlarini qo`llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro moliyaviy tashkilot.

Yollanib ishlaydiganlar - bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to`g`risidagi tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og`zaki bitim bo`yicha ishlaydigan shaxslar bo`lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish xaqini oladilar.

Jahon banki guruhi - Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan moliya instituti hisoblanib, asosiy maqsadi ishlab chiqarish kapital qo`yilmalari uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro uzoq muddatli investitsiyalar oqimini rag`batlantirishdan iborat.

Jamg`arma sertifikatlari-bank tomonidan chiqariladigan va uning egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish huquqini beruvchi qimmatli qog`oz hisoblanadi.

Zonalashtirish - hududni rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan

foydalanishdagi cheklashlarni belgilab olgan holda uning funktsional maqsadga ko`ra bo`linishi.

Ixtisoslashuv - ishlab chiqarish jarayonini ajratadi, yakkalaydi, kooperatsiya esa uni umumiyashtiradi, kombinatlashuv birlashtiradi.

Inshoot - har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarini saqlashga, odamlarning vaqtincha bo`lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o`tishga mo`ljallangan, tayanch, to`sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruktsiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziqli tarzidagi qurilish tizimi;

Ishlab chiqarish kuchlari - ishlab chiqarish vositalari (asbob-uskunalar, xom-ashyo va h.k.) sanoat va qishloq xo`jaligi hamda mehnat resurslaridir.

Ishlab chiqarishning to`planishi - ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to`planishi.

Ishchi kuchi talabi - muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.

Iqtisodiy rivojlanish - ko`p qirrali jarayon bo`lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida o`z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o`sishning ko`rsatkichlari - iqtisodiy o`sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko`rsatkichlar tizimidan iborat.

Iqtisodiy jamg`arish - milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko`paytirish uchun sarflanib borishi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Iqtisodiy o`sish omillari - iqtisodiy o`sishga ta'sir ko`rsatishda o`z o`rniga ega bo`lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

Intensiv iqtisodiy o`sinh - ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko`payib borishi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish - bu xo`jalik hayotining barcha sohalaridagi to`siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo`naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash - ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma`naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o`z ichiga oluvchi jarayon.

Ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashtirish - bu mahsulot tayyorlash, ish bajarish yoki xizmat ko`rsatishni eng yirik korxonalarda to`plash jarayonidir.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish - jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi.

Islohotlar kontseptsiyasi - ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo`nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo`llarining umumiy g`oyasi.

Ijtimoiy siyosat - davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o`rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo`naltirilgan siyosat.

Ijtimoiylashuv - shaxsning muomala yordamida mazkur jamoaga, guruhga, jamiyatga xos bo`lgan normalarni, qadriyatlarni, yo`l-yo`riqlarni o`zlashtirish asosida uning shakllanish jarayoni.

Iqtisodiy o`sinh mezoni - iqtisodiy o`sinhni nisbatan to`liq darajada baholash imkonini beradigan ko`rsatkichni xarakterlaydi.

Iste'molga keyingi qo`shilgan moyillik - daromad hajmining o`zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o`zgarishi darajasi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish - insonning mehnatga bo`lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy

darajasi o`lishini ta'minlash, qarigan ishchilar o`rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini etishtirish jarayoni.

Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish-mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini muayyan hududga joylashtirishdir.

Iqtisodiy rayonlar -mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosatning obyekti hisoblanadi.

Iqtisodiy rayon – bu tabiiy resurslar, iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining mehnat qobiliyatiga ega bo`lgan, ushbu tarkibiy qismlarni eng foydali tarzda hududiy-ishlab chiqarish kombinatlari shaklida birlashtirgan davlat hududining bir qismi.

Imitatsiya -(lot. imitatio)-kingadir, nimagadir taqlid qilmoq, qayta ishlab chiqarish.

Immigratsiya - xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko`chib kelishi.

Insayder - kompaniya faoliyati bilan bevosita bog`liq bo`lgan kompaniya haqida tijorat axborotiga ega bo`lgan kompaniya xodimi.

Institutsional investorlar - turli xil moliyaviy, jamoaviy, davlat tashkilotlari bo`lib, korporatsiya faoliyatini amalga oshirishda o`z mablag`larini safarbar qiluvchi shaxslar.

Iqtisodiy xavfsizlik - iqtisodiy kategoriya bo`lib, iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o`lish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi.

Innovatsion tarmoq - bu afzal qilingan sheriklar bilan tanlangan va aniq aloqalar asosida shakllangan, korxonaning bozor munosabatlari va uning qo`shimcha manbalarini izlash istiqboliga to`g`ri keladigan asosiy maqsadi noaniqlikni kamaytirishdir.

Innovatsion salohiyat – bu mintaqaning yangi bilimlar, g'oyalar ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni kashf etish va ularni amalga oshirish yo'llarini topish qobiliyatidir.

Ijtimoiy investitsiyalar - inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

Kooperatsiya - pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligidir.

Konglomerat - Turli strukturalarni birgalikda qo'shib olib borilishini anglatadi. Bunday strukturani yirik korporatsiyalarda, ya'ni chiziqli, funktsional, dasturli maqsadli strukturalarning birgalikda amal qilishida ko'rish mumkin.

Konversiya - korxonaning umuman boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi.

Konsern - turli tarmoqlardagi mustaqil korxonalarning ishtirok etish tizimi, qo'shma tadqiqotlar, patent-lisenziya kelishuvlari, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi vositasida birlashuvi.

Kombinatsiya yoki kombinatlash - kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan, ammo bu erda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyliigi, texnologik va tashkiliy birligidir.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish - ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.

Korxona ixtisoslashuvi - ularda mukammalroq texnika va texnologiya, mehnatni tashkil etishning ilg'or usullarini qo'llashni engillashtiruvchi turdosh mahsulot ishlab chiqarishni mujassamlashtirish jarayonidir.

Kooperativlashtirish - bu ma'lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo'yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biri.

Kommunikatsiya - kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashuv jarayoni.

Kapitalning to'planishi - qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.

Kurno muvozanati - duopolik bozorda xar bir firma mustaqil ravishda shunday optimal ishlab chiqarish xajmini tanlaydiki ushbu mahsulot xajmi ikkinchi firmani qanoatlantiradi. Kurno muvozanati firmalarning aks ta'sir qiluvchi funktsiyalari grafiklarining kesishish nuqtasida vujudga keladi.

Kartel - narxlarni qat'iylashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash yo'li bilan foydani hamkorlikda ko'paytiradigan ishlab chiqaruvchi guruhlar.

Konsortsium- bir necha banklar va kompaniyalarning yirik moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish uchun tuzilgan monopolistik birlashma.

Korporativ boshqaruv - bu biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashtirishini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir.

Korporatsiya (lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil subyektini – huquqiy shaxsni

Kontsern - Manfaatlar umumiyligi, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi bilan bog'langan, yagona mulkchilik negizi va nazorat organiga ega bo'lgan korxonalar birlashmasi. Nazorat nizom kapitalida ishtirok etish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Kon'yunktura - bu bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kooperatsiya aloqalari - turli soxa ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Korxonalarga preferentsiya berish - milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xom-ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalar olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Kapital investitsiyalar - asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shu jumladan yangi qurilishga, moderniza-tsiyalashga, rekonstruktsiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlan-tirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi.

“Korrupsiya”- lotincha (corruptio) soʻzidan olingan boʻlib, buzilish degan maʼnoni anglatadi. korrupsiya - xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning koʻrinishidir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish - korrupsiyaga oid holatlarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek korrupsion jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish.

Mintaqaviy iqtisodiyot - fan sifatida-ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yoʻnalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni oʻrganadi.

Mintaqa - mamlakat yagona halq xoʻjaligi majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va oʻzaro munosabati tufayli hosil boʻlgan yaxlit birlikdir.

Mintaqa - alohida chegaralangan hududlardan farq qiluvchi alohida jismoniy va madaniy xususiyatlarga ega boʻlgan bir hil hududdir; milliy hududning ajralmas qismi boʻlib, u bilan chambarchas bogʻliqdir; oʻz urf-odatları va qadriyatlari tizimidan, shuningdek, shaxsiy xususiyatlaridan xabardor.

Mintaqa – bu mintaqa hududida yashaydigan va oʻziga xos xarakteri va turmush tarzi bilan maʼlum tarixiy va madaniy jamoani shakllantiradigan odamlardir. Ular qandaydir muammolarni qanday hal qilish kerakligi toʻgʻrisida oʻz fikrlariga ega, ular har kuni bir daraja yoki boshqa konservatizm bilan hal

qilishadi. Mintaqa boshqa hududlardan qaysidir ma'noda farq qiladigan va uning tarkibiy elementlarining yaxlitligiga, o'zaro bog'liqligiga ega bo'lgan hududdir.

Mintaqaviy (hududiy) klaster – bu o'xshash tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradigan va bitta hududda joylashgan (bir-biriga jug'rofiy G` hududiy yaqinlikda joylashgan) kompaniyalar guruhiga tegishli klaster.

Mintaqaviy iqtisodiyotning vazifasi - milliy iqtisodiyotning hududiy muammolarini o'rganish va ushbu muammolarni hal qilish yo'llari va mexanizmlarini aniqlashdir.

Mintaqaviy iqtisodiyotning obyekti - mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining hududiy jihatlari, mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy quyi tizimlarining faoliyati hisoblanadi.

Moddiy-buyumlashgan boylik - milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi.

Mineral xomashyo - yer qaridan qazib olingan, halq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar.

Mineral resurslar - muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar.

Martaba - bu, haqiqatdan egallanadigan bosqichlar (lavozimlar, ish o'rinlari va jamoadagi mavqelar) izchilligidir.

